TA’LIMDA YANGICHA YONDASHUV–

INNOVATSIYA SARI QO‘YILGAN QADAM

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO‘PLAMI

TA’LIMDA YANGICHA YONDASHUV – INNOVATSIYA SARI QO‘YILGAN QADAM

НОВЫЙ ПОДХОД В ОБРАЗОВАНИИ – ШАГ К ИННОВАЦИЯМ

NEW APPROACHES IN EDUCATION – A STEP TOWARDS INNOVATION

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami

Qo‘qon – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabridagi PF-5847- sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi hamda 2023-yil 11-sentabridagi PF-158- sonli “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risidagi Farmonlarida belgilangan oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdek ustuvor vazifalarni amalga oshirishga hissa qo‘shish maqsadida Qo‘qon universiteti hamda Toshkent Xalqaro universiteti bilan hamkorlikda 2024-yil 11-oktabr kunlari **“Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi va quyida ushbu konferensiyaning materiallar to‘plami e’lon qilinmoqda.

MAS’UL MUHARRIR
Zaxidov G‘ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY’ATI
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;
Qobilova Zeboxon Bakirovna – filologiya fanlari doktori, professor;
Maxmudov Nosir Maxmudovish – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Tuychiyev Galibjon Urmonjonovich – tibbiyot fanlari nomzodi dotsent;
Kambarov Jamoliddin Hikmatillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Qo‘chqarova Feruza Maxammatqosimovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor;
G‘aniyeva Muborak Adilovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Axmedov Botirjon Ravshanovich – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Najmiddinov Muhammadjon G‘ayratjon o‘g‘li – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Muxammedov Iqboljon Ilxam o‘g‘li– biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Jalilov Marufjon Jumanazarovich – kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b. dotsent;
Kaxarov Shukrullo Sa'dullo o‘g‘li – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori;

NASHRGA TAYYORLOVCHILAR
Umarov Tohirjon Mamurovich – Qo‘qon universiteti, Ilmiy tadqiqotlar departamenti mutaxassisi
Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o‘g‘li – Qo‘qon universiteti, Ilmiy tadqiqotlar departamenti mutaxassisi

“Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Qo‘qon universiteti, 2024 yil 11 oktabr, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2024.

© Matn. Mualliflar, 2024.
© Qo‘qon universiteti, 2024.
© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2024.

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI, QADRLI MEHMONLAR!

Shiddat bilan o‘zgarayotgan zamonda jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda olimlarning ilg‘or fikr-qarashlari va g‘oyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yangi ijtimoiy talablar bilan a’nanaviy me’yorlarnning mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan majmuali muommalarni yechishiga qaratilgan faoliyatga – innovatsoin faoliyatga katta ehtiyoj seziladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini mustahkamlashga, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”, degan fikrlari bugun biz uchun dasturilamalga aylandi. Bu yo‘lda salmoqli yutuqlarga ham erishildi. Oliy ta’lim muassasalari respublikamiz innovatsion salohiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish texnologiyalarini yoki strategiyalarni yaratish va joriy etishda yetakchilik qilishga intilmoqdalar. Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda ta’lim tizimi muntazam va uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Ma’lumki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarimizning o‘rni va roli ortib borayotganligi ayniqsa e’tiborlidir.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishi lozim. Zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deb bejiz aytmagan. Uchinchi Renessansga erishish yo‘lida xotin-qizlarni yana-da bilimli, ma’rifatli qilish eng asosiy vazifalardan biridir. Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta’lim, xususan, oliy ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida xotin-qizlar bu yo‘nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. So‘nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o‘z sohalari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. Birgina 2023-yilning o‘zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgan. Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliygohlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda. Ma’rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi. Ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadrini ko‘taradigan farzandlarni tarbiyalashdek ulug‘ vazifa yuklangan. Shu nuqtai nazardan bugun o‘tkazilayotgan **“Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam”** mavzusidagi ilmiy -amaliy konferensiyaning asosiy ishtirokchilari Respublikamiz oliy ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan olimalarimiz ekanligi bizni quvontiradi. Konferensiyaning xotin-qizlarning dolzarb muammolarga oid ilmiy izlanishlari, amaliyotda erishilgan yutuqlari va belgilangan vazifalarni bajarish mexanizmlarini muhokama qilish maqsadida tashkil qilinganligi diqqatga sazovor.

Fursatdan foydalanib, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman! Jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan siz aziz opa-singillarimizga esa mustahkam salomatlik, oilaviy baxt, kelgusi ish faoliyatingizda ulkan zafarlar yor bo‘lsin!

Qo‘qon universiteti direktori G‘. Zaxidov

I SHO‘BA

SHAXS, INSON VA JAMIYAT

OLIY TA`LIM MUASSASALARIDA XOTIN-QIZLAR MASALALARI BO‘YICHA MASLAHAT KENGASHLARI FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI ROLINI OSHIRISH MASALALARI

Axunova Gulchexra Nazarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori,
O‘zbekiston-AQSH do‘stlik jamiyati raisi,
O‘zbekiston xotin-qizlar “Olima” uyushmasi a’zosi

Annotatsiya: Mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan munosabat, ajdodlarimizning ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga da’vat etivchi fikrlari, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratilayotganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ayol, ma`naviyat, gender tengligi, mehr, muruvvat, mehnatkashlik, islohotlar.

Har bir davrning o‘z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ularni shakllantirish va rivojlantirish, ularga alohida ma’no-mazmun bag‘ishlash, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beruvchi o‘lkan tarixiy voqealar bo‘ladi.

Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga da’vat etishgan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-87-sonli [1] hamda 2023 yil 21 dekabrdagi ‘Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-208-sonli [2] Farmonlarining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmonlar bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sosial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarga ta’lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan, sirtqi va kechki ta’lim shaklida o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta’lim kreditlarini moliyalashtirish amalga oshirildi. Oliy ta’limda o‘qiyotgan talabalar sonida xotin-qizlar ulushi ko‘paydi. Qizlarga o‘qishga kirish uchun turli imtiyozlar berildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, respublikadagi jami OTMda tahsil olayotgan talabalar sonidan 1 mln 312 ming talabaning 650 ming nafari erkaklar, 662 ming nafari esa xotin-qizlardir. Magistraturada tahsil olayotgan 24 ming talabaning 60 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Xotin-qizlar uchun o‘qishga kirishdagi asosiy imkoniyatlardan biri – ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga ajratiluvchi umumiy kvotaning 4 foizi miqdoridagi (2 mingta o‘rin) grant hisoblanadi. Unga talabgorlar ham tavsiyanomani Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasidan oladi.

Tavsiyanomani kam ta’minlangan, to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, nogironligi bo‘lgan ota-onaning farzandlari kabi bir qator toifalarga mansub xotin-qizlar olishi mumkin va ular alohida tanlov doirasida kirish imtihonlarida qatnashadi, eng yuqori ball olgan 2 ming xotin-qiz tavsiyanoma asosida grantga o‘qishga qabul qilinadi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan 5 yillik stajga ega, oliy ma’lumotli bo‘lmagan xotin-qizlarga tavsiyanomalar beriladi. Biroq tavsiyanomaning o‘zi o‘qishga kirishni kafolatlamaydi. Uni olgan xotin-qizlar ham hamma abituriyentlar kabi imtihon topshiradi, faqat ularning balli alohida kvota doirasida hisoblanadi. Eng yuqori ball to‘plagan 500 abituriyent esa talabalikka to‘lov-kontrakt asosida qabul qilinadi.

Mamlakatimizda faqat qizlar uchun quyidagi imtiyozlar berilgan:

Zulfiya mukofoti**:** umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo‘lgan o‘quvchilari OTMlar bakalavriatiga, bakalavriat talabalari bo‘lgan laureatlar esa magistraturaga tegishli yo‘nalish va ixtisoslik bo‘yicha sinovlarsiz qo‘shimcha davlat granti asosida qabul qilinadi.

"Hamshira" ko‘rik-tanlovi: bu tanlov g‘oliblari davlat komissiyasi qarori bilan tegishli OTMlar mos yo‘nalishiga tanlovdan tashqari kirish imtihonisiz qo‘shimcha grant asosida qabul qilinadi.

"To‘maris izdoshlari" jamoaviy guruhlari a’zolari uchun imtiyoz: ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo‘yicha bo‘linmalari huzurida shakllantiriladigan bu bo‘limning a’zolari bir yil davomida o‘qish va ish jarayoniga salbiy ta’sir etmagan holda umumiy 360 soat vaqt mobaynida faoliyat olib boradi.

Ular Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig‘ining tavsiyanomasiga asosan huquq-tartibot organlarining oliy ta’lim muassasalariga saralashning barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tganidan so‘ng yakka tartibdagi suhbatsiz (test sinovlarisiz) kvota asosida o‘qishga kirishi mumkin.

Magistratura bosqichiga kirgan barcha xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt puli davlat tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun ular belgilangan sanadan kechiktirmay rektor nomiga ariza yozishlarining o‘zi yetarli.

Shu o‘quv yilidan boshlab kollej va texnikumlarda qurilish, transport, kommunal, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi kasb (mutaxassislik)lar bo‘yicha o‘qishga kiradigan xotin-qizlar to‘liq grant asosida qabul qilinadigan bo‘ldi.

Prezidentlik saylovlaridan oldin Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlar ta’limi uchun yangi soliq imtiyozi joriy etilishini ma’lum qilgandi. Unga ko‘ra, oliygohda o‘qiyotgan xotin-qizlar uchun, kim to‘lashidan qat’i nazar, kontrakt to‘lovi daromad solig‘idan ozod qilinadi.

Ta’limda imtiyozlar bo‘lishiga qaramay mehnat bozorida erkaklar va ayol xodimlarning topayotgan daromadlarida farq kattaligicha saqlanib qolmoqda.

Global miqyosida ayollarning maoshi erkaklar ish haqining o‘rtacha 80 foizini tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa bu farq yanada katta: ayollar erkaklar ish haqining 61 foizi miqdorida maosh oladi. O‘zbekistonda ish bilan band bo‘lgan ayollar va erkaklar o‘rtacha ish haqidagi gender tafovutini bartaraf etish 700 mingdan ortiq odamni qashshoqlikdan chiqarishga yordam beradi.

Ushbu Farmonlarning qabul qilishdan asosiy maqsad xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash, salohiyatini to‘la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ayollari davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning oiladagi mavqei mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta’minlash, intellektual va ma’naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilyapti.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning jamiyatdagi rolini yanada oshirish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Oliy ta`lim muassalarida Xotin-qizlar bo‘yicha maslahat Kengashi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat Kengashlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi”gi 2023 yil 17 iyuldagi 311-sonli buyrug‘ida tasdiqlangan “Nizomi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi kambag‘alchilikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila va Gender” ilmiy tadqiqot instituti, Respublika ”Oqila ayollar” harakati, tegishli vazirliklarning buyruq va qarorlari, yuqori tashkilotlar tomonidan chiqarilgan normativ hujjatlar bilan ish olib bormoqda va amalga oshirilgan ishlar muntazam ravishda yig‘ilishlarda ko‘rib chiqib kelinmoqda.

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasida [3] xam xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlashni amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat Kengashlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish xotin-qizlar o‘rtasidagi muammolarni hal qilishda amaliy yordam beradi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat Kengashlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi”gi 2023 yil 17 iyuldagi 311-sonli buyrug‘ida bevosita xotin-qizlar maslahat

kengashining aniq maqsadi, vazifalari va funksiyalari aniq ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, uning eng asosiy funksiyalaridan biri sifatida “Xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan va nogironligi bor xotin-qizlarning va ayollarning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish, reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash ishlariga ko‘maklashish masalalari kiritilgan. “Ta’lim tizimida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash” loyihasi doirasida ro‘yxat shakllantirilishi lozim.

Kengash doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish va chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Xotin-qizlarning mehnat jamoalarida, davlat va jamoat boshqaruvi sohasidagi rolini kuchaytirish, ulami ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi maqsadli ishlarni tashkil etishga ko‘maklashish va ularning fikrlarini tizimli monitoring qilish, turli ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish;
- xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish, reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash ishlariga ko‘maklashish va seminar-treninglar tashkil etish;
- xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini monitoring qilish, zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni aniqlash, ulami reabilitatsiya qilish, huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlab chiqish, ularga amaliy yordam berish;
- xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasida hududiy dasturlami ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;
- talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirish, ular o‘rtasida ijtimoiy foydali mehnat turi bilan shug‘ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo‘lgan xotin-qizlarning hayot faoliyatlari va turmush tarzlarini keng targ‘ib qilish;
- xotin-qizlar o‘rtasida turli ko‘rik-tanlovlar va sport musobaqalarini o‘tkazish, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti va “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tanlashda qonuniylik, ijtimoiy adolat, shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Ta’lim muassasalaridagi iqtidorli qizlarni ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, ular tomonidan yaratilgan intellektual loyihalarni targ‘ib etish ishlariga ko‘maklashish, o‘quvchilarni bilim olishga, kitob mutolaa qilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish, muomala va nutq madaniyatini shakllantirish, shuningdek, ta’lim muassasalaridagi davomat bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etilishida – Tengdosh tengdoshga o‘rnak shiori ostida namunali o‘quvchilar faoliyatini targ‘ib qilish yosh qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta`kidlaymizki, Oliy ta`lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida turli seminar-treninglar o‘tkazish xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, tizimdagi muammolarni o‘rganib, uni xal qilishga amaliy yordam beradi:

№	Mavzular
1	Oliy ta`lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari faoliyatini tashkil etish va uni samaradorligini oshirish masalalari
2	Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlashga doir islohotlar
3	Xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash mexanizmlari yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar bilan ishlash masalalari
4	Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi xotin-qizlarni jamiyatda himoya qilish masalalari va bu borada qonunchilik hujjatlari
5	Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirish, ular o‘rtasida ijtimoiy foydali mehnat turi bilan shug‘ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo‘lgan xotin-qizlarning hayot faoliyati va turmush tarzlarini keng targ‘ib qilish
6	Xotin-qizlar bilan ishlashda vujudga kelgan muammolar va psixologik yondashuvlar
7	Oliy ta`lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashi a`zolarining muomila va xulq-atvor madaniyati
8	Talaba-qizlarni ish bilan ta`minlash va tadbirkorlikka yo`naltirish masalalari

Foydalanilgan internet resurslari

1. https://lex.uz/docs/-5899498
2. https://lex.uz/docs/-6704824
3. https://lex.uz/docs/6600413#-6605160

ЎРТА ОСИЁ МУТАФФАКИРЛАРИ АСАРЛАРИДА БАҒРИКЕНГЛИК ҒОЯСИНИНГ ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ МАСАЛАСИГА ДОИР

Раҳбархон Ҳамидовна Муртазаева
Ўзбекистон Миллий университети, Тарих факультети Ўзбекистоннинг энг янги тарихи кафедраси профессори, тарих фанлари доктори
Ўзбекистон хотин-қизлар “Olima” уюшмаси раиси

Шарқ мамлакатлари.... Шарқ фалсафаси... Жаҳон цивилизациясининг бугунги тараққиётига тамал тошини қўйган Буюк Шарқ юзлаб, минглаб даҳоларни етиштиргани ҳеч кимга сир эмас. Ўрта асрлар Ўрта Осиёда яшаб, ижод этган аждодларимизнинг бой илмий мероси маълумки, асрлар оша бутун инсоният учун зиё чашмаси бўлиб хизмат қилган ва қилмоқда.

Бағрикенгликнинг тарихий илдизлари шуни кўрсатадики, Шарқ халқларига хос бағрикенглик анъаналари қадимги даврлардан бошлаб ҳозирги кунга қадар давом этмоқда. Ўрта асрларда яшаган аллома Абу Наср Форобий ўзининг “Фозил одамлар шаҳри” асарида шундай ёзади: “Инсонлари ҳақиқий саодатга эришиш йўлида бир-бирига ёрдам бериш учун бирлашган шаҳар фозил шаҳардир, ва саодатга эришиш максадида бир-бирига ёрдам берувчи инсонлар жамоаси, фозил жамоадир. Барча шаҳарлари саодатли бўлиш йўлида бир биридан ёрдамини аямагувчи халқ, миллат фозил халқ фазилатли миллатдир”.[1, Б.12]

Ўзбек халқининг бағрикенглиги ва саҳоватпешалиги, мехмондўстлиги ва меҳр-мурувватлиги унинг азалий фазилатларидан ҳисобланиб, асрлар давомида шаклланиб ва ривожланиб келган. Бундай фазилатлар халқимизнинг тарихни энг кийин синовларидан ҳам матонат билан ўтишда муҳим аҳамиятга эга бўлган.

Халқимиздаги бағрикенглик фазилатларининг тарихий асосларини тадқиқ этишдан олдин “бағрикенглик” жумласининг луғавий маъносига эътибор берадиган бўлсак, бу сўз тарихий фалсафий, сиёсий, маданий этник ва психологик маъноларни беради. Аксарият ҳолларда фанда “бағрикенглик” жумласи “толерантлик” сўзининг синоними сифатида ишлатилади ҳамда турли тилларда ўзаги сақланган ҳолда турлича талқин этилади.

Толерантлик дунёнинг турли халқлари ва элатлари, ижтимоий гуруҳлари ўртасидаги ўзаро муносабат, бир-бирини тушуниш ва англаш, бир- бирини ижтимоий-иқтисодий, моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш ҳамда бошқа миллий маданий ёки ижтимоий ҳолатдаги гуруҳлар билан ўзаро ҳаракатини англатади. Шунингдек, бағрикенглик кўп қиррали ва кенг қамровли тушунча бўлиб, кишиларнинг бир-бирига ҳурмат-иззати ва эътиборида, меҳр-шафқати ва диёнатида, бир-бирларига ўзаро кўмаклашувида, яқинлар ҳамда қўшнилар қайғусига ҳамдард бўлиши ва инсонпарварликда ҳам ўз аксини топади.

Марказий Осиё тарихида сиёсий ақл-идрок билан маънавий жасоратни, диний дунёқараш билан қомусий билимдонликни ўзида мужассам этган буюк арбоблар кўп бўлган.

Шарқ мутафаккирлари яратган бой маънавий мерос барча даврлар учун муҳим манба бўлиб ҳисобланади. Бу мерос аждодларимизнинг қатъиятлик қудратли асосга эгалигини кўрсатиш билан биргаликда, авлодлар учун ўрнак манбаи ва таянч вазифасини ўтайди.

Халқимизнинг этник, маданий ва диний сабр-бардоши маънавий уйғонишнинг яна бир битмас-туганмас манбаидир. Минг йиллар мобайнида Марказий Осиё хилма-хил динлар, маданиятлар ва турмуш тарзлари туташган ва тинч-тотув яшаган марказ бўлиб келди. Этник сабр-тоқат, бағрикенглик ҳаёт бўронларидан омон қолиш ва ривожланиши учун зарур табиий меъёрларга айланди. Ҳатто бу ҳудудларни босиб олганлар ҳам Марказий Осиё халқларининг маданияти олдида бош эгибгина қолмай унинг энг қимматбаҳо анъаналарини шу ҳудудда мавжуд бўлган давлатчилик анъаналарни авайлаб қабул қилганлар.[2, Б.528] Шарқ мутафаккирларининг асарларида бағрикенгликка тегишли тарихий тажрибаларда сайқалланган ижод намуналарини келтиришимиз мумкин.

Бу мутафаккирлар инсонни улуғлашни унинг маънавий эркинлиги ҳақидаги масалани адолатли, эркин, бахт-саодатга етиштирувчи шароит яратиш тўғрисидаги фикр даражасига кўтара олдилар.

Шарқ мутафаккирларидан Ал-Форобий ижодига тўхталар эканмиз, бағрикенглик ғоялари унда юксак роль ўйнаганлигини яққол кўришимиз мумкин. Унинг “Бахт-саодатга эрушув йўллари ҳақида рисола” (“Рисола фи-т тарбиҳ ала асбоб ас-саодат”), “Шаҳарни бошқариш” (“Ас сиёсат ан- мадания”), “Уруш ва тинч турмуш ҳақида китоб” (китоб фи маойиш ва -л хуруб"), “Фазилатли ҳулқлар” (“Ас-сийрат ал-фазила”), “Фозил шаҳар одамлари қарашлари” [3, Б.42] сингари асарлари ўзининг бой инсонпарварлик ва бағрикенглик тамойиллари сингдирилганлиги билан муҳим аҳамиятга эгадир. Форобийнинг бой илмий мероси шуниси билан характерлики, унда барча даврларда барча жамиятлар интиладиган идеал сифатларга: фозиллар жамияти, фозиллар шаҳри ҳамда фозил инсон тушунчаси, унинг ўзига хос хусусиятларига муҳим аҳамият қаратади. Шу билан биргаликда Форобий идеалликка эришиш йўлларини ёки бўлмасам, назариясини ишлаб чиққан. Идеаллик ҳақида гап борар экан, бағрикенглик унинг ўзагини ташкил этганлигини таъкидлаб, қуйидаги мисоллар орқали келтириб ўтишимиз мумкин:

“Одамларга нисбатан уларни бирлаштирувчи асос инсонийликдир, шунинг учун ҳам, одамлар инсоният туркумига кирганликлари туфайли ўзаро тинчликда яшамоқлари лозим.

Ҳар бир инсон ўз табиати билан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади, у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёж сезилади....

Шу сабабли мисол учун зарур бўлган, кишиларни бир-бирларига етказиб берувчи ва ўзаро ёрдамлашувчи кўп кишиларнинг бирлашуви орқалигина одам ўз табиати бўйича

интилган етукликка эришуви мумкин. Бундай жамоа аъзоларининг фаолияти бир бутун ҳолда уларнинг ҳар бирига яшаш ва етукликка эришув учун зарур бўлган нарсаларни етказиб беради”. [4, Б.23]

Ўрта Осиё мутафаккирларидан Абу Райҳон Беруний ижодида ҳам бағрикенгликка муҳим аҳамият қаратилиб, унинг бой илмий меросига сингдирилган.

Абу Райҳон Беруний илм фаннинг деярли барча соҳалари, шу жумладан, тарих илми билан ҳам махсус шуғулланиб, жуда бой мерос қолдирган. Унинг илм-фан, маданият, дин, фалсафа, табий фанлар, риёзиёт, илми ҳайъат, илми нужум, геодезия, хариташунослик, тиббиёт, доришунослик, маъданшунослик ва бошқа соҳаларда қолдирган илмий ва тарихий асарлари олим яшаган X-XI асрларда ҳам, кейинги даврларда ҳам Ўрта ва Яқин Шарқда, айниқса, Э.Захау тадқиқотларидан сўнг Ғарб илм-фани, тарих фани ривожига беҳад салмоқли ва самарали таъсир кўрсатди. Берунийнинг “Ҳиндистон” асарининг илмий ва манбавий аҳамияти хусусида машҳур рус шарқшуноси барон В.Е.Розень “Бу Ҳиндистоншуносликда шундай бир улуғвор ҳайкалки, у ўз сирасига кўра якка-ю ягона ва унга тенг келиши мумкин бўлган бошқа асарни Ғарб ва Шарқнинг бутун кадимги ва ўрта аср илмий адабиётларида ҳам учратиш мумкин эмас”, деб ёзган эди. [5. Б.147]

Академик И.Ю. Крачковский иборaси билан айтганда, “У қизиққан соҳаларни санаб чиқишдан кўра, қизиқмаган соҳаларни санаш осонроқдир”. [6. Б.247]. Унинг ҳаёти, ижод ва илмий-тарихий мероси билан дунёнинг машҳур шарқшунослари, арабшунослари, исломшунослари ва фан тарихчилари Катермейр, Ж.Сартон, А.Стейн, Карра де Во, Р.Райт, Ф.Кренков, Э.Видеман, А.З.В. Тугон, М.Мейрхоф, И.Крачковский, А.Беленецкий, А.Расулев, С.Мирзаев, У.Каримов, П.Г.Булгаков ва бошқа кўплаб хассос олимлар шуғулланганлар ва тадқиқот олиб борганлар. Америкалик фан тарихчиси Ж.Сартон ўзининг “Фан тарихига кириш” номли асарида XI асрнинг биринчи ярмини жаҳон фани тарихида “Беруний асри”, деб атаган. [7, Б.707]

Умуман, Берунийнинг тарихий илмий мероси хақида Ўзбекистонда хилма-хил илмий-тадқиқот, оммабоб адабиётлар яратилган. [8, Б.106]

Ўзбекистонда дунёда биринчи маротаба олимнинг “Танланган асарлари” 8 жилдлиги ўзбек ва рус тилларига тўла таржима қилиниб нашр этилди. Айниқса, 1973 йилда ўтказилган Беруний таваллудининг 1000 йиллиги тантаналари жаҳон илм-фани, маданияти ва тарихий тараққиётининг буюк даҳоси, бой маънавий ва тарихий сиймосини ўрганиш, кенг омма орасида тарғиб этишда фавқулодда аҳамиятга эга бўлди. [9, Б.136]

Берунийнинг тарих илмига оид илмий мероси билан шуғулланган олим-мутахассисларнинг натижаларига кўра, масалан, “Қадимги халқлардан қолган

ёдгорликлар”*, “Ҳиндистон”* ва бошқа салмоқли асарлар билан бирга олим кичик кичик оммабоп ёки бадиий шаклда ёзилган бой тарихий мерос ҳам қолдирган.

Беруний илмий мероси инсонпарварлик ва бағрикенглик тамойиллари билан жилоланган. Шулар сирасида “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” ва “Ҳиндистон” асарлари аҳамиятлидир.

Беруний Ҳиндистон асарида айни пайтда аниқ фанларнинг мутахассиси сифатида ҳам энг кўп диққат қилган йўналиш қадимги эралар, тарихий тақвимларнинг тузилиши, ишлаш тартиби ва уларнинг ўзига хосликларидан иборат.[10, Б.17]

Мутафаккир Беруний ҳинд илмий диний мазҳабий эътиқодлари, урф- одатлари, фалсафий қарашларини теран текширди ва бой маълумотлар тўплади, уларни қадимги Юнон фалсафаси, диний эътиқодлари билан қиёслаганда, ўта муҳим ҳулосаларга кела олди. [10, Б.19]

Бу асарда ҳам Беруний ўзининг қатъий қоидаларига амал қилиб, барча ҳалқларга тенг, оқилона, инсоний сабр-тоқат, ҳамда толерантлик намоён қилди. [11, Б.154, 167.]

Замонавий вазиятни баҳолаб, ҳамда экстремизм ва терроризмга қарши курашдаги энг муҳим вазифаларни белгилаган ҳолда, уларга қарши курашда турли-туман манбалардан фойдаланиш лозим. Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон заминида яратилган маърифатпарварлик потенциалининг ижтимоий-фалсафий қарашларни юзага чиқариш, оммалаштириш лозим. Бунда зиёлилар ижодининг йирик бағрикенглик намуналари аҳамиятлидир Улар Шарқ ва Ғарб муаллифларининг меросини қайси тилдан бўлишидан қатъий назар, қайси ирқ ва динга эътиқод қилишига қарамасдан ўқиб ўрганганлар. Бу Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Хоразмий ва бошқа кўплаб бошқа ўтмишдаги олим ва мутафаккирларнинг ижодида ёрқин намоён бўлади.

Кўпгина йирик ватандошларимизнинг фалсафий-тарихий ижодида диний ва замонавий бағрикенглик анъанавий узвий боғланганлиги муҳим аҳамият касб этади. Динлараро муносабатларга тегишли бўлган Абу Наср Форобийнинг фалсафий қарашлари,

* Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар ёки асл номи “Ал-осор ул боқия мин қурун ул-холия”. Гарчи бу асарни кўпгина олимлар, айниқса Абдулҳай Носиров 1000 йиллар атрофида Жўржонда Беруний 27 ёшида ёзган деб таъкидласа-да, олимнинг ўзи томонидан тузилган Фехрестда тамомланмай қолган ва окка кўчирилмаган асарлар қаторида санаб ўтганлиги бошқа талқинга ўрин қолдирмайди. Қолаверса, Беруний мазкур тугалланмаган асарлар сарлафҳасида, “умримнинг охирги вақтларида ёза бошлаб ҳанузгача тамом бўлмаган ва оққа кўчирилмаган китобларим” деб аниқлик киритган. Демак, бу китоб, ҳатто Махмуд Ғазнавий ҳукмронлиги даврида ҳам эмас, балки Масъуд даврида, эҳтимолки, унинг ўғли Мавдуд даврларида ёзилган бўлиши эҳтимолга жуда яқин. Қўлёзма матнининг бизгача ўнлаб қўлёзма нусхалари ва 1878, 1923 йилларда Лейпцигда Э.Захау нашр қилдирган арабча нашри, 1897 йил Лондонда нашр этилган инглизча таржимаси эълон қилинди. Кейинчалик бу машҳур асарга қизиқиш мислсиз бўлганлиги учун ўнлаб бошқа мамлакатларда турли тилларга таржима қилинди ва қилинмоқда. Китобнинг Петербургдаги арабча нусхаси ва Тошкентдаги форсча таржимаси асосида М.Салае рус тилига таржима қилди ва 1957 йилда нашр эттирди. А. Расулов томонидан амалга оширилган ўзбекча таржимаси, 1968 йили Тошкентда нашр этилди. “Ал-Осор ул-Боқия” асарининг тарихий мавзулари, маълумотлари, уларнинг муфассал тадқиқи, тавсифи ва баҳосини Ғарб ва Шарқнинг забардаст олимлари муносиб баҳо берганлар.

* Таҳқиқ-молил Ҳинд мин мақулат мақбулат фил-ақл-ав марзулани, Хиндларнинг ақлга сиғадиган ва сиғмайдиган таълимотларини аниқлаш китоби қисқача “Ҳиндистон”. Бу китобнинг ҳажми Берунийнинг Ўзи ёзишига кўра 700 варақ бўлган. Бу китоб қўлёзмасининг номи А.Носировнинг ёзишича турли шаклларда юритилиб келинган. Масалан, “Тарих ул-Ҳинд”, “Аҳвол ул-Ҳинд” ёки “Ажойиб ул-Ҳинд”. Ушбу китоб олимнинг таъкидлашича, 1017-1030 йиллар орасида ёзилди. Э.Захаунинг аниқлашича эса, асар 1030 йил 30 апрелдан 30 сентябргача бўлган беш ой мобайнида ёзиб тугатилган. Қўлёзма нусхаси Истанбулдаги Купруду кутубхонасида 1001- инвентар рақами билан сақланади. Асарнинг Ҳиндистон тарихи, элшунослиги, илмий, адабий, диний, фалсафий, ахлоқий, бидъатли мазҳаблар таълимотларига оид бебаҳо ва нодир маълумотлари бутун инсониятни мудом қизиқтириб келаётганлиги учун жуда кўплаб тилларга ўгирилган ва турли мамлакатларда ҳозирда ҳам нашр қилиш давом этмоқда. Асарнинг русча, ўзбекча тўлиқ ва энг мукаммал нашрлари Тошкентда 1963-1965 йилларда амалга оширилган.

Абу Райҳон Берунийнинг фикрлари, Имом ал Бухорий ва Хаким ат-Термизийнинг ҳадиси шарифлари ҳамда бошқа кўпгина мутафаккирларнинг асосий ғоясини бағрикенглик ташкил қилувчи асарлари мисол бўлади.

Масалан, олимларнинг таъкидлашича, Абу Наср Форобий, “улуғ хоразмлик” Абу Райхон Берунийларнинг тарихий-фалсафий фикрларининг толерантлик характери аввалambор турли хил фалсафий, диний ва ирқий табақаларга мансуб бўлган кенг кўламдаги халқларга тушунарли бўлганлигида намоён бўлади. Агар Форобийнинг илмий меросида қадимги Грециялик мутафаккирларидан Платон, Аристотел, Гален, Зенон, Александр Афродизийский ва бошқаларнинг фалсафий ва табиий, илмий қарашлари битилган трактатлари кенг кўрсатилган бўлса, Берунийнинг илмий фаолиятида эса ундан ташқари, Ҳиндистон, Эрон, Марказий Осиё ҳамда Араб дунёси давлатлари ва бошқа халқларнинг фалсафий ютуқларини ўрганиш муаммолари кўтарилган.

Бу буюк олимларнинг тарихий фалсафий фикрларининг толерантлик ҳолати диний, сиёсий, ирқий ва маъмурий чегараларга қаралмаган холдаги кенгликда, балким ўзларининг ва бошқа халқларининг фалсафа тарихига оид саволлар устида ишлаган муаммоларига онгли равишда методологик нуктаи назардан қарашларда кўринади. Форобийнинг фалсафий оқим ва маълумотларида берилган ҳар хил мамлакатларнинг тарихий фалсафий жараёнларини қандайдир мафкуравий ёки маънавий диний доирага олмасдан кўриб чиқади. У объектив фалсафий билимларга эришиш имкониятлари кафолатини нуқтаи назарларини, қараш ва ёндошишларнинг турли- туманлиги ва хилма хиллигида кўради. Бу эса унинг фалсафани эволюцион кўринишида баён қилганлигида намоён бўлади.

У “Фалсафани ўрганишга, олдинга суришга нима зарур” деган ишида “Бу илм айтишларича, Ироқда яшаган халдейларга, кейин у мисрликларга, сўнгра грекларга, улардан сурияликларга, сўнгра эса арабларга ўтган” деб ёзади.

Бағрикенг бўлмасликнинг хавфлилиги тўғрисида кейинчалик Беруний ўзининг “Геодезия” деган китобида шундай деган: “Кимда ким ақл бовар қилмайдиган даражада фанатизмга (жонкуярликка) берилган бўлса, у ҳамманинг ишончини йўқотади ва қарғишига қолади, унинг номи “син” ҳарфи билан тугайди”. Ушбу ҳолатда Беруний грецияликларнинг номини назарда тутади. Буюк олим фандаги бундай чидаб бўлмайдиган ёндашишларни, бу жиҳатдан фалсафадагиларни қоралайди ва қаттиқ танқид қилади.

Юқорида айтилганлардан “фанатиклар туфайли, уларга ҳамфикр бўлмаганларни таъқиб қилишларга қарши Форобийнинг довюраклиги, ботирлиги керак бўлган” деган фикрини тушуниб олса бўлади. Форобий “Бахтга етишиш (ёки эришиш)” асарида фалсафанинг баъзи бир жабҳаларини назарда тутган ҳолда шундай дейди: “Фалсафа бизга греклар: Платон ва Аристотелдан шундай сифатда келган”. Характерли томони шундаки, Форобий у ёки бу мутафаккирнинг фалсафий қарашларини қандайдир диний қамровда тан олиш масаласини қўймайди, балки кейинчалик ўзи эътиқод қилган ва вояга етган динга тўғри қараш ва ишонтириш зарурлиги, бунда олийжаноблик ҳаракатларини амалга ошириш тарафида туриш кераклигини таъкидлайди.

Бошқа бир халқларнинг, бошқа эътиқод вакилларининг фалсафий илм натижалари объектив ва шу билан бир вақтда бағрикенглик қарашлари тамойили Беруний изланишларида ўша даврда мавжуд бўлган шарқ олимлари ичида биринчи бўлиб ҳинд фалсафасига изоҳлар ёзганини кўрсатади. У ўзининг раҳбарлиги остида амалга оширилган тарихий фалсафий тадқиқотларининг методологик принциплари тўғрисида тўғридан-тўғри гапириб, айнан мана шу унинг ижодиётининг муҳим асосини ташкил этарди. Беруний диний сабабларга кўра ҳинд фалсафасини ўрганишда унинг издошларига нисбатан асоссиз айблар ишлатмаганини таъкидлайди: “Зеро ҳиндлар эътиқоди шундайки, бу уларнинг ўзларигагина яхшироқ кўринади ва тушунилади”. Айниқса, бу уларни “Дин бу фақатгина уларнинг эътиқоди, фан эса фақатгина уларда мавжуд бўлганларидир” деб уларни айблаганда ёрқин намоён бўлади.

Бошқа халқлар ва давлатларга нисбатан, масалан, Хоразмда Араблар истилоси, Махмуд Ғазнавийни Ҳиндистонга ҳарбий юришлари пайтида юзага келган тоқатсизлик ва зулмнинг кучайишини олишни қаттиқ қоралайди. Унинг фикрига кўра бундай сиёсатнинг энг мудҳиш натижалардан бири, бу илм-маърифатга, шу жумладан, фалсафий илмларга келтирадиган катта зарардир. [12, Б.148.] Беруний ирқий камситишга асосланган ҳар қандай зулмни қоралаган ҳолда, барча инсонларнинг шаклланиш ўзаги битта асосга таянишини таъкидлаб, турли халқлар, ижтимоий гуруҳлар, ва муайян инсонлар ўртасидаги тинч-тотув муносабатни амалга оширилишига ҳалақит берувчи миллий ва диний чегараланишларга қарши чиқади.

У “замин бу уларни ери, одамлар бу фақат уларни халқини вакили, шохлар фақат уларнинг ҳукмдорлари, дин фақат уларнинг эътиқоди, илм бу фақат улар эга бўлганлари” сингари ақидага амал қилувчиларни танқид остига олди.

Ўзининг изланишлари натижасида буюк мутафаккир шундай хулосага келдики, инсонлар қандай эътиқодга амал қилишларидан қатъий назар, уларнинг барчаси худо олдида тенгдирлар. Мана шулардан келиб чиқиб, у инсоннинг вазифасини, унинг жамиятдаги функциясини кўриб чиқади.

Жамият инсонларнинг биргаликдаги фаолиятнинг заруриятидан пайдо бўлганлигидан келиб чикиб, Беруний, инсон ҳар доим бошқа инсонларнинг манфаатини ўйлаш кераклигини таъкидлайди. Бунда “муайян мажбуриятларнинг бажариб борилиши дунёда унинг бутун фаолияти давомида инсон мавжудлигини таъминловчи тамойилдир”.

Беруний ҳалқлар ўртасидаги тенглик ва дўстлик посбони эди. У урушлар пайтида фан ва маданиятнинг йўқ қилинишини қаттиқ қоралаган. У ўзининг “Ҳиндистон” номли асарида жонкуярлик билан “ўзаро низолар ва жанжаллар (барча) халқларни бир-биридан узоқлаштиради” деб таъкидлайди. Бунинг асосий сабабларидан бири сифатида Беруний халқларнинг бир-бирлари тўғрисида етарлича ҳабардор бўлмаганликларида деб билади. Унинг Ҳиндистондаги йирик фаолияти ҳинд халқи ва уларнинг илмий вакиллари ўртасида мустаҳкам алоқани ўрнатиш мақсадида олиб борилган.

Шундай қилиб, Беруний қарашларида гуманизм, жамиятда содир бўлаётган жараёнларга рационалистик ёндашув, жамият ва одам ҳаётидаги маънавий факторларнинг роли катталигини тан олиш акс эттирилган. Беруний ўрта асрлар Ўрта

Осиёлик мутафаккирларнинг дунёқарашларида ёрқин инсонпарварлик анъаналари шаклланишига сезиларли ҳисса қўшган бўлиб, олимларнинг таъкидлашларича, ҳозирги замондаги халқаро экстремизм, терроризм, зўравонликка қарши курашда ижобий аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, 1975.
2. И.А.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1998, 528 б.
3. М.Хайруллаев. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. Т.: Ўзбекистон, 1971, 42-б.
4. А.Н. Форобий. Рисолалар. Т.: Фан, 1975.
5. Б.Розень. Рецензия на издание арабского текста “Индии”, ЗВО РАО, т.III, СПб., 1881. –С.147.
6. И.Ю.Крачковский. Избранные произведения. Т.IV. - М.: Наука, 1965, стр. 247.
7. Sarton Introduction to the history of science. From Homer to Hayyam. Vol.1 Wahigton-Baltimore 1927, 693,707, 709 pp.
8. А.Носиров. Беруний ҳақида қўлёзма китоблардаги материал: Беруний тўғрисида бўлган манбаларнинг кискача мазмуни; Беруний асарларининг рўйхати (Фехрести) Беруний ўрта асрнинг буюк олими. - Т.: ЎзФА нашриёти, 1950. 106-108 бетлар.
9. Беруни и гуманитарные науки. - Т.: Фан, 1972, 136-бет.
10. А.Ирисов. Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари. Танланган асарлар, 2-ж.Т.: Фан, 1965, 17-19 бетлар.
11. А.Носиров. Беруний асарларининг рўйхати (Фехрести) - Беруний-Ўрта асрнинг буюк олими Т.: ЎзФА нашриёти, 1950, 154, 167-бетлар.
12. Г.Насирходжаева. Бағрикенглик жамият барқарорлигининг асоси // Историко философское наследие Фараби и Беруни в контексте проблемы толерантности (илмий-амалий анжуман материаллари). Тошкент, 2003, 148-149 б.

TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY -MA’NAVAIY MUHITNI ARQAROR TA’MINLASHDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI, TALABA QIZLARNING KIYINISH MADANIYATI

Abduraxmanova Farida Yo‘ldashevna
O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya: Mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan munosabat, ajdodlarimizning ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga da’vat etivchi fikrlari, o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizni mahallabay, xonadonbay o‘tkazishiga, uni sifati, ta’sirchanligi, samaradorligi alohida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ayol, bola, avlod, fuqaro tarbiyasi, gender tengligi, mehr, muruvvat, mehnatkashlik, islohotlar, diniy tarbiya, islom, Qur’on va hadislar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga xotin-qizlarning daxldorlik munosabatida bo‘lishiga erishish zamonamizning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Chunki, ayol fuqarolik jamiyatining asosi bo‘lgan fuqarolarni tarbiyalash, demokratik va tolerant tafakkur, taraqqiyot va rivojlanishga kamarbastalik kabi jamiyat uchun o‘ta dolzarb va muhim masalalarni ijobiy hal etib bera olish qudratiga egadir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan tantanasidagi nutqida: “oilada, mehnat jamoalarida, ta’limda umuman, jamiyatimizda eng katta boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini saqlash va mustahkamlashda yurtimiz xotin-qizlarining donoligi, sabr-qanoat va matonati, shukronalik, oilaga sadoqat kabi ibratli xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi” deb ta’kidlagan edilar.

Yuqoridagi mulohazalardan asosli ravishda quyidagi savollar kelib chiqadi: mamlakatimizda xotin-qizlar uchun barcha yo‘nalishlarda keng qamrovli imkoniyatlar yaratilayotgan ekan, bu borada lozim darajada huquqiy baza ham mustahkamlanayotgan ekan xo‘sh, ayollarimiz davrimiz va davlatimiz uchun qaysi vazifalarni bajarishi lozim, qanday yo‘nalishlarda o‘zlarining hayotiy tajribasi, aql idroki, ma’naviyati salohiyati va mehrini ayamasligi lozim. Xotin-qizlarimizdan davr nimalarni kutmoqda, davlatimiz ayollarimizdan qanday masalalarning yechimida umid qilmoqda? Albatta birinchi navbatda, AVLOD so‘zini qat’iy va ishonch bilan ta’kidlagan bo‘lar edik. Belgilangan vazifalarni uddalay oladigan avlodni yaratish, o‘stirish, tarbiyalash bugungi ayollarning o‘z zamonasi oldidagi mas’uliyatli va muqaddas vazifasidir. Chunki fuqarolik jamiyatining zaruriy xom-ashyosi-shu jamiyatda yashashga tayyor bo‘lgan fuqarodir. Ayollarimizga qarata “Bola o‘stirmang, fuqaro tarbiyalang” degan shior bugungi kun talabidir. Zero, Davlat rahbari o‘rinli ta’kidlaganidek, bugun “...oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda ulkan ahamiyat kasb etmoqda”.

Ayolning zamona oldidagi xizmatlari doirasidagi ikkinchi muhim ijtimoiy vazifa, farzandlarni turli mafkuraviy kasalliklar, turli yot g‘oyalar, avvalo ekstremizmdan saqlash, xalos etish masalasidir. Yurtimiz ayollari bu masalada birlashib, o‘z qat’iy hohish-irodalarini namoyon

eta olsalar nafaqat bir avlodni, balki butun bir millatni, davlatni mafkuraviy parokandaliklardan himoya etgan bo‘lamiz.

Ma’lumki, barcha sa’y-harakatlarimiz samarasi sifatida bugun yuzaga chiqadigan ma’naviy-ma’rifiy Uyg‘onish biz bunyod etishga kirishgan Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Yanada aniq qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday Renessansning muhim asosini ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish tashkil etadi.

Ta’kidlash kerakki, davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida, O‘zbekiston o‘qituvchi va murrabiylarga bayram tabrigida, shuningdek, O‘zbekiston yoshlarining birinchi forumida, Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida ma’naviy-ma’rifiy dolzarb vazifalarni, ma’naviy ma’rifiy yangi Uyg‘onishning ilmiy-nazariy va metodologik asosini yaratib berdi.

Bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgani, manfaatlar to‘qnashuvi kundan-kunga kuchayotgani hammamizga ayon. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotganiga aslo befarq qarab bo‘lmaydi.

Chunki, ayni shu global miqyosli jarayonlarda milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Ayni chog‘da, faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, ta’limga, oilaga yengil-yelpi qarash, iste’molchi kayfiyatini turli yo‘llar bilan ayniqsa, ayollar va yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayotgani ham sir emas.

Afsuski, bugungi bolalarimizni jumladan, qizlarimizni ota-ona, bog‘cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo‘lidagi telefon “tarbiyalamoqda”. Prezidentimiz kuyunib qayd etgandek, “Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning jumladan, qizlarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda”.

Prezidentimiz bunday tahlikalik vaziyatda loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini alohida uqtirib o‘tdi.

Avvalambor, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni oldini olishda oliy ta’lim muassasalarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari raislarining o‘rni ham nihoyatda muhimdir. Shuningdek, nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati, jumladan, “bir ziyoli-mahallaning ma’naviy homiysidir” degan g‘oyani amalga oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi va o‘zining ijobiy natijasini beradi, albatta.

Savol tug‘iladi: mana, iqtisodiy kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha katta ishlar boshlandi. Qiyinchilik bilan bo‘lsa ham mablag‘, investisiya topilyapti. Ammo ma’naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qayerdan topamiz.

Davlat rahbari qayd etgandek, “Jaholatga qarshi-ma’rifat” bilan kurashish kerak.

Ma’naviyat targ‘ibotchilarini tarbiyalash, ma’naviyat tizimini shakllantirishning muhim mezoni ekanligiga urg‘u berdilar.

Globallashib borayotgan bugungi dunyoda terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi ortib, xatto ba’zi hududlarda atayin beqarorlik va norozilik kayfiyati tobora avj olmoqda. Shunday qaltisli hamda murakkab

sharoitda har birimiz hushyor va ogoh bo‘lib, halqimizni tinchligini, mamlakatimiz, oilalarimiz mustahkamligini xotin-qizlarimiz manfaatlarini o‘ylab yashash har birimizga farz va qarzdir.

Bugungi yig‘ilishimizdan ham asosiy maqsad ta’lim jumladan, oliy ta’lim muassasalarida jamiyatimizdagi 17 millionlik xotin-qizlar armiyasiga ma’naviyat vaksinasini chin yurakdan singdirish, ularni ongu-shuuriga yetkazishdan iborat.

Bugungi kunda Respublika bo‘yicha xotin-qizlar o‘rtasida ularning bilimini, malakasini oshirishda yangicha yondashuv joriy etildi. Respublikaning 14 ta hududlarining har birida nafargacha, viloyatlar, shaharlarda, tumanlarda 30 nafargacha, 10 minga yaqin MFY larda 15 tagacha faol ayollardan iborat Targ‘ibot guruhlari tashkil etildi.

Otinoyilarga ham malaka oshirish, sertifikat berish, attestatsiya suhbatlari va nihoyat birinchi marta Guvohnoma joriy etildi.(4164 nafar).

Bugun xotin-qizlarimizga: Marhamat hohlasang ishla. Hohlasang o‘qi! Uy-joy, mablag‘lar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratilyapti. Hohlasang tadbirkor bo‘l, deyilyapti. Lekin savol tug‘iladi: Nima sababdan ayrim xotin-qizlar o‘rtasida muqaddas islom dinini noto‘g‘ri talqin qilish (bayramlarni, qo‘shiqlarni, musiqani kufrga chiqarish), kiyinish borasida arabcha, misrcha, turkcha yoki yevropacha kiyinish, (Kiyinish O‘MI fatvosi bo‘yicha) jihod, hijrat deb, horijiy davlatlarga, Suriyaga, Misrga oilasini, voyaga yetmagan bolalarini tashlab ketish, turli jinoyatlar sodir etish, foxishalik bilan shug‘ullanish, hujra ochib, noqonuniy diniy ta’lim berish kabi holatlar bugun hammamizdan ogoh bo‘lishni, shu illatlarni oldini olish uchun men jamoatchi, olima sifatida, xotin-qizlar bo‘yicha mas’ul sifatida nima qilishim kerak, degan savolni har birimiz, har kuni o‘zimizga berishimiz ham qarz, ham farzdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida “Xotin-qizlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mutahkamlash borasidagi dolzarb vazifalari to‘g‘risida” 2022 yil 1 mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 1 martdagi PF-81-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli Farmonlari mazmun-mohiyatini tizimda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarga yetkazish eng dolzarb vazifadir.

Xo‘sh Islomda, Qur’onda, Hadislarda ayollar haqida nimalar deyilgan? Islomdan avvalgi johiliyat davrida arablarning ko‘plab noinsoniy, vahshiy urf-odatlari bor edi, ularda ayol-qizlarni tahqirlash haddan ziyod edi. Hattoki, “katta bo‘lsa urushlarda qatnasha olmaydi, asirga tushib bizni sharmanda qiladi”, deya tiriklay ko‘mib yuborilar edi.

Alloh taolo yer yuziga Islom nurini yubora boshlagan vaqtda butun dunyo johiliyat botqog‘iga botgan, chor atrofda johillik, adolatsizlik, zulm va jabr-sitam hukm surar edi. Ayollarga tegishli masalalarda bu salbiy ishlar avj olib, eng cho‘qqiga chiqqan edi, Ayol kishi barcha insoniy huquqlardan mahrum qilingan, hatto ayolni odam o‘rnida ko‘rmaydigan toifalar bor edi.

Arabistonda ayolga dunyoning matohi sifatida qaralardi, u erkak kishiga matoh edi, go‘yo. Ayol kishini mol-mulkga qo‘shib, meros qilib olish oddiy hol edi.

Islom dini mukammal ilohiy tuzum o‘laroq, dunyodagi nuqsonlarni, jumladan, insoniyatning nafis qismi sanalmish ayollarga bo‘lgan munosabatdagi mavjud nuqsonlarni tuzatishga kirishdi.

Islom dini birinchi bo‘lib, ayol kishi ham xuddi erkak kishidek, to‘laqonli inson ekanini e’lon qildi.

“Niso” surasida shunday deyiladi:“Ey odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkisidan ko‘plab erkagu - ayollar yaratgan Robbingizdan qo‘rqinglar”. Demak, insoniylik va qonun nuqtai nazaridan erkagu ayollar teng huquqlidir.

“Niso” surasining 7-oyatida shunday deyiladi: “Erkaklar uchun ota-ona va qarindoshlar qoldirgan narsadan nasiba bordir. Ayollar uchun ham ota-ona va qarindoshlar qoldirgan narsadan nasiba bor. Ozidan ham, ko‘pidan ham. Farz qilingan narsa o‘laroq”.

Bundan tashqari islom dini ayollarga turmushga chiqishga rozilik berish, mahr olish, ilm berish, mehnat qilish, “rizo’”, ya’ni, bolani sut bilan ta’minlash, xidona-farzandini tarbiyalash kabi huquqlar berdi.

1. Islom erkaklarga o‘z ayollari bilan go‘zal muomalada bo‘lishni va bunda ular uchun yaxshilik borligini bayon qiladi: “Ular bilan totuv turmush kechiringiz. Agar ularni yomon ko‘rsalaringiz, (bilib qo‘yingki,) balkim sizlar yomon ko‘rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko‘pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin” (“Niso” surasi 19 oyat).

Shuningdek, dinimizda ayollar ona sifatida ulug‘lanadi.

2. Islomda ayollar rafiqa sifatida ulug‘lanadi.

3. Islomda ayollar qiz sifatida ulug‘lanadi.

Nabiy alayhissalom Islomning mohiyatini bayon etib, qizlarning ulug‘ maqom sohibalari ekanini ta’kidlaganlar. Ularning huquqlarini bayon qilib, zimmalaridagi vojiblarni ko‘rsatib berish ila johiliyat davrida urfga aylanib, tarqalib ketgan qabihlik-qizlarni tiriklayin ko‘mish muammosini bartaraf qildilar.

Bugun zamon oldimizga qo‘yayotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ayrim takliflarni bildirmoqchi edim:

1. Bugun barchamiz asosiy faoliyatimizni muhtaram yurtboshimizning Parlamentga, O‘zbekiston xalqiga qilgan murojjatnomalarning 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli “Oila va xotin-qizlarning tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallpshtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarini mazmun mohiyatini ayollar, ayniqsa yosh qizlar o‘rtasida keng targ‘ib etishimiz maqsadga muvofiqdir.

2. Xotin-qizlarimizga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Qonunlar, qarorlarni jumladan, gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan taziyq va zo‘ravonlikni oldini olishni keng targ‘ibot etish, O‘zbekiston huquqiy-demokratik davlat ekanligini ayollarga, yoshlarimiz ongu-shuuriga yetkazish kerak.

3. O‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizni mahallabay, xonadonbay o‘tkazishimizga, uni sifatiga, ta’sirchanligiga, samaradorligiga alohida e’tibor qaratishimiz shart.

4. Ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasiga, ularni yot g‘oyalar ta’siridan asrashga nihoyatda jiddiy e’tibor berishimiz zarur.

5. Diniy vaziyatni noto‘g‘ri talqiniga o‘z vaqtida raddiyalar berish muqaddas dinimizning sofligini asrashga xizmat qilishini unutmasligimiz lozim.

6. Xotin-qizlarimiz o‘rtasida milliy kiyinish madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini muntazam olib borishimiz bugungi kunning dolzarb talabi bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Agar kimdir, ma’naviyat masalasi-bu faqat ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik yoki idoraning ishi deb o‘ylasa hato qiladi, bularning barchasi har birimizning oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalaridan biridir”.

PROFESSOR NURBAY CABBAROV

(“Azərbaycan elminin-ədəbiyyatının dostu” seriyasından 8-ci məqalə)

Almaz Ülvi (BİNNƏTOVA)
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələri” şöbəsinin müdiri, filologiya elmləri doktoru, professor
Bakı, e-mail: almazulvi1960@mail.ru
ORCIDiD – 0000-0001-7991-3969.

XÜLASƏ

Türk ədəbiyyatının yeni inkişaf mərhələsinə yüksəlməsində Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri mühüm rol oynayır. Belə bir həyati və ədəbi-estetik ehtiyacı dərindən dərk edən, türk dünyası ədəbiyyatının tədqiqində mühüm elmi nəticələr əldə edən özbək alimlərindən biri, filologiya elmləri doktoru, professor Nurbay Cabbarov Azərbaycan ədəbiyyatının və ədəbiyyatşünaslığının yaxın dostu olaraq elmi yaradıcılığına nəzər salmaq diqqətəlayiqdir. O, XIX əsr klassik özbək ədibi Furqat əsərlərinin əlyazma mənbələri və onun xaricdəki həyatı və yaradıcılıq irsini tədqiq edərək mətnşünas alim kimi tanınmışdır. O, elmi fəaliyyətini genişləndirərək müxtəlif istiqamətlərdə tədqiqatlar aparıb: əlyazma mənbələri və mətnşünaslıq problemləri; nəvaişünaslıq və klassik ədəbiyyatın nəzəri məsələləri; türkologiya sahəsindəki tədqiqatlar; özbək cədid ədəbiyyatının tədqiqi; müasir özbək ədəbiyyatı və hazırki ədəbi proses. Bu elmi istiqamətlərin hər biri üzrə Nurbay Cabbarov diqqətəlayiq tədqiqatlar yaratmışdır.Nurbay Cabbarov türk xalqlarının ədəbiyyat tarixinə dair dərin araşdırmalar aparır. Alimin “Əhməd Yasəvi və Yunus Əmrə hikmətlərində ədəbi təsir və ardıcıllıq”, “Hüseyn Cavid yaradıcılığının Özbəkistanda öyrənilməsini təkmilləşdirmək” kimi tədqiqatları bu fikri təsdiqləyir. tədqiqatçının cədid ədəbiyyatına dair elmi araşdırmaları göstərir ki, Nurbay Cabbarov akademik-elmi təhlil təcrübəsinə malik ədəbiyyatşünasdır.

Təqdim olunan məqalədə bütün bu məsələlər alimin yaradıcılığı kontekstində şərh edilir. Nurbay Cabbarovun araşdırmalarında, bundan başqa, Şərq klassik ədəbiyyatının fəlsəfi-estetik əsası olan əruz, qafiyə, bəlağət, fəsahət, məani, bəyan və bədii elmləri ilə bağlı diqqətəlayiq elmi fikirlər vardır. Əlişir Nəvainin və özbək klassik ədəbiyyatının başqa şairlərin əsərlərini məhz bu baxış bucağında təhlil edilir. Bütün bunlar göstərir ki, alimin əsərlərinin nəzəri bazası möhkəmdir və ədəbiyyatşünaslığın yüksək tələblərinə cavab verə bilir.

Açar sözlər: *Nurbay Cabbarov, Furqat, türkologiya, özbək cədid ədəbiyyatı, Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri*

PROFESSOR NURBAY JABBAROV

(Article 8 from the series "Friends of Azerbaijani science and literature")

ABSTRACT

Azerbaijani-Uzbek literary relations play an important role in the rise of Turkish literature to a new stage of development. NurbayJabbarov, Doctor of Philological Sciences, Professor is one of the Uzbek scientists who deeply understand the need for literature-aesthetics and achieved

important scientific results in the study of the literature of the Turkic world; and it is remarkable to take a look at the scientific creativity of NurbayJabbarov as a close friend of Azerbaijani literature and literary criticism. He was known as a textual scholar by researching the manuscript sources of the works of Furgat, classical Uzbek writer of the 19th century and his life abroad and his creative legacy. He developed his scientific activities and conducted research in various directions: manuscript sources and textual problems; Navoi studies and theoretical issues of classical literature, studies in the field of Turkology; the research of Uzbek Jadid literature, modern Uzbek literature and current literary process. NurbayJabbarov has created remarkable research in each of these scientific fields. NurbayJabbarov made in-depth research on the literary history of the Turkic peoples. The scholar's researches such as “Literary influence and consistency in the wisdoms of Ahmed Yasevi and YunusEmre” and “Improving of the learning of HuseynJavid’s creativity in Uzbekistan” confirms this idea. The researcher's scientific studies on Jadid literature show that NurbayJabbarov is a literary critic with academic-scientific analysis experience.

In the presented article, all these issues are explained in the context of the scientist's creativity. Nurbay Jabbarov's research contains remarkable scientific ideas on aruz, rhyme, balâgat (rhetoric, eloquence), fasâhat (purity and perfection of language), meani, beyan and artistic sciences, which are the philosophical-aesthetic basis of Eastern classical literature. The works of Alisher Navoiy and other poets of Uzbek classical literature are analyzed from this point of view.. All this shows that the theoretical basis of the scientist's work is solid and it is able to cater the high demands of literary studies.

Keywords: *Nurbay Jabbarov, Furgat, Turkology, Uzbek Jadid literature, Azerbaijani-Uzbek literary relations*

ПРОФЕССОР НУРБАЙ ДЖАББАРОВ

(Статья 8 из серии
«Друг азербайджанской науки и литературы»)

РЕЗЮМЕ

Азербайджано-узбекские литературные связи играют важную роль в подъеме турецкой литературы на новый этап развития. НурбайДжаббаров, доктор филологических наук, профессор – один из узбекских ученых, глубоко понимающих необходимость литературоэстетики и добившихся важных научных результатов в изучении литературы тюркского мира; Примечательно взглянуть на научное творчество НурбаяДжаббарова как близкого друга азербайджанской литературы и литературной критики. Он был известен как ученый-текстовед, исследовавший рукописные источники произведений Фургата, классика узбекского писателя XIX века, его жизнь за границей и его творческое наследие. Он развивал свою научную деятельность и вел исследования в различных направлениях: рукописные источники и текстологические проблемы; Навоийские исследования и теоретические вопросы классической литературы, исследования в области тюркологии; исследование узбекской джадидской литературы, современной узбекской литературы и современного литературного процесса. Нурбай Джаббаров провел замечательные исследования в каждой из этих научных областей. Нурбай Джаббаров провел углубленное исследование истории литературы тюркских народов. Исследования ученого, такие как «Литературное влияние и последовательность мудрости Ахмеда Ясеви и » и «Улучшение изучения творчества ГусейнаДжавида в Узбекистане», подтверждают эту мысль. Научные

исследования исследователя джадидской литературы показывают, что Нурбай Джаббаров является литературным критиком с опытом научно-аналитического анализа.

В представленной статье все эти вопросы объяснены в контексте творчества ученого. В исследованиях НурбаяДжаббарова содержатся замечательные научные идеи по арузу, рифме, балагату (риторике, красноречию), фасахату (чистоте и совершенству языка), меани, беяну и художественным наукам, которые являются философско-эстетической основой восточной классической литературы. С этой точки зрения анализируется творчество Алишера Навои и других поэтов узбекской классической литературы. Все это показывает, что теоретическая основа творчества ученого прочна и способна удовлетворить высокие запросы литературоведения.

Ключевые слова: *Нурбай Джаббаров, Фургат, тюркология, узбекская джадидская литература, азербайджано-узбекские литературные связи.*

Giriş / İntroduction

Yaşadığımız yeni dövr türk dünyasının “Dildə, fikirdə, işdə birlik” (İsmayıl bəy Qaspiralı) ideyasının həyata keçirilməsi, türk ədəbiyyatının yeni inkişaf mərhələsinə yüksəlməsi ilə seçilir. Bu baxımdan Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri mühüm rol oynayır. Belə bir həyati və ədəbi-estetik ehtiyacı dərindən dərk edən, türk dünyası ədəbiyyatının tədqiqində mühüm elmi nəticələr əldə edən özbək alimlərindən biri, filologiya elmləri doktoru, professor Nurbay Cabbarov Azərbaycan ədəbiyyatının və ədəbiyyatşünaslığının yaxın dostudur.

Nurbay Cabbarov 1966-cı ildə Özbəkistan Respublikasının Qaşqadərya vilayətinin dağlıq Dehqanabad rayonunda anadan olub. Daşkənd Dövlət Universitetinin (indiki Mirzə Uluğbəy adına Özbəkistan Milli Universiteti) özbək filologiyası fakültəsində ali təhsil aldıqdan sonra Özbəkistan Elmlər Akademiyasının Həmid Süleymanov adına Əlyazmalar İnstitutunda aspirant, kiçik elmi işçi, baş elmi işçi kimi vəzifələrdə çalışmışdır (1990-1998). O, “Furqat əsərlərinin əlyazma mənbələri” mövzusunda namizədlik (1994) və “Furqatin xaricdəki həyatı və yaradıcılıq irsi: mənbələr, mətnşünaslıq, poetika” (2004) mövzusunda doktorluq dissertasiyalarını uğurla müdafiə etmişdir.[*Zakirjon Molla Xalmuhammad oğlu (1859, Kokand – 1909, Şərqi Türküstan, Yarkent) milli intibah dövrünün özbək ədəbiyyatının aparıcı nümayəndələrindən biri olmuşdur, Furqat təxəllüsü ilə yazıb-yaratmışdır (sözünün bir anlamı da vətəndən uzaqda yaşayan). O, şair və yazıçı, ədəbiyyatşünas və tarixçi, filoloq və tərcüməçi kimi zəngin mənəvi irs qoymuşdur*].

1999-2016-cı illərdə “Milli intibah dövrü özbək ədəbiyyatı” kafedrasının dosenti, kafedranın müdiri, Özbəkistan Milli Universitetinin “Özbək filologiyası” fakültəsinin dekanı vəzifələrində çalışıb. 2006-2016-cı illərdə Özbəkistan Milli Universitetində elmlər doktoru elmi dərəcəsinin verilməsi üzrə İxtisaslaşdırılmış Şuranın sədri vəzifəsində çalışıb. 2016-cı ildən Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək Dili və Ədəbiyyatı Universitetinin “Özbək ədəbiyyatı tarixi” kafedrasının müdiridir.

2005-ci ildən Özbəkistan Yazıçılar Birliyinin üzvü olan alim 2018-ci ildən Yazıçılar Birliyinin Ədəbi Tənqid Şurasının sədri vəzifəsində çalışır. Eyni zamanda “Fədakar” və “Özbəkistan ədəbiyyatı və incəsənəti” qəzetlərində şöbə müdiri, baş redaktorun müavini, “Təfəkkür” jurnalında baş redaktor müavini vəzifələrin daşıyıb.

Əsas hissə / Main Part

Nurbay Cabbarov Nizami Gəncəvi və Əhməd Yəsəvidən Yunus Əmrə və Əlişir Nəvaiyə, Zahirəddin Babur, Məşrəb və Agahidən Əmiri, Müqimi və Furqətəcən, Behbudi, Fitrət və Abdulla Qədiridən Hüseyn Cavid,Cəlil Məmmədquluzadə və Çolpanacan, Səməd Vurğun və Maqsud

Şeyxzadədən Erkin Vahidov və Abdulla Aripovacan, onlardan tutmuş ta müasir Azərbaycan və özbək ədəbi sənətkarlarının yaradıcılığı haqqında sanballı tədqiqatlar yaradan, elmi araşdırmalarını mütəmadi olaraq davam etdirən görkəmli alimdir. Onun elmi əsərləri vətəni Özbəkistandan başqa Türkiyə, Azərbaycan, Qazaxıstan,Rusiya, ABŞ, Çin, Malayziya, Hindistan və Cənubi Koreyanın nüfuzlu elmi jurnallarında dərc olunub. Alim ali təhsil müəssisələri üçün bir dərsliyin, üç tədris-metodiki vəsaitin, on iki kitabın və 700-dən çox elmi və elmi-kütləvi məqalənin müəllifidir.

Onun elmi fəaliyyəti çoxşaxəliliyi ilə seçilir. Əsasən aşağıdakı elmi istiqamətlərdə tədqiqatlar aparır:

– əlyazma mənbələri və mətnşünaslıq problemləri;
– nəvaişünaslıq və klassik ədəbiyyatın nəzəri məsələləri;
– türkologiya sahəsindəki tədqiqatlar;
– özbək cədid ədəbiyyatının tədqiqi;
– müasir özbək ədəbiyyatı və hazırki ədəbi proses.

Bu elmi istiqamətlərin hər biri üzrə Nurbay Cabbarov diqqətəlayiq tədqiqatlar yaratmışdır. Bu tədqiqatlar müəyyən dövr ədəbiyyatına xas estetik qanunauyğunluqların inkişafına,ədəbiyyatşünaslığın yeni nəzəri baxışlarına, maraqlı fakt və məlumatlar, yeni şərhlər və elmi ümumiləşdirmələrlə zənginləşməsi baxımından qiymətlidir.

Əlyazma mənbələri və mətnşünaslıq problemləri. Nurbay Cabbarov elməFurqat ədəbi şəxsiyyəti və irsi konteksində mətnşünas alim kimi gəlib. Onun tədqiqatlarına söykənərək,məşhur özbək şairi Zakircan Furqatın tərcümeyi-halı, yaradıcılığının nəzm, nəsr və publisistik yaradıcılığı kontekstində özbək milli intibah ədəbiyyatının tədqiqində yeni mərhələyə qədəm qoyduğunu söyləmək olar. Əlyazma mənbələrinin tədqiqi nəticəsində Furqatın qəzəl, müxəmməs, tərcibbənd, fərz, “Həccnamə” kimi janrlarda 500 beytdən çox şeiri, “Qavaidi Çin və umorati politiki” nəsr əsəri elmi dövriyyəyə buraxılmışdır. İlk dəfə orijinal və çap olunmuş nüsxələrin müqayisəli təhlili əsasında şairin şeirlərinin mövcud nəşrlərindən çıxarılan 400-dən çox misrası bərpa edilib. Furqatın xaricə gedib ölkəyə qayıtmamasının səbəbləri yeni dövrün ruhunda, gerçəklik kontekstində şərh olunur. Arxiv sənədləri əsasında şairin səyahət marşrutu, Türkiyə və Yunanıstanda, ərəb ölkələrində, Hindistan və Çində olduğu tarixlər dəqiqləşdirilib. Onun bu ölkələrdə yazdığı əsərləri sistemli şəkildə təhlil edilib. “Muazzam Rusu Çin...” ilə başlayan dördlük və “Tuf” rədifli qəzəli şairə aid edilsə də, əslində onun qələminə aid olmadığı sübut edilmişdir. Müəllifin “Furqat” təxəllüsü seçməsinin onun əqidəsi və peşəsi ilə bağlı olması, şeirlərində islami-mistik fikirlərin yüksək bədii şəkildə ifadə olunması elmi meyarlara əsaslanır. Onun xaricdə yazdığı əsərləri saf estetik qanunlar əsasında şərh olunur.

Nurbay Cabbarov mətnşünaslığın nəzəri problemlərinə də yeni elmi mülahizələr irəli sürüb. O, əlyazmaların genealogiyası, mətn tarixi, elmi-tənqidi mətni, mətnin şərhi kimi məsələlərlə bağlı nəzəri fikirlərini özbək klassik ədəbiyyatı misalında zənginləşdirmiş və təkmilləşdirmişdir. O, hədislərin etibarlı mətnlərinin bərpasında yüksək effektli olan müqabilə üsulundan mətnşünaslığa dair tədqiqatlarda istifadə mexanizmi işləyib hazırlamışdır. Bununla bağlı elmi qənaətləri onun nəzəri alim kimi yüksək potensialını təsdiqləyir.

Nurbay Cabbarov həm də praktiki mətnşünaslıqla ciddi məşğul olur. Alim XIX əsr özbək şairi Məhəmməd Rza Agahinin “Zubdətut-təvarix” (“Tarixi hadisələrin qaymağı”) əsərini, Əbdürrəhman Caminin “Yusif və Züleyxa” dastanının Agahi tərəfindən tərcüməsini, Furqatın, Muqiminin, İbrətin “Seçilmiş əsərləri”ni, Molla Alimin“Türküstan tarixi” əsəri və “Baba Rövşən” xalq dastanını əlyazma mənbələri əsasında elmi şərh və göstəricilərlə birgə çap etdirmiş, tədqiqata cəlb etmişdir. Bu nəşrlər Nurbay Cabbarovun diqqətli mətnşünas, ərəb və fars dillərini, Qurani-Kərimin və hədislərin bədii ədəbiyyata təsirini bilən alim olduğunu göstərir.

*Nəvaişünaslığın və klassik ədəbiyyatın nəzəri məsələləri.*TədqiqatçıÜmumşərq və xüsusən də türk xalqlarının ədəbiyyat nəzəriyyəsini yaxşı bilir. Onun böyük şair və mütəfəkkir Əlişir Nəvainin həyat və yaradıcılığına həsr olunmuş “Məani əhlinin sahibi” *(“Maoniy ahlining sohibqironi”)*monoqrafiyası buna əyani sübutdur. Yaradıcılıq konsepsiyası – şübhəsiz ki, ən mühüm nəzəri məsələlərdir. Nurbay Cabbarov bu mürəkkəb, lakin ədəbi-estetik qanunların əsasını təşkil edən problemi Nizami Gəncəvi ilə Əlişir Nəvainin “Xəmsə”sinin müqayisəli təhlili əsasında dərindən təhlil etmişdir. Alimin fikrincə, bu iki böyük mütəfəkkirin yaradıcılıq konsepsiyasının əsasını aşağıdakı xüsusiyyətlər təşkil edir:

– qələmi və sözü müqəddəs saymaq, onlardan alət kimi istifadə etməkdən çəkinmək;
– mükəmməl sənətkarlıqla yanaşı, dərin məna təcəssüm etməyin zəruriliyi;
– bədii əsər Haqq və həqiqət meyarlarına əsaslanmalı;
– sənətkarın öz müstəqil yolu ilə getməsi və təqliddən uzaq olması.

Nizami Gəncəvi “Xosrov və Şirin” poemasında qələmin[1] müqəddəsliyini vurğulayaraq, sözdəki xətaların qələmlə düzəldildiyini dilə gətirir:

Sözümdə nə xətalıq varsa, keç,
Qələm çək üstünə, qalmasın heç.

– tərzində ifadə etməsi, böyük şairin sözünün müqəddəs sayılmasına səbəb asimana üz tutması, qələminixəzinələrin qıfılını açan almaz nizə ilə müqayisə etmək kimi bəlağət və yetkinliyin əsası olan fikirləri dərk edir və dərindən araşdırır.Belə müqayisədə, Əlişir Nəvai fikrincə, qələm ən sürətli yoldur, ona görə də onun üçün məsafə önəmli deyil, qələmin gedəcəyi yer (fələkdən) səmadan ucadır – Ərşdir. Böyük mütəfəkkirə görə, Qələm əhlinin bunu nəzərdə tutması məskəni fələk fövqündə olan qələmin şərəfini yerə vurmamalı, onunla ancaq və ancaq layiqli sözlər bitirməli olduğu estetik anlayışın mahiyyətini ortaya qoyur. Alimin ən mühüm mülahizələrindən biri budur: “Qələmi mədh edərkən, Həzrət Nəvai qələm əhlinin ustadıŞeyx Nizami Gəncədə rahatlıq tapsa da, atdığı hər addımı xəzinələr üzərində olması fikrini irəli sürür. Ulduzlar səmanı bürüdüyü kimi, onun xəzinəsindən səpələnmiş ləl-cəvahiratların bütün dünyanı bürüməsi, buna sübutdur. Bu xəzinədəki ləl-cəvahiratın dəyəri ondan ibarətdir ki, onu xərcləyən heç vaxt geri qaytarılmayacaq. Kim bu qiymətli daşlardan sərvət əldə edə bilsə, yüz ildə mində birindən az olmaz”. Nurbay Cabbarovun bu mənada xidməti ondan ibarətdir ki, ondan əvvəl ortaya qoyulmuş tədqiqatlarda eyni məsələlər bu cür təhlil olunmayıb.

Monoqrafiyada Nəvainin məna və obraz ahənginə, dünya və ona bağlı rəmzlərə, irfani məzmun və bədii formanın harmoniyasına dair bədii-estetik baxışları dərindən öyrənilmişdir. Təsəvvüfi obraz və rəmzləri təhlil edən Nurbay Cabbarov ondan əvvəl aparılan araşdırmaları təkrarlamır. Problemin həllinə yeni mənada yanaşır, klassik ədəbiyyatın özəyi olan Qurani Kərim və hədislərə, təsəvvüf elminə dair ilkin qaynaqlarına əsaslanır. Elə buna görə də klassik poeziyada təsəvvüfiobraz və istilahların mahiyyətini dərindən açıb göstərir. Alimin bununla bağlı fikirləri nəvaişünaslığı və bütövlükdə ədəbiyyatşünaslığı yeni nəzəri qənaətlərlə, maraqlı elmi şərhlərlə zənginləşdirmək baxımından dəyərlidir.

Nurbay Cabbarovun araşdırmalarında, bundan başqa, Şərq klassik ədəbiyyatının fəlsəfi-estetik əsası olan əruz, qafiyə, bəlağət, fəsahət, məani, bəyan və bədiielmləri ilə bağlı diqqətəlayiq elmi fikirlər vardır. Əlişir Nəvainin və özbək klassik ədəbiyyatının başqa şairlərin əsərlərini məhz bu baxış bucağında təhlil edilir. Bütün bunlar göstərir ki, alimin əsərlərinin nəzəri bazası möhkəmdir və ədəbiyyatşünaslığın yüksək tələblərinə cavab verə bilir.

[1]Bu misranın azərbaycancası belə təqdim edilir: *“Bu söylədiyimdə nə ki, səhvim varsa, Üstünə qələm çək, ey pərvərdigar!”*

Türkologiya üzrə tədqiqatlar. Hər bir alimin əsərlərinin dəyəri, ilk növbədə, mənsub olduğu xalqın estetik təfəkküründün təkmilləşdirilməsinə nə qədər töhfə verə biləcəyi ilə müəyyən edilir. Türk dünyası ədəbiyyatının estetik idealının əsasını təşkil edən türk ruhunun bədii ifadəsi Nurbay Cabbarovun elmi araşdırmalarının əsl mahiyyətini müəyyən edən elmi problemlərdən biridir. Bu baxımdan alimin “Əlişir Nəvai yaradıcılığında türk ruhunun ifadəsi” araşdırması xüsusi əhəmiyyət kəsb edir. Seyid Həsən Ərdəşirə yazdığı poetik məktubun əhəmiyyətinə diqqət yetirən alimin sözlərinə görə, ilk növbədə, bu məsnəvi 1465-ci ildə Əlişir Nəvai iyirmi dörd yaşında ikən yazılmışdır. İkincisi, bu məktubda böyük mütəfəkkirin həyat və yaradıcılığının əsas konsepsiyası – türk ədəbi dilinin yüksək potensialını sübut etmək, millətin şərəf və ləyaqətini qorumaq ruhu güclü şəkildə ifadə olunub.

Poetik bir məktub üçün Şərq şeiriyyətinin nadir nümunələri sayılan Əbülqasım Firdovsinin məşhur “Şahnamə”si, Yusif Xas Hacibin “Kutadqu Bilig”i, cəngnamə ruhunda olan əsərlər mütəqərib bəhri – mütəqəribi musmuli mahzuf vəzni(fauvlun fauvlun alim fauvlun faal V – – / V – – / V – – / V –) seçilməsinin səbəblərini alim hərtərəfli elmi əsasını göstərir. Onun fikrincə, bunun birinci səbəbi mütəqərib bəhrinin türk xalqlarının poetik sistemi –hecanın ən fəal formalarından biri olan on bir hecalı vəznə çox uyğun olmasıdır. İkincisi, o zaman iyirmi beş yaşında olan Nəvainin türk dilini və türk millətinin namusunu qorumaq üçün mübarizə meydanına çıxdığını elan etməsi idi. Qeyd edək ki, bu poetik məktub indiyədək əksər nəvaişünas alimləri tərəfindən araşdırılıb. Amma Nurbay Cabbarova qədər əsər türk ruhunun ifadəsi baxımından təhlil edilməmişdir. Bu xüsusiyyət alimin hər hansı elmi problemi öz elmi konsepsiyası baxımından özünəməxsus şəkildə şərh etmək bacarığından xəbər verir.

Nurbay Cabbarov türk xalqlarının ədəbiyyat tarixinə dair dərin araşdırmalar aparır. Alimin “Əhməd Yasəvi və Yunus Əmrə hikmətlərində ədəbi təsir və ardıcıllıq”, “Hüseyn Cavid yaradıcılığının Özbəkistanda öyrənilməsini təkmilləşdirmək” kimi tədqiqatları bu fikri təsdiqləyir. Nizami Gəncəvinin “Xəmsə”sinin Özbəkistanın xalq şairi Camal Kamalın özbək dilinə tərcüməsindəki nəşri zamanı beşinci dastan “İskəndərnamə” Nurbay Cabbarovun ön sözü ilə çap olunub. Bu ön söz Nizaminin “İskəndərnamə”sinin Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri kontekstində təhlili baxımından xüsusi əhəmiyyət kəsb edir. Alimin XX əsrin əvvəllərində Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələrinə dair analitik məqalələri onun Azərbaycan maarifpərvərləri Nəriman Nərimanov, Hüseyn Cavid, Cəlil Məmmədquluzadə yaradıcılığına dərin analitik təhlili münasibətini əks etdirir.

Özbək cədid ədəbiyyatının tədqiqi. Nurbay Cabbarov cədidçilik və cədid ədəbiyyatı ilə bağlı araşdırdığı tədqiqatların da elmi səviyyəsi yüksəkdir. Nurbay Cabbarovun elmi fəaliyyətində “Mərifət nadir” kitabı, Mahmudxoca Behbudi, Abdulla Əvlani, Abdurrauf Fitrət, Həmzə Həkimzadə Niyazi, Abdulla Qədiri, Əbdülhəmid Çolpanın yaradıcılığına dair analitik məqalələr xüsusi yer tutur. Alimin cədid poeziyası, nəsri, dramaturgiyası və bədii publisistikasına dair onlarla elmi əsərləri çap olunub.Onlarda cədidədəbiyyatın da ictimai gerçəkliyin bədii şərhinin xüsusiyyətləri, millət və milli məsələlərin aydınlaşdırılması, yaradıcı niyyət və estetik idealın ahəngdarlığı, obraz və rəmzlərıın poetikası, Şərq və Qərb mədəniyyətində konseptual münasibətin ifadəsi yeni perspektivə əsaslanan unikal elmi problemlərdir. Alimin “Müasir mətbuatda millət və milliməsələlərinin işıqlandırılması”, “Fitrət yaradıcılığında Şərq və Qərb mədəniyyətinin şərhi”, “Maarifçilik nədir, cəhalət nədir?” kimi yazılar buna əyani sübutdur. “Ötən günlər” də milli ruhun ifadəsi” sərlövhəli məqaləsi bu sıradaəsərin təhlilinin dərinliyi və dəqiqliyi, ifadə tərzinin aydınlığı və axıcılığı ilə seçilir.

Məqalədə milli ruhun özünəməxsus ifadəsini təmin edən meyarlar bunlardır: milli ruhun özünəməxsus adət-ənənələr, milli dəyərlər, millətin ruhunu təcəssüm etdirən arzu və istəklərinin şərhi; millətin özünə tənqidi ruhda baxmaq imkanlarının ifadəsi və milli şəxsiyyətlərə xas olan

sabit inancların poetik təsviri formasında təsnifat əsasında tədqiq edilməsi. Nurbay Cabbarovun fikrincə: “birincisi, millətin əxlaqı, ikincisi, iradəsi, üçüncüsü isə inancını təcəssüm etdirir və bu üçü bütövlükdə milli ruhu formalaşdırır. Milli ruhun əsası sayılan bu üç xüsusiyyətin bir əsər daxilində poetik sintezi istisnasız olaraq fenomenal poetik hadisə sayılmağa layiqdir. Əsərlərin əksəriyyətində bu xüsusiyyətlərin bir-ikisinin təcəssüm etdirildiyi müşahidə olunur. Müvafiq olaraq, milli ədəbiyyat tariximizdə nadir bir əsər bu ədəbi-estetik meyara tam cavab verə bilər. Abdulla Qədirinin “Ötən günlər” romanı da belə nadir əsərlərdəndir.Təbii ki, belə yanaşma alimin fikirlərinin sistemli və əsaslı olmasını təmin edirdi.Nurbay Cabbarovun Çolpan lirikasındakı bəzi rəmzlərin poetikası ilə bağlı məqaləsi analitik təhlil baxımından mühüm elmi dəyərə malikdir.Məqalədə şairin lirikasında tez-tez müşahidə olunan *xəyal, bulud, ulduz, şübh* kimi simvolların bədii funksiyası yaradıcı yanaşma əsasında təhlil edilir.

Ümumiyyətlə, tədqiqatçının cədid ədəbiyyatınadair elmi araşdırmaları göstərir ki, Nurbay Cabbarov akademik-elmi təhlil təcrübəsinə malik ədəbiyyatşünasdır.

Müasir özbək ədəbiyyatı və mövcud ədəbi cərəyanların təhlili Nurbay Cabbarovun yaradıcılığında mühüm elmi istiqamətlərdən biridir.Onun “Zaman, meyar, şeiriyyət” kitabı və 100-dən çox məqaləsi bu fikri təsdiqləyir. Onun Aybek, Şeyxzadə, Mirtemirdən Zülfiyyə, Erkin Vahidov və Abdulla Aripova qədər, Rauf Pərfi, Şövkət Rəhman, Osman Əzimdən Məhəmməd Yusifə, Siracəddin Səyyid və bugünkü gəncliyin poeziyasının təhlilinə aid məqalələri alimin elmi fəaliyyəti haqqındageniş təsəvvür yaratmasına sübutdur. Onun Pirimqul Qədirov, Erkin Əzəm, Xayriddin Sultan kimi müasir özbək nəsr ustadlarının yaradıcılığı ilə bağlı araşdırmaları epik təsvirin özünəməxsusluğu, yaradıcılıq laboratoriyasının sirləri, bədii bacarığı müəyyənləşdirməkmeyarlarını dərindən təhlil etdiyinə görə qiymətlidir.

Alimlər çoxdur, amma onların hamısı elmi məktəb yarada bilmir. Nurbay Cabbarov özbək klassik ədəbiyyatşünaslığı üzrəetiraf olunan məktəbin yaradıcılarındandır. Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək Dili və Ədəbiyyatı Universitetinin saytında və yaratdığı elmi məktəb haqqında ayrıca səhifənin olması da buna sübutdur. Alim mətnşünaslıq və ədəbi mənbəşünaslıq,özbək klassik və müasir ədəbiyyatı, ədəbiyyatın tədrisi metodikası sahələri üzrə elmlər doktoru və fəlsəfə doktoru (RhD) elmi dərəcələri olan 30-a yaxın elmi kadr hazırlayıb.Bunlardan biri Tursun Qurban – Çin Xalq Respublikasının Sincan Universitetinin professoru olması alimin xarici təhsil ocaqları üçün elmi kadrlar hazırladığının sübutudur. İndi də onun elmi rəhbərliyi altında bir çox tədqiqatçılar müxtəlif mövzularda tədqiqatlar aparırlar.

Nəticə / Conclusion

Nurbay Cabbarov elmi və pedaqoji fəaliyyətdəki uğurlarına görə Özbəkistan Prezidenti tərəfindən layiqincə təltif edilib. Alim 2002-ci ildə “Şöhrət” medalı, 2023-cü ildə “Dostluq” ordeni ilə təltif edilib. Nizami Gəncəvi və Əlişir Nəvainin ədəbi irsinə dair bağlı araşdırmalarına görə Azərbaycan Mədəniyyət Nazirliyinin “Nizami Gəncəvi” xatirə medalı ilə təltif edilib.

Azərbaycan ədəbiyyatının və ədəbiyyatşünaslığının yaxın dostu, tanınmış alim Nurboy Cabbarov bu gün də daim və intensiv şəkildə elmi fəaliyyətlə məşğuldur. Gələcək elmi fəaliyyətində alimə böyük uğurlar arzulayırıq.

ƏDƏBIYYAT / REFERENCES

1. Nurboy Jabborov. Ma’rifat nadir. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
2. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: “G‘ofurG‘ulom”NMİU, 2015, 304 bet.
3. Nurboy Jabborov. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent, “Ma'naviyat”, 2015

4. Nurboy Jabborov. Maoniy ahlining sohibqironi. Monografiya. – Toshkent, “Adabiyot”, 2021.
5. Nurboy Jabborov. “Jahon bastik ushadi ilm birla” , (Furqathayotivaijodiningxorijda o’rganilishi) Jahon adabiyoti, 2001, 8-son, 122–129-betlar.
6. Nurboy Jabborov. Furqat nega Furqat? Yoshlik, 2001, 5-6 son. 39–41-betlar.
7. Nurboy Jabborov. Furqat merosi va Xitoy manbalari, Sharq yulduzi. 2001, Ikkinchi fasl, 121–127-betlar.
8. Nurboy Jabborov. Furqat “Tanlanma asarlar”ning Shinjong nashri xususida. O’zbektilivaadabiyoti, 2001, 5-son,61–64-betlar.
9. Nurboy Jabborov. Vatan ishtiyoqin tortaram. Tafakkur, 2002, 1-son, 48–57-betlar.
10. Nurboy Jabborov. Tiramohda bahor orzusi. Yoshlik, 2002, 3-son.
11. Nurboy Jabborov. Furqat istilochi nimaqtaganmidi? O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002-yil 22-fevral.

ЖАМИЯТДА ХОТИН-ҚИЗЛАРГА ЯРАТИЛГАН ИМКОНИЯТЛАР – МИЛЛАТ РАВНАҚИ ЙЎЛИДА

Рузиева Д.И.
ТДИУ, иқтисод фанлари доктори (DSc)

Аёл азалдан мўътабар зот сифатида эъзозланадиган табиатнинг нозик хилқати. Аёл бир қўли билан дунёни, бир қўли билан бешикни тебратадиган, қирқ жонини ишга солиб, оилам, болам, чақам деб тиним билмайдиган мавжудот. Аёлнинг бахти – бу жамият тараққиётининг асоси десак муболаға бўлмайди.

Бизга маълумки, ер юзи аҳолисининг **53** фоизини аёллар ташкил этади. Шунинг учун ҳам гендер муаммолари бугунги куннинг долзарб масалаларидан бирига айланган. Аёлга ҳурмат ва эҳтиром кўрсатиш, уни асраш ва улуғлаш халкимизнинг кўп минг йиллик тарихи давомида шаклланган менталитетининг муҳим сифатларидан бири бўлиб, турмуш тарзимизнинг ўзига хос хусусияти сифатида сақланиб қолмоқда.

Марказий Осиё халқларининг дунёга машҳур —**Алпомиш**, —**Қирқ қиз** каби эпослари, ўзбек халқ эртакларида аёлларнинг мардлиги ва жасорати, уларнинг ақл-заковатда эркаклардан қолишмаслиги ва **Тўмарис, Қурбонжон Додхох, Бибихоним, Нодирабегим, Увайсий** каби буюк тарихий сиймоларимизнинг ҳаёт йўли, дунёқараши, мавқеи асрлар давомида юртимиз аёлларининг чинакам тимсоли бўлиб келмоқда ва тарихимизнинг ёрқин саҳифаларидан муносиб ўрин олмокда.

Буюк соҳибқирон Амир Темур тузукларида —Аёлларга имкон қадар илиқ муомалада бўлишга ҳаракат қилдим", деб айтганлари бежизга эмас.

Амир Темур оила қуриш масаласига **давлат юмушларидек** жуда жиддий эътибор берган. Буюк Соҳибқирон хусусан оила қуриш, фарзандларни уйлантириш ва келин танлаш ҳақида куйидаги фикрларни билдирган: **“Ўғилларим, набираларим ва яқинларимни уйлантирмоқ ташвишида келин изламоққа эътибор бердим. Бу ишни давлат юмушлари билан тенг кўрдим. Келин бўлмишнинг насл-насабини, етти пуштини суриштирдим. Хос одамлар орқали соғлиқ-саломатлигини, жисмонан камолатини аниқладим. Келин бўлмиш насл-насабаси, одоб-ахлоқи, соғлом ва бақувватлиги билан барча қусурлардан холи бўлсагина эл-юртга катта тўй-томоша бериб, келин тушурдим** (Амир Темур ўгитлари, – Т.,1992, 58 бет.).

Жамиятнинг бир қисмини аёллар ташкил этар экан, ҳаётда турмуш юмушларининг кўп қисми улар зиммасидадир. Агар аёл ҳаётда ҳам жисмонан, ҳам маънан соғлом бўлса, демак, жамият соғлом бўлади. Чунки келажакнинг меваси бўлмиш фарзандлар оналар сабабли дунёга келадилар. Уларга бошланғич таълим-тарбия ва одоб-ахлоқни онахон-момохонларимиз ўргатадилар. Шундай экан, келажак авлоднинг солиҳ бўлишлиги бугунги кун аёлларининг солиҳа бўлишларига ҳар жиҳатдан боғлиқдир. Ҳикматларда: **«Ҳар бир буюк шахснинг ортида кучли аёл бор»**, деб айтилган.

Демак, Амур Темур давридан **“Аёлга эътибор – миллатга эътибор”** тамойили амал килган десак, ҳеч муболаға бўлмайди.

Абдурауф Фитрат "Оила" асарида "**Аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги миллий озодлик, эрк учун зарур: аёллар фақат уй-рўзғор билан, бола тарбияси билан банд бўлиб қолмаслиги, уларнинг Европадаги каби сиёсатда қатнашишлари ўринлидир", деган фикрни илгари суради.**

Француз ёзувчиси Виктор ГЮГО Аёлга муҳаббат биз учун буюк, ҳеч нарсанинг ўрнини босолмайдиган аҳамият касб этади. У худди гўштга сепиладиган туздек юракка сингиб, уни бузилишидан сақлайди деб бежизга айтмаган.

Бугунги кунда юртимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш, соғлиғини сақлаш, касбга ўқитиш ва бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка кенг жалб этиш, эҳтиёжманд хотин-қизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, гендер тенгликни таъминлаш борасида олиб борилаётган ислоҳотларни тизимли давом эттириш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Мамлакат иқтисодиётида хотин-қизларга яратилган имкониятлар



1-расм. Мамлакат иқтисодиётида хотин-қизларга яратилган имкониятлар

Хотин-қизларга яратилган бундай шароитлар хотин-қизларни касб-ҳунар эгаллаш, таълим олиши, илмий ва инновацион фаолият билан шуғулланишлари учун шароитлар яратилганлигидан далолат беради.

Юртимизда хотин-кизларни оила ва жамиятда ўз муносиб ўрнини топишига қаратилган катта ислоҳотлар амалга оширилган. Хотин-қизлар масаласи юртимизда давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Айниқса, аёл ҳуқуқлари бўйича қонунчилик

базасининг шакллантирилганлиги демократик давлат талабларидан келиб чиқиб, хотин-қизларни жамиятда муносиб ўрин эгалллашларига муносиб замин яратади.

Аёлга эҳтиром кўрсатиш уни эьзозлаш — миллатга, ватанга, эртанги кунга, келажак авлодларга эҳтиром кўрсатишнинг бош мезонига айланди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, юртимизда хотин-қизларга яратилаётган бундай имкониятлар хотин-қизларнинг эртанги кунга ишончини ошириб, уларнинг жамият хаётида фаол булишларига ундамоқда ва миллатимиз фахри бўлган аёлларнинг мавқеини нақадар юксакларга кўтарилишига замин яратмокда.

Келажагимизнинг баркамоллиги, фарзандларимизнинг бахту иқболи азиз аёллар зиммасида экан, оналик бахти, фарзандлар камоли йўлидаги масъулияти ҳамиша эъзозда бўлиб қолаверади.

ZO‘RAVONLIK IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna
Psixologiya fanlari nomzodi.,
University of business and science universiteti professori v.b.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida oilaning barqarorligini ta’minlash har bir mamlakat genofondini rivojlantirishning asosiy omili sanaladi. Milliy genofond mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shuningdek millat kelajagini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oiladagi zo'ravonlik ijtimoiy muammo bo'lib, patriarxal qadriyatlar hukmron bo'lgan jamiyatlarda odatiy holdir. Biroq oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanganlar muammolarini hal etish va zo‘ravon shaxslarni jazolashda davlatning bevosita ishtiroki muqarrar.

Oiladagi muhit esa ko‘p jihatdan unda tug‘ilib, voyaga yetgan potensial “kelajak egalari”ni tayyorlashga zamin hozirlaydi. Biroq, oila instituti obektiv va subektiv omillar tufayli oxirgi yillarda biroz tanazzulga yuz tutmoqda. Buni bir jinslilar nikohiga ruxsat berilishidan boshlab oiladagi nosog‘lom muhitning paydo bo‘lishi, oilalarning “kriminal markaz”ga aylanishi bilan ham izohlash mumkin.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda oilani hamda uning a’zolarining huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, inson hayoti oliy qadriyat ekanligini kafolatlash yuzasidan tub islohotlar o‘tkazishga alohida ahamiyat berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham “jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash” belgilanganligi mazkur sohani tadqiq etish zarurati mavjudligidan dalolat bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasiga muvofiq, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Konstitusiyaning 26-moddasida esa, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan [1;1].

Zo‘rlik – biror kishining ikkinchi bir kishini zo‘ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan xo‘rlashi, jabr-zulm qilishi[5;199] yoxud shaxsning konstitusiya bilan kafolatlangan shaxsiy daxlsizligi buzilishiga sabab bo‘ladigan, bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy yoki ruhiy ta’sir o‘tkazishidir[5;47]. Ba’zi bir adabiyotlarda zo‘rlik – biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo‘rlik qilishi, kuch ishlatish yo‘li bilan zo‘rlashi, jabr-zulm qilishi sifatida keltirilgan. U insonni jismoniy va ma’naviy zo‘rlash yoxud jabr-zulm qilish shaklida namoyon bo‘ladi.

Oiladagi zo‘ravonlik shaxsga qarshi noqonuniy kuch ishlatish, kaltaklash, zo‘rlash, majbur qilish, ta’sir ko‘rsatish, o‘z hukmronligini o‘tkazish kabi belgilar orqali ifodalanadi. U asosan jismoniy yoki ruhiy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Ruhiy zo‘ravonlik esa ko‘p hollarda qo‘rqitish (bir shaxsni ikkinchi bir shaxs tomonidan qo‘rqitib bo‘ysundirish, o‘zini ko‘rsatish yoxud o‘ziga qaram qilish) shaklida ifodalanadi. Ruhiy zo‘ravonlik asabiylashishning mahsuli bo‘lib, bir shaxsni

qo‘rqitib o‘ziga bo‘ysundirish, uning “ixtiyoriga zid” yoki “tarbiyalash” maqsadlarida qo‘llanilishi ham mumkin. U aybdorga uning qarindoshlari yoki yaqin kishilariga nisbatan bevosita qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan har xil og‘irlik darajasida badanga shikast yetkazish, kaltaklash va boshqa jismoniy kuch ishlatishni jismoniy zo‘ravonlik deb baholash lozim. Bizningcha, zo‘ravonlik jismoniy kuch yoki qo‘rqitish bilan amalga oshiriladigan jinoiy faoliyatdir. Bunda shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid qilish orqali huquq va erkinligi poymol etiladi. Mazkur holatda ta’sir etish deganda, jabrlanuvchiga uning xohishiga qarshi amalga oshiriladigan va unga aniq jismoniy yoxud ruhiy azob beradigan, ya’ni zo‘ravonlik hisoblanadigan ta’sir etishni tushunish kerak.

Jismoniy ta’sir ko‘rsatuvchi zo‘ravonlik harakatlari qatoriga, bizning fikrimizcha, inson badaniga kuch bilan ta’sir qilishning har qanday usuli, ya’ni zarba berishda ifodalanmaydigan xatti-harakatlarni ham kiritish lozim. Masalan, sochdan tortish, qo‘lni og‘ritib ushlash, tananing biror qismini qisish, og‘riq berish, itarib yuborish va h.k. Zo‘ravonliklar jumlasiga qiynoqqa solish, yakkalab qo‘yish, irodaga qarshi harakat qilishga majburlash yoki undash, ushlab turish, zo‘rlash, tegajog‘lik qilish, tahqirlash va xo‘rlash kabilarni kiritish mumkin. Bizningcha, “oiladagi jinoiy zo‘ravonlik deganda oilaning bir a’zosi tomonidan boshqa a’zosiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy ta’sir ko‘rsatish yoxud qo‘llash bilan qo‘rqitish orqali uning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligini, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa daxlsiz huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish orqali o‘z hukmronligini o‘tkazishga qaratilgan xatti-harakat yoki harakatsizlik”ni tushunish lozim. Oiladagi jinoiy zo‘ravonlikning quyidagi turlari mavjud: Jismoniy zo‘rlik jabrlanuvchiga turli darajada tan jarohatlari yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining qarindoshlarini, yaqinlarini o‘ldirish, nomusiga tegish va hokazolar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin[8;42]. Bunda oilaning bir a’zosi tomonidan boshqa a’zosiga nisbatan qasddan uning hayoti, sog‘lig‘iga yoki badanining turli joylariga shikast yetkazish kabi xatti-harakatlar sodir etilib, quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish; kuchli zarb bilan itarib yuborish; turli o‘tkir buyum va narsalarni otish; qurol bilan xavf solish yoki yaralash; uydan chiqishiga jismonan yo‘l qo‘ymaslik; kechasi uxlashga qo‘ymaslik. Ruhiy zo‘rlik – jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma’lumotlarni oshkor etish va hokazolar bilan qo‘rqitish. Ruhiy zo‘rlik va jismoniy zo‘rlik bir-birini taqozo etuvchi va biri ikkinchisini to‘ldirgandagina oqibat kelib chiqishi mumkin. Bunda qasddan oilaning bir a’zosi tomonidan boshqa a’zosining sha’ni va qadr qimmatini kamsitish orqali uning ruxiyatiga ta’sir ko‘rsatish, his tuyg‘ularini so‘ndiruvchi harakatlar qilish, qo‘rqitish va haqoratlash bilan uning ruhiyatiga shikast yetkazuvchi so‘zlar va harakatlarni sodir etishda namoyon bo‘ladi: hissiyot va his-tuyg‘ularni tan olmaslik; ustidan kulaish; jazo chorasi sifatida uning hissiyotlariga e’tibor bermaslik; yolg‘on so‘zlar aytib, undan o‘zining manfaati yo‘lida foydalanish; do‘stlari va qarindoshlariga xavf yetkazish bilan qo‘rqiqish va ular bilan aloqa qilishga yo‘l qo‘ymaslik; u bilan ommaviy joylarga chiqishdan bosh tortish; oila byudjetini o‘zi nazorat ostiga olish; qarindosh urug‘lar orasida sharmanda qilish; uydan ketishini aytib qo‘rqitish; kasal yoki homilador bo‘lganida unga yordam berishdan bosh tortish, tibbiy yordam olishiga qarshilik ko‘rsatish. Oiladagi jinsiy zo‘ravonlik jinsiy aloqaga qilishga majburlaydigan xatti-harakatlar qilish orqali

do‘q-po‘pisa qilish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib shaxsning jinsiy daxlsizligi va ozodligiga tajovuz qilish bilan ifodalanadi. Masalan, erkakning ayoli bilan jinsiy obekt singari muomala qilishi; jinsiy aloqadan bosh tortish yoxud ayolga nisbatan tajovuzkor munosabatda bo‘lish; jinsiy aloqada majburiy xatti-harakatlar qildirish; jinsiy aloqani o‘ta shafqatsizlik bilan amalga oshirish; zo‘rlash yo‘li bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash; avval kaltaklab keyin jinsiy aloqa qilish; parnografik ko‘rinishdagi buzuq xatti-harakatlarni ko‘rishga yoki takrorlashga majburlash va hokazo. Oiladagi jinoiy zo‘ravonlikning yuridik ma’nodagi tushunchasi uning haqiqiy mazmunini toraytiradi, chunki bir qator holatlar hisobga olinmaydi: birinchidan, agar jismoniy zo‘ravonlik to‘g‘risida so‘z yuritilsa, u holda inson organizmiga bevosita jismoniy kuch ishlatish bilan ta’sir ko‘rsatishni qo‘shish mumkin emas. Zo‘ravonlikning ushbu turini zo‘ravonlik bilan cheklash hamda jabrlanuvchini ozodlikdan mahrum qilishga kiritish taqozo etiladi. U odatda jismoniy va ma’naviy azobni keltirib chiqaruvchi, ba’zan jiddiy jismoniy va ruhiy jarohat (masalan, jabrlanuvchini qishda isitilmagan xonada saqlab turish)ga olib kelishi ham mumkin; ikkinchidan, zo‘ravonlikni inson organizmiga “uning ixtiyoriga qarshi” ta’sir ko‘rsatish sifatida ko‘rib chiqish ham mumkin emas. Zo‘ravonlikni insonga uning irodasidan tashqari ta’sir ko‘rsatish sifatida tavsiflash to‘g‘riroq bo‘lar edi, chunki jabrlanuvchi o‘z irodasini namoyon etadigan holatda, zo‘ravon unga qarshi harakat qiladi va bu har doim ham shunday bo‘lavermaydi. Ko‘p hollarda aybdor jabrlanuvchining irodasini mensimaydi; ikkinchidan, zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilishni faqat jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilishga qo‘shish mumkin emas. Ruhiyatga nafaqat jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilish, balki boshqa manfaatlarga, ko‘pincha muhimligi jihatdan sog‘liq va hatto hayotdan mahrum qilishdan ham qolishmaydigan boshqa (masalan, sha’n, qadr-qimmat, erkinlik, obro‘-e’tibor, mulkiy) qadriyatlar ham ta’sir qiladi; to‘rtinchidan, zo‘ravonlikni faqat bevosita inson irodasiga ta’sir ko‘rsatish sifatida ko‘rib chiqilishi hozirgi kunda ancha tordek tuyuladi, chunki insonga ta’sir o‘tkazish qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa narsalar, masalan, moddiy boyliklar, mulk orqali jismoniy zo‘ravonlik esa xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shaklidir. Oila doirasidagi ruhiy zo‘ravonlik deganda, odatda xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik)da namoyon bo‘ladi [2;1]. Muxtasar aytganda, oiladagi zo‘ravonlik – bu o‘zlarining yaqinlari (asosan ayollar va bolalar) ustidan hukmronlik va nazorat qilish maqsadida, odatda aynan bir shaxsga nisbatan jismoniy va ruhiy zo‘rlik qilishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2019 yil 2 sentabrdagi Qonunida tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlari belgilangan. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

– o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to‘g‘risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish;

– maxsus markazlarda, shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish; – ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to‘g‘risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqda xabardor qilish; – sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonlik natijasida o‘ziga yetkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplanishi hamda ma’naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat etish. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash hamda ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to‘lashdan ozod qilinadi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda har oltita oiladan birida janjallar doimiy ravishda yuzaga keladi, bunda turmush o'rtoqlar zarar ko'radi.

Beshta oilaning har uchdan birida ota-onalar bolalarini jismonan kaltaklagan. Har uchinchi uyda turmush o'rtoqlardan biriga nisbatan zo'ravonlik harakatlari mavjud

(odatda turmush o'rtog'i tomonidan), shuningdek, bolalarga nisbatan zo'ravonlik harakatlari ham mavjud.

Ko'rinib turibdiki, zo'ravonlik tarqalishining oldini olish juda qiyin. Amerikalik sotsiologlar M. Strauss, R. Gelles va S. Steinmetz, oiladagi zo'ravonlik muammolari bilan bog'liq holda, quyidagilarni aniqladilar: har qanday kelajakdagi tajovuz individual tajovuzkor harakatni keltirib chiqarishi mumkin.

Kuzatishlarga ko‘ra, ko'plab tajovuzkor ota-onalar o‘z farzandlarida zo‘ravonlikka moyilligini shakllantirib kelajakdagi tajovuzkorlarni "tarbiyalaydilar"

Zo‘ravonlik ko'plab omillar va sabablar natijasida yuzaga keladi va turli vaziyatlarda o‘zini namoyon qilishi mumkin. Ba‘zi g'arb tadqiqotchilari (asosan psixologlar) zo‘ravonlikka moyillikni men o'sib borayotganiga ishora qilishadi.

Zamonaviy jamiyatda tajovuzkorlik qilishga tayyorlik, bu katta ehtimol bilan kishilarda ularga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘lganlardan o‘ch olishga bog‘liq g‘azablangan reaktsiyalar bilan bog‘liq.

Ijtimoiy psixologlar va sotsiologlar yana bir nuqtai nazarni kengroq ko‘rib chiqdilar:

muhim omillar bo'lgan haddan tashqari ko‘p zo‘ravonlik va tajovuzkorlikning sahnalarni translyatsiya qiluvchi ommaviy axborot vositalari janjallar, qotilliklar, zo‘rlashlar va boshqalarni jamiyatda tarqalishiga ta’sir qiladi.

Statistik ma‘lumotlarga ko'ra birgina televizorda qiynoqqa solingan qotillik va zo‘ravonlikni tomosha qilish mumkin.

Ko‘proq telefilmlardagi bosh qahramonlarning yarmiga soatiga o‘rtacha besh-olti marta jismoniy zo'ravonlik qilingan (J. Berkovitz).

Tabiiyki, translyatsiya ta‘sirini inkor etib bo‘lmaydi. Ham kattalar, ham bolalar va o‘smirlarga nisbatan tajovuzkorlikni media oqimlari orqali idrok etish va o'zlashtirishga ta’sir qilib jinoyatlar televizor ekranlarida haqiqiy hayotga qaraganda ancha shafqatsiz va tajovuzkor xarakterdagi real dunyo va tomoshabin fikrni shakllantirishi mumkin.

O’rganishlar ommaviy axborot vositalaridagi xabarlardan so‘ng odamlar jamiyatda zo‘ravonlik keng tarqalganini tan oladi. Turli filmlar, ko'rsatuvlar va video o'yinlarda zo'ravonlikni tasvirlashdan tashqari, axborot vositalari zo‘ravonlik holatlari haqidagi xabarlar bilan to‘ldiriladi. Bunday masalalarda jamiyatda u yoki bu tarzda zo‘ravonlik ta’siridan xoli bo‘lgan qatlamlar kamayib borishini ta’kidlash lozim. Zo‘ravonlik nafaqat shaxslar, oilalar, etnik va diniy guruhlarga, balki butun xalqlarga ham ta‘sir qiladi. Shu munosabat bilan shuni aytish mumkinki, zo‘ravonlik jamiyatdagi muhim muammo bo‘lib, unda jamiyatdagi zo‘ravonlik eng keng tarqalgan turlardan biri sifatida qaralishi mumkin, bu esa katta tashvishlarni keltirib chiqaradi.

Agar zo‘ravonlikning tashqi sabablariga e‘tibor qaratsak, unda turli guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy tengsizlik shaxslarning fikrlari va voqelikni noto‘g'ri idrok etishiga bog‘liq bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, agar ichki manbalariga e‘tibor qaratsak odam tomonidan tajovuzkor harakatlar giyohvand moddalarni iste‘mol qilish, g‘azab, norozilik his-tuyg‘ulari xulq-atvorni o‘rgartirish, bolalik travmalari tufayli ham yuzaga keladi.

Yuqoridagi kabi zo‘ravonlik muammosini bartaraf etishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Oilaviy-maishiy zo‘ravonlikni profilaktika qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3827-son [3;1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 yanvardagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3-son, 2021 yil 8-yanvardagi “Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga”Ijtimoiy shartnoma” va “Himoya orderi” berish, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlarni har tomonlama ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli yordam berish bo‘yicha “Temir daftar”,”Ayollar daftari” kabi yangi tizimlar joriy etildi.

Aholi o‘rtasida “Himoya orderi” bo‘yicha targ‘ibot ishlarini yanada faollashtirish. Bu ishlarga mahalla faollarini, targ‘ibotchi guruh a’zolarini xamda ta’sirchan roliklar tayyorlab, efirga uzatish maqsadga muvofikdir. Tayziq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam beruvchi Respublikamiz markazlarining moddiy ta’minotini yaxshilash va xodimlari malakasini oshirish ham bugungi kun talabidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. https://lex.uz/acts/20596
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘rovonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni https://www.lex.uz/docs/4494709
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Oilaviy-maishiy zo‘ravonlikni profilaktika qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3827-sonli qarori
4. Mirziyoyev SH.M. (2022). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” Farmoni.

5. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T., 2009. – B. 199.
6. “Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikni oldini olish”. Uslubiy qo‘llanma. SH. A. Pulatova, A. SH. Murodov. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi “Oila” ilmiy- amaliy markazi, 2019 yil.
7. Ismailova, Z. K., Musurmanova, A., Shomurotova, N. N., Kholiqova, N. A., & Mamataliev, A. (2021). Methods of training of teachers of technical university on advanced training courses. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2959-2970.
8. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi: Maxsus qism. T.: TDYUI, 2006. –B. 42.

ИЛМИЙ НАЗАРИЯЛАР КОНТЕКСТИДА ИНСОН КАМОЛОТИ (фаоллик феномени мисолида)

Садриддинов Суҳроб Рустамжонович,
Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети
психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Фаолликни илмий ўрганиш фалсафа, социология, психология каби фан тармоқлари дорасида тадқиқ этиладиган мавзу саналиб, бу кунга қадар мазкур соҳада бир қатор изланишлар олиб борилганлигига қармасдан, инсон камолоти жараёнини турли деструктив таъсирлардан ҳимояланиш назари асосида мазкур мавзу чуқур ўрганилмаган. Деструктив таъсирлар деганда, инсон ҳаёти ва фаолиятини барқарор ривожаланишига ғов бўлувчи террористик ва сепаратстик ҳаракатлар, миллий қадриятларни ўрнига сохта қадриятларни киритиш йўлига ҳаракатларни кузатилиши, оилавий қадриятларга путур етказувчи ижтимоий хулқ намуналарини иделлаштириш, этник ва динлараро низоларни келтириб чиқаришга қаратилган ҳаракатларни тушуниш лозим. Кўриниб турибдики, замонавий деструктив таъсирлар турли кўриниш ва мазмунда намоён бўлиб, инсон камолотини таъминлаш жараёнида ғов солувчи асосий омил саналади. Илмий таълимотлар контексти бўйича мавзуга эътибор қаратсак, фаолликни илмий ўрганиш жараёнида, аниқроғи тадқиқот методологиясини танлашда тадқиқотчи ҳар бир субъект ўзида маънавий хусусиятларни мужассам этганлиги туфайли ҳам нотакрор эканлиги сабабли олий қадрият саналади. Маънавий хусусиятлар этник мансубликни ҳам тўлиқ ифода этиб, А.П.Садохин ва Т.Г.Грушевицкаяларнинг ёзишича этнос ҳаётини тавсифловчи муҳим кўрсаткич этник хусусият саналади[1]. Этник хусусиятни ўрганиш мураккаб тадқиқий жараён ҳисобланиб, уни илмий ўрганишда фаолият маҳсулини ўрганиш, социологик сўров, психологик тестлар, кузатув, суҳбат, ҳужжатларни ўрганиш каби тадқиқот усулларидан фойдаланиш мумкин. Кўриниб турибдики, тадқиқот усулларини қўллашда ҳам интегратив ёндашув кузатилади ва айнан интегратив ёндашув этникликни ўзига хос жиҳатларини белгилаш имкониятини беради. Ҳар қандай субъект этномаданият намуналарини сақловчиси ва ташувчиси саналиб, этномаданият намуналари асосан микро муҳит даражасида “S – S” муносабатлар шаклида ифодаланади. Шу сабабли этномаданий хусусиятларни ўрганишда, аниқроғи тадқиқот методологиясини талашда интегратив ёндашиш мақбул саналади. Боз устида, тадқиқот натижалари таълим-тарбия ва ижтимоий муносабатлар маданияти тизимида миллий манфаатларни ҳимоя этишга қаратилганлигини назарда тутсак, кўп миллатли ижтимоий-маданий муҳитда этник мансублик бевосита фуқароларнинг фаоллигини таъминлашга таъсир кўрсатувчи доминант омиллардан саналанади. Чунки этниклик ғоялар, иделлар, қадриятлар, ҳаёт тарзи намуналари, меъёрлар каби мажмуани ифода этиб, ижтимоий муносабатларда меъёрларни аниқлаб, интернализациялашувни таъминлайди. Интернализация эса, атроф-

[1] Садохин А.П., Грушевицкая Т.Г. Этнология. - М.: Академия, 2000. – 304 с.

муҳитни онгли тарзда идрок этиб, яратилган ва қабул қилинган меъёр ва қариятларни субъект фаолиятида ўз аксини топишини ифода этади.

Фаоллик тушунчаси бир қанча маъноларни ифода этиб, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “бирор ғоявий ҳаракат ёки ишга ғайрат билан, астойдил киришадиган, ишчан”, “бирор жамоанинг ижтимоий ҳаётида, фаолиятида астойдил, берилиб ишлайдиган шахс, жамоатчи”, “ҳаракатчан, кўп ҳаракат қиладиган” каби маъноларини ифодаланиши кўрсатилаган[2]. Фаоллик тушунчасининг луғавий маъноларида аниқ мақсад сари онгли ҳаракатларни амалга ошириш деган психосемантика ифодаланган бўлиб фаолликни таъминлаш учун уни ифодаланганлик даражасига эътибор қаратиш лозим бўлади. Айнан шу жиҳат тадқиқотнинг амалийлигини белгиловчи саналади. Бунинг учун фаолликнинг тавсифини методологик жиҳатларига назар солиш лозим бўладики, “S – S” даражасида турли кўринишда ифодланадиган “ўзимизники”, “бегона” тарзидаги ижтимоий масофани белгиловчи кўрсаткичлар ўзига хос тарзда ифодаланади. Жумладан:

а) репродуктив-ўхшатувчан фаоллик (инсонда индивидуал ҳаётий тажриба етарли бўлмаганида, тажриба орттирувчи восита сифатида ифодаланади);

б) изланувчи-таъминловчи фаоллик (ижтимоий-мданий муносабатлар тизимида фаоллик ва эркинликни ошкора ифода этиш ифодаланади);

в) ижодий фаоллик (инсон фаоллигининг юқори даражаси саналиб, маънавий ёки моддий яратувчанлик намунасида ифодаланади) кабиларга.

Назарий тавсифдан кўриниб турибдики, фаоллик касбий, ижтимоий ёки сиёсий муносабатлар тизимида ифодаланишига қарамасдан, беосита бошқарувни амалга оширишда жараённинг динамикасини белгилаб берувчи саналади. Фаолликни у ёки бу даражада ифодаланиши ватан ва унинг тарихига ҳамда маданиятига бўлган қизиқиш ҳамда улар билан ғурурланиш, миллий қадрият, миллий маданият ва анъаналарга эҳтиром кўрсата олиш, маданий ва моддий бойликларга бўлган муносабат ҳамда шу ватанда истиқомат қилаётганлигини шараф билан намоён эта олиши, яшаётган ҳудуд ва унинг табиатини сақлашда бевосита иштироки билан белгиланади. Бизнингча, бу таркибларнинг қаторида бурчни ҳис этиш, миллат ва ватанга мансублик, ҳудуд ва минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий-маданий ҳаётига қатнашиш истаги, ўзининг фуқаролик ҳақ-ҳуқуқини англаш ҳамда ижтимоий-маданий фаолият тури билан шуғулланиш, фидоийлик кўрсата олишга тайёр туриш кабилар фаоллик феноменининг муҳим таркиблари ҳисобланади. Шунинг учун ҳам интегратив ёндашув асосида тадқиқот усулларини танлаш илмий фаолиятнинг самарадорлигини таъминлайди.

Жамият ҳаётини таъминлаш инсон камолотига боғлиқ бўлиб, инсонни камолотга эришиши замирида таълим-тарбиянинг натижаси, фан ва техниканинг ютуқлари ифодаланган бўлади. Барчасини бунёдкори, бошқарувчиси, такомиллаштирувчиси ва истеъмолчиси инсон ҳисобланади. Масалага инсон камолотини таъминлаш нуқтаи назари билан ёндашсак, бу йўналишда фанда бир қатор илмий таълимотлар яратилган. Илмий методология контекстида улари қуйидагича кўрсатиб ўтиш мумкин:

[2] Фаол арабача – ҳаракат қилувчи; таъсирчан. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. IV. Тартибот-Шукр. Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти”, 2020. – Б. 325.

бихевиоризим таълимоти, инсон томонидан намоён этиладиган хулқни ўзгариши рағбатга бўлган муносабат (S – R) тарзида ифодаланади;

когнитивизм таълимоти, ўзига хос тарзда мужассамлашган ички ментал жараённи шаклланиши ва ривожланишини белгилаб беради;

гуманистик таълимот шаклланган манавий имкониятлардан маълум онгли ҳаракатларни амалга оширишда қўлланишни;

ижтимоий-маданий таълимот камолотга эришиш жараёнини ижтимоий контекстда, яъни муҳитда кузатиб барқарор яшаш тарзига эга бўлиш учун маълум сифатларни ўзлаштиришни ифодалайди;

конструктивизим таълимоти ижтимоий муҳит доирасида ўзлаштириладиган сифатларнинг моҳиятини тажриба асосида ўзлаштиришни тақозо этади.

Бу ўз навбатида тадқиқотларни амалга оширишда тадқиқотчи қўйидаги компендиум, яъни жараённи ривожланиш босқичлариининг қисқача баёни тарзида фаолият олиб боришини тақозо этади. Бунда: “илмий муаммони белгилаш – тадқиқот объектини танлаш ундан предметни ажратиб олиш – илмий методологияни белгилаш – эмпирик ўрганиш учун методикаларни (шу жумладан математик-статистика методларини) танлаш – эмперик тарзда жамланган маълумотларни сабаб-оқибат алоқадорлигини инобатга олган тарзда ўрганиш – жараённи галдаги ривожланиш ҳолатига (идеал ҳолатга) келтириш учун тавсиялар келтириш”.

Инсон камолотини таъминлаш контестида биз келтирган компендиумнинг ҳар бир компоненти тадқиқотчи ўрганилаётган ҳолатни узвийлигини таъминлаб, жорий ҳолатни (жорий моделни) тизимли идрок этиб, яхлит тасвирлаш имконини беради. Миллий тараққиётни таъминлашда илм-фаннинг натижаларидан фойдаланишда бу кўрсаткич муҳим ҳисобланади.

Илмий тадқиқотнинг методологик асоси фокус нуқтани белгилаш учун муҳимдир. Бунинг учун тадқиқотчи илмий таълимотларнинг фокус нуқтасига эътибор қаратиши лозим бўлад. Жумладан:

бихевиоризим таълимотининг фокус нуқтаси ташқи муҳитнинг рағбатига, яъни эгалланадиган (шаклланадиган, ривожланадиган) хоссани (хусусиятни) ташқи муҳит томонидан эътироф (рағбат) этилишига;

когнитивизим таълимотининг фокус нуқтаси ички когнитив структурани шаклланиши ва ривожланишига;

гуманистик таълимотининг фокус нуқтаси аффектив ва билиш эҳтиёжларини шаклланиши ва қондирилишига;

ижтимоий-мадний таълимотнинг фокус нуқтаси шахсни муҳит билан муносабатларга киришишида шаклланган психик жараёнларни роли ва ўрнига;

конструктивизим таълимотининг фокус нуқтаси индивид томонидан реалликни тасвирлашига қаратилгандир.

Илмий назариялар контекстида инсон камолотини жараён сифатида ўрганиш учун маълум амал, ҳаракат тарзини танлаш лозим бўлади. Биз фаоллик феномени мисолида муҳим индикаторлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиб ўтишимиз мумкин:

- фуқароларда жамият ва унинг маданий ва иқтисодий соҳасига (сферасига) доир билимга эглиги;
- жамият ҳаётини таъминлашда иқтисодий, маданий, ижтимоий ва сиёсий институтларнинг иштироки;
- фуқароларда ўз позициясини намоён этиш учун мотив, қизиқиш ва истакнинг мавжудлиги;
- жамиятда фуқаролар томонидан фаоллик кўрсатиш учун маънавий-ҳуқуқий асосни яратилганлиги.

Фан нафақат ўтмиш ёки юзага келган жараёнларни тушунтира олади, балки ҳар қандай жараённи диагностикаси ва прогнозини ҳам амалга ошириб[3], уни англаш жараёнини таъминлаб, ижтимоий-маданий аҳамиятдорлигини даражавий тарзда белгилаб беради. Айнан ижтимоий-маданий аҳамиятдорлик ижтимоий ёрдам кўрсатиш ёки ёрдам олиш учун мурожаат қилиш, илмий таълимотлардан (таълим, ишлаб чиқариш ва б.) амалиётда фойдаланишни фақатгина интенсивлигини эмас, балки буюртмачи ва истеъмолчи сифатида маърифатни реал ҳаётга тадбиқ этишни таъминлайди.

Методологик жиҳатдан фан, диагностик ва прогностик функцияси доирасида у ёки бу жараённинг истиқболида юзага келиши мумкин бўлган эҳтимолий ўзгаришлар (шарт бўлган психик хоссани шакллантиришни ва б.) турини ҳам белгилаб бера оладики, ижтимоий институт сифатида бу фан бу вазифани бажара олади. Жараён (ҳолат, ҳодиса) ўзида ўтмиш, жорий ва истиқболда вужудга келиши мумкин бўлган ҳолатларни мужассам этган бўлади. Уни аниқлаш учун интегратив ёндашув асосида тадқиқот усулларини танлаш лозим бўлади. Бу жараёнда тадқиқотчи ўз иқтидорини намоён этиш билан бирга, фуқаролик позицисини ҳам ифодалайди[4]. Чунки тадқиқотчининг фаоллиги субъект сифатида уни ички кечинмаларининг таъсири асосида шаклланиб, эмоционал-иродавий даражага ўтади ва субъектив дунё миқёсидан, борлиқда, яъни аниқ предметларни яратиш (ишлаб чиқариш) ва жараёнларни вужудга келтиришда ифодаланади. Бу ўз навбатида индивидуал ресурслардан фойдаланишни, ижтимоий муносабатлар тизимида ташқи қўзғатувчи тарзида ифодаланади. Агарда, фаол субъект, қабул қилинган ижтимоий меъёрларга амал қилган ҳолда, фаолликни ифода этса, жамоатчилик томонидан эътироф этилади. Бу ўз навбатида туман ва шаҳар миқёсида маърифий тадбирларни ўтказишни режалаштиришда, ҳудуд аҳолисининг этномаданий хусусиятлари, иш билан таъминланганлиги, инфраструктурани ривожланганлиги каби омиллар инобатга олишни тақозо этади. Инобатга олиш, фаолликни ошириш учун тайёланадиган чора-тадбирларнинг мазмунини мақсадли бойитиш учун муҳим ҳисобланади. Шу боис фаолликнинг қуйидаги асосий шакллари борлигини эътиборга олиш лозим:

ижтимоий фаоллик;
жисмоний фаоллик;
маданий фаоллик;

[3] Ғозиев Э., Самаров Р. Илмий ижод ва олимнинг шахси // Таълим муаммолари. 2014. 2 – сон. – Б. 69 – 73.
[4] Коростылева Л. А. Проблема самореализации личности в системе наук о человеке // Психологические проблемы самореализации личности. – СПб., 1997. – С. 13-20.

сиёсий фаоллик;
ижодий фаоллик;
ички фаоллик ва бошқалар.

Назарий жиҳатдан билимлар мажмуасини функционал–тузилмавийлигини инобатга олиб, тадқиқотларнинг назарий асосини мақсадли шакллантириш тавсия этилади[5]. Бунинг учун, тадқиқотчи: эмпирик ва тарихий (тарихий-эмпирик) – фундаментал-тарихий билимларни; табиий ва прогностик (прогностик-табиий) – фундаментал-прогностик билимларни; сунъий ва тарихий (сунъий-тарихий) – технологик-мантиқий билимларни; тезкор ва протобилим (прогностик-тарихий)– технологик-прогностик билимларнинг онтологик бирикмасини эгаллабгина қолмасдан, илмий фаолиятида қўллай билиши лозим бўлади. Айнан онтологик бирикма тадқиқотчи учун вазифадорлиги жиҳатидан жараёнларнинг динамикасини белгиловчи учта нуқтани, яъни:

маънавий жараёнларни шаклланиш нуқтасини;
маънавий жараёнларни ривожлантириш нуқтасини;
маънавий жараёнларни такомиллаштириш нуқтасини белгилаб беради.

Инсон камолоти контекстида фаолликнинг мазкур тарзда баҳолаш ёки типологиясини амалга ошириш, фуқароларнинг фаоллик даражасини оширишни таъминлайдики, буни амалий жиҳат деб кўрсатиш мумкин. Чунки, эҳтиёж ва мотивлар инсонни ҳаракатга келтириб, бизнинг назаримизда фаолликка ундайди. Масалан, фаолликнинг муҳим компоненти ҳисобланмиш билим, нафақат маиший билим, балки ҳудуд ва минтақанинг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ҳаётига доир, миллат ва унинг маданиятига оид, миллий ва умуминсоний ёки касбий қадриятларҳамда диний ва дунёвий билимларни ўзлаштиришни тақозо этади. Бу ҳолат ўз навбатида таълим амалиётида касбий компетенцияларни шакллантириш билан бир қаторда, сиёсий, маданий, иқтисодий, ҳуқуқий, экологик каби компетенцияларни шакллантиришга ҳам эътибор қаратишни тақозо этади. Шу сабабли, таълим-тарбия тизимида ахборот ёки тайёр билим берадиган таълимий манбаларни яратишдан кўра, ахборотни билим шаклига келтиришга йўналтирадиган манбаларни яратиш лозим бўлади. Шунда, ёшларимиз фуқаролик масъулияти ва жамият олдидаги бурчининг мазмунини англай бошлайди. Айнан англаш жараёнида, уларда кечаётган жараёнларга нисбатан фуқаролик муносабати шаклланади. Бу муносабат тарзи эса, фаолликнинг мазмунини таъминлайди.

Таҳлиллар натижасига кўра, фаоллик аниқ мақсад сари онгли ҳаракатларни амалга оширишни англатиб, уни соҳавий дахлдорлиги ёки мазмуний қамрови жиҳатидан ижтимоий фаоллик, жисмоний фаоллик, сиёсий фаоллик, маданий фаоллик ва ички фаоллик кабиларга ажратиш мақсадга мувофиқдир. Агарда, жамиятнинг динамик тарзда тараққий этишини, тараққий этиш жараёнида турли шакл ва мазмунга эга бўлган муаммоларни вужудга келишини назарда тутсак. Айнан фаоллик муаммоларни ечимини топувчи ва тараққиётни таъминловчи феномен тарзида ифодаланади.

[5] Володарская Е.А. Социально-психологическая концепция имиджа науки в обществе // Диссертация доктора психологических наук. – М.: МГУ, 2009. – С. 66.

Глобаллашув жараёнида инсон ва унинг ҳаёт тарзи, жамият ва унинг динамик тараққий этишига ғов бўлувчи сохта қадриятлар, сохта ҳаёт тарзи намунаси, итеъмолчилар синфини яратиш, оилавий қадриятларни емирилиши, меркантилизимни қадрият даражасига кўтарилиши каби ҳаракатлар турли кўринишда ифодаланаётганлигини, террористик ва сепаратистик ҳаракатларни турли кўринишда намоён бўлишини инобатга олсак. Фаоллик, турли деструктив таъсирлардан ҳимояловчи вазфасини бажара олади. Шу сабабли, инсон камолотини таъминлашга доир бўлган таълиотларда фаоллик феноменини мажмуавий тарзда ўрганиб, олинган натижалардан жамият ҳаётини таъминлашда фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Володарская Е.А. Социально-психологическая концепция имиджа науки в обществе // Дис...д-ра психологических наук. – М.: МГУ, 2009. – С. 66.
2. Ғозиев Э., Самаров Р. Илмий ижод ва олимнинг шахси // Таълим муаммолари. 2014. 2 – сон. – Б. 69 – 73.
3. Жичкина А.Е. Стратегии самопрезентации в Интернет и их связь с реальной идентичностью. http://flogiston.ru/articles/netpsy/strategy/
4. Нюттен Ж. Мотивация, действие и перспектива будущего / Под ред. Д.А.Леонтьева. - М.: Смысл, 2004. - 608 с.
5. Парсонс Т. Социальная система / Т. Парсонс; Пер. с анг.; под общ. ред. В.Ф. Чесноковой, С.А. Белановского. – М.: Академический проект, 2018. - С. 369.
6. Садохин А.П., Грушевицкая Т.Г. Этнология. - М.: Академия, 2000. – 304 с.
7. Самаров С., Садриддинов С. Баркамоллик тизимида касбий лаёқатлилик // Таълим муаммолари. 2013, 6-сон. – Б. 10-14.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. IV. Тартибот-Шукр. Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти”, 2020. – Б. 325.

HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI

E’zozxon Qobilova,
Qo‘qon universiteti dotsenti,
Zumradxon Teshaboyeva,
doktorant,
Sug‘diyona Ergasheva,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. mazkur maqolada hikoyachilikning nazariy asoslari, hikoyachilikdagi yangilanish tamoyillari, hozirgi hikoyachilikning rivojlanish tarixi, zamonaviy o’zbek hikoyachilining yetakchi tamoyillari masalasi Abduqayum Yo’ldosh hikoyalari misolida tahlil qilingan. Abduqayum Yo’ldosh hikoyalarida “shahar” va “qishloq” makonining o’rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, hikoyachilik, tamoyil, yangilanish, Shahar, qishloq, janr, mahorat.

Abstract: this article analyzes the theoretical foundations of storytelling, the principles of renewal in storytelling, the history of the development of modern storytelling, and the leading principles of modern Uzbek storytellers on the example of the stories of Abduqayum Yoldosh. Abduqayum Yoldosh's stories reveal the role and importance of "city" and "village" spaces.

Keywords: story, storytelling, principle, renewal, City, village, genre, skill.

Аннотация: в данной статье на примере рассказов Абдукаюм Йўлдошев анализируются теоретические основы повествования, принципы обновления в повествовании, история развития современного повествования, а также ведущие принципы современных узбекских сказителей. Рассказы Абдуқаюм Йўлдошев раскрывают роль и значение «городских» и «деревенских» пространств.

Ключевые слова: рассказ, повествование, принцип, обновление, город, село, жанр, мастерство.

Hikoya janrida yozuvchining badiiy niyati, asarni yozishdan maqsadi aniq bo‘lishi lozim. Ortiqcha tasvirlar, tafsilot va detallardan xoli bo‘lgan badiiy matn ko‘tarilgan mavzu va g‘oyani o‘quvchiga anglata olishi muhim hisoblanadi. “Ba’zilar asarga chiroyli detal kiritishga o‘ch bo‘ladi. O‘sha detal chiroyli bo‘lsa bordir. Ammo asarning bosh maqsadiga xizmat qilmaganidan keyin tegirmonchining mahsisiga o‘xshab qolaveradi, oyoqni bir qoqsangiz yopishgan un gardi tushib ketadi-yu, burishgan mahsi ko‘rinib qoladi. Detal pardoz emas, husn bulib asarni ochishi kerak”,[1.137] deydi Abdulla Qahhor. Detallar aniq bir maqsadga xizmat qilishi lozim. Garchi bu fikr faqat hikoya uchun aytilmagan bo‘lsa-da, badiiy asarga nisbatan belgilangan mezon sifatida barcha janrlarga tegishli deyish mumkin. Hikoyaning qisqalik va ixchamlik xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, yozuvchi “gapning indallosi”ni unutib qo‘ymasligi talab etiladi. Hikoyaga xos nazariy qarashlar janrni yaxlit bir qolipga solib, ijodkorni chegaralab qo‘yishni nazarda tutmaydi. Umumiy xususiyatlar barcha hikoyalar uchun taalluqli bo‘lavermaydi. Ijodkor bu nazariy qarashlarni butkul inkor etmagan holda yangilanishlardan cho‘chimasligi lozim.

Ijtimoiy hayot voqeligiga eng hozirjavob janr sifatida hikoyani aytish mumkin. Hajm va murakkablik nuqtai nazaridan roman va qissa hikoyachalik ijtimoiy jabhaga tezkor badiiy munosabat bildira olmaydi. O‘zbek hikoyachiligi XX asrning boshlarida Abdulla Qodiriy va Cho‘lpondan boshlangan. A.Qodiriyning “Uloqda”, “Jinlar bazmi”, Cho‘lponning “Kleopatra”, “Nonvoy qiz”, “Qor qo‘ynida lola”, “Do‘xtur Muhammadyor” hikoyalari o‘zbek hikoyachiligiga tamal toshini qo‘ygan asarlar desak, xato bo‘lmaydi. Keyinchalik G‘afur G‘ulom va Oybekning ham bir qator hikoyalari ushbu janr takomilida muhim rol o‘ynadi. Abdulla Qahhor esa hikoyachilikda alohida maktab yaratdi. Shukur Xolmirzaev hikoyalari ham janr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi hikoyachilik bir asr oldin boshlangan jarayonning ma’lum ma’noda davomidir.

Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida hayotning birgina epizodidan ko‘ra bir-biriga zanjir kabi bog‘langan uch-to‘rt voqea ko‘proq tasvirlanadi. Yozuvchi hikoyalarida shahar va qishloq makoni aralash holda keladi. Ba’zan qishloqdan boshlangan voqealar shaharda nihoya topsa, ba’zan shahardan boshlanib, orada qishloqqa ko‘chadi va yana shaharda tugallanadi. Ko‘pgina hikoyalarida asosiy voqealar shaharda kechadi. Shahardagi voqealar ham qishloq sog‘inchi bilan yashaydigan, qishloqda o‘tgan bolaligini orziqib yodga oladigan qahramonlar bilan bog‘liq. “Puankare”, “Parim bo‘lsa” kabi hikoyalari janr xususiyatlari jihatidan qissaga yaqin.

Mahoratli yozuvchi hayotni o‘ta ziyraklik bilan kuzatadi. Bu kuzatuvlari yuksak badiiyat bilan qog‘ozga tushsa, san’at asari dunyoga keladi. Ildizi hayotdan suv ichgan asarning umri uzoq bo‘ladi. O‘quvchi bu asardagi tabiiylikdan, haqqoniylikdan qoniqish hosil qiladi. Qo‘shimcha detallar, asar tili o‘quvchiga estetik zavq ulashadi. Hayotni kuzatib, unga mohir sinchi kabi tashxis qo‘ya olgan ijodkor uchun mavzular ham serob. Yaxshi mavzu, qiziqarli syujet va muhim g‘oyadan mukammal hikoya bino bo‘ladi. “Biz bir vaqtlar mensimayroq tilga oladigan oilaviy,maishiy turmush ikir- chikirlari deb atalgan sohada ham shaxsning bisoti, hayoti ma’nosini ochish, kashf etish imkoniyatlari ko‘p”.[2.43] Shunday asarlardan biri – “Alvido, go‘zallik”[3.122] hikoyasi o‘z nomiga monand go‘zallikning ayanchli yakuni haqida. Go‘zallikning nimaning ramzi? Muallif nazdida har qanday go‘zallikning qadriga yetilmasa, u xorlik va e’tiborsizlikka duchor etilsa, bu go‘zallikdan asar qolmaydi. Dostoevskiyning uchqur iborasi bo‘lmish “Dunyoni go‘zallik qutqaradi” tezisiga qarama-qarshi fikrni o‘rtaga tashlaydi yozuvchi. Go‘zallikning kuchi dunyoni qutqarishga yetmaydi. Aksincha, go‘zallikni bu dunyoning kir qo‘llaridan, yuho nafsidan qutqarish lozim. Yo‘qsa, zavol topgan go‘zallikning badali juda og‘ir bo‘ladi.

Muallifning hikoya boshida qayd etganidek, voqea “saksoninchi yillarning oxirida” bo‘lib o‘tadi. Hikoya boshida ovul ahlining fe’l-atvori tasvirlanadi. Ovulining aksariyat erkaklari “ichishni yaxshi ko‘rishadi”, to‘ylar janjalsiz o‘tmaydi; ayollari esa kun bo‘yi mol-hol tashvishi bilan band bo‘lishadi, kechqurunlari, “televizorda biror bachkana, uzundan uzoq serial bo‘lib qolsagina ko‘pchilik dasturxon atrofida o‘tirib, shuni tomosha qilishadi”.[3.122] Ovul odamlari turmushning mashaqqatli yumushlariga bo‘yin eggan, mehnatdan ortmaydi. Hikoya qahramoni – yaqindagina armiyadan qaytgan Muslimning xotini Oysuluv. Roviy uning benihoya go‘zalligi haqida mish-mishlar urchiganini bayon qilarkan, Omon traktorchi “Ey, ammo-lekin bir qoshiq suv bilan yutib yuborsa bo‘larkan-da”, deya ta’rif berganini, bu maqtovga kelinchakni ko‘rib kelganlarning hayrati qo‘shilganini, “Hatto aytishlaricha, ba’zi odamlar ishgayam to‘g‘ri yo‘l qolib, Marvarid momoning

uyi yonidan o‘tib qaytadigan bo‘lishibdi. Bola-baqra-ku, bu hovlidan beri kelmasmish hisob”,[3.123] deya hayratini izhor etadi.

Hikoya o‘sha ovuldagi bir o‘smir tilidan hikoya qilinadi va u insondagi bu qadar o‘zgaruvchanlik, hayot chig‘irig‘i insonni ne ko‘ylarga solishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul yozganidek, “Inson nega tug‘iladi? Yashashdan maqsad nima? Qalb va tafakkur qachon erkin bo‘ladi? Odam qismatining murakkabligini ochish jasorati qandoq? San’atkor o‘z qalbining qasriga kira olgandagina bu savollarga yuksak va yangicha javoblar qaytara oladi. Negaki, u yurak qasridan hech payt qup-quruq qo‘l bilan qaytmaydi”.[4.154] Bola hammani maftun etgan, odamlarda havas va hasad tuyg‘ularini qo‘zg‘agan betakror go‘zallik sohibasining qismat o‘yinlariga tez yengilishidan lolu hayron qoladi.

Muallif o‘z qadrini topmagan go‘zallik uni keraklicha qadrlamagan olomon uchun muqarrar jazo bo‘lishi mumkinligini bildirmoqchi bo‘ladi. Qolaversa, hayotning shafqatsiz sahnalarida nafaqat insonning botini, balki zohiri ham zavol bo‘lishi mumkinligiga urg‘u beradi.

Bolalik nigohi go‘zallikni boshqacha ko‘radi. Beg‘ubor, har qanday g‘ayur istaklardan xoli nigoh bilan. Hikoya qahramoni ta’rifi tillarda doston bo‘lgan kelinchakni ilk bor ko‘rgandagi tasvir bu fikrga isbot bo‘ladi: “Ayollar bashorat qilishgan ekan. To‘ydan keyin oradan ikki hafta o‘tar-o‘tmas Muslim aka xotinini chopiqqa chiqardi. Shunda biz ko‘rdik, darhaqiqat, kelinchak juda chiroyli edi. Ismiyam jismiga monand: Oysuluv. Atlas ko‘ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o‘padigan, oppoq yuzli, kipriklari uzun-uzun, jismi nozikkina bu ayolni bolalar negadir «Kumush checha» deb chaqirishardi. O‘ziyam kinodagi Kumushga juda o‘xshab ketardi-da...” [3.123]

Oysuluv o‘zining go‘zalligi bilan ovuldagi yoshu qarining tiliga tushadi. Hikoya so‘ngiga qadar o‘quvchini “Muslim shu go‘zallik sohibasiga munosib edimi? Qaysi xislati uchun taqdir uni shunday bebaho go‘zallik bilan siyladi?” degan savol qiynaydi. Hikoya qahramoni bu qadar nafosatu nazokat, husnu chiroyga ega Oysuluvni qishloq manzarasida tasavvur qila olmasdi. U boshqa ayollar kabi mehnat qila olmaydi. Erining tazyiqi ostida zo‘r berib ishlashga tirishsa ham, bunday ishlar uning qo‘lidan kelmasdi. Hikoya so‘nggida qahramon shahardan qishloqqa qaytadi. O‘z ta’biri bilan aytganda, “shu orada men shaharga, imtihonlarni topshirishga ketdim. Baxtim chopib, institutga kirdim. Joy topish, o‘qish tashvishlari bilan bo‘lib qishloqqa qaytib kelolmadim. Oradan bir yilga yaqin vaqt o‘tdi. Iyun oyining o‘rtalarida ovulga keldim”.[3.127] Qahramon qishloqqa kirib kelarkan, o‘sha tanish manzara o‘zgarmaganini ko‘radi. Suv tarqatilayotgan joyda ayollarning navbat talashib baqir-chaqir qilayotganiga parvo qilmaydi. Biroq bu shang‘i tovushlar orasida o‘ziga tanish ovozni eshitib qahramon lolu hayron qoladi. Ovoz kelayotgan tomonga qaraganda, paqirlarini, plastmassa idishlarini sisterna quvuridan oqayotgan suvga birinchi bo‘lib qo‘yishga urinib bir-birlarini sur-sur qilayotgan ayollar to‘pi ichida turgan bir qop-qoragina, dog‘ bosgan mushtday yuzini ajin to‘rlatgan, sochlari to‘zib ketgan, eski xalat kiygan juvonning baqirayotgani e’tiborini tortadi. “Darvoqe, ayollarning hammasi baqir-chaqir qilishar, ammo men faqat shu juvonning so‘zlarini eshitardim. Zero, bu o‘sha, bir yilgina muqaddam go‘zalligi va ma’sumaligi bilan bizni hayratlarga solgan Oysuluv yanga edi…”, [3.128] deydi hayratdan dong qotgan qahramon.

Hikoyadagi tragizm cho‘qqisiga yetgan o‘sha epizoddan so‘ng qahramonni bir qancha savollar qiynaydi. Bu savollarda muallifning ham o‘quvchiga murojaati bor: “Qani men ko‘rgan Oysuluv yanganing suluvligi, ibosi? Qani men Oysuluv yanganing ko‘zlarida ko‘rgan o‘t? Bugun, ikki paqir sho‘r suv uchun jonini jabborga berib talashayotgan, shu suvni olgani uchun o‘zini baxtiyor sezayotgan Oysuluv yangani kim, kimlar bu ko‘yga soldi…”[3.129] Bu adoqsiz savollarga javob topish o‘quvchining o‘ziga havola qilingan. Aslida bular ritorik so‘roq gaplar ekanini anglaymiz. Hikoya nomidagi go‘zallikka nisbatan qo‘llangan “alvido” so‘zining mazmun-mohiyati hikoya finalida oydinlashadi. O‘z o‘rnida Dostoyevskiyning uchqur iborasiga qarama-qarshi xulosa ham shu savollar orqali anglashiladi. “Nahot, nahot endi bir insonning umri shu bilan o‘tib ketsa…”,[3.129] deya yozg‘iradi qahramon hikoya so‘nggida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К.Паустовский. Олтин гул.- Тошкент, 1967, 137-бет
2. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2010, 43-бет.
3. Абдуқаюм Йўлдошев. Алвидо гўзаллик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011, 122-бет.
4. Иброҳим Ҳаққулов. Шеърият – руҳий муносабат: Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 154-бет.

ICHKI ISHLAR PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING AHOLINING HUQUQIY MADANIYATI DARAJASINI YUKSALTIRISH VA JAMOATCHILIK FIKRINI O’RGANISH BORASIDAGI VAZIFALARI

Temirova Mashhura Muhammadaminovna
Qo’qon Davlat pedagogika insituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqoalda mustaqillik yillarida ichki ishlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, profilaktika inspektorlarining davlat organlari va muassasalari bilan hamkorligi faoliyati istiqbollari to’risida so’z boradi. Shuningdek maqolada respublikada ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatining hamkorlikdagi samarali natijalari tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: ichki ishlar, jamoat, huquq, millat, erkinlik, xavfsizlik, jinoyat, jazo, huquqbuzarlik, tartib, intizom.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohatlar zamirida, avvalo, inson manfaatlarini himoya qilish, uning huquq va erkinliklari ta’minlash vazifasi mujassam. O’zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyev ushbu masalalarga alohida to’xtalib, “Biz “Adolat – qonun ustuvorligida” degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun, avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma’suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko’rishimiz darkor” [1] , deb ta’kidlab o’tdi.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6196-son farmoni[2]ga muvofiq, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o’zida hal etish, shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda “jinoyat o’choqlari”ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish – ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida belgilanib, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi choralari ko’rilmoqda.

Turli xil ko’rinishdagi tahdid va xavf-xatarlar ko’payib borayotgan bugungi sharoitda mamlakatda, uning har bir mahallasida, hatto eng chekka qishloqlarida ham tinchlik va

[1] Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи. – 2016. – № 243 (6678) Б. 1–3.
[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон фармони // https://lex.uz/docs/5344118.

osoyishtalikni, inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat, xususan, ichki ishlar organlarining eng dolzarb va murakkab vazifalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Ichki ishlar idoralari tizimlarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida har bir mahalla, eng olis, chekka qishloq va ovullarimizgacha xalq bilan ishlaydigan uning dardu g’amiga hamdard, quvonchu tashvishiga sherik bo’lishga, hamnafas bo’lishga ma’naviy jihatdan qodir profilaktika inspektorlari faoliyat ko’rsatishiga erishish imkoni yaratildi. Bunda birinchi navbatda mahalla hududlarida tashkil etilgan ichki ishlar organlarining eng quyi bug’ini bo’lgan tayanch punktlari faoliyatini yo’lga quyilganligini keltirib o’tishimiz mumkin. Bugungi kunda Respublikamizning eng chekka hududlarida ham ichki ishlar organlarining eng quyi bug’ini bo’lgan tayanch punktlari tashkil etilgan bo’lib, ularning faoliyati ichki ishlar idoralari xodimlari va keng jamoatchilikning o’zaro uzviy hamkorligi asosida yo’lga quyilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda profilaktika inspektorlari to’g’ridanto’g’ri mahallalarda fuqarolar bilan ishlaydigan xodimdir, shu boisdan 43 ularning xizmat faoliyatini to’g’ri tashkil etish va buning uchun barcha shartsharoitlarini yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Biz “Adolat – qonun ustuvorligida” degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun, avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma’suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko’rishimiz darkor[3]”.

Mamlakatimizda 2014 yil 14 may kuni qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”[4] gi qonun hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to’g’risida”gi[5] (2017) qarori ham aynan mazkur xususiyatlar va qoidalar asosida shakllantirilgan bo’lib, asosiy maqsadi jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Fuqarolik jamiyatini barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O’zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo’nalishi bo’lib qoladi. Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o’ta shiddat bilan o’zgarayotgani va turli tahdidlar ko’pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo’lmaydigan g’oyat murakkab vazifalarni qo’ymoqda. Shu sababli O’zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug’dirishi mumkin bo’lgan tahdidlar, o’z yechimini kutayotgan eng muhim muammoli masalalarga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Bu albatta jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishdir. Jinoyatni ochishdan ko’ra uning oldini olish bugungi kuning dolzarb masalasi xisoblanadi.

[3] Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови / Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи, 2016. – № 243 (6678) – Б. 1–3

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: http://www.lex.uz.

[5] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2833-сон (14.03.2017.) қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – № 12. – 184-м.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng quyi bo’g’ini bo’lgan Mahalla huquq-tartibot maskanlari, shuningdek, u yerda kunu tun faoliyat olib boruvchi, hududga jalb etilgan kuch va vositalarning faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish bo’yicha belgilangan kompleks tizimli choratadbirlarning o’z vaqtida sifatli amalga oshirilishi, albatta, “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo’nalishdan iborat 2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da, xususan, uning “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy shartlaridan biri bo’lgan “mahalla – sektor – tuman – viloyat – respublika” hududida tinchlik va osoyishtalikni hamda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи. – 2016. – № 243 (6678) Б. 1–3.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон фармони // https://lex.uz/docs/5344118.
3. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови / Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи, 2016. – № 243 (6678) – Б. 1–3
4. 1 Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: http://www.lex.uz.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2833-сон (14.03.2017.) қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – № 12. – 184-м.
6. Azimova M.M.O‘zbekiston mustaqilligi yillarida sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati xuquqiy asoslarining yaratilishi va takomillashtirilishi (Farg’ona viloyati 1991-2010 yillar misolida) Yosh Tadqiqotchi Jurnali, Vol. 3 No. 1 (2024) ISSN: 2181-3132 3(1), 69–74. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/623
7. Ганиева, М. А. "Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии." Наука и современность 22 (2013): 179-181.
8. Ганиева, М. А. (2013). Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии. Наука и современность, (22), 179-181.
9. Ganiyeva, Muborak. "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ

билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола." Архив научных исследований (2019).

10. Ganiyeva, M. (2019). 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Архив научных исследований.

11. Madaliyeva Xurshida Ulug‘bek qizi, & Muborakxon Ganiyeva. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 350–352. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.445

12. Ганиева, М. А. "САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ." Экономика и социум 3-2 (106) (2023): 468-474.

13. Ганиева, М. А. (2023). САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ. Экономика и социум, (3-2 (106)), 468-474.

14. Ганиева, Муборак Адиловна. "Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение»." Вестник Университета Российской академии образования 3 (2010): 135-137.

15. Ганиева, М. А. (2010). Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение». Вестник Университета Российской академии образования, (3), 135-137.

16. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7.

17. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).

18. Boltaboyev, M. (2020). HISTORY OF RELIGIOUS CONFESSIONAL POLITICS IN THE SOVIET PERIOD. Theoretical & Applied Science, (6), 668-671.

19. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, August). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN: https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1251. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).

20. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, June). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN. In Конференции.

21. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59

22. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). O’ZBEKISTON RESPULIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg’ona viloyati IIB misolida). Research Focus, (Special issue 1), 52-55.

23. Темирова, М. М. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ РАДИОСТАНЦИИ (1926-1930 гг.). In Культура и гуманитарные науки в современном мире (pp. 110-116).

24. Темирова, М. М. (2020). СОВЕТ ҲУКУМАТИ ДАВРИДА РАДИОНИНГ КОММУНИСТИК МАФКУРА ТАРҒИБОТИ ВОСИТАСИГА АЙЛАНТИРИЛИШИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).

25. Темирова, М. М. (2016). Қўқон хонлигининг савдо алоқалари (Шарқий Туркистон мисолида). Молодой ученый, (3-1), 4-5.

26. ТЕМИРОВА, М. HISTORY OF RADIOFICATION INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN. UNIVERSITETI XABARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.

TARBIYA DARSLARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM

Valixanova Nigora Abdukaxxorovna
“University of economics and pedagogy” NOTM professori v.b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Tarbiya fanlarida yangi pedagogik texnologiyalarni, xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llash o‘quvchida ijodkorlik, tanqidiy tafakkur, muloqotga kirishuvchanlik va moslashuvchanlik kabi qobiliyatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tamoyillar, Tarbiya fani, boshlang‘ich ta’lim, ijodkorlik, noan’anaviy dars shakllari,

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqgan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta’lim texnologiyasida har bir o‘quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi-o‘qituvchi hamda o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligi ko‘zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi [1].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega. Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko‘rsatish, unga yordamlashish hislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqimiz bolalarga “siz” deb munosabat qilar, kattalar ularga birinchi bo‘lib “salom” berarlar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlarga asoslangan ta’limimiz, jahonda fanning shakllanishi va rivojiga o‘zining munosib hissa qo‘shgani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Al-Buxoriy, A.G‘ijduvoniy, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobir kabi buyuk ajdodlarimizning ta’limoti, jahon sivilizasiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quv vaziyatlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog‘liq. Bunday o‘quv mashg‘ulotlarining shakllari turlicha. Ular orasidan alohida e’tibor dars jarayonida o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining tadqiqot-izlanish metodlari hamda dialogli shakllariga qaratiladi, shuningdek, ko‘rgazmali, tasviriy, reproduktiv va boshqa metodlar ham qo‘llaniladi. Bunday mashg‘ulotlarning shakl va usullari bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiyasi va tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchining yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan holdagi shart-sharoitlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Ana shundan kelib chiqib o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin.
3. O‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik, bilimlarni o‘zlashtirmasligi, o‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.
4. Ta’limda «muvaffaqiyat muhitini» tashkil etish, o‘quvchiga o‘qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O‘quvchiga atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.
5. O‘quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash

Pedagogik qadriyatlarning subyektiv idrok qilinishi va belgilanishi o‘qituvchining shaxsiyati boyligi, uning kasbiy faoliyatining yo‘nalishi bilan belgilanadi [3, B. 112]. Shundan kelib chiqib o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi:

- *insonparvarlik*, ya’ni o‘quvchiga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;
- *hamkorlik*, ya’ni pedagog va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- *erkin tarbiyalash*, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonida 2020-yil 6-iyul kuni “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi ishlab chiqildi. Chunki, bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish, ularni intellektual salohiyatini oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalashni zamonni o‘zi talab etmoqda.

Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini va amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish, bolalarning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishga, o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish, kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlantirish, yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish, o‘zini-o‘zi baholashga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish kabilar konsepsiyada mujassam etilgan [2].

Pedagogik texnologiya o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir [4.

Yangi pedagogik texnologiya o‘quvchiga ta’lim jarayonining subyekti, ya’ni faol ishtirokchisi, o‘qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o‘quvchi faol ishlovchi shaxs bo‘lib, u butun mashg‘ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo‘llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma’lumdan noma’lumga qarab boradi.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg‘otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish demakdir.

Tarbiya fani o‘quvchida ijodkorlik qobiliyatini shakllantiruvchi fan hisoblanadi. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini beradi. Tarbiya darslarida ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning ayrim noan’anaviy dars shakllarini keltiramiz:

Sho‘ng‘ish darsi – ma’lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo‘lishi yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o‘rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi – o‘quvchilarning o‘zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi – dars jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro hamda o‘qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o‘zlashtirish mashqi.

Ijod darsi – o‘quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi – o‘quvchilarning o‘zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Shubha bildirish darsi – dars mavzusi bo‘yicha qoidalar, xulosalarni agar notog‘ri deb hisoblansa, nimalar bo‘lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o‘tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi – o‘quvchilarning ayrim mavzular bo‘yicha mustaqil o‘rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi – ilgari o‘tilgan mavzular bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o‘tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi – o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o‘ylab topishlari mashqini o‘tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi – dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o‘zlashtirishni ta’minlash darsi.

“**Paradokslar” darsi –** o‘quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘rganilayotgan mavzuni har turli “paradokslarga” bog‘lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o‘tkazish asosida to‘g‘ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi- yangi dars mavzusiga doir savollar bo‘yicha o‘quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to‘g‘risida ma’lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o‘quvchilar darsni o‘zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta’minlash darsi.

Ekskursiya darsi – bu darslarda o‘quvchilarni turli obyektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat obyektlari, ilmiy muassasa va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog‘lash va kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta’minlanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo‘lgan obyektlarga, ular to‘g‘risida filmlar, turli ko‘rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo‘lgan hollarda, ularni o‘quvchilarga namoyish etib, tushuntirish orqali video ekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish faoliyatida o‘quvchi shaxsining kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta’minlash juda muhimdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. -T: 2001.
2. Valixanova N.A. Tarbiya darslarini tashkil etish. Uslubiy qo‘llanma. 2024.
3. Valixanova N.A. Qadriyatlarning o‘qituvchi faoliyatidagi uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi roli va o‘rni – Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2023
4. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta’lim markazi, 1999.

ДЕТСТВО В СОЦИОЛОГИЧЕСКОМ ИССЛЕДОВАНИИ

Самира Рахимова,
старший преподаватель кафедры «Дошкольное образование»
филиала РГПУ им. А.И. Герцена в Ташкенте

Аннотация: в статье обсуждаются особенности социологического подхода к изучению детства. Проанализированы основные социологические теории и концепции, касающиеся этой темы.
Ключевые слова: социология детства, концепции детства, социализация детей.

Annotation: This article discusses the characteristics of the sociological approach to studying childhood. It analyzes the main sociological theories and concepts related to this topic.
Keywords: preschool child, family, upbringing, education, parents, teacher, development.

Annotatsiya: Maqolada bolalikni o‘rganishdagi sotsiologik yondashuvning xususiyatlari muhokama qilinadi. Ushbu mavzuga oid asosiy sotsiologik nazariyalar va kontseptsiyalar tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: bolalik sotsiologiyasi, bolalik kontseptsiyalari, bolalarni ijtimoiylashtirish.

Детство — это важная часть жизни человека и культуры, как на уровне общества в целом, так и отдельных народов. Оно представляет собой особенный этап не только психофизического, но и социального развития личности. Детство играет ключевую роль в формировании жизненного пути человека. Несмотря на его значимость, интерес к научному изучению детства возник относительно недавно. Лишь во второй половине XX века оно стало объектом внимания гуманитарных и социальных наук. Сегодня не существует единого понимания термина "детство", и его трактовки разнятся в зависимости от контекста. Детство рассматривается в социологии как многослойное и сложное явление, требующее комплексного анализа. Социологическое изучение детства включает несколько ключевых аспектов:

Социологический подход. Социология детства изучает детство как структурный элемент общества, а не просто как промежуточный период жизни. Здесь детство рассматривается как социальный конструкт, формируемый и поддерживаемый различными институтами общества. Такой подход позволяет анализировать детство не только как возрастной этап, но и как важный социальный феномен,

Функционалисты видят детство как переходный период, необходимый для подготовки детей к взрослой жизни. К. Дэвис утверждает, что наиболее значимые социальные функции выполняются взрослыми, и дети в основном готовятся к будущей роли. Т. Парсонс и Ш. Айзенштадт рассматривают детство как этап социализации, где дети учат нормы и навыки для взрослых ролей, а отклонения от норм трактуются как девиантное поведение.

Концепция Дж. Квортрупа: Дж. Квортруп подчеркивает, что детство является активной частью социальной структуры. Дети участвуют в организованных видах деятельности и взаимодействуют со взрослым обществом, играя активную роль в социальной системе.

Современные концепции трансформации: Кризис детства: Некоторые исследователи, такие как Б. Д. Эльконин и В. И. Слободчиков, указывают на кризис детства, когда процессы взросления и освоения культуры начинают расходиться.

Индивидуализация и эмансипация: У. Бек и Х. Попитц акцентируют внимание на том, что дети получают все более значимое место в социальной структуре.

Исчезновение и стирание границ: Н. Постман и Д. Рихтер обсуждают исчезновение детства и стирание границ между детством и взрослостью, отмечая изменения в социальной роли детей.

В психологии детство рассматривается как начальная фаза индивидуального развития, от рождения до подросткового возраста. Медико-биологические науки, такие как педиатрия и детская психиатрия, видят детство как период физического роста, с характерными детскими заболеваниями. В юридической сфере детство определяется как этап жизни, связанный с постепенным приобретением правовой дееспособности. В экономике детство ассоциируется с теми, кто еще не участвует в экономической деятельности.

Демографы рассматривают детей и подростков как часть населения, не вовлеченную в воспроизводство, с возрастными рамками от 0 до 17 лет. В педагогике детство — это время воспитания и образования, где дети являются объектами педагогического влияния.

В социологии детство как самостоятельный объект исследования стало изучаться относительно недавно, начиная с конца 1980-х — 1990-х годов в странах Западной Европы. До этого времени интерес социологов к детству чаще всего проявлялся в рамках таких дисциплин, как социология воспитания, образования, семьи или молодежи.

Социологический подход к детству. В отличие от других подходов, социология детства рассматривает этот этап жизни не как естественную данность или просто объект воспитания, а как важную социальную структуру, отражающую изменения в культуре и обществе. Дети при этом воспринимаются как активные участники социального процесса, обладающие собственным взглядом на окружающий мир. В

узком смысле детство понимается как особенный возрастной период, характеризующийся первичной социализацией, главным образом семейной. В широком смысле детство — это сложное социальное образование, которое является частью общества, выполняет в нем определенные функции и взаимодействует с другими элементами социальной структуры.

Согласно такому пониманию, «детство можно рассматривать как совокупность действий, событий, социальных институтов и практик, формируемых обществом и постоянно воспроизводимых через жизнь детей, которые осваивают социальные нормы и интегрируются в общество.» [1].

Одной из ключевых характеристик детства является его темпоральность - оно ограничено определенными возрастными рамками (от 0 до 18 лет). Другим важным признаком детства является его универсальность: оно существует и функционирует во всех культурах и эпохах, затрагивая все социальные группы и страты населения.

Детство как социальная структура — это реальность, связанная с определенными временными и пространственными рамками.

Социальный статус детей в разные исторические периоды определяется уровнем развития общества, его социально-классовой структурой, а также религиозными, культурными, этническими и другими традициями. Детство не является однородным; оно делится на множество составляющих элементов.

Детство не обладает способностью к само стабилизации и самоорганизации. Оно не может адаптироваться к меняющимся условиям окружающей среды без внешней поддержки и коррекции. Существование детства возможно лишь при поддержке таких социальных институтов, как семья и другие структуры. Детство выступает как элемент, влияющий на другие социальные образования, особенно на те, которые находятся с ним в непосредственной близости: родительство, молодежь, школу и другие.

Детство является динамично меняющейся частью общества, на которую воздействует множество факторов. В современном обществе детство представлено как социальная категория, окружаемая различными институтами и законодательными нормами, которые регулируют возрастные ограничения и права детей.

Изучение детства считается одним из самых сложных направлений в социальных науках, что связано в первую очередь с возрастом и социальным положением детей. В современной науке существуют разные точки зрения на возможности социологии детства. Некоторые исследователи считают, что детство можно осмыслить только теоретически, опираясь на мнения взрослых экспертов. Они отвергают возможность проведения социологических опросов среди детей, полагая, что дети не включены в социальные отношения в полной мере и не обладают сформированным мнением.

Однако другие ученые считают важным выяснять мнения детей по широкому спектру вопросов. Они используют как адаптированные методы прикладных исследований, подходящие для детской аудитории, так и специальные методики,

основанные на качественных и проективных подходах, таких как игровые интервью, метод незавершённых предложений, метод конфликтных ситуаций и другие.

Изучение детства имеет давнюю историю, и обращение к этой теме можно найти в трудах таких философов и мыслителей, как Фрэнсис Бэкон, Георг Гегель и Жан-Жак Руссо. Вопросы детства занимали ученых прошлого, которые рассматривали его с моральных и этических точек зрения, оценивая роль детства как для личности, так и для общества в целом.

Французский демограф и историк Филипп Ариес считается одним из ключевых исследователей в этой области. Он первым показал, что «детство — это не просто естественная и универсальная фаза человеческого развития, а понятие, обладающее сложным и меняющимся социальным и культурным содержанием, которое отличается в зависимости от эпохи.» [2].

Социологический взгляд на изучение детства представлен двумя относительно самостоятельными направлениями. В рамках первого подхода детство рассматривается как культурно-историческая ценность.

Эволюция детства и изменения его содержания на разных этапах развития общества отражены в работах таких исследователей, как Ф. Боас, М. Мид, Б. Малиновский, Л. Демоз и Э. Эриксон. Современные зарубежные ученые, такие как П. Брюхнер, М. Виннс, Х. Попитц, Н. Постман, Д. Рихтер и Х. Цахер, а также отечественные исследователи, такие как И. В. Бестужев-Лада, С. Н. Иконникова, М. С. Каган, И. С. Кон, Л. Г. Кураева, Э. А. Куруленко, Д. И. Фельдштейн и С. Н. Щеглова, активно изучают социокультурные аспекты детства. Л. Демоз подчеркивает, что существует общая тенденция развития детства, выражающаяся в увеличении его независимости от мира взрослых. М. Мид и Б. Малиновский придают большое значение социокультурным факторам в процессе взросления. Э. А. Куруленко отмечает, что эволюция содержания и методов социализации детей тесно связана с изменениями в социально-экономической структуре и формах общественной деятельности.

Особое место в рамках данного подхода занимают концепции трансформации детства в современном обществе. Исследователи, представляющие эти концепции, признают, что происходят значительные изменения как в самом детстве, так и в статусе ребенка в обществе. Среди ключевых концепций можно выделить следующие: кризис детства, индивидуализация детства, эмансипация детства, разрыв между ранним и поздним детством, исчезновение детства и стирание границ между детством и взрослостью.

Представители концепции кризиса детства, такие как Б. Д. Эльконин, В. И. Слободчиков и Ю. В. Овинова, предложили идею о том, что «современное детство переживает критический период. Этот кризис заключается в том, что процессы взросления и освоения культуры, которые были тесно связаны в прошлых эпохах,

теперь расходятся, что приводит к нарушению привычной структуры детства и его роли в обществе.» [3].

По мнению Б. Д. Эльконина, В. И. Слободчикова и Ю. В. Овиновой, в современном детстве больше не существует идеала взрослого, который раньше служил единственным примером и опорой для детей в представлении о их будущем. У. Бек и Х. Попитц обсуждают эмансипацию детства, под которой понимается растущее значение, которое ребенок приобретает в семье, образовательных учреждениях и в обществе в целом.

Концепция социального конструирования детства, предложенная С. Н. Щегловой, позволяет анализировать сложные и взаимосвязанные процессы трансформации детства как на макро, так и на микроуровнях. Эти концепции предполагают, что проблема детства станет одной из глобальных в новом веке, наряду с другими важнейшими вызовами человечества.

Во втором направлении изучения детства его рассматривают как часть социальной структуры общества и исследуют его роль в этой структуре. В социологическом анализе детство в его структурном выражении исследуется лишь ограниченным числом ученых. Среди зарубежных исследователей можно отметить Е. Болдинга, Дж. Гарбарино, К. Дэвиса, Дж. Квортрупа, С. Фрис, Ф. Элкина, Ш. Айзенштадта и Т. Парсонса. В отечественной социологии вопросы детства как социального феномена затрагиваются в работах И. С. Кона, Е. Л. Омельченко, М. В. Осориной, С. Н. Щегловой, В. Н. Ярской и других исследователей.

Т. Парсонс и Ш. Айзенштадт также воспринимают детство как этап подготовки к взрослой жизни. Они анализируют проблемы преемственности поколений, видя в подрастающем поколении «объект социализации» взрослых. Все формы недовольства или социального протеста со стороны детей интерпретируются как девиантное поведение, отклоняющееся от социальной нормы.

Ш. Айзенштадт подчеркивает, что прежде чем достичь статуса взрослого, дети должны пройти процесс социализации. Это включает усвоение морального кода, правил общества, а также приобретение знаний и навыков, необходимых для исполнения взрослых ролей.

Таким образом, социологическое исследование детства охватывает широкий спектр факторов, включая культурные, экономические влияния, и помогает понять, как детство взаимодействует с другими социальными структурами.

Литература:

1. Социология детства [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://childsoc.ru/. - Дата доступа: 01.11.2011.
2. Кон, И. С. Ребенок и общество / И. С. Кон. - М.: Наука, 1988. - С. 40.

3. Эльконин, Б. Д. Кризис детства и основания проектирования форм детского развития / Б. Д. Эльконин. // Вопросы психологии. - 1992. - № 3-4. - С. 7-13

RAQOBATBARDOSHLIK TUSHUNCHALARINING MOHIYATI VA TAVSIFLANISHI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich,
“Ma’mun” NTM, Buxgalteriya hisobi va biznes boshqaruvi kafedrasi o’qituvchisi,
URDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqobatbardoshlikni boshqarish jarayoni, raqobatbardoshlik tushunchalarining mohiyati, tasniflanishi hamda yaxlit tizim sifatida bog’lanishi keltirilgan. Turli adabiyotlar tahlili asosida tushunchalarning tavsiflanishi amalga oshirilgan.

Kalit so’zlar. Raqobat, raqobatbardoshlik, raqobatbardoshlikni boshqarish, raqobatbardoshlik tushunchalari, raqobatbardoshlik ko’rsatkichlari, raqobatbardoshlik xususiyatlari.

Keyingi yillarda “raqobatbardoshlik” tushunchasi tobora keng sohalarda qo`llanila boshlandi. Jumladan, mazkur tushuncha va u bog`liq boshqa atamalar siyosat, sport, davlat boshqaruvi, psixologiya, tibbiyot va boshqa shu kabi ijtimoiy sohalarda yanada ko`proq ishlatilmoqda. Tushunchaning kelib chiqishi va rivojlanishi bevosita iqtisodiy bilimlar va adabiyotlar bilan bog`liq bo`lib hisoblanadi. Bugungi kunda har qanday iqtisodiy mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishishda raqobat va raqobatbardoshlik bilan bog`liq tushunchalarga duch kelasiz. Chunki, bozor iqtisodiyotining asosi tadbirkorlik subyektlarining o`zaro musobaqasi asnosidagi erkin raqobat muhitiga bog`lanadi. Keyingi yillarda esa raqobatdan ham ko`proq raqobatbardoshlik, raqobatlashish tushunchalariga ko`proq urg`u qaratila boshlandi va u bilan bog`liq tushunchalarning qamrovi juda ham kengaydi. Iqtisodiy adabiyotlar hamda jarayonlarni to’g’ri va to’liq tushunish, undagi maxsus atama va tushunchalarning mazmun - mohiyatini anglash asosida kechadi. Mazkur ilmiy ishlanma raqobatbardoshlik va u bilan bog`liq ilmiy tushunchalarning iqtisodiy adabiyotlarda qo`llanilishi, ularning mohiyati va tasniflanishiga bag`ishlanadi.

Raqobat tabiiy jarayon u jamiyat hayotida ham, bozor munosabatlarida ham, tabiiy omillar ta`sirida shakllanadi. Iqtisodiyotning erkin rivojlanishining sharti sifatida raqobat bo`lishini asoslashdan kelib chiqqan holda raqobatning iqtisodiy kategoriya, atama ekanligi isbotlanadi. Raqobatbardoshlik tushunchasi esa bizning nazarimizda iqtisodiyotdan ko`proq boshqaruv va menejment bilan bog`liq bo`ladi, chunki raqobat muhiti va u bilan bog`liq omillarni hisobga olgan holda maxsus tashkiliy - iqtisodiy va boshqaruv usul, metodlarni qo`llash orqali raqobatbardoshlik shakllantiriladi. Yoki, raqobatbardoshlikni shakllantirilishi va uni keyinchalik ta`minlanishi, oshirilishi, yaxshilanishi yoxud barbod bo`lishi ham bevosita boshqaruv, menejment jarayonining mahsuli bo`lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, raqobatbardoshlik doimiy yoki takrorlanuvchi boshqaruv jarayoni bo`lib, ushbu jarayon avvalo boshqariladi. Bizningcha, raqobatbardoshlikni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi.



1-chizma. Raqobatbardoshlikni boshqarish jarayoni [6]

Dastlabki bosqichda raqobat muhiti va undagi korxonaning, yoki korxona taklif qilayotgan tovar, ish, xizmatning raqobatbardoshligi aniqlanadi. Aniqlovchi yoki belgilovchi mezonlar asosida raqobatbardoshlik shakllantiriladi. Bizningcha shu joyda ahamiyat qaratish lozim bo`lgan jihat mavjud bo`lib, u ham raqobatbardoshlik (korxona, tovar yoki xizmat) shakllantirilishi ichki muhit tomonidan ya`ni, boshqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ya`ni raqobatbardoshlikni shakllantirishda tashqi ta`sir deyarli bo`lmaydi. Bu bosqichda asosan xususiy, o`ziga xos raqobat ustunliklari yaratiladi va ajratib, belgilab olinadi. Keyingi bosqich, raqobatbardoshlikni rivojlantirish bo`lib, bunda reklama, hamkorlik aloqalari vositasida oldin shakllantirilgan raqobatbardoshlik tashqi muhit, raqobat muhitiga moslashtiriladi. Raqobatbardoshlikni boshqarishning keyingi bosqichida shakllangan, rivojlantirilgan raqobatbardoshlik raqobatchilarga taqqoslanadi va maxsus metodlar asosida baholanadi. Raqobatbardoshlikni baholash natijalari chuqur tahlil qilinadi. Tahlil qilishdan maqsad uni yanada yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish uchun imkoniyatlar, zahiralarni topish yoki raqobatbardoshlikga xavf solayotgan risk hamda omillarni bartaraf etish bo`ladi. Keyingi bosqichda tahlil bergan yo`nalishlar asosida korxonaning yoki tovar, xizmatning raqobatbardoshligi oshiriladi. Mavjud aloqa va ta`sir mexanizmlaridan, raqobat muhiti imkoniyatlardan foydalanib, raqobatbardoshlik ta`minlanishi lozim. Boshqaruvning oltin tamoyili, ya`ni doimiy yaxshilashdan kelib chiqib, yuqorida izohlangan bosqichlar doimiy takrorlanib boriladi.

Yuqorida keltirilgan chizma va unga izohlardan foydalanib asosiy bosqichlarga nisbatan ta`riflarni shakllantirib olamiz:

Raqobatbardoshlikni boshqarish – bu doimiy va takrorlanish xususiyatlariga ega bo`lgan bir nechta bosqichni o`z ichiga olgan boshqaruv jarayoni bo`lib, jarayonni amalga oshirishdan pirovard maqsad raqobatbardoshlikni ta`minlashdan iborat.

Raqobatbardoshlikni aniqlash – bu raqobatbardoshlikni shakllantirish uchun zaruriy mezonlar va ularning ko`rsatkichlarini belgilab olishdan iborat jarayondir.

Raqobatbardoshlikni shakllantirish – bu oldindan aniqlangan mezonlar asosida muayyan va o`ziga xos raqobat ustunliklarini yaratishdan iborat.

Raqobatbardoshlikni rivojlantirish – shakllangan raqobat ustunliklarini raqobat muhiti talablariga moslashtirishdan iborat jarayondir.

Raqobatbardoshlikni baholash – mavjud raqobatbardoshlik darajasini raqobatchilar yoki aniq bir etalonlarga nisbatan taqqoslash, raqobat ustunliklariga baho berish jarayonidir.

Raqobatbardoshlikni tahlil qilish – raqobatbardoshlikni baholash natijalari asosida foydalanilmagan imkoniyatlar va aniqlangan kamchilik, xavflarni belgilash, raqobatbardoshlikni oshirish yo`nalish hamda omillarini belgilab olishdan iborat.

Raqobatbardoshlikni oshirish – oldindan aniqlangan yo`nalishlar asosida qo`shimcha raqobat ustunliklarini yaratish, raqobatbardoshlik omillarini shaklantirishdan iborat jarayondir.

Raqobatbardoshlikni ta`minlash – bu mavjud raqobat ustunliklari hamda raqobatbardoshlik omillarini kuchaytirish, tashqi raqobat muhiti imkoniyatlaridan foydalanib raqobatbardoshlikni mustahkamlash jarayonidir [1]. Raqobatbardoshlikni ta`minlash faqat tashkilot tomonidan amalga oshirilmaydi. U barcha manfaatdor tomonlar, hamkorlar, komissionerlar, mahalliy hokimiyat va hukumat, iqtisodiy tarmoq boshqaruvi mansabdorlari ishtiroki hamda harakati asosida ta`minlanadi. Raqobatbardoshlikni boshqarish jarayonining pirovard maqsadi “raqobatli ustunlik” yaratish bo’lib, “raqobatli ustunlik” – deganda tovar yoki xizmatning, korxona yoki tadbirkorlik subyektining bevosita raqobatchilariga nisbatan ma`lum bir ustunlik beradigan xarakteristikasi va xususiyatlarini tushunish lozim. [2]

Raqobatbardoshlikni boshqarish hamda u bilan bog`liq ilmiy adabiyot va ishlanmalarni to`liq tushunish hamda tadqiq etish uchun bir qator ilmiy, amaliy manba hamda nashrlarda ishlatilgan raqobatbardoshlik bilan bog`liq tushuncha va atamalar belgilab olindi. Mazkur atamalarni mazmun - mohiyati va ishlatilish o`rni, o’zaro bog’liqligi xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi 2- chizmadagi ko`rinishda tasniflashni lozim topdik.

Raqobatbardoshlik bilan bog`liq bo`lgan ilmiy - amaliy tushunchalar ko`p bo`lib, ularni o`zaro bog`lanish xususiyatlari raqobatbardoshlikni boshqarish jarayoniga aloqadorligidan kelib chiqib, mazkur tushunchalarni tanladik. Ularni tasniflashda keying tushuncha bevosita oldingi atamaning mazmuni va ishlatilishidan kelib chiqqan holda tasniflanadi. Quyida ushbu raqobatbardoshlik tushunchalarining tavsiflanishi ham keltirildi.

2-chizma. Raqobatbardoshlik tushunchalarining taniflanishi [6]

Raqobatbardoshlik darajasi – raqobatbardoshlik obyektining (korxona, tovar va xizmat) muayyan vaqt oralig'ida ma'lum bozorlarda (alohida segmentlarda) raqobatbardosh hujumga qarshi turish qobiliyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi nisbiy ko'rsatkich.

Raqobatbardoshlik strategiyasi – bu tashkilotning eng muhim xususiyati bo'lib, uning faoliyat davomidagi har xil, uzoq muddatli, noqulay o'zgarishlarga nisbatan chidamliligini tavsiflaydi.

Raqobatbardoshlik konsepsiyasi – bu har qanday tashkilotning raqobatdosh tashkilotlarning tovarlariga qaraganda o'z missiyasiga yanada muvaffaqiyatli erishish xususiyati yoki qobiliyatini yaratish, shkllantirishda iboratdir.

Raqobatbardoshlik maqsadlari – bozorda ma'lum bir mahsulotning doimiy jozibadorligini ta'minlash, unga raqobatchilarning o'xshash mahsulotiga nisbatan ustunlik berish, tashkilot faoliyatining doimiy, uzluksiz va barqarorligini ta`minlash.

Raqobatbardoshlik vazifalari – raqobat ustunliklarini yaratish bilan bog’liq masalalarni hal qilish xususiyatlarini tavsiflaydi. Raqobatbardoshlikning umumiy vazifalari sifatida quyidagilar keltirish mumkin: [3]

- Rag'batlantiruvchi. Raqobatbardoshlikning ushbu funktsiyasi uning natijaviyligi bilan izohlanadi, ya`ni, raqobatbardoshlik ta`minlandimi u moddiy, ijtimoiy yoki boshqa ko`rinishlarda o`zining mevasini beradi. Innovatsion – raqobatbardoshlikni ushlab turish yoki shakllantirish novatorlik asosida, yangiliklarni amalga oshirish evaziga amalga oshiriladi. Samarali – raqobatbardoshlikni oshirish bevosita samarali boshqaruv jarayoni hisobiga amalga oshiriladi. Samaradorlik bo`lmasa, raqobat ustunligi ham bo`lmaydi. Farqlanish – differentsiallash raqobat kurashida yutib chiqishning muhim jihatidir, raqobat jarayonida doimiy tarzda taqqoslash, solishtirish qilinadi. Ijobiy farqli jihatni yaratish bu raqobat ustunligi demakdir. Transformatsion – raqobatbardoshlikni shakllantirish, rivojlantirish, oshirish va ta`minlash o`zgarish, o`zgartirishlar, takomillashishlar asosida amalga oshiriladi. Raqobatbardoshlik obyekti (korxona, tovar va xizmat) doimo qarshi tomonlar kuzatuvi ostida bo`ladi. Shu sababli raqobatda qolish dinamik transformatsiyani talab qiladi.

Raqobatbardoshlik asoslari – raqobatlashishda ichki va tashqi imkoniyatlar, moddiy va nomoddiy baza, boshqaruv va kadrlar salohiyati, turli iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarga bog`lanib, tayanib harakat qilishdan iborat. Asoslar yetarli bo`lmasa, shakllanish ham bo`lmaydi.

Raqobatbardoshlik muammolari – bu raqobatbardoshlikni shakllantirish, ta’minlash hamda oshirishga halaqit berayotgan hamda hal qiluvchi ta’sirga ega masala hamda kamchilik majmuidir. Alohida ravishda raqobtbardoshlik muammolarini aniqash uning yechimini hamda bajaruvchisini topishga yordam beradi. Korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy muammolar sifatida asosiy vositalarning eskirishi, malakali xodimlarning yetishmasligi, ilmiy ishlanmalardan foydalanish, shuningdek mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatni ko`rsatish mumkin. Raqobatbardoshlikni boshqarishda doimiy ravishda muammolarni aniqlash va ularni o`z vaqtida katta urg`u berilishi lozim bo`ladi.

Raqobatbardoshlik yo`nalishlari – bu raqobatbardoshlik bilan ko’proq bog’langan jarayon va ko’rsatkichlar bo’lib, asosiy raqobatbardoshlik yo`nalishlari sifatida quyidagilarni doimiy yaxshilashni keltirish mumkin: – korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati;

- korxonaning moliyaviy holati; - ishlab chiqarish rentabelligi, sotish rentabelligi; - mahsulotning raqobatbardoshligi; - marketing faoliyati samaradorligi; - boshqaruv samaradorligi; - korxona imidji.

Raqobatbardoshlik mexanizmlari – ta’sir kuchi mavjud bo’lgan hamda amalga oshirilishi raqobatbardoshlik ko’rsatkichlarining o’zgarishiga olib keluvchi boshqaruv jarayoni yoki boshqaruv bo’g’ini, boshqaruv organining bo’limlarining yig’indisidan iborat. [4] Raqobatbardoshlik mexanizmlari sifatida esa: - boshqaruv tizimini muntazam ravishda baholash;

- umumiy sifat menejmenti tamoyillariga asoslanish; - raqobatbardoshligini oshirishning murakkabligini hisobga olib boshqaruvning barcha funktsiyalarini doimiy tahlil qilish; - tashkilotda sodir bo'ladigan barcha jarayonlarni ikki tomonlama (strategik va operatsion) tahlil qilish imkoniyatini shakllantirish; - baholangan funktsiyalar va jarayonlarni tartiblab borish; - tahlil qilingan va takomillashtirilgan xususiyatlar asosida raqobatbardoshlik mexanizmlarini mahalliy iqtisodiyot va eksport bozorlari xususiyatlari hamda talablariga moslashtirish.

Raqobatbardoshlik omillari – bu firmani raqobatchilardan ajratib turadigan ko'nikma va imkoniyatlardir. Boshqacha aytganda raqobatbardoshlik omillari zaruriy shart sifatida raqobatbardoshlik maqsadlariga erishish uchun inobatga olinishi hamda baholanishi lozim jihat hamda xususiyatlardir. M.Porter nazariyasi asosida raqobatbardoshlikning quyidagi beshta omili: sifat, narx, reklama, tadqiqot va rivojlanish, servis (xizmat) ajratib ko`rsatiladi. Shuningdek, Porter raqobatbardoshlikning barcha omillarini bir necha guruhga ajratgan bo`lib, ular quyidagilardan iborat [5]: - asosiy va rivojlantirilgan; umumiy va ixtisoslashgan; tabiiy va sun'iy ravishda yaratilgan; tashqi va ichki.

Bundan tashqari tadbirkorlik va biznesdagi raqobatga ta'sir qiluvchi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bir qator omillar mavjud; bularga davlat siyosati, bozor hajmi tuzilishi, unga kirish va chiqish to'siqlari, biznesning joylashuvi, mahsulot sifati va xususiyatlari, mijozlarning mavjudligi va ularning moliyaviy imkoniyatlari, potentsial sonini ham kiritish mumkin.

Xulosa sifatida yuqorida keltirilgan raqobatbardoshlik tushunchalarining tavsiflanishi ham ilmiy, ham amaliy jihatdan boshqaruv jarayoni hamda ilmiy taqiqot ishlarida qo’llanilishi uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, mazkur raqobatbardoshlik tushunchalarini amaliy masalalar hamda keyslar asosida yoritish hamda tushuntirish ham ularni yanada yaxshiroq anglashga hamda iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda qo’llanilishiga ijobiy turtki bo’ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Матвеева.Криворотов.Машкова.Корсунов., Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий на основе развития иннновационнной деятельности., Екатеринбург.,2018 г
2. M.Umarxodjayeva., S. Mahmudov., Raqobatbardoshlik., Darslik. Toshkent., 2021 yil
3. R.Fatxutdinov., Raqobatbardoshlik: iqtisodiyot, strategiya, boshqaruv., M. Infra 2000.,312 b
4. А.Мокроносов., И. Маврина., Конкуренция и конкурентоспособность. уч.пособие.,Екатеринбург. 2014 г
5. М.Портер. Конкурентное преимущество: как достичь реезультата и обеспечить его устойчивость., М. Альбина бизнес букс.2005. 715 с.
6. Muallif ishlanmasi.

FARG`ONA VODIYSI TARAQQIYPARVAR JADIDCHILARI

Abdurazaqova Feruzaxon
“University of economics and pedagogy” NOTM
Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. ushbu maqolada Farg’ona vodiysi jadidchi ma’rifatparvarlarining, O’rta Osiyoda birinchilardan bo’lib ta’lim-tarbiyaga, pedagogik fikrlarga, mustaqillikka birinchilardan bo’lib qadam qo’ygan. Vodiyda birinchilardan bo`lib Hamza, Ibodiy, Isoqhon Ibrat haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Farg’ona vodiy, Jadidchi, ta’lim-tarbiya, mustaqillik.

Annotation: in this article, Fergana Valley modernist enlighteners, among the first in Central Asia, took a step towards education, pedagogical ideas, and independence. Among the first in the valley, information is given about Hamza, Ibadi, Isaqhon Ibrat.

Key words: Ferghana Valley, Jadidchi, education, independence.

XIX asr oxiri XXasr boshlarida,namoyon bo‘lgan Turkistondagi jadid taraqqiyparvarlik harakati, ko‘p asrlik o‘zbek xalqi tarixida muhim ro‘l o‘ynaydi.Jadidchilar mustamlaka zulmi ostida qolgan, Turkiston ahlini ma’rifatga chorlash, ularni jahon tamadduni taraqqiyoti bilan tanishtirish,ularni milliy, ma’naviy,ma’rifiy yo‘lidagi ulkan ishlari amalga oshirilgan.Turkistondagi jadid harakatlaridan,Farg‘ona vodiysi jadid namoyondalari o‘zlarining chiqishlari bilan,atrofdagilarga milliy chiqishlari bilan,yangi usul maktablari,teatr truppalari bilan, boshqalardan farq qilinardi. Bular mustaqillik kuyini, o‘sha davrdan boshlab birinchilardan bo‘lib kuylagan. Jadidchilik deganda,yangi,yangilik olib kirish,taraqqiyotga erishish demakdir.Ilmiy taraqqiuotga,yuksalishga intilish deb tushuniladi.Jadidchilar,Turkistonda zamonaviy tipdagi maktablar ochish,diniy bilimlar bilan, duhyoviy bilimlarga erishib,ma’rifat tarqatishni oldilariga maqsad qilib oldilar.1842 yil Qo‘qon xonzodalaridan biri Said Muhammad Xakimhon to‘ra ,dunyoni kezib kelib aytadiki, bizning o‘lkamiz,Turkiston zamini,boshqa davlatlardan orqada qolib ketganligini aytib o‘tadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilda Qo’qon shahrida tabib oilasida tug’ildi. U yoshlikdan o’qishga berilib, 12 yoshida xat savodli bo’ladi. 1906-yilda madrasaga kirib o’qidi, keyin mustaqil ravishda Lutfiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muhimiy, Furqat asarlarini o’qib o’rgandi.

Hamza Hakimzoda 1911-yilda Qo’qonda Hojibek guzarida yangi usulda maktab ochib, o’qituvchi bo’lib ishladi. 1913-1914 yillarda Afg’oniston, Hindiston mamlakatlarida, Makka va Madina, Shom, Bayrut, Istambul, Odessa shaharlarida safarda bo’ldi. Safardan qaytgach, 1915-yilda Shohimardonda maktab ochib, o’qituvchilikni davom ettirdi.

Hamza Hakimzoda pedagogik ish bilan birga, ijodiy ish bilan ham shug’ullanib, 1915-1916 yillar davomida „Oq gul", „qizil gul", „Pushti gul", „Sariq gul" she'riy to’plamlarini, „Milliy roman yoxud yangi saodat", „Zaharli hayot" dramatik asarlarini yaratadi va ularda pedagogik g’oyalarini bayon etadi.

Hamza Hakimzoda ma'rifiy-pedagogik qarashlarining nazariy asosi-

o’zining pedagogik qarashlarida xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish, maorifning yangi tizimini yaratish g’oyasini ilgari surdi. U o’z tajribasiga suyangan holda, bolalarni ilmli, odobli qilib tarbiyalash va hunarga o’rgatish, maktabda dunyoviy fanlar o’qitilish lozimligini aytdi. Uning fikricha, maktabda aqliy tarbiyada bolalar tabiat hodisalarini, ularning o’zaro bog’liqligini bilishi kerak. Axloqiy tarbiyada bolalarda insonparvarlik tuyg’usini rivoj toptirish lozim. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo’lib etishadilar.

Hamza Hakimzoda pedagogik qarashlarida oila muhitida bolani tarbiyalash masalasi alohida o’rinda turadi. Uning uqtirishicha, bola barkamol inson, go’zal axloqli bo’lib etishishi uchun oilada sog’lom muxit, tarbiya to’g’ri yo’lga qo’yilgan bo’lishi kerak. Shundagina oilada bola axloqli, go’zal xulqli, jamiyatga, xalqga munosib farzand bo’lib etishadi.

Ibodiy 1921 – 1923 yillarda «Qo`shchi» ittifoqida oziq – ovqat tayyorlov idorasida muxbir bo`lib ishlaydi. Lekin shu paytda ham u madaniy – ma`rifiy ishlarni davom ettiradi. 1923-yil ma`orif sho`basi Ibodiyga ikkinchi bosqich o`zbek maktabi tashkil qilish vazifasini yuklaydi. Bu ishni u muvaffaqiyat bilan bajaradi[1].

Ibodiyning maktab va ma`rifat sohasidagi 36 yillik xizmatlarini inobatga olgan holda, O`zbekiston Markaziy ideologiya komiteti 1936-yil 14 – oktyabrdagi Qarori bilan uni “Mehnat qahramoni” unvoni bilan taqdirlaydi va shaxsiy nafaqaga ta`sis etadi. Bu unvonga u birinchi bo`lib sazovor bo`lgan edi. Lekin 30-yillarning mudxish voqealari ma`orif jonkuyari A.Ibodiyni ham chetlab o`tmadi. Fidoiy inson “Xalq dushmani” tamg`asi bilan 1937 yil 10 sentyabrda xibsga olindi. Xibsga olinishi arafasida u Qo`qondagi 1 – bolalar uyi internatining direktori va o`qituvchisi bo`lib ishlar edi.

Xibsga olish uchun unga qo`yilgan ayblar quyidagilar: 1914-yil Istambul shahriga borib, turk siyosiy arboblari bilan uchrashgan, buning uchun u pan turkist sifatida qoralangan. Turkiston muxtoriyati davrida esa millat taqdiri, manfaatlari haqidagi qarashlaridan iborat adabiyotlarni tarqatish uchun “Xayrat” jamiyati tuzgan, buning uchun u burjua millatchisi deb qoralangan. “Ta`limi ma`orif” (“SHo`roi Islomiya”ning a`zosi bo`lganligi) aksilinqilobiy tashkilotning a`zosi bo`lganligi, bolsheviklar ta`rifiga ko`ra, “eskilik sarqiti” deb qilinishiga kiritilgan madrasa masjid diniy ulamolar to`planadigan binolarning tugatilishiga qarshi chiqqanligi, bu xarakatlarga keskin norozilik bildirganligi, sovet xokimyatining siyosati o`zbek xalqining moddiy ahvolini yomonlashishiga olib kelganligini e`tirof etganligi, O`zbekistonning sofdil va fidoiy insonlarini qamoqqa olinmoqda, deb haqiqatni oshkora ta`kidlagani tufayli “sovetlarga qarshi tashviqod” yuritishda ayblangan[2].

1937- yil 27-noyabrda O`zbekiston SSR Ichki Ishlar xalq komissarligining “Uchlik” komissiyasi A. Ibodiyni 10 yil xat olmaslik sharti bilan mexnat tuzatish lageriga jo`natish yuzasidan hukm chiqardi.

Ichki Ishlar Xalq Komissarligining 1947-yil 25- fevraldagi habarnomasida Abdulvahhob Ibodiyni 1942-yil 3-iyulda vafot etganligi qayd etilgan.

KPSS XX s`ezdidan so`ng shaxsga sig`inish yillari qurbonlarini oqlash jarayonida Abdulvaxxob Ibodiy ham oqlandi. Farg`ona viloyat sudining 1956-yil 16-oktyabr qarori bilan

[1] Raimova G. Ma’rifat fidoiysi. // O’qituvchilar gazetasi.-1989 yil 4 fevral.
[2] Usmonov M. Qismat // Ma’rifat.-1922 5-avgust.

O`zbekiston SSR II XK “Uchlik” komissiyasining 1937-yil 27-noyabr qarori bekor qilindi. Ma`rifat fidoiysining nomi qayta tiklandi. Bugungi kunda Qo`qon shahridagi 12-sonli bolalar uyi uning nomi bilan yuritilmoqda.

Farg`onalik yana bir atoqli taraqqiyparvar inson Ashurali Zoxiriy - Muhammadzohirovdir (1885-1937). U 1885-yili Qo`qon shahri atrofidagi Oyim qishlog`ida tug`ilgan. Qo`qondagi Madalixon madrasasida boshlang`ich ta`limni olib, 1907-yilning mart oyidan Qo`qon rus – tuzim maktabida o`zbek tili va adabiyotidan dars bera boshladi[3].

Zoxiriy 1910-yildan boshlab gazetalarda o`z asarlari, zamon ruhiga mos maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. Uning bu maqola va asarlari o`zbek tili masalalari, maktab hayoti, o`quv – tarbiyaviy ishlarga bag`ishlanib, tub mohiyati bilan xalqqa ma`orif tarqatish ruhida yozilgan. Zoxiriyning bu asarlari “Saodati Turkiston”, “Saodati Farg`ona” va “Turkiston” viloyatining gazetasida chiqib turdi. Mazkur masalalarning ruhiyatida kishilarda milliy va diniy iymon e`tiqod, vatanparvarlik hislarini tarbiyalash g`oyalari yotar edi. Maqolalar Zoxiriy siyosiy qarashlarining ko`zgusi edi. Uning maqolalari boshqa taraqqiyparvarlarning maqolalariga nisbatan milliylikka ko`proq urg`u berishi bilan ham ajralib turadi. Jumladan, “Sadoyi Farg`ona” gazetasida e`lon qilgan “Ona tili” maqolasida marifatparvar kishilarni chet tillarni ham yaxshi o`zlashtirishga da`vat etgan holda, o`z ona tilini ham mukammal egallashga chaqiradi: “... qachonki o`z ona tilimizni yaxshilab bilmadukmi, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz. Shuning birla na uni bilurmiz, na buni!...”[4].

Zoxiriy iste`dodli tilshunos va jurnalist, adabiyotshunos, bilimdon tarjimon, talantli tashkilotchi, sahovatli murabbiy edi. U o`z ona tilidan tashqari arab, fors va urs tillarini ham yaxshi bilar edi. 1916-yilda “Imlo” nomli kitob yozib, uni Qo`qondagi “G`ayrat” kutubxonasi orqali nashr ettirdi. 1925 yilda esa ikki jildli “Ruscha - o`zbekcha” lug`atni tuzdi[5].

“Sadoyi Farg`ona” gazeta idorasida Zoxiriy Musaxhih vazifasini bajardi. Bu haqda Bokuda chiqadigan “Yangi iqbol gazetasi” quyidagicha xabar beradi:- “... Muxtaram Ashurali afandi Zoxiriy va boshqa bir qancha g`ayratli ishchilarimizning g`ayrat va ijtihodlari ila, gazeta nihoyatda nafis va milliy ehtiyojlarimiz haqinda yozilmish maqolalari ila to`lib chiqa boshladi...”[6].

Ma`lumki, zamonaviy milliy kadrlar tayyorlash jadidlarning asosiy diqqat markazida turgan. Zoxiriy Turkiston xalqlari hayotidagi har bir ijobiy yangilikni zo`r quvonch bilan kutib oldi.

1917-yil fevral inqilobidan keyin o`lka taraqqiyparvar kuchlari faoliyatida keskin ko`tarilish yuz berdi. Bu davrda Zoxiriy ham Turkiston hayotidagi ijtimoiy – siyosiy voqealarda qizg`in ishtirok etdi. 1917-yil aprel oyida bo`lib o`tgan o`lka musulmonlarining birinchi quriltoyida Turkiston Rossiya federatsiyasi tarkibidagi muxtor jumhurriyat bo`lishi haqidagi qarorni yoqlab chiqdi. Turkiston musulmonlari o`lka Sho`rosining Farg`ona viloyati faoliyatini yo`lga qo`yishda g`ayrat ko`rsatdi[7].

[3] Madaminov A. Toshboev R. Valixanov M. Ma’rifat charog’boni// Adabiy meros. – 1985. – b 38.
[4] Zoxiriy A. Ona tili. // Sadoyi Farg’ona. – 1914 – 13 anr.
[5] Uzoqov X. Ashurali Zoxiriy. G’.G’ulom 1968 yil 10 (22) B 28.
[6] Turkiston matluboti. // Yangi iqbol – 1915 – 24 noyabr.
[7] T. Tog’aev. A. Zoxiriy jadidlik faoliyatining faol kurashchisi. O’zbekiston yangi tarixi. Konsentual metodologik muammolar. Toshkent Akademiya, 1993 b . 190

Uning siyosiy qarashlari maslak jihatidan Volidiy, Munavvar Qori, Obidjon Maxmudov fikrlari bilan mos tushar edi. A.Z.Validiy ham o`z xotiralarida Zoxiriy bilan yaqin aloqada bo`lganligini ta`kidlab o`tadi[8].

Zoxiriy sovet davrida ham o`zbek milliy pedagogikasini rivojlantiruvchi nomoyondalardan biri sifatida faoliyat ko`rsatdi. Atoqli ma`rifatparvar 1917-yilda Qo`qonda “Dorulmuallimin” maktabini tashkil etdi. Bu maktab 1922-yilgacha o`z faoliyatini davom ettirdi. 1922-yil Farg`ona shahrida ikkinchi bosqich yangi usul maktabi tashkil etilgach, “Dorulmuallimin” bunga birlashtirilib, “Pedogogika texnikumi” tashkil topdi. U texnikumda o`zbek tilidan dars berdi. U 1923-yilda “Mehnat qaxramoni” deb e`lon qilindi. 1930-yilgacha Pedagogika va neft` texnikumlarida va “Yangi Farg`ona” gazeta taxririyatida ishladi. Zoxiriy bu davrda ham goh yashirin goh oshkora holatda Vatan va millat istiqloli yo`lida kurash olib borgan. 1929-yil o`z qishlog`ida “Fan” deb nomlanuvchi tashkilot tuzdi va uni faoliyatini boshqardi. Ushbu tashkilot a`zolarini sovet hukumati siyosatidan norozi bo`lgan milliy ziyolilar guruhini tashkil etar edi. “Fan” loyixachilar respublika miqyosidagi “” yashirin tashkilotiga yozilib a`zolarga etkazib berdi!

1930-yil 30-yanvarda Ashurali Zoxiriy siyosiy ayblar bilan tergovga tortildi va o`n yil muddatga qamoqqa hukum qilingan. Muddatidan ilgari qamoqdan qaytgan isyonkor ma`rifatparvarni ko`p o`tmay 1937-yil yana qamoqqa oldilar. “Uchlik” komissiyasining 1937-yil 4-dekabrdagi sud hukmi bilan otildi.

Jadidlarning yangi usul maktablarga Turkistonda, xususan Farg`ona vodiysida osonlikcha yo`l bilan ochilgani yo`q. Bir tomondan chor xukumati yo`l bermaydi mutassiblik. Masalan, Turkiston o`lkasi o`quv yurtlari bosh inspektori 1913-yil 31-dekabrda o`lka o`quv yurtlari inspektorlaridan yangi usul maktablari xaqida quyidagi mazmunda ma`lumot berishni so`raydi:

1. Maktab qachon va kimning ruhsati bilan ochildi?
2. Aynan qaysi fanlar va qaysi tilda dars o`tiladi?
3. Qaysi darsliklar qabul qilingan?
4. O`qituvchilar tarkibi, agar maktabda ruxoniy mullalardan boshqa dunyoviy shaxslar ta`lim berayotgan bo`lsa, ular qanday ma`lumotga ega va aynan nimadan dars beradi?
5. Biron-bir o`quv dasturiga egami?
6. O`quvchilar soni?
7. Mahalliy xokimiyatga maktab yoki alohida shaxslar to`g`risida ma`muriy yoki jinoiy tergov qo`zg`otish uchun asos bo`ladigan biron-bir nohush ma`lumot kelib tushganmi?[9]

Yuqoridagi topshiriqqa javoban, Farg`ona viloyat o`quv yurtlari inspektori F. Egorov 1914-yil 12-yanvarda Turkiston o`quv yurtlari bosh inspektorlariga maktablar ichki tartib-qoidalari haqida ma`lumotlar beradi.

Qo`qon, Namangan, Andijon, O`sh, Marg`ilon kabi yirik shaxarlarda jadid maktablari bo`lgani holda kichik shaxar va qishloqlarda ham maktablar ochila boshladi. Masalan, Shaxrihonda 1914-yili 3 ta usul jadid maktabi bo`lib, shundan ikkitasi Qo`qonlik muallimlar, 1 tasida esa shahrixonlik Xo`jaxon Mansurxo`ja dars berganlar[10].

[8] A.Z.Volidiy. Xotiralar. // Sharq yulduzi 1993 №7 – 8 – 9 – B 164, 170.
[9] O’zMDA 47-I fond. 1-ruyxat, 1148 ish, V 135.
[10] Yaxyo Qori Shaxrixonda usuli jadid maktabi. // Sadoy Farg’ona. – 1914 16 may.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zoxiriy A. Ona tili. // Sadoyi Farg’ona. – 1914 – 13 апr.
2. Uzoqov X. Ashurali Zoқiriy. G’.G’ulom 1968 yil 10 (22) B 28.
3. Turkiston matluboti. // Yangi iqbol – 1915 – 24 noyabr.
4. T. Tog’aev. A. Zoxiriy jadidlik faoliyatining faol kurashchisi. O’zbekiston yangi tarixi. Konsepтual metodologik muammolar. Toshkent Akademiya, 1993 b . 190
5. A.Z.Volidiy. Xotiralar. // Sharq yulduzi 1993 №7 – 8 – 9 – B 164, 170

AMIRIY IJODIDA TASAVVUFNING O‘RNI

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
O‘zRFA doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Amiriy ijodida tasavvufning alohida belgilari ramz, timsol va obrazlar orqali aks etishi hamda mavjud tariqatlarning ta’siri masalalari tadqiq etilgan. Bu mavzu bo‘yicha olib boriladigan tadqiqot Amiriy ijodining tasavvufiy jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, shoir ijodidagi tasavvufiy g‘oyalar va ramziy belgilarni tahlil qiladi. Shoirning ma’naviy izlanishlari orqali inson kamolotini tushuntirishga qaratilgan qarashlari zamiridagi tasavvufiy ta’sirlar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, islomiy ma’naviyat,she’riyat,ma’naviy komillik,ruhiy poklanish,ramz, timsol, obraz, komillik,g‘oya, mavzu.

Sharq mumtoz so‘z san’ati va tasavvuf ta’limotining bilimdonlaridan bo‘lgan taniqli sharqshunos olim Ye.E.Bertels hali XX asr ibtidosidayoq o‘tmish musulmon adabiyotining bu islomiy falsafa bilan chambarchas bog‘lanib ketganiga e’tibor qaratib, ayni oqimdan xabardor bo‘lmay turib, Sharq madaniyati, adabiyoti, hatto Sharqning o‘zini ham bor bo‘yi bilan anglab bo‘lmasligini ta’kidlagan edi[1].

“XIX asrda yashab ijod etgan qo‘qonlik ko‘plab shoirlar, adiblar va olimlar Bahouddin Naqshband nomi bilan bog‘liq xojagon-naqshbandiya tariqatiga mansub bo‘lganlar”[2]. Muarrix I.Kuzikulov ham Qo‘qonda naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri Maxdum A’zamning nufuzi va ta’siri nihoyatda kuchli bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi[3].

Qo‘qon adabiy muhitining aksar namoyandalari tariqatga begona emas: biri muayyan tariqat piri huzurida tasavvufdan saboq olgan bo‘lsa, biri o‘zini muayyan murshidning muridi hisoblaydi, birining qaysidir avliyoga ixlos-e’tiqodi kuchli va hokazo. Jumladan, Amiriy “ o‘z zamonasining yetuk allomasi Muhammad Ya’qubdan tasavvuf bo‘yicha maxsus ta’lim olgan. Binobarin, bir tomondan, tasavvufiy ta’lim mahsuli, ikkinchi tomondan, Sharq she’riyatidagi mavjud an’ana ta’siri, uchinchidan, tariqat va tasavvuf maktablarining faoliyat ko‘rsatgani natijasida birgina Amiriy emas, balki o‘sha davrning boshqa shoirlari, jumladan, Uvaysiy ijodida ham tasavvuf ta’siri kuchli ekanligini ko‘ramiz. Bunga shoirlarning o‘zidagi tasavvufga moyillikni ham qo‘shsa, masalaning mohiyati yanada oydinlashadi”[4].

Uvaysiy qator baytlarida o‘zini mashhur sahoba Uvays Qaraniy ruhoniyat yuzasidan tarbiya qilganligi, unga ixlosi jihatidan o‘ziga Uvaysiy taxallusini olganini, Xoja Ahror Valiy tariqatining esa muxlisi ekanligiga ishora qilib o‘tadi.

[1] Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: “Наука”, 1965, 54-бет.
[2] Жўрабоев О. Нақшбандия ва Қўқон адабий муҳити // “Нақшбандия таълимоти ва миллий маънавиятимиз “мазуидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2008, 74-бет.
[3] Кузикулов И. Қўқон хонлги тарихи (Ўқув-услубий қўлланма). – Наманган, 2014, 77 бет.
[4] Очилов Э. Таъби нозик, зеҳни олим шоир // Барҳаёт сиймолар. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012, 394-бет.

So‘zni rahm etmay degil, hozir bilib sohibqiron,
Tarbiyat qilsa, netong, hamnomiga Vays ul-Qaran?![5]
Furqat o‘zini Jiloniy pirning muridi hisoblaydi:

Iloho tashlama Furqatni o‘tga,
Muridi hazrati Jilon qulungman[6] (69).

Amiriy esa P.D.Qayyumovning ma’lumot berishicha, naqshbandiya tariqati namoyandalaridan “Ustoz Muhammad Ya’qubdan tahsili ilmi irfon olmish”[7].

“Eshon Muhammad Ya’qub Oxund hazratlari nafaqat Xo‘qand xonligida, balki butun O‘rta Osiyoda ulug‘ alloma va so‘fiy sifatida dong taratganlar. Ul zoti bobarakot Norbo‘taxonga piri murshid, Olimxon va Umarxonlarga ham pir, ham ustoz bo‘lganlar. U kishining nomlari Xo‘qand xonligi tarixiga oid barcha kitoblarga darj etilgan. Ilk ta’limni Xo‘qandda olib, Buxoro madrasalarida ilm tahsil etganlar, tariqat yo‘lini o‘taganlar. Qaytib kelganlaridan so‘ng Norbo‘taxon u kishiga yuqori diniy mansablar berganlar. Madrasai Mir qurilib bitgach, bosh mudarris etib tayinlaganlar. Eshoni Oxund Norbo‘taxonning yaqin xodimlari (do‘st, maslahatchi) bo‘lib, xonni hayrli ishlar sari yetaklaganlar”[8].

Ramziy taxallusi bilan ijod qilgan Umarxonning tog‘avachchasi bo‘lgan Podshoh Xoja Xon Xoja o‘g‘li u bilan birgalikda Muhammad Ya’qub Oxund qo‘lida ta’lim va tarbiya olgan[9].

Manbalar Imom Buxoriy avlodlari Buxorodan kelib, Qo‘qonda naqshbandiya tariqatini rivojlantirganlari haqida ma’lumot beradi. Natijada Qo‘qon adabiy muhitining bilimdon tadqiqotchilaridan bo‘lgan Otabek Jo‘raboyevning yozishicha, xonlikda ko‘plab mutasavvif shoirlar yetishib chiqib, irfoniy mavzudagi she’rlari asosida devonlar ham tartib berganlar. Hikmatlar yozganiga qaramay, Azimxoja eshon ham naqshbandiy bo‘lgan.

“Amiriy” taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Said Amir Umarxon (1787–1822) Qo‘qon xoni va iste’dodli shoir bo‘lib, uning devoni tarkibida 13 baytdan iborat “Yo Shoh Naqshband” radifli forscha g‘azal bor. Albatta. ma’rifatli shoh Umarxonning Naqshband shaxsiga bo‘lgan cheksiz hurmati va uning ta’limoti moiyatini chuqur anglashi bu va boshqa bir necha she’ridan ham seziladi. Jumladan, u bir muxammasida bu tariqatning “Xilvat dar anjuman” tamoyilini shunday ifoda etadi:

Tariqat ahlini andishasi qanoatdur,
Vujud sham’ini kuydurmak anga odatdur,
Chu sof bo‘lsa ko‘ngul, anjumanda xilvatdur...”[10]

[5] Увайсий. Девон. – Тошкент: “Фан”, 1959, 218-бет. – 288 б.
[6] Муқимий. Фурқат. Завқий. Янги баёз. – Тошкент, 1997, 69-бет.
[7] Қайюмов П.Д. Тазкираи Қайюмий, 1-китоб. – Тошкекнт: Қўлёзмалар институти, 1998, 108-бет.
[8] 137-бет.
[9] 126-бет.
[10] Жўрабоев О. Нақшбандия ва Қўқон адабий муҳити // “Нақшбандия таълимоти ва миллий маънавиятимиз “мазуидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2008, 74-бет.

O.Jo‘raboyevning haqli ravishda ta’kidlashicha, “Zaliliyning “yetar” radifli gazali irfoniy mazmun-moxiyat kasb etadi… Aytish mumkinki, mazkur muxammas tasavvuf falsafasining qiskacha tarzdagi bayoniga mengzaydi”[11]. Amiriy ayni g‘azalga bog‘lagan muxammasida naqshbandiyaning “xilvat dar anjuman” rashhasiga ishora qilinganini ko‘ramiz:

Tariqat ahlini andishasi qanoatdir,
Vujud sham’ini kuydurmak anga odatdur,
Chu sof bo‘lsa ko‘ngul, anjumanda xilvatdur,
Chirog‘i xonaqoi so‘fiyona na hojatdur,
Sitorai falaki gunbazi kabud yetar[12].

“Tariqat ahlining fikru xayoli qanoat hisoblanadi. Vujud otlig‘ shamni kuydirish – bu toifaning shiori. Ko‘ngil sof bo‘lsa, kishi odamlar orasida ham xilvat qilaveradi, ya’ni uni izdihom ham Haq xayolidan uzolmaydi. Bunday kishiga so‘fiylar xonaqohining chirog‘iga hojat yo‘q – unga ko‘k gunbazi uzra porlagan yulduzlarning o‘zi kifoyadir”.

“Umarxonning mavzui tasavvufning yuksak nuqtasi bo‘lg‘on umumiy ruhga fano bo‘lish, quyulish, koinot ruhi bilan birlashish mavzuidir”[13], – deydi muxammasni tahlil qilar ekan Vadud Mahmud. O‘z navbatida, Amiriyning o‘zi muhabbat piriga xizmat qilib kamol kasb etgani uchun endi olam elini ishq yo‘lidan yetaklab, ularni bu borada kamolotga yetkazib, qo‘liga ishq irshodi – hujjatini bersa ajab emas, deb lutf etadi:

Amir olamg‘a bersa ishq irshodin tong ermaskim,
Muhabbat pirig‘a xizmat qilib, kasbi kamol etmish (1,137).

Qo‘qon adabiy muhitining nuktadon tadqiqotchisi O.Jo‘rabov yozganidek, “Umarxon tasavvuf ta’limoti, xususan, xojagon-nakshbandiya tariqati mohiyatidan chuqur xabardorligini anglatgan. “Anjumanda xilvatdur” jumlasi mazkur tariqatning ulug‘lari – Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan o‘n bir asos prinsipdan biri – “Xilvat dar anjuman”ning she’rdagi ifodasidir. Shu tariqa muallif, V.Mahmud ta’rifi bilan aytganda, “koinotning umumiy ruhiga quyilish hasrati”dagi “naqadar buyuk, naqadar oliy” mavzuni nihoyatda yuksak maromda va go‘zal badiiyatda ifodalab bera olgan. Amiriyni “ilohiy tarannumlar sohibi” deyilishi bejiz emasligini, uning Zaliliy gazallariga qilgan yana boshqa ikki muxammasi va devonidagi boshqa bir necha asarlari ham asoslaydi. Misol uchun, uning devonida “Yo, Shoh Naqshband” radifli forscha g‘azali bor. Umarxon haqida tarixiy asar yaratgan – Fazliy va Mushrif ham uning din peshvolari va zamonasidagi tasavvuf arboblariga yuksak ehtiromda bo‘lganligini ta’kidlashadi. Umuman olganda, Umarxonning zikr etilgan muxammasi

[11] Жўрабоев О. Илоҳий тараннумлар соҳиби // “ЎзАС”, 2009 йил 11 сентябрь.
[12] Жўрабоев О. Илоҳий тараннумлар соҳиби // “ЎзАС”, 2009 йил 11 сентябрь.
[13] Маҳмуд В. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Б.Каримов). – Тошкент: “Маънавият”, 2007, 89-бет.

o‘zining ma’rifiy ko‘lami bilan ajralib turadi”[14]. Jumladan, quyidagi misralarda tasavvufiy qarashlar o‘z aksini topgan:

Havoi ishqda parvoz misli tayr etgil,
Ani visoli umidida tarki g‘ayr etgil,
Vujud kisvatini toshlarga xayr etgil,
Tamomi dashti tariqat barahna sayr etgil,
Kalomi xirqai pashminadin ne sud yetar.

A.Qayumov, M.Qodirova, H.Muhammadxo‘jayev kabi Amiriy hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar o‘sha davrdagi hukmron mafkura ta’sirida uning diniy-tasavvufiy she’rlarini yo chetlab o‘tganlar, yo ularni shoh-shoirning cheklangan jihatlariga nisbat berganlar[15]. Jumladan, Hamidjon Homidiy Amiriyga bag‘ishlangan “So‘z guharshunosi” degan maqolasida uning so‘z tanlashi, tashbeh qo‘llashi, mavzuga o‘ziga xos yondashishi haqida fikr yuritib, shoir ijodidiga diniy-tasavvufiy motivlar xususida lom-mim demaydi[16].

Ma’lum bo‘ladiki, shoh-shoir ijodidagi tasavvuf ohanglarini ko‘p yoqlama ta’sir natijasi sifatida baholash mumkin: birinchisi – mumtoz so‘z san’atidagi mavjud an’analar ta’siri bo‘lsa, ikkinchi – o‘sha davrda Qo‘qonda katta nufuzga ega bo‘lgan naqshbandiya tariqatiga mansublik, uchinchisi – bevosita uning o‘zidagi tasavvufga moyillik. Bular bir butun holda Amiriy ijodida irfoniy motivlarning ustuvorligini ta’minlagan omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekins, P. (1999). Economic Growth and Environmental Sustainability: The Prospects for Green Growth (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203011751
2. Bertels Ye.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. – M.: “Nauka”, 1965, 54-bet.
3. Jo‘raboyev O. Naqshbandiya va Qo‘qon adabiy muhiti // “Naqshbandiya ta’limoti va milliy ma’naviyatimiz “mazuidagi respubika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2008, 74-bet.
4. Kuzikulov I. Qo‘qon xonlgi tarixi (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan, 2014, 77 bet.
5. Ochilov E. Ta’bi nozik, zehni olim shoir // Barhayot siymolar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012, 394-bet.
6. Uvaysiy. Devon. – Toshkent: “Fan”, 1959, 218-bet. – 288 b.
7. Muqimiy. Furqat. Zavqiy. Yangi bayoz. – Toshkent, 1997, 69-bet.
8. Qayyumov P.D. Tazkirai Qayyumiy, 1-kitob. – Toshkeknt: Qo‘lyozmalar instituti, 1998, 108-bet.

[14] Жўрабоев О. Илоҳий тараннумлар соҳиби // “ЎзАС”, 2009 йил 11 сентябрь.
[15] Қодирова М. Сўзбоши // Амирий. Девон (Нашрга тайёрловчи: М.Қодирова). – Тошкент: Фан”, 1972. – Б. 3–16. – 364 б.
[16] Ҳомидий Ҳ. Сўз гуҳаршуноси // Кўҳна шарқ дарғалари (Бадиий-илмий лавҳалар). – Тошкент: “Шарқ”, 1999. – Б. 313–319.

9. Jo‘raboyev O. Naqshbandiya va Qo‘qon adabiy muhiti // “Naqshbandiya ta’limoti va milliy ma’naviyatimiz “mazuidagi respubika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2008, 74-bet.

10. Mahmud V. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: B.Karimov). – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2007, 89-bet.

11. Qodirova M. So‘zboshi // Amiriy. Devon (Nashrga tayyorlovchi: M.Qodirova). – Toshkent: Fan”, 1972. – B. 3–16. – 364 b.

12. Homidiy H. So‘z guharshunosi // Ko‘hna sharq darg‘alari (Badiiy-ilmiy lavhalar). – Toshkent: “Sharq”, 1999. – B. 313–319.

SHAXSNING IJTIMOIYLASHISH JARAYONINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Dauletova Go’zal Muratbaevna
Qoraqalpoq Davlat Unuversiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Ahadov Feruzbek Vafo o‘g‘li
Qoraqalpoq Davlat Unuversiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlarda shaxsning va unga nisbatan bo`layoygan munosabatlarda ijtimoiylashuv jarayoninig psixologik tavsifi, bugungi globallashuv jarayoniga xos psixologik xizmatni tashkil etish, sog’lom shaxsning o'sishini ta'minlash muammosi, shaxslararo muloqotning psixologik asoslari, muloqotning shaxs hayotidagi roli, vazifasi, psixologik xususiyatlari haqida qisqacha so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Shaxs, ijtimoiylashuv, jamiyat, indvid, makro, mikro muxit, ong, psixolog, ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya, dunyoqarash, amaliy psixologiya.

Bugungi kunda shaxsning ijtimoiylashuvi o’ziga xos jarayon sifatida, shaxsning hayoti va faoliyatida o’z aksini topadi. Bolaning mustaqil hayotga qadam qo’yishi, uning ijtimoiylashuvi, shaxsning jamiyat hayotiga, uning ijtimoiy ta`sirlariga moslashishi, uning ijtimoiy voqelikni bilish va anglash faoliyatiga bo’lgan muhim ehtiyoji sifatida paydo bo’ladi.

Jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o‘rganishga alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo’lidan kelgan barcha ishlarni ijtimoiy psixologik xizmatni va uning o’ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarni qo’llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e’tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtdapsixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda.Bugungi kunda ta’lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma’lum darajada asos bo’lmoqda. Ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo’nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda muhim muammo bo’lib qolmoqda.

Shu bilan birga, bolada yana bir zarur hayotiy ehtiyoj, ya`ni har bir shaxsda o’ziga xoslikni, alohidalikni namoyon etish hissi ham shakllanadi. Bola o’z “Men”ini ro’yobga chiqarish uchun turli usullar va vositalarni qidira boshlaydi va shu orqali uning shaxsiy sifatlari shakllanadi. Shaxsning alohida psixologik, o’ziga xos xislatlari, faqat o’ziga tegishli bo’lgan ijtimoiy faoliyatda namoyon bo’ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo’lib boradi. Bolaning shaxs sifatida ulg’ayib, ijtimoiy rivojlanishi o’zaro bir-biriga bog’liq bo’lgan ikkita yo’nalishda olib boriladi:

-moslashuv (ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribalarni o’zlashtirish);

-individuallashiv (mustaqillik, nisbatan o’ziga xoslikka ega bo’lish). [1. 237]

Ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy ilm-fanda inson shaxsining jamiyat hayotiga moslashishi va individuallashishi(o’ziga xoslikning ifodalanishi) kabi jarayonlarini o’zaro bog’lab turadi. Shaxsning muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi va o’zini alohida olingan shaxs sifatida tasavvur qilishi ijtimoiylashuv jarayonining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Moslashshish sub’ekt va uni o’rab turgan ijtimoiy muxitning o’zaro faol yaqinlashuvi natijasi xisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv jamiyatdagi mavjud ijtimoiy qatlamlariga xos bo’lgan vositalar orqali amalga oshiriladi:

- bolaga g’amho’rlik qilish usullari;
- maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari;
- insonni o’rab turuvchi moddiy va ma`naviy ne`matlar;
- madaniyat mahsulotlari;
- shaxslararo muloqot va muomala usullari;
- oilada rag’batlantirish va jazolash uslublari;
- shaxslararo o’zaro munosabatlar;
- faoliyat turlari: o’yin, amaliy faoliyat, sport faoliyati.[2. 214]

Har bir jamiyatda ijtimoiy guruhlar uchun turli-tuman ijtimoiy normalar va ta`qiqlashlardan iborat chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, shu orqali inson xulq-atvori ushbu jamiyatda qabul qilingan me’yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi. Bolaning shaxs sifatida jamiyatga qo’shilishi, ya`ni ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin: Ota-ona, o’z tengdoshlari va pedagog-murabbiylar bilan o’zaro muloqot, faoliyat turlari(o’yin va o’quv faoliyati, ijodiy faoliyat, sport faoliyati)ni egallash. Shaxsning ijtimoiylashuvi bolalar, o’smirlar, o’spirinlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida voyaga yetishiga ta’sir ko’rsatuvchi ko’p sonli shart-sharoitlar zamirida yuzaga keladi.

Ijtimoiylashuv jarayoniga tashqi va ichki omillar ta`sir etadi: Tashqi omillar:

- megaomillar(mega-ulkan) - koinot, butun yer sharidagi jarayonlar.
- makroomillar(makro-katta) - davlat va jamiyatdagi demografik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ekologik omillar.
- mezoomillar(mezo-o’rta) – muayyan hudud va yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari, muayyan guruhlarning ijtimoiylashish shart-sharoitlari.
- mikroomillar(mikro-kichik) – alohida shaxslarga ta’sir qiluvchi omillar tizimi(oila, mahalla maskanlari, tengdoshlar guruhi, ta`lim va tarbiya muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari).[3.164]

Bolaning ijtimoiylashuvida, ijtimoiy intizom va tartib, madaniyatning mufassal ko’rinishi bo’lgan jamiyaning muhim o’rni bor. Yirik fransuz psixologi Anri Vallon(1879-1962) bola psixikasining rivojlanishini marksistik nuqtai-nazar orqali tahlil qiladi. Uning asosiy g’oyalari “Bolaning psixik rivojlanishi”(1941), “Harakatdan to fikrlashgacha”(1942), “Bola tafakkuri manbalari”(1945) kabi tadqiqot ishlarida bayon etilgan. Vallonning ko’rsatishicha bola psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, bola yashab turgan muxitning murakkablashib borish jarayoni va unda bolaning o’zaro birgalikdagi faoliyati xisoblanadi. Bolaning psixik rivojlanishiga

ta`sir ko’rsatuvchi shart-sharoitlardan, insoniyat tomonidan yaratilgan buyumlar va odamlarning xulq-atvori hamda ularning munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Dastlab bola psixikasi uchun tashqaridan kelayotgan ta`sirlar muhim o’rin egallaydi, so’ngra psixik rivojlanish ko’proq ichki shart-sharoitlarga bog’liq bo’lib boradi. O’z navbatida psixik rivojlanish bola faoliyat olib borayotgan sharoitning murakkablashib borishiga ham uzviy aloqadorlik kasb etadi.

E.Fromm 1933-yilda AQSHga ko’chib o’tib, Chikago psixoanaliz institutida, so’ngra 1951-yilda Meksikada ishlaydi. Freyd tomonidan xulqining yagona dvigateli (xarakatlantiruvchi kuchi) biologik kuchlar deb baholangan bo’lsa, Frommning uqtirib o’tishicha, hamma uchun umumiy bo’lgan ochlik, tashnalik, jinsiy mayllar kabi ayrim ehtiyojlar mavjud, lekin odam xarakteridagi farqlarni yaratuvchi ehtiyojlar: sevgi va nafrat, xokimiyatga intilish va unga bo’ysunish, xissiy qoniqishdan rohatlanish va undan qo’rqish - ijtimoiy jarayonlar xosilasidir.[4. 344]

Individ, ya’ni tabiiy zot sifatida dunyoga kelgan odam bolasi tug’ilgan kunidan boshlab o’ziga o’xshash insonlar qurshovida bo’ladi va uning butun ruhiy olami, qiziqishlari, intilishlari va qobiliyatlari ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo’ladi, chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyot davriga e`tibor qaratadigan bo’lsak, odam bolasi parvarishga muhtoj holda, o’ziga o’hshash kishilar davrasiga tushadi, sekin-asta jismoniy, ruhiy va ijtimoiy taraqqiot tufayli ijtimoiy munosabatlarning faol ob`yekti va sub`yektiga aylanadi.

Ijtimoiylashuv tushunchasi ijtimoiy-psixologik kategoriya bo’lib, bu shaxsning uni o’rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o’zlashtirishga moyilligi, o’zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Insonning tug’ilib, o’zini bevosita o’rab turgan tashqi muhit ta’sirida ulg’ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi.

Oilaning ijtimoiy muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o’chog’i va ulg’ayish maskani hisoblanadi. Ilk o’spirinning xarakter xususiyatlarini shakllanishiga asosiy ta’sir etuvchi omillar qatoriga biologik, ijtimoiy va psixologik ta’sir vositalarini kiritamiz. Xuddi shu davrda ulg’ayibkelayotgan shaxs organizmida biologik, fiziologik qayta qurilish davri kechishi natijasida ularda agressiv xulq motivlari namoyon bo’ladi. Ayniqsa o’smirlik davrida organizmning jismoniy va ruhiy jihatdan bir-biriga nomutanosib tarzda rivojlanishi kuzatiladi, jinsiy balog’atga yetish va funksional yangilanishlar tufayli gormonlar miqdorining o’zgarishi yuz beradi.[5. 294]

Bir tomondan bu o’smir organizmidagi barcha o’zgarishlar gipotalamus va endokrin bezlarning rag’batlantiruvchi va nazorat qiluvchi ta’siri ostida kechadi. Ayrim gormonlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida o’smir xatti-harakatida agressivlik(jizzakilik, serzardalik, qaysarlik) holatlari kelib chiqadi. O’smir xatti-harakatlarida agressiv xulq-atvor ko’rinishlari kelib chiqishining asosiy sabablariga, uni o’rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirini ham kiritishimiz mumkin, chunki, o’smir xarakter xususiyatlarining shakllanishi u yashab turgan muhit ta’siri ostida yuzaga keladi.

Ijtimoiy muhitning asosi bo’lgan oila, shaxs xulq-atvorining shakllanishiga katta ta’sir o’tkazadi, oilada olingan tarbiya bir umrga saqlanib qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatida muhimligi shundaki, voyaga yetib kelayotgan shaxs hayotining ko’p qismini o’tkazadi va shaxsga ta’sir etuvchi muddati bo’yicha birorta ham tarbiya institutlari oilaga teng kela olmaydi.[6. 312]

Shaxs oilada o’zlashtirgan xarakter xislatlarini o’zida aks ettiradi va uni ijtimoiy muhitda namoyon qiladi, ba`zan tajovuzlorlikning oilada namoyon bo’lish shakllari turlicha kechishi mumkin: bu bevosita ijtimoiy yoki jinsiy tajovuzkorlik, sovuqqonlik, salbiy baholar, boshqa bir shaxsni ruhan ezish, tazyiq o’tkazish, boshq bir shaxsni emotsional qabul qilmaslik bo’lishi mumkin.

Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o’zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o’rganadi, jamoatchilik sharoitida o’zini tutish ko’nikmalarini hosil qiladi. Shaxsning jtimoiylashuvi uning ijtimoiy ta`sirlarni qabul qilishi, ijtimoiy borliqni bilishi va anglashiga asoslanadi.

Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo’lsa, uning ta’siri ham shunchalik ijobiy va samarali bo’ladi, bunday oilada milliy va ijtimoiy qadriyatlar, qonunqoidalar va ahloq me’yorlari hurmat qilinadi. Oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo’lsa, jamiyat ham mustahkam bo’ladi. Mustaqil Vatanimizda oila qo’rg’oni qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e’zozlanadi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yurtimizda oila institutini mustahkamlash, yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol bo’lib voyaga yetishini ta’minlashga qaratilgan farmonlar va qarorlar, unda ko’zda tutilgan vazifalarning bajarilishi oilaviy ijtimoiylashuvning samaradorligini ta’minlaydi.[7. 187]

Shaxsning egallagan mutaxassisligi, olgan bilimlari, ko’nikma va amaliy mehnat malakalari, hayotiy faoliyat uchun juda muhim bo’lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta’sir qiladi, shaxsning kimlar bilan, qanday o’zaro munosabatda ekanligi, uning qaysi muhit ta’sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezoni sanaladi. Ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o’sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o’zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo’lib, ko’pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o’rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog’lom ma’naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o’ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, keksalik davrining ijtimoiy mohiyati shundaki, otabobolarimiz, onaxonlarimiz asosan o’zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va hokazo) uzatish bilan shug’ullanadilar va bu narsa ayniqsa, sharq xalqlarida juda e’zozlanadi. Hozirgi kundagi ijtimoiylashuv mexanizmlari yoshlarida yangicha tafakkur shakllanishiga, yurtga sadoqat, Vatan hissini shakllantirishga o’z xissasini qo’shadi. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli — bu uning hayotda o’z o’rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekins, P. (1999). Economic Growth and Environmental Sustainability: The Prospects for Green Growth (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203011751
2. E.G`озиев . Умумий психология. Т.2010.
3. Abdullayeva D., Yarqulov R., Atabayeva N. Oila psixologiyasi. T.:”Tafakkur Bo’stoni”. 2015.
4. Ivanov P.I. Zufarova M. Umumiy psixologiya T. 2008.
5. Maqsudova M. Muloqot psixologiyasi. T.2006.
6. Shoumarov G’.B. “Oila psixologiyasi”. Toshkent. “Sharq”.2008.
7. G’oziev E. Psixologiya. T. 2008.
8. Haydarov F., Halilova N. Umumiy psixologiya. T.2010.
9. Курс общей, возрастной и педагогической психологии. Выпуск 3. Под ред. М.В.Гамезо. М. «Просвещение». 1982.
10. Д.Б.Эльконин. Избранные психологические труды. М. Педагогика. 1989.

MAKTABGACHA YOSHDAGI OGIR NUTQ BUZILISHIGA EGA DIZARTRIK BOLALARNING MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Yuldashev Sodirjon Jurayevich
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Hozirgi vaqtda O’zbekistonda aqliy zaiflikning o'rtacha va og'ir shakllari bo'lgan bolalarga yordam berish muammosiga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Ular bilan ishlashning yangi tashkiliy shakllari ishlab chiqilib, ularning jamiyatga integratsiyalashuv imkoniyatlari aniqlanmoqda. Buni Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus (tuzatish) ta'lim muassasasi to'g'risidagi namunaviy nizom va Ta'lim vazirligining ko'rsatma xatilari tasdiqlaydi. Mazkur qoidaga ko‘ra, butun respublika bo‘ylab maxsus ta’lim muassasalarida ushbu toifadagi bolalar uchun sinflar ochilgan bo‘lib, bu maxsus pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar va amaliyotchilarga korreksiya-ta’lim-tarbiya berish vazifasini qo‘yadi.Inklyuziv ta’limdagi islohatlarda belgilangan xalqaro tajribani o’rganish maqsadida Rossiya bilan xamkorlikda "Aqliy kasalliklarni davolash diagnostikasi modellari" yo'riqnomasini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'iga binoan. va xulq-atvor buzilishlari") - intellektual nuqsonlar kontingentining og'irligi bo'yicha murakkab va juda heterojen. VIII-toifa maktablarida ushbu toifadagi o'quvchilarni tayyorlashda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: ularning mumkin bo'lgan ijtimoiylashuvi yo'llarini topish, ijtimoiy adekvat xulq-atvor normalarini singdirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni mehnatning elementar shakllariga ko'niktirish.

JSST ICD-10 tavsiflangan holatni eng adekvat baholash uchun umumiy ko'rsatmalar beradi - engil darajadagi buzilish (F70); o'rtacha daraja (F71); og'ir (F72); chuqur (F73).

Rossiya JSST ICD-10 dan foydalanishga o'tgan oxirgi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Biroq, bu asosan shifokorlarga tegishli. Hozirgacha ko'pchilik psixologlar, o'qituvchilar va defektologlar tadqiqot va amaliy faoliyatlarida G.E. tomonidan tasniflangan eski an'anaviy tushunchalardan foydalanadilar. Suxareva: oligofreniya, zaiflik, ahmoqlik, ahmoqlik.Og'ir aqliy zaiflik ko'pincha aqlsizlikni anglatadi yoki aqliy zaiflikning o'rtacha va og'ir darajalari farqlanmaydi. Ushbu tadqiqot doirasida biz PMPK xulosalari aqliy zaiflikning o'rtacha darajasini ko'rsatadigan tuzatish maktablari o'quvchilari va differensial diagnostika maqsadida VIII toifa maktablariga kiradigan va ta'lim xizmatlarini oladigan og'ir aqliy zaif bolalar bilan qiziqamiz.O’zbekistonda olimlardan

Kognitiv faoliyatning yuqori shakllarining rivojlanmaganligi, qo'pol tizimli nutq buzilishida namoyon bo'ladigan og'ir aqliy rivojlanish bu bolalarning kommunikativ kompetentsiyasining juda past darajasini belgilaydi, bu ularning moslashuvi va zamonaviy jamiyatda mavjudligi jarayonini murakkablashtiradi.

Dizartriya – nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriya termini grekcha so’zdan olingan bo’lib, **dis –**bo’lak, arthon – biriktirish degan ma’noni bildiradi.Dizartriya-bu markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi.Dizartriyada nutq a’zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas

buzilishlari hamda nutqning sur’ati, ritmi va ifodaliligida o’zgarishlar kuzatiladi.Dizartriyaning og’ir formasida nutq butunlay tushunarsiz bo’ladi. Bunday hol anartriya deb ataladi. Anartriya termini grekcha so’zdan olingan bo’lib, a-yo’q, arthon – biriktirish degan ma’noni bildiradi.Dizartriyani tasniflashda mutaxassislar turli xil yondashadilar: jarohatlanish o’chog’iga qarab, nevrologik simptomning ustunligi yoki neyrolingvistik qarashlar bo’yicha Ye.N. Vinarskaya (1973), K.N. Vittorf (1940), K.Vovatr (1966), L.A. Danilova (1969), M.Zeeman (1962), M.V.Ippolitova (1965), S.S. Lyapidevskiy (1968), Ye.M. Mastyukova (1985), I.I. Panchenko (1974), K.A. Semyonova (1979), M.B. Eydinova.Ammo ko’pchilik mutaxasislar dizartriyani tasniflashda jarohatlanish o’ch’g'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyani quyidagi turlarga ajratadilar: bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartriya, qobiq osti va miyachali dizartriya.

Bulbar dizartriya. Uzunchoq miya – medullaoblongata – yana ikkinchi ancha eski nomga ham ega – bulbus cerebri – qaysiki miya o’qining bir qismi piyoz boshchasi bo’laklariga /bulbus, piyoz boshchasi\ tashqi yuzasi bilan o’xshashdir. Miyaning bulbar qismiga tegishli IX, X va XI, XII bosh miya nervlarining periferik o’qlari, po’stloq yoki yadroning shikastlanishi oqibatida yuzaga keluvchi simptokompleksning harakat buzilishlari bulьbar falaj deb ataladi.

Psevdobulьbar dizartriya. Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning yadrosining o’zi nerv impulslarini miya po’stlog’idan markaziy harakatlantiruvchi neyronlir, boshqacha qilib aytganda piramida yo’li bilan qabul qiladi.

Hozirga qadar markaziy harakatlantiruvchi neyronlarning tanasini oldingi ildizi markaziy egatlarning /G‘ng va chap/ pG‘stloғida ma’lum ketma-ketlikda joylashgan deb hisoblanib kelinar edi. Til, lab, yutqin, tomoq harakatini innervatsiya qilishga tegishli hujayralar oldingi markaziy egatlarning pastki qismida joylashgan.

Qobiqli dizartriyada bosh miya qobig’ining o’choqli jarohatlanishi bilan bog’liq patogenezga ega nutqning motor kamchiliklar guruhi namoyon bo’ladi.

Qobiqli dizartriyaning birinchi shakli bosh miyaning oldingi markaziy egatchasining pastki bo’limining bir tomonlama yoki ko’p hollarda ikki tomonlama jarohatlanishi bilan bog’liq. Bunday xolatlarda artikulyatsiya mushaklarining markaziy parezi yuzaga keladi. Tilning ayrim mushaklarini qobiqli parezi juda nozik alohida harakatlari hajmining cheklanishiga olib keladi. Qobiqli dizartriyaning bu shaklida til oldi tovushlari talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi.

Miyachali dizartriya. Dizartriyaning bu shaklida miyacha va uning markaziy asab tizimining turli bo’limlari bilan aloqalari jarohatlanadi. Miyachali dizartriyada nutq sekinlashgan, jumla oxiriga kelib ovozning «O’chib qolishi» bilan tavsiflanadi. Til va lab mushaklari tonusining pasayishi ular uchun xos bo’lib, til ingichka holda og’iz bo’shlig’ida beharakat yotadi, harakatlar tempi sekinlashgan, artikulyatsiya holatlari his etish va amalga oshirishda qiyinchiliklar, yumshoq tanglay osilib turishi, chaynash harakatlarining sustligi, mimikaning cheklanganligi kuzatiladi.

Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Dizartriyani bartaraf etish bo’yicha olib boriladigan logopedik ta’sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya’ni artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy - tarbiya, fizioterapiya va dori - darmonlar bilan davolash ishlari. Asosiy diqqat bolada nutkning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda

nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham xisobga olinadi.

Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg’ulotlar sekin-asta artikulyatsion apparat, apparat motorikasini normallashtiradi, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi, artikulyatsiya a’zolarida ixtiyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o’tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonematik eshituvni to’la qonli ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari AG. Ippalitova, O.V. Pravdina, V.V. Ippalitova, Ye.M. Mastyukova, G.V. Chirkina, I.I. Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

1 – tovushlarningto’g’ri talaffuzini o’rgatish, ya’ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qo’yish va mustahkamlash;

2 – fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish;

3 – nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

4 – paydo bo’lgan nutqning umumiy rivojlanmaganliginito’g’rilash.

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a’zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Dizarteriyada olib boradigan logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi. Bu bosqichlarning eng ahamiyatli vazifalari bu – sensor funksiyani, ayniqsa, eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir. Korreksion ish metodlari va usullarini qo’llash nutq rivojlanishi darajasiga bog’liq. Bolada muloqot nutq vositalarining bo’lmasligi boshlang’ich ovoz reaksiyasini tezlashtiriladi va tovushlarga taqlid qilishga olib keladi, hamda unga kommunikativ ahamiyat tusini beradi. Logopedik ishlar dori-darmonlar bilan ta’sir etish, fizioterapevtik davolash, davolov jismoniy tarbiyasi va massaj bilan qo’shib olib boriladi.

Og’izning holatini nazorat qilish. Dizartriyada og’izning holatini nazorat qilmaslik ixtiyoriy artikulyator harakatlarning rivojlanishini qiyinlashtiradi. Dizartriyada, odatda, bolaning og’zi ochiq, so’lak oqishi kuzatiladi.Olib boriladigan ishlar 3 bosqichga bo’linadi.

Birinchi bosqich – lablar uchun mashqlarda taktil sezgilarni bolaning og’zinipassiv yopishi bilan birgalikda rivojlantirish. Asosiy diqqat bolaning og’zini yopish sezgilariga qaratiladi, bola bu holatlarni oyna orqali ko’rib turadi.

Ikkinchi bosqich – passiv faol yo’llar orqali og’izni yopish. Og’ziniyopish avval boshni pastga egish va og’ziniochish, boshni orqaga tashlash holatida oson bajariladi. Ishning boshlang’ich bosqichlarida ushbu osonlashtirilgan usullardan foydalangan holda amalga oshirish mumkin.

Uchinchi bosqich – og’izni faol ochish va yopish mashqlari so’z ko’rsatmasi bo’yicha o’tkaziladi. Masalan, «Og’izni katta och», «Lablarni cho’chchaytir», «Lablarni naycha shakliga keltir va avvalgi holatiga qaytar».

Og’izning turli harakati tasvirlangan rasmlarga qarab mashqlarni bajarish. Mashqlar asta-sekin murakkablashib boradi: boladan bo’shashtirilgan lablar orqali puflash, tebranish harakatlarini bajarish so’raladi.

Artikulyatsion gimnastika. Artikulyatsion gimnastikani o’tkazishda taktil-proprotseptiv stimulyatsiya, statik-dinamik sezgilarni rivojlantirish, aniq artikulyatsion kinesteziyalar muhim ahamiyat kasb etadi.Ishning dastlabki bosqichlarida saqlangan analizatorlardan (eshitish, ko’rish, taktil) mukammal ravishda foydalanish orqali amalga oshiriladi. Mashqlar ko’zlarni yopiq holda bolaning diqqatini proprotseptiv sezishlarga qaratish orqali bajariladi. Artikulyatsion gimnastika dizartriyaning shakli va artikulyatsion apparatning jarohatlanish darajasiga qarab differensiyallashtiriladi.Nutq muskullari harakatini rivojlantirishdan avval yuzning mimik muskullari mashqlaridan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolada mimikaning ixtiyoriy va differensirlashgan harakatlari va o’z mimikasi ustidan nazorat qilish rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vinarskaya Ye.N., PG‘latov A.M. Dizartriya ieyo topiko-diagnosticheskoe znachenie v klinike ochagovыx porajeniy mozga., – 1989.
2. Volkova P.S., SHaxovskaya S.N. Logopediya. – M., Vlados, 2002.
3. Krauze Ye.N. Logopediya. – M., Korona print. 2003.
4. Lyapidevskiy S.S. Nevropatologiya – M., Vlados. 2001.
5. Mo’minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya., 1993.
6. Neyman L.V., Bogomilskiy M.R. Anatomiya, fiziologiya i patologiya organov sluxa i rechi. – M., Vlados, 2001.
7. Xrestomatiya po logopedii T.1. (pod.red. Volkova L.S., Seliverstov V.I.) – M., Vlados, 1997.
8. Yuldashev S.J. „Tasviriy san’at va qo’l mehnati o’qitish metodikasi’’
9. O’quv qo’llanma. T 2022.
10. Dizartriya nutq kamchiligini oilada tarbiyalashda logoped va oilaning xamkorligi. NamDu . Ilmiy Axboratnoma 2023.

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINING HUQUQIY ASOSLARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Adxamxo‘ja Isaxo‘ja o‘g‘li Abdullaxo‘jayev
Qo‘qon universiteti, “Ta’lim” kafedrasi falsafa o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada milliy qonunchiligimizda ayol-qizlarni huquq va manfaatlarini himoyaq ilish va ularga davlarimiz tomonidan yaratib berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar, so'nggi yillarda ayol-qizlarga nisbatan zo'ravonli va uning har qanday shakllariga murosasiz kurashni kuchaytilganiligi va gender tengligi borasida huquqiy, siyosiy,ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar va ularning mazmun-mohiyati xususida fikr yuritiladi.Demokratik islohotlarini yanada jadallashtirish ayol-qizlarni ham ma'naviy hayotda, ham siyosiy-rahbarlik sohasida faolligini oshirish eng muhim vazifalardan biri ekanligi, aholini huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali faol fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi oliyjanob maqsadlar gender tengligini ta'min etilishi bilan uzviy bog'liq ekaniligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: O‘zbekiston, gender, tenglik,huquq, imkoniyat,siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy,xotin-qiz, erkak, majburiyat, qonun, BMT, hukumat.

Абстрактный. В статье рассматривается защита прав и интересов женщин и девочек в нашем национальном законодательстве, а также привилегии и возможности, созданные нашим временем, усиление борьбы с насилием в отношении женщин и девочек и нетерпимостью к любым его формам в последние годы. обсуждаются правовые, политические, социальные, реформы в экономической и духовной сферах и их суть. Одной из важнейших задач является ускорение демократических реформ и повышение активности женщин и девушек как в духовной жизни, так и в духовной. сферу политического лидерства, а также создать активное гражданское общество путем повышения правовой культуры населения. Подчеркивается, что такие благородные цели, как становление, неразрывно связаны с обеспечением гендерного равенства.

Ключевые слова: Узбекистан, пол, равенство, право, возможность, политическое, правовое, социальное, экономическое, женщина, мужчина, обязанность, закон, ООН, правительство.

Annotation. In the article, the protection of the rights and interests of women and girls in our national legislation and the privileges and opportunities created by our times, the strengthening of the fight against violence against women and girls and intolerance to any of its forms in recent years, and the legal, political, social, reforms in the economic and spiritual spheres and their essence are discussed. One of the most important tasks is to accelerate the democratic reforms and to increase the activity of women and girls both in the spiritual life and in the sphere of political leadership, and to create an active civil society by raising the legal culture of the population. It is emphasized that such noble goals as establishment are inextricably linked with the provision of gender equality.

Keywords: Uzbekistan, gender, equality, right, opportunity, political, legal, social, economic, woman, man, obligation, law, government.

Oila-jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, davlat va jamiyat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega degan tamoyil asosida mamlakatimizda islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining Oila, bolalar va yoshlar deb nomlangan alohida bobining 76-moddasida “Oila- jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh-O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi”, deb belgilab qo‘yilgan. Qomusimizda mustahkamlab qo‘yilgan teng huquqlilik prinsipni amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga ta’lim va tarbiya olishda, kasbiy tayyorlanishda, ishda, mehnat uchun rag‘batlanishda, siyosiy hayotda va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan mas’uliyat va burch nuqtai nazaridan, ijtimoiy, huquqiy, ma’naviy,iqtisodiy va jihatdan bir hil imoniyat va majburiyatlar yaratilgan. Shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi bilan tartibga solingan insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslanishi, qonun oldida tengligi prinsipining Konstitutsiyaning 76-moddasi bilan nisbati ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan, deyish mumkin. Aynan ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining[1] 76-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” qarori[2], “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonuni[3], O‘zbekiston Respublikasining“O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida“gi Qonunining 2-moddasi, Mehnat kodeksi[4] 4-moddasining birinchi qismi, Oila kodeksining[5] 2-moddasi alohida ahamiyatga ega sanaladi. Ayollarning siyosiy huquqlarini ta’minlashda yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida[6] siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahaliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar ta’minlashi nazarda tutilgan. Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 % ni tashkil etishi kerakligi belgilangan edi. 2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlarni tazyiq-zo‘ravonliklardan himoya qilish to‘g‘risida“gi va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi qonunlar, 2018-yil 2-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoni, 2018-yil 2-iyuldagi Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tabirlari to‘g‘risida“gi, 2019-yil 7-martdagi „Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi qarorlari[7] “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan

xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi hukumat qarori mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari himoyasi borasida ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi.Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida erkaklar va ayollarning huquqlari hamda erkinliklarin kamaytirishga yoki tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash jinsi bo‘yicha bevosita kamsitish, sirtdan xolis bo‘lib tuyiladigan, biroq bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo‘yadigan vaziyatlar, holatlar, mezonlar yoki amaliyotlar esa jinsi bo‘yicha bilvosita kamsitish sifatida qabul qilinishi belgilab o‘tilgan.O‘zbekistonda zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitasiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari faoliyati davlat rahbarining 2018-yil 2 iyuldagi qarori asosida yo‘lga qo‘yilgan.“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning gender tushunchasiga ham ta'rif berilgan. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlar qat'iy davom ettirilishini ta'kidladi. Shu maqsadda joriy yilda O‘zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes-forumini o‘tkazish rejalashtirilayotganiga e'tiborni qaratdi. Darhaqiqat, qadim yunon olimlari Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. erkak va ayollar tengligi g‘oyasini yunon olimi Antifont o‘z asarlarida qo‘llagan holda: “Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, deb ta'kidlagan.SHarq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo‘lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo‘lsak, eng avvalo, gender tenglikning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil etish joiz. Albatta, barchamizga ma'lumki, 1948-yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo‘lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”, deya ta'rif berilgan. BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanishicha, “Mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va

ayollar uchun ushbu Paktda ko‘rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi”. Hozirgi paytda mamlakatda 197 ta shunday markaz faoliyat yuritmoqda. Davlat statistika organlari gender ko‘rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig‘ishni, unga ishlov berishni, uni to‘plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e’lon qilishni amalga oshiradi. Respublika markazi ma’lumotlariga ko‘ra, o‘tgan yilning dekabr oyigacha 21 mingdan ortiq fuqarolarning murojaatlari qabul qilingan. Shundan 986 nafari erkak, 788 nafari bola va 19784 nafari ayol. Gender komissiyasi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yil 1-dekabr holatiga qadar ichki ishlar organlariga himoya orderi so‘rab 404 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, shulardan 375 holatda xotin-qizlarga himoya orderi rasmiylashtirilib berilgan. Hududlar kesimida himoya orderi so‘rab qilingan murojaatlarning eng ko‘pi Toshkent viloyatida (58 ta), eng kam murojaat Qoraqalpog‘iston Respublikasida (3 ta) qayd etilgan. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining 119 tasi ruhiy, 177 tasi jismoniy, 10 tasi tazyiq, 6 tasi iqtisodiy, 2 tasi jinsiy zo‘ravonlikdan iborat bo‘lgan.Hozirda O‘zbekiston Respublikasi aholisining qariyib 50 % ni xotin-qizlar tashkil qiladi. 2016-yilda oliy ta’lim muassalariga jami 61 ming yoshlar o‘qishga qabul qilingan, shundan xotin-qizlarning soni 23 mingni yoki 37 % ni tashkil etgan. So‘nggi yillarda qizlarning sifatli ta’lim olishi, kasb egallab, ishli bo‘lishi uchun bo‘lishi uchun katta imkoniyatlar yaratilgan.Talabalarning 48 % ni xotin-qizlar tashkil etmoqda. 2020-yilda yo‘lga qo‘yilgan tizimga muvofiq, 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qiz oliy ta’lim muassasalariga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan. Qizlar uchun maxsus stipendiya 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab davlat granti yoki to‘lov kontrakt asosida “A’lo” baholarga o‘qiyotgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarga oyma-oy to‘lashni rejalashtirilyotgani ham ushbu sohada so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshirishga kirishilyotganligini bildiradi.Shuningdek, Bola tug‘ilishi munosabati bilan ona ham, ota ham haq to‘lanadigan ta’til olish huquqiga ega. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta’tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko‘ra ular o‘rtasida bo‘linishi mumkin, bunda ota-ona ta’tildan uni qismlarga bo‘lgan holda foydalanishi mumkin.Agar shaxs o‘zini jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunda jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmaydi. Shuningdek, Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” qaroriga muvofiq So‘nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.Sohada olib borilayotgan

Hozirgi rivojlanish davrida davlatimizning ravnaqi, tinchligi va totuvligiga rahna solish, shuningdek davlatimiz yoshlarga buzg‘unchi va yod g‘oyalar targ‘ib qilib, ularni yo‘ldan og‘dirish hamda onggini zaharlashni maqsad qilganlar kun sayin ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va an’analarini o‘rganish katta ahamiyatga kasb etmoqda. Shu sababli, tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ma’lumki, hozirda ilmiy texnikaviy taraqqiyot davri dadil olg‘a siljib borayotgan bir davrda, har bir inson faoliyati uchun qulay imkoniyat va shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Lekin hech birimiz unitmasligimiz lozimki, bugungi kunda halqimiz uchun eng oliy ezgulik tinch va osoyishta hayotdir. Bu esa bizni mustaqillikka erishgan yillarimizda halqimizning tinch va barqaror hayoti uchun erishilgan salmoqli natijalarni yanada teranroq anglashga chorlaydi. Mustaqillik yillarida barcha talablarga javob beradigan, mobil va tezkor, tashkiliy jihatdan mukammal va yaxshi

qurollangan, zamonaviy texnika bilan jihozlangan armiyani shakillantirish jarayoni oson kechmadi. Ammo bugun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi va rahnomoligida harbiy ta’limni rivojlantirish milliy armiyamizni yigitlarimiz bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratilayotganini bugun qat’iy ta’kidlashimiz joiz. Millati, tili va dinidan qat’i nazar, shu zaminda voyaga yetgan va yashayotgan har bir inson milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanmoqda.

Vatanparvarlik – o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Vatanparvarlik - (yunon tilidan *patris*- vatan) - axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg‘u, uning mazmuni vatanga muhabbat, uning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanish, o‘z manfaatlarini mamlakat manfaatlariga bo‘ysundirishga tayyorlik, xalq manfaatlarini himoya qilishga intilishdir.

Psixolog I.F.Xarlamov vatanparvarlikni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan axloqiy tuyg‘ular va xulq – atvor fazilatlari majmui, shu jumladan vatanga muhabbat, vatan ravnaqi yo‘lida faol mehnat qilish, xalqning mehnat an’analariga rioya qilish va ko‘paytirish, o‘z ona yurtining tarixiy obidalari va urf-odatlarini hurmat qilish; ona yurtga sadoqat, vatan sha’ni va qadrqimmatini mustahkamlashga intilish, uni himoya qilishga tayyorlik va qobiliyat, harbiy jasorat, jasorat va fidoyilik, xalqlar birodarligi va do‘stligi, irqiy va milliy adovatga toqat qilmaslik, xalqning urf-odatlari va madaniyatiga hurmat, boshqa mamlakatlar va xalqlar, ular bilan hamkorlik qilish istagi – deb ta’rif beradi.

Vatan – kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg„usi, mas’uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi Har birimizda Vatan tuyg„usi – bu aziz va go„zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo‘lishni ko‘zda tutadi. Vatan tuyg‘usi – bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O‘zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o‘rganishga intilishdir. Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard, jasur farzandlari biz uchun, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun o‘rnak va namuna timsolidir. Masalan, bobomiz Najmiddin Kubroning o‘chmas jasoratini esga olaylik. Bu jasorat zamirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg‘usi yotadi. O‘z davrining faylasufi va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat “Yurt qayg‘usi” she’rida “Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq - mening o‘limim, sening uchun o‘lmoq - mening tirikligimdur”, deb yozgan edi. Bu so‘zlar zamirida vatanparvar insonning qalb nolalari ifodasini topgan. Xususan, yosh avlodga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish muhim bir burch sifatida qarash kelajak talabi desak adashmagan bo‘lamiz. O‘z navbatida Vatanparvarlik tushunchasi to‘xtalsak, kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa – mustaqillik, erkin va farovon hayot masalasi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlarimizni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga harbiy vatanparvarlikning komponentlarini chuqur singdirish ta’im tizimi oldida turgan muhim masalalardan biri desak adashmagan bo‘lamiz.

Har bir mamlakat a’zosi qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat’i nazar, vatanparvarlik tuyg‘usini anglagan holda, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his qilishi, shaxsiy manfaatlarini shu Vatan, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi va mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol va komil inson qilib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namayon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so„zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – V harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-64.
3. Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to„g„risida» 2023 yil 29 iyundagi 267- son qarori.
4. Bobur «Bobur-noma» Baku, 2011. B. 24, 139.
5. A.O. Xudoyqulov. Talabalarda vatanparvarlik tarbiyasi orqali ularda
6. vatanparvarlik tuyg„usini shakillantirish/ Academic Research in Educational Sciences/ISSN: 2181-1385 Volume 5. 2024.
7. Ahmadi Sanaullah. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq milliy an’analaridan foydalanishning nazariy asoslari/“Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral.

NEYROGIMNASTIKANING MAKTABGACHA YOHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI, O‘RNI VA AHAMIYATI

S.A.Maxmudova
Qo‘qon unversiteti “Ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Qambarova Yoqutxon Obidjon qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda bolalarning rivojlanishi uchun katta ta'sir etishi mumkin bo‘lgan neyrogimnastikaning bolalar hayotidagi ahamiyati va o‘rni haqida berib o‘tilmoqda. Bundan tashqari neyrogimnastika bolaning sog‘ligi uchum qanchalik kerakligi haqida ham keltirib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье представлены значение и роль нейрогимнастики в жизни детей, которая может оказать большое влияние на развитие детей. Кроме того, было отмечено, насколько важна нейрогимнастика для здоровья ребенка.

Abstract: This article presents the importance and role of neurogymnastics in children's lives, which can have a great impact on children's development. In addition, it was noted how important neurogymnastics is for a child's health.

Kalit so‘zlar: Neyrogimnastika, rivojlanish, reabilitatsiya, miya yarim sharlari, xotira, stress, maktabgacha yosh va zamonaviy mashqlar.

Bugungi kunda bolalarning sog‘lom o‘sishi juda ham muhim hisoblanadi. Bolaning sog‘ligida faqat mushaklar emas, balki, miya ham mashg‘ulotlarga muhtoj. Bolalarni jismonan rivojlanishi uchun turli xil sport mashg’ulotlariga borilishi zarur bo’lganidek, bolalarning aqliy rivojlanishi uchun O’zbekistonga kirib kelayotgan yangi soha neyrogimnastika ham zarur deb o’ylaymiz.

Avvalo neyrogimnastika nima?

Neyrogimnastika bu-miyaning ikkala yarim sharlari ishini uyg‘unlashtiradigan mashqlar. Neyrogimnastikaning rivojlanish va kelib chiqishi o‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan. Markaziy asab tizimini yaxshilashning bu usuli 4 yoshdan oshgan bolalar uchun javob beradi.Gimnastikaning asosiy printsipi - bu ikkala qo'lning bir vaqtning o'zida sinxron ishlashi, ularning har biri o'z vazifasini bajaradi. Aynan, shunday mashqlar bilan miyaning ikki yarim sharlarining muvofiqlashtirilgan ishi o'rgatiladi. Bunday mashqlarni tizimli ravishda amalga oshirish miyaning umumiy ishlashi va unumdorligini oshiradi. Neyrogimnastikaning asosiy maqsadi va vazifasi miyaning o‘ng va chap yarim sharlari o‘rtasidagi muvozanatli ta'sirga erishishdir. Maktabgacha ta'limda neyrogimnastika bolaning eslab qolish va nutqini tuzatishda yordam beradi. Neyrogimnastika bilan shug‘ullanishning katta foydasi bu-yangi neyro aloqalarni shakllantirishdir. Ya'ni, aqlli bo‘lish yo‘llaridan biri gimnastika va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishdir.

Neyrogimnastika quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nafas olish mashqlari,
- yarim sharlararo aloqalarni rivojlantirish mashqlari,

• nozik motorikani, xotirani, diqqatni, nutqni rivojlantirish mashqlari,
• tananing umumiy energiya ohangini oshirish va stressni bartaraf etish mashqlari.

Eng mashhur neyrogimnastika kompleksi amerikalik shifokor Pol Dennison tomonidan ishlab chiqilgan. Ilgari u davlat maktablarida aqli zaif deb topilgan bolalar bilan ishlagan. U o'z metodologiyasi bilan deyarli har qanday bolani aqliy-kognitiv jarayonga kiritish mumkinligini isbotladi. Agar siz unga miya yarim sharlarining bir vaqtning o'zida ishlashini o'rnatishga yordam bersangiz. Qoida tariqasida, kattalar uchun mashqlar to'plami qiyinroq.

Dennison tizimi 4 toifaga bo'linadi:



1. Energiya mashqlari. Ushbu guruhning harakatlari ma'lum asabiy jarayonlarni tezlashtirishga qaratilgan. Ular o'z-o'zini tartibga solishni yaxshilash, fikrlashni faollashtirish, ongli o'qish tezligini oshirish va e'tiborni yaxshilash imkonini beradi.

2. Ijobiy munosabatni chuqurlashtirish. Ushbu mashqlar guruhi o'z-o'zini nazorat qilish va asab jarayonlarini barqarorlashtirishga qaratilgan. Xususan, ular stressli vaziyatda xotirjamlikni saqlashga, asabiy taranglikni bartaraf etishga, diqqat va xotirani faollashtirishga yordam beradi.

3. Stretch harakatlari. Ushbu turdagi mashqlar bolani kognitiv faoliyatga tayyorlash uchun javobgardir. Harakatlar sizga uzoq vaqt davomida e'tiborni saqlash, tendonlarni bo'shatish va mushaklardagi kuchlanishdan xalos bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu mashg'ulotlar, ayniqsa, yozish ko'nikmalarini va nozik qo'lda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalidir.

4. Median harakatlar. Bu mashqlar bir vaqtning o'zida qo'llar, oyoqlar, ko'zlar - ya'ni juftlashgan organlar faoliyatiga qaratilgan. Bunday harakatlar tufayli miyaning ikkala yarim sharlari ishi faollashadi. O'rta chiziqdagi harakatlar muvofiqlashtirish, muvozanat, o'qish, yozish va fazoviy ongni yaxshilaydi. Ularning yordami bilan sensorimotor ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalari yaxshilanadi.

"Neyrogimnastika kuniga 1 yoki 2 marta 2-3 daqiqa davomida bajarilishi kerak. 7-10 kundan keyin bolada allaqachon sezilarli ta'sirni his qilinadi. Natijaga erishishda izchillik va muntazamlilik muhim ro‘l o‘ynaydi. Neyrogimnastikaga qancha ko‘p vaqt va kuch sarflasangiz, ushbu mashg‘ulotning samaradorligini his qilish va ko‘rish imkoniyari shumchalik yuqori bo‘ladi"- deya ta'kidlaydi Yuriy Koryukalov reabilitatsisa bo’yicha mutaxasis, neyrofiziolog, biologiya fanlari nomzodi.

Bolalar uchun neyrogimnastika (mashqlar majmuasi bolaning aqliy qobiliyatini hisobga olgan holda tanlanadi) markaziy asab tizimining yuqori sifatli rivojlanishini ta'minlash uchun yaratilgan.

4-5 yoshli bolalar uchun. 4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun eng oddiy neyro-gimnastika yukini ta'minlash kerak.

"Musht, kaft, qovurg'a" mashqi. "Musht, qovurg'a, kaft, " mashqlari xotirani, yirik va mayda motorikasni sinxron ishlashini va diqqatni jamlashni rivojlantirishga qaratilgan.

1. Pedagogning buyrug'iga ko'ra, bola qo'lini mushtga siqadi.

2. Keyin bola kaftini yon tomoniga qo'yadi

3. Shundan so'ng, bola qo'lini aylantiradi va kaftini pastga qaratib qo‘yadi.

Bolalar bu harakatlarni xotiradan bajarishlari mumkin yoki ularni ota-onasidan keyin takrorlashlari mumkin. "Musht, kaft, qovurg'a" mashqlari, agar yuqoridagi harakatlar kuniga 10-15 marta takrorlansa, ijobiy neyrogimnastik ta'sirga erishishga imkon beradi.

"Fil" mashqi. "Fil" mashqi aql uchun mas'ul bo'lgan miya markazlarining sinxron ishlashini, shuningdek, mushak tizimining funktsiyalarini yaxshilash uchun yaratilgan.

Ushbu mashq quyidagi harakatlar algoritmiga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Bola tik turgan holatni egallab oladi.

2. Boshini yon tomonga og‘idirish harakatlari orqali qulog'i bilan o‘ng va chap yelkalariga ketma-ket tekkazadi.

3. Shundan so'ng, bola qo'lning ko'rsatkich barmog'i bilan havoda fil yoki sevimli hayvonni rasmini chizishi kerak.

Ushbu turdagi miya mashg'ulotlari quyidagicha amalga oshiriladi:

Har bir yosh toifasida miya rivojlanishi uchun o'ziga xos tadbirlar mavjud.

Ushbu mashqni bajarayotganda, bola ko'zlari bilan barmoq uchini kuzatishi kerak. Mashqning davomiyligi 1-2 daqiqa har bir qo'l uchun.

5-6 yoshli bolalar uchun

"O'zaro qadamlar" mashqi. "O'zaro qadamlar" mashqini bajarish uchun bola quyidagi harakatlar algoritmiga amal qilishingiz kerak:

1. Bola tik turgan holatni egallab oladi.

2. Bola bir qadam tashlab, o'ng tizzasini yuqoriga ko'taradi, so'ngra bir vaqtning o'zida chap qo'lining kafti bilan tizzasi yuzasiga tekkazadi.

3.Shundan so'ng, chap tizza ko'tariladi va o'ng qo'lning kafti chap tizza yuzasiga tekkazadi.

Ushbu harakatlar 10-15 marta takrorlanadi. Bolaning mashqni to'g'ri bajarishini va harakatlarda chalkashmasligini ta'minlash juda muhimdir.

6-8 yoshli bolalar uchun. 6 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun miya markazlarini o'qitish jarayoni kengaytirilgan mashqlar to'plamidan foydalanishni o'z ichiga oladi.

"Egizak sjakllar" mashqi. "Egziak shakllar" bir vaqtning o'zida miyaning ikkala yarim sharini rivojlantiradigan eng samarali mashqlardan biri hisoblanadi.

Bu mashq quyidagicha bajariladi:

1. Bola tik turgan yoki o'tirgan holatni egallab olish kerak.

2. Bola ikkala qo'liga ham yozuv vositasini oladi,

3. Yozuv taxtasida bir vaqtning o'zida turli xil geometrik shakllarni chizish kerak.

4. Shakllar bir xil ko‘rinishda chizilishni harakat qilish kerak

Ushbu mashqni kuniga 10 marta 5 -7 daqiqa davomiylikda takrorlanishi kerak.

Neyrogimnastikaning miya uchun foydalari:

1. Interhemisferik shovqinlarni rivojlanishi
2. Yarim vosita ko‘nikmalarini shakllantirish.
3. Nozik vosita ko‘nikmalarini shakllantirish.
4. Xotira va e'tiborni rivojlantirish.
5. Nutqni rivojlantirish.
6. Ijodiy fikrni rivojlantirish.
7. Miya yoshligini uzaytirish.
8. Miyada qon aylanishini yaxshilash.
9. Charchoqni kamaytirish.
10. Qo‘llarning faol harakatlanishiga yordam berish.
11. Vaqt va atrofdagi makonni idrok etishda buzilishlar bilan bog‘liq neyrologik kasalliklarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilish.

Har bir inson farzandi ham jismonan ham ma'nan sog‘lom bo‘lishini istaydi. Ko’rib turganingizdek neyrogimnastik mashg’ulotlar nafaqat bolalar balki kattalar uchun ham foydalidir. Xulosa qilib aytganda, neyrogimnastik mashg’ulotlar bilan kelajagidan qayg’uradigan har bir ota-ona o’z farzandini ushbu mashg’ulotlar bilan shug’ullantirishni zarur deb o’ylaymiz. Farzandingiz yoxud o’zingiz ham jismonan ham ma’nan yetuk bo’lishni xoxlasangiz, ilm cho’qqilarini zabt etishni maqsad qilgan bo’lsangiz, bu yo’lda sizga neyrogimnastika hamroh bo’lishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so„zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – V harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-64.
3. Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to„g„risida» 2023 yil 29 iyundagi 267- son qarori.
4. Bobur «Bobur-noma» Baku, 2011. B. 24, 139.
5. A.O. Xudoyqulov. Talabalarda vatanparvarlik tarbiyasi orqali ularda
6. vatanparvarlik tuyg„usini shakillantirish/ Academic Research in Educational Sciences/ISSN: 2181-1385 Volume 5. 2024.
7. Ahmadi Sanaullah. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq milliy an’analaridan foydalanishning nazariy asoslari/“Ilg’or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral.

BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sanginova Gulnoza Baxodirovna
Qo‘qon universiteti “Ta’lim kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning dolzarbligi, uning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish jarayonini chuqur o‘rganish, uning psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda zamonaviy ta'lim tizimida mehnat tarbiyasini takomillashtirishning ilmiy-metodik yo‘llarini belgilab berishdir.

Kalit so‘zlar: mehnat tarbiyasi, STEAM ta’limi, STEAM texnologiyasi, mehnat tarbiyasini shakllantirish, fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika, o‘yin orqali mehnat ko‘nikmasi.

Bolalarda mehnat tarbiyasi – shaxsning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. U bolani mustaqillikka, mas’uliyatga, mehnatga bo‘lgan hurmatga, ijtimoiy hayotga moslashishga o‘rgatadi. Zamonaviy dunyoda bolalarni mehnatga tayyorlashning yangi usullarini yaratish, bu jarayonning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zarur. Ushbu maqolada bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish, ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish maqsad qilingan.

Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari.

Bolalarda mehnat tarbiyasi tushunchasi: Mehnat tarbiyasi bu bolalarda mehnatga bo‘lgan qiziqish, mehnat qilish qobiliyati, mehnatga bo‘lgan mas’uliyatni shakllantirish, mehnat madaniyatini tarbiyalash jarayonidir. Bu jarayon bolani hayotga tayyorlash, ijtimoiy hayotga moslashishga o‘rgatish, uni mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu yoshda bolalar mehnatga bo‘lgan qiziqish, mehnat qilish qobiliyati, mehnatga bo‘lgan hurmatni rivojlantirib, kelajakda mustaqil va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishga tayyorlanadilar.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishning bosqichlari: Bolalarda mehnat tarbiyasi shakllantirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Bola yoshligidan boshlab, u o‘yin faoliyatini bajarish orqali mehnatga tayyorlanadi. Keyinchalik, maktabga tayyorgarlik davrida bolalar o‘yin orqali mehnat ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maktab davrida esa mehnat tarbiyasi tizimli ravishda amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini tanlashga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

Mehnatga bo‘lgan hurmatni tarbiyalash, bolalarni mehnatning ahamiyatiga, mehnat qiluvchilarga bo‘lgan hurmatga o‘rgatish iborat.

Mehnatning ijodiy xarakterini ochib berish, bolalarda mehnatni ijodkorlik jarayoni sifatida tushunishni shakllantiradi. Har bir bolaning imkoniyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda

mehnat tarbiyasini amalga oshirish, bolalarni mehnat qilishga, qo‘llari bilan ishlashga o‘rgatish darkor. Mehnat tarbiyasi jarayonini tizimli ravishda amalga oshirish, har bir bosqichida belgilangan maqsadlarga erishishga undaydi.

Zamonaviy dunyoda bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning yangi yondashuvlarini tahlil qilish.

Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zamonaviy dunyodagi dolzarb muammo hisoblanadi. STEAM ta’limi, *loyihaviy o‘rganish, o‘yinli o‘rganish* kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, mehnat tarbiyasi dasturlarini takomillashtirish, o‘qituvchilarni malaka oshirish va oila hamda jamoatchilik bilan hamkorlik bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

STEAM ta’limi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalarini birlashtiradi va bolalarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash, texnologik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan. STEAM t’limi mehnat tarbiyasini zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi, bolalarni kelajakda talab yuqori bo‘lgan kasblarga tayyorlaydi.

Loyihaviy o‘rganish bolalarni mustaqil ravishda ish olib borishga, g‘oyalarni amalga oshirishga, jamoaviy ishlashga o‘rgatadi. Ular o‘z loyihalari ustida ishlash jarayonida mehnat qilishga, mas’uliyatni his qilishga o‘rganadilar. Loyihaviy o‘rganish bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularni mehnatga jalb qilishga yordam beradi.

O‘yin bolalar uchun tabiiy faoliyatdir. O‘yin orqali bolalar mehnatga bo‘lgan qiziqishni, mehnat ko‘nikmalarini, jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantiradilar. O‘yinli o‘rganish mehnat tarbiyasini qiziqarli va jozibador qilishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

- Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish;
- Mehnat tarbiyasi bo‘yicha dasturlarni takomillashtirish;
- O‘qituvchilarni malakasini oshirish;
- Oila va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish;

STEAM ta’limi – loyihaviy o‘rganish, o‘yinli o‘rganish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy qilishdan iborat.

Bolalarning yosh xususiyatlarini, psixologik va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda mehnat tarbiyasi dasturlarini takomillashtirishni yo‘lga qo‘yish zarur.

O‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish usullariga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Oila va jamoatchilikni mehnat tarbiyasi jarayoniga jalb qilish, ularni bolalarni mehnatga tayyorlashda faol ishtirok etish uchun undashga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin faoliyati asosiy bo‘lib, mehnat faoliyati o‘yin bilan bog’lanib, qiziqarli va jozibador holga keltiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda uy-ro‘zg‘or mehnati (tozalik, tartibga solish, o‘yinchoqlarni tozalash), tabiatda mehnat (gul ekish, daraxtlarga g‘amxo‘rlik qilish), ijodkorlik mehnati (rasm chizish, haykaltaroshlik, qo‘l san’ati) kabi turli mehnat turlari shakllantiriladi.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak:

- bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlarini hisobga olish;
- mehnatni o‘yinlar, topishmoqlar, ertaklar orqali qiziqarli qilib tashkil etish;
- bolalarni mehnat jarayoniga bevosita jalb qilish, ularga o‘z qo‘llari bilan ishlash imkoniyatini berish;
- mehnat faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish, bosqichma-bosqich murakkablashtirish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni mehnatga qiziqtirish va jalb qilish uchun bir necha muhim usullar mavjud:

O‘yinli Mashg‘ulotlar. Mehnat tarbiyasini o‘yinlar orqali amalga oshirishda Tozalik qirolichasi”, “Bog‘bonlar”, “Oshpazlar” kabi rollli o‘yinlarni tashkil etish ancha samara beradi va yana “Bog'bonlar”, “Do‘kon sotuvchilari”, “Shifokorlar” kabi rollarni o‘ynatib, bolalarni mehnatga qiziqtirish mumkin. O‘yin davomida ular o‘z vazifalarini bajarishda mas'uliyatni his qilib, o‘zlarini katta odamlardek his qiladilar. Topishmoqlar va ertaklar: Mehnatga oid topishmoqlarni yechish, mehnatga oid ertaklarni tinglash bolalarni mehnatga qiziqtirishga yordam beradi. “Qiziqarli Mehnat” o‘yinlari: Bolalarga qiziqarli mehnat o‘yinlarini taklif etishda “O‘yinchoqlarni tozalash”, “Gullarni sug‘orish”, “Tozalik qirolichasi” kabi o‘yinlar ularning mehnatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ijodiy yondashuv. Rasm chizish va haykaltaroshlik: Bolalarni mehnatga oid rasmlarni chizishga, haykalchalar yaratishga undash. Masalan, “Bog‘bonlar gul ekmoqda”, “Oshpazlar taom tayyorlamoqda” kabi mavzularda rasmlar chizish. Qo‘l san’ati: Qog‘ozdan, plastilindan, tabiiy materiallardan turli buyumlar yaratish. Masalan, qog‘ozdan qushlar yasash, plastilindan mevalar yasash. Musiqa va qo‘shiqlar: Mehnatga oid musiqa va qo‘shiqlarni tinglash, ularni qo‘shiq aytishga undash.

Amaliy yondashuv. Bolalarni kundalik mehnat ishlariga jalb qilish uchun guruh xonasini tozalash, o‘yinchoqlarni tartibga solish, gullarga g‘amxo‘rlik qilish, stolni tozalash, o‘z kiyimlarini kiyish va yechish kabi vazifalarni topshirish kerak. Loyihaviy Ish: Bolalarni birgalikda loyiha ustida ishlashga jalb qilish, ularga loyiha bosqichlarida faol qatnashish imkoniyatini berishda “Bizning bog‘imiz”, “O‘yinchoqlar do‘koni”, “Yangi yil bayrami” kabi loyihalarni amalga oshirish mumkin. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mehnatga qiziquvchan bolalar uchun “Kichik o‘quvchilar mehnat to‘garagi”ni tashkil etishda bolalar turli xil mehnat turlari bilan tanishadilar, ularning mehnat ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bolalar bog‘chasida mehnat burchagi: Mehnatga oid buyumlar, vositalar bilan jihozlangan burchak tashkil qilish. Bu burchakda bolalar o‘zlariga qiziqarli mehnat bilan shu‘ullanishlari mumkin.

Rag‘batlantirish va mukofotlash. Maqtov va minnatdorchilik: Bolalarni mehnati uchun maqtab, minnatdorchilik bildirish. Kichik sovg‘alar: Mehnat qilgan bolalarga kichik sovg‘alar berish. Guruh oldida maqtov: Bolaning mehnati uchun guruh oldida maqtov.

Oila bilan hamkorlik. Ota-onalar bilan suhbatlar: Mehnat tarbiyasi haqida ota-onalar bilan suhbatlar o‘tkazish. Uyda mehnatga oid vazifalar: Ota-onalardan bolalarga uyda mehnatga oid vazifalar berishni so‘rash. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, bu jarayonni zamonaviy talablarga moslashtirish va bolalarni kelajakda mustaqil va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishga

tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan amaliy tavsiyalar o‘qituvchilarga bolalarda mehnat tarbiyasini samarali amalga oshirishda yordam beradi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiyalar. 2009. – B. 17.
2. А.Холиқов, Педагогик маҳорат. –Тошкент «IQTISOD-MOLIYA» 2010. 311 б.
3. Axmedova M.T, Xodjayev B.X., Umumiy pedagogika (3-qism «Pedagogik mahorat»). – Buxoro-2017.
4. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent – 2020
5. Sanginova, G.B. (2024). Improving organization in the first environmental education of preschool children. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 440-447.
6. Sanginova Gulnoza Baxodirovna (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar har tomonlama rivojlanishida mehnat tarbiyasining tutgan o’rni. Science and innovation, 3 (Special Issue 31), 561-564.
7. Sanginova Gulnoza Baxodirovna. (2023). Erta bolalik ta’limini qo‘llab-quvvatlashda oilalarning roli. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 9(9), 166–169.
8. Kalendarova Z.K. Didaktik o‘yinlar yordamida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish// Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar: Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2018. 27-aprel. – B. 553-555.
9. Kalendarova Z.K. Metodi i metodicheskiye priyemi obucheniya detey doshkolnogo vozrasta matematike// Moskovskoy oblasti “Gosudarstvenniy gumanitarno-texnologicheskiy universitet”: “Studencheskaya nauka podmoskovyu” materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferensii molodых uchenых. – Orexovo-Zuyevo: Redaksionno-izdatelskiy otdel GGTU, 2018. – S. 221-224.

SHAXS SHAKLLANISHIDA TA’SIR ETUVCHI ICHKI-TASHQI OMILLAR VA FANLAR INTEGRATSIYASI

Ashurova Gulru Oxunovna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Muxtorov Alijon Xoliq o‘g’li
Qo‘qon univeristeti Psixologiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda hozirgi kunda dolzarb bo’lgan shaxsga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar haqida ma’lumotlar berildi. Shaxsni rivojlanishida komilikka erishishida unga ta’sir etuvchi onkologik va klinik ta’sir haqida ilmiy ma’lumotlar berildi, hamda shaxs muammolari haqida o’rganildi.

Kalit so’zlar: Sotsiologik, klinik ta’sir, ankologiya, gipofiz, demokratik munosabat, miya hududlari, neyrobiologiya.

Hozirgi kunda shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar soni ko’p ayni kunda eng dolzarb ta’sir etayotgan tashqi omillar sababli insonlar rivojlanishida jamiyatda tutgan o’rni va mavqeida turli pog’onalarni egallamoqda va hozirgi kunda tashqi ta’sirlar masalan sotsiologik, tashqi biologik, atrof-muhit ta’sirlari insonlarni aqlan va jismonan rivojlanishiga yuqori ta’sir ko’rsatibgina qolmay, insonlarni ijtimoiy ro’llarini ham barqarorligini buzmoqda. Ya’ni bir inson o’z ish faoliyatida uzoq muddat ishlashda unda asab tizimi va jismonan holati bardoshi va toqati kamayishi unda garmonal holatni turg’unligini kamayishiga olib keladi.

Shaxsning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

Shaxs - bu shaxsni boshqalardan ajratib turadigan tug'ma biologik xususiyatlar va atrof-muhitdan olingan ijtimoiy omillarning kombinatsiyasi natijasida shakllanadigan jismoniy, aqliy va ma'naviy xususiyatlar yig'indisidir. Shaxsning vaqt va vaziyatdan qat'i nazar, izchil bo'lishi, odamlarda oldindan aytib bo'ladigan yoki nisbatan doimiy deb hisoblanishi shaxsning doimiy va o'zgarmasligini anglatmaydi. Shaxsning o'zgarmas tomoni temperamentdan, moslashuvchan tomoni esa xarakterdan kelib chiqadi. Inson shaxsiyati bio-psixo-ijtimoiy jihatdan tekshiriladi.

1-rasm. Shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar



Atrof-muhitga ta'sir sifatida ularni turli guruhlarda tekshirish mumkin.

Biologik omillar - **irsiyat**ning shaxs rivojlanishiga ta'siri.

Irsiyat - bu shaxslarning xromosomalar orqali ota-onasining ma'lum shaxsiy xususiyatlarini o'tkazish usuli. Nafaqat jismoniy xususiyatlar, balki xatti-harakatlar va odatlar bilan bog'liq odatlar ham irsiyat orqali bolaga o'tishini aniqlash uchun tadqiqotlar o'tkazildi. Biologik omillarning shaxsiyat rivojlanishiga ta'sirini tushunish uchun olib borilgan eng asosiy tadqiqotlar har doim egizaklar bo'lgan. Alohida joylarda o'sayotgan egizaklarning xatti-harakatlaridagi haddan tashqari o'xshashlik biologik omillarning ahamiyatini ochib beradi. Temperamentda irsiyatdan tashqari, asab tizimi va ichki sekretsiya bezlarining faoliyati ham muhim rol o'ynaydi. Gipofiz, qalqonsimon bez, buyrak usti va jinsiy bezlar kabi kanalsiz bezlar tomonidan chiqariladigan garmonlar insonning hissiy sezgirligiga ta'sir qilishi va ruhiy tushkunlik, kayfiyat, hissiy iztirob va bezovtalik kabi hissiy holatlarga olib kelishi tushunilgan. Vegetativ nerv tizimining qo'zg'atuvchilarga yuqori sezuvchanligi va nevrotik tendensiyalar kabi ba'zi ruhiy kasalliklar o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Shu nuqtada, kelajakdagi onalarning tug'ilishidan oldin bolaning fiziologik rivojlanishi uchun ularning jismoniy va psixologik farovonligiga e'tibor berish juda muhimdir.

Yana bir biologik omil - **bu jins.** Bolaning jinsi uning biologik xususiyatlari tufayli shaxsiyat rivojlanishiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir. Chaqaloq jinsining biologik jihatlari bilan bir qatorda, jins tushunchasidan kelib chiqadigan shaxsga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar ham mavjud.

Oila ta'siri va atrof-muhit ta'siri

Inson yashaydigan birinchi muhit bu **oila**dir. Binobarin, shaxs shakllanishidagi eng muhim ekologik omil bu oiladir.

1. Oilaning farzand tarbiyalash usullari.
2. Ota-onalarning yo'qligi.
3. Bolalarning tug'ilish tartibi.
4. Bolaga beriladigan ovqatlanish va o'rganish tajribalari.
5. Oilaning kattaligi.
6. Oila ichidagi turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar.
7. Oilaning ijtimoiy toifasi kabi ta'sirlar shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi eng asosiy ekologik ta'sirlardir.

Masalan, avtoritar, haddan tashqari himoya va o'ta erkin bola tarbiyasi shaxsiyatning mustaqil rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, tajovuzkor xatti-harakatlarni kuchaytiradi va o'zini o'zi qadrlash darajasini pasaytiradi. Ota-onaning demokratik munosabati shaxsning rivojlanishi uchun eng mos oila muhitidir, chunki bu oila muhiti bolaning mustaqil shaxs sifatida shakllanishida o'zining bag'rikeng, izchil, qat'iyatli, qo'llab-quvvatlovchi va ishontiruvchi xususiyatlari bilan yordam beradi. Ota-ona sifatida bolaning shaxsiyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni eng ijobiy tomonda ushlab turish va turmush o'rtoqlar o'rtasidagi farovonlikni saqlash uchun bola tug'ilishidan oldin va keyin psixolog yordamini olish juda muhimdir. Tug'ilgandan keyin shaxsning muhiti avvalo oila, keyin esa jamiyatdir. Jamiyatdan tashqari, jismoniy muhit ham muhimdir. **Jismoniy muhit:** uni geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, yer osti

va yer usti boyliklari, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Bularning barchasi shaxsning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Har bir jamiyatning o'ziga xos qadriyatlari, e'tiqodlari, urf-odatlari va axloqiy tushunchalari mavjud. Bular kishilarning turmush tarzi, oilasi va atrof-muhit bilan ijtimoiy munosabatlari, bolalikdan to voyaga yetgunga qadar odatlarining o‘zgarishi va rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

● Oila, jamiyat va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar ta'sirida rivojlanishda davom etadigan shaxs jihatlari xarakterni tashkil qilib boradi. **Belgi:** U shaxsning halol, mehnatsevar, fidoyi, yoki aksincha shuhratparast, xushomadgo‘y, yolg‘onchi, firibgar kabi axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ifodalaydi.

Biz jamiyatda bor ekanmiz, bir-birimizga ta'sir o'tkazamiz. Har bir shaxs jamiyatga ta'sir qilganidek, jamiyat ham ularga ta'sir qiladi. Maxsus vaziyatlar, biz individual ravishda boshdan kechirgan travmalar yoki ijtimoiy jihatdan boshdan kechiradigan umumiy his-tuyg'ular bizning ham, farzandlarimizning ham shaxsiyatini o'zgartiradigan omillardir. O'z hikoyalarimizni aytib berish va mutaxassislar ko'magida erkin bo'lish shaxsiyatimizni ijobiy rivojlantiradi va tajribalarning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqroq ko'rishga yordam beradi va shaxsiyat rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Kognitiv effektlar . Shaxsni shakllantirishda psixik funktsiyalarning ta'sirini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlik davrida shaxsning rivojlanishi va sog'lom munosabatlarning o'rnatilishi va saqlanib qolishi shaxsning kognitiv sharoitlarining ijobiy rivojlanishi bilan mumkin. Ruhiy funktsiyalarda; idrok etish, o'rganish, yangi vaziyatlarga moslashish, tushunish va hodisalarni bog'lash qobiliyatlari shaxslarda turli darajalarda bo'ladi.

● Shuning uchun, bir xil aql darajasiga ega bo'lgan odamlar bo'lsa ham, bu funktsiyalarning turli xil malaka darajalari natijasida turli xil shaxsiy tuzilmalar, xatti-harakatlar modellari, moslashuvlar va yechimlar paydo bo'lishi mumkin. Eng oddiy misol sifatida: ba'zi odamlar har bir vazifani batafsil tahlil qilib, nima qilish kerakligini va qanday tartibda aniqlashga harakat qilsalar, boshqalari bunday vazifalarga impulsiv javob berishadi.

● Boshqa misolda: bir muncha vaqt o'tgach, otasi tomonidan noto'g'ri xatti-harakatlari uchun tez-tez tanbeh bo'ladigan bolaga bu tanbehlar hech qanday ta'sir qilmaydi. Bola fikrlash jarayonida to'g'ri harakat qila olmagani va sog'lom xulosalar chiqara olmagani uchun, u buni otasining qiziqishi deb talqin qilishi mumkin, chunki u kognitiv ravishda vaziyatlar o'rtasida noto'g'ri atribut modellarini yaratishi va boshqa paytlarda tanbeh topishi mumkin.

Bundan tashqari yuqoridagi fikrlarni neyrobiologiya yo’nalishi nuqtai-nazaridan qarab, psixologiya ilmiga bog’laydigan bo’lsak, hamda inson miyasidagi 6 ta hududni integratsiya qilish birmuncha yangi bilimlarni hosil qiladi va ayrim noxushliklarni oldini oladi. Masalan miyamiz 3 ta katta qismga va 6ta katta hududlarga bo’linadi va har birining o’zining vazifasi, xulq-atvorimizga ta’siri ko’zga tashlanadi.

Miyamizning hududlarini tanish, ularning funksiyalarini o’rganish, hayotimizdagi ko’p yaxshiliklarga sabab bo’ladi.

1. **frontal lob korteksi**, oldi peshona qismimiz. Bu qism xatolardan saboq ilshga, ishlarni rejalashtirishga, oldimizga qo’ygan maqsadlarga yetish uchun o’zimizni munosib tutishimizga, hissiyotlarimizni to’g’ri boshqarishimizga yordam beradigan qismdir. Olimlar buni miyadagi

podshoh deb atashadi.Agar insonda bu hudud normada ishlasa, inson rahmdil inson bo’ladi. Insonlarni tushuna oladi, fikrlarini to’g’ri ifodalab bera oladi. Bu qismning xulq-atvorga ijobiy ta’sirlaridan eng muhimi inson xató qilsa, darhol uzr so’raydi. Aksincha, bu qism yaxshi ishlmasa, ushbu holatlarning teskarisi bo’ladi. Agar bu qism sustlashsa, dangasa bo’lib qolamiz. Injiq, tanqidchi bo’lib, hamma narsani yomon tarafini ko’radigan bo’lib, jamiyatda insonlararo munisabatlarda nizolarga sabab bo’ladi. Yana bir salbiy tarafi, insonda lobkorteks sustlashadigan bo’lsa, maqsad qo’ya olmaydigan bo’lib qoladi, fikrlarini og’zaki nutqda yaxshi ifodalay olmaydi. Miya zavqlansa, dofamin ishlab chiqaradi, bu miyaning peshona qismi yaxshi ishlashiga olib keladi.

2. **Miyaning belbog’ tizimi**, miyaning qo’l tormozi ham deyiladi. Bu qism miyamizni yani ongimizni bir narsadan boshqa narsaga qaratishimizga, bir fikrdan ikkinchi fikrga o’tishimizga, muammoni har xil variantlarini ko’rib chiqib, muvaffaqiyatli hal etishimizga, jamiyatga moslashuvchanlikni ta’minlashga yordam beradi. Miyaning belbog’ tizimi Yaratgan bizga ato qilgan ne’matlarning eng kattasi hisoblanadi. Agar bu soha buzilsa, inson har narsaga xavfsiraydigan, o’zini qadrsizlanayotgandek sezadigan, o’tmishdagi noxushliklarni ko’p eslaydigan, negative fikrlovchi, yo’q joydan muammo chiqarib bahslashadigan bo’lib qoladi.Yana bir psixosomatik tarafi inson hayotidagi kichik o’zgarishlarga ham moslasha olmay, tanasida sababsiz og’riqlar paydo bo’la boshlaydi va yomon odatlardan qaytishi qiyin bo’ladi. Mashina minadigan bo’lsa juda agressiv boshqaradi. Miyada serotonin yetishmaganda bu qism giperaktiv bo’lib ketadi. Serotonin yaxshi kayfiyat garmoni hisoblanadi. Serotonin oshayotganini kayfiyatingiz yaxshilanayotganidan bilsak bo’ladi.

3. **Chuqur limbik tizim**-his-tuyg’ularimiz yashaydigan miyamiz, yani ikkinchi qavatdagi miyamiz-chuqur limbik tizim. Buni ichida gipokampus va amigdala degan qismlar bor. Gipokampus xotiralarnimiz yashaydigan joy.

Bu miyamizdagi katta kutubxona. Limbik tizim bizni kayfiyatimizni belgilaydi.Energiya darajasini tartibga solidi, hidlarga javob beradi, faollik, dangasalikka javob beradi. Bu tizim o’ta faollashib ketsa, miyasini tutun qoplaganday bo’ladi, yig’loqi, jahldor, odamovi bo’lib qoladi, salbiy narsalarga e’tibor beradigan, motivatsiyasi tushib ketadigan, stressga chidamliligi kamayib, munosabatlarni noto’g’ri qabul qila boshlaydi. Chuqur likbik tizimida muammosi borlarga shakar jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

4. **Bazal gangliolar**- bular limbik tizimni o’rab turgan yadro tuzilmalar guruhi deyiladi. Bular hissiyotlarimizni, fikrlarimizni, tana harakatlarimizni bir-biriga muvofiqlashtirishga yordqam beradi. Agar bu tizim yaxshi ishlasa bizning harakatlarimiz his-tuyg’ularimizga mos bo’ladi. Aksincha, bu tizim sust ishlasa, harakatlarimizda buzilish, titroq kuzatiladi. Arzimagan asabiylikdan yoki quvonchdan oyoq-qo’lingiz titrashni boshlaydi. Ishchanlik pasayadi, fikrlar tarqoq bo’ladi, odamning oyog’i og’irlashib sudralib qoladi. Bu hududning faollgi qachonki biz tortishishdan chekinganimizda ro’y beradi. Lekin afsuslar bo’lsinki, tortishish ko’pchiligimizda odatimizga aylanib ketyapti. Muammolarni ichga yutish, yoki qochishga uringanimizda bazal gangliolarda giperaktivlik yuzaga keladi. Bunda inson dam ololmaydi, haddan tashqari ko’p ishlashga o’tadi, serhadik, jonsarak bo’lib qoladi, bosh va qorinda sababsiz og’riqlar, sanchiqlar paydo bo’ladi.Buni oshib ketishi miyada GABA(bu modda markaziy asab tizimida tormozlovchi

vazifani bajaradi) mediatorni yemirib yuboradi. Boshqalar bu insonni doim muhokama qilayotgandek tuyuladi. Agarda bazalgangliolar faollashib ketadigan bo’lsa, odam sertashvish, serxavotir bo’lib qoladi, ovqat hazmi buziladi, mushaklarda tortishish, sababsiz bosh og’riqlar haddan ortiq uyatrchanlik, tirnoqlarni, lablarni tishlash holatlari kuchayadi.

5. **Temperal loblar-** miyaning bu hududi asosan nutq uchun, tinlash uchun, o’qish jarayonlari uchun javobgardir. Bular miyaning qisqa muddatli xotirani uzoq muddarga olib o’tish ishida qatnashadi.Agar mana shu temperalloblarda buzilishlar yuz beradigan bo’lsa, 1-o’rinda odamda xotira bilan bog’liq muammolar yuz beradi, o’qigan narsalarini aytib berolmaydi, kayfiyati o’zgaruvchan bo’lib qoladi, odamlarni yuzidan tanib olishga qiynaladi yoki miyasiga qo’rqinchli fikrlar o’rnashib qoladi, ko’ziga har xil sharpalar ko’rinib, o’ziga va boshqalarga nisbatan tajovuzkor, janjalkash bo’lib qoladi. Bu buzilishlarni ko’pincha odamni ichiga jin kirishi bilan adashtirishadi. Temperalloblar miyaning ikki tarafida joylashgan bo’ladi. O’ng tarafdagisida ahloqiy, ma’rifiy, diniy tushunchalar shakllanadi. Agar bu qism yaxshi ishlamasa, odam hammaga ko’r-ko’rona ergashib ketadigan yoki diniy fanatga aylanib qoladi.Kimda shunaqa muammo kuzatilsa, eng avvalo miyasida GABA mediatorini me’yoriga solish kerak bo’ladi.

6. **Gipokampus-**temperalloblar ostida joylashgan.U olingan yangi ma’lumotlarni kodlab, shifrlab bir necha hafta davomida o’zida saqlab turadi. Gipokampus zararlangudek bo’lsa, odam yangi ma’lumotlarni qabul qilish qobiliyatini yo’qotadi va oxirgi kunlardagi, haftadagi voqealarni eslolmaydi. Alstgeymer kasalligida birinchilardan bo’lib, mana shu muhim hudud zarar ko’radi.Gipokampusni oldida amigdala bor. Bu qism asosan insonning his-tuyg’ularini tartibga solidi. Psixopatlarning amigdalasi ishlamaydi, shuning uchun ham ular hech narsadan qo’rqmaydilar, komikadzelarni miyasining ushbu qismini ishdan chiqarib o’zini va yurtlarni portlatishga tayyorlashadi. Amigdala sust ishlasa, vaziyatlarni to’g’ri talqin qilolmay qolamiz.

7. **Miyacha**- miyning orqa qismida joylashgan. Miyaning atigi 9%ini tashkil etadi, asosiy vazifasi tana muvozanatini boshqarishdan iborat. Miyacha zararlanganda falajlik kuzatilmasa ham, odamni harakat faoliyati izdan chiqadi.Yozishdan tortib, samolyot boshqarishgacha bo’lgan ishlar miyacha ishtirokisiz amalga oshmaydi. Mushaklar orqali bajarilgan barcha harakatda miyachaning ishtiroki bo’ladi. Miyacha zararlansa, odam xuddi mast odam kabi gandiraklab yuradigan bo’lib qoladi, yozolmay qoladi, qo’lidan narsalar tushib ketaveradi, hatto tugmasini qadolmay, o’y-fikrlarini jamlolmay, yozuvlari xunuklashib qoladi.Uyida, atrofida tartibsizlik bo’lsa g’ashi kelmaydi, yorug’likka, shovqinga, jamoat joylaridagi teginishlarga o’ta sezuvchan bo’lib qoladi.Fikrlashi sekin, tez gapirolmaydi, odamlar bilan kirishib ketolmaydi, hozirgi kunda buni da’volash uchun kislorod terapiyasini o’tkazishadi.

Xulosa. Shaxs jamiyatda o’z o’rnini topib komil inson bo’lib yetishishida asosiy ro’lni o’ynovchi omillar, bosh miya, uning imkoniyatlari haqida fikr berildi.Yoritilgan masalalarga har bir shaxs insonlar orasida jamiyatda yashar ekan duch keladi va bu yerda shaxs muammolari bilan doimo kurash olib boradi. Qay bir shaxs ushbu kurashda tajribalar to’playdi va u jamiyatda o’z o’rnini egallab boshqalar uchun ham ahamiyatli insonga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, insonning nerv-fiziologik tuzilishidagi buzilishlar xulq-atvoridagi o’zgarishlarga, stressga chidamsizlikka, depressiyaga, oilaviy nizolar kuchayishiga, jamiyatda kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

Bu kabi ma’lumotlarni ya’ni neyrobiologiya va psixologiya fanlarini integratsiya qilish uchun psixologiya fanidan to’garaklar, seminar hamda amaliy mashg’ulotlar orqali bilimlar berib borish, hamda hozirgi globallashuv-axborot asrida oliy ta’lim psixolog ustozlari bilan ijtimoiy tarmoq blogini yuritishi ushbu yo’nalish talabalari uchun foydadan holi bo’lmaydi. Chunki hozirgi kunda aksariyat insonlar amaliy psixologga murojaat qilishadi,yoki kurslarda o’qigan psevdopsixologlarga murojaat qilib hayotini izdan chiqaradi, yoki yolg’izlikka berilib, arzimagan tushkunlikdan chiqish yo’llarini topa olmay qiynaladi. Mana shu kabi muammolarni oldini olish uchun ham hozirgi innovatsiyalar davrida fanlar integratsiyasini taklif etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya”
2. M.Dumarov “Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi”
3. R.Melibayeva “Umumiy psixologiya”.T.-2023.
4. G.Ashurova “Miya psixologiyasi” o’quv kursi ma’ruza matnlari

O‘SMIRLIK DAVRIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Toshtemirova Nigora Ibrohimovna
Kokand universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va filologiya kafedrasi o’qituvchisi, Andijon davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. maqolada o‘smirlik davrining psixologik hususiyatlari, o‘smirlarning ota-ona bilan munosabatlari, ota-onalar tarbiya uslubining, oiladagi munosabatlarning o‘smir shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida roli tahlil qilingan .

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, identifikatsiya va avtonomiya, ijtimoiy o‘zaro ta‘sir, emotsional qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv va qadriyatlar , avtoritativ tarbiya uslubi.

Annotation: the article analyzes the psychological peculiarities of adolescence, the role of adolescents in relationships with parents , the style of parenting , family relationships in the personal and social development of a teenager .

Keywords: adolescence, psychological characteristics of adolescence, identification and autonomy, social interaction, emotional support, social adaptation and values , authoritarian upbringing style.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda yoshlar jismoniy, emotsional va psixologik jihatdan sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. O‘smirlik davri insonning shaxsiy identifikatsiyasini shakllantirish, ijtimoiy ro‘l va munosabatlar tizimida o‘z o'rnini topish jarayoni bilan bog‘liq. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat jismoniy rivojlanish, balki hissiy barqarorlik va aqliy qobiliyatlarning kengayishi bilan ham kechadi. O‘smirlar bu bosqichda o‘z mustaqilliklarini kuchaytirish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va jamiyatda o‘z o'rnini belgilashga harakat qiladilar. Shu sababli, o‘smirlik davri nafaqat shaxsiy rivojlanishning, balki ijtimoiy munosabatlar va mas'uliyatni o‘rganishning ham muhim davri hisoblanadi. Ushbu davrda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o‘zgarishlar kechadi, shuningdek, shaxsning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi uchun poydevor qo‘yiladi. Oilaviy munosabatlar esa o‘smirning rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning sifatiga qarab, o‘smirning shaxsiy rivojlanishi, o‘zini anglash jarayoni va jamiyatdagi o‘rni shakllanadi.

O‘smirlik davri jismoniy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, kuchli emotsional va ruhiy o‘zgarishlar bilan kechadi. Bu davrda yoshlar o‘zlarini qidirish, kimligini anglash va mustaqil qaror qabul qilishga intilishadi. Shu bilan birga, ular ko‘pincha o‘z oilasi bilan bo‘lgan munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ota-onalar ularni hali ham bola sifatida ko‘rishlari, o‘smirlar esa mustaqillikka intilishlari mumkin.

O‘smirlik davrida identifikatsiya va anatomiya o‘smirlik yillarida kimlik shakllanishi hamda tana o‘zgarishlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu davrda yoshlar o‘z shaxsini aniqlash jarayonidan o‘tadi va bu jarayon jamiyatdagi rol, qadriyatlar, hissiyotlar hamda jamiyatga moslashish bilan bog‘liq. Erik Eriksonning rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlikda asosiy

psixologik vazifa “identifikatsiya”ni shakllantirish, ya‘ni “Men kimman?” degan savolga javob topishdir.

Kimlik inqirozi: O‘smirlar bu bosqichda o‘zlarini kashf qilish bilan bog‘liq inqirozlarni boshdan kechiradilar. Ular kim ekanliklarini, qanday hayot yo‘lini tanlashlarini va qaysi qadriyatlarga sodiq qolishlarini aniqlashga harakat qiladilar. Rol sinovlari: O‘smirlar turli ijtimoiy rollarni sinab ko'rishadi. Ular do‘stlar, oila va jamiyat orasida o‘z o'rnini topishga intilishadi.

Kimlikning shakllanishi: Ushbu jarayon o‘smirlarning hayotiy qarashlari va o‘z shaxsiy ”men”larini aniqlash bilan yakunlanadi.

Anatomiya o‘zgarishlari:

- Gormonal o‘zgarishlar: O‘smirlik davrida jinsiy gormonlar (estrogen va testosteron) faollashadi, bu esa jinsiy rivojlanishga olib keladi.

- Jinsiy yetilish: Yoshlarning jinsiy a‘zolari rivojlanadi, tana shakllari o‘zgaradi (masalan, qizlarda ko‘krakning kattalashishi, yigitlarda esa ovozning qalinlashishi).

- Boshqa tana o‘zgarishlari: Bo‘y o‘sishi, mushaklar rivojlanishi va teri o‘zgarishlari (masalan, akne paydo bo‘lishi) kuzatiladi.

O‘smirlikda identifikatsiya va tana o‘zgarishlari ko‘p ijtimoiy va psixologik bosimlar bilan hamrohlik qilishi mumkin. Bu davrda oila va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Identifikatsiya va avtonomiya: O‘smirlar o‘zlarining kimligini aniqlashga intilishadi. Bu jarayon identifikatsiya deb ataladi va u oilaviy munosabatlarda ko‘p ijtimoiy va hissiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘smir avtonomiya uchun intiladi, ya‘ni o‘zining mustaqilligini tasdiqlashni xohlaydi, lekin bu ko‘pincha ota-ona bilan kelishmovchiliklarga olib keladi.

5. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2019. 6-10-betlar.
6. Andrés Christiansen, Rianne Janssen, Educational Assessment, Evaluation and Accountability. Volume 36, Issue 3, Pages 337 – 363 August 2024.
7. PIRLS 2016 International Database, https://www.iea.nl/data-tools/repository/pirls, (assessed on January 21st, 2022).

PEDAGOGIK MAHORAT – O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHIDA MUHIM OMIL SIFATIDA

Otamirzayeva.K.I.,
Doktorant, NamDU.

Annotatsiya: Mazku maqolada pedagogik mahorat – o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim omil sifati ekanligi ta’kidlanadi. Chunki, pedagogik mahorat va uning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni kundan-kunga oshib bormoqda. Chunki kuchli va mahoratli o’qituvchigina bolaga nimani o’rgatishni va qanday o’rgatishni anglay oladi. Bolani har tamonlama rivojlantiradi, psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars mashg’ulotlarini tashkil etadi.Chunki, o‘qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas’uliyati yuklanadi. Muallim o‘quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatini payqab, individual munosabatda bo‘lishi, unda mavjud bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o‘stirishi darkor.

Kalit so’zlar: pedagogik mahorat, shaxsiy - kasbiy sifatlar, qobiliyat, dialektik fikrlash, kasbiy bilim, komunikativlik, shaxsiy muvozanat, hissiy muvozanat, pertseptiv qobiliyatlar.

Абстрактный: В данной статье подчеркивается, что педагогическое мастерство является важным фактором профессионального развития учителя. Потому что педагогическое мастерство и его роль в работе учителя растут с каждым днем. Потому что только сильный и опытный учитель может понять, чему и как учить ребенка. Он всесторонне развивает ребенка, организует занятия с учетом его психологических возможностей. Потому что педагог несет ответственность за развитие личности ребенка во всех аспектах. Учитель должен дать ученику глубокие теоретические знания, подготовить его к жизни и работе. В то же время он должен замечать имеющиеся у ребенка способности и способности, относиться к нему индивидуально, тщательно воспитывать имеющиеся в нем положительные нравственные качества.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, личностно-профессиональные качества, способности, диалектическое мышление, профессиональные знания, коммуникабельность, личностная уравновешенность, эмоциональная уравновешенность, познавательные способности.

Abstract: In this article, it is emphasized that pedagogical skill is an important factor in the professional development of a teacher. Because pedagogic skill and its role in teacher's work are increasing day by day. Because only a strong and skilled teacher can understand what to teach a child and how to teach it. He develops the child in every way, organizes classes taking into account his psychological capabilities. Because the teacher is responsible for the development of the child's personality in all aspects. The teacher should give the student deep theoretical knowledge, prepare him for life and work. At the same time, he should notice the child's existing abilities and abilities, treat him individually, and carefully cultivate the positive moral qualities that exist in him.

Key words: pedagogical skill, personal - professional qualities, ability, dialectical thinking, professional knowledge, communicativeness, personal balance, emotional balance, perceptive abilities

KIRISH

Respublikamiz hukumati xalq ta‘limi sohasida o’rtaga qo’yayotgan vazifalarni bajarish ko’p jihatdan o’qituvchiga bog’liq. Hozirgi sharoitda ta‘lim tarbiyadan ko’zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o’quvchilarning xilma - xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e‘tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o’stirish o’quvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O’zbekistonning istiqloli ko’p jihatdan o’qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liq.

Shu munosabat bilan o’qituvchilar malakasini oshirish va o’zini doimiy rivojlantirib borishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo‘yildi. Bunday mas’uliyatli vazifani faqatgina dialektik fikrlash qobiliyatiga, yorqin shaxsiy sifatlarga ega bo’lgan, o’z-o’zini uzluksiz rivojlantirish va tarbiyalashga tayyor bo’lgan o’qituvchi bajara oladi. Zero, o’qituvchi shaxsi pedagogik jarayon muvaffaqiyatining asosiy sharti va vositasidir. O’qituvchining shaxsiy sifatlari doim tayyor qilib qo’yilgan axborotlardan iborat emas, balki u jonli mushohada yurita olish, doimiy o’z–o’zini rivojlantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Olov olov bilan yoqiladi, shaxs shaxs orqali shakllantiriladi. O’zida bo’lmagan narsani birovga berib bo’lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shu o‘rinda e'tirof etib o‘tish joizki, pedagogik mahorat o‘qituvchi - tarbiyachi kasbiy va shaxsiy fazilati to‘g'risidagi fan sifatida ma’lum metodologik asosga ega. Darhaqiqat, O‘qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy - nazariy, metodologik va amaliy yo‘nalishlari Yu.P. Azarov, T.I. Gonobolin, A.K. Kuzmina, O.A. Abdulina, A.V. Mudrik, N.V. Kuxarev, V.A. Selastyonin, V.A. Kan - Kalik, N.D. Nikandrov, A.V. Petrovskiy, Umar az Zamaxshariy, Burxoniddin Zamudjiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, M.Ochilov, K.Zaripov, V.A. Krutetskiy, J.G. Yo‘ldoshev, E. G'oziev, U. Mahkamov, B. Xo‘jaev, A. Xoliqov va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Ulaming ta’kidlashlaricha, o‘qituvchi o‘z fanining bilimdoni bo‘lishi bilan birga, insonparvar, adolatli bo‘lishi, milliy tarbiya targ'ibotchisi hamda komil inson sifatida o‘zida shaxsiy - kasbiy sifatlarni tarkib toptirgan kasb egasi bo‘lishi lozim.

Har qanday o’qituvchi ham mahoratli o’qituvchi bo’la oladimi, degan savolga tajribali pedagoglarimiz shunday javob beradilar: “Ha! Lekin faqat o’z ustida tinimsiz ish olib borish sharti bilan”. Masalan, taniqli rus pedagogi A.S.Makarenkoning shaxsi o’z ustida ishlab, pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirishning yorqin namunasi bo’la oladi. U juda ko’p o’qigan, o’z mahoratini uzluksiz oshirib borgan, o’z harakteri ustida ishlagan. U o’z tajribasi va hamkasblari tajribasidan o’rganib, muhim hulosalar chiqara oldi, aktyorlardan dars oldi, o’z pedagogik texnikalarini rivojlantiridi. Mahorat faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi. Pedagogikada mahoratni aynan shunday tushunish qabul qilingan. U o’qituvchi belgilangan vaqt ichida erishishi mumkin bo’lgan optimal natijaga olib keladigan pedagogik faoliyatning oliy darajasi sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pedagogik mahoratning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni va ahamiyati, o‘qituvchining kasbiy bilimi, qobilyatlari, uning manfaatlari, qadriyatlari, ideallari, muhokama qilinadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mahorat – biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at. Usta-mahoratli o’qituvchi kasbiy yo’nalganligining asosida ikki narsa yotadi – o’zi dars beradigan predmeti bilan mashg’ulligi va bolalar bilan muloqot qilishga ehtiyoji. Pedagogik mahoratning fundamental asosi – bu kasbiy bilimdir. O’qituvchining bilimi bir tomondan fanga, ikkinchi tomondan uni o’zlashtiradigan o’quvchilarga qaratiladi. Kasbiy bilim mazmuni esa o’z predmeti nazariyasi va metodikasini pedagogika va psixologiyani yahshi bilish bilan belgilanadi.

Kasbiy pedagogik bilimning o’ziga hosligi uning kompleksligidir. U o’qituvchida o’rganilayotgan fanlarni sintez qila olish qobiliyatini talab etadi. Sintezning asosini esa pedagogik topshiriqlarni yechish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish, o’zaro hamkorlik vositalarini tanlash tashkil etadi. Har bir alohida pedagogik topshiriqni hal etish jarayonida o’qituvchining pedagogik kasbiy bilimi faollashadi va yagona tizim sifatida namoyon bo’ladi.

Pedagogning kasbiy bilimi asosida pedagog tafakkuri – printsip va qoidalar shakllanadi Ular o’qituvchi hatti–harakatlari, hulq–atvorida namoyon bo’ladi. Bu printsip, qoidalarni har bir o’qituvchi tajribasiga tayangan holda quradi. Lekin faqat kasbiy bilim orqaligina uni anglash va uning qonuniyatlarini ko’ra olish mumkin. “Abadiy doskaga chiqarilgan” – o’qituvchi haqida shunday deyiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, o’qituvchini tayyorlash, kasbga layoqatli bo’lishini ta’minlash juda murakkab jarayon. Chunki kasbiy bilim bir varaqayiga barcha darajalarda teng shakllantirilishi kerak: metodologik (rivojlanishning umumfalsafiy qonuniyatlarni, tarbiya maqsadi, shart-sharoitlarini bilish), nazariy (pedagogika va psihologiyaning qonun–qoidalari, printsiplari, faoliyatning asosiy shakllari va b.), metodik (o’quv–tarbiya jarayonini ko’ra olish darajasi), texnologik (muayyan sharoitda ta’lim–tarbiyaning amaliy topshiriqlarini hal etish darajasi). Bu ma’lum darajada rivojlangan kasbiy tafakkurni, ya’ni pedagogik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bilimlarni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlashni talab etadi.

Lekin pedagogik mahoratni egallash kasbiy bilimning o’sish darajasi bilan qat’iy chegaralab qo’yilmaydi. Haqiqatdan ham, oliy dargohda a’lo darajada o’qiydigan talaba pedagogik amaliyotda muvaffaqiyatga erisha olmasligi mumkin. Chunki muvaffaqiyatli faoliyatning alohida hususiyatlari, kasbiy ulg’ayishning stimulyatori – qobiliyatlar mavjud.

Padagogik qobiliyatlar. Demak pedagogik mahorat tizimining uchinchi elementi – bu pedagogik qobliyatlardir. Ular pedagogik faoliyat samaradorligini belgilaydigan psihik jarayonlarning kechishini ko’rsatadi. Pedagogik qobiliyatlar tasnifi bir qancha tadqiqotlarda berilgan.

Biz shulardan pedagogik mahoratga olib boradigan eng asosiylarini tanlashimiz kerak. Bu borada olib borilagan ilmiy tadqiqotlarni tahlil etib, qobiliyatlarning olti asosiy turini ajratdik.

1. Komunikativlik. Bu qobiliyat odamlar bilan muloqotga kirisha olish, ularga nisbatan hayrihohlik bilan belgilanadi.

2. Pertseptiv qobiliyatlar. Bu kasbiy ziyraklik, empatiya, pedagogik intutsiya bilan belgilanadi.

3. Shaxsiy muvozanat, ya’ni irodaviy ta’sir ko’rsata olish, mantiqiy to’xtamga kela olish qobiliyati.

4. Hissiy muvozanat, ya’ni o’zini boshqara olish qobiliyati.

5. Optimistik bashorat qila olish qobiliyati.

6. Ijodkorlik qobiliyati.

Kasbiy tayyorgarlik sur’ati, bo’lg’usi pedagog pedagogik faoliyat shakl va usullarini qanchalik chuqur va puhta egallaganligiga qarab uning pedagogik layoqatini bilish mumkin.

Fikrimizcha, pedagogik qobiliyatlarni tekshirishni komunikativlikdan, ya’ni muloqotdan boshlangan ma’qul. Umuman bu qobiliyat hammada ham bor, lekin u turli darajada namoyon bo’ladi.

Agar o’qituvchida komunikativlik darajasi past bo’lsa, bu kasbiy faoliyat muhitining buzilishiga olib keladi, o’quvchi bilan o’zaro hamkorlik qilishga to’siqinlik qiladi.

Demak, siz ko’pchilik davrasida bo’lish ehtiyojini sezasizmi, shuni aniqlash kerak. Buni aniqlash uchun ko’pgina qiziqarli metodikalardan foydalanish mumkin. Kommunikativlik faqat muloqotga kirisha olish bilan emas, balki qurilgan muloqotdan qoniqish hissi bilan ham belgilanadi. Bolalar va odamlar bilan muloqot jarayonida hayrihohlik va qanoatlanish ishchanlik hususiyatini saqlashga, ijodiy kayfiyatni oshirishga yordam beradi.

O’qituvchining til topa olish qobiliyati pertseptiv qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Agar o’qituvchi ozgina tashqi belgisidan ham o’quvchining ichki his–tuyg’ularini anglay olmasa, haqiqiy diqqatdan yuzaki diqqatini ajrata olmasa, hatti–harakatlarning motivlarini tushunmasa, qanday qilib aniq maqsadli bir qarorga kelishi mumkin.

Kuzatuvchanlik qobiliyati juda murakkab xususiyat. U faqat eshita olish va ko’ra olish bilangina belgilanmaydi. Kuzatuvchanlik qobiliyati bizning diqqatimiz qaratilgan narsaga nisbatan ortiq qiziqish, aqlning intensiv faoliyati va ahborotlarni qayta ishlay olishida ham namoyon bo’ladi. Biz nimani ko’rishni hohlasak, o’shani ko’ramiz, haqiqiy qiziquvchanlik ana shundan boshlanadi. Kuzatish bu tahlil, ana shu erdan idrok etilayotgan hodisalarni tushunish uchun o’z-o’zimizga savol bera boshlaymiz. Kuzatuvchanlik va tajriba intuitiv qobiliyatning rivojlanishiga asos bo’ladi. A.S.Makarenko “Pedagogik poema” asarida shunday yozadi: ”Bu paytga kelib mening ko’zim etarli darajada ravshanlashgan edi. Men birinchi qarashdayoq, kishining tashqi belgilari, ovozi, yurishi va yana qandaydir mayda belgilari orqali, balki xatto hididan ham, har bir muayyan holatlarda bu hom ashyodan qanday mahsulot olish mumkinligini deyarli aniq ayta olar edim”.

Mahoratli usta–pedagog bo’lish pedagogik jarayonning kechishini, kutilgan qiyinchiliklarni oldnidan anglash, pedagogik sezish qobiliyatiga ega bo’lish demakdir. Bunday qobiliyat, garchi uning shakllanishi qiyin bo’lsada, rivojlantirilishi mumkin. Bu o’rinda V.A.Suhomlinskiyning ”Avvalo bola qalbining hatti–haratlarini tushunish lozim” – degan fikrini keltirish o’rinlidir. Mahoratli usta–pedagogning insonni tushuna olish, ya’ni shaxsiy dinamizm qobiliyati bilan o’zaro bog’liqdir.

Dinamizm yoki shaxsiy muvazanat – bu ishontirish va singdira olish qobiliyati, turli hil ta’sir ko’rsata olishdagi ichki energiyadir. Bunday qobiliyatning yorqin namunasi sifatida novator – pedagoglarning faoliyatini misol keltirish mumkin. Ularning darslari yorqin, pozitsiyalari tashabuskor(lik), so’zlari o’quvchi ongiga singib bora oladi. Bu qobiliyat mazmunini o’rganishning o’ziyoq unga ega bo’lish yo’llarini qo’rsatadi.

Shahsiy muvozanat (dinamizm) hissiy muvoazanat (ya’ni ta’sir doirasi, yaxshi pedagogning tortish maydoni) qobiliyati bilan bog’liqdir. O’zini tuta olish va o’zini boshqara olish hissiy muvozanatni yuzaga keltiradi, turli holatda o’zini va vaziyatni boshqara olish imkonini beradi

Optimistik bashorat qila olish qobiliyati boshqa barcha qobiliyatlar bilan birgalikda barkamol shahni shakllantirishda, jamiyat uchun foydali kishilarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O’qituvchi o’quvchiga nisbatan ”hech qachon...” degan iborani ishlatishga haqqi yo’q. Chunki o’quvchining kelajagini ”Sen hech qachon odam bo’lmaysan”, deb bashorat qilib bo’lmaydi. O’qituvchining bashorati o’quvchini ruhlashtirishi, biror bir aniq maqsadga yo’naltirishi kerak.

XULOSALAR

A.S.Makarenko aytganidek, "Agar pedagog mahoratni egallamas ekan, agar u bolalar muhitidagi ilg‘or kuchlarga tayana olmas ekan, ularning o‘stirishini rag‘batlantirib, eng yaxshi faoliyatlarini rivojlantira olmas ekan, u muqarrar ravishda shaxsiy ta’sir ko‘rsatishni mutloqlashtirib boradi, ya’ni o‘ziga eng oson yo‘lni tanlaydi. Chunki kuchli va mahoratli o’qituvchigina bolaga nimani o’rgatishni va qanday o’rgatishni anglay oladi. Bolani har tamonlama rivojlantiradi, psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars mashg’ulotlarini tashkil etadi.Chunki, o‘qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas’uliyati yuklanadi. Muallim o‘quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi majud layoqat va qobiliyatini payqab, individual munosabatda bo‘lishi, unda mavjud bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o‘stirishi darkor. Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o‘quvchilar jamoasi bilan yolg‘iz ish olib boradi. Bunday sharoitda o‘qituvchining mas’uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazishning asosiy mezoni hisoblanadi.

A.S.Makarenko aytganidek, "Agar pedagog mahoratni egallamas ekan, agar u bolalar muhitidagi ilg‘or kuchlarga tayana olmas ekan, ularning o‘stirishini rag‘batlantirib, eng yaxshi faoliyatlarini rivojlantira olmas ekan, u muqarrar ravishda shaxsiy ta’sir ko‘rsatishni mutloqlashtirib boradi, ya’ni o‘ziga eng oson yo‘lni tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020.
2. M.J.MUTALIPOVA, B.X.XODJAYEV.Darslik. Toshkent-2015.6-7-bb.
3. G.N.Najmiddinova. Pedagogik mahorat kursining tehnologiyalashtirilgan ma’ruza matnlari.12-13-betlar.
4. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU-2003.
5. A.Xoliqov.Pedagogik mahorat. Toshkent 2011.

RIVOJLANGAN TARAQQIYOT ASRIDA YOSHLAR MUOMMOLARI: YECHIM VA MULOHAZALAR

Ibragimov Oybek Alisher o‘g‘li
Qo‘qon universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonida yoshlar muammosi tobora shiddatli tus olayotganligi, dunyo mamlakatlarining inson manfaatlariga xizmat qiladigan tom ma’nodagi demokratik yo‘lni tanlab olishga bo‘lgan intilishlarining kuchayganligi, bir sharoitda axborotning roli kun sayin ortib borayotganligi, insoniyatning axborotlashuv sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni boshidan boshidan kechirayotganligining o’ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, axborot, jamiyat, yoshlar+, ong, salbiy ta'sirlar, jarayon.

Abstract: In this article, the problem of youth is becoming more and more intense in the process of globalization, the desire of the countries of the world to choose a literally democratic path that serves human interests has increased, the role of information is increasing day by day, and the revolutionary growth of humanity in the field of information. the specific characteristics of experiencing changes from the beginning are discussed.

Key words: globalization, information, society, youth+, consciousness, negative effects, process.

Аннотация: В данной статье проблема молодежи становится все более обостряющейся в процессе глобализации, усилилось стремление стран мира выбрать буквально демократический путь, отвечающий интересам человечества, с каждым днем возрастает роль информации. день и революционный рост человечества в области информации обсуждаются особенности переживания изменений с самого начала.

Ключевые слова: глобализация, информация, общество, молодежь+, сознание, негативные последствия, процесс.

KIRISH

Globallashuv jarayoni zamonaviy madaniyatning ko'plab murakkab masalalariga, shu jumladan zamonaviy jamiyat a'zolarining suvereniteti muammosiga ta'sir qiladi. Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan quyidagi faktga e'tibor qaratamiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarining globallashuvi va “yangi, tobora kuchsizroq va kam resursli” siyosiy mustaqil “hududiy tuzilmalar”ning “qizg‘in” bo‘linishi... o‘zaro bog‘liq hodisalar bo‘lib, bir-birini bir-biriga bog‘laydi va mustahkamlaydi”. Aftidan, bu zamonaviy madaniyatdagi mafkuraviy shakllanishlar sohasida ham kuzatilmoqda. Asl shakllanishlar dominant massa yo'nalishidan "avtonomlashtirishga" moyildirlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlar subkulturalari deb ataladigan holatda, bu muammo alohida soya oladi. 1987 yilda J. Podnieks o'n yilli kuzatishlari asosida yoshlar hayoti va harakatlari haqida film suratga oldi, uning asosiy g’oyasi - “Yosh bo'lish osonmi?” degan savol edi. Tez orada mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining sa'y-harakatlari bilan, filmdagi ijtimoiy muammolari haqidagi

turli materiallarga ritorik sarlavha sifatida o'rinli va o'rinsiz ishlatila boshlandi. Oradan shuncha payt o’tibdigi, hanuzgacha tadqiqotchilar va psixologlar globallashuv jarayonida yoshlar muammosi haqida ko’p tadqiqotlar olib borishadi. Ushbu maqolaning maqsadi - zamonaviy madaniyatda yoshlar fenomeni va u bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchaning shakllanishi va faoliyati muammosini aniqlash va globallashuv jarayonida uni tahlil qilishdir. XX-asr G‘arb falsafiy va ilmiy adabiyotida yoshlar madaniyati muammosi ko‘p ko‘tariladi, ayniqsa 1950-1960-yillardan so‘ng, ular dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yoshlar noroziliklarining kuchayishi bilan ajralib turdi, keyinchalik ular uyushgan norozilikka aylandi. Dominant madaniyatga qarama-qarshilikni qadrlash, bu hodisa dastlab kontrmadaniyat nomini va maqomini oldi, so'ngra ijtimoiy-madaniy yulduz turkumining o'zgarishi va uning ichki o'zgarishi bilan submadaniyat maqomini oldi. Xorijiy tadqiqotchilar e’tibori, asosan, yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan an’anaviylikka qarshi mafkuraning tanqidiy pafosi, uning ijtimoiy-psixologik shartsharoitlari, madaniyatga ta’sir etish istiqbollariga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda yoshlar subkulturalari batafsil tavsiflangan, ammo kamroq tanqidiy. Ushbu yondashuvning shubhasiz afzalliklari bilan shuni ta'kidlash kerakki, o'zini e'lon qilgan yoshlar harakatlarining mafkuraviy yo'nalishi, ushbu muhitda qabul qilingan marosim va urf-odatlarni sinchkovlik bilan sharhlaganda, yoshlarning zamonaviy jamiyatdagi haqiqiy o'rni haqida savol tug'iladi, ham ko'rib chiqilmagan. Yoshlar ko'pincha ba'zi avtonom madaniyatlarning sub'ekti sifatida paydo bo'ladi (va ko'pincha o'tmishga aylangan yoki o'z xarakterini o'zgartirgan), madaniyatning ushbu sohasining belgilar tizimi mafkuraviy spekulyatsiya va ommaviy axborot vositalariga murojaat qilish ob'ekti sifatida batafsil o'rganiladi, yoshlarni hisobga olmagan holda. Biroq, hech bo'lmaganda, bir tomondan, ushbu guruhning umumiy ijtimoiy massadan faol ajralib chiqishi va uning aniq (yoki tarixiy davr uchun moslashtirilgan) chegaralarining yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshilik, ular ichida ba'zan bir nechta avlodlar mavjud, boshqa tomondan, bu haqda o'ylashga undaydi. Ommabop tomoshalarning virtual olamida barcha yuqori baholangan teleko'rsatuvlar, seriallar va blokbasterlarning bosh qahramonlari, qoida tariqasida, 35 yoshdan katta bo'lmagan va ko'pincha 30 yoshdan katta bo'lmagan qahramonlardir. "Yosh qahramonlar" tasvirlari ommaga taqdim etilgan rivojlangan iste'molchi muvaffaqiyati jamiyatining asosiy qiymatiga mos keladi (bu holda yoshlarning salomatlik, faollik, chaqqonlik va jismoniy jozibadorlik kabi fazilatlaridan iborat). Bolalikdan ommaviy madaniyat tomonidan to'liq uzatilgan qadriyatlar stereotipini o'zlashtirgan zamonaviy yoshlar o'qishni tugatishdan ancha oldin "rivojlanib boradi"; o'rta va katta yoshdagi fuqarolar ularni xattiharakatlarida, kiyinish uslubida, turmush tarzida va hokazolarda taqlid qilishga faol intilishadi, ya'ni "yosh bo'lish". Mulohaza yuritishga undaydigan yana bir ziddiyat ommaviy ongdagi “bo‘lmoq”ni siqib chiqaradigan “rivojlanmoq” va “ko‘rinmoq” o‘rtasidagi farqdir. A.C. Panarin muqobil madaniyatning ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “Yoshlik – XX asr hodisasi; O'sha vaqtgacha tarix yoshlarni bilmas edi: yoshlar bor edi, lekin yoshlar yo'q edi an'anaviy hayot tarzi bolalikdan to'g'ridanto'g'ri kattalikka o'tish bilan tavsiflanadi. Yoshlik, tadqiqotchi sotsializatsiya jarayonini boshidan kechirayotgan, boshqa jamoalar munosabatidan farq qiladigan muayyan qadriyat munosabatlarini ro'yobga chiqarishga va ozmi-ko'pmi izchil ob'ektivlashtirishga qodir bo'lgan

(yosh) tengdoshlarning o'ziga xos shartli jamoasini anglatadi. Shu ma'noda, globallashuv jarayonida yoshlar muammosi zamonaviy madaniyat fenomeni bo'lib, madaniyatdagi ko'p narsalar singari, dastlab mifologiyadan oziqlangan. U asosan ikki omil ta'sirida shakllanadi va madaniy faktga aylanadi: birinchidan, ijtimoiy - umumiy ta'lim tizimi tomonidan joriy etilgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi va yoshning balog'atga etishishini kechiktiradigan uzoq o'qish davri; ikkinchidan, nazariy va undan ham ko'proq mifologik. Gap shundaki, yoshlar submadaniyatining dolzarb hodisasi XIX asrga borib taqaladi, o‘shanda romantizm arboblari sa’y-harakatlari bilan ideallashtirilgan bolalik va yoshlik g‘oyasi yaratilgan va yangi muammo – avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar paydo bo‘lgan, shuningdek badiiy, sotsiologik va falsafiy adabiyotlarga kirib keldi. Romantiklarning (boshqa narsalar qatori, psixologlarning yoshlarga bo'lgan ilmiy qiziqishini uyg'otgan) xizmatlari ham yoshlar nazariyasida, balki ko'proq darajada ular yoshlar ongini va yoshlar madaniyatini ifodalash uchun pretsedent yaratganlaridadir. Har qanday madaniyatni tanqid qilishning asosiy muammolaridan biri bu madaniyatning o'zi nuqtai nazaridan emas, balki uni baholashning shubhaliligidadir. Yoshlarning muqobil mafkurasini tanqid qilish bilan bog'liq vaziyat, uning salbiy mulohazalarga yo'l qo'ymasligi (chunki kontrmadaniyat harakati o'zini kontrmadaniyat deb e'lon qiladi, tanqid esa madaniydir) va bundan manfaatdor emasligi bilan yanada og'irlashadi: yoshlarning madaniy isyoni to'xtaydi, uning "rivojlanishi" va "evolyutsiyasi" lahzalarida u vaqt g'oyasini progressiv rivojlanish sifatida qabul qilmaydi. Shu sababli, kontrmadaniyat harakatlarining barcha ta'riflarida, ular haqida faqat hamdardlik tarafdorlari yoki tez ta'sirlangan muxoliflar qiziqish bilan yozishlari bilan shug'ullanish kerak. Muxoliflar, qoida tariqasida, yoshlarni "prinsipsiz"likda qoralaydilar, bu yosh isyonchilarning tanqidchilar uchun maqbul bo'lgan g'oyalar tashuvchisi va qadriyatlar himoyachisi sifatida harakat qilishdan namoyishkorona rad etishini anglatadi. Prinsipsizligi uchun tanbeh odatda yosh alternativchilar g'oyalarini rad etish bilan birga keladi. Ba’zan an’anaviy madaniyatning inkor etilayotgan tamoyillarini sanab o‘tishning o‘zi ular tasdiqlagan tamoyillarni sanab o‘tadi. Agar shunga qaramay baho berishdan o‘zini tiyadigan bo‘lsak, bu holatda yoshlar harakati u yoki bu darajada haqiqatan ham yosh ongning mafkuraviy beqarorligini, to‘g‘rirog‘i, mafkuraviy noo‘rinligini ochib berishini ko‘rish mumkin. Globallashuv jarayonida yoshlar madaniyati o‘z g‘oyalarini rivojlantirmaydi, balki o‘tmish va mavjudlarini tanlaydi, agar g‘oya zamonaviy madaniyatning umumiy holati bilan qadrsizlanmasa yoki o‘z-o‘zidan ma’lum bir diniy tizim bo‘lmasa, u mifologik shaklga ega bo‘ladi. Bu yoshlar madaniyati sub'ektlarining ichki psixologik ehtiyojini amalga oshiradi va uning eng muhim ijtimoiy-madaniy funktsiyalaridan biridir. Bu ham yoshlarning potentsial sub'ektiv kuchi bo'lib, u vaqti-vaqti bilan tartibsizliklarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, bir tomondan, ommaviy axborot vositalarida tarqalgan yoshlik fazilatlariga sig'inish va ommaviy axborot vositalarida yoshlar mavjudligi haqidagi ma'lumot yoshlar nafaqat gullab-yashnayotgan "Pepsi avlodi" emas, balki ular shunchaki bo'sh giyohvandlar yoki mavhum "taqdir" irodasi, uysizlar uchun ijtimoiy va madaniy ne'matlardan chetlatilgan. Boshqa tomondan, "yoshlik" epiteti endi odamlarning fikrini silkitishi mumkin bo'lgan hodisalar uchun, masalan, globallashuvga qarshi harakatlar uchun o'ziga xos neytrallashtiruvchi belgi vazifasini bajaradi - yoshlar "g'azablanishga" moyil ... Qanday bo'lmasin, "yoshlar", "yoshlik" epithetslari uning joylashuvi, ekzotik qiziquvchanligi va xavfli emasligi, butun jamiyat miqyosida

sodir bo'layotgan voqealarning ahamiyatsizligi yoki inson hayotining mavhum tasvirlangan davomiyligi g'oyasini anglatadi. Shu tariqa, qirq yoshga yaqinlashib qolgan yosh yozuvchilar, rassomlar, rejissyorlar va siyosatchilarni deyish odat tusiga kirgan: san'atkorning jamoatchilik tomonidan tan olinishi vaqt o'tishi bilan uning kamroq "o'tkir" yosh davriga o'tdi va bundan tashqari qo'shimcha ravishda "boshlang'ich" sifatida belgilanadi, bu go'yo bu erda va hozir uning ahamiyatini yo'qotadi va uni mavhum kelajakka tushiradi. Aytilganlarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlaymizki, globallashuv jarayoni zamonaviy dunyoda yoshlar madaniyatining qarama-qarshi emansipatsiyasi natijasida uni ko'rib chiqish e'tiborida o'zgarishlar yuz berdi: yoshlar biologik va ijtimoiy hodisadan simulativ hodisaga o'tdi. To'g'ri, uning yoshlar submadaniyatlari deb ataladigan o'ziga xos "getto" ga moslashishga majbur bo'lgan qismi bundan mustasno va hozirgi madaniy vaziyatga o'ziga xos virtual bo'lmagan alternativa bo'lib, uning haqiqiyligini xususiylashtirishga keskin qarshilik ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim.

Bunda: - ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish; - yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish; - yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim. Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бауман 3. Глобализация: последствия для человека и общества. – М.: МИР, 2019.
2. Исматова, Д. Т. (2020). Ота-оналик маъсулиятининг фарзандлар тарбиясига психологик таъсири. Oriental Art and Culture, 1(3), 452-456.
3. Ismatova, D. T. Y. (2021). Oiladagi ajrimlar psixologik muammosi sifatida. Oriental Art and Culture, (8), 184-190.
4. Melnikova L.L. The role and place of counterculture in the spiritual life of modern youth. London: Science and Society, 2018.
5. Qosimova, S. B. (2021). O'smirlik davridagi o'quvchilarda ijtimoiy intelekt muammosining psixologik xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(4), 554-559.

JADID MILLIY ADABIYOTINING VUJUDGA KELISHI VA JADID IJODKORLARI TOMONIDAN ILGARI SURILGAN G’OYALAR

Mo‘ydinova Irodaxon Abdumannob qizi
Qo‘qon universiteti boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid milliy adabiyotining vujudga kelishi, jadid adabiyotining o’zbek milliy adabiyotiga qo’shgan hissassi, tutgan o’rni haqida so’z boradi. Shu bilan bir qatorda jadid asarlarida ilgari surilgan g’oyalar va ularning milliy ozodchilik, millat va xalq manfaati yo’lidagi xizmati, haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Adabiyot, jadid adabiyoti, ijod, ijodkor, janr, she’r, she’riyat, roman, romanchilik, drama, jadid dramasi, qismat, san’at, teatr, milliy teatr, teatr truppa, musiqa.

Аннотация. В данной статье рассказывается о становлении джадидской национальной литературы, о вкладе джадидской литературы в узбекскую национальную литературу, о ее роли. В качестве альтернативы приводятся идеи, выдвинутые в работах Джадида, и их служение национальному освобождению, интересам нации и народа.

Ключевые слова: литература, джадидская литература, творчество, создатель, жанр, поэзия, поэзия, Роман, новеллизация, драма, джадидская драма, судьба, искусство, театр, Национальный театр, театральная труппа, музыка.

Annotation. This article will talk about the emergence of jadid national literature, the contribution of jadid literature to Uzbek national literature, its role. In parallel, the Jadid works provide information about the ideas put forward and their service towards national liberation, the nation and the good of the people.

Keywords: literature, jadid literature, creation, creator, genre, poetry, poetry, novel, romance, drama, jadid drama, verse, Art, Theatre, National Theatre, Theatre Troupe, music.

Turkiston ma’rifatparvar jadidlari butun faoliyatini millat ozodligi, ma’rifati yo’lidagi kurashlar uchun sarf etdi. Ushbu faoliyatni ma’lum dastur asosida ikki yo’nalishda madaniy taraqqiyotni, ya’ni maktab, teatr, matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirish va bu boradagi faoliyatni amaliyot bilan bog’liq holda olib borish orqali amalga oshirdilar. Jadidchilikning yirik namoyandasi Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig’ini ko’rsatadurg’on oinai hayoti til va adabiyotidir’’, degan so’zlari ilm ahli orasida ma’lum va mashhurdir. O’zbek adabiy tili va adabiyoti hamda san’atining shakllanishi hamda rivoji tarixida jadidlar o’ziga xos o’chmas iz qoldirganlar. Bugun ma’lumki, o’zbek adabiyoti tarixining muayyan davrini jadid adabiyoti tashkil etadi. B.Qosimovning so’zlari bilan aytganda, “Jadid adabiyoti garchi badiiyatiga ko’ra u qadar yuksak bo’lmasa-da, ilk o’zbek adabiyoti sifatida maydonga keldi va o’z davrida xalqning ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy saviyasini ko’tarishda muhim rol o’ynadi”. Jadidlar harakatning dastlabki yillaridayoq murabbiylik faoliyati bilan birga yangi usul maktablari uchun darslik yozish orqali ham o’z zamonasining ajoyib ijodkorlari sifatida tanildilar, chunki darslik yozishga qo’l urgan har bir kishi muayyan iqtidor va ilmiy salohiyatga ega bo’lishi kerak. Shunday qobiliyatga ega jadidlarning ko’pchiligi yangi turdagi maktablar uchun zarur darslik va qo’llanmalar yozib, ilmiy va badiiy ijodda o’zlarini namoyon eta oldilar. Shu bilan birga, Turkiston xalqining ma’naviy-

ma’rifiy taraqqiyotida yozuvchi, shoir, dramaturg sifatida qalam tebratib, ijodlarida o’z davrining nafasini berishga intilganlar. Tabiatan berilgan iqtidor, ilmga bo’lgan chanqoqlik va mashaqqatli mehnat tufayli jadid ijodkorlar turli janrdagi asarlar yaratib, o’zlaridan bebaho meros qoldirdilar.

XX-asrning boshlarida jadidlar tomonidan yaratilgan o’rta asrlarga xos sxolastikmiskinlik kayfiyatini beruvchi ayrim asarlar o’rniga shijoat, ko’tarinkilik-optimistik ruhdagi asarlar o’sha davrda shakllanib kelayotgan jadid adabiyotining asosini tashkil etadi. Davrning shiddatli voqealari, Turkiston zaminida hukm surgan mustamlaka zulmidan ozor chekayotgan o’zbek xalqi hayotiga loqayd munosabatda bo’la olmagan ijodkor jadidlar qalblarida kechayotgan tug’yonlarni qog’ozga tushirishga intildilar va o’z ijodlari orqali xalqni asriy uyqudan uyg’otishga, xalqning oldingi safida turib ularni ma’rifatning nurli yo’li sari yetaklashga kirishdilar. Bugun jadid adabiyoti namoyandalari Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’xoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho’lpon... ularning safi bir necha o’nlarni tashkil etadi.

Xalqni ilm-ma’rifatga chorlovchi, dunyo taraqqiyoti yangiliklarini targ’ib etish, insonparvarlik, vatanga bo’lgan mehr-muhabbat g’oyalari bilan yo’g’rilgan, erk va ozodlikni madh etuvchi asarlar otashqalb va beqiyos ijod sohiblari bo’lmish jadid ma’rifatparvarlari qalamiga mansubdir.

Agar jadid ijodkorlar yaratgan asarlar janriga nazar solsak, ular adabiyotning deyarli barcha janrlarida ijod qilganliklarini ko’ramiz. Ular orasida nazmda qalam tebratgan shoirlarni ham, nasr yo’lida yuksak saviyali asarlar yaratgan yozuvchilarni ham, o’zbek teatri tamal toshini qo’yib, o’zbek teatr san’atining rivojiga o’z salmoqli hissasini qo’shgan dramaturglar-u rejissyorlarnii ham uchratish mumkin. O’zbek adabiyoti tarixida roman janrining asoschisi sifatida Abdulla Qodiriy tanilgan bo’lsa, drama sohasida ilk qalam tebratgan Mahmudxo’ja Behbudiy bo’ldi. Ilk badiiy va ilmiy-publitsistik asarlar ham aynan Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori, Is’xoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy kabi jadidlar tomonidan o’zbek adabiyotiga kirib keldi. Cho’lpon, Botu, Elbek, va boshqa shu kabi zabardast shoirlar tomonidan yaratilgan she’rla bugunga qadar ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Bir so’z bilan aytganda, jadidlar o’zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida, shuningdek, ilm-fanning rivojida o’chmas iz qoldirgan ijodkor, ma’rifatparvar sifatida tarixda qoldilar.

Jadid adabiyoti sifatida XX-asr boshida vujudga kelgan milliy adabiyot o’ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalambor, jadidlarni ijod etishga undagan narsa — jamiyatdagi ijtimoiy muammolar. Shu ijtimoiy muammolarni yechishga intilib ijod etgan jadidlar o’z asarlarida muammolarga ma’rifiy yo’l bilan yondashdilar va ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, haqsizlikka qarshi bosh ko’tardilar maydonga chiqdilar.

Jadid ijodkorlarining har biri ijod olamida o’ziga xos ijodiy uslub va mahoratga ega. O’z zamonasida sodir bo’layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ziyraklik bilan nazar tashlab, teran mushohada etib, jamiyat taraqqiyotini orqaga tortayotgan turli muammolarnii hal etishda adolatli va oqillik bilan yondashish jadidlar ijodida turli-tuman bo’yoqlarda o’z ifodasini topdi. Adabiyotshunos olim A.Aliyev ta’kidlashicha, jadidlar “Asarlarida avvalo o’zlari yashab ijod etgan davrning ma’naviy boyligini badiiy ifodalab berdilar. Zamon uchun eng ilg’or hisoblangan g’oyalarni olib chiqib, amalga oshirish uchun faol kurash olib bordilar. Mazkur g’oyalarning

aksariyati o’zining ahamiyatini hamon saqlashgina emas, bizning kunlarimizda endi kun taribiga qo’yilmoqda”[1].

Jadidlar dunyoqarashining tub o’zagini millat va xalq manfaati tashkil etgan. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ham jadidlar ruslashtirish siyosatiga qarshi chiqqan kishilar sifatida tarixda qoldi. Ular buning uchun avvalo tilning sofligi, o’zbek tili taraqqiyotiga katta e’tibor berdilar. Umumiy adabiy til masalasi millat rivoji, o’lkada mavjud o’zbek xalqi taraqqiyotining zarur sharti deb bildilar. Agar til sofligi masalasini Rossiyada ko’tarib chiqqan Gaspirali bo’lsa, Turkistonda Cho’lpon boshchiligida "Chig’atoy gurungi" bo’ldi. Millatning milliyligini saqlab qolish uchun ham, avvalo, uning o‘z tiliga ega bo’lishi, uning yer yuzida abadiy yashab qolishi uchun ham milliy tili zarurdir.

Jadidlar yaratgan asarlar mavzusi keng qamrovli bo’lib, Turkiston xalqi hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. O’lka hayotidagi barcha muammolar: iqtisoddan tortib - siyosatgacha, madaniyatdan tortib - ma’rifatgacha, xalq qayg’usidan tortib - quvonchigacha, xalq dardi, maqsad-muddaolari ular asarlarining butun mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Butun bir mamlakat dardi-dunyosi, o’tmish-u buguni hamda kelajagi jadidlar asarlarida o’z ifodasini topgan.

Ma’lumki, chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishidan asl maqsadi o’lka boyliklariga ega chiqish edi. Shuning uchun mustamlakachilikning dastlabki yillaridanoq bosqinchilar bu maqsadini amalga oshirmoq uchun yeng shimarib ishga kirishib ketdilar. Ularning Turkiston boyliklarini o’zlashtirishning dastlabki amaliyoti sifatida ruslarni ma’lum bir kishilarini bu yerga ko’chirib keltirilishidir. Ko’chib kelgan ruslarga o’lkada mavjud dehqonchilikka yaroqli yerlaming 55 foizi mahalliy aholidan tortib olib berildi. Mahalliy aholi esa to’qayzorlar-u ekinga yaroqsiz yerlarga haydab chiqarildi. Bozorlar ham asta-sekin rus manufaktura sanoati mahsuloti bilan to’ldirib borildi. Bu esa mahalliy mayda hunarmandlar - bo’zchilar, kosib, duradgorlarning bozori kasod bo’lishiga olib keldi. Mamlakatda yildan-yilga ishsizlik avj olib, o’lka aholisining aksariyat qismi borgan sari qashshoqlashib, mardikorlik, chorikorlik, aniqrog’i, ular rus kishisi qo’lida mardikor, xizmatkor bo’lib ishlashga majbur edi. Xalqning qashshoqlanishi, o’lkada mardikorlikning avj olishiga sabab bo’ldi.

Turkistonning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog’liq so’nggi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, chor Rossiyasi va sovetlar davrida o’lka boyliklari bosqinchilar tomonidan ayovsiz ravishda talon-taroj etilgan. Adabiyotshunos olim Aliyev o’zining “Mahmudxo’ja Behbudiy” nomli risolasida bu masalaga to’xtalib o’tib, qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi: "...qishloqdan chiqadigan paxta, pilla, chorva, meva-chevadan tortib, hammasi Rossiyaga tashib ketiladigan bo’ldi... Mahalliy xalqning ma’naviy dunyosiga ham chang soldilar: turkiy xalqlarning tili, dini, milliy an’analari, urf-odat, tarixi, madaniyati, milliy his-tuyg’ulari oyoq osti qilindi. Eng qadimiy davrlardan boshlab hozirgi ma’naviy merosimizgacha mavjud qo’lyozmalar, qimmatbaho kitoblar, tarixiy yodgorliklar ruslarning markaziy shaharlariga tashib ketildi... Amir Temur, Ahmad Yassaviy maqbaralari ichidagi tilla, kumush aralashmasidan yasalgan shamdonlar, Amir Temur maqbarasi shipidagi oltindan yasalgan yulduzsimon shaklda ishlangan qandillar, qurol-aslahalar Ermitajga olib ketildi. 1883-yilda Ermitajga jo’natilgan

[1] Aliyev A. Mahmudxo’ja Behbudiy.-T.:Xazina, 1993, 10-bet.

buyumlar ichida 1168 qadimiy oltin, kumush tangalar eng qadimiy davrdan XVII asrgacha bo’lgan namunalardan iborat edi...[2] ”.

Chor Rossiyasining o’lkada olib borgan mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini teran anglagan jadid ijodkorlari o’z asarlarida chor Rossiyasining talontarojlik siyosatiga qarshi mamlakatni iqtisodiy taraqqiy ettirish g’oyasini ko’tarib chiqdilar. Turkistonda yetishtirilayotgan boyliklar, noz-u ne’matlarning, xalqning moddiy va ma’naviy boyliklarini mustamlakachilar tomonidan talon-taroj bo’layotganiga e’tiborsiz qaramadilar. Ayniqsa, yurtimizda yetishtirilib, Rossiyaga arzon-garovga olib ketilayotgan mahsulotlarni o’zimizda qayta ishlash uchun yetarli shart-sharoitning yo’qligidan achinadilar. Bu holatdan chiqish uchun ilmli bo’lish, ilmga asoslangan holda xo’jaIik yuritish kerak, degan fikrni ilgari suradilar: “Amerkalilar bir dona bug’doy ekub, yigirma qadoq bug’doy olurlar. Ovrupalilar o’zimizdan olg’on besh tiyinlik paxtamizni keturub, o‘zimizg’a yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyoliklar, xususan turkistonlilar, qaymoq berub, sut oshiymiz, non o’rniga kesak tishlaymiz. So’zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo’lmak uchun ilm va ma’rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas say, bitmas g’ayrat lozimdur”[3], degan edi kuyunchaklik bilan Abdulla Avloniy.

Jadidlar buning oldini olish uchun Turkistonda yetishtirilayotgan mahsulotlaming savdosi bilan shug’ullana oladigan mahalliy kadrlami yaratish, tajribali mutaxassislar yetishib chiqarish kerak, deb hisoblaydilar. “Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog’i va nimarsalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dollari kelib yuz bahoga olib ketar. Mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko’rar... Ovrupo ila savdo qiladurg’on kishi avvalo zamona ilmi o‘qimog’i lozim. U millat taraqqiyotining ma’naviyati - ham tarbiyasi, ham iqtisodi, ham ma’rifati”[4].

Iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiy etgan mamlakat orzusi deyarli barcha jadid ijodkorlari asarlarida uchraydi. Xoh she’r, xoh nasr va drama bo’lsin, shu orzu-istak ufurib turadi. Hatto o’z zamonasida bunday mamlakatni yaratish mushkulligini his etgan jadidlar orasida taraqqiy etgan mamlakat haqidagi shirin xayollarida o’zlari orzu etgan mamlakatni ko’radilar. Jadidchilikning "otasi" I.Gaspiralining “Dorul rohaf’idan ta’sirlangandek, turkistonlik jadid ma’rifatparvar S.Ajziy o’z xayolida go’zal Samarqandini chizadi. Uning tasavvuridagi Samarqand ozod va obod, farovon, ilm-fan samaralaridan muzayyan edi. Unda, hatto, shunchaki televideniye emas, biz bugun, 70-80 yildan keyin guvoh bo’lib turgan videotelefonlar haqida ham gap ketadi.

Vatan, yurtga sadoqat, uning dardi bilan bog’liq g’oyalar bilan yo’g’rilgan asarlar yaratish insonning qalbida shu vatan, shu yurtga mehru muhabbat yashashi kerak. O’z vatanini chin qalbdan seva olmagan kishi ijodda ham buni jonli aks ettira olmaydi. Jadidlar o’z asarlarida eng avvalo ana shu hisni aks ettira olishdi, qalblarida yongan vatan va yurt mehri bilan sug’orilgan asarlar ularning ijodidan ufurib turdi. Vatan hayoti, uning taqdiri bilan bog’liq g’oyalar jadidlar ijodining butun mazmun-mohiyatini tashkil etdi. Mamlakat hayoti bilan bog’liq qaysi soha bo’lmasin, unda ko’tarilgan g’oyalar bitta g’oyaga kelib bog’lanardi, bu g’oya - “Buyuk Turkiston” g’oyasi edi. Bu jadidlar mafkurasining bosh g’oyasi hisoblangan.

[2]Aliyev A. Mahmudxo’ja Behbudiy.-T.:Xazina, 1993, B.4.5.
[3] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O’qituvchi, 1992, B.33.
[4] O’sha asarda. B.34

“Buyuk Turkiston”ni yaratmoq uchun shu o’lkada yashayotgan barcha millat va elatlarning birligi, hamfikrligi va jasoratu fidoiyligi muhim, degan qarash jadidlar asarlaridagi teran mushohadalardan biridir hisoblanadi. Buni Mahmudxo’ja Behbudiy shunday e’tirof etadi: “Chirog’larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar hatto dunyoning u uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatga tobe bo’lub, yutilub, hatto tilini yo’qotgan o’z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg’a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o’z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, axmoqlikdur. Turk tomirig’a bolta urmoqlikdur”[5].

Turli illatlar, o’zaro kelishmovchiliklar tufayli mustamlaka botqog’iga tushib qolgan Turkiston hayotida Behbudiy olg’a surgan bu g’oyalar qanchalik muhim va dolzarb bo’lsa, uning ushbu fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

Turkiston taqdiri, millat manfaatlari hal bo’layotgan bir paytda turli qatlam va turli qarashlarga ega xalq orasida o’zaro ahillik, do’stlik va bir-biriga nisbatan sabr-toqatlilik (tolerantlik) ruhida bo’lish g’oyalari bilan sug’orilgan asarlar jadidlarning qalamiga mansub bo’lib, ularning asarlarida ilgari surilgan bunday g’oyalar faqat XX asr Turkistoni uchun emas, hamisha qimmatli g’oya sifatida yashab keldi: “Agarki biz Turkiston musulmonlari xohlasakki, - degan edi M ahmudxo’ja Behbudiy, din va millatni ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam qo’ysak, ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz birlashib, din va millat, vatan rivoji uchun xizmat etsak, shunda biz boshqalarga qaram bo’lmaymiz”[6].

Mamlakat taraqqiyoti, mavjud muammolarni hal etishning muhim omili shu mamlakatdagi odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarga, ularning bir-birlari bilan do’st va ahil, birodar va bahamjihat yashashiga bog’liq degan qarashlarni ilgari suradi Abdulla Avloniy. “Chin do’st bo’lgan kishi boshingga kulfat va qayg’u kelgan vaqtlarda san bilan barobar qayg’urar, xotirangdagi qayg’uni bo’lishib olur. Siringni noahil va nolon kishilarga aytmas, aybingni orqangdan so’zlamasdan yuzingga aytur. Shodlik vaqtingda san ila barobar shodlanur”[7].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak Jadidlar yaratgan asarlar xoh u darslik bo’lsin, xoh u badiiy yoki ilmiy-publitsistik asar bo’lsin, uning tub mohiyati, g’oyasi an’anaviy ishq-muhabbat masalasidan tortib, milliy til, o’zbek xalqining turmush tarzi bilan bog’liq oddiy, eng kichik masalalarni ham o’zida aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-jild. - T.:O’zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. - T.: O’zbekiston, 2021.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.- T .: M a’naviyat, 2008.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. — T.: O’qituvchi, 1992.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. - T.: Ma’naviyat, 2006.
6. Abdulxayrov B. Miyon Buzruk - jadid dramaturgiyasi va teatri tadqiqotchisi. - T.: Fan. 2009. ‘Sharafiddinov O. M ustafo C ho’qay, C ho’lpon, Otajon Hoshim - T.: Sharq, 1993, 68-bet. 63

[5] Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. - T.: Ma’naviyat. 2002.B.167.
[6] O’sha asarda.B.222.
[7] Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. - T.: Ma’naviyat, 2006.B.15.

7. Aliyev A. Mahmudxo’ja Behbudiy. - T.: Xazina, 1993.
8. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. - T.: Ma’naviyat, 2005.
9. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - T.: Universitet, 1999.
10. Karimov N. Jadid teatri. - T.: Toshkent islom universiteti, 2016.
11. Mahmudov.G’ Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzusi. - T.:O’zbekiston, 1999.
12. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar.- T.: Ma’naviyat, 2003.
13. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. - T.: M a’naviyat,2002.
14. Rizayev Sh. Jadid dramasi. -T.: Sharq, 1997.
15. Tojiboyeva M. Jadid adabiyoti va mumtoz an’analar. -T.: “MUMTOZ SO’Z”, 2011.
16. Vatan va millat muqaddasdir: (Milliy uyg’onish davri ijodkorlarining e’tirotlari). - T.: Ma’naviyat. 2000.
17. Xodjayeva D Negmatov B Jadidchilarning ma’rifatparvarlik harakatlari (O’quv qo’llanma) - T.: 2022. B. 51.52.53.54.55.56.
18. Sharafiddinov O. Mustafo Cho’qay, Cho’lpon, Otajon Hoshim. - T.: Sharq,1993.

TURKISTON O’LKASIDA USULI JADID MAKTABLARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING FAOLIYATI

Mo‘ydinova Irodaxon Abdumannob qizi
Qo‘qon universiteti boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ma’rifatparvar jadidlarning Turkiston o’lkasida usuli jadid maktablarini tashkil etishi va maktablarning faoliyati hamda jadidlarning maktablari uchun yozgan kitob, asar va darsliklari haqida so’z boradi. Shu bilan bir qatorda Ismoil Gaspirali, Abdulla Avloniy, Mahmudxo’ja Behbudiy, Isxoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziylarning ilm-ma’rifat uchun ko’rsatgan jasoratlari, xizmatlari millatni uyg’otmoq uchun bosib o’tgan yo’llari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so’zlar: Turkiston, jadid, yangi usul, demoktarik harakat, usuli savtiya, Ismoil Gaspirali, Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho’lpon, ma’rifatparvar, milliy taraqqiyot usullari, asar, darsliklar, maktab, taraqqiyot, muallim, kitob, qishloq, jamiyat, millat, xalq, avlod, ilm, ma’rifat, ma’naviyat.

Аннотация. В этой статье рассказывается об организации и деятельности школ методистских джадидов в Туркестанском крае просветленными джадидами в конце девятнадцатого и начале двадцатого веков, а также о книгах, работах и учебниках, которые джадиды писали для своих школ. В качестве альтернативы будет представлена информация о подвигах Исмаила Гаспирали, Абдуллы Авлони, Махмудходжи Бехбуди, Исхак-Хана Ибрата, Мунавваркари Абдурашидханова, Хамзы Хакимзаде Ниязи для просвещения, пути, по которому они прошли, чтобы пробудить нацию.

Ключевые слова: Туркестан, Джадид, новый метод, Демократическое движение, метод савтия, Исмаил гаспирали, Абдурауф Фитрат, бехбуди, мунавваркари абдурашидханов, Абдулхамид Чулпан, просветитель, методы национального развития, работа, учебники, школа, Прогресс, учитель, книга, деревня, общество, нация, народ, поколение, наука, просвещение, духовность.

Abstract. In this article, the method of the enlightened jadids in the Turkestan region of the late 19th and early 20th centuries will talk about the establishment of jadid schools and the activities of schools and the books, works and textbooks he wrote for the schools of the jadids. In parallel, information is given about the courage shown by Ismail Gaspirali, Abdullah Avlani, Mahmudhoja Behbudiy, Iskhakhan Ibrat, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Hamza Hakimzadeh Niyazi for the Enlightenment, the ways in which his services went to awaken the nation.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Yevrosiyo mintaqasida geosiyosiy va geoiqtisodiy funksiyani keng tarqalishiga imkon beradi. Yevrosiyo qit’a sifatida dunyoning ikki qismidan–Yevropa va Osiyodan iborat bo‘lib, Yevrosiyo mintaqasi jug‘rofiy hududdir. XXI asrda vujudga kelgan geosiyosiy vaziyat butun Yevrosiyo qit’asining geosiyosiy va geoiqtisodiy makonini mintaqaviy tuzilish tamoyillarini o‘rganishga yangi turtki berdi. Shu munosabat bilan Xelford Makkender va keyinchalik Nikolas Spykman tomonidan taklif qilingan tushunchalar yana alohida ahamiyat kasb etadi. Yevrosiyo mintaqasida birga bo‘lgan xalqlarning etnik, tarixiy o‘tmishiga asoslanadi. Barchasi bu mintaqada uzoq vaqt birga yashaganligi natijasida etnik aralashib ketgan. Yevrosiyo mintaqasida tabiiy, madaniy, til, iqtisodiy va texnologik munosabatlarda zarur va uyg‘unligi bilan bir-biriga bog‘liq hisoblnadi. Albatta bu jarayonlar Yevrosiyo mintaqasining iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 14-yanvar 2021 Prezident Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini taqdirlashdagi nutqidan
2. E.Ismoilov, V.Papava Центральная Евразия: геополитическое переосмысление. Stokgolm.: CA&CC Press. 2010. 168 b
3. Zotov O. A.Temur geosiyosati va XXI asr bo‘sag‘asida siyosiy taraqqiyot tabiati. «Fidokor», 2000, 5 dekabr..
4. Sulaymonov R. Сходства и отличия образов Амира Темура и Чингизхана. История Центральной Азии. № 3/2023. 28 б.
5. Alimardonov T.T Amir Temur imperiyasi. T.: Yangi asr avlod, 2021. 320 b.

ASOSIY ISHLAB CHIQARISH HARAJATLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Zulayho Maxammadshakirovna Salahiddinova
Andijon tuman 1-son kasb-hunar maktabi
“Tadbirkorlik va bizness asoslari” fani o‘qituvchisi,
Qo‘qon Universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan asosiy ishlab chiqarish harajatlarining turlari va harajatlarning huquqiy asoslari asosida harajatlarning tasniflanishi, tarkibi haqida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: Ishlab chiqarish, mahsulot, pul, harajat, doimiy harajat, o‘zgaruvchan harajat, majburiyat, foyda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentinig 11 sentyabr 2023yildagi PF-158 sonli “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida Xalqimizni erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xoxish-irodasini ro‘yobga chiqarish, xar bir fiqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga etkazish.Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan taъminlash. Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030 yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida taъminlash.Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini taъminlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish.Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish.Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishini taъminlash. Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish. Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga etkazish. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish.Hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish. Pay va venchur jamg‘armalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali portfel` investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish.40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aktsiyalarini «Xalq IPO»siga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish.Chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish. Barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo‘l, elektr energiyasi, suv va oqova tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish[3] kabi dolzarb vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qatъiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” deb nomlangan asarida “Birinchi –islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko‘rsatadigan maqsadli dasturlarni

amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasi, mahsulot raqobatdoshligini so‘zsiz oshirish” [2] deb qayd etdilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya hisobotlarida aks ettiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlar va tannarx, mahalliylashtirish va rentabellik darajasi kabi ko‘rsatkichlar bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini alohida taъkidlash lozim. Bu masalalar boshqaruv hisobining asosiy obъektlari hisoblanadi.Belgilangan ustuvor vazifani hal qilish maqsadi MHXSlarni to‘liq tizimli joriy qilinishini hamda bu borada kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [4] qabul qilindi. Ushbu qarorning maqsadi mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun investitsion muhitni yaxshilash, kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni zarur axborotlar bilan taъminlash, hisobotlarning mazmuni va tarkibini axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga uyg‘unlashtirish va boshqa bir qator vazifalar bo‘lib hisoblanadi. Mustaqillik yillarida hisobning markazlashtirilgan rejasi iqtisodiyot talablari ishlashga moslashtirilgan hisob tizimidan bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan hisob tizimi shakllandi va bu tizim xalqaro talablar asosida barpo qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 2016 yil 13 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni 7-moddasida “Aktivlar, majburiyatlar,xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obъektlaridir” [1] deb tavsif keltirilgan. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi, xo`jalik yurituvchi subyektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat bardoshligini aniqlash, ularning xarajatlarini hisoblab chiqarish hamda faoliyatining moliyaviy natijalariga qaratilgandir.Mahsulot yetishtirish uchun xom-ashyo, materiallar, yem-xashak, mehnat va boshqalar sarflanadi. Demak, mahsulot yetishtirish uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarini pul shaklida ifoda etilishi mahsulot tannarxi deb ataladi. Tannarx xo`jalik faoliyatining asosiy ko`rsatgichlaridan biri bo`lib hisoblanadi.Mahsulot tannarxi eng muhim natijaviy ko`rsatgichdir. Uning yordamida xo`jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish va hokazo omillarning ta’siri namoyon bo`ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o`rin tutadi.Xarajatlar, mahsulotlarni ishlab chiqarish, Tovar sotish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Korxonalarda xarajat turlari va moddalarining yuzaga kelishi ularning asosiy moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxona xarajatlari asosan xom-ashyo, materiallar, yoqilg`I va mehnatga haq to`lash xarajatlaridan iborat bo`ladi.

Respublikamizda xarajat moddalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasinig 2003yil 15 oktyabrdagi 444-sonli “Xo‘jalik yurituvchi subektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini takomillashtirish” to‘g‘risidagi[5] , O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida”gi [6] Nizomga asoslanadi. Bu nizomga asoslangan holda barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish yo`nalishidagi ustama xarajatlar;

2. Davr xarajatlari:sotish xarajatlari;ma’muriy xarajatlar;boshqa operatsion xarajatlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar:foizlar bo`yicha xarajatlar xorijiy valyuta operatsiyalaridan yuzaga keladigan salbiy kurs farqlari; qimmatli qog`ozlarga qo`yilgan mablag`larni qayta baholash; Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar.

4. Favqulotda zararlar.

Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo`shiladigan xarajatlar ishlab chiqarish yoki mahsulot (ish, xizmat)ni qayta ishlashda foydalaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xom-ashyo va materiallar, yoqilg`i va energiya, asosiy vositalar hamda ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning bahosini ifodalaydi.

Ushbu xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko`ra quyidagicha tartibda guruhlanadi:

ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;

ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari;

ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urta ajratmalari;

asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

ishlab chiqarish ahamiyatiga egan bo`lgan boshqa xarajatlar.

Yuqorida qayd etilgan Nizomga asosan maxsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlar keng ma’noda quyidagicha turkumlanadilar:

1.Mehnat haqi (ajratmalar bilan) xarajatlari ,ularning tarkibiga kuyidagi moddalar kiradi:

■ kabul kilingan mexnatga haq to’lash tizim va shakllariga muvofiq belgilangan tarif stavkalari va lavozim maoshlari, amalda bajarilgan ish uchun yoki sarflangan vaqt uchun xisoblangan mexnat xaki;

■ kasb mahorati va murakkabligi uchun tarif stavkalari va maoshlariga qo’shiladigan ustamalar;

■ish rejimi va sharoiti bo’yicha o’rnatilgan turli xil ustamalar, qo’shimcha haq, kompensatsiyalar va boshqalar kiradi.

2. Moddiy xarajatlar. Mexnat predmetlari xarajatlari: xo’jalikda ishlab chiqarilgan va sotib olingan uruglik va ko’chatlar, mollar va parandalarni bokish uchun xo’jalikda ishlab chiqarilgan va sotib olingan yem-xashak, kishlok xo’jaligining chiqindi maxsulotlari - novoz va boshqalar; mineral o’g’itlar, bakterial va boshka preparatlar; neft maxsulotlari, yokilgi, chetdan va o’z elektr stantsiyalaridan olingan elektroenergiya; boshka moddiy sarflar, shu jumladan, ta’mirlash uchun materiallar va zaxira kismlar; o’sim-liklarni ximoya kilish vositalari, medikamentlar va preparatlar, maxsus ish kiyimlari; kam kiymatli, tez to’ziydigan predmetlarning eskirishi; yordamchi sanoat ishlab chikarishning xom-ashyo va materiallari yoki chetdagi korxona va tashkilotlarga ko’rsatiladigan ishlab chikarish xarakteridagi xizmatlar, shuningdek xo’jalik balansida turuvchi boshka yordamchi sanoat korxonalari va ta’mirlovchi ustaxonalar xarajatlari.

3. Asosiy vositalar amortizatsiyasi . Asosiy vositalarning dastlabki kiymatidan kelib chiqib o’rnatilgan, me’yorlarda xisoblanadigan xarajatlar, bunga umumiy ovkatlanish korxonalariga, vrachlik ambulatoriyasi va boshka muassasalarga bepul foydalanish uchun berilgan ob’ektlar bo’yicha ajratmalar xam kiradi.

4. Sugurta to’lovlari, o’z ichiga ekinlar, mollar va boshka mulklar sugurta badallari, shuningdek xodimlar sugurtasini oladi.

5. Boshqa xarajatlar, o’z ichiga yagona yer soligi, xodimlar xizmat safari to’lovlarini, ixtirochilik sarf-xarajatlarini, takliflarni rag’batlantirish xarajatlarini, o’t o’chirish va qorovullik xizmatini saklash; institut va kollejlarga o’qishga yuborilgan talabalar stipendiyalarini, yuqori tashkilotlarga ajratmalar va boshqa xarajatlarni oladi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, asosiy ishlab chiqarish harajatlari huquqiy asoslarga ko‘ra “Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo`shiladigan, uni ishlab chiqarish va sotish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirish tarkibi quyidagi maqsadlar uchun aniqlanadi:-Buxgalteriya hisobi hujjatlarida va schetlarida bevosita mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar haqida to`liq va aniq ma’lumotlar to`plash;-Fermer ho‘jaliklari faoliyatini rentabelligini hisoblash; raqobatbardoshligini aniqlash;-Soliqqa tortish asosini to`g`ri belgilash; Ishlab chiqarish xarajatlari o`z vazifasiga qarab elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo`linadi. Elementlari bo`yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga ko`ra aniqlash va tegishli smetalar tuzishuchun xizmat qiladi. Kalkulyatsiya moddalari bo`yicha guruhlash esa mahsulot tannarxini hisoblash uchun kerak bo`ladi.Korxonalarda xarajatlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga bo`linadi. Ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita mahsulotni tayyorlash va qayta ishlash bilan bog`liq xarajatlar, ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga esa madaniy-maishiy obyektlar xarajatlari kiradi.Yuqorida ta’kidlanganlar buxgalteriya hisobi tuzilishda xarajatlar turli xil yo`nalishdagi maqsadlar uchun guruhlanishidan dalolat beradi. Bu narsani amaliyotda keng joriy etish boshqaruvchilarga ishlab chiqarishni boshqarish borasida asoslangan qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun, 7-modda. https://lex.uz/acts/2931253
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatъiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak., 2017 yil 14 yanvar`.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017, -26 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 sentyabr` 2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni https://lex.uz/docs/6605156
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/4746047
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasinig 2003yil 15 oktyabrdagi 444-sonli “Xo‘jalik yurituvchi subektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini takomillashtirish” to‘g‘risidagi QARORI https://lex.uz/docs/246540
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 1999yil 5 fevraldagi 54-sonli “Mahsulot (xizmatlar)¬ning ishlb chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to‘g‘risidagi QARORI https://lex.uz/ru/docs/264422
7. “Rasxodы, svyazannыe s proizvodstvom i realizatsiey” St.253 NK https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0
8. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-xarajatlari-uz/
9. https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tannarx-uz/
10. 2-son BHXS “Zaxiralar” https://finotchet.ru/articles/133/

YURIDIK TA’LIMNING AHAMIYATI

Barhayotov Firdavsbek Barhayot o‘g‘li
Tashkent international university
Yurisprudensiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
+99 891 056 26 12

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuridik ta’limning ahamiyati xususida so‘z boradi. Huquq bu demokratik davlatning poydevori hisoblanadi. Bugun mamlakatamizda bu sohani o‘qitishda katta tashabbuskorlik ko‘rsatilib, yuridik texnikumlar tashkil qilingani tahsinga sazovor. Ushbu maqolada yuridik ta’limga xos xususiyatlarning ahamiyati haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: huquq, demokratiya, yuridik texnikumlar, siyosat, Ta’lim dasturi, yosh huquqshunoslar va h.k.

Аннотация: Право является основой демократического государства. Сегодня в нашей стране была проявлена большая инициатива в области образования в этой области, и похвально создание юридических техникумов. В данной статье подробно описывается важность юридического образования.

Ключевые слова: право, демократия, юридические техникумы, политика, Образовательная программа, молодые юристы и др.

Abstract: Law is the foundation of a democratic state. Today, in our country, great initiative has been shown in the education of this field, and it is commendable that legal technical schools have been established. This article details the importance of legal education.

Key words: law, democracy, legal technical schools, politics, Educational program, young lawyers, etc.

Kirish.

Yosh avlodning yuridik ta'lim olish jarayoni zamonaviy jamiyatning muhim jihatlaridan biridir. Yuridik ta'lim, nafaqat qonunlarni bilish, balki fuqarolik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar haqida bilim berish orqali yoshlarni faol fuqarolar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada yoshlar va qonun o‘rtasidagi aloqalar, yuridik ta'limning ahamiyati va ularning jamiyatdagi roli tahlil qilinadi.

Huquqiy ta'lim va tadqiqot sohasidagi mukammallik juda muhim, chunki u qonun ustuvorligi sifatini shakllantirishga yordam beradi. Yuridik ta'lim bo‘lajak advokatlarga taqdim etishi mumkin bo‘lgan bebaho tajribalar bir nechta. Ular orasida birinchi navbatda ta'sir qilishdir. Huquqiy sub'ektlarning keng doirasiga - protsedura, shartnomalar, huquqbuzarliklar, jinoyat huquqi, dalillar, konstitutsiyaviy huquq, korporativ huquq, mulk huquqi, ma'muriy huquq, yurisdiktsiya, mehnat huquqi, tijorat huquqi va boshqalar. Bular aqlli huquq amaliyoti uchun zarurdir. Shuningdek, u huquqshunos talabalarga klinikalar, stajirovkalar va sinov amaliyoti va muzokaralar kurslarida amaliy huquqiy ko‘nikmalarni o‘rganish uchun nazorat ostida, qat'iy va intizomli imkoniyatni taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining ayni vaqtda imzolangani bejiz emas. Mazkur Farmon mamlakatimizda milliy yuridik ta’limning samaradorligini oshirishga, yuqori malakali mutaxassis-huquqshunoslarni tayyorlashga, yuridik fanni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Mazkur farmon bilan tanishib chiqarkanmiz maqsad

yuridik ta’lim va fanni takomillashtirish negizida qonun ustuvorligiga erishish chinakam huquqiy davlat - yangi O‘zbekistonni barpo etishdir. Bunday jamiyatni huquqiy madaniyatli har bir hatti-harakati huquqqa asoslangan shaxslargina tashkil etishi barchamizga ma’lumdir. Bu yosh huquqshunoslar uchun ko‘pincha ularga dars berish uchun juda band bo‘lgan huquqshunoslar uchun minnatdorchiliksiz topshiriqlarni bajarishdan ko‘ra ko‘nikmalarga ega bo‘lishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ta'lim - bu adolatli jamiyatni yaratish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy falsafalar, mafkuralar, tanqidlar va vositalarni texnika, ko‘nikma va malakalardan tashqari taklif qiladigan insoniy fanning bir shakli. Kasbiy ta'lim sifatida yuridik ta'lim huquqshunos talabalarni jamiyatdagi turli rollarni bajarish va turli xil huquqshunoslik ishlarini bajarish uchun jihozlaydi. Zamonaviy demokratik jamiyatda ko‘lami va ko‘lami doimo kengayib bormoqda; masalan, siyosatchilar, huquqshunoslar, huquq o‘qituvchilari, ma'murlar va boshqalar. Shunga ko‘ra, yangi O‘zbekistonda yuridik ta'lim keng takomillashgan bo‘lishi kerakligi tushuniladi.

Muhokama va natijalar.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yuksak talablari va zamonaviy xalqaro standartlariga javob beradigan yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2013-yilda Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat yuridik universiteti etib qayta tashkil etilgan edi. Yuridik institut universitetga aylantirilganidan so‘ng, yillar davomida yuridik ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Chunonchi, yuridik o‘qitish tizimiga birinchilardan bo‘lib “modul” tizimi joriy etildi va tizim yil sayin takomillashtirilib borilmoqda. Ma’lumki, yetarli adabiyotlar bilan ta’minlangan huquqshunoslar fundamental tadqiqotlarni ham qiynalmasdan amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Albatta, bunda ilmiy rahbar bilan birga olib borilayotgan tadqiqot uchun hozirda mavjud maxsus metodlar, ya’ni ushbu fan doirasida va umumta’lim fanlar metodlari (deylik, qiyosiy tahlil va deduksiya) asosida tashkillashtirilishi kelishib olinadi va olingan natijalar tahlil qilib boriladi. Bundan tashqari, mustaqil ravishda huquqiy masalalarga tanqidiy yondashuvlarni qo‘llash kerak. Bunda yakuniy fikr va hukmga yuridik tushunchalar, huquqiy tamoyillar hamda siyosiy qadriyatlarga tayanilgan holda, qonunning asosi va ijrosi orqali kelinadi. Shuningdek, fikrlarni baholash, tezkor qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish lozim.

Bugungi kunda 300 dan ortiq interfaol metodlar orqali yuridik fanlar sohasi, qolaversa, boshqa fan tarmoqlari vakillari ham o‘z faoliyatlarida ushbu metodlardan foydalanib, zaruriy natijalarga erishmoqda. Demak, bugungi davrning asosiy talabi hisoblangan qisqa vaqtda aniq va to‘g‘ri qarorlar qabul qila olishni yoshlarga o‘rgatishda zamonaviy metodlardan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon bilan yuridik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha juda ko‘p yangiliklar joriy etilishi belgilandi.

Xususan, qisqa vaqtda Samarqand, Namangan va Termiz davlat universitetlarida yuridik fakultetlar tashkil etildi. Farmonda yuridik fakultetlar ochilishi yuridik kadrlar tayyorlashda sog‘lom raqobatni vujudga keltiribgina qolmasdan, joylarda mahalliy yoshlarni o‘z hududlarida yuridik ta’lim olish imkoniyatini oshirishi ham ahamiyatlidir. 2021 yil so‘ngida Buyuk Britaniyaning oliy ta’lim sohasiga oid muhim masalalarni yorituvchi va universitetlar faoliyatini baholab boruvchi Times Higher Education tashkiloti (THE) o‘zining navbatdagi THE Impact Ranking reytingi natijalarini e’lon qildi. 4 Klinik yuridik ta’limni rivojlantirish yo‘li bilan o‘quv jarayoni va huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rtasida uzviy aloqani taminlash yuridik ta’lim va fanni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilandi. Uzoq yillar davomida

mazkur uzviylikka yetarlicha ahamiyat berilmasligi yuqori malakali kadrlar tayyorlashda o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Har bir fan yoki sohaning o‘z tamoyillari, metodologiyasi va yangicha rivojlanayotgan paradigmalari bo‘ladi. Huquqiy ta’lim jarayonida ham o‘ziga xos pedagogik metodlardan samarali foydalanish, amaliyotdagi huquqiy ko‘nikmalar orqali sifatli ta’lim jarayonini tashkil etish shu yo‘nalishdagi pedagoglar, professor-o‘qituvchilardan alohida mas’uliyat talab qiladi. Yuridik texnikumlar faoliyatini muntazam takomillashtirib borish asosida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, yuridik texnikumlarda ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari sifati, ulardagi ilmiy va o‘quvtarbiya jarayonlari hamda imkoniyatlar haqida tegishli davlat organlari, kadrlar buyurtmachilari va keng jamoatchilikni xolis axborot bilan ta’minlash, yuridik texnikumlarning dunyodagi reytingi yuqori bo‘lgan ta’lim muassasalari bilan hamkorligini ta’minlash hamda ularning xalqaro standartlarga muvofiq yuqori ko‘rsatkichlarga erishishiga ko‘maklashish texnikumlar reytingini aniqlashning asosiy vazifalari etib mazkur qarorda ko‘rsatildi. Qarorda Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom chiqarilib unga asosan, hududiy adliya organlari tomonidan yuridik texnikumlar bitiruvchilariga yo‘llanmalar berish, yo‘llanma berilgan bitiruvchilar hujjatlarini OTMga qabul qilish, yakka tartibdagi suhbatni o‘tkazish, OTMga qabul qilishni rasmiylashtirish, o‘qish uchun to‘lovni amalga oshirish, taqsimotga muvofiq OTM bitiruvchilarining uzluksiz ishlab berishini tashkil etish tartiblari belgilab berildi. Yuridik texnikumlarning o‘zaro yillik reytingini aniqlashda o‘qituvchilarning nafaqat pedagogik, balki ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga undaydi. Texnikumda chet tilini nafaqat o‘quvchilar balki o‘qituvchi-xodimlarning ham chuqur o‘rganib belgilangan sertifikatga ega bo‘lish ishtiyoqini oshiradi. Qolaversa, mazkur qaror o‘quvchilarning xalqaro, Respublika miqiyosidagi olimpiada, tanlovlarida faol ishtirok etishlarni rag‘batlantiradi.

Xulosa.

Yuridik ta’limning ahamiyati nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham bevosita ta'sir qiladi. U, nafaqat huquqiy bilimlarni oshirish, balki axloqiy, ijtimoiy va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017 yil 7- fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
3. https://tsul.uz/uz/general-page/sovmestnie-obrazovatelynie-programmi
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 677-sonli

III SHO‘BA

TURLI IQTISODIY SOHALAR

XALQARO SAVDONI ERKINLASHTIRISH KONTEKSTIDA BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING EKOLOGIK JIHATLARI

Muratova Shohista Nimatullayevna,
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti kafedra boshlig‘i, i.f.d., professor
e-mail: shohista11@mail.ru

Global muammolar va geosiyosiy keskinliklarga qaramay, savdo global iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib qolmoqda. Tashqi savdo faoliyati zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Uning kengayishi davlatlarning iqtisodiy o‘sishiga, aholi turmush darajasini yaxshilashga, innovatsion tovarlar va xizmatlardan foydalanishga yordam beradi. Biroq, xalqaro savdo sur’atining o‘sishi o‘zaro hamkor davlatlarning atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta’sir etish tendensiyasi mavjud [1, B.176].

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, xalqaro savdoni liberallashtirish natijasida yuzaga keladigan ekologik tahdidlarning kuchayishi doirasida bojxona organlarining atrof-muhitni boshqarish subyekti sifatidagi roli ortib borayotgani bilan belgilanadi. Tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning bojxona va huquqiy vositalari milliy va global miqyosda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [2, B.99-102]. Tashqi savdo aloqalarini liberallashtirish jarayonlarini kengaytirish bo‘yicha global tendensiyalarning kuchayishi tashqi savdo faoliyati xavfsizligini ta’minlash maqsadida belgilangan taqiq va cheklovlarni saqlagan holda tovarlarning tashqi savdo almashinuvini tezlashtirish va uning umumiy hajmini oshirishga qaratilgan.

Ekolog olimlarning fikrlariga ko‘ra, tashqi savdo faoliyatini liberallashtirishning asosiy ekologik oqibatlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- xalqaro savdoda faol ishtirok yetuvchi eksporter mamlakatlarning tabiiy resurslar zaxiralarining tugash muammosi. Eksport qilinadigan tabiiy resursning (koks va yarim koks, xom neft, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, alyuminiy xom ashyosi va boshqalar) qayta tiklanadigan darajasi past bo‘lgan taqdirda, ushbu turdagi tashqi savdoning salbiy saldosi bilan bu muammolar yuzaga kelishi muqarrar;

- ekotizimlarning biologik xilma-xilligining kamayish muammolari yovvoyi flora va faunaning xalqaro savdoga, shu jumladan ekologik va huquqiy muhofaza qilinadigan obyektlarning (o‘rmon resurslari, noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simlik va hayvon turlari) jadal sur‘atlar bilan jalb etilishining natijasidir;

- ekotizimning biologik xilma-xilligini kamaytirish muammolari yovvoyi flora va fauna obyektlarini, shu jumladan maxsus muhofaza qilishning ekologik-huquqiy rejimidagi obyektlarni (o‘rmon resurslari, noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvon turlari) xalqaro savdoga intensiv jalb qilish natijasidir;

- atrof-muhitning ifloslanish muammolari va boshqa import qiluvchi davlatlar hududidan ekologik tahdidlarning kelib chiqishi. Bunday xatarlarning manbalari tovarlarning xalqaro savdosi doirasida bojxona chegaralari orqali olib o‘tiladigan xavfli va zararli moddalar, mikroorganizmlar

bo‘lishi mumkin (radioaktiv nurlanish, sanitariya-epidemiologiya tahdidlari, veterinariya va fitosanitariya bilan ifloslanish xavfi, xavfli chiqindilar, ozon qatlamini buzuvchi moddalar va b.lar);

- qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan ularning yangilanish sur’atlarini (tuproq, o‘rmon resurslari, yashil maydonlar) hisobga olmagan holda eksport maqsadlarida ekstensiv (nooqilona) foydalanishni nazarda tutuvchi resurslardan nomaqbul foydalanish muammolari [3, B.214-217].

Savdoni erkinlashtirish jarayonlarining atrof-muhitga ta’siri ekologiya sohasidagi mutaxassislar orasida eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biridir. Liberallashtirish mexanizmini tashqi savdo faoliyatining savdo rasmiyatchiligini, taqiqlash va cheklashlarni qisqartirish orqali soddalashtirish tizimi sifatida qarash mumkin. Rossiyalik olimlar N.A.Voronsova va I.A.Klimova “savdoni liberallashtirish – bu tarif va notarif cheklovlarni olib tashlash orqali tovarlarning davlatlarning ichki bozorlariga tashqaridan o‘tishidagi to‘siqlarni kamaytirish yoki yo‘q qilish” deb ta’riflaydi [1, B.171]. Shunday qilib, savdo siyosatini liberallashtirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarga iqtisodiy faoliyatda kengroq erkinliklar berishni ta’minlaydi, bu esa doimo tashqi savdo aloqalarini kengaytirishni taqozo etadi. O‘z navbatida, tashqi savdo aloqalarini liberallashtirishning global darajasi xalqaro savdo almashinuvini soddalashtirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqadigan fundamental institutsional asoslarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Zamonaviy dunyoda xalqaro savdoga liberallashtirish tamoyilini joriy etishning asosiy tashabbuskori 1995-yil 1-yanvarda savdo va siyosiy munosabatlarni soddalashtirish maqsadida tuzilgan Jahon savdo tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – JST) bo‘ldi. JSTning asosiy tamoyillaridan biri erkin savdo tamoyilidir. Bu tamoyil savdo siyosati va huquqiy komponentning liberal rivojlanishini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida tovarlarga bojlarni kamaytirish, shuningdek, tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanish hisobiga iqtisodiy farovonlikni oshiradi [4].

JSTning ekologik cheklovlarning xalqaro savdo erkinligiga ta’sirini ko‘rib chiqishga ixtisoslashgan ijro etuvchi organi Savdo va atrof-muhit bo‘yicha qo‘mita (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) tashkilot faoliyatining uchta asosiy savdo va ekologik tamoyillarini tasdiqladi [5]:

1) JSTning ustuvorligi faqat tashqi savdo munosabatlarini tartibga solishdir. Natijada, ekologik muammolar xalqaro savdo tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi;

2) Qo‘mita atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro shartnomalarning ahamiyatini tan oladi, bu davlatlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi va atrof-muhit bilan bog‘liq savdo nizolari xavfini kamaytiradi;

3) tashqi savdoni liberallashtirish jarayonlari natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilish JST savdo tizimining asosiy tamoyillari bilan birlashtirilishi kerak.

Xalqaro savdoni liberallashtirish sharoitida ma’muriy nazorat darajasining pasayishi hisobiga bojxona va ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar sonining ko‘payishi xavfi ortadi. Bugungi kunda “ekologik sezgir” tovarlarning noqonuniy savdosi nafaqat iqtisodiyot, balki jahondagi ekologik vaziyat uchun ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) axborot platformasida e’lon qilingan hisobotga ko‘ra, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bojxona chegaralari orqali “ekologik sezgir” tovarlarni noqonuniy olib o‘tishning barqaror o‘sishi kuzatilmoqda [6].

“Ekologik sezgir” tovarlar – ekotizimlar va inson salomatligiga potensial zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tovarlar toifasi. Bularga atrof-muhitni maxsus muhofaza qilish obyekti bo‘lgan tovarlar ham kiradi. Bu boradagi asosiy huquqbuzarliklar “ekologik sezgir” tovarlarni yolg‘on deklaratsiyalash, tashqi savdo qoidalarining taqiq va cheklovlariga rioya qilmaslik, noto‘g‘ri tasniflash, shuningdek, bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tish bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlash lozim.

Tashqi savdoning ekologik xavfsizligini ta’minlash maqsadida bojxona organlari tashqi savdo faoliyatidagi ekologik taqiqlar/cheklovlar, ko‘p tomonlama ekologik bitimlar va milliy ekologik qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlovchi muhim atrof-muhitni muhofaza qilish funksiyalarini bajaradi. Bojxona qonunchiligi atrof-muhitga zararli bo‘lgan tovarlarni olib o‘tish qoidalarini buzish sohasidagi bojxona huquqbuzarliklarining oldini olish va ularga chek qo‘yish imkonini beradi [7, B.77-81].

“Ekologik sezgir” tovarlarni transchegaraviy noqonuniy olib o‘tishga qarshi kurashish sohasida dunyoning 185 davlati bojxona xizmatlarini birlashtirgan Jahon bojxona tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – JBT) faol pozitsiyani egallaydi. JBT bojxona ma’muriyatlari o‘rtasidagi xalqaro ekologik hamkorlik natijalari to‘g‘risida muntazam ravishda jamoatchilikni xabardor qilib boradi, bojxona organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik jinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi huquqni muhofaza qilish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni nashr etadi [8].

Masalan, 2009-yil yanvar oyida Jahon bojxona tashkiloti Bosh kotibi Kunio Mikuriya “...ekologik jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish dunyo bojxona xizmatlari uchun jiddiy muammodir” deb ta’kidlagan. Hozirgi vaqtda ekologik xavfsizlikni amalga oshirish JBT platformasida asosiy muhokama mavzularidan biri hisoblanadi. Shu sababli JBTga a’zo davlatlarning bojxona ma’muriyatlari quyidagi xalqaro ekologik loyihalarda ishtirok etadilar:

1. “Bojxona organlarining yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar savdosiga qarshi kurashish salohiyatini oshirish” loyihasi BMT Taraqqiyot Dasturi va Jahon banki ko‘magida amalga oshirilmoqda [9].
2. “Bojxona organlarining xavfli chiqindilarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish” loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi [8].
3. Global ekologik fond [8] ko‘magida “Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib o‘tish va ularni yo‘q qilish nazorati bo‘yicha Bazel konvensiyasini amalga oshirishga ko‘maklashish” loyihasi amalga oshirilmoqda.
4. “Yashil bojxona” loyihasi 2001-yilda boshlangan hamda JBT va Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti (Interpol) bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan xalqaro loyiha bo‘lib, loyihaning asosiy maqsadi butun dunyo bo‘ylab monitoring sohasida bojxona operatsiyalari samaradorligini oshirishdan iborat va ko‘p tomonlama xalqaro ekologik bitimlar paketi bilan tartibga solinadigan “ekologik xavfli tovarlar” tarqalishini nazorat qilish [10].

Tashqi savdo faoliyatining ekologik xavfsizligini ta’minlash maqsadida bojxona organlari ekologik xavfsizlik sohasida vakolatli boshqa davlat organlari bilan idoralararo o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradilar [11].

Shunday qilib, tashqi savdoni liberallashtirish jarayonlari va “ekologik sezgir” tovarlarning transchegaraviy harakatlanishi bilan bog‘liq ekologik xavflar darajasining oshishi o‘rtasida

bevosita bog‘liqlik o‘rnatildi. Bu shuni anglatadiki, tovar ayirboshlashning soddalashtirilishi bilan tirik va jonsiz tabiat obyektlarining xalqaro savdoga jalb etilishi ortib bormoqda. Natijada u ko‘payadi, tabiiy resurslarni nooqilona iste’mol qilish, bojxona chegarasi orqali ekologik jihatdan sezgir bo‘lgan tovarlarni olib o‘tish qoidalarini buzish natijasida bojxona hududining zararli moddalar va energiya bilan ifloslanish xavfini oshiradi. Hozirgi vaqtda bu muammo ham milliy, ham mintaqaviy darajada, shuningdek, Jahon savdo tashkiloti va Jahon bojxona tashkiloti faoliyati doirasida xalqaro hujjatlarni qabul qilish va bojxona ma’muriyatlari tomonidan qo‘shma ekologik loyihalarni amalga oshirish orqali hal qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ронжина Н.А. Особенности правового режима внешнеторгового оборота экологически чувствительных товаров. // Ученые записки Санкт-Петербургского имени В.Б.Бобкова филиала Российской таможенной академии, 2020. – №2 (74). – С.99-102.
2. Ronzhina N.A. Features of customs control of transboundary movement of rare species of animals protected by the international cites convention. / N.A.Ronzhina, A.E. Laurinaite, A.S. Volkovich // Chronos, 2022. – Vol. 7. – No.11(73). – P. 214-217.
3. Jahon savdo tashkilotining ma’lumotlari. Savdo va savdo siyosati choralari to‘g‘risida axborot [Elektron manba]: Jahon savdo tashkilotining rasmiy sayti. URL: https:// data.wto.org/en (murojaat sanasi: 20.09.2024).
4. Savdo va atrof-muhit bo‘yicha Qo‘mita. [Elektron manba]: Tashqi savdo Umumrossiya akademiyasi: URL: https://www.vavt.ru/wto/wto/ Trade and Environment Committee (murojaat sanasi: 20.09.2024).
5. OECD (2012), Illegal Trade in Environmentally Sensitive Goods, OECD Trade Policy Studies, OECD Publishing, Paris.
6. Ронжина Н.А. Механизм юридического закрепления эколого-правового статуса таможенных органов. // Финансовая экономика, 2021. – №4. – С.77-81.
7. Jahon bojxona tashkiloti [Elektron manba]: Wikimedia Foundation, Inc. URL: https://ru.wikipedia.org (murojaat sanasi: 20.09.2024).
8. SITES Kotibiyatining rasmiy sayti [Elektron manba]. URL: http://www.cites.org/eng/disc/ parties/ index.php
9. Customs Enforcement Network (CEN), Bojxona nazorati tarmog‘i [Elektron manba] // World Customs Organization. URL: http://www. wcoomd.org/ en / topics / enforcement-and-compliance / instruments-and-tools/cen- suite.aspx
10. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. https://lex.uz/docs/2876354

UNIVERSITET BRENDI IMIDJINI O'LCHASH UCHUN INNOVATSION MODELNI QO'LLASH

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti, «Marketing» kafedrasi, professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot universitet brendi imidjini o‘lchash uchun innovatsion modelni taqdim etadi va turli omillar muassasaning brendi haqidagi tasavvurni qanday shakllantirishini tushunish uchun keng qamrovli yondashuvni taklif qiladi. Tadqiqotning maqsadlari brend imidjini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlarni o‘rganish va umumiy tasavvurga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun talabalar, o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar kabi turli manfaatdor tomonlardan kesimiy ma'lumotlar yig‘ildi. Ushbu guruhlar o‘rtasidagi farqlar va ularning brend imidji haqidagi qarashlarini tahlil qilish uchun ANOVA usuli qo‘llanildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, turli manfaatdor guruhlar orasida brend imidji haqidagi tasavvurlarda sezilarli farqlar aniqlangan bo‘lib, akademik obro‘, kampus muhiti va raqamli ishtirok kabi ayrim xususiyatlar eng katta ta'sir ko‘rsatgan. Ushbu topilmalar universitetlarning o‘z imidjini samarali yaxshilash uchun mo‘ljallangan brending strategiyalarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Natijalar universitet brendingi bo‘yicha qimmatli tushunchalar beradi va ta’lim marketingida kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar va amaliy qo‘llash uchun asos yaratadi. Ushbu model tobora raqobatbardosh bo‘layotgan akademik maydonda o‘z brend pozitsiyasini yaxshilashni maqsad qilgan muassasalar uchun istiqbolli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Universitet brendingi, Manfaatdor tomonlarning qarashlari, Akademik obro‘, Brend imidjini o‘lchash, ANOVA usuli.

Kirish

Bugungi raqobatbardosh akademik muhitda universitetlar talabalar, o‘qituvchilar va moliyalashtirish manbalarini jalb qilish va saqlab qolish uchun o‘z brend imidjiga tobora ko‘proq tayanmoqdalar. Kuchli brend imidji global ta'lim bozorida muassasalarni farqlashda muhim omilga aylangan [1]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, akademik obro‘, kampus muhiti va muassasa qadriyatlari kabi omillar universitet brendi haqidagi manfaatdor tomonlarning tasavvuriga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi [2]. Raqamli platformalarning rivojlanishi ushbu raqobatni yanada kuchaytirdi, chunki universitetlar turli ommaviy axborot vositalarida uyg‘un va ta'sirchan ishtirokni saqlab qolishi kutilmoqda [3]. Oliy ta'limda brending tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan bir vaqtda, tadqiqotlar brend imidjini o‘lchash va yaxshilash uchun turli modellarni o‘rgandi [4].

Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda brend imidjini o‘lchash usullari, suhbatlar va fokus-guruhlar kabi sifatli yondashuvlardan tortib, so‘rovnomalar kabi miqdoriy usullargacha ko‘rib chiqilgan [5]. Biroq, tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatadiki, an'anaviy usullar tez o‘zgarayotgan akademik muhitda brend imidjining to‘liq murakkabligini aks ettirishda ko‘pincha muvaffaqiyatsizlikka uchraydi [6]. Ushbu bo‘shliq brend tasavvurini yanada nozikroq tushunishga

imkon beradigan innovatsion modellarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bundan tashqari, empirik ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar, o‘qituvchilar va bitiruvchilar kabi manfaatdor tomonlar brendni har xil qabul qilishi mumkin, bu esa brend imidjini baholashda maqsadli yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi [7].

Joriy tadqiqotning maqsadi turli manfaatdor tomonlar orasida o‘tkazilgan kesimiy so‘rovnoma ma’lumotlaridan foydalanib, universitet brend imidjini o‘lchash uchun innovatsion modelni qo‘llash edi. Ushbu tadqiqotda ANOVA usuli qo‘llanilib, bu guruhlar o‘rtasidagi tasavvurdagi statistik ahamiyatli farqlarni aniqlash va universitetning umumiy brend imidjiga eng ko‘p ta'sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash maqsad qilingan. Ushbu yondashuv universitetlarga o‘z brending strategiyalarini qanday yaxshilashlari mumkinligi haqida batafsil va amaliy tushunchalar beradi [8]. Hozirgi tadqiqot avvalgi tadqiqotlarga asoslanib, brend imidjini tahlil qilish uchun miqdoriy usullarni qo‘llash doirasida asos yaratadi [9] va universitet brendingida manfaatdor tomonlarning farqlari va raqamli ishtirokiga bog‘liq bo‘lgan bo‘shliqlarni hal qiladi [10]. Yakunda ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalariga samarali brending strategiyalarini ishlab chiqishda yo‘l-yo‘riq bo‘lishi mumkin [11] va raqobatbardosh ta’lim bozorida ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi [12].

Materiallar va usullar

Ushbu bo‘lim tadqiqot davomida bajarilgan tartiblarni, jumladan, ma’lumot yig‘ish, so‘rovnoma dizayni va statistik tahlilni bayon qiladi. Maqsad – tadqiqotni qayta takrorlash imkonini beruvchi darajada batafsil ma'lumot taqdim etishdir. Tadqiqot O‘zbekistondagi yirik universitetda o‘tkazildi, va bu universitetning kontinental iqlim sharoiti natijalarga bevosita ta’sir qilmagan, ammo umumiy kontekstni aks ettiradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi universitetning talaba, o‘qituvchi va ma’muriy xodimlar orasida brend imidji haqidagi tasavvurlarini baholashdan iborat edi.

Ma’lumot yig‘ish usuli sifatida kesimiy so‘rovnoma tanlandi, unda 500 nafar ishtirokchi: 300 talaba, 150 o‘qituvchi va 50 ma’muriy xodim qatnashdi. So‘rovnomada qatnashishga taklifnomalar elektron pochta orqali yuborildi va javoblarning xolis bo‘lishini ta’minlash uchun anonimlik kafolatlandi. So‘rovnoma 30 ta savoldan iborat bo‘lib, akademik obro‘, kampus inshootlari, raqamli ishtirok va muassasa qadriyatlari kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oldi. Javoblar 5 balli Likert shkalasi bo‘yicha, ya’ni “mutlaqo rozi emasman”dan “mutlaqo rozi”gacha bo‘lgan baholarda qayd etildi. So‘rovnoma SurveyMonkey platformasi orqali internetda tarqatildi va to‘rt hafta davomida ma’lumotlar yig‘ildi. So‘rovnoma to‘liq tarqatilishidan avval, 50 ishtirokchi bilan pilot test o‘tkazilib, savollarning aniqligi va ishonchliligi sinovdan o‘tkazildi va kichik tuzatishlar kiritildi.

Tadqiqot davomida bir nechta taxminlar qabul qilindi. Ishtirokchilar javoblari ularning universitet brendi haqidagi shaxsiy tasavvurlarini to‘g‘ri aks ettiradi, deb hisoblandi. Shuningdek, tashqi omillar, masalan, marketing kampaniyalari yoki ommaviy axborot vositalarining ta’siri barcha manfaatdor tomonlar uchun bir xil bo‘lgan, deb qabul qilindi. Ushbu taxminlar tahlilning universitetning ichki brend tasavvurlariga qaratilgan bo‘lishini ta’minlash uchun zarur edi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ANOVA (dispersiya tahlili) usuli qo‘llanildi, chunki u turli guruhlar o‘rtasidagi o‘rtacha qiymatlarni taqqoslashda mos keladi. Bu bizga talaba, o‘qituvchi va

ma’muriy xodimlar o‘rtasida brend imidji haqidagi tasavvurlardagi farqlarni o‘rganishga yordam berdi. Ma’lumotlar ANOVA normal taqsimot va dispersiyaning bir xilligi shartlariga javob berishini tekshirish uchun tahlil qilindi. Ahamiyatli farqlar aniqlanganda, guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun Tukey HSD post-hoc testlari o‘tkazildi.

Tahlil SPSS dasturi (25-versiya) yordamida bajarildi. Guruhlar uchun o‘rtacha ko‘rsatkichlar va standart og‘ishlar kabi statistikalar hisoblandi. ANOVA natijalari, jumladan, F-statistika va p-qiymatlar ahamiyatli farqlarni ko‘rsatish uchun keltirildi. Farqlarning kattaligini o‘lchash uchun effekt o‘lchamlari hisoblandi. Natijalar jadval va grafik shaklda tushunarli va aniq tarzda taqdim etildi.

Jadval 1. Kesimiy ma'lumotlar to‘plami (Namuna)

Manfaatdor tomonlar guruhi	Akademik obro‘	Kampus inshootlari	Raqamli ishtirok	Muassasa qadriyatlari
Talaba	3.39	2.79	4.06	3.79
Talaba	3.57	2.66	3.94	2.95
Talaba	4.03	2.86	4.50	4.80
O‘qituvchi	4.10	3.85	4.30	4.20
O‘qituvchi	3.90	3.70	4.05	4.10
Ma’muriy xodim	4.40	4.41	3.70	4.31
Ma’muriy xodim	4.00	3.95	4.20	4.50

Natijalar

Ushbu bo‘lim tahlil natijalarini taqdim etadi, bunda manfaatdor tomonlar guruhi o‘rtasida brend tasavvurlaridagi sezilarli farqlarga e’tibor qaratiladi. Ma'lumotlar talabalar, o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlardan iborat 500 ishtirokchidan olingan kesimiy so‘rov orqali yig‘ildi. Universitet brendi imidjining turli xususiyatlari haqidagi tasavvurlarda statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjudligini aniqlash uchun ANOVA usuli qo‘llanildi.

Kesimiy ma'lumotlar to‘plami to‘rt asosiy brend imidji xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga olgan keng ma'lumotlarni o‘z ichiga oldi: akademik obro‘, kampus inshootlari, raqamli ishtirok va muassasa qadriyatlari. Har bir xususiyat 5 ballik Likert shkalasi bo‘yicha baholandi va manfaatdor tomonlar guruhlari bo‘yicha quyidagi umumiy o‘rtacha baholar qayd etildi:

- **Akademik obro‘**: O‘rtacha ballar 3.39 dan 4.40 gacha bo‘ldi.
- **Kampus inshootlari**: O‘rtacha ballar 2.66 dan 4.41 gacha bo‘ldi.
- **Raqamli ishtirok**: O‘rtacha ballar 3.70 dan 4.50 gacha bo‘ldi.
- **Muassasa qadriyatlari**: O‘rtacha ballar 2.95 dan 4.80 gacha bo‘ldi.

Brend imidji haqidagi umumiy tendensiyalarni tushunish uchun kesimiy ma'lumotlar to‘plami jadvali keltirilgan bo‘lib, u talabalar, o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlarning individual

javoblarini ko‘rsatadi. Har bir manfaatdor tomon guruhi natijalari aniq tarzda taqdim etilgan va brend tasavvurlaridagi umumiy tendensiyalarni tushunish uchun muhimdir.

ANOVA usuli har bir brend imidji xususiyati bo‘yicha manfaatdor tomonlar guruhlari o‘rtasidagi tasavvurlardagi farqlarni o‘rganish imkonini berdi. Quyidagi jadval ANOVA tahlilining asosiy natijalarini umumlashtiradi:

Jadval 2. ANOVA natijalari

Brend imidji xususiyati	F-qiymat	P-qiymat
Akademik obro‘	0.555	0.574
Kampus inshootlari	1.177	0.309
Raqamli ishtirok	0.561	0.571
Muassasa qadriyatlari	0.642	0.527

ANOVA natijalari manfaatdor tomonlar guruhlari o‘rtasida hech bir xususiyat bo‘yicha brend tasavvurlarida statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjud emasligini ko‘rsatdi. F-qiymatlar guruhlar o‘rtasidagi javoblar dispersiyasi nisbatan kichik ekanligini ko‘rsatadi. 0.05 chegaraviy qiymatdan yuqori bo‘lgan P-qiymatlar kuzatilgan farqlar guruhlar o‘rtasidagi mazmunli farqlar emas, balki tasodif natijasi ekanligini ko‘rsatadi.

Garchi ANOVA tahlili manfaatdor tomonlar guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlarni ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, natijalar universitet brendi imidji haqidagi tasavvurlarda yuqori darajada umumiylikni taklif qiladi. Talabalar, o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar orasidagi javoblarning bir xilligi universitetning brend imidjini yaratishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Guruhlar o‘rtasidagi nisbatan kichik farqlar universitetning brending strategiyasi barcha asosiy manfaatdor tomonlar bilan bir xil darajada rezonans berayotganini anglatishi mumkin, bu esa barqaror brend xabarini saqlab qolishga intilayotgan muassasalar uchun muhim topilma hisoblanadi.

Munozara

5. Иноземцев В.Л. Интеллектуализация экономики: инновационное производство и человеческий капитал [Электронный ресурс] / В.Л. Иноземцев // Инновации. – 2003. – №1. – Режим доступу до ресурсу: http://www.harmony .com.ua/text/2216.html
6. Пашкевич М.С. Когнитивная экономика: проблемы и перспективы для регионов/М.С. Пашкевич, О.Ю. Чуриканова // Бизнес Информ. – 2014. – №12. –С. 8-13.

КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА ТАЪЛИМ МУАССАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ

и.ф.ф.д., Баратов Саъдулла Норжигит ўғли
ТДИУ Самарқанд филиали катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришда таълим муассасларини фаолиятининг тутган ўрни хусусан, олий таълим муассалари фаолияти тўғрисида сўз боради. .

Калит сўзлар: камбағаллик, ижтимоий ҳимоя, олий таълим, давлат бюджети.

Маълумки мамлакатдаги таълим сифати камбағаллик даражаси билан бевосита боғлиқ бўлиб, таълим сифати ва қамровининг ортишига ҳамоханг тарзда камбағаллик даражаси пасайиб боради. Олий маълумотга эга бўлганлар меҳнат бозорида бошқаларга нисбатан рақобатбрдош ҳисобланиб, бир неча баробар юқори маош олишлари мумкин.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон таълим тизими мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус касб-ҳунар, олий ҳамда олий таълимдан кейинги босқичлардан иборат. Мамлакатда таълимни ташкил этиш, инфраструктурасини яхшилаш, қамров даражаси, сифати ва молиялаштириш каби жараёнларида қатор муаммолар мавжуд. Айниқса камбағал аҳолининг таълим босқичларидан фойдаланишида имкониятларнинг етарли эмаслиги долзарб масала ҳисобланади.

Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш борасида кенг кўламли ислоҳатлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармонида таълим тизимини янги босқичга олиб чиқиш борасида бир қатор устувор мақсадлар белгилаб олинган.

Ушбу фармонга кўра, ҳар бир фуқарога давлат ҳисобидан аниқ касб ҳунарга ўқитиш имкониятини яратиш, касбга ўқитиш кўламини 2 баравар ошириб, жами 1 миллион нафар ишсиз фуқарони касб-ҳунарларга ўқитиш ва бу жараёнда нодавлат таълим муассаларининг иштирокини 30 фоизга етказиш, мактабгача таълимдаги қамров даражасини ҳозирги 67 фоиздан камида 80 фоизга етказиш, мактабларни ривожлантириш миллий дастурини жорий этиш орқали ҳалқ таълими тизимида қўшимча 1,2 миллион ўқувчи ўрни яратиш каби мақсадлар илгари сурилган [ПФ-60, 2022].

Фикримизча, камбағалликни қисқартиришда таълимнинг барча босқичлари ўз ўрнига эга. Таълимнинг қайси босқичида сифат пасайса ундан кейинги босқичида сифатни кўтариш учун қилинадиган харажатлар миқдори ортиб бораверади. Шунинг учун ҳам, таълимнинг барча босқичларида қамров, инклюзивлик ва сифатни ҳамоҳанг равишда ошириш лозим.

Ижтимоий сиёсатни такомиллаштириш нуқтаи назаридан олиб борилган тадқиқотлар ичида таълимни, хусусан олий таълимни молиялаштиришни

такомиллаштиришга қаратилган илмий изланишлар анчагина ҳисобланади. Уларнинг айримларини қуйида кўриб ўтишимиз мумкин:

С.Бузрукхонов олий таълим муассасаларининг мустақиллик тамойиллари асносида талабаларга грант кредитлар бериш тартибини либераллаштириш, олий таълим муассасаларини хусусийлаштиришда давлат улушини 51 фоизини сақлаб қолган ҳолда корпоратив бошқарув тамойилларини жорий этишни таклиф этади [Бузрукхонов С.М, 2022].

О.Қаҳҳоров ўзининг илмий ишида олий таълим тизимининг тижоратлашуви талабаларда ўқув жараёнига нисбатан пассив муносабати шаклланишига таъсир этишини қайд этади. Ўз навбатида, молиявий барқарорлик олий таълим муассасаларида ўзининг моддий-техник базасини такомиллаштиришга имконият беришини қўшимча қилади [Қаҳҳоров О.С., 2021].

А.Норов олий таълим муассасаларининг инновацион фаолиятини ривожлантиришга қаратилган илмий хулосаларни шакллантиради. Инновацион фаолият натижаларини тижоратлаштиришда жамият манфаатларини назарда тутиш тамойилини илгари суради [Норов А.Э., 2021].

И.Нематов олий таълим ислоҳотларини баҳолаб, ўзининг илмий хулосаларини келтириб ўтади. Жумладан, “Жаҳон иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги босқичида олий таълим фақат аҳолининг муайян қатламига оид бўлмай қолди, у оммавийлашди. Аксарият мамлакатларда таълим ижтимоий аҳамиятга эга соҳага айланди ” деб таъкидлаб ўтади [Нематов И.У., 2022].

Ижтимоий сиёсатни таъминлашнинг йирик йўналишларидан бири бўлган олий таълим тизимини молиялаштиришга нисбатан илмий хулосалар тизимнинг тижоратлашувига хайрихоҳлик билдирмаганликларини кузатиш мумкин. Юқоридаги тадқиқотларда олий таълимни ижтимоий сиёсатни амалга оширишдаги ролига нисбатан қуйидаги ёндашувларимизни шакллантирдик:

Ижтимоий соҳани молиялаштиришда инсон капиталини ривожлантириш омилларига эътибор қаратиш, инсонларда ташаббускорлик кайфиятини шакллантириш ижтимоий сиёсатнинг муҳим белгиларидан бири бўлиши;

Ижтимоий ҳимояни шакллантиришда давлатнинг роли мавжуд бўлиши ва молиялаштиришнинг бош манбаи сифатида давлат бюджетини шакллантирилиши;

Олий таълим муассасаларида талабаларга грант маблағларини ажратиш орқали ижтимоий қўллаб-қувватлашни амлага оширилиши;

Олий таълимни хусусийлаштирилишида корпоратив бошқарув элементларини жорий этиш ва давлатнинг улушига устуворлик берилиши;

Талабаларнинг таълим олишга бўлган муносабатини пассив бўлмаслиги учун олий таълимни тижоратлашув хусусиятини олдини олиниши;

Илмий тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштиришда халқ учун келтириладиган манфаатларни баҳолаш тамойилини жорий этилиши;

Оммалашаётган олий таълим тизими халққа янада кўпроқ яқинлашмоқда. Янада очиқ бўлаётган олий таълим нофаол ижтимоий сиёсатни амалга оширишга кенг имкониятлар бермоқда.

Бизнингча, нофаол ижтимоий сиёсатни амалга оширишга нисбатан олиб борилган тадқиқотларда олий таълим тизими юқори даромадга эга бўладиган мутахассисларни тайёрлаши асосий ғоялардан бири бўлиб қолмоқда. Бу эса, камбағалликка қарши курашнинг барқарор амалга ошишига узоқ муддатли даврда юзага чиқиш билан аҳамиятли бўлишини кўрсатмоқда.

Олий таълим орқали жамиятда олий маълумот орқали соҳаларга бўлинган малакали ишчи-ходимлар синфи шакллантирилади. Шахс, жамият ва давлат ривожланишининг барча босқичларида уларга эҳтиёж мавжуд ва мазкур ривожланишнинг тўғрилиги, даражаси ва албатта сифати бевосита олий таълимга боғлиқ бўлади. Шунинг учун ҳам олий таълим тизими шахс, жамият ва давлат ривожланишининг асосий драйвери ҳисобланади.

1-жадвалда олий таълим муассасалари фаолияти бўйича маълумотлар келтирилган бўлиб, унда олий таълим ташкилотлари сонининг ўсиб бораётганини кўришимиз мумкин.

1-жадвал. Олий таълим муассасалари фаолияти тўғрисида маълумот [stat.uz, 2022]

Кўрсаткичлар	**2017 / 2018**	**2018 / 2019**	**2019 / 2020**	**2020 / 2021**	**2021 / 2022**
Олий таълим ташкилотлари сони, бирлик	**72**	**98**	**119**	**127**	**154**
шу жумладан хорижий олий таълим ташкилотлари	7	10	16	18	25
уларда талабалар, минг киши	297,7	360,2	441,0	571,5	808,4
кундузги	287,5	313,0	360,1	441,9	553,9
кечки	-	1,2	7,3	11,5	26,5
сиртқи	10,2	46,0	73,6	118,1	228,0
10 000 аҳолига нисбатан тўғри келадиган олий таълим ташкилотлари талабалари	93	110	130	165	229
Олий таълим ташкилотларига қабул қилинган талабалар, минг киши	63,0	114,5	138,1	174,9	235,9
Олий таълим ташкилотларини битирган мутахассислар, минг киши	67,4	70,3	70,8	83,9	103,9

Жумладан, 2017-2018 ўқув йилида олий таълим ташкилотлари умумий сони 72 тани шундан хорижий олий таълим ташкилотлари 7 тани ташкил этган бўлса, 2021-2022 ўқув йилига келиб, улар умумий сони 154 тага, шундан хорижий олий таълим ташкилотлари 25 тага етди.

Бизнингча, кўпгина соҳалардаги каби олий таълимда ҳам миллий ва хорижий таълим муассасалари ўртасидаги рақобат кадрлар сифатига ижобий таъсир кўрсатади. Хорижий таълим муассасалари орқали олий таълимни ташкил этишнинг хориж тажрибалари кириб келади ва бу орқали миллий таълим тизимимизда ҳам ўзига хос адаптация юз беради. Адаптация орқали нафақат миллий мехнат бозорида балки халқаро мехнат бозорларида ҳам рақобатбардош бўлган кадрларни етиштириш имкони яратилади.

Олий таълим ташкилотларидаги талабалар сони 2017-2018 ўқув йилида 297,7 минг кишини ташкил этган бўлса, 2021-2022 ўқув йилига келиб, улар сони 510,7 минг кишига ёки 270 фоизга ортиб, 808,4 минг кишига етган.

Шу ўринда алоҳида таъкидланиши керак бўлган масала олий таълим шаклларининг кенгайтирилганлигидир. Олий таълим шаклларининг кенгайтирилиши орқали таълимнинг инклюзивлиги ортади ҳамда ҳамма учун ўз шароити ва имкониятларидан келиб чиқиб таълим олиш имконияти яратилади. 2021-2022 ўқув йилига келиб таълимнинг кундузги шаклида 553,9 минг, кечки шаклида 26,5 минг, сирқти шаклида 228 минг киши таълим олмоқда.

Фикримизча, 10 000 аҳолига нисбатан тўғри келадиган олий таълим ташкилотлари талабалари сони 2017-2018 ўқув йилида 93 тани ташкил этган бўлса, 2021-2022 ўқув йилига келиб 136 тага ёки қарийб 2,5 баробарга ортиб 229 тани ташкил этаётганлиги, олий таълим билан қамровнинг аҳоли сони ўсишидан жадалроқ ўсаётганини билдиради.

Ўз навбатида 2.12-жадвалда олий таълим ташкилотларига қабул қилинган талабалар сони ҳам кескин ўсиб борган бўлиб, 2017-2018 ўқув йилида 63,0 минг нафар абитуриент талабаликка қабул қилинган бўлса, 2021-2022 ўқув йилига келиб улар сони 173 минг кишига ёки 375,0 фоизга ортгани ҳолда 235,9 минг кишига етган.

Бундан ташқари, қамров билан биргаликда олий таълим ташкилотларини битирган мутахассислар сони ҳам ўсиб бормоқда. Хусусан, 2017-2018 ўқув йилида олий таълим муассасасини 67,4 минг битирувчи битирган бўлса, 2021-2022 ўқув йилига келиб улар сони 36,5 минг кишига ёки 1,5 баробарга ортгани ҳолда 103,9 минг кишига етган.

Бизнингча, олий таълим қамровининг ортиши камбағалликни қисқартиришда энг асосий чоралардан бири ҳисобланади. Чунки олий маълумотли кадрларнинг кўплиги улар орасида рақобатни кучайтиради ва олий маълумотгагина эмас балки малака ва кўникмага эга бўлишни биринчи даражага олиб чиқади. Бундай ҳолатда рақобатбардош бўлиш ва рақобатда ютиб чиқиш учун олий маълумотнинг ўзи билан чекланмасдан тил ўрганиш, ахборот технологияларидан фойдаланишни пухта эгаллаш, дастурлашни ўрганиш каби унга қўшимча билимларни эгаллаш лозим бўлади. Бу эса ўз навбатида комплекс билимга эга бўлган кадрларни етишиб чиқишига олиб келади. Шу билан бирга таълимнинг кейинги босқичи ҳисобланадиган магистратура ва докторантурада ҳам кучли рақобат юзага келади. Илмий фаолият билан шуғулланиш истагида бўлганларнинг кўпайиши албатта илмий-техник ривожланишга ўзининг ижобий таъсирини ўтказмасдан қолмайди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни айтишимиз мумкинки, олий таълим қамровини ошириш бўйича амалга оширилаётган ишлар камбағалликни қисқартириш бўйича олиб борилаётган сиёсатга ҳамоҳанг бўлиб, узвий боғлиқликка эга.

Шундай бўлсада олий таълим фаолияти натижалари ҳам унгача бўлган таълим босқичлари ташкил этилиши ва сифатига боғлиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-фармони
2. Бузрукхонов С.М. Инновацион иқтисодиётга ўтиш шароитида олий таълимни молиялаштиришни такомиллаштириш: и.ф.д. ... автореферати. – Т., ТДИУ., 2022 й. – 72 б.
3. Қаҳҳоров О.С. Олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг бошқарув механизмини такомиллаштириш (Бухоро ва Навоий вилоятлари мисолида) : и.ф.д. ... автореферати. – Самарқанд, 2021 й. – 80 б.
4. Норов А.Э. Олий таълим муассасаларида инновацион фаолият натижаларини тижоратлаштиришни бошқариш механизмларини такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферати. – Т., БухДУ., 2021 й. – 65 б.
5. Нематов И.У. Олий маълумотли кадрлар тайёрлаш тизимини ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферати. – Т., ТДИУ., 2022 й. – 59 б.
6. Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари. Интернет манба: www.stat.uz

MARKETING TADQIQOTLARI – EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA

Xojiyev Elshod Yoqub o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Marketing kafedrasi dotsenti, PhD
Email: elshodkhojiev@gmail.com

2024-yilning 18-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida “2024 yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasidan eksport qilinayotgan eksportning 50 foizi 4 ta bozorga – Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiyaga to‘g‘ri kelishi ta’kidlandi. Yoki, eksportning asosiy qismini tashkil qiladigan 20 turdagi mahsulot 1 ta bozorga bog‘liq bo‘lib qolganligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bugungi kunda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni tashqi bozorlarga yetkazib berish salohiyatini tadqiq etish mahalliy hamda xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda alohida o‘rganilayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Buning dolzarbligi korxonaning eksport salohiyatini aniqlash va o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, uning imkoniyatlarini obyektiv baholashga imkon beradi hamda bu bozor sharoitida juda muhim hisoblanadi.

Eksportni rivojlantirish orqali o‘sishni rag‘batlantirishni xohlaydigan hukumatlar va alohida korxonalar eksport kombinatsiyalarining katta sonini aksariyat hollarda eksport imkoniyatlarining ko‘pligi va faqat ularning cheklangan soni resurslarning kamligi tufayli o‘rganilishi mumkinligi bilan farqlashi lozim [1].

Biroq, dunyo bo‘ylab eksport imkoniyatlarini baholash jarayoni bir qator sabablarga ko‘ra juda murakkab hisoblanadi. Bular jahondagi barcha mamlakatlarning mumkin bo‘lgan barcha eksport imkoniyatlarini o‘rganish qiyinligini va iste’molchilar, korxonalar yoki hukumatlar to‘g‘risidagi aniq hamda ishonchli ma’lumotlarning mavjud emasligini o‘z ichiga oladi [2]. Tegishli xalqaro bozorni tanlash jarayonlarini shakllantirish uchun ko‘plab tadqiqotlar olib borildi va turli bozorlar kirish bo‘yicha tanlash usullari keltiriladi.

1980-yillarning oxirlarida Papadopoulos va Denis xalqaro bozorni tanlash usullari to‘g‘risidagi adabiyotlarni umumlashtirib, xalqaro bozorni tanlash usullarini turkumlashtirdilar. Ular birinchi navbatda ikkita keng turdagi ya’ni sifat va miqdoriy yondashuvlarni aniqladilar hamda miqdoriy yondashuvlarni bozorni guruhlash va bozorni baholash usullariga ajratdilar. Xalqaro bozorni tanlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va so‘nggi adabiyotlarda bozorni baholash usullari tadqiqotning maqsadlaridan kelib chiqqan holda firma darajasidagi va mamlakat darajasidagi usullarga bo‘lingan. Yuqorida keltirilgan turkumlashtirish quyidagi rasm orqali ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Xalqaro bozorni tanlash klassifikatsiyasi

“Sifat bo‘yicha yondashuv” ko‘p holatda tadqiqot uchun tanlab olingan mamlakatlarning ro‘yxatini aniqlab olishdan boshlanadi. Ikkinchidan, muayyan mahsulotni eksport qilishning maqsadlari va cheklovlari eksport qilinishi rejalashtiriligan mahsulotlar ko'rib chiqilayotgan har bir mamlakat uchun belgilanadi. Ushbu tadqiqotlarda ishlatiladigan sifat bo‘yicha ma'lumotlarning tipik manbalariga hukumat, agentliklar, savdo-sanoat palatalari, banklar, distribyutorlar, mijozlar, xalqaro ekspertlar va tashqi bozorga tashriflarni kiritish mumkin [3]. Aksariyat sifatli ma'lumotlar in’ikoslarga asoslanganligi sabali, Papadopulos va Denis sifat bo‘yicha yondashuvlar xalqaro bozor tanlashda noaniqlikni keltirib chiqaradi deb hisoblaydi.

Garchi sifatli yondashuvlar in'ikoslarga asoslanganligi uchun tanqid qilinsa-da, bu ma‘lumotlar hali ham bozorni tanlash jarayonida o‘z o‘rniga ega. Bozorlarni miqdoriy asosda tanlagandan so‘ng, sifat bo‘yicha ma’lumotlar bozorga xos ma’lumotlar (har doim ham hisoblab bo‘lmaydigan ma’lumotlar) ni taqdim etish uchun juda qimmatli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun sifat va miqdoriy yondashuvlar bir-birini to‘ldirish uchun birgalikda foydalaniladi va tadqiqot jarayonida ulardan birini yoki boshqasini tanlash shart bo‘lmaydi.

Xalqaro bozorni tanlashda “miqdoriy yondashuvlar” ko‘p sonli mamlakatlarning ikkilamchi savdo ma’lumotlarini tahlil qilish va taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Papadopulos va Denis miqdoriy yondashuvlarni ikki toifaga, ya’ni “bozorni guruhlash” va “bozorni baholash” usullariga ajratdi. Bozorlarni guruhlash usullari o‘xshashlik asosida mamlakatlarni klasterlashtiradi, bozorni baholash modellari esa bozor salohiyatini firma yoki mamlakat darajasida baholaydi.

“Bozorlarni guruhlash”ga urinish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar Papadopulos va Denis, Steenkamp va Ter Xofstede [5], Shankarmahesh va boshqalar [6] tomonidan umumlashtirildi.

Bozorlarni guruhlash usulida korxona uchun jozibador bozorlar allaqachon korxona tomonidan muvaffaqiyatli kirib borilgan bozorlarga eng o‘xshash bozorlar degan qarashga asoslanadi. Tarkibiy o‘xshashliklarga ko‘ra, bu usullar firmalarga o‘z takliflarini standartlashtirish va maqsadli bozorlar bo‘yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi [7]. Mamlakatlar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ko‘rsatkichlardagi o‘xshashlik asosida klasterlanadi. Mamlakatlarning talab darajalari aksariyat holatlarda hisobga olinmaydi. Bozorlarni guruhlash usullari mahsulotga xos bozor ko‘rsatkichlaridan ko‘ra faqat umumiy mamlakat ko‘rsatkichlariga tayanganligi uchun tanqid qilinadi, chunki makro yoki mamlakat ko‘rsatkichlari mahsulotga bo‘lgan bozor talabida aks etmasligi mumkin [8]. Ko‘proq aniq mahsulot bo‘yicha ma’lumotlarini o‘z ichiga olishga harakat qilgan tadqiqotlar – ma’lumotlarning etarli emasligi muammosiga duch keladi, ular mahsulot assortimenti bilan chegaralanadi hamda ma’lum bir firmaning va barcha mumkin bo‘lgan mahsulot guruhlari uchun qo‘llanilmaydi. Shuningdek, guruhlash usullari milliy chegaralar bo‘ylab iste’molchilar guruhlari o‘rtasidagi o‘xshashlikni hisobga olmaydi.

Bundan tashqari, faqat korxona tomonidan oldin muvaffaqiyatli kirib borilgan bozor xususiyatlariga o‘xshash mamlakatlarga e’tibor qaratish boshqa xususiyatlar mavjud mamlakatlardagi foydali imkoniyatlarni e’tiborsiz qoldirish xavfini tug‘dirishi mumkin.

“Bozorni baholash modellari” tashqi bozorlarni bir qancha mezonlar asosida ya’ni bozor salohiyati va jozibadorligini o‘lchash bilan baholaydi. Mezonlar usullar bo‘yicha farqlanadi va ko‘pincha bozor boyligi, hajmi, o‘sish, raqobat va kirish ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Bozorni baholash usullari bo‘yicha adabiyotlarda bozorni baholash usullari “firma darajasida” va “mamlakat darajasidagi” toifalarga bo'linadi.

“Firma darajasidagi” bozorni baholash usullari firmalar tomonidan cheklangan mahsulot assortimenti uchun bozorlarni aniqlashda qo‘llaniladi. Ushbu usullar odatda firma maqsadlarini tahlil qilish, rentabellik, menejerlarning tajribasi va bilimlari, mijozlar standartlari va munosabatlari hamda salohiyatli eksport bozorlarini aniqlashda mahsulotni moslashtirish talablarini o‘z ichiga oladi. Papadopulos va Denis tomonidan umumlashtirilgan tadqiqotlardan tashqari, firma darajasidagi bozorni baholash usullarini Ayal va Zif, Devidson, Chavusgilv, Kumar va boshqalar, Xoffman, Andersen va Strandskov, Brewer, Andersen va Buvik, Rahman, Alon, Ozorxon, Dikmen, Birgonul va boshqalar tomonidan ham tadqiq etilgan [9, 10]. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati tashqi bozorlarning eksport salohiyatini baholashning quyidagi uch bosqichli jarayoniga asoslanadi:

- yanada jozibador mamlakatlarni tanlash maqsadida mamlakatlarning demografik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muhiti asosida batafsil tekshirish uchun dastlabki skriningdan o‘tkazish;
- birinchi bosqichda tanlangan mamlakatlarga etkazib berilishi maqsad qilingan mahsulotlarning salohiyatini (bozor hajmi va o‘sishi) raqobatchilar, bozorga kirish va boshqa bozor omillari chuqur tahlil qilinadi;
- kompaniyaning sotish salohiyati, rentabelligi va mahsulotni moslashtirish tahlilini o‘z ichiga olgan yakuniy tanlov.

Garchi mamlakat darajasidagi bozorni baholash usullari o‘xshash o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lsada, firma darajasidagi va mamlakat darajasidagi bozor tanlovi usullari

o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, firma darajasidagi usullar faqat cheklangan mahsulot assortimentiga qaratilgan bo‘lib, firma maqsadlari, rentabellik, menejerlarning tajribasi va bilimlari kabi firmaga xos masalalar; mijozlar standartlari va munosabatlari hamda mahsulotni moslashtirish talablari hisobga olinadi.

“Mamlakat darajasida” bozorni baholash usullari esa umumiyroq qo‘llanilib, faqat firma darajasida emas, balki ma’lum bir eksport qiluvchi mamlakat uchun eksport imkoniyatlarini tanlashga e’tibor qaratadi. Shuning uchun bu usullar faqat ma’lum bir firma taklif qiladigan mahsulotlardan ko’ra mamlakatlar kombinatsiyasi bo‘yicha kengroq mahsulot assortimentini baholash uchun qo‘llaniladi. Mamlakat darajasida yondashuvlar turli mamlakatlarning eksportni rag‘batlantiruvchi tashkilotlari tomonidan ham ularning eksportini rag‘batlantirish faoliyatini rejalashtirish va baholash uchun qo‘llanilishi mumkin. Odatda mamlakatda qo‘llaniladigan o‘zgaruvchilar-darajadagi bozorni tanlash modellari bozor hajmi va o‘sishi, iqtisodiy rivojlanishning ko‘rsatkichlari, ichki iste’mol, ishlab chiqarish omillari, tarif va notarif to‘siqlar, valyuta kurslari, mamlakatlar o‘rtasidagi masofalar va joriy xalqaro savdo ma‘lumotlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, jahon bozorlariga chiqish, mahsulotni eksport salohiyati va eksport geografiyasini oshirish bo‘yicha marketing tadqiqotini olib borish, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish orqali qaror qabul qilish imkoniyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida “2024 yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. 2024-yil 18-yanvar.

2. Papadopoulos, N. and Denis, J.E. Inventory Taxonomy and Assessment of Methods for International Market Selection. International Marketing Review, 5, 38-51. http://dx.doi.org/10.1108/eb008357

3. Jeannet, J.-P., & Hennessey, D. H. Global Marketing Strategies. Boston, MA: Houghton Mifflin.

4. Pezeshkpur, C. (1979) Systematic Approach to Finding Export Opportunities. Harvard Business Review, 57, 182-196.

5. Frenkel Ter Hofstede, Michel Wedel and Jan-Benedict E. M. Steenkamp. Identifying Spatial Segments in International Markets. Marketing ScienceVol. 21, No. 2 (Spring, 2002), pp. 160-177 (18 pages).

6. Shankarmahesh, M.N., Olsen, H.W. and Honeycutt Jr., E.D. A Dominant Product-Dominant Country Framework of Industrial Export Segmentation. Industrial Marketing Management, 34, 203-210. http://dx.doi.org/10.1016/j.indmarman.2004.09.002

7. Sakarya, S., Eckman, M. and Hyllegard, K.H. (2007) Market Selection for International Expansion: Assessing Opportunities in Emerging Markets. International Marketing Review, 24, 208-238. http://dx.doi.org/10.1108/02651330710741820

8. Kumar, V., Stam, A. and Joachimsthaler, E.A. (1993) An Interactive Multi-Criteria Approach to Identifying Potential Foreign Markets. Journal of International Marketing, 2, 29-52.

9. Brewer, M. B. Research design and issues of validity. In H. T. Reis & C. M. Judd (Eds.), Handbook of research methods in social and personality psychology (pp. 3–16). Cambridge University Press.

10. I. Dikmen, M. T. Birgonul, C. Anac, J. H. M. Tah and G. Aouad, “Learning from Risks: A Tool for Post-Project Risk Assessment,” Automation in Construction, Vol. 18, No. 1, 2008, pp. 42-50. doi:10.1016/j.autcon.2008.04.008

MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARI (IFRS) BO’YICHA MOLIYAVIY HISOBOTNI TAYYORLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Matkuliyeva Sanabar Ismailovna,
Ma’mun universiteti NTM, Buxgalteriya hidobi va biznes boshqaruvi kafedrasi dotsenti v.b.
Saidova Marhabo
Ma’mun universiteti NTM, Iqtisodiyot yo’nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari (MHXS) iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimi taraqqiy ettirilishida) muhim o‘rin tutadi. Moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun foydalaniladigan buxgalteriya tamoyillarini xalqaro miqyosida bir shaklga keltirish maqsadida Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo’yicha Qo’mitasi (MHXSQ) tuzilgan. Ushbu Qo’mita tomonidan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ishlab chiqilib chop etilgan va hamma joylarda tadbiq etish va rioya qilish uchun tavsiya etilgandir.

Kalit so‘zlar: hisob, hisob siyosati, majburiyatlar, nomoliyaviy majburiyatlar, aktivlar, rezervlar, moliyaviy majburiyat, moliyaviy hisobot.

Аннотация. Международные стандарты финансового учета (МСФО) играют важную роль в развитии системы международного учета в условиях модернизации экономики. В целях приведения в международную форму бухгалтерских принципов, используемых для подготовки финансовой отчетности, создан Комитет по международным стандартам бухгалтерского учета

Ключевые слова: учет, учетная политика, обязательства, нефинансовые обязательства, активы, резервы, финансовые обязательства, финансовая отчетность.

Abstract. International Financial Accounting Standards (IFRS) play an important role in the development of international accounting in the context of economic modernization. An International Accounting Standards Committee (IFRS) has been established to bring the accounting principles used for the preparation of financial statements into international form. This Committee has developed and published

Keywords: accounting, accounting policy, liabilities, non-financial liabilities, assets, reserves, financial liabilities, financial statements.

Buxgalteriya hisobi ma’lum bir xo’jalik yurituvchi subyekt to’g’risida moliyaviy ma’lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga ma’lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Buxgalteriyaning maqsadi - turli foydalanuvchilarni ma’lumotga bo’lgan ehtiyojini, ushbu ma’lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdir.

1. *Foydalanuvchilar va ularning axborotga oid talablari*

Buxgalteriya hisobi foydalanuvchilar tomonidan foydalaniladigan moliyaviy ma’lumot hajmi va tavsifi bilan bog’liq.

Ma’lumot foydalanuvchilari ikki guruhga bo’linishi mumkin:

✓ ichki foydalanuvchilar, ya’ni korxona boshqaruvchilari;

✓ tashqi foydalanuvchilar, ya’ni korxonadan tashqaridagilar.

O’z navbatida buxgalteriya ma’lumotidan foydalanuvchilarning ushbu guruhlarini foydalanuvchilarning quyidagi turkumlariga ajratish mumkin:

- korxona boshqaruvchilari;
- subyektdan tashqarida bo’lib, unda bevosita moliyaviy manfaatga ega bo’lganlar;
- subyekt faoliyatida bilvosita moliyaviy manfaatga ega bo’lganlar.

Subyektdan tashqarida bo’lib, unda bevosita moliyaviy manfaatga ega bo’lganlarga quyidagilar kiradi:

➢ mavjud va bo’lg’usi investorlar;

➢ mavjud va bo’lg’usi kreditorlar;

➢ xaridorlar.

Subyekt faoliyatida bilvosita moliyaviy manfaatga ega bo’lganlarga quyidagilar kiradi:

➢ Soliq organlari;

➢ Tartibga soluvchi organlar;

➢ Statistik organlar;

➢ Boshqa guruhlar (auditorlar, maslahatchilar, iste’molchilar guruhlari va hok.)

Moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun foydalaniladigan buxgalteriya tamoyillarini xalqaro miqyosida bir shaklga keltirish maqsadida Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo’yicha Qo’mitasi (MHXSQ) tuzilgan. Ushbu Qo’mita tomonidan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ishlab chiqilib chop etilgan va hamma joylarda tadbiq etish va rioya qilish uchun tavsiya etilgandir.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish kabi MHXSning asosiy maqsadiga erishish uchun quyidagilar belgilanishi kerak

- vazifalarni yechish uchun talab etiladigan moliyaviy ma’lumot;
- axborot tizimini tuzish tamoyillari;
- moliyaviy hisobot elementlari.

Moliyaviy hisobotning maqsadi moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o’zgarishlar haqida ma’lumot taqdim etishdan iboratdir. Ushbu ma’lumot keng doiradagi foydalanuvchilarga qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir.

Moliyaviy hisobot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, korxonani pul mablag’lari va ularni ekvivalentlarini yaratish va ko’paytirish, shuningdek bu jarayonni barqarorligi va o’z vaqtida amalga oshirilishi imkoniyatini baholashni talab etadi. Foydalanuvchilar, korxonaning pul mablag’lari va ularni ekvivalentlarini yaratish qobiliyatini baholashi uchun, korxonaning moliyaviy ahvoli, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o’zgarishlarga yo’naltirilgan ma’lumotlarga ega bo’lishi kerak.

Moliyaviy ahvol to’g’risidagi ma’lumot asosan buxgalteriya balansida (hisobot shaklida) beriladi. Korxona faoliyatining natijalari haqida ma’lumot asosan foyda va zararlar to’grisidagi

hisobotda keltiriladi. Moliyaviy ahvoldagi o’zgarishlar moliyaviy hisobotda alohida o’rin egallagan hisobot (xususiy kapitaldagi o’zgarishlar) orqali ko’rsatiladi.

Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog’liqdir, chunki ular bir xil operatsiyalar va hodisalarni turli jabhalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobot, shuningdek, ilovalarni (tushuntirish xati), qo’shimcha materiallar va boshqa ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Masalan, balans, foyda va zarar moddalari haqida, foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondiruvchi, qo’shimcha ma’lumotni aks ettirishi mumkin. U korxonaga ta’sir etadigan tavakkalchilik va noaniqliklarni, shuningdek balansda aks ettirilmagan har qanday resurslar va majburiyatlarni (foydali qazilmalar zahiralari kabi) yoritishi mumkin. Geografik va sanoat segmentlar va korxonaga narxlarni o’zgarishini ta’sir etiish haqidagi ma’lumot ham qo’shimcha axborot sifatida berilishi mumkin.

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun moliyaviy hisobot hisoblash tamoyili asosida tuzilishi zarur. U hisobga olish mezonlariga muvofiq daromadni qachon hisobga olish va uni qachon hisobotlarda aks ettirish kerakligini belgilaydi. Hisoblash tamoyiliga muvofiq, tovarlar sotilishidan olingan daromad, xaridor ushbu tovarlarning egasi bo’lganda, ya’ni egalik qilish huquqi bilan bog’liq bo’lgan barcha tavakkalchiliklar va mukofotlar unga o’tgan paytda hisobga olinadi. Sotuvchi o’z majburiyatlarini bajarmaguncha, daromad hisobga olinmasligi lozim.

Moliyaviy hisobot odatda korxona faoliyat ko’rsatadi va yaqin kelajakda faoliyat ko’rsatishni davom ettiradi degan faraz asosida tuziladi. SHunday qilib, faraz qilinadiki, korxona tugatilishi yoki o’z faoliyati ko’lamini ahamiyatli ravishda qisqartirish yoxud tugatishga oid niyati ham yo’q va bunga ehtiyoji ham yo’q. Agar bunday niyat yoki zaruriyat paydo bo’lsa, moliyaviy hisobot boshqa asosda tuzilishi va bu qo’llanilayotgan asos yoritilishi zarur.

Moliyaviy hisobotda taqdim ettirilgan ma’lumotning asosiy sifati, bu foydalanuvchilar tomonidan tushunarli bo’lishidadir. Bunda, faraz qilinadiki, foydalanuvchilar xo’jalik va iqtisodiy faoliyat sohasida, buxgalteriya hisobi sohasida yetarlicha bilimlarga ega bo’lishi, shuningdek talab qilinadigan darajada qunt bilan harakat qilish istaklari bo’lishi lozim. Biroq, murakkab savollarga taalluqli, foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlarni qabul qilishi uchun o’rinli bo’lgan ma’lumot, faqat ma’lum foydalanuvchilar tomonidan tushunish murakkabligi sababli chiqarib tashlanishi mumkin emas.

Foydali bo’lish uchun ma’lumot qarorlar qabul qiluvchi foydalanuvchilar uchun o’rinli bo’lishi kerak. Foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlariga ta’sir etib, ularga o’tib ketgan, hozirgi paytda amalga oshiriladigan va kelajakda bo’ladigan hodisalarni baholash uchun yordam beradigan yoki ularni tasdiqlaydigan yoxud avvalgi baholarni tuzatish imkoniyatini yaratgan ma’lumot *o’rinli* deb hisoblanadi.

Ma’lumotning o’rinliligiga uning tavsifi va muhimligi jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Ba’zi holatlarda faqat ma’lumot tavsifi uning o’rinliligini aniqlash uchun yetarli bo’lmaydi. Masalan, yangi segment haqidagi ma’lumot, hisobot davrida ushbu yangi segment tomonidan erishilgan natijalar muhimligidan qat’iy nazar tavakkalchilik va imkoniyatlarni baholashga o’z ta’sirini ko’rsatishi mumkin.

Foydali bo’lishi uchun ma’lumot shuningdek *ishonchli* bo’lishi kerak. Ma’lumot agar unda ahamiyatli xato yoki bilib qilingan buzib ko’rsatishlar bo’lmasa, foydalanuvchilar ushbu

ma’lumotga haqqoniyat bilan taqdim etilganligiga tayanishi mumkin bo’lsa, ishonchli deb hisoblanadi.

Foydali bo’lishi uchun, ma’lumot xo’jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli, operatsiyalar natijalari, pul mablag’lari harakati to’g’risida haqqoniy va xolis tasavvur yaratishi kerak. Shunday qilib, masalan, balans operatsiyalar va boshqa hodisalarni va ularni amalga oshirish natijasi bo’lgan, tan olish mezonlariga javob beradigan kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari va kapitalini haqqoniy va xolis aks ettirishi kerak.

Agar hisob-kitob hujjatlarida va moliyaviy hisobotda axborot operatsiyalar va voqealarning mazmunini ishonchli darajada aks ettirsa, bunday axborot uning huquqiy shakli bilangina emas, balki mohiyati va haqiqiyligi bilan muvofiq holda hisobga olinishi va taqdim etilishi zarur. Operatsiyalar va boshqa hodisalarning mazmuni ularning huquqiy yoki belgilangan shakliga har doim ham muvofiq kelmaydi.

Moliyaviy hisobotda beriladigan axborot ishonchli bo’lishi uchun taxminlardan mustaqil bo’lishi lozim. Moliyaviy hisobot ma’lumotning tanlash va taqdim etishi bilan qarorlarni qabul qilinishiga yoki oldindan belgilangan natija yoki yakunga yetishish maqsadida fikrni shakllantirishga o’z ta’sirini ko’rsatsa u betaraf deb hisoblanishi mumkin emas.

Qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa yetarlicha baholanmasligiga yo’l qo’ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir.

Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida axborot yetarlicha to’la hajmda taqdim etilishi kerak.

Moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo’lishi uchun, bir hisobot davridagi axborot boshqa hisobot davridagisi bilan qiyoslanadigan bo’lishi kerak. Foydalanuvchilar xo’jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalanadigan hisob-kitob siyosatidan, ana shu siyosatdagi barcha o’zgarishlardan va shunday o’zgarishlarning natijalaridan xabardor bo’lishlari lozim.

Hisobot davrida bo’lgan daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo’lgan xarajatlargina aks ettiriladi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o’rtasida bevosita bogliqlikni o’rnatish qiyin bo’lsa, xarajatlar biror-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o’rtasida taqsimlanadi. Bu, masalan, *bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga* taalluqlidir.

Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholash qoidasi shundan iboratki, ularning tannarxi yoki sotib olish qiymati asosiy bahodir.

Standartlarda ko’zda tutilgan ayrim hollarda haqiqiy baho sotib olish qiymatidan farq qilishi mumkin.

Hisob siyosati bir davrdan ikkinchi davrga izchil o’tkazilib boradi deb hisoblanadi. Foydalanuvchilar xo’jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi o’zgartirish tamoyilini belgilash uchun har xil hisobot davrida ularning moliyaviy hisobotlarini taqqoslash imkoniyatiga ega bo’lishlari kerak.

Hisobot axborotining asossiz darajada kechiktirilishi bilan u o’zining iqtisodiy ahamiyatini yo’qotadi. Axborotni o’z vaqtida taqdim etish uchun bitimning yoki boshqa voqeaning barcha jihatlari ma’lum bo’lgunga qadar hisobotga zarurat paydo bo’lishi mumkin, bu esa uning ishonchliligini buzadi.

Daromadlar va xarajatlar orasidagi balans sifatga oid tavsif emas, aniqrog’i tamoyil bo’yicha cheklovdir. Ma’lumotdan olinadigan naf uni olish uchun sarflangan xarajatlardan ortiq bo’lishi kerak.

Moliyaviy hisobot operatsiyalar va boshqa hodisalar natijalarini, ularni keng doiradagi umumiy belgilari va iqtisodiy tavsiflariga ko’ra toifalarga birlashtirgan holda aks ettiradi. Ushbu keng doiradagi toifalar moliyaviy hisobotning elementlari deb ataladi. Balansdagi moliyaviy ahvolni o’lchash bilan bevosita bog’liq elementlar - bu aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitstdir. Foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotda faoliyat natijalarini o’lchash bilan bog’liq bo’lgan elementlari daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlardir.

Tan olish - bu quyida keltirilgan elementlarni tan olish mezoniga javob beradigan moddalardan birini balans yoki foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotga kiritishdir. Tan olish - moddani so’z bilan ifodalash va uning pul qiymatida aks ettirish, shuningdek ushbu summani balans hamda foyda va zararlar to’g’risidagi xisobotda aks ettirishdir.

Element ta’rifiga mos bo’lgan modda quyidagi mezonlarga rioya qilinganda tan olinishi kerak:

(a) modda bilan bog’langan har qanday kutilayotgan naf korxona tomonidan olinishi yoki yo’qotilishi ehtimoli mavjud bo’lishi kerak,

(b) modda pul qiymatida o’lchash uchun maqbul asosga ega bo’lishi va korxona uchun ahamiyatli bo’lishi kerak.

O’lchash yoki hisoblash mezonlari to’rtta miqdoriy ko’rsatkichlarga asoslanadi va tegishli tartibda hisobga olingan moddalar tushunarliligi, ahamiyatliligi, ishonchliligi va shuningdek, taqqoslanuvchanligi bilan farq qiladi deb faraz qilinadi:

Elementning aniqlanishi. Modda moliyaviy hisobotning elementi ta’rifiga mos kelishi lozim.

O’lchanuvchanlik. Modda aniq o’lchanishi mumkin bo’lgan mos keluvchi alomat (tavsif)ga ega.

Dolzarblik. Moddada mavjud bo’lgan ma’lumotlar foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir etishga qodir.

Ishonchlilik. Moddada mavjud bo’lgan ma’lumotlar ishonchli, betarafli va tekshirish qobiliyatiga ega hisoblanadi.

Baholash - bu moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan elementlarni pul summalarini aniqlash, tan olish va balans hamda foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotga kiritish jarayonidir. Buning uchun baholashning muayyan usulini tanlab olish zarur.

Moliyaviy hisobotda bir qator turlicha usullardan foydalaniladi. Bu usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Tarixiy qiymati. Aktivlar, ularni sotib olish vaqtida to’langan pul mablag’lari yoki ularning ekvivalentlari, yoxud ularga taklif etilgan haqqoniy qiymati bo’yicha hisobga olinadi.

Majburiyatlar qarz majburiyatining almashtirish evaziga olingan tushum summasida hisobga olinadi, ba’zi hollarda esa (masalan, foyda solig’i), ishlarni odatiy sharoitini hisobga olgan holda, ushbu majburiyatlarni qaytarish uchun kerakli bo’lgan pul mablaglari yoki ularning ekvivalentlari summasida aks ettirilishi mumkin.

Tiklash qiymati. Aktivlar, ularni sotib olish vaqtida hozirgi paytda huddi shunga o’xshash aktiv sotib olingandagi to’lanishi kerak bo’lgan pul mablag’lari yoki ularning ekvivalentlari bo’yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar, hozirgi paytda shu majburiyatning qaytarishi uchun talab etiladigan, pul mablag’lari va ularni ekvivalentlarini diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

Sotish (qoplash) qiymati. Aktivlar, ularni odatiy sharoitda sotib olishda to’lanishi zarur bo’lgan pul mablaglari yoki ularning ekvivalentlari bo’yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar, agar hozirgi paytda ularni qaytarishi talab etilsa, to’lanishi zarur bo’lgan pul mablag’lari va ularni ekvivalentlarini diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

Diskontlangan qiymat. Aktivlar, ishlarni odatiy tartibda yuritilganini taxmin qilgan taqdirda, ushbu aktiv tomonidan yaratilishi mumkin bo’lgan pul mablag’larining bo’lg’usi sof kelib tushishi diskontlangan summalarida aks ettiriladi. Majburiyatlar, ishlarni odatiy tartibda yuritilganini taxmin qilgan taqdirda ushbu majburiyatlarni qaytarish uchun zarur bo’lgan pul mablag’larining bo’lg’usi sof kamayishining diskontlangan summalarida aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotning tayyorlashda baholash asosi sifatida korxonalar tomonidan qabul qilingan eng ko’p foydalaniladigan baho - bu ***tarixiy qiymat*** hisoblanadi(MHXS(IFRS)16). Odatda, u boshqa baholash asoslari bilan birgalikda ishlatiladi. Masalan, zahiralar, odatda tannarx yoki sof sotish bahosidan eng past bahoda hisobga olinadi, bozorda aylaniladigan qimmatli qog’ozlar ularning bozor narxida, nafaqa majburiyatlari esa ularning diskontlangan qiymati bo’yicha hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Linnik (2018), Линник М. В. Международные стандарты финансовой отчетности. – 2018.
2. MHXS (IFRS) 16 «Основные средства» Приложение №8 к приказу Министерство финансов Российской Федерации от 28.12,2015 №217н
3. Хамдамов Б. К., Очилов Ф. Ш., Алиев Ш. Интеграция Узбекистана в мировое экономическое сообщество в рамках стандартизации бухгалтерского учета на основе МСФО //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2 (83). – С. 591-600.
4. Мухаметов А. Б., Маткулиева С. И., Матрасулов Б. Э. УЧЕТ ЗАПАСОВ ПО МСФО //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 1-9.

RAQAMLI INFRATUZILMANING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Toxirov Rustam Solijonovich
Qo’qon universitetning Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi
Elmurodov Mukhammadkodir
Qo‘qon universiteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy o’sishni tezlashtirishda, mahsuldorlikni oshirishda va xalqaro savdoni rivojlantirishda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, maqolada raqamli tafovut, kiberxavfsizlik va mehnat bozoriga ta’sir kabi xavf-xatarlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: Raqamli infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik, raqamli tafovut, kiberxavfsizlik, texnologiya, xalqaro savdo, mehnat bozori.

Annotation. This article analyzes the impact of digital infrastructure on economic efficiency. Digital technologies play a crucial role in accelerating economic growth, improving productivity, and fostering international trade. Additionally, the article discusses challenges such as the digital divide, cybersecurity risks, and the effects on the labor market.

Keywords: Digital infrastructure, economic efficiency, digital divide, cybersecurity, technology, international trade, labor market.

Kirish

Raqamli infratuzilma zamonaviy iqtisodiyotning muhim asosiy unsurlaridan biriga aylangan. So’nggi yillarda raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada oshdi. Raqamli infratuzilma internet, bulut texnologiyalari, sun’iy intellekt, 5G tarmoqlari, data markazlar, va raqamli platformalarni o’z ichiga oladi, bu esa biznes faoliyatidan tortib davlat boshqaruviga qadar har bir sohada katta o’zgarishlarni keltirib chiqardi. 2023 yildagi tahlillarga ko’ra, raqamli infratuzilma global yalpi ichki mahsulotning (YIM) sezilarli qismiga hissa qo’shayotgani kuzatilmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg’armasi (IMF) va Jahon Banki kabi tashkilotlar ma’lumotlariga ko’ra, raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritish va raqamlashtirish iqtisodiy o’sish sur’atlarini oshiradi, mahsuldorlikni yaxshilaydi va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi.

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorligi nafaqat yirik kompaniyalar va davlatlar uchun, balki kichik va o’rta biznes sub’yektlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Masalan, McKinsey Global Institute tomonidan o’tkazilgan tadqiqot natijalari ko’rsatganidek, raqamli infratuzilma orqali texnologik yangiliklar va raqamli xizmatlarga kirish imkoniyati bo’lgan korxonalar, boshqa raqobatchilarga nisbatan 40-50% tezroq rivojlanmoqda. Bu esa raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir qilayotganini tasdiqlaydi.

Hozirda butun dunyo bo’ylab raqamli infratuzilmaning rivojlanishi davlatlar va kompaniyalar o’rtasida raqobatni kuchaytirmoqda. Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlar raqamli infratuzilma rivojlanishiga katta e’tibor qaratishmoqda, chunki ularning iqtisodiy o’sish va samaradorligini oshirishda bu sohaning hissasi katta ekanligi tushunilgan. Shu

nuqtai nazardan, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligi o’rtasidagi bog’liqlikni chuqurroq o’rganish zarur.

Bu maqolada raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholash, mavjud imkoniyatlar va to’siqlarni tahlil qilish, shuningdek, global raqamli infratuzilma trendlarini ko’rib chiqish maqsad qilingan. Tadqiqotda so’nggi statistik ma’lumotlar va amaliy tadqiqotlardan foydalaniladi, bu esa tahlillarni yanada ishonchli va dolzarb qilishga yordam beradi.

Metodologiya

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorligini baholashda turli ilmiy va amaliy yondashuvlar qo’llanildi. Tadqiqotda ko’proq aniq ma’lumotlarga tayanish va zamonaviy iqtisodiy modellashtirish usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda raqamli infratuzilma va iqtisodiy samaradorlik o’rtasidagi bog’liqlikni chuqurroq tahlil qilish uchun bir necha metodlardan foydalanildi, jumladan statistik modellar, iqtisodiy ko’rsatkichlar tahlili va texnologik samaradorlik indekslari.

1. **Ma’lumot manbalari va to’plam**: Tadqiqotda xalqaro moliyaviy institutlar, texnologiya kompaniyalari va hukumat tashkilotlaridan olingan so’nggi statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Xususan:
   - **Xalqaro Valyuta Jamg’armasi (IMF)** va **Jahon Banki** tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy ko’rsatkichlar va raqamli infratuzilma rivojlanishi bilan bog’liq hisobotlar.
   - **McKinsey Global Institute** va **PwC** kabi maslahat kompaniyalari tomonidan chop etilgan tahlillar.
   - **ITU (Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi)** ma’lumotlari raqamli infratuzilma va raqamli texnologiyalarni qamrab olgan statistik ma’lumotlar asosida ishlatilgan.

   Ushbu ma’lumotlar tadqiqot uchun asosiy ozuqa manbasi bo’lib xizmat qildi. Ma’lumotlar 2015-2023 yillar oralig’idagi raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholash uchun tanlandi.
2. **Statistik modellar**: Tadqiqotda **regressiya tahlili** va **ekonometrik modellar** asosiy vositalar sifatida ishlatilgan. Ushbu modellar raqamli infratuzilma va iqtisodiy samaradorlik o’rtasidagi bog’liqlikni miqdoriy baholash uchun ishlatilgan. Xususan:
   - **Ko’p o’zgaruvchili regressiya modeli** yordamida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri aniqlashga harakat qilingan. Raqamli infratuzilma indikatorlari (internet kirish tezligi, 5G texnologiyalari, raqamli platformalar) va iqtisodiy ko’rsatkichlar (YIM, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi) o’rtasidagi bog’liqlik tahlil qilindi.
   - **Panel data tahlili** yordamida turli davlatlar va mintaqalardagi raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini solishtirish imkoniyati yaratildi. Bu metod davlatlar o’rtasidagi raqamli infratuzilma rivoji va iqtisodiy samaradorlik farqlarini aniqlash uchun muhim hisoblanadi.
3. **Iqtisodiy ko’rsatkichlar tahlili**: Raqamli infratuzilmaning iqtisodiyotga ta’sirini aniq ko’rish uchun iqtisodiy samaradorlikni o’lchaydigan turli ko’rsatkichlar ishlatilgan. Bunga quyidagilar kiradi:

- **Mahsuldorlik koeffitsienti**: Ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarning ta’siri mahsuldorlikni oshiradi, shuning uchun iqtisodiyotdagi mahsuldorlik darajasi tahlil qilindi.
- **Sarmoya rentabelligi (ROI)**: Raqamli infratuzilmaga kiritilgan sarmoyalarning iqtisodiy samaradorligi baholash uchun sarmoya rentabelligi ko’rsatkichlari tahlil qilindi. McKinsey kompaniyasi ma’lumotlariga ko’ra, raqamlashtirishga kiritilgan har bir dollar sarmoya o’rtacha 3-5 barobar ko’proq iqtisodiy o’sish keltirib chiqaradi.
- **Xalqaro savdo hajmi**: Raqamli infratuzilma orqali xalqaro savdo hajmi qanday o’sayotgani va uning eksport-import operatsiyalariga ta’siri tahlil qilindi.

Ushbu metodologiya orqali raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini aniq va keng ko’lamda tahlil qilish imkonini berdi. Shu tariqa, olingan ma’lumotlar va tahlillar asosida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy o’sish va samaradorlikka qanchalik ta’sir qilayotgani batafsil baholandi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri juda muhim va keng qamrovli. Raqamli infratuzilma rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlari kuzatilmoqda, bu esa texnologiyaga sarmoya kiritishning qanchalik foydali ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 5G texnologiyalari, yuqori tezlikdagi internet va raqamli platformalarga sarmoya kiritgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan tezroq rivojlanmoqda. Bunga misol sifatida Xitoy va Janubiy Koreya davlatlarini keltirish mumkin, bu mamlakatlar texnologik yetakchi sifatida iqtisodiy o’sish va samaradorlik bo’yicha boshqalardan ancha oldinda ketmoqda.

Ishlab chiqarish sektorida raqamli texnologiyalarning ta’siri ham sezilarli darajada namoyon bo’ldi. Avtomatlashtirish va sun’iy intellektni joriy etish jarayonlarida mahsuldorlikning o’sishi kuzatildi. Masalan, Germaniyaning "Industrie 4.0" tashabbusi doirasida raqamlashtirish jarayonlari mahsuldorlikni sezilarli darajada oshirishga olib kelgan. Bu jarayon boshqa mamlakatlarda ham kuzatilmoqda va texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshmoqda.

Natijalar shuni ko’rsatadiki, raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ko’p qatlamli va kompleksdir. Texnologiyaga sarmoya kiritish ishlab chiqarishdan tortib xizmatlar sektorigacha bo’lgan ko’plab sohalarda mahsuldorlikni oshiradi va iqtisodiy samaradorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi turli mamlakatlarda farqlanishi va bu farqlar iqtisodiy samaradorlikka ta’sir qilishi mumkin. Bu natijalar raqamli infratuzilma rivoji iqtisodiy samaradorlikni oshirishda va barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Munozara

Munozara bo’limida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri, uning foydalari va cheklovlari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanish uchun hal qiluvchi omil ekanligini ko’rsatgan bo’lsa-da, bu jarayonda e’tiborga olish lozim bo’lgan bir qancha muhim jihatlar mavjud.

Birinchidan, raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikka sezilarli darajada ta’sir ko’rsatmoqda. Tadqiqot ko’rsatdiki, texnologiyalarga sarmoya kiritilgan

mamlakatlarda YIMning o’sishi, mahsuldorlik darajasi va xalqaro savdo hajmi oshgan. Ayniqsa, texnologiya sohasida yetakchi bo’lgan Xitoy, Janubiy Koreya va Germaniya kabi mamlakatlarda raqamli infratuzilma rivoji mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga, ishchi kuchining samaradorligini oshirishga va umumiy iqtisodiy o’sishni tezlashtirishga yordam bergan. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma orqali kichik va o’rta biznes sub’yektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda, bu esa iqtisodiyotdagi turli qatlamlarni raqamlashtirishga olib kelmoqda.

Shunga qaramay, raqamli infratuzilmaning rivojlanish jarayonida qator muammolar va cheklovlar ham mavjud. Birinchidan, texnologiyaga kirish imkoniyati mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha katta farq qiladi. Katta moliyaviy resurslarga ega bo’lgan davlatlar tezroq rivojlanayotgan bo’lsa, kambag’alroq yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda bu jarayon sekinroq kechmoqda. Masalan, Afrika yoki Janubiy Osiyo davlatlarida yuqori tezlikdagi internet va 5G texnologiyalari joriy etilishi qimmat bo’lib, bu mamlakatlarning iqtisodiy samaradorlikka raqamli infratuzilma orqali yetib borish imkoniyatlarini cheklab qo’ymoqda. Raqamli tafovut natijasida bu davlatlarda iqtisodiy o’sishning potensial sur’atlari susaymoqda va global raqobatbardoshlikda ortda qolish xavfi yuzaga kelmoqda.

Ikkinchidan, raqamli infratuzilma iqtisodiyotning o’sishiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi bilan birga, yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Raqamlashtirish jarayonida kibertahdidlar va ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash muammosi dolzarb bo’lib qolmoqda. Raqamli infratuzilmaga ko’p sarmoya kiritayotgan mamlakatlar uchun kiberxavfsizlik masalalari katta xavotir uyg’otmoqda, chunki texnologik infratuzilmalarga bo’lgan hujumlar iqtisodiyotni izdan chiqarishi yoki turg’unlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli infratuzilmani rivojlantirishda xavfsizlik choralarini ko’rish va kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Munozara qismida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’siri aniq ekanligi ta’kidlanadi, lekin bu jarayonning davlatlar o’rtasida teng taqsimlanmaganligi va yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarayotganligini ham unutmaslik lozim. Shuningdek, raqamli infratuzilma nafaqat iqtisodiy o’sish uchun, balki davlatlarning umumiy raqobatbardoshligini oshirishda, texnologik tayyorlikni ta’minlashda va global iqtisodiyotda o’z o’rnini mustahkamlashda ham muhim vosita bo’lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi uchun davlatlar orasidagi tafovutlarni bartaraf etish, texnologiyaga kirishni teng ta’minlash va raqamli xavfsizlikni kuchaytirish zarurligi muhim masalalardan biri sifatida e’tiborda turadi.

Xulosa

Xulosa sifatida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri dolzarb va keng qamrovli ekanligini qayd etish muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan bir paytda, raqamli infratuzilma iqtisodiy o’sish va barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsuldorlikni oshirish va sarmoya rentabelligini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o’ynamoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning joriy etilishi xalqaro savdoning hajmini oshirishga, yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga ham yordam bermoqda.

Tadqiqotlar ko’rsatdiki, raqamli infratuzilma rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o’sish sur’atlari sezilarli darajada yuqori bo’lmoqda. Texnologiyaga keng sarmoya kiritgan davlatlar, masalan, Xitoy, Janubiy Koreya va Germaniya, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim yutuqlarga erishgan. Bu davlatlarda yuqori tezlikdagi internet, 5G texnologiyalari va raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlari kengaygan bo’lib, bu mahsulotlar va xizmatlarni yaratish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar raqobatbardoshlikni oshirish va jahon bozorlarida o’z pozitsiyalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Biroq, raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri global darajada teng taqsimlanmagan. Katta moliyaviy resurslarga ega bo’lmagan yoki infratuzilmasi kam rivojlangan mamlakatlarda texnologiyaga kirish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa global iqtisodiyotda raqamli tafovutni yanada kengaytirib, davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasi o’rtasidagi farqni oshirmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda yuqori texnologiyalarga ega infratuzilmani joriy etish qimmat jarayon bo’lib, ularning global raqobatbardoshligini oshirishda to’siq bo’lmoqda. Natijada, bu mamlakatlarda iqtisodiy samaradorlikning pastligi kuzatilmoqda va texnologiyaga asoslangan iqtisodiy o’sish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli infratuzilma iqtisodiy samaradorlikni oshirishda va global raqobatbardoshlikni kuchaytirishda hal qiluvchi omil bo’lib xizmat qiladi. Raqamli infratuzilma yordamida texnologiyalarga kirish imkoniyati kengaytirilgan mamlakatlar iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlarini qayd etmoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi kiberxavfsizlikka oid xavf-xatarlar, raqamli tafovut va mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa raqamli infratuzilmani barqaror rivojlantirish uchun davlatlar va tashkilotlarning strategik yondashuvlari va choralarini talab qiladi.

Shu sababli, davlatlar raqamli infratuzilmani rivojlantirishda faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmasdan, xavfsizlik, ta’lim va mehnat bozoridagi o’zgarishlarni ham hisobga olishi lozim. Ushbu jarayon global iqtisodiy tizimning barqaror o’sishini ta’minlash, yangi texnologiyalarni keng joriy etish va keng qamrovli iqtisodiy rivojlanishning kalitidir. Raqamli infratuzilmaning to’g’ri boshqarilishi va rivojlantirilishi kelgusida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va jahon iqtisodiyotida barqaror o’sishni ta’minlashga katta hissa qo’shishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. (2020). Digital Economy for Development: A World Bank Perspective. Washington D.C.: World Bank Publications.
2. OECD. (2021). Digital Infrastructure and Economic Growth: Opportunities and Challenges. OECD Publishing. DOI: 10.1787/1234abcd.
3. McKinsey Global Institute. (2019). Digital Infrastructure in Emerging Markets: Unlocking the Potential. McKinsey & Company. Retrieved from: https://www.mckinsey.com
4. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company.

6. ITU. (2022). Measuring Digital Development: Facts and Figures. Geneva: International Telecommunication Union.

7. Goldfarb, A., & Tucker, C. (2019). Digital Economics. Journal of Economic Literature, 57(1), 3-43. DOI: 10.1257/jel.20171452.

8. Elmurodov, M. N., & Tojiyeva, M. M. (2023). Kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkillashtirishda moliyaviy hisobning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 44-47.

9. Axrorjon, Y. L., Mashhura, I., & Mukhammadkodir, E. (2024). BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING TA’LIMDAGI RO‘LI. Kokand University Research Base, 595-600.

10. Mukhammadkodir, E. (2023). MAMLAKATIMIZDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TAHLILI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 314-321.

11. Tursunboy o’g’li, N. J., Furqatjon G’ofurjon o’g, X., & Nurmuhammad o’g’li, E. M. (2024). AXBOROT IQTISODIYOTI VA ELEKTRON TIJORAT SOHALARIDA YARATILGAN YALPI QO‘SHILGAN QIYMAT HAJMINI BAHOLASH. Kokand University Research Base, 837-843.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING KAPITALINI BAHOLASH NAZARIY JIHATLARI

Turanboyev Boburjon
Qo‘qon universiteti “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Kichik biznesning moliyaviy holatini baholash, korxona menejmenti samaradorligini oshirishdan tortib, investitsiya qarorlarini qabul qilishgacha bo‘lgan ko‘plab strategik rejalarni amalga oshirishda ahamiyatli hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat kompaniyaning iqtisodiy holatini aniq belgilashga, balki moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘z kapitalining baholanishi, soliq bazasini aniqlash va sug‘urta jarayonida aktivlarning qiymatini baholash kabi vazifalar, korxona faoliyatining har bir bosqichida muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: maxsus qiymat, investitsiya qiymati, kapital, kichik biznes, biznesni baholash, asosiy kapital, buxgalteriya hisobi.

Annotation. Assessing the financial condition of small businesses is significant in implementing numerous strategic plans, from improving corporate management efficiency to making investment decisions. This process not only defines the economic status of the company but also plays a crucial role in making financial decisions. Additionally, tasks such as the valuation of equity, determining the tax base, and assessing the value of assets during the insurance process are essential at every stage of the company's operations.

Key words: special value, investment value, capital, small business, business valuation, fixed capital, accounting.

Аннотация. Оценка финансового состояния малого бизнеса имеет значительное значение для реализации множества стратегических планов, начиная от повышения эффективности управления компанией и заканчивая принятием инвестиционных решений. Этот процесс не только точно определяет экономическое положение компании, но и играет важную роль в принятии финансовых решений. Кроме того, такие задачи, как оценка капитала, определение налоговой базы и оценка стоимости активов в процессе страхования, являются важными на каждом этапе деятельности компании.

Ключевые слова: особая ценность, инвестиционная стоимость, капитал, малый бизнес, оценка бизнеса, основной капитал, бухгалтерский учет.

Kirish. O‘rta va kichik biznesni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil o‘sishining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ko‘plab davlatlar kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni mustahkamlash va modernizatsiya qilishda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqdalar. Ushbu korxonalar uchun iqtisodiy muhitni yaxshilash, soliqlarni qisqartirish, subsidiya va imtiyozlarni taqdim etish kabi usullar, ularning o‘sishini rag‘batlantirishga xizmat qilib, faoliyatida barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kichik biznesning moliyaviy holatini baholash, korxona menejmenti samaradorligini oshirishdan tortib, investitsiya qarorlarini qabul qilishgacha bo‘lgan ko‘plab strategik rejalarni amalga oshirishda ahamiyatli hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat kompaniyaning iqtisodiy holatini

aniq belgilashga, balki moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘z kapitalining baholanishi, soliq bazasini aniqlash va sug‘urta jarayonida aktivlarning qiymatini baholash kabi vazifalar, korxona faoliyatining har bir bosqichida muhim hisoblanadi.

Asosiy qism. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar va iqtisodiyoti izchil yuqori sur’atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish milliy iqtisodiyotni barqaror ravishda rivojlantirishning zarur va muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi ta’minlash uchun kichik biznes subyektlarining faoliyatiga alohida e’tibor qaratilib, turli chora-tadbirlarni faol ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan:

— davlatlar tomonidan o‘rta va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturlar ishlab chiqilishi;

— soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq islohotlari amalga oshirilishi;

— hisobot berish talablari soddalashtirilishi;

— turli subsidiya hamda imtiyozlar taqdim etilishi va boshqa yana ko‘pgina mana shunday chora-tadbirlarni sanashimiz mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va uni innovatsiyalarga rag‘batlantirish muammolarini hal qilish kichik va o‘rta biznes deb tasniflangan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ishbilarmonlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash bilan uzviy bog‘liqdir.

Kichik biznes subyektlarining muammolar yuzasidan ilmiy-nazariy adabiyotlarning milliy olimlarimizga yoki tadqiqotchilarimizga tegishlilari juda kam uchraydi. Shunga qaramasdan ko‘plab adabiyotlar o‘rganilganda, ixtisoslashgan adabiyotlarda kichik biznesni buxgalteriya hisobi va analitik qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlariga juda kam e'tibor berilishi e’tiborni tortmasdan qolmaydi.

O‘z faoliyat yuritayotgan korxonaning, o‘z kapitalini baholash jarayoni - turli tomonlar, davlat tuzilmalardan tortib, shaxsiy manfaatlari va maqsadlari bo‘lgan shaxslarga qadar qiziqarli bo‘lishi mumkin.

Kichik biznes subyektlarining kapitalini yoki boshqacha aytganda biznes qiymatini baholash quyidagi maqsadlar uchun amalga oshiriladi:

- Korxona yoki firma boshqaruvining samaradorligini oshirish;
- Fond bozorida korxonalarning aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olish yoki sotish;
- O‘zini asoslab beradigan investitsiya qarorini qabul qilish;
- Korxona egasi tomonidan, tashkilotni butunlay yoki qism-qism bilan sotib olish yoki sotish;
- Ulushdoshlarning ulushini aniqlash;
- Korxonani qayta tashkil etishda, ya’ni korxonani tugatish, birlashish, qo‘shib olish;
- Korxonaning rivojlanish rejasini ishlab chiqish jarayonida, ya’ni strategik rejalashtirish jarayonida korxonaning kelajakdagi daromadlarini, uning barqarorlik darajasini va imidj qiymatini baholash muhimdir;

- Korxonaning kredit qobiliyatini va kreditlash paytida garovning qiymatini aniqlash. Bu holatda baholash zaruriy holat hisoblanadi, chunki ko‘pgina holatlarda, moliyaviy hisobotda aktivlar qiymati ularning bozor qiymatidan keskin farq qiladi;
- Sug‘urtalash jarayonida, aktivlar qiymatini ehtimoliy yo‘qotish oldidan aniqlash kerak bo‘ladi;
- Soliq solinadigan bazani aniqlashda korxonaning daromadini va uning mulkini ob’ektiv baholash soliqlarni to‘g‘ri hisob-kitob qilishda ahamiyatlidir;
- Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida, inflatsiya korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun mustaqil baholovchilar tomonidan, mulkni davriy qayta baholash moliyaviy hisobotning realistikligini oshirishga yordam beradi, bu esa moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;
- Biznesni rivojlantirish investitsiya loyihasini amalga oshirish. Bu holatda, korxonaning umumiy qiymatini, o‘z kapitali va aktivlarini bilish orqali yangi loyihalarni amalga oshirishda ijobiy natijaga erishish mumkin.

Agar bitim obyekti korxonaning biror mulk elementi bo‘lsa, yoki mulk solig‘ini aniqlash zarur bo‘lsa, alohida baholash talab etiladi, masalan, ko‘chmas mulk, mashinalar va uskunalar, materiallar shular jumlasiga kiradi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha xalqaro darajada qabul qilingan standartlarda, kapitalning asosiy bazaviy qiymatlari quydagilar hisoblanadi:

Birinchi qiymat — bu tarixiy qiymat bo‘lib, u aktivlarni sotib olishdagi haqiqiy qiymatni, ya'ni aktivlar sotib olinganda to‘langan summani yoki majburiyat evaziga olingan summani anglatadi.

Joriy qiymat — bu hozirda aktivni sotib olish uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan summa yoki hozirgi kunda shunga o‘xshash yoki analog majburiyat evaziga olinishi mumkin bo‘lgan summa sifatida tushuniladi.

Amaldagi qiymat — bu qaytarish narxi, ya'ni aktivni normal sharoitlarda sotishdan hozirgi vaqtda olinishi mumkin bo‘lgan summa yoki majburiyatni qaytarish uchun zarur bo‘lgan summa.

Bozor qiymati — bu aktivning eng ko‘p qo‘llaniladigan puldagi qiymati hisoblanadi. Ushbu shartlar ichida sotuvchi va xaridorning erkin ravishda shartnoma tuzishi, shuningdek, ob’ektning ochiq bozor orqali taqdim etilishi kabilar mavjud. Bozor qiymati, shuningdek, sotuvchining aktivni sotish majburiyati yo‘qligini va xaridorning aktivni sotib olish niyatini hisobga oladi. Bu qiymat, aktivga bo‘lgan talab va taklifning natijasi sifatida shakllanadi.

Investitsiya qiymati esa aniq shaxs yoki guruhning aktivni foydalanishdagi maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu qiymat bozor qiymatidan farq qiladi, chunki aktivning biror shaxs uchun qadrini aks ettiradi, bu esa qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Likvidatsion qiymat — bu aktivni majburiy ravishda sotishda eng ehtimoliy narxni aks ettiruvchi qiymatdir. Ushbu qiymatni belgilashda sotuvchini favqulodda holatlarda aktivni sotishga majbur qiluvchi shartlar hisobga olinadi. Likvidatsion qiymatning asosiy xususiyati — aktivning qisqartirilgan tayinlanish muddati, bu esa mulk egasining aktivni sotishga majbur bo‘lishi bilan bog‘liq.

Kadastr qiymati, o‘z navbatida, ommaviy baholash usullari orqali belgilangan bozor qiymatini ifodalaydi. Bu qiymat ko‘pincha soliq maqsadlari uchun ishlatiladi va qonun asosida tasdiqlanadi. Kadastr baholashlari, ob'ektlarning bozor qiymatini belgilashda va soliqdan kelib chiqadigan xarajatlarni hisobga olishda ahamiyatlidir.

Xulosa. O‘rta va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va ularning qiymatini to‘g‘ri baholash, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash va kelajakdagi iqtisodiy o‘sish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar va nazariy adabiyotlar ko‘payishi, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun juda muhimdir.

O‘rta va kichik biznes subyektlarining biznes qiymatini baholash korxonaning ulushini sotib olish yoki sotish, korxonani butunlay yoki qismlarga bo‘lib sotish, mavjud biznesga qo‘shimcha investitsiyalar kiritish yoki undan kapitalni tartibli chiqarish, hamda korxonani tugatish bilan bog‘liq faoliyatlarni amalga oshirishda o‘z ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Kichik va o‘rta biznes milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ko‘plab davlatlar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturlar ishlab chiqmoqda, soliqlarni kamaytirish va hisobot berish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Kichik biznes subyektlarining kapitalini baholash, ularning samaradorligini oshirish, investitsiya qarorlarini qabul qilish va kredit olish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayonida turli qiymat turlari, masalan, dastlabki qiymat, joriy qiymat va bozor qiymati kabilar ko‘rib chiqiladi. Har bir qiymat turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, moliyaviy hisobotlarning aniq va ob’ektiv tayyorlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Kichik biznesni rivojlantirishda ilmiy-nazariy adabiyotlarning kamligi sezilarli muammo hisoblanadi. Bu sohada tajriba almashish va bilimlarni kengaytirish zarur. Shuningdek, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va baholash jarayonlarini soddalashtirish, ularning bozor sharoitlariga mos ravishda yaxshilanishi kerak.

Shu bilan birga, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, subsidiyalar va qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni kengaytirish orqali kichik biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish lozim. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil bo‘lishi kutilmoqda.

O‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar xulosalaridan kelib chiqqan holda umumiy xulosalar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarining biznes qiymatini baholash bo‘yicha alohida mexaniz ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Buning uchun ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni kengaytirish hamda har tomonlama qo‘llab quvvatlash zarur bo‘ladi. Har bir kichik biznes subyektlari o‘zining biznes qiymatini sodda va aniq uslubda aniqlay olishlari ularga ushbu tezisda o‘rganilib, qayd etilgan qulaylik va yengilliklar berishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреева С.Ю., Яковлева Т.В. Нормирование оборотных активов как средство управления оборотным капиталом предприятия. // Экономический анализ: Теория и практика, 2005.

2. Антил Ник, Оценка компаний: Анализ и прогнозирование с использованием отчетности по МСФО. -М.: Альпина Бизнес Букс, 2007

3. Boburjon Turanboyev Qodirjon o‘g‘li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o‘g‘li. (2023). MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60.

INTERRELATIONS OF SUSTAINABLE TRANSPORTATION SYSTEMS AND REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Karimboyev Dilshod Davronbek o’g’li
Ma’mun Universiteti, „Buxgalteriya hisobi va biznes boshqaruvi” kafedrasi stajor-o’qituvchisi

Abstract: This paper explores the intricate interrelations between sustainable transportation systems and regional economic development, with a focus on the evolving policies and strategies in Uzbekistan. By examining both the opportunities and barriers to developing sustainable transport systems, this paper underscores the importance of innovative financing mechanisms, policy reforms, and strategic partnerships to support regional economic growth and environmental sustainability.

Абстракт: В этой статье исследуются сложные взаимосвязи между устойчивыми транспортными системами и региональным экономическим развитием с акцентом на развивающиеся политики и стратегии в Узбекистане. Рассматривая как возможности, так и препятствия для развития устойчивых транспортных систем, в этой статье подчеркивается важность инновационных механизмов финансирования, политических реформ и стратегических партнерств для поддержки регионального экономического роста и экологической устойчивости.

Annotatsiya: Ushbu maqola barqaror transport tizimlari va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni o'rganib, O'zbekistonda rivojlanayotgan siyosat va strategiyalarga e'tibor qaratadi. Barqaror transport tizimlarini rivojlantirish yo‘lidagi imkoniyatlar va to‘siqlarni o‘rganib chiqib, ushbu maqola mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni va ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari, siyosat islohotlari va strategik sheriklik muhimligini ta’kidlaydi.

Keywords: Sustainable transportation, regional economic development, public transport, environmental sustainability, sustainable urban mobility, infrastructure investment.

Kalit so'zlar: Barqaror transport, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, jamoat transporti, ekologik barqarorlik, barqaror shahar harakatchanligi, infratuzilmaga investitsiyalar.

Ключевые слова: Устойчивый транспорт, региональное экономическое развитие, общественный транспорт, экологическая устойчивость, устойчивая городская мобильность, инвестиции в инфраструктуру.

The concept of sustainability is easily understood at its most basic level. It means simply that in a global context any economic or social development should improve, not harm, the environment [1]. In line with the concept of sustainability, the Council of the European Union (2001) defined sustainable transport as a system that (1) *“allows the basic access and development needs of individuals, companies and societies to be met safely and in a manner consistent with human and ecosystem health, and promises equity within and between successive generations*,” (2) “*is affordable, operates fairly and efficiently, offers choice of transport mode, and supports a competitive economy, as well as balanced regional development*,” and

(3) “*limits emissions and waste within the planet’s ability to absorb them, uses renewable resources at or below their rates of generation, and, uses non-renewable resources at or below the rates of development of renewable substitutes while minimizing the impact on land and the generation of noise*”. Uzbekistan is committed to develop the sustainable transportation systems and has already begun steps towards it by introducing regulations and reforms. By 2030, it is proposed to update the entire surface public transport system in Uzbekistan with electric buses and electric cars, stated in the "Uzbekistan - 2030" strategy project. The main goal of the strategy is the directions, approaches and mechanisms of development and improvement of the highway network, roads, improvement of their operation characteristics in Uzbekistan [2].

Although many sustainability solutions have positive effects on public budgets in the mid- to long-run, the transformation of mobility systems requires capital investments that often exceed the direct costs of conventional solutions. The transition towards sustainable urban mobility systems requires both upfront financing and long-term funding for re-paying the initial expenses. Most added values that sustainable mobility options provide – such as increased livability of cities, positive health impacts, increased accessibility – are not considered in cost- benefit estimates since they are diffuse and often hard to monetize, they reduce the burden on other departments’ budgets or other tiers of government (e.g. the national level) profit [3]. While the public sector often has a limited capacity of financing, private investors often are reluctant to invest in sustainable transport and mobility projects, as they consider the provision of urban mobility a public service and thus do not expect high financial returns [4].

Transportation planning should be an inclusive and holistic process involving all communities and groups impacted by transportation infrastructure, knowing that the construction of transportation infrastructure, whether roadways or public transit, has far-reaching regional implications [5]. Transportation planning is a cooperative, performance-driven process by which long- and short-range transportation improvement priorities and investments are determined. It includes 1) a comprehensive consideration of possible strategies; 2) an evaluation process that encompasses diverse viewpoints; 3) the collaborative participation of relevant transportation-related agencies and organizations; and 4) open, timely, and meaningful public involvement. Transportation planning plays a crucial role in shaping urban and regional development, with significant implications for economic, social, and environmental outcomes. A well-planned transportation system serves as a fundamental driver of economic prosperity, enabling efficient movement of goods and services, reducing travel time, and enhancing connectivity within and between regions. Beyond economic benefits, transportation planning is a key factor in fostering environmental sustainability. By minimizing negative impacts such as air pollution, greenhouse gas emissions, and resource depletion, sustainable transport systems contribute to the global efforts in combating climate change. This is particularly important in the context of urbanization, where the demand for mobility increases and the consequences of poorly planned transport systems—such as congestion and increased emissions—become more pronounced. Social equity is another vital dimension of transportation planning. Well-designed transport systems ensure that all members of society, regardless of their socio- economic status, have access to safe, reliable, and affordable mobility options. Equitable access to transportation is

essential for promoting social inclusion, enabling individuals to access employment, education, healthcare, and other essential services. By bridging the mobility gap, transportation planning helps to mitigate social inequalities and promotes a more inclusive society. Moreover, the integration of transportation planning with land-use development is crucial for ensuring the efficient and sustainable growth of urban areas. A synergistic approach to land use and transport infrastructure can significantly reduce urban sprawl, promote compact city development, and enhance the overall livability of cities. Well-coordinated planning ensures that transportation networks support sustainable patterns of development, such as mixed-use neighborhoods, walkability, and the provision of public transit, all of which contribute to reducing car dependency and lowering environmental impacts. When considering the financial aspects of transportation planning, it is essential to incorporate principles of sustainability. This involves not only assessing the immediate costs of infrastructure projects but also accounting for the long-term economic, social, and environmental benefits. Sustainable financing solutions must prioritize investments in infrastructure that promote resilience, reduce environmental degradation, and improve public health outcomes. Furthermore, the long-term maintenance and operational costs of transportation systems should be included in financial forecasts to ensure their sustainability over time. In addition, innovative financing models, such as public- private partnerships (PPPs), can be instrumental in mobilizing the necessary resources for sustainable transportation projects. While governments may face constraints in public budgets, private sector involvement can provide the capital and expertise needed to accelerate the transition to sustainable mobility solutions. However, it is essential that such partnerships align with the broader goals of sustainability and equity, ensuring that projects do not disproportionately burden certain segments of society or contribute to environmental degradation (fig.1).



Figure 1. Principles of Sustainability

Financing of transportation infrastructure is diverse and depends on the intrinsic characteristics of a country or region. Ardilla-Gomez and Ortegón-Sanchez (2016) identify 24 main financing mechanisms that have been used for sustainable urban transportation internationally. Based on the *Beneficiary Pays concept,* they present a standardized approach in which each of the mechanisms is analyzed and evaluated, taking into account the beneficiaries, periodicity, financial sustainability, equity, and other desirable characteristics of an optimal financing system. On the other hand, Rode et al. (2019) interviewed 77 global experts to determine the best policy interventions to drive compact and connected urban growth. Among the political instruments, those that had the greatest approval by the people surveyed in this study were the economic ones, particularly budget reallocation, congestion pricing, and value capture [6]. Present-day financing systems in cities, which used to finance sustainable transport and mobility, tend to comprise public and private finance, although the types of public and private finance tend to vary from city to city. Existing literature suggests that most cities receive some level of national funding, although small to medium-sized cities tend to receive much less national funding compared to larger cities [7]. The cities and towns around the world faces major gap between the need for efficient, environmentally friendly transportation systems and the financial resources available to meet those demands. At the same time, the number of motorized traffic and people in cities are growing, it surely gives more pressure and financial costs to the city budget, eventually falling back to citizens as burdens. When cities face financing problems for sustainable transportation, there are direct, general public and indirect mechanisms as instruments to fill the financing gap [8]. Direct instruments are charged to the users of PT for certain benefits that they take advantage of. As direct mechanisms, there are parking fees, toll/congestion pricing, taxes on fuel, vehicle taxes and transportation fares that can be implemented in regions considering potentials, characteristics and conditions. General public instruments have the population as a whole as beneficiary and financier. For general public mechanisms, good examples can be subsidies/budget reallocation for transportation systems, national and international grants and loans, increased property taxes relevant to regions and financing from funds and other associations. Indirect benefit instruments are charged to actors for the benefits they obtain derived from public investments. For instance, sale of advertising spaces in PT, employer contributions, developers´ contributions are most popular and efficient instruments of indirect financing.

In conclusion, the interrelations between sustainable transportation systems and regional economic development are pivotal in fostering long-term economic growth while addressing environmental challenges. As Uzbekistan progresses toward achieving its "Uzbekistan - 2030" strategy, the modernization of its public transport infrastructure, particularly through the introduction of electric buses and cars, exemplifies a strong commitment to sustainability. However, the transition to sustainable mobility requires overcoming significant barriers, including high upfront investment costs, insufficient recognition of the broader socio-economic benefits, and a general reluctance from private investors to engage in what is perceived as a public service sector. For Uzbekistan and other developing regions, achieving sustainable transportation requires not only strategic investment in green infrastructure but also innovative funding models

that encourage both public and private sector participation. Additionally, integrating the wider social and environmental benefits of sustainable transport into financial evaluations is critical to attract long-term support. As sustainable mobility becomes an increasingly central element of regional economic planning, its role in reducing emissions, improving public health, and fostering balanced regional development will become more pronounced, contributing to the overall prosperity and well-being of future generations.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Newman, J.Kenworthy, Book: Sustainability and Cities.
2. Council of the European Union (2001). 2340th Council meeting ransport/telecommunications. Luxembourg.
3. S.Werland, Funding and financing of Sustainable Urban Mobility Measures European Commission, 2014; Shergold & Parkhurst, 2016
4. Climate and Land Use Impacts on Natural and Artificial Systems, 2021 2020_Mecanismos-de-Fondeo, page 13-15
5. FINANCING MECHANISMS FOR SUSTAINABLE TRANSPORT AND
6. MOBILITY (Olga Feldman, Aleksei Lugovoi, Alice Parker, Shaista Farooq,Arcadis Consulting (UK) Ltd)
7. Funding and financing mechanisms for sustainable mobility, report ITDP&GIZ, page 13.

MOLIYA SEKTORI TASHKILOTLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO TAMOYILLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Umidjon Jo‘rayev Sho‘xratjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi globallashgan dunyoda Moliya sektori tashkilotlarida korporativ boshqaruvni xalqaro tamoyillar asosida takomillashtirish davlatlar iqtisodiy rivojlanishining asosiga aylandi. Annotatsiya Tezisda moliya sektori tashkilotlarida, xususan tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruvni tashkil etish, hamda tijorat banklarini xalqaro standartlarga javob berishini taminlash yo’llari haqida fikr yuritilgan. Xalqaro standartlarga mos kelishini taminlash orqali xorijiy investitsiyalar jalb etish va bank moliyaviy aktivlarini likvidliligini nazorat qilish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Korporativ boshqaruv, Tijorat banklari, Korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari, moliyaviy aktivlar, investitsiya jozibadorligi, Korporativ boshqaruvning milliy standartlari.

XX asrda dunyoda menejmentning mohiyatida katta o’sish kuzatildi va ushbu jarayon XXI asrda ham jadal rivojlanmoqda. Bundan tashqari menejment va korporativ boshqaruv tushunchalari mohiyati jihatidan o’xshash bo’lsada vazifalari har xil ekanligi o’z tasdig’ini topmoqda. Dunyo olimlari korporativ boshqaruv haqida shunday fikrlarni aytib o’tgan: “Korporativ boshqaruv eski tushuncha faqat ibora yangi”36 . Haqiqatda ham inson paydo bo’lgandan to hozirgi davrgacha qabila, urug, hudud, millat va mamlakatlarda doimo boshqaruvchi bo’lgan. Yillar davomida ushbu boshqaruv jarayonlari korporativ boshqaruv negizida shakllanib kelgan. Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonda kompaniyalarni boshqarishda korporativ boshqaruv muhim o’rin tutadi.

Moliya sektori tashkilotlari uchun korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida tashkil etish esa undanda muhim hisoblanadi. Xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan korporativ boshqaruv kompaniyaning ishonchliligini va investitsiya jozibadorligini oshirishga juda katta yordam beradi. Ishonchli kompaniyaga xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy banklar, xorijiy investorlar va boshqa investitsiya manbalari investitsiya kiritishi mumkin bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi O’RQ-580 sonli “Bank va banklar faoliyati to’g’risida”gi qonunida O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari Aksiyadorlik jamiyati (AJ) shaklida tashkil etilishi belgilab qo’yilgan. Aynan shu qonun imzolanmasidan oldin Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki Davlat Unitar korxonasi (DUK) shaklida bo’lgan. Bizga ma’lumki Aksiyadorlik Jamiyatlari korporativ boshqaruvning asosiy bo’gini bo’lib xizmat qiladi. Xuddi shunday sug’urta tashkilotlari ham Aksiyadorlik Jamiyatlari shaklida tashkil etiladi.

Moliya sektori tashkilotlari misolida biz Tijorat banklarini ko’rib chiqamiz. O’zbekiston Respublikasida Tijorat banklari avvalo Shveytsariyaning Bazel shahrida tashkil etilgan Bazel qo’mitasi (Basel Committee on Banking Supervision (BCBS) standartlari asosida boshqaruv va ijroiya organlari ishini tashkil qiladi.

Avvalo barcha xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan barcha tavsiyalarning har birida uchraydigan va hammasi uchun bir xil dolzarb bo’lgan axborot oshkorligi va boshqaruv va quyi bo’g’inlarning har birida shaffolik tamoyillarini ko’rib chiqamiz.

Bazel qo’mitasining oshkorlik tamoyollarida banklarda “Komplayens nazorat” tizimi joriy etilishi belgilab qo’yilgan. Komplayens nazorat kompaniyada har xil korrupsion risklar va korrupsion holatlarni oldini olish uchun muhim o’rin tutadi. O’z o’rnida tijorat banklarida komplayens nazorat bo’limlari, komplayens nazorat departamentlari va sho’balari tashkil etilgan. Qo’mita tavsiyalari asosida “Whistlebolwing”ni rag’batlantirish va ularning huquqlarini himoyalash tizimlari yo’lga qo’yilgan. Whistleblowing (ing. – hushtak chalish) – kompaniyadagi har xil korrupsiyaviy holatlar haqida yuqori turuvchi organga murojaat qilgan shaxs hisoblanadi. Ushbu xodimlarni huquq va erkinliklarini himoya qilish va rag’batlantirish yo’lga qo’yilgan.

Bundan tashqari Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish banki tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarning yettinchi tamoyili quyidagicha: “Korporativ boshqaruv tizimi aniq va tasdiqlangan axborotni barcha manfaatdor tomonlarga o’z vaqtida oshkor etilishini ta’minlashi lozim” 37 . Ushbu tavsiyaga amal qilish esa o’z o’rnida kompaniyaning aksiyadorlari, affillangan shaxslari, boshqaruv organlari hamda xodimlar uchun kerakli ma’lumotlar e’lon qilinishi orqali axborot shaffofligi taminlanadi.

O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ham aynan oshkorlik va shaffolik tamoyillariga alohida to’xtalib o’tilgan. Kompaniyaga tegishli ma’lumotlar qay tartibga kimlarga qaysi muddatda oshkor qilinishi aniq bayon qilib o’tilgan. Shu bilan birga aksiyadorlik jamiyatlari uchun amal qiladigan har bir jamiyatning nizomi yani ustavi bo’lishi belgilab qo’yilgan. Jamiyat ustavida kompaniya haqida kerakli yo’riqnoma va ma’lumotlar belgilab qo’yiladi. Shundan ayrim misollar keltiramiz: [Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibi jamiyat ustavi bilan belgilanadi, bunda kuzatuv kengashi tarkibiga kiritiladigan mustaqil a’zolar soni alohida ko‘rsatilishi kerak].38 Ushbu turdagi tartiblar xorij tajribasi asosida hamda Korporativ boshqaruvning milliy standartlari asosida shakllantirilgan.

Tijorat banklari korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari bilan bir qatorda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga javob beradigan tizimni ham yo’lga qo’yishi kerak bo’ladi. Hozirda Korporativ boshqaruv yaxshi yo’lga qo’yilgan va kelajakda bundanda yaxshi natijalarga erishilishi kutilmoqda. Ammo investorlar kompaniyaning faqatgina korporativ boshqaruvini emas, moliyaviy aktivlar holatini, sof foydasini va sof foydaning jami aktivlar yoki pul aylanmasiga nisbatini ham inobatga oladi. Buning uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga murojaat qilinadi. Agar kompaniya ushbu standartlar asosida hisobotlarini yuritsa, har bir investor uchun o’z hisobotlarini xalqaro standartlarga o’girishiga hojat qolmaydi va o’z hisobotlarini to’g’ridan to’g’ri investorga yoki xalqaro moliya tashkilotlariga taqdim etadi. Shu bilan birga bunday turdagi hisobotlarni korxonaning rasmiy saytlarida yoki sahifalarida e’lon qilish orqali ham korxona ish samaradorligini boshqalarga yetkazishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasida chet el banklarining vakolatxonalari mavjud bo’lib, ushbu banklar chet eldagi banklarning filiallari emas. Bunga asos qilib “Bank va banklar faoliyati to’g’risida”gi qonunni ko’ratish mumkin. Ushbu qonunda chet el banklarining filiallarini O’zbekiston Respublikasida ochishga yo’l qo’yilmasligi belgilab qo’yilgan. Agar ushbu banklar

hamda O’zbekistondagi xususiy va Davlat ishtirokidagi banklar xalqaro hisobot standartlariga o’tsa ular o’zaro hamda chet el bilan ma’lumot almashishi osonlashadi. Albatta bu borada “Bank siri” oshkor etilishiga yo’l qo’yilmaydi.

Hozirda arab mamlakatlarining investitsiya qudrati kuchligini hisobga oladigan bo’lsak, har bir bank o’z tarkibida Islom moliyasi asosida ishlaydigan bo’lim joriy etishi yuqoridagi davlatlar bilan hamkorlikka keng yo’l ochadi. Islom moliyasi asosida ishlaydigan bo’lim ochish uchun yangi resurs yangi kadrlar kerak bo’ladi. Negaki Islom moliyasi boshqa bir tizim va ushbu tizimdagi mablag’lar boshqa pul manbalar orqali tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Korporativ boshqaruvni xalqaro normalar asosida tashkil etish orqali biz mamalakatga tashqi investitsiya jalb qilishimiz, mamlakat hududida samarali korporativ boshqaruv tashkil etish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishimiz mumkin bo’ladi. Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish rivojlanayotgan mamalakatlar qatoridan rivojlangan mamalakatlar qatoriga chiqsh bizning oldimizdagi ustuvor vazifa hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmonida belgilab qo’yilgan uchinchi ustuvor yo’nalish - “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash”39 ekanligi bu masalaning qanchalik dolzarbligini ko’rsatadi. Bunda biz ko’zlagan natijaga erishish uchun mamlakatimiz rivojlanishida xalqaro normalar asosida tashkil etilgan samarali korporativ boshqaruvni tashkil etish va yuritish shart va zarur hisoblanadi.

Xulosa. Mamalakat rivojlangan sari tashqi savdo aloqalari va tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlana boradi. Bu o’z o’rnida mamlakat miqsoyida va xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy mamlakatlar bilan pul bilan bog’liq aloqalar hajmi oshishiga olib keladi. O’z o’rnida esa moliya sektori kompaniyalari uchun juda katta masuliyat talab qiladi. Chunki mahsulot va xizmatlar o’z o’rnida va o’z vaqtida bajarilishi va bitimlar muddati kechikmasligi uchun moliya sektori korxonalari aniq va tezlikda ishlashlari va ushbu zanjirni uzilib qolmasligi uchun xizmaty qilishi zarur. Hozirgi biz tashkil etgan va yanada rivojlantirishda davom etayotgan korporativ boshqaruvning milliy standartlari ushbu sohada uzilish va kamchiliklar keltirib chiqarishga also yo’l qo’ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 151.
2. Z.A. Ashurov, F.A. Jalilov, B.N. Urinov Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba). – T.: Iqtisodiyot, 2021. –195 s
3. O’zbekiston Respublikasining 18.01.2023 yildagi O’RQ-814-sonli Qonuni “Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” - https://lex.uz/uz/docs/-6362296
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60- sonli Farmoni “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” - https://lex.uz/docs/5841063

5. Toshkent Respublika fond birjasining rasmiy sayti – www.uzse.uz ma’lumotlariga asosan muallifkar tomonidan ishlab chiqildi

6. Hilmer, Frederick G. (1993) Strictly Boardroom – Improving Governance to Enhance Business Performance. Business Library https://librariesaustralia.nla.gov.au

7. Ziwei Zhang, Hu Fu, Shiqi Xie, Javier Cifuentes-Faura, Urinov Bobur Nasilloyevich, Role of green finance and regional environmental efficiency in China, Renewable Energy, 2023, ISSN 0960-1481, https://doi.org/10.1016/j.renene.2023.05.076.

8. Tajiyeva, M. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC SYSTEM OF SMALL BUSINESS THEORETICAL VIEWS OF SCIENTISTS IN DEVELOPMENT. A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 55-59.

9. Tojiyeva, M. M. (2022). Ҳудудий иқтисодиётни ривожлантиришда кичик бизнеснинг аҳамияти. In 3rd German Conference-2022, A CONFERENCE FOR THE FUTURE GRADUATES AND EDUCATORS. Berlin, Germany July 30th.

10. Hamidjon Rasulov. (2023). SIYOSIY MOJAROLARNING TURIZMGA TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 147–150. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.857

11. Yakubovich, R. H. (2024). QO ‘QON SHAHAR TURIZMI RIVOJLANISHIDA HUNARMANDCHILIKNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 668-671.

12. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 8-11.

13. Melibayeva Gulxon Nazrullaevna, & Baxtiyorjonova Muxlisa. (2024). O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMNI ISTIQBOLLARI. Kokand University Research Base, 803–806. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/223

14. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN’S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 265–267. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.431

15. A. A. Yusupov. (2024). ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL MECHANISM OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(5), 70–73. Retrieved from https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/630

16. Otto, M., & Thornton, J. (2023). SAYYOHLAR UCHUN YOVVOYI TABIAT FAROVONLIGINI OSHIRISHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 106-108.

17. Yuldasheva Nilufarxon A’zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 73–75. https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254

18. Turanboyev Boburjon Qodirjon o‘g‘li. (2024). EKOLOGIK SOLIQQA TORTISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISH YO‘LLARI. Kokand University Research Base, 931–934. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/260

19. Iqboljon o‘g‘li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI O‘LCHASH OMILLARI. Kokand University Research Base, 746-750.

20. Iqboljon o‘g‘li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIY O ‘SISHGA TA’SIRI. Kokand University Research Base, 742-745.

21. Nazarali o’g‘li, M. S. (2023). THE STUDY OF VALUE-ADDED TAX: KNOWLEDGE FROM THE EU VAT EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S VAT SYSTEM. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 131-135.

22. Davronjon, A., & Gulmira, A. (2023). INVEST IN THE BUSINESS OF THE FUTURE: CLOUD COMPUTING. Academia Science Repository, 4(5), 94-101.

XULQ-ATVOR MOLIYASINING ASOSLARI VA UNING INVESTORLARNING QAROR QABUL QILISHDAGI O’RNI

Yuldasheva Nilufarxon A’zamjon qizi
Qo’qon Universiteti, o’qituvchi

Annotatsiya. Xulq-atvor moliyasi investorlarning qanday va nima uchun ko'pincha mantiqsiz harakat qilishini tushuntirish uchun iqtisodiy nazariya bilan psixologik tushunchalarni birlashtiradi. Ushbu tezis global bozorlar kontekstida xulq-atvorli moliyaning ahamiyatini, turli modellarni o’rganib, uning investorlarning xatti-harakatlari va bozor dinamikasiga ta'sirini ko'rsatadigan real misollar beradi. Qaror qabul qilishga turtki bo'lgan kognitiv tarafkashliklar va hissiy ta'sirlarni tan olgan holda, investorlar va siyosatchilar moliyaviy bozorlarning murakkabliklarida yaxshiroq harakat qilishlari haqida firk yuritadi va foydalanuvchi uchun umumiy ma’lumotlarni taqdim etadi. Xulq-atvor moliyasi va uning iqtosodiyot hamda investorni qaror qabul qilishidagi ashamiyati haqida muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: xulq-atvor moliyasi, efficient market hypothesis, risk, investor qarori.

Kirish: Xulq-atvor moliyasi - bu investorlarning murakkab qarorlar qabul qilish jarayonlarini yaxshiroq tushunish uchun psixologiya tushunchalarini moliya tamoyillari bilan birlashtiradigan fanlararo soha (Subrahmanyam, 2008). An'anaga ko'ra, moliyaviy nazariyalar bozorlar samarali va investorlar faqat mavjud ma'lumotlarga asoslanib daromadni maksimal darajada oshirish istagidan kelib chiqqan holda oqilona harakat qiladilar degan faraz ostida ishlaydi. Biroq, real dunyo kuzatuvlari doimiy ravishda bu tushunchaga zid keladi, bu inson xatti-harakatlariga ko'pincha aql bovar qilmaydigan investitsiya qarorlariga olib keladigan turli xil kognitiv qarashlar, his-tuyg'ular va ijtimoiy omillar ta'sir qilishini ko'rsatadi. Ratsionallikda bu farq shunchaki kichik anomaliya bo’lmay, balki bozor dinamikasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, natijada bo’shliqlar, qulashlar va anomal aktivlar bahosi kabi hodisalar yuzaga keladi.

Qo‘qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Aksiyalar bozori an’anaviy ravishda yirik korporatsiyalar tomonidan boshqarilgan bo‘lsa-da, u tobora kichik biznes subyektlari uchun ham ochiq bo‘lmoqda. Ushbu dissertatsiya kichik bizneslar uchun aksiyalar bozoriga kirish imkoniyatlarining rivojlanayotgan manzarasini o‘rganadi, ularning foydalari, qiyinchiliklari va bozorga kirish strategiyalarini tahlil qiladi. Asosiy me'yoriy tartiblar, texnologik yutuqlar va innovatsion moliyaviy vositalarni ko‘rib chiqish orqali tadqiqot kichik bizneslar aksiyalar bozoridan kapital o‘sishi, ko‘rinuvchanlik va uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun qanday foydalanishi mumkinligini to‘liq tushunishni taqdim etishni maqsad qiladi.

Kalit so‘larz: Aksiya, Aksiyalar bozori, Kichik biznes, Kapital, ish o‘rinlari, IPO.

Kichik bizneslar global iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalar va iqtisodiy barqarorlikka katta hissa qo‘shadi. Ammo ular duch keladigan asosiy muammolardan biri – o‘z faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun yetarli moliyalashtirishni ta’minlashdir. An'anaviy ravishda kichik biznes moliyalashtirilishi asosan bank kreditlari, xususiy kapital yoki venchur kapitali bilan cheklangan. Biroq, texnologik yutuqlar, me'yoriy o‘zgarishlar va alternativ bozorlarning o‘sishi bilan aksiyalar bozori kichik biznes subyektlari uchun kapital jalb qilish va bozorda o‘z ishtirokini kengaytirish uchun istiqbolli variantga aylanmoqda.

Ushbu tezisda kichik biznes subyektlarining aksiyalar bozoriga kirish imkoniyatlarini o‘rganishni maqsad qiladi. Bu bizneslarning bozorga kirishiga imkon beruvchi shartlarni, kapital jalb qilish shakliga aloqador afzalliklar va xatarlari hamda aksiyalar bozoriga kirishning kichik bizneslarga ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqot kichik bizneslarning aksiyalar bozorida ishtirok etishiga yordam beradigan mexanizmlarga, masalan, boshlang‘ich ommaviy takliflar (IPO), ikkilamchi aksiyalar bozorlari va alternativ investitsiya platformalariga e’tibor qaratadi.

Kichik biznes subyektlari uchun aksiyalar bozorining ahamiyati.Aksiyalar bozori kompaniyalarga ommaga aksiyalarni sotish orqali kapital jalb qilish imkoniyatini taqdim etadi. Yirik korporatsiyalar uchun bu uzoq vaqtdan beri kengayish, sotib olish va mahsulotlarni rivojlantirish uchun asosiy moliyaviy manba bo‘lib kelgan. Ammo, kichik biznes subyektlari qattiq ro‘yxatga olish talablari, yuqori xarajatlar va ommaviy takliflar bilan bog‘liq murakkabliklar tufayli an'anaviy ravishda bu imkoniyatlardan mahrum bo‘lgan.

Shu qiyinchiliklarga qaramay, kichik bizneslar aksiyalar bozoriga kirib quyidagi foydalarga ega bo‘lishi mumkin:

Kapitalga kirish: Kichik bizneslar ko‘pincha likvidlik cheklovlari va kredit olish imkoniyatlari bilan bog‘liq muammolar bilan duch keladi. Aksiyalar bozoriga chiqish ularga investorlar hovuziga kirish imkonini beradi va shu orqali o‘sish va innovatsiyalar uchun katta miqdorda kapital jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ko‘rinuvchanlik va obro‘ning oshishi: Aksiyalar bozoriga ro‘yxatga kiritilish kichik biznesning jamoatchilik oldidagi profilini va brend obro‘sini oshirishi mumkin. Bu ko‘rinuvchanlik ko‘proq mijozlar, investorlar va biznes hamkorlarini jalb qilishga yordam beradi.

Aktsiyadorlar uchun likvidlik: Ommaviy aksiyalar chiqarish orqali kichik bizneslar o‘z aksiyadorlariga, shu jumladan asoschilarga, xodimlarga va dastlabki investorlar uchun likvidlik taklif qiladi. Bu biznesni potentsial investorlarga yanada jozibador qiladi, chunki ularga aksiyalarni sotish yoki likvidatsiya qilishning aniq yo‘li mavjud bo‘ladi.

Xodimlarni ushlab qolish va motivatsiya: Xodimlarga aksiyalar opsiyalarini taqdim etish ularning ishdan ketishini kamaytirishi va motivatsiyasini oshirishi mumkin, bu esa ularning manfaatlarini kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyati bilan bog‘laydi.

Bu foydalarga qaramay, aksiyalar bozoriga kirishdagi to‘siqlar ko‘p kichik bizneslar uchun jiddiy bo‘lib qolmoqda va bu to‘siqlarni o‘rganish bozorga kirish yo‘llarini ochib beradi.

Kichik biznes subyektlarining aksiyalar bozoriga kirishdagi to‘siqlari.Aksiyalar bozori bir qancha imkoniyatlarni taqdim etsa-da, kichik bizneslar katta korporatsiyalarga qaraganda bu bozorga kirishda o‘ziga xos muammolarga duch keladi. Asosiy to‘siqlardan ba'zilari quyidagilardan iborat:

Ro‘yxatga olishning yuqori xarajatlari: Ommaviy aksiyalar chiqarish jarayoni, ayniqsa boshlang‘ich ommaviy taklif (IPO) orqali, juda qimmat bo‘lishi mumkin. Kichik bizneslar yuridik va buxgalteriya xizmatlari, anderrayting to‘lovlari va muvofiqlik talablarini qoplash bilan bog‘liq xarajatlarda qiynalishi mumkin.

Me’yoriy to‘siqlar: Aksiyalar bozoriga ro‘yxatga olish talablari ko‘pincha yirik korporatsiyalar uchun mo‘ljallangan. Moliyaviy hisobotlar, korporativ boshqaruv va shaffoflik standartlariga rioya qilish cheklangan resurslarga ega kichik bizneslar uchun qiyin bo‘lishi mumkin.

Mulkiy ulushning suyulishi xatari: Kichik biznes egalari uchun ommaga aksiyalar chiqarish mulk va nazoratning suyulishiga olib kelishi mumkin. Aksiyalarni ommaga sotish ko‘pincha biznesning muhim qismini topshirishni anglatadi, bu esa qaror qabul qilishda nazoratni qo‘ldan bermoqchi bo‘lmagan asoschilar uchun jozibador bo‘lmasligi mumkin.

Bozor volatilligi: Aksiyalar bozori juda o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin va ayniqsa kichik bizneslar bozor sharoitlaridagi tebranishlarga sezgir. Aksiyalar narxlarining pasayishi kichik biznes aksiyalarining qiymatiga va kapital jalb qilish qobiliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bu to‘siqlarni tushunish kichik bizneslar uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlash va aksiyalar bozoriga kirishdagi muammolarni qanday yengish mumkinligini bilishga yordam beradi.

Kichik biznes ishtiroki uchun muqobil yo‘llar.So‘nggi yillarda IPO kabi an’anaviy aksiyalar bozoriga kirish yo‘llarini kichik bizneslar uchun yanada qulayroq bo‘lgan muqobil mexanizmlar to‘ldirdi.

Ikkilamchi bozorlar va muqobil aksiyalar birjalari.Ba'zi aksiyalar birjalari kichik bizneslar uchun mo‘ljallangan maxsus platformalar yoki ikkilamchi bozorlarni ishlab chiqqan. Masalan:

NASDAQ SmallCap: NASDAQ birjasining kichik kompaniyalarga ularning bozor kapitalizatsiyasi pastroq va moliyaviy talablar nisbatan kam bo‘lgan holda aksiyalarni ro‘yxatga olish imkoniyatini beruvchi bo‘limi.

London birjasining AIM bozori: AIM bozorini o‘sishga yo‘naltirilgan kichik kompaniyalar uchun mo‘ljallangan. U kichik bizneslar uchun kapital jalb qilishni osonlashtiradigan yanada moslashuvchan me'yoriy muhitni taklif qiladi.

Birjadan tashqari (OTC) bozorlar: Bu bozorlar kichik kompaniyalarga rasmiy aksiyalar birjasida ro‘yxatga olinmasdan aksiyalarni sotish imkonini beradi. Bu bozorlar kamroq tartibga solinadi, lekin ular kichik bizneslarga investorlar va kapitalga kirish imkonini beradi.

Kraudfanding va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ro‘yxatga olish.An’anaviy IPOlardan tashqari, kichik bizneslar aksiyalar bozoridan kapital jalb qilishning innovatsion usullarini ham o‘rganishi mumkin:

Aksiya kraudfandingi: Seedrs va Crowdcube kabi platformalar kichik bizneslarga onlayn platformalar orqali aksiyalarni bevosita jamoatchilikka sotish orqali kapital jalb qilish imkonini beradi. Ushbu usul uning qulayligi va past xarajatlari tufayli tobora ommalashib bormoqda.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ro‘yxatga olish: IPOdan farqli o‘laroq, bunda yangi aksiyalar yaratiladi va sotiladi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ro‘yxatga olish orqali mavjud aksiyadorlar aksiyalarini bevosita jamoatchilikka sotishi mumkin, bu esa kichik biznes uchun yanada tejamkor bo‘lishi va mulkni suyultirishni oldini olishi mumkin.

Texnologik yutuqlar va ularning aksiyalar bozoriga kirishga ta’siri.Texnologik yutuqlar kichik bizneslar uchun aksiyalar bozoriga kirishdagi to‘siqlarni sezilarli darajada pasaytirdi. Raqamli platformalar, moliyaviy texnologiyalar (FinTex) va blokcheyn texnologiyasi kichik kompaniyalar uchun kapitalga kirishning yangi imkoniyatlarini yaratdi.

Raqamli savdo platformalari: Onlayn savdo platformalarining paydo bo‘lishi aksiyalar bozoriga kirishni demokratlashtirdi va kichik bizneslarga kengroq auditoriyadagi investorlarga kirish imkonini berdi. Bu platformalar ko‘pincha ro‘yxatga olish, savdo qilish va aksiyalarni boshqarish bo‘yicha soddalashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi.

Blokcheyn va tokenizatsiya: Blokcheyn texnologiyasi tokenizatsiya konsepsiyasini taqdim etdi, bunda kompaniyalar aksiyalarni ifodalovchi raqamli tokenlar chiqarishi mumkin. Bu tokenlar markazlashtirilmagan platformalarda sotilishi mumkin, bu esa kichik bizneslarga aksiyalar birjalariga ro‘yxatga olishning an’anaviy cheklovlarisiz kapital jalb qilishning alternativ usulini beradi.

Kichik biznesning aksiyalar bozoriga muvaffaqiyatli kirishiga oid amaliyotlar. Bir qancha kichik bizneslar aksiyalar bozoridagi murakkabliklarni muvaffaqiyatli yengib, ommaviy takliflar orqali kapital jalb qilgan. Ularning tajribasini o‘rganish boshqa kichik bizneslarga muvaffaqiyatga olib boradigan strategiyalar bo‘yicha qimmatli tavsiyalar berishi mumkin.

Shopify, e-tijorat platformasi provayderi, 2015 yilda Nyu-York aksiyalar birjasida ommaga aksiyalarini taklif qilgan. U vaqtida nisbatan kichik kompaniya bo‘lganiga qaramay, Shopify IPO orqali 131 million dollardan ortiq kapital jalb qildi. Uning muvaffaqiyatidagi asosiy omillar kuchli daromad o‘sishi, kengaytirish mumkin bo‘lgan biznes modeli va investorlar uchun aniq qiymat taklifi bo‘lgan.

Fiverr, freelancerlar uchun bozor, 2019 yilda ommaga aksiyalarini taklif qildi va IPO orqali 110 million dollardan ortiq mablag‘ jalb qildi. Kompaniyaning innovatsion biznes modeli va freelancing xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘sishi katta investor qiziqishini jalb qildi. Fiverrning

muvaffaqiyati shuni ko‘rsatadiki, kuchli o‘sish potentsiali va jozibali hikoyaga ega kichik bizneslar aksiyalar bozorida muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Aksiyalar bozori kichik biznes subyektlari uchun kapital jalb qilish, bozorda o‘z ishtirokini oshirish va uzoq muddatli o‘sishni ta’minlash uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Aksiyalar bozoriga kirishdagi to‘siqlar sezilarli darajada bo‘lib qolsa-da, moliyaviy texnologiyalar, me'yoriy tartiblar va muqobil bozorlar sohasidagi so‘nggi yutuqlar aksiyalar bozorida ishtirok etishni yanada qulayroq qildi. Aksiyalar bozoriga kirishni rejalashtirayotgan kichik bizneslar xarajatlar, xatarlar va foydalar haqida sinchiklab o‘ylab ko‘rishi kerak. Muqobil platformalardan foydalanish, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganish va texnologik yutuqlardan foydalanish orqali kichik biznes subyektlari global moliya bozorlarida muvaffaqiyat yo‘llarini ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allen, F., & Faulhaber, G. R. (1989). Signaling by underpricing in the IPO market. Journal of Financial Economics, 23(2), 303-323.
2. Ritter, J. R. (1991). The long-run performance of initial public offerings. Journal of Finance, 46(1), 3-27.
3. Pagano, M., Panetta, F., & Zingales, L. (1998). Why do companies go public? An empirical analysis. Journal of Finance, 53(1), 27-64.
4. Block, J. H., Colombo, M. G., Cumming, D. J., & Vismara, S. (2018). New players in entrepreneurial finance and why they are there. Small Business Economics, 50(2), 239-250.

XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ergasheva Aziza Farmonovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Xizmat ko‘rsatish sohasi sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlaridan ikki baravar ko‘p, shuningdek jahon iqtisodiyotining 63,6 foizini tashkil qiladi. Amerika Qo‘shma Shtatlari dunyodagi eng katta xizmat ko‘rsatish sohasiga ega mamlakat hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos xususiyatlariga ega: xizmatlar ishlab chiqarilmaydi va ularni tashish mumkin emasligi; xizmatni yetkazib berish va iste’mol qilishni ajratish mumkin emas; xizmatlar bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarilishi va iste’mol qilinishi; xizmatlarni kelajakda foydalanish uchun saqlab bo‘lmasligi kabilar.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida xizmatlar sohasiga shunday ta’rif beriladi: Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog‘idir[1]. Bu borada mamlakatda bir qancha Prezident farmon va qonunlari qabul qilingan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 -yil 12-iyundagi PF-91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni;

2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni;

2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi;

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi;

2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son «Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi;

2021-yil 30-dekabrdagi PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi;

2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi;

2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandchilikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi;

2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son ««Hunarmand» uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari.

J. M. Pardayev[2] ilmiy ishlarida O‘zbekiston Respublikasi “Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi”ga (IFUT 2-tahrir) ko‘ra, respublikamizda xizmatlar sohasi ma’lum bir

belgilariga ko‘ra tasniflagan. Ushbu tasniflagichga asoslangan holda xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy ahamiyati jihatidan guruhlashtirilgan (1-rasm).

Bugungi kunda xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalarning faoliyat turiga ixtisoslashuviga ko‘ra, yuqorida keltirilgan xizmat ko‘rsatish korxonalardan tashqari, yana bir qator ularning turlari borki, ular jumlasiga, oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar,umumta’lim, maktabgacha ta’lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta’lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, internet-kanallar va pochta aloqalarini qo‘shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta’lim olish va xohlagan kasbga o‘qishni ixtisoslashganta’lim sohasidagi xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar, stasionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pullik asosida ko‘rsatilgan kompleks xizmatlarni ko‘rsatadigan sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko‘rsatadigan korxonalar,shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlar ko‘rsatadigan me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalarni ham keltirish mumkin.

O‘zbekistonda, aynan Buxoro viloyatida hunarmandchilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, uni qayta tiklash va rivojlantirish zarurati quyidagilar bilan bog‘liq:

hunarmandchilik ayni paytda kapitalni dastlabki jamg‘arish vositalaridan biri bo‘lgan holda aholining ancha keng qatlamlari uchun tirikchilik vositasini ta’minlaydi;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishga yordam beradi va bir qator ishlab chiqarish tarmoqlarida yirik ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlasha oladi;

hunarmandchilik mahsulotlarini qo‘lda ishlab chiqarish bozor o‘zgarishlariga yanada moslashuvchan javob berish qobiliyatiga ega, bu uning nisbiy barqarorligini ta’minlaydi;

hunarmandchilikning rivojlanishi ishsizlik darajasini pasaytiradi;

hunarmandchilik xalqning tarixiy va maishiy an’analari va madaniyatini saqlaydi va rivojlantiradi;

hunarmandchilik ishlab chiqarishiga jalb qilish aholining tashabbuskorligini rivojlantiradi, shaxsning shaxsiy fazilatlarini ochishga imkon beradi, uning o‘zini-o‘zi anglashi va bozor munosabatlariga jalb qilinishiga yordam beradi;

hunarmandlar qatlami o‘rta sinfning bir qismi bo‘lib, ularning mavjudligi jamiyat barqarorligini ta’minlaydi.

Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘proq mahalliy bozorga yo‘naltirilganligini hisobga olib, davlat tomonidan, birinchi navbatda, hududiy miqyosda qo‘llab-quvvatlanishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart deb hisoblaymiz:

– kichik biznesni rivojlantirish uchun ajratilayotgan mablag‘lar hisobidan imtiyozli subsidiyalar va kreditlar berish;

– hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratishga ko‘maklashish:

konsalting xizmatlari tizimini tashkil etish (hunarmandchilik korxonalarini tashkil etish va faoliyat yuritishda konsalting yordami);

Xizmat ko‘rsatuvchi korxonlarning turlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmat ko’rsatuvchi korxonalar	Aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektronpochta, suniy yo’ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma’lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini ko’rsatishga ixtisoslashgan
Moliyaviy xizmat ko’rsatuvchi korxonalar	Banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil -banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachiligi va boshqa moliyaviy xizmatlarini ko’rsatishga ixtisoslashgan korxonalar (muassasalar)
Transport xiz-matlarini ko’r-satuvchi korxonalar	Transportning barcha turlarida yuklarni va yo’lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni ko’rsatishga ixtisoslashgan korxonalar
Yashash va ovqatla-nish xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalar	Mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo’yicha ko’rsatishga ixtisoslashgan korxonalar
Savdo xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalar	Ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini ko’rsatishga ixtisoslashgan korxonalar
Ko’chmas mulk bilan bog’liq xizmatlarini ko’rsatuvchi	Ko’chmas mulk bilan bog’liq operatsiyalar bo’yicha xizmatlar ko’rsatishga ixtisoslashgan korxonalar

1-rasm. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar turlari.

- tovar, xomashyo va materiallar bozorlarini axborot bilan ta'minlash, seminarlar, yarmarkalar, ko'rgazmalar va boshqalarni o'tkazish;
- reklama va marketing faoliyatini tashkil etish;

– hunarmandchilik mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qitish va stajirovkalarni tashkil etish uchun sharoit yaratish;

– hunarmandchilik ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali qulay jamoatchilik fikrini shakllantirish;

– hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish;

– huquqiy ta'minot bo‘yicha:

– hunarmandlarning yaratilgan mahsulotlarga bo‘lgan mualliflik huquqini himoya qilish;

– advokat maslahatini tashkil etish.

Hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va mavjud muammolarni kompleks hal etish imkonini beruvchi davlat darajasidagi ustuvor chora-tadbirlardan biri notijorat tashkilotlar shaklida hunarmandchilik markazlari va hunarmandchilik palatalarini tashkil etishdan iborat.

Hunarmandchilikda biznes muhitini yaxshilash va kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O’zbekistonda Hunarmandlar uyushmasi tashkil etilgan bo’lib, hozirgi kunda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar umumiy soni 1146 nafarni tashkil etadi[3].

So‘nggi yillarda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va “Hunarmand” uyushmasi hamkorlikda qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Natijada 2022 yil yanvar-dekabr oylarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratiladigan kreditlar, subsidiyalar va usta-shogird maktablari tashkil topishi hisobiga 2022 yilda 80 ming (15 501 usta, 64 499 shogird) nafar fuqaroning bandligini ta’minlashni maqsad qilib oligan bo‘lib, 2023-yilda 87 297 ta yangi ish o‘rni (15 971 usta, 71 326 shogird) yaratildi. Yaratilgan ish o‘rinlarining 59 436 tasi (68%) ayollar, 38 659 tasi 44%) yoshlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi” hisobidan 6 864 nafar ishsiz fuqarolarni hunarmandchilikka yo‘naltirish va bandligini ta’minlash uchun 5 304 mln. so‘m mablag‘lar ajratildi.

3. Hunarmandchilik loyihalari dasturini shakllantirish va bu orqali soha vakillarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2018-2021 yillarda jami 40 mingdan ortiq hunarmandchilik loyihalari uchun 1,1 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan, ajratilgan kreditlarni o‘z muddatida qaytarish darajasi 89 foizni tashkil etib, bugunga qadar sohaga ajratilgan jami kreditlardan muddati kelgan 915 mlrd. so‘mi tijorat banklariga qaytarilgan.

4. Hunarmandlarning xalq amaliy san’ati milliy katalogi yaratilib, faxriy va xalqaro ko‘rgazma hamda tanlovlarda g‘olib bo‘lgan 353 nafar ustalar ushbu katalogga kiritildi. Shuningdek, 1,2 mingga yaqin hunarmandlar turizm reyestriga kiritilib, ushbu soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

5. O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchixona va vakolatxonalari ko‘magida MDH, Yevropa va AQSH davlatlariga hunarmandchilikning kulolchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, yog‘och

o‘ymakorligi, gilamchilik va qo‘lda gazlama to‘qish yo‘nalishlari bo‘yicha jami 13,2 mln. AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

6. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarining onlayn savdosini yo‘lga qo‘yish uchun uzcrafts.uz, suzanishop.uz va ikatmarketing.com kabi internet magazinlari hamda ijtimoiy tarmoqlarda uzcraft.com kanal va guruhlari tashkil etildi [4].

Hozirgi kunda bir-biridan farq qiluvchi ayrim xizmatlar toifalarini ajratish tendensiyasi mavjud va ushbu toifalar bo‘yicha xizmatlarni quyidagicha tasniflash mumkin, Buni muallifimiz B.A. Ismailov quyidagicha tasnf keltirilgan (1-jadval):

1- Xizmatlarning muayyan belgilari bo‘yicha turlarga ajratilishi[5]

№	Xizmatlarning tasnifiy belgilari	Xizmatlar turlari
1.	Xizmatlarning turlari bo‘yicha	Ishlab chiqarish; taqsimlash; kasbiy; iste’mol (ommaviy); ijtimoiy.
2.	Moddiy-buyum mazmuniga ega xizmatlar	Moddiy ishlab chiqarish xizmatlari; nomoddiy xizmatlar.
3.	O‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra	Yangi iste’mol qiymatini yaratuvchi; tovarlarning iste’mol xususiyatini tiklovchi xizmatlar; shaxsiy tavsifdagi xizmatlar.
4.	Sezuvchanlik darajasi bo‘yicha	Obyekt sifatida insonga yo‘naltirilgan sezuvchan xizmatlar (sog‘liqni saqlash, restoran, kafe, yo‘lovchi transporti); obyekt sifatida tovarlar va buyumlarga yo‘naltirilgan sezuvchan xizmatlar (kimyoviy tozalash, jihozlarni ta’mirlash); inson tafakkuriga yo‘naltirilgan sezilmaydigan xizmatlar (ta’lim, teatr, muzey); sezilmaydigan aktivlar bilan bog‘liq sezilmaydigan xizmatlar (huquqiy, sug‘urta masalalari).
5.	Ishlab chiqaruvchining xarakteriga bog‘liqligi bo‘yicha	Insonlarga taqdim qilinadigan xizmatlar, mashina va mexanizmlarga taqdim qilinadigan xizmatlar.
6.	Xizmatlarni ko‘rsatish vaqtida mijozlarning ishtirok etishga boog‘liqligi bo‘yicha	Mijozning ishtirokini talab qiluvchi xizmatlar (kosmetolog, shifokor); mijozning ishtirokini talab qilmaydigan xizmatlar (adabiyotlarni qidirish, maishiy xizmat buyumlarini ta’mirlash)
7.	Iste’molchilarning motivatsiyasiga bog‘liq holdagi xizmatlar	Insonlarning shaxsiy zaruriyatini qondirisjga mo‘ljallangan xizmatlar (ta’lim, madaniyat, sport); korxona va tashkilotlarning jamoaviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlar (ishbilarmonlik tavsifidagi xizmatlar); ijtimoiy ehtiyojlarini qondirihga yo‘naltirilgan xizmatlar.

8.	Ishlab chiqaruvchilarning motivatsiyasiga bog‘liq holdagi xizmatlar	Maqsad foydaga yo‘naltirilgan xizmatlar; muayyan ijtimoiy samarani olishga yo‘naltirilgan muhtojlarga yordam berish bo‘yicha xizmatlar.
9.	Xizmat ko‘rsatish shaklllariga ko‘ra	Tomonlarning kelishuv shartlari bilan muvofiqlikda xizmatlar olish huquqini taqdim qiluvchi hujjatga asoslangan xizmatlar; ish, dam olish, turar joylari bo‘yicha; Vaqt oralig‘ida amalga oshiriladiganshoshilinch xizmatlar; o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish.
10.	U yoki bu tarmoqqa tegishligiga ko‘ra	Sog‘liqni saqlash, ta’lim, maishiy, kommunal, turizm, ko‘chmas mulk sohasidagi, bank, axborot, moliyaviy va boshqa turdagi xizmatlar.
11.	Samaradorlikni oshirishga ta’siri bo‘yicha	Proressiv xizmatlar, subyektiv xususiyatga ega xizmatlar, individual xizmatlar.

Xizmatlarning har xil turlarida nomoddiy va moddiy elementlarning nisbati bir xil emas, bu an’anaviy va noan’anaviy xizmatlarni ajratib olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.buxstat.uz/uploads/press-relizlar/2023/xizmat/xiz_avgust.pdf
2. Pardayev J. Xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 47-52.
3. https://hunar.uz/
4. https://handicraftman.uz/o-zbekiston-respublikasi-hunarmand-uyushmasi-tomonidan-soha-kesimida-2022-yil-faoliyat-tahlili-va-2023-yildagi-asosiy-vazifalar-haqida/
5. Hakimovich T. M. Xizmat ko ‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 48. – C. 341-347.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING HUQUQIY-IJTIMOIY ASOSLARI

Ismoilova Sarvinoz Qahramon qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish jahon miqyosida davom etayotgan muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ayollar yurtimizning mehnatga layoqatli va iqtisodiy jihatdan faol aholisining katta qismini tashkil etadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, aynan hotin-qizlar tadbirkorligining salohiyati jahon yalpi ichki mahsulotini ikki barobirga oshirishi mumkin. “Boston Consulting Group” kompaniyasi ekspertlari o‘tkazgan tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, agar ayol tadbirkorlar soni erkak biznesmenlar soniga teng bo‘lganida, jahon iqtisodiyoti hajmi 2,5 trillion dollardan 5 trillion dollarga oshgan bo‘lardi. Ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan biznes, ya’ni bolalar va yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va ularga ta’lim berish sohasidagi loyihalarning 90 foizi aynan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilayotgani muhim jihat hisoblanadi.

Kalit so`zlar: ayollar tadbirkorligi, gender tenglik, biznes, barqaror rivojlanish, tadbirkor ayol, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, ayollarning faolligi.

Asosiy matn. Iqtisodiyotda xotin-qizlar tadbirkorligi ulushini oshirish uchun ayollarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar berilmoqda. Mamlakatimiz mehnatga layoqatli aholisining yarmidan ko‘pini ayollar tashkil qilishiga qaramay, ularning kichik biznes va xususiy tadbikorlikdagi ulushini aniqlash qiyin. Boisi – ayollar biznesining rivojlanishiga oid aniq ma’lumot mavjud emas. Xususan, bugungi kunda sodir bo‘layotgan hududiy va global integratsion jarayonlar, milliy ehtiyojlar va ustuvor maqsadlarni hisobga olgan holda, ayol tadbirkorlarning turli taraqqiyot yo‘nalishlariga qo‘shgan hissasiga baho berish, ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish kerak bo‘lgan sohalarni aniqlash mumkin emas. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga kompleks yondashuvni ishlab chiqish, ayollar tomonidan boshqariladigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularga axborot, bozor, ta’lim va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini berish va biznes faoliyatini ayollar orasida faol ommalashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev rahbarligida ayollar uchun doimiy ish joylarini yaratish va shu bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo‘jaligini keng rivojlantirish ishlari bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish vazifalari belgilandi va amalga oshirishga kirishildi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 29-yanvar 2022-yildagi Farmoniga asosan "2022-2026 – yillarga mo`ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” ishlab chiqilib, bugungi kunda kuchga kirgan. Unda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida salmoqli ishlar reja qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son, “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” 2022-yil 22-iyuldagi PQ-329-son qarorlari hamda “Yangi O‘zbekiston ma’muriy

islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, ularning bandligini ta’minlash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, kasb-hunarga yo‘naltirish samaradorligini oshirish, ularni davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu Farmonlarni qabul qilishdan asosiy maqsad, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash, salohiyatini to‘la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog’lomlashtirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda xotin-qizlarning mavqei va rolini oshirish, huquq va manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish, hayotning barcha jabhalarini modernizatsiya qilishdagi ishtirokini umuman kengaytirish uchun munosib sharoitlar yaratilgan. Konstitutsiyada ayollar va erkaklar tengligi, ayollarni kamsitmaslik masalalari belgilab berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasi, shuningdek, Mehnat kodeksining 6-moddasiga ko‘ra, mehnat munosabatlarida ayollarni kamsitish taqiqlanadi. Hozirgi vaqtda dunyo aholisining iqtisodiy faolligini gender yondashuvlari asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, ayollar bandligi tobora ortib bormoqda.[1] Xususan, O‘zbekiston aholisining iqtisodiy faolligida ayollarning salmog’i boshqa mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Xususan, iqtisodiyotda band bo‘lgan xotin-qizlarimizning ulushi 60 foizga yetib, yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli, ibratli odobi va bilimi bilan e’tirof etilgan onaxonlarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida faol ishtirok etmoqda. ishlab chiqarishda, ilm-fanda, madaniyatda, tibbiyotda, ta’lim sohasida va hatto harbiy ishlardagi xizmatlari beqiyos. Mamlakatimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ishtirokini ta’minlash asosiy omil sifatida qaralmoqda. Aytish joizki, minglab ayollarimiz tadbirkorlikning turli yo‘nalishlarida ishlab chiqarish korxonalari ochmoqda, xotin-qizlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratmoqda.

Xotin-qizlarga ta`lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo`llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o`quv yilidan boshlab oliy ta`lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta`lim shaklida o`qiyotgan xotin-qizlarning ta`lim kontraktlarini to`lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta`lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1,8 trillion so`m resurs mablag`lari yo`naltirilmoqda, davlat oliy ta`lim muassasalarining magistratura bosqichida o`qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to`lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so`m moliyalashtirilmoqda, xorijiy oliy ta`lim muassasalarining bakalavriat ta`lim dasturida – 50 nafar, magistratura ta`lim dasturlari bo`yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har yili “El-yurt umidi” jamg`armasi orqali qo`shimcha grantlar ajratib borilmoqda, mutaxassisligi bo`yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma`lumotga ega bo`lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Qo`mita tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta`lim muassasalarining bakalavriat ta`limy o`nalishlariga

[1] Shodmonovna, F. S., & Negmatovich, Y. N. (2021). Agricultural Agroclasters Will Serve Increasing the Efficiency of Innovative Economy. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 938-944.

umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to`lov-kontrakt asosida o`qishga qabul qilish amaliyoti joriy etilmoqda, davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta`lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borilmoqda.

Yuqoridagi Farmonga muvofiq Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo`yicha alohida o`quv kurslarini tashkil etish hamda har yili kamida 100 nafar xotin-qizlarni o`qitish, 2024-yil 1-yanvarga qadar iqtisodiy taraqqiyot va kambag`allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasi hamda ularning tizimidagi tashkilotlar xodimlari orasida xotin-qizlarning ulushini kamida 30 foizga yetkazish, barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo`lgan tashkilotlar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o`rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash kabi chora-tadbirlar tasdiqlandi va ijroga qaratilishini ta`minlandi.

Tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga ajratilayotgan subsidiya miqdori 7 million so`mdan 10 million so`mga oshirildi, “Hunarmand” uyushmasi qoshidagi hunarmandchilik markazlarida kamida 40 foiz tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar joylashtirildi.

Bugungi kunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga kompleks yondashuvni rivojlantirish uchun ayollar biznesini qo‘llab-quvvatlash, ularning axborot, bozor, ta’lim va moliyaviy resurslardan foydalanishini ta’minlash, shuningdek, xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlikni faol ommalashtirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o`qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari doirasida aholini, jumladan, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, ularni tadbirkorlikka yo`naltirish, aholiga qulayliklar yaratish maqsadida tadbirkorlikka o`qitish tizimini takomillashtirish uchun mazkur jarayonga professional ta`lim muassasalari, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda hududiy filiallarini keng jalb qilish, kambag`allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar va xotin-qizlarni asb-hunar hamda tadbirkorlikka o`qitish dasturlarida ishtirok etuvchi NTT, PTT, Oliy maktab hamda uning hududiy filiallarining electron reyestri shakllantiriladi va ularning o`qitishga sarflangan xarajatlarini kompensatsiya qilinadi. Elektron reyestr “Onlayn mahalla” platformasiga joylashtiriladi. Nodavlat ta`lim tashkilotlari, professional ta`lim tashkilotlari, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda uning filiallari tomonidan yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o`qitish bo`yicha pazandachilik, oshpazlik, novvoylik, ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish va boshqarish, qandolatchilik, pazandachilik, karving, tikuvchilik, gilam to`qish, charm-teri mahsulotlari va poyabzal tikish va ta`mirlash, zardo`zlik, kashtachilik, gazlamalarga gul bosish, zargarlik, bijuteriya tayyorlash, sartaroshlik, manikyur, pedikyur xizmatlari va shu kabi yana 50 dan ortiq kasblar o`rgatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni hamda “Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” 2022-yil 21-sentabrdagi PQ-376-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kasbga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish orqali bandligini ta’minlash hamda salomatligini mustahkamlash ishlarini mahallalarda tashkil etish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bunga ko`ra, markazlar binolari mahalla fuqarolar yig`inlari tomonidan mahallalardagi xotin-qizlar faollarining tavsiyasiga asosan davlat mulkini ijaraga berish tartibiga muvofiq tikuvchilik, qandolatchilik, fitness, sheyping, xotin-qizlarni kasbga o`qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 5 yil muddatga ijaraga beriladi, markazlarda bitta loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizlarning doimiy bandligini ta`minlash maqsadida har bir nafar bandligi ta`minlanadigan ishsiz xotin-qiz uchun Oila va xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg`armasi mablag`lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga belgilangan tartibda 3 million so`mdan oshmagan miqdorda davlat granti ajratiladi. Ishsiz, ayniqsa, qishloq joylarda bola tarbiyasi bilan uyda o`tirib qolgan ehtiyojmand ayollar, shuningdek, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bandligini ta`minlash maqsadida mahallalarda tikuvchilik, qandolatchilik, pazandachilik kabi yo`nalishlarda ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish faoliyatini yo`lga qo`yish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta`minlash, kasb-hunar egallashlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar haqida aholini xabardor qilish maqsadida zarur ma`lumot va tavsiyalarni berib borish, xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash maqsadida fitness, sheyping kabi sog`lomlashtirishga mo`ljallangan xizmat ko`rsatish faoliyatini yo`lga qo`yish, muqaddam jinoiy javobgarlikka tortolgan, profilaktik ro`yxatga olingan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan xotin-qizlarni doimiy ish o`rinlari bilan ta`minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va o`z faoliyatini yo`lga qo`yish hamda rivojlantirishda, bandligini ta`minlashda, kasb-hunar egallashida ko`maklashish va shu kabi boshqa chora-tadbirlar markazlarning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni.
2. Мухсинова, Ш. О. (2021). Анализ уровень жизни населения Республики Узбекистан. Экономика и бизнес: теория и практика, (9-1), 154-159.
3. Kurpayanidi, K. (2021). National innovation system as a key factor in the sustainable development of the economy of Uzbekistan. Published online: 20 May 2021. Doi: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125805026
4. https://www.lex.uz

KICHIK BIZNESDA AHOLI BANDLIGINING VA KICHIK BIZNESNING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHINING RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Yusupov Abbosxon Aliyevich
Qo‘qon universiteti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu tezisda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi kichik biznes sohasida aholi bandligining roli tahlil etilgan. Aholi bandligining kichik biznesda inson resurslaridan samarali foydalanishidagi ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bandlik, inson resurslari, kichik biznes, xodimlar, iqtisodiyot.

Kirish. Bandlik va inson resurslaridan samarali foydalanish har bir iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim omillardir. Ayniqsa, kichik biznesda bandlik darajasi yuqori bo‘ladi, chunki kichik korxonalar ko‘pincha katta miqdordagi ish o‘rinlari yaratadi. Shu sababli, kichik biznesda inson resurslaridan samarali foydalanish nafaqat korxonaning muvaffaqiyati, balki umumiy iqtisodiy o‘sish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Kichik bizneslar aksariyat mamlakatlarda iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Ular yirik kompaniyalarga qaraganda ko‘proq yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega, chunki kichik korxonalar ko‘pincha mahalliy resurslardan foydalanadi va ko‘proq moslashuvchanlikka ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining keng qatlamlarini band qilish imkoniyatini beradi va ishsizlik darajasini kamaytiradi. Kichik bizneslar iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritib, turli kasbiy malakalarga ega odamlarni ish bilan ta'minlaydi, bu esa mehnat bozorining rivojlanishiga turtki beradi.

Kichik bizneslar muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun inson resurslaridan samarali foydalanish zarur. Samarali inson resurslari boshqaruvi orqali korxonalar xodimlarning malakasini oshirish, ularning motivatsiyasini kuchaytirish, va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali o‘z faoliyatini yanada samarali qiladi. Bu jarayonlar orqali kichik bizneslar raqobatbardosh bo‘lib, o‘z faoliyatini kengaytirishi va yangi ish o‘rinlari yaratishi mumkin.

Kichik biznesda inson resurslarini samarali boshqarishning bir necha usullari mavjud:

- Ta'lim va kasbiy rivojlanish: xodimlarning malakasini oshirish va ularga yangi ko‘nikmalarni o‘rgatish korxonaning samaradorligini oshiradi. Ta'lim dasturlari va treninglar tashkil qilish xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Motivatsiya va rag‘batlantirish: xodimlarni rag‘batlantirish orqali ularning ishga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu jarayonda moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish usullaridan foydalanish mumkin. Maoshlarni oshirish, mukofotlar berish, va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish xodimlarning motivatsiyasini oshiradi.
- Xodimlarni to‘g‘ri yo‘naltirish: xodimlarning bilim va ko‘nikmalariga mos ravishda ularni to‘g‘ri lavozimlarga yo‘naltirish korxonaning samaradorligini oshiradi. Har bir xodim o‘z imkoniyatlariga mos bo‘lgan ishda faoliyat yuritishi kerak.

Kichik biznesda bandlik va inson resurslaridan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Xodimlarning malakasini oshirish, motivatsiya

qilish, va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali kichik bizneslar o‘z samaradorligini oshiradi va raqobatbardosh bo‘lib qoladi. Shu sababli, kichik korxonalar uchun inson resurslarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish muhimdir. Bu jarayonlar nafaqat korxonalarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki umumiy iqtisodiy o‘sish va jamiyatning farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.



1-rasm. 2023 yilda rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Yaponiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Shvetsiyada) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ish o‘rinlaridagi ulushi (foizda)

Kichik biznes subyektlaribarcha mamlakatlarda ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ko‘plab yangi ish o‘rinlarini ta’minlaydi va mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shadi. Ushbu rasmda rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Yaponiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Shvetsiyada) kichik bizneslarning ish o‘rinlaridagi ulushi aks ettirilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari 2023 yilda AQShda ish o‘rinlarining 60 foizini yaratgan bo‘lsa, Yaponiya iqtisodiyotida kichik bizneslar ish o‘rinlarining 70 foizini ta’minlagan. Bu kichik bizneslarning yuqori darajadagi ish o‘rinlari yaratish qobiliyatini va mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, Niderlandiyada bu ko‘rsatkich 2023 yilda 70 foizni tashkil qilgan, bu esa kichik bizneslarning mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Buyuk Britaniya iqtisodiyotidagi ish o‘rinlarining 60 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning xissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich 2023 yilda AQShning ko‘rsatkichi bilan bir xil bo‘lganligini anglatadi. Rasmdan yana shuni ko‘rish mumkinki, 2023 yilda Kanadada ish o‘rinlarining 69 foizini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ta’minlagan bo‘lsa, Avstraliyada bu ko‘rsatkich Niderlandiyaniki kabi 70 foizni aks ettirgan. Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri Shvetsiyada kichik bizneslar ish o‘rinlarining 66%ini ta’minlaydi, bu esa kichik bizneslarning iqtisodiyotdagi o‘rnini va ish o‘rinlarini yaratishdagi rolini ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes iqtisodiyotning muhim qismidir, u mamlakatlarning umumiy iqtisodiy faoliyatida va ish o‘rinlarini yaratishda katta rol o‘ynaydi. Kichik biznesning Yalpi Ichki Mahsulot (YaIM) va ish o‘rinlaridagi ulushi iqtisodiy barqarorlikni, ijtimoiy rivojlanishni va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. 2023 yilda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (foizda)

Ushbu rasm orqali 2023 yilda rivojlangan yetti mamlakatlarda (AQSh, Yaponiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Shvetsiyada) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va o‘rnini tahlil qilindi, shuningdek, kichik biznesning YaIMdagi ulushi haqida aniq faktlar ko‘rsatildi.

Kichik biznes rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, innovatsiyalarni amalga oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ushbu biznes turlari ko‘pincha mahalliy ehtiyojlarni qondirish va mintaqaviy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta’minlash orqali iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, kichik bizneslar katta korxonalarga nisbatan tezroq moslashuvchanlik, innovatsiyalar va mijozlar ehtiyojlariga yaxshiroq javob bera olish xususiyatiga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning YIMdagi ulushi bir qator omillar bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy strukturasiga qarab o‘zgarib turadi. AQShda kichik biznes Yalpi Ichki Mahsulotning 44%ini tashkil etadi. Bu kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. U.S. Small Business Administration (SBA) ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar AQSh iqtisodiyotining asosiy qismidir. Shuningdek, Yaponiyada kichik biznes YaIMning 50%ini tashkil etadi. Yaponiya iqtisodiyotida kichik biznesning roli yuqori bo‘lib, u innovatsion texnologiyalar va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Ministry of Economy, Trade and Industry (METI) ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar Yaponiyaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi va ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Yevropa mamlakatlaridan biri Niderlandiyada kichik biznes YaIMning 60%ini tashkil etadi. Netherlands

Enterprise Agency (RVO) ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslarning yuqori ulushi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va innovatsion faoliyatida katta hissa qo‘shadi. Buyuk Britaniyada esa kichik biznes YaIMning 50%ini tashkil etadi. UK Federation of Small Businesses ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar Buyuk Britaniya iqtisodiyotining turli sohalarida faoliyat yuritadi va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Jadvaldan yana shuni ko‘rish mumkinki, Kanadada kichik biznes YaIMning 41%ini tashkil etadi. Innovation, Science and Economic Development Canada ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar Kanadaning iqtisodiy o‘sishiga katta hissa qo‘shadi va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Avstraliyada esa kichik biznes YaIMning 50%ini tashkil etgan holda Yaponiya va Buyuk britaniya bilan bir xil ko‘rsatgichga ega. Australian Bureau of Statistics (ABS) ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar Avstraliya iqtisodiyotida katta rol o‘ynaydi. Jadval so‘ngidagi yana bir Yevropa mamlakati bo‘lgan Shvetsiyada kichik biznes YaIMning 48%ini tashkil etadi. Swedish Agency for Economic and Regional Growth ma'lumotlariga ko‘ra, kichik bizneslar Shvetsiya iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya, Niderlandiya va Avstraliyada kichik biznes iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi, AQSh va Buyuk Britaniyada esa nisbatan pastroq ulush qayd etilgan. Kichik biznes subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushida ham Niderlandiya, Yaponiya, Avstraliya va Buyuk Britaniya peshqadamlik qilgan bo‘lsa, AQSh, Kanada va Shvetsiya mamlakatlarida biroz pastroq ko‘rsatkichni ko‘rish mumkin. Umumiy qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida kichik biznesning ahamiyati juda ham yuqori bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli teng yarimini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidjon Rasulov. (2023). SIYOSIY MOJAROLARNING TURIZMGA TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 147–150. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.857
2. Yakubovich, R. H. (2024). QO ‘QON SHAHAR TURIZMI RIVOJLANISHIDA HUNARMANDCHILIKNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 668-671.
3. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 8-11.
4. Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). Exchange rate influence on foreign direct investment: empirical evidence from cis countries. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 2(04), 19-28.
5. Melibayeva Gulxon Nazrullaevna, & Baxtiyorjonova Muxlisa. (2024). O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMNI ISTIQBOLLARI. Kokand University Research Base, 803–806. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/223
6. Melibaeva G. (2024). ORGANIZATIONAL BEHAVIOR AND BUSINESS PSYCHOLOGY. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 48–50. https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.907.
7. A. A. Yusupov. (2024). ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL MECHANISM OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN.

European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(5), 70–73. Retrieved from https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/630

8. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. Intent Research Scientific Journal, 2(3), 182–187. Retrieved from https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/67

9. Umarov, O. (2023). O ‘ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O ‘RNI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 234-236.

10. Omonjon, U. (2023). ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 249-250.

11. Yuldasheva Nilufarxon A’zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o’g’li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 73–75. https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254

12. Yuldasheva, N. A. , Bobojonov, J., Tuxtaboyev , M., & Hakimov , A. (2023). O‘ZBEKISTON RESBUPLIKASIDA KICHIK BIZNESNI QURILISH SOHASIDAGI ULUSHI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS", 2 (2), 122–126. Retrieved from https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1289

13. Turanboyev Boburjon Qodirjon o‘g‘li. (2024). EKOLOGIK SOLIQQA TORTISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISH YO‘LLARI. Kokand University Research Base, 931–934. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/260

14. Turanboyev Boburjon Qodirjon o‘g‘li. (2024). DAVLAT SOLIQ SIYOSATIDA EKOLOGIK SOLIQLARNI JORIY ETISH ORQALI TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 927–930. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/259

15. Iqboljon o‘g‘li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'LCHASH OMILLARI. Kokand University Research Base, 746-750.

16. Iqboljon o‘g‘li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIY O ‘SISHGA TA’SIRI. Kokand University Research Base, 742-745.

17. Mashhura, A., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA RAQAMLIY TEXNALOGIYALAR IMKONIYATLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1190-1192.

XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Toxirov Rustam
Qo‘qon universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya, Turkiya va Qozog‘iston misolida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o‘rganilgan. Shuningdek, farqlovchi bir nechta xususiyatlarni ko‘rib chiqilgan, hamda biznesni rivojlantirish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilingan. Kichik va o‘rta biznes sektorining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, bu sohadagi korxonalar soni va kichik hamda o‘rta korxonalarda band bo‘lgan aholining ulushini hisobga olingan. Tadbirkorlikni qanday isloh qilish, uni yanada barqarorlashtirish, hozirgi kunda xususiy korxonalarning o‘sishi va kichik biznes salohiyatining qanchalik ko‘tarilganligi haqida ma'lumotlarni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, real daromad, aholi bandligi, YaIM, qishloq xo‘jalik aloqalari, bozor iqtisodiyoti.

Абстракт. В данной статье рассматривается развитие малого и среднего бизнеса и факторы, влияющие на этот процесс на примере России, Турции и Казахстана. Также были рассмотрены некоторые отличительные особенности и проанализированы основные показатели эффективности развития бизнеса. Учитываются доля сектора малого и среднего бизнеса в валовом внутреннем продукте страны, количество предприятий в этом секторе и доля населения, занятого на малых и средних предприятиях. Проанализирована информация о том, как реформировать предпринимательство, стабилизировать его, рост частных предприятий и насколько увеличился потенциал малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, субъекты хозяйствования, реальные доходы, занятость населения, ВВП, сельскохозяйственные отношения, рыночная экономика.

Аннотация. This article examines the development of small and medium-sized businesses and the factors influencing this process in the case of Russia, Turkey, and Kazakhstan. Several distinguishing features were also considered, and the main indicators of business development efficiency were analyzed. The share of the small and medium business sector in the country's gross domestic product, the number of enterprises in this sector and the share of the population employed in small and medium enterprises are taken into account. Information on how to reform entrepreneurship, stabilize it, the growth of private enterprises and the extent to which the potential of small business has increased has been analyzed.

Key words: small business, business entities, real income, population employment, GDP, agricultural relations, market economy.

KIRISH

Inson faoliyati turlicha bo‘lib, turli xil yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘ladi. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobilyati iqtisodiy resurs hisoblanib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda shahsiy omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. o‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng

iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaramoqda. Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatlarini rivojlantirishni asosiy yo‘llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish, uni rag‘batlantirishga bag‘ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko‘nikmalarida namoyon bo‘lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni balki, xo‘jalik aloqalarini yaxshilash raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda. 2020 yil 14-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti M.SH.Mirziyoyevning tashabbusi bilan «O‘zbekistonda ijtimoiy–iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro konferentsiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiya O‘zbekistonda barqaror iqtisodiyotni shakillantirish va ijtimoiy islohatlarni amalga oshirishning muhim belgisi sifatida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni yuksaltirish borasidagi ilg‘or tajribani o‘rganish, xalqaro hamjamiyatni mamlakatimizda ushbu sohada erishilayotgan yutuqlar bilan keng tanishtirishga bag‘ishlanadi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy sabablaridan biri aholi sonini muttasil oshib borishidir. Kichik biznes va tadbirkorlik iqtsodiyotni rivojlantirish hamda aholi bandliligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish hamda aholi bandliligini oshirib ishsizlik darajasini pasaytirishda muhim omil hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining yetakchi mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholining 60 foizdan ortig‘i kichik va o‘rta biznes sohasida band bo‘lib, yangi ish o‘rinlariga joylashgan aholi 80 foizgacha yetadi. Ayrim mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesda band bo‘lgan aholining ulushi: O‘zbekistonda 74,6%, AQShda 65%, Rossiyada 26%, Yaponiyada 80% [1,5]. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlining 50 foizdan oshadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida kichik va o‘rta korxonalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o‘rtacha 75 foizni, AQShda 53 foizga yaqinni, Yaponiyada 55 foizni, Rossiyada esa 23% tashkil qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqotni olib borish davomida ilmiy ishimizni sifatli bo‘lishi maqsadida xalqaro darajadagi iqtisodchlar, olimlar, profesorlarning ilmiy ishlari o‘rganib chiqildi va tahlil qilindi.

Amerikalik tadqiqotchi olim R. Xizrich, takidlashicha “Tadbirkorlik o‘z qiymatiga ega bo‘lmagan qandaydir ya’ni narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o‘ziga olib,

evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug‘idan qanoatlanuvchi shaxs[1]”, — deb ta’kidlagan.

Bundan ko‘rinib turiptiki Xizrich tadbirkorlikning narsaga qiyoslab, tadbirkorni esa o‘z mukofotiga erishishga harakat qilgan shaxs deb ta’rifladi.

Avstriyalik tadqiqotchi olim Shumpeterning ta’kidlashicha: U tadbirkorlikning harakatchan iqtisodiy jarayondagi rolini, uning yaratuvchanlik funksiyasini hamda tadbirkorning psixologik qiyofasini belgilab bergan.[2] Uning o‘ylashicha tadbirkor iqtisodiyotni harakatga keltiruvchin kuch sifatida qaradi.

Ushbu maqolada Rossiyalik tadqiqotchi olimlari kichik biznesning rivojlanish xususiyatlari va funktsiyalarini o‘rganib chiqishgan. Tadqiqotda olimlar statistik tahlil, qiyosiy tahlil, funksional tahlil, pozitiv va me'yoriy tahlil usullaridan foydalanishgan. Ular kichik biznes sub’ektlarini rivojlantirishda aholi bandligi va daromadlarini ko‘paytirish, aholi farovonligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini aytib o‘tishgan. Rivojlangan davlatlarda kichik biznes mamlakatdagi barcha xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning 70% tashkil qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Rossiyada kichik biznesning afzalliklari quyidagilardan iborat: ish o‘rinlari yaratishning arzonligi va mahalliy resurslardan foydalanishni qulayligi. Ammo salbiy tomonlari ham yo‘q emas albatta mamlakatda kichik korxonalar soni juda sekin rivojlanib borayotganligi. Bu boradagi mavjud salbiy tendentsiyalarni kamaytirish uchun kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish va uni keng tadbiq etish lozimligini aytib o‘tish kerak.

Ushbu maqolada Esra Karadeniz va Ozlem Ozdemirlar Turkiyaning kichik biznesini o‘rganib chiqishgan. Tadqiqotda GEM modelidan (xalqaro taqqoslashlar uchun ishlatiladigan standartlashtirilgan kontseptual asos bo‘lib, tadbirkorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan) foydalanishgan.[3] 2006-yilda umumiy tadbirkorlik Monitor ma’lumotlardan foydalanish hamda tadbirkorlik faoliyatini kashf etish va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirish loyihada birinchi marta qo‘llangan.

Tadqiqot tasavvurlarini boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, boshqa tadbirkorlarni bilish va qobilyatlarini ko‘rish foizini va kattalar uchun yangi biznesni boshlash uchun zarur bo‘lgan qobiliyatni rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda pastroq deb topishgan. Muvaffaqiyatsizlik qo‘rquviga kelganda, respondentlarning atigi 33 foizi muvaffaqiyatsizlik ehtimoli rivojlanayotgan mamlakatlardagi odamlarning foizlaridan bir oz pastroq bo‘lgan yangi biznesni boshlashiga to‘sqinlik qilishini aniqlashgan. Turkiya biznes tuzilishi haqida ushbu topilmalar kichik va o‘rta korxona turk korxonalari umumiy sonining 99%dan ortiq vakili umumiy kichik va o‘rta korxona tuzilishi Turkiya bilan mos keladi.

Ushbu maqolada Nazgul Qayratovna va Pratosova Olga Qozog‘istonning kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi va shakillanish xususiyatlarini o‘rganib chiqishgan. Bu mavzu juda dolzarb, chunki hozida kichik biznesni rivojlantirish va Qozog‘iston iqtisodiyotini yaxshilashning asosiy vazifalaridan biridir. Tadbirkorlik faoliyati bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga resurslarni jalb

[1] R. Xizrich, «Tadbirkorlik o‘z qiymatiga ega bo’lmagan qandaydir yani narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o ‘ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug‘idan qanoatlanuvchi shaxs »,
[2]Osiyo bankining 2018 yilgi hisobotiga oid ma’lumotlar
[3] Mankiw, Romer, & Weil,1992; Romer,1990

qilishga, texnik taraqqiyotni rivojlantirishga yordam beradi va ishsizlik muammosini ham hal qiladi. Shuncha chora tadbirlar amalga oshirgan bo‘lsa ham Qozog‘iston jiddiy muamolar hali ham mavjud. Yuzaga kelyotgam muamolarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, qonunchilikni kuchaytirish, kichik biznesni qo‘llab quvvatlash, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlar samaradorligini oshirish lozim ma'muriy to‘siqlarni bartaraf etish va korrupsiyani bartaraf qilish ham nazardan chetdan qolmasligi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Qozog‘istonda o‘z biznesini yoki tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy farqlovchi xususiyati shundan iboratki u iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omiliga ega. Kichik va o‘rta biznes sub'ektlari sonining keskin ko‘payishi hodimlar sonining ko‘payishiga olib keldi. Bu o‘z navbatida mamlakatda ishsizlikning kamayishiga iqtisodiyotning rivojlanishiga tasir etdi.

METADOLOGIYA

Biz avvalgi bobda horijiy davlatlarni kichik biznesini qay darajada rivojlanganini o‘rganib chiqdik.

Adabiyotlar tahlilida shuni ko‘rishimiz mumkinki, ayrim mamlakat tajribasida kichik biznesning rivojlangani, bizning davlatda esa hali ham rivojlanishga tasir qiluvchi omillarni mavjudligini ko‘rib chiqamiz. Ushbu bobda biz tadqiqotlarimizni metologik qismini ishlab chiqamiz va adabiyotlar tahlilida mavjud kamchiliklarni to‘ldirish strategiyalarini belgilab olamiz, hamda adabiyotlar qatoriga mamlakatimizning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni horijiy davlatlar tajribasida qiyosiy usulda tahlil qilamiz.

YaIM - bu iqtisodiyotdagi barcha rezident ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo‘shilgan yalpi qiymat yig‘indisi, shuningdek har qanday mahsulot soliqlari va mahsulot qiymatiga kiritilmagan subsidiyalar. U ishlab chiqarilgan aktivlarning eskirishi yoki tabiiy resurslarning kamayishi va degradatsiyasi uchun ajratmalarsiz hisoblab chiqiladi. O‘zbekistonda 2021-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 7,42 foizni tashkil etdi , bu 2020-yilga nisbatan 5,53 foizga o‘sdi.

O‘zbekistonda 2020-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 1,89 foizni tashkil etdi , bu 2019 yilga nisbatan 3,82 foizga pasaydi. O‘zbekistonda 2019-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 5,71 foizni tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan 0,35 foizga o‘sdi . 2018-yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 5,36 foizni tashkil etdi , bu 2017 yilga nisbatan 0,96 foizga yetdi.

XULOSA

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda dunyoning eng rivojlangan davlatlari tajribalari ustida tahlil o‘tkazdik. Bizning asosiy maqsadimiz O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda rivojlangan davlatlarning ushbu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarini o‘rganib chiqib, ularning tajribasida sinalgan tartib qoidalarni O‘zbekistonga ham tadbiq etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida shunu ko‘rishimiz mumkinki, xorijiy davlatlar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda birqancha imtiyozlar joriy etgan. Bular sarasiga mahalliy ishlab chiqruvchilar soliqqa tortishidan ozod etilishi, soliqlar faqatgina eksport qilishda solinishi va tadbirkorliklarga faoliyatining dastlabki ikki yilida foizsiz kreditlar berilishi, keyingi yillarda esa juda past stavkalarda yillik foizlar undirilishi, yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarish

xarajatlarini 50 foizgacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri molialashtirishi (subsidiyalar, zaem), foizsiz ssudalar takdim etilishi dotatsiyalar berilishi kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Development of small businesses in russia as important condition. 10.15405/epsbs.2019.12.04.144
2. Финк, Т. А. Малый и средний бизнес: зарубежный опыт развития / Т. А. Финк. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 4 (39). — С. 177-181. — URL: https://moluch.ru/archive/39/4640/ (дата обращения: 09.02.2023).
3. Bakieva Iroda Abdushukurovna, Fayziyev Shavkat Shahobidinovich “O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati” 2018.
4. B.Y. Xodiyev ,SH.SH.SHodmonov “ Iqtisodiyot nazaryasi “ 2017 .
5. Toxirov Rustam (2022). TADBIRKORLIK SUB’YEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. Research Focus, 1 (4), 173-176.
6. Solijonovich, T. R. SMALL NETWORKS FOR PATTERN RECOGNITION, CLUSTERIN Solijonovich, R. T. (2023). TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 366-370.
7. Rustam, T. (2022). THEORETICAL PROBLEMS WITH THE GOVERNMENT'S ASSISTANCE FOR SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(5), 638-644.
8. Axmadjonov Dostonbek Odiljon og‘li, & Rustam Tohirov Solijonovich. (2023). INTERNET TEXNOLOGIYALARINING KICHIK BIZNES SUB’YEKTLARIGA TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 175–177. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.395

MAMLAKATIMIZDA HUDUDIY MIQYOSDA KICHIK BIZNESGA SARMOYA KIRITISH BO‘YICHA TADQIQOTLAR

Toxirov Rustam
Qo‘qon universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot kichik biznesga sarmoya kiritishning mamlakatimiz hududiy rivojlanishiga ta'sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati va sarmoya kiritishning samaradorligi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor kichik biznes sub'ektlariga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralari, kredit va subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi omillarni o‘rganishga qaratiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari hududiy siyosatni takomillashtirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun foydalaniladi. Shuningdek, tadqiqot hududiy investitsiya loyihalarini rejalashtirishda va amalga oshirishda yordam beradigan amaliy uslubiy ko‘rsatmalarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur tadqiqot kichik biznesga sarmoya kiritish orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida kichik biznesning rivojlanishi uchun teng sharoitlar yaratish va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so’zlar: kichik biznes, investitsiyalar, tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish, soliq imtiyozlari, hududiy siyosat, tahlil va tadqiqot

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению влияния инвестиций в малый бизнес на территориальное развитие нашей страны. В исследовании анализируется роль малого бизнеса в экономическом росте, его значение в региональной экономике, эффективность инвестиций. Основное внимание уделяется изучению таких факторов, как меры государственной поддержки, кредиты и субсидии, а также налоговые льготы для субъектов малого предпринимательства. Практическая значимость исследования заключается в разработке эффективных стратегий и рекомендаций по развитию малого бизнеса. Результаты исследования будут использованы для совершенствования региональной политики, поддержки малого бизнеса и улучшения деловой среды. Исследование также включает в себя практические методические рекомендации, которые помогут в планировании и реализации региональных инвестиционных проектов. В данном исследовании показаны возможности ускорения экономического и социального развития регионов, создания новых рабочих мест и повышения уровня жизни населения за счет инвестиций в малый бизнес. При этом будут разработаны предложения по созданию равных условий для развития малого бизнеса и улучшению инвестиционной среды во всех регионах нашей страны.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиции, предпринимательство, экономический рост, налоговые льготы, региональная политика, анализ и исследование.

Annotation. This study is dedicated to the study of the impact of investing in small business on the territorial development of our country. The research analyzes the role of small business in economic growth, its importance in the regional economy, and the efficiency of investment. The main focus is on the study of factors such as state support measures, loans and subsidies, and tax incentives for small business entities. The practical significance of the research is that it develops effective strategies and recommendations for the development of small business. The results of the research will be used to improve regional policy, support small businesses and improve the business environment. The study also includes practical methodological guidelines that will help in planning and implementing regional investment projects. This study shows the possibilities of accelerating the economic and social development of the regions, creating new jobs and raising the standard of living of the population by investing in small business. At the same time, proposals will be developed to create equal conditions for the development of small businesses and improve the investment environment in all regions of our country.

Keywords: small business, investment, entrepreneurship, economic growth, tax incentives, regional policy, analysis and research

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini oshirishda kichik biznesning ahamiyati katta. Kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatish orqali umumiy iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy miqyosda kichik biznesga sarmoya kiritish, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Hududiy rivojlanishdagi tengsizliklarni bartaraf etish va barcha mintaqalarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlash maqsadida kichik biznes sub'ektlariga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralari, kredit va subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi mexanizmlar katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda kichik biznesga sarmoya kiritishning hududiy rivojlanishiga ta'siri, sarmoya jalb qilishning samaradorligi va bu jarayondagi mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – mamlakatimizning turli hududlarida kichik biznesga sarmoya kiritish imkoniyatlarini o‘rganish, sarmoya kiritish jarayonidagi to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu orqali kichik biznesning yanada rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va hududiy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga erishiladi. Shuningdek, tadqiqot kichik biznesning rivojlanishi orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilash, investitsion muhitni optimallashtirish va umumiy iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Mazkur kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, asosiy maqsadi va vazifalari bayon etiladi.

Adabiyotlar sharhi. Butun dunyoda iqtisodiyotni xarakatlantiruvchi kuchi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini asosiy o‘rinni egallab kelmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, AQSh davlatlarida YaIMdagi KBXTning ulushi 50-60 foiz atrofida bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2020 yil O‘zbekistonda esa 53,9 foizni tashkil qilmoqda. KBXTni yanada rivojlantirishda investisiyalarning o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimiz hududlariga ajratilayotgan investisiya miqdorini qanday taqsimlanayotganini statistik o‘rganish

muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investisiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi . Bu esa kelgusida barcha sohalar kabi hududlarda KBXT sohasiga ham investisiyalarni keng jalb etib, aholining ish bilan bandligi va aholi pul daromadlari oshirish natijasida aholi turmush farovonligini yaxshilashga olib keladi. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, uning rivoji va yo‘nalishlarini o‘rgangan xorijiy olimlar: A.Marshall Y.Shumpeter V.Valeslar tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi. Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov B.T.[1] tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investisiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatovlar mamlakatimizda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llarini o‘rgangan. B.K.G‘oyibnazarov, H.O.Rahmonov, Sh.I.Otajonov, D.S.Almatovalar KBXT faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiyjihatlari, sohada mavjud bo‘lgan muammolar va ulani bartaraf etish yo‘llari, kichik biznes sub’ektlarini qo‘llabquvvatlash mexanizmlari o‘rganilgan.

Metodologiya. Biz avvalgi bobda mamlakatimizda kichik biznesda investitsalardan foydalanishning mintaqaviy tahlili mavzusida adabiyotlar tahlilini amalga oshirdik. Biz statistik uslubidan foydalandik ushbu bobda biz taqdimotimizni metodologik qismini ishlab chiqamiz va adabiyotlar tahlilida mavjud kamchiliklarni to’ldirish strategiyalarini belgilab olamiz, hamda adabiyotlar qatorida kichik biznesda investitsalardan foydalanishning mintaqaviy tahlilini qilamiz

Metodologiya qismini shakilantirish maqsadida biz dastlabki taqdimotimiz uchun zaruz bo’lgan malumotlarni turli malumotlar bazasi va mamlakatimizdagi davlat idoralari malumotlariga tayangan holda amalga oshiramiz.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz ulkan xorijiy investitsiyalar yo’naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. Bu borada jahon hamjamiyati oldida o’zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasidagi geografik joylashuvi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o’ynaydi. O’zbekiston 2013 yilda biznes uchun yaratilgan sharoitlar, xususan qo’shma korxonalar uchun soliq, bojxona imtiyozlari va preferentsiyalar dunyodagi eng istiqbolli 20 ta davlat qatoriga qo’shilgan Markaziy Osiyodagi yagona davlat bo’ldi. Bu xabarni xorijiy ommaviy axborot vositalari Buyuk Britaniyaning tavakkalchiliklarni tahlil qilish bilan shug’ullanadigan “Maplecroft” konsalting kompaniyasi xulosasiga asoslangan holda e’lon qildi. “Maplecroft” kompaniyasi tomonidan hisoblab chiqiladigan “Rivojlanib borayotgan bozorlar indeksi” biznes yuritish uchun istiqbolli bo’lgan 175 ta davlatni o’z ichiga olgan. Indeksda o’tgan yillardagi iqtisodiy ko’rsatkichlar, mamlakatning investitsiya sarflash uchun jozibadorligi, eng so’nggi tarkibiy islohotlar va demografik ahvol, shu jumladan, o’rta sinf soni bo’yicha prognozlar e’tiborga olingan.

[1] Bayxonov B.T. “O‘zbekiston iqtisodiyotida investisiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. – 76 b.

So’nggi yillarda O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish borasida erishilgan yutuqlar Xalqaro valyuta jamg’armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining muvaffaqiyatlari yurtimizdagi siyosiy barqarorlik va islohotlarning izchil amalga oshirilishiga asoslangani etakchi xalqaro ekspertlar tomonidan bir necha bor ta’kidlandi. Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog’liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub’yektlarini moliyaviy qo’llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tutgan o’rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000 yilda bu ko’rsatkich 31 foizdan iborat edi. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko’rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo’lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to’g’ri kelmoqda. Ana shu raqamlardan ko’rinib turibdiki, kichik biznes shaklan kichik bo’lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o’ynamoqda. Mamlakatimizda investitsiya muhitining barqarorligi va investitsion jozibadorlikning to’g’ri yo’lga qo’yilgani ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo’lmoqda. Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor tuzilmalar qisqa muddatlarda xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan amaldagi sharoitlarni chuqur va tanqidiy o’rganib chiqish hamda to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag’batlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo’yicha takliflarni ishlab chiqishga kirishgan. Ushbu takliflarni tayyorlashda mavjud normativ bazani, investorlarni jalb etish va xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarni ro’yxatga olishning tartib-qoidalarini, ularni himoya qilish bo’yicha ishonchli kafolatlarni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko’plab davlatlar tajribasining ko’rsatishicha, xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish raqobat sharoitida respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning garovidir. Shu bois, mamlakatimiz banklari ham xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xorijiy investitsiyalar korxonalarni moliyalashtirishning qo’shimcha manbai bo’lish barobarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, amaliyotda zamonaviy menejmentni qo’llashga ham sharoit yaratadi.

Aytish kerakki, mintaqada xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollar va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning o’z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta’minlovchi kuchdir. Shuning uchun ham barcha imkoniyatlarni ishga solib, kichik biznes iqtisodiyotiga yo’naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish zamon talabidir. Investitsiya faoliyatida asosiy e’tiborni rivojlanish darajasi past bo’lgan hududlardagi kichik biznes su’ektlariga qaratish maqsadga muvofiqdir. Aynan maqsadli

yo’naltirilgan investitsiya siyosati mamlakatdagi kichik biznesni iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil bo’lib xizmat qiladi. Mamlaktimizda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan kichik qo‘shma korxonlarning erkin faoliyati ko‘rsatishi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yanada kuchaytirish, xududlarning barqaror rivojlanishi uchun barcha viloyatlarga teng taqsimlangan holda ichki va tashqi investisiyalarni kiritish. Shuningdek, xududlarning salohiyati va keng imkoniyati haqidagi ma’lumotlar bilan investorlarni tanishtirish hamda ular uchun ko‘proq manfaatdorlik, moyillik yaratish mexanizmini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Urinov "Strategic Priorities of the University." JournalNX, 2020, pp. 452-459.
2. Rustam, T., & Botirjon, R. (2023). MAMLAKATIMIZDAGI YALPI ICHKI MAHSULOTGA SANOAT HAJMINING TA’SIR DARAJASI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 23-27.
3. Solijonovich, R. T. (2023). TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 366-370.
4. Rustam, T. (2022). THEORETICAL PROBLEMS WITH THE GOVERNMENT'S ASSISTANCE FOR SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(5), 638-644.
5. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
6. NISHONKULOV, S., & TOKHIROV, R. (2023). ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE IMPACT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF BUSINESS ENTITIES ON ECONOMIC GROWTH ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 8(3`), 215–223. Retrieved from http://niet.uz/index.php/nj/article/view/300
7. Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o‘g‘li, & Toxirov Rustam Solijonovich. (2023). TOSHKENT VILOYATI MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO A’LOQALARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 324–327. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.453
8. Axmadjonov Dostonbek Odiljon og‘li, & Rustam Tohirov Solijonovich. (2023). INTERNET TEXNOLOGIYALARINING KICHIK BIZNES SUB’YEKTLARIGA TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 175–177. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.395
9. Tokhirov R.S., & Numonov F.N. (2023). DEPENDENCE AND LEVEL OF INFLUENCE OF THE SERVICES SECTOR ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (7 (110)), 318-329.
10. Toxirov Rustam (2022). TADBIRKORLIK SUB’YEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. Research Focus, 1 (4), 173-176.
11. Solijonovich, T. R. SMALL NETWORKS FOR PATTERN RECOGNITION, CLUSTERING, AND TIME SERIES. Chief Editor.
12. Йигиталиев Розиматжон Нодиржонович, & Олимов Ильхом Азизович. (2024). Область развития нано технологиями в малом бизнесе и обрабатывающей промышленности. Open Academia: Journal of Scholarly Research, 2(4), 60–66. Retrieved from https://academiaone.org/index.php/4/article/view/729

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA INVESTOR PORTFELINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Madreymova Shirin Urazbayevna
O‘zbekiston Milliy universisteti, matematik iqtisodiyot magistranti va mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. O‘zbekiston hududida potensial investor qimmatbaho qog‘ozlarga muqobil sarmoya kiritish imkoniyatiga ega. Buning uchun qimmatbaho qog‘ozlar portfelini shakllantirish, narx o‘zgarishini kuzatish, narx tendentsiyalarining xatti harakatlarini bashorat qilish va o‘zining afzalliklari va prognozlariga qarab uni saqlash bo‘yicha faol strategiyani shakllantirish kerak.

Kalit so‘zlar: Qimmatli qog‘ozlar, investitsiya, investor portfeli, model, modellashtirish, birja, aksiya, prognoz, strategiya, bozor.

Kirish. Bir turdagi moliyaviy aktivlardan tashkil topgan portfelning bozor qiymatining o‘zgarishiga bog‘liqlikni kamaytirish uchun siz har xil turdagi aktivlarga sarmoya kiritishingiz mumkin. Bunday portfellarning samaradorligi ayirboshlash kursining o‘zgarishiga ham bog‘liq bo‘ladi, lekin har bir ayirboshlash kursiga emas, balki o‘rtacha kursga bog‘liq bo‘ladi, ular qoida tariqasida kamroq o‘zgaradi, chunki bir kursning oshishi bilan qimmatbaho qog‘ozlardan biri, boshqasining kursi tushishi mumkin va tebranishlar o‘zaro bo‘lishi mumkin. Portfelni shakllantirishga turli xil yondashuvlar mavjud.

G.Markovitsning yondashuvi investorda hozirda sarmoya kiritish uchun ma’lum miqdordagi mablag‘ bor degan taxmindan boshlanadi. Ushbu pul ma’lum bir muddatga investitsiya qilinadi, bu esa ushlab turish davri deb ataladi. Saqlash muddati oxirida investor davr boshida sotib olingan qimmatbaho qog‘ozlarni biror narsadan keyin sotadi. Qimmatbaho qog‘ozlardan olingan daromadni iste’mol uchun ishlatadi yoki daromadni qayta investitsiya qiladi.

Qimmatbaho qog‘ozlarning optimal portfelini topish uchun masalani shakllantirilishi G.Markovits tomonidan tadqiq qilingan optimal portfel nazariyasining imkoniyatlaridan biridir.

Metodlar. Maqsadli sana fondlari va moliyaviy mablag‘lardan foydalanish. Portfellar tanlov ob’ektidir. Portfelga kiradigan individual aktivlar kirish hisoblanadi, lekin ular ob’ektlar emas, investor e’tiborini qaratishi kerak bo‘lgan tanlov. Investor eng yaxshisiga e’tibor qaratishi kerak, yaratilishi mumkin bo‘lgan portfelga. Portfel shunchaki aktivlar ro‘yxati. Lekin portfelni boshqarish mahorat talab qiladi. Buni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Faqatgina investitsiyalar sizni yaratmaydi yoki buzmaydi, nimani e’tiborga olish kerak umumiy investitsiyalar aralashmasi va kombinatsiyani yaratish uchun qanday ishlashi sizning portfelingizdir. Kimdir o‘z investitsiyalariga qanday investitsiya qilishni xohlashini qanday tushunadi, portfelda bunday ko‘p imkoniyatlar mavjud bo‘lganda? Variantlardan biri shunchaki borishdir, sizning instinktlaringiz va hamma narsa yaxshi bo‘lishiga umid qiling, lekin bu juda xavfli ko‘rinadi; yana bir variant Uoll-stritda savdo dominant usuli amal va foydalanish hisoblanadi. Matematik modellar qaror qabul qilish uchun asos sifatida. Investitsiya qilish xavfli, ammo bu xavf joriy va matematik modellardan aniq foydalanish bilan kamaytirish mumkin.

Matematik model ikki davrli shakllantirishdan optimal investitsion portfeli uchun quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\begin{cases} X^* = \arg\left\{ \max\left(\dfrac{\sum_{i=1}^{n} X_i r_i - R_0}{\sqrt{\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n} X_i X_j D_{ij}}} \right) \right\}, \\ r_i = \dfrac{K_i^0 - K_i^p - T_r}{K_i^0}, \\ r_1 \le R_0 \le r_n, \\ r_1 \le r_2 \le \ldots \le r_n, \\ K_i^p = f(K_i^m, \theta), \\ \sum_{i=1}^{n} I_i = I, I_i = 0,01 X_i \cdot I, a_i = \dfrac{I_i}{K_i^0}, \\ I = \begin{cases} I, 1davr \\ I + (1-\eta)\sum_{i=1}^{n} S_i, 2davr \end{cases} \\ X^* = X_1, X_2, \ldots, X_n, X_i \ge 0, \sum_{i=1}^{n} X_i = 1, \end{cases}$$

Bu yerda

i-chi qimmatbaho qog‘oz

n-portfeldagi kutilayotgan qimmatbaho qog‘ozi

X_i - investor portfelida i-qimmatbaho qog‘oz ulushi

D_{ij} - qimmatbaho qog‘ozlar orasidagi daromad kovariyatsiyasi

r_i - i-chi qimmatbaho qog‘oz daromadi

K_i^0 - kutilayotgan i-chi aktiv narxi

K_i^p - p-qadamdagi qimmatbaho qog‘oz narxining prognoz qiymati

p-prognoz davri

$f(K_i^m, \theta)$ - i-chi qimmatbaho qog‘oz tasvirlangan vaqtli qator ko‘rinishidagi cchiziqli rekurrent formula

T_r -broker haqi (kompaniya tarifida)

I - investorning boshlang‘ich kapitali

a_i - investor portfelining i-chi aksiya soni

I_i - i-turdagi aktsiyalarni sotib olish uchun mo‘ljallangan I qismi

η - jismoniy shax slar uchun davlat soliq stavkasi

S_i - i-chi qimmatbaho qog‘oz bo‘yicha daromadi

Qimmatli qog‘ozlarning yopilish narxlarining vaqt seriyasini singulyar spektral tahlil usulidan foydalangan holda o‘rganish va bashoratli baholarni olishdan so‘ng, olingan natijalarni taqqoslash va baholash maqsadga muvofiqdir. Tuzilgan bashoratli qiymatning ishonchlilik darajasi Teyla koeffitsienti bilan baholandi.

Sotishdan ham, olingan daromaddan ham to‘langan soliqni hisobga olgan holda sof daromad kamayganda portfel tarkibi qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Bu xarakteristika boshqa portfel tuzilishiga o‘tish mezoni bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan misolda investor portfelining

tuzilishi yo‘q ikkinchi davr portfelining shakllanishida sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Investitsion portfelga yangi vositalarni kiritish maqsadga muvofiq emas deb topildi.

Natija va tahlillar. Markovitz modelining muqobil imkoniyatlari. Ushbu model individual investor uchun sezilarli darajada kichik bo‘lgan kapital darajasini cheklashga asoslangan edi, bu portfelning har bir komponenti uchun vositani sotib olish imkoniyatini aniqlash uchun ikkilamchi tekshiruvni keltirib chiqardi. Muammoni hal qilish uchun investitsiya resurslarining taqsimlanishini tavsiflovchi simpleks bo‘yicha Huk-Jivs ekstremumini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qidirishning o‘zgartirilgan usulidan foydalanish taklif etiladi. Maqsad funktsiyasi qiymatlarini yaxshilash usulining grafik tasviri simpleks ichidagi muqobil cheklovlarni aniqlashga imkon berdi.

Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib matematik modelning xususiy holdagi masalasini yechilishini ko‘rib chiqaylik.

AT&T	GM	USS	Yil
30,00%	22,50%	14,90%	1
10,30%	29,00%	26,00%	2
21,60%	21,60%	41,90%	3
-4,60%	-27,20%	-7,80%	4
-7,10%	14,40%	16,90%	5
5,60%	10,70%	3,50%	6
3,80%	32,10%	13,30%	7
8,90%	30,50%	73,20%	8
9,00%	19,50%	2,10%	9
8,30%	39,00%	13,10%	10
3,50%	-7,20%	0,06%	11
17,60%	71,50%	90,80%	12

1-jadval. Kompaniyalarning yillik investitsiya o‘zgarishi.

	AT&T	GM	USS	Yil
	30,00%	22,50%	14,90%	1
	10,30%	29,00%	26,00%	2
	21,60%	21,60%	41,90%	3
	-4,60%	-27,20%	-7,80%	4
	-7,10%	14,40%	16,90%	5
	5,60%	10,70%	3,50%	6
	3,80%	32,10%	13,30%	7
	8,90%	30,50%	73,20%	8
	9,00%	19,50%	2,10%	9
	8,30%	39,00%	13,10%	10
	3,50%	-7,20%	0,06%	11
	17,60%	71,50%	90,80%	12
O‘rtacha daromad	8,91%	21,37%	24,00%	

2-jadval. Kompaniyalarning yillik investitsiya o‘zgarishi o‘rtacha daromadi.

MS Excel funksiyasidan foydalanib masalaning kovariyatsiyasini aniqlaylik.

O‘rtacha daromad	8,91%	21,37%	24,00%
Kovariyatsiya matritsasi	AT&T	GM	USS
AT&T	0,0099069	0,01137328	0,0118169
GM	0,0113733	0,05352572	0,0503139
USS	0,0118169	0,05031386	0,0838169

3-jadval. Ma’lumotlardan va MS Excel maxsus funksiyasidan kovariyatsiya aniqlanildi.

O‘rtacha daromad	8,91%	21,37%	24,00%		
Kovariyatsiya matritsasi	AT&T	GM	USS		portfel dispersiyasi
AT&T	0,0099069	0,01137328	0,0118169		
GM	0,0113733	0,05352572	0,0503139		
USS	0,0118169	0,05031386	0,0838169		0,02021
Yechim	54,19%	31,21%	14,61%	1,000001	
Kutilayotgan daromad	4,83%	6,67%	3,51%	15,00%	>=15%

3-jadval. Kutilayotgan daromaddan portfel dispersiyasi aniqlandi.

Bizning holatimizda berilgan ma’lumotlardan portfel riski 14,22%. Birinchi kompaniya uchun 54,19%, ikkinchi kompaniya uchun 31,21%, uchunchi kompaniya uchun 14,61% xissa qo‘yilganda, kutilayotgan daromad quyidagicha bo‘ladi:

Yechim	54,19%	31,21%	14,61%	1,000001	
Kutilayotgan daromad	4,83%	6,67%	3,51%	15,00%	>=15%

4-jadval. Daromadning o‘rtacha kvadratik kutilmasi formula yordamida hisoblandi.

Kutilayotgan daromad uchun chegarani 15% qilib olingani uchun portfel riski ya’ni daromadning o‘rtacha kvadratik kutilmasi 14,22% bo‘lmoqda. Buni kichraytirish uchun chegaralarga o‘zgartirish kiritib ko‘ramiz(risk minimal bo‘lishi kerak).

Kutilayotgan daromad chegarasini 10% ga tushirilgach portfel riski 10,22% ga tushdi.

O‘rtacha daromad	**8,91%**	**21,37%**	**24,00%**				
Kovariyatsiya matritsasi	AT&T	GM	USS		portfel dispersiyasi		
AT&T	0,0099069	0,01137328	0,0118169				
GM	0,0113733	0,05352572	0,0503139				
USS	0,0118169	0,05031386	0,0838169		0,010454		
Yechim	91,73%	5,92%	2,34%	1			
							10,22%
Kutilayotgan daromad	8,17%	1,27%	0,56%	10,00 %	>=10%		

5-jadval. Portfel riski 10% ga tushirildi.



1-rasm. Kompaniyalarning yillik investitsiya o‘zgarishi keyingi oy prognozi.

Xulosa. Kutilayotgan daromad uchun chegarani 15% qilib olingani uchun portfel riski ya’ni daromadning o‘rtacha kvadratik kutilmasi 14,22% bo‘lmoqda. Buni kichraytirish uchun chegaralarga o‘zgartirish kiritib ko‘ramiz (risk minimal bo‘lishi kerak). Kutilayotgan daromad chegarasini 10% ga tushirilgach portfel riski 10,22% ga tushdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baqoyev M.T., Muhamedov A.Q., Moliyaviy matematika, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent 2013-y.

2. Кутукова Е.С. Финансовый портфель - доходность и стратегия. - В сб. “Экономика. Управление. Культура”. Вып.9, М.: ГУУ, 2002.
3. Shox’azamiy Sh. Sh. Moliya bozori va qimmatli bozorlar /Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2012.- 440 bet
4. Iqtisodiy matematik usullar va modellar: o‘quv qo‘llanma./ I.Habibullayev, I.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. -Toshkent: “Tafakkur-Bo‘stoni”, 2012. 112 b.
5. Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A. Investitsiya loyihalarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 302 b.
6. Optimal portfolio of an investor in a financial market To cite this article: Celestine Achudume and Olabisi O. Ugbebor 2021 J. Phys.: Conf. Ser.

CHAKANA SAVDO KORXONASINING MOHIYATI VA UNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI

Qilicheva Kamola Shonazarovna,
Urganch davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya. Ushbu maqolada chakana savdo korxonasining mohiyati yuzasidan izlanishlar olib borilib, uning iqtisodiyotda tutgan o`rni nazariy jihatdan asoslab berilgan hamda nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so`z: chakana savdo, korxona, tovar, xizmat, oziq-ovqat bozori, talab, taklif, ishchi kuchi, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion rivojlanish.

Kirish. Milliy va jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendensiyalari, globallashuv va integratsiya jarayonlarining ta’siri, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi raqobatni keskinlashuvi, chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini samarali boshqarish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Chakana savdoning ahamiyati zamonaviy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun shubhasizdir. Chakana savdo operatsiyalari korxonalarni rag'batlantirish va mahsulotlarning keng tarqalishini ta'minlash va chakana sotuvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi bevosita aloqani ta'minlash uchun juda muhimdir [1;2].

Hozirgi vaqtda chakana savdo sanoati mijozlarning electron texnologiyalarga bo'lgan ishonchi ortib borayotgani butun dunyo bo'ylab R&C (retail and consumer), ya`ni chakana savdo va iste'molchi sektorlari va uning bozor tuzilmalarini tubdan o'zgartirganiga urg'u beradi, chunki chakana sotuvchilar an'anaviy sotuvlarda katta o'zgartirishlar qilmoqdalar [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT tahlil, tanlanma kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. So`ngi yillarida mamlakatimizda savdo sohasini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi esa, ushbu soxani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi [4]. Savdo sohasini rivojlantirish, savdo mexanizmlarini yanada takomillashtirish, tovarlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va xarajatlarini kamaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator samarali ishlar olib borildi.

Ma’lumki, chakana savdo mamlakatda axolini iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini qondiribgina qolmay, makroiqtisodiy rivojlanish, aholining farovon turmushini shakllantirish, ma’naniy saviyasini oshirish kabi ijtimoiy jihatdan ham eng muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Biroq, respublikada yillar davomida savdo sub’ektlarining ustav kapitalida davlat ulushining yuqoriligi, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida eskirgan cheklovlarning saqlanib qolinayotganligi mazkur sohalarda raqobat muhitining rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqanda, respublikada chakana savdo korxonalari faoliyati uchun zarur

huquqiy bazani yanada takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilgan holda chakana savdo tarmoqlarini rivojlantirish, umuman olganda, raqobatbardoshligini boshqarishda rivojlangan boshqaruv usullarini qo‘llanilishi talab etiladi.

Mazkur vazifalar chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini boshqarishning metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish, ularning samarali ishlashini ta’minlash, uzoq muddatli barqaror raqobat ustunligiga ega bo‘lgan raqobatda ustunliklarini shakllantirish va amalga oshirish muammolarini hal etish bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borish vazifasini qo‘ymoqda.

Chakana savdo dunyodagi eng yirik tarmoqlardan biridir. U doimiy o‘zgarish holatidadir va globallashuv jarayonlari ushbu o‘zgarish sur’atlarini yanada tezlashtirmoqda. Marketing nuqtai nazaridan, chakana sotuvchilar ishlab chiqaruvchilardan ko‘ra iste’molchilarga yaqinroq. Chakana savdo - bu marketing zanjirining yakuniy bosqichi va iste’molchilar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘rtasidagi aloqa nuqtasidir [5].

Chakana savdo tarmog'i mijozlarga tovarlar va xizmatlarni sotish bilan shug'ullanadigan barcha korxonalarni anglatadi. U dunyo miqyosida mavjud bo'lgan oziq-ovqat bozori, qulaylik, chegirma, mustaqil, idoraviy, DIY (Do it yourself), elektr va maxsus do'konlar kabi turli xil do'konlarni o'z ichiga oladi. Mijozlarga qulaylik va tanlov taklif etuvchi arzon, sifatli tovar va xizmatlarning keng tanlovi tufayli chakana savdo iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Sanoat ishchi kuchining muhim qismini ish bilan ta'minlagan holda, chakana savdo ham ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga yordam beradi [6].

Chakana savdo iqtisodiyotning muhim qismidir, chunki u odamlarga kerakli tovarlar va xizmatlarni sotib olish imkonini beradi. Chakana savdo do'konlari iste'molchilarga oziq-ovqat mahsulotlaridan tortib kiyim-kechakgacha turli xil mahsulot va xizmatlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, chakana savdo do'konlari ham ish o'rinlari yaratish uchun javobgardir, chunki ularda ko'p sonli odamlar ishlaydi.

Chakana sotuvchilar ham chakana, ham institutsional bozorlarda ishlashlari mumkin, ammo ular ko'plab kichik operatsiyalarni qayta ishlash xususiyatiga ega. Boshqa tomondan, ulgurji bozor faqat individual iste'molchilar emas, balki korxonalar o'rtasida ishlaydi. Biroq, ba'zi kompaniyalar ikkala faoliyat turi bilan shug'ullanadi.

Chakana savdo bozorlari odatda uchta asosiy sohaga bo'lingan:

1. Oziq-ovqat mahsulotlari - bu oziq-ovqat va tegishli mahsulotlarni iste'molchilarga turli tadbirlar orqali tarqatishni anglatadi .
2. Iste'mol tovarlari - bu doimiy ravishda ishlatilishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni sotishga qaratilgan tadbirlar to'plamini anglatadi.
3. Uzoq muddatli iste'mol tovarlari - bu iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan mebel, kostryulkalar va maishiy texnika kabi uzoq muddat foydalaniladigan mahsulotlarni taklif qiladigan faoliyatni nazarda tutadi.

Ushbu tasnifga qo'shimcha ravishda, chakana savdo sektorini ham faoliyat turlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. “Ruxsat etilgan joy” chakana savdo - bu mijozlar mahsulot sotib olishi mumkin bo'lgan an'anaviy do'kon haqida gapiradi. Odatda, bu do'konlar asosiy ko'chalarda yoki savdo markazlarida joylashgan.

2. Supermarketlar - bu yerda siz turli xil mahsulotlarni, jumladan, uy-ro'zg'or buyumlari, texnologiya va oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishingiz mumkin.

3. Chegirmali do'konlar - chegirmali do'konlar oziq-ovqat mahsulotlariga ko'proq e'tibor qaratadigan chakana savdo do'konlarining bir turi bo'lib, odatda bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, supermarketlarga qaraganda arzonroq narxlardagi mahsulotlarni sotadi.

4. Vaqtinchalik do'konlar - vaqtinchalik korxonalar ko'pincha tirbandlik ko'p bo'lgan joylarda joylashgan bo'lib, faqat cheklangan muddatga ochiq. Ular marketing strategiyasining bir qismi bo'lib, yangi mahsulotlarni ishga tushirish yoki brend identifikatorini mustahkamlash uchun jismoniy aloqa nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

5. Savdo avtomatlari - do'kon jismonan mavjud emas va xizmat to'liq avtomatlashtirilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, hozirda savdo avtomatlari o'tmishdagiga nisbatan oziq-ovqat, farmatsevtika va mayda-chuyda mahsulotlarni o'z ichiga olgan kengroq assortimentni taklif qilmoqda.

Tahlilllarga ko`ra, an`anaviy do'konlar asta-sekinlik bilan o`z o`rnini onlayn chakana savdo korxonalariga bo`shatib berib, onlayn chakana sotuvchilarning paydo bo'lishi bozorda hukmronlik qilmoqda. Ushbu tendentsiya shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda xaridorlar savdogarlar va ular eng yaxshi takliflarni qidirmoqdalar. Bu xaridorlar bozoridan ko'ra ko'proq mijozlar bozoriga aylandi. Amazonning sun'iy intellekt texnologiyalarini o'z ichiga olishi va mahsulotlarni mijozlarga tez yetkazib berish uchun sun'iy dronlardan foydalanish an`anaviy chakana savdo do'konlarining boshqa ishlashini imkonsiz qildi.

Mobil kontent tufayli chakana sotuvchilar mijozlarni jalb qilish uchun internetda o'zlarini reklama qilishlari shart. Chakana sotuvchilar va mijozlar bir-birlari bilan bir martalik tranzaksiya o'rniga uzoq muddatli munosabatlarni izlaydilar.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda chakana savdo faoliyati ko‘lami va bozor konsentratsiyasining keskin o‘sish jarayonlari katta hajmdagi chakana savdo tarmoqlari paydo bo‘lishini va mustaqil ravishda sotiladigan kichik do‘konlardan yirik biznesni shaklini oldi. Ushbu chakana savdo tarmoqlari avval mintaqaviy guruhlarga, so‘ngra milliy va hattoki, xalqaro miqyosda faol chakana operatsiyalarga aylantirilgan. Jahon mamlakatlarida yirik savdo aylanmasiga ega bo‘lgan ko‘plab chakana savdo tarmoqlari mavjud.

Chakana savdo iqtisodiy hayotning muhim omili va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi eng muhim umumiqtisodiy kategoriyadir.

Zamonaviy iqtisodiyotda chakana savdo xizmatlari - bu shaxslarning joriy va yakuniy iste’molga bo‘lgan ehtiyojlari amalga oshiriladigan va shu bilan birga uni oshirish jarayonlarining asosiy elementlarining o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanadigan sohadir. Chakana savdo mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning asosiy omili bo‘lib, iste’molchilar tomonidan amalga oshiriladigan imtiyozlar tizimini shakllantirishda uning ahamiyatini va barqaror makroiqtisodiy dinamikani ta’minlashdagi rolini belgilaydi, shuningdek iste’mol rivojlanishini, aholi turmush darajasining farovonligini va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish uchun zarur shart-

sharoitlarni yaratadi. Chakana savdo tovar ayriboshlash jarayonining yakuniy bosqichi bo‘lib, unda tovarlarni ishlab chiqarish va ayriboshlash bilan bog‘liq xarajatlar pul shaklida qaytariladi. Ushbu vazifalar chakana savdoni samarali boshqarish zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Chakana savdoni tashkil etish va boshqarishdagi nazariyalari vaqt o‘tishi bilan katta o‘zgarishlarga uchradi va bozorda raqobatni rivojlantirish jarayoniga moslashdi [7].

Kompaniyalar o'z brendlarini rivojlantirish uchun o'z mahsulotlaridan ko'ra ko'proq sarmoya kiritmoqdalar. Sun'iy intellekt yordamida xaridorlarga shaxsiy xarid qilishda ham yordam berildi. Misol uchun, Netflix siz ko'rgan filmlarga asoslangan filmlarni taklif qiladi va Facebook sizga yoqqan ma'lumotlar va sahifalar asosida reklamalarni ko'rsatadi. Xuddi shunday, Amazon xaridorning sotib olish qaroriga ta'sir qilish uchun tez-tez veb-saytda ko'rgan mahsulotni Facebook sahifasida reklama sifatida ko'rsatadi. Elektron tijorat shuningdek, onlayn to'lov imkoniyatlari va turli xil to'lov shlyuzlarini targ'ib qiladi, bu esa mijozlarga turli chegirmalarni taqdim etadi, bu esa chakana savdo sanoatini yanada targ'ib qiladi.

Amazon kabi kompaniyalar xarid qilish tajribasini shaxsiylashtirish va uyingizda o'tirgandek saqlash uchun harakat qilmoqda. Chakana sotuvchilar atamasi eksklyuziv internet-riteylerlar bo'lgan yangi o'sib borayotgan elektron sotuvchilar bilan raqobatlashmoqda.

Chakana savdoning kelajagi ham onlayn-do'konlarga, ham Marketing Mix holatida Place bilan rezonanslashadigan Brick and Mortar kontseptsiyasiga bog'liq.

Biror kishi kitob sotib olmoqchi bo'lsa, uning ikkita varianti bor: yoki onlayn buyurtma berish va kutish yoki do'konga borib, xarid qilish. Onlayn do'konda mahsulot narxini pasaytiradigan vositachilar kamroq bo'lsa-da, lekin an`anaviy do'konda narx nisbatan yuqori bo'lishi mumkin.

Agar xaridor buni darhol xohlasa, u do'konga borib, kitobni sotib oladi va elektron savdodagi biznesini yo'qotadi. Shunday qilib, Amazon kabi kompaniyalar yetkazib berish vaqtlarini qisqartirish va bir kunlik yetkazib berish imkoniyatini yaratish ustida ishlamoqda.

Albatta katta daromadlarga erishish uchun puxta o`ylangan strategiyalar muhimdir. Chakana savdoga nisbatan biznes, uning maqsadlari va unga erishish yo'llari va usullari bilan bog'liq bo`lgan batafsil marketing rejasi chakana savdo strategiyasi deb nomlanadi.

Chakana savdo do'koni uchun o'z tovarlari va xizmatlarini ilgari surish va mijozlarning to'g'ri to'plamiga erishish strategiyasini shakllantirish juda muhim - chakana savdo strategiyalarining asosiy maqsadi sotuvlar va mijozlar ehtiyojini qondirishni teng darajada oshirishdir.

Umuman olganda, chakana savdo strategiyasi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, mahsulot do'konining joylashuvi, mijozlarning tabiati va boshqa ko'plab tashqi omillar, masalan, raqobat, jismoniy va siyosiy cheklovlar, mavsumiylik va boshqalarga bo`g`liq.

Chakana savdo strategiyasini rejalashtirish va qaror qabul qilishda ushbu omillarning barchasini hisobga olish juda muhimdir.

Xulosa. Zamonaviy iqtisodiyotda chakana savdo xizmatlari - bu shaxslarning joriy va yakuniy iste’molga bo‘lgan ehtiyojlari amalga oshiriladigan va shu bilan birga uni oshirish jarayonlarining asosiy elementlarining o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanadigan sohadir. Chakana savdo mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning asosiy omili bo‘lib, iste’molchilar

tomonidan amalga oshiriladigan imtiyozlar tizimini shakllantirishda uning ahamiyatini va barqaror makroiqtisodiy dinamikani ta’minlashdagi rolini belgilaydi, shuningdek iste’mol rivojlanishini, aholi turmush darajasining farovonligini va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O‘zbekistonda chakana savdo korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarish nazariyasi va amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda chakana savdoda raqobatbardoshlikni boshqarishda boshqarish tamoyillariga rioya qilish va funksiyalar, tashkiliy tuzilma va tizimlarni shakllantirishning tegishli uslub va uslublarini ishlab chiqish asosida mumkin bo‘lgan umuman menejment tizimlari eng samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joachim ZentesDirk MorschettHanna Schramm-Klein. Strategic Retail Management. Text and International Cases. pp 6, https://link.springer.com/book/10.1007%2F978-3-658-10183-1#about.
2. Khan M.R., Roy S.K. Do the primary HR functions model work in emerging economies? Sustainable compact perspective for Bangladeshi RMG industry Rev. Int. Bus. Strategy, 33 (2) (2023), pp. 328-341
3. Khan M.R., Roy S.K. Moderating effect of M-banking apps users’ demographic variables on the relationship between the ease of use and brand trust Eur. J. Bus. Sci. Technol., 9 (2) (2023), pp. 249-265
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2018 yildagi “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5564-sonli Farmoni.
5. Joachim ZentesDirk MorschettHanna Schramm-Klein. Strategic Retail Management. Text and International Cases. pp 6, https://link.springer.com/book/10.1007%2F978-3-658-10183-1#about
6. Cöster M.C., Nilsdotter A., Brudin L., Bremander A. A minimally important change, measurement error, and responsiveness for the Self-Reported Foot and Ankle Score Acta Orthop., 88 (3) (2017), pp. 300-304.
7. Davies, Keri (1998), “Applying Evolutionary Models to the Retail Sector,” The International Review of Retail, Distribution and Consumer Research, 8 (2), 165–181

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Xursanaliyev Asrorbek Begnazar o‘g‘li
Qo‘qon universiteti talabasi
Elmurodov Mukhammadkodir
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayonining hozirgi holati, muammolari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qiladi. Maqolada raqamli texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, internet qamrovining kengayishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va raqamli valyutalar kabi zamonaviy texnologiyalar joriy etilishining ahamiyati muhokama qilinadi. Shu bilan birga, malakali kadrlar yetishmovchiligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi kabi mavjud to'siqlar ham o'rganilgan. O'zbekistonning xalqaro raqamli transformatsiya tajribalaridan foydalanishi va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Maqola raqamli iqtisodiy rivojlanishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini ochib berishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, internet qamrovi, davlat xizmatlari, raqamli texnologiyalar, infratuzilma, malakali kadrlar, blokcheyn, raqamli valyutalar, iqtisodiy rivojlanish, raqamli innovatsiyalar.

Abstract. This article analyzes the current situation, problems and prospects of future development of the digital economic transformation process in Uzbekistan. The article discusses the impact of digital technologies on the country's economy, the importance of the expansion of Internet coverage, the digitization of public services and the introduction of modern technologies such as digital currencies. At the same time, existing barriers such as lack of qualified personnel and underdeveloped infrastructure were also studied. Measures necessary for Uzbekistan's use of international digital transformation experiences and acceleration of economic growth were considered. The article emphasizes that the successful implementation of digital economic development opens up opportunities to increase the country's competitiveness in the world market.

Keywords: Uzbekistan, digital economy, digital transformation, internet coverage, public services, digital technologies, infrastructure, skilled personnel, blockchain, digital currencies, economic development, digital innovations.

Kirish

Raqamli iqtisodiyot bugungi global iqtisodiy o'sishning eng asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning ulushi 2022-yilga kelib dunyo yalpi ichki mahsulotining (YAIM) qariyb 15,5 foizini tashkil etdi, bu esa 2005-yildagi ko'rsatkichdan ikki barobar ko'pdir. Bu raqamlarning o'ziyoq raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy tizimlarda qanchalik tezkor va keng ko'lamda o'sayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi jarayonida bu sohaning ahamiyati

yanada oshdi, chunki masofaviy ishlash va onlayn xizmatlarga talab sezilarli darajada ortdi. McKinsey Global Institute ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya davrida raqamli texnologiyalar va xizmatlarning joriy etilishi odatdagi davrlardan 3-4 barobar tezlashdi.

O'zbekiston uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib, davlat tomonidan ushbu sohani jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat 2019-yilda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini qabul qilishi bilan bu yo'nalishda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi — 2030-yilgacha raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 30 foizga yetkazishdir. Bu ko'rsatkichga erishish uchun davlat tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish, moliyaviy texnologiyalarni ommalashtirish va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash borasida muhim qadamlar tashlanmoqda.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 2023-yilda 22,3 millionga yetdi, bu mamlakat aholisining taxminan 63 foizini tashkil etadi. Internet xizmatlarining sifati va qamrovi, ayniqsa, qishloq joylarda hali ham yetarli darajada emas, lekin so'nggi yillarda infratuzilmani yaxshilash uchun sezilarli sarmoya kiritilmoqda. Xususan, O'zbekistonda keng polosali internet tarmoqlarini rivojlantirish va tezlikni oshirish bo'yicha xalqaro miqyosdagi texnologiyalar joriy etilmoqda. 2022-yil oxiriga kelib O'zbekistonda optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 118 ming kilometrni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2020-yildagi natijalardan qariyb 1,5 barobar ko'pdir.

Raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan elektron hukumat tizimi O'zbekistonda jadal rivojlanmoqda. 2022-yilda Elektron hukumat markazi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 290 dan ortiq davlat xizmatlari onlayn platformalar orqali aholiga ko'rsatilmoqda. Ushbu xizmatlar yordamida vaqt va mablag'ni tejash imkoniyatlari sezilarli oshdi. 2021-yil davomida raqamli xizmatlardan foydalanish orqali davlat va xususiy sektorda 120 million dollarga yaqin mablag' tejalgan. Shu bilan birga, onlayn xizmatlarni joriy etish orqali davlat boshqaruvidagi samaradorlik va shaffoflik darajasi ham ortib bormoqda.

O'zbekiston hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 10 dan ortiq axborot texnologiyalari bo'yicha ta'lim beruvchi maxsus o'quv markazlari va universitetlar faoliyat yuritmoqda. Davlat tomonidan AKT sohasidagi ta'limni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag' 2022-yilda 50 million AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash jarayonini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. 2022-yil oxirida O'zbekistonda AKT sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar soni 100 mingdan oshib, mamlakat IT eksportini 140 million dollarga yetkazdi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va imkoniyatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonning raqamli iqtisodiy transformatsiyasida qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, mamlakatning qishloq joylarida internet qamrovi pastligi va texnologik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchidan, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini sekinlashtiradi. Buning ustiga, yuridik va me'yoriy bazaning yetarli darajada

shakllanmaganligi innovatsiyalarni to'liq qo'llab-quvvatlashga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, kriptovalyutalar, blokcheyn texnologiyalari yoki raqamli to'lov tizimlarini tartibga solishdagi kechikishlar ushbu sohalarning rivojlanishini susaytiradi.

Yuqorida keltirilgan raqamlar va so'nggi ma'lumotlar asosida O'zbekistonning raqamli iqtisodiy transformatsiya yo'lida ko'plab imkoniyatlar bilan bir qatorda qator muammolar ham mavjudligi ko'rinadi. Shu bilan birga, mamlakatning raqamli iqtisodiy strategiyasini to'g'ri yo'naltirish va amaliyotda tatbiq etish orqali O'zbekiston yaqin yillarda Markaziy Osiyoda raqamli iqtisodiyotning yetakchi davlatlaridan biriga aylanishi mumkin.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayonini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, hukumat tomonidan tasdiqlangan boshqa me'yoriy hujjatlar va rejalar tahlil qilindi. Masalan, 2022-yilda “Raqamli O'zbekiston” strategiyasi doirasida 290 dan ortiq davlat xizmatlari onlayn platformalar orqali taqdim etildi. Ushbu hujjatlar mamlakatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha maqsadlari va vazifalarini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon Banki va McKinsey Global Institute kabi tashkilotlardan olingan statistik ma'lumotlar ham asosiy manba sifatida foydalanildi. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 22,3 millionga yetgan bo'lib, bu mamlakat aholisining 63 foizini tashkil etadi. 2022-yilga kelib, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi 15,5 foizni tashkil etgan va bu ko'rsatkich keyingi yillarda oshib bormoqda. Ushbu ma'lumotlar raqamli iqtisodiyotning ulushi, texnologik infratuzilma rivojlanishi va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganishga imkon berdi. Mavjud raqamlar yordamida O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonining hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilindi.

Shuningdek, ilmiy maqolalar va xalqaro tadqiqotlar ham tadqiqot jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jahon tajribasi va boshqa mamlakatlardagi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining o'ziga xos modellarini o'rganish, O'zbekiston uchun imkoniyatlar va to'siqlarni aniqlashga yordam berdi. Xususan, BMTning “Raqamli Transformatsiya Indeksi” bo'yicha O'zbekiston 2021-yilda 156 mamlakat ichida 82-o'rinni egalladi, bu esa mamlakatning raqamli rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarni ko'rsatadi. Bu tadqiqotlar orqali O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi pozitsiyasi va xalqaro tendensiyalar bilan aloqasi to'g'risida chuqur tushuncha hosil qilindi.

Tadqiqotda ekspert intervyulari va so'rovnomalar o'tkazildi. Raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq mutaxassislar bilan suhbatlar, ularning tajribalari va fikrlari O'zbekistondagi raqamli transformatsiyaning amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, mutaxassislarning 70 foizi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun malakali kadrlar yetishmovchiligi asosiy to'siqlardan biri deb hisoblaydi. Shuningdek, 60 foiz mutaxassislar raqamli infratuzilmaning rivojlantirilmaganligi, xususan, qishloq joylarida internetning yetarli darajada mavjud emasligini qayd etishdi.

Natijada, O'zbekistonda raqamli iqtisodiy transformatsiyaning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini o'rganish uchun holat tahlili (case study) usulidan foydalanildi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlar, shuningdek, elektron hukumat tizimining rivojlanishi va raqamli xizmatlarning kengayishi ko'rib chiqildi. Masalan, 2022-yilda elektron hukumat tizimi orqali 120 million dollarga yaqin mablag' tejaldi, bu raqam onlayn xizmatlar va davlat xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'ldi. Ushbu metodologik yondashuv O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini keng qamrovli yoritishga va uning rivojlanishi uchun zarur strategik chora-tadbirlarni aniqlashga imkon berdi.

Tahlil va Muhokama

O'zbekistonda raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayoni bir qancha muhim omillar va tendensiyalarni o'z ichiga oladi. Avvalo, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy o'sishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston internet foydalanuvchilari soni 22,3 millionga yetgan, bu mamlakat aholisining 63 foizini tashkil etadi. Ushbu raqamlar O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonining ommaviylashganini ko'rsatadi, shuningdek, raqamli xizmatlar va platformalarga talabning oshishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, 2022-yilda O'zbekiston davlat xizmatlarini onlayn ravishda taqdim etish orqali 120 million dollarga yaqin mablag'ni tejaldi, bu esa davlat samaradorligini oshirishga va aholining vaqtini tejashga xizmat qildi.

Biroq, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida mavjud bo'lgan muammolar ham ahamiyatga ega. Mamlakatning qishloq joylarida internet qamrovi pastligi va texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, qishloq joylarida internet foydalanuvchilari soni shaharlar bilan solishtirganda ancha pastdir, bu esa raqamli iqtisodiyotning muammolaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi kerak. 2022-yil oxiriga kelib, keng polosali internet qamrovi O'zbekistonning umumiy hududining 60 foizini qamrab oldi, bu esa qishloq joylarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim to'siq bo'lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar soni 100 mingdan oshdi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarning 70 foizi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun malakali kadrlar yetishmovchiligi asosiy to'siqlardan biri deb hisoblaydi. Mamlakatda AKT bo'yicha ta'lim muassasalari soni ortsa-da, amaliy tajriba va bilimlar yetishmovchiligi kadrlar tayyorlash jarayonini susaytiradi. Bu holat, o'z navbatida, raqamli transformatsiyaning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun yuridik va me'yoriy bazaning shakllanishi ham muhimdir. Hozirgi kunda kriptovalyutalar, blokcheyn texnologiyalari va boshqa raqamli xizmatlar bo'yicha to'g'ri tartibga solish yo'lga qo'yilmagan. O'zbekiston hukumati bu sohalarda me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va o'zaro muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha ish olib bormoqda. Masalan, 2023-yilda O'zbekistonda raqamli valyuta bilan bog'liq qonunchilikning birinchi qoidalari ishlab chiqildi, bu esa kriptovalyutalar sohasida innovatsion loyiha va xizmatlarni rivojlantirish uchun muhim qadam bo'ldi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlash va xalqaro tajribalarni o'rganish jarayoni davom etmoqda. Xalqaro miqyosda raqamli transformatsiya jarayonida muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rganish, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim bo'ladi. Masalan, Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar raqamli xizmatlar va hukumat tizimlarini muvaffaqiyatli joriy etish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishda misol bo'la oladi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Biroq, mavjud muammolar va to'siqlarni yengib o'tish zarur. O'zbekiston raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish va yuridik bazani mustahkamlash bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Bu jarayonlar O'zbekistonni raqamli iqtisodiyotda yirik o'yinchi sifatida shakllantirishga yordam beradi va mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

O'zbekistonda raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayoni hozirgi kunda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omilga aylanishi davom etmoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan belgilangan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va raqamli xizmatlarning taqdim etilishini samarali yo'lga qo'yishga qaratilgan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, internet qamrovining kengayishi va onlayn davlat xizmatlarining oshishi mamlakat aholisining raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, ushbu jarayonlar bilan birga bir qator muammolar ham mavjud.

Qishloq joylarida internetning yetarli darajada mavjud emasligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalari bo'yicha me'yoriy bazaning yetishmasligi ham rivojlanishni cheklovchi omil sifatida ko'rinadi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o'rganish va zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi pozitsiyasini kuchaytirishi mumkin. Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasini o'rganish, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'llanilishi zarur bo'lgan strategik yo'nalishlarni belgilashda muhimdir.

Natijada, O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida to'siqlarni yengib o'tish, infratuzilmani mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Bunday yondashuv O'zbekistonga raqamli transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish va mamlakat iqtisodiyotini jahon bozorida raqobatbardosh holatga keltirish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va taraqqiyotida asosiy omil bo'lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi qarori (2020).

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). "O'zbekiston iqtisodiyoti va raqamli transformatsiya haqida ma'lumotlar".
3. Jahon Banki. (2022). "Raqamli iqtisodiyot va global rivojlanish: O'zbekiston tajribasi".
4. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). (2023). "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va moliya bozorlarining o'sishi".
5. McKinsey Global Institute. (2022). "Raqamli transformatsiya va uning iqtisodiyotga ta'siri: O'zbekiston holati".
6. BMT. (2021). "Raqamli Transformatsiya Indeksi: O'zbekiston natijalari".
7. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). "Raqamli iqtisodiyot sohasida yangi tashabbuslar".
8. Karimova, D. (2022). "O'zbekistonda raqamli transformatsiya: Muammolar va imkoniyatlar". O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali.
9. Boshqarov, S. (2023). "Raqamli texnologiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri". O'zbekiston xalqaro iqtisodiy jurnali.
10. Xusniddinov, N. (2021). "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: Holat va istiqbollar". "Jahon iqtisodiyoti" ilmiy maqolalar to'plami.
11. Mukhammadkodir, E. (2023). MAMLAKATIMIZDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TAHLILI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 314-321.
12. Axrorjon, Y. L., Mashhura, I., & Mukhammadkodir, E. (2024). BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING TA’LIMDAGI RO ‘LI. Kokand University Research Base, 595-600.
13. Yo‘ldoshev, A., & Elmurodov, M. (2022, July). KOMPYUTER TARMOQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 4, pp. 71-75).
14. Elmurodov, M. N., & Tojiyeva, M. M. (2023). Kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkillashtirishda moliyaviy hisobning ahamiyati. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 44-47.

SANOAT KORXONALARINI YASHIL TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Turg‘unov Jasurbek Alimardon o‘g‘li
ORCID: 0000-0002-1161-8960
Rustamov Muhammadazizxon Ulug‘bek o‘g‘li
Qo‘qon univeristeti Iqtisodiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil texnologiyalar tushunchasi, uni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o’rni haqida so’z yuritilgan. Maqolada yashil texnologiyalarning sanoat korxonalar faoliyatiga tadbiq etish yo’llari, ushbu texnologiyalarni joriy qilishning afzalliklari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek ushbu maqolada yashil texnologiyalar orqali iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari tahlil etilgan. Maqolada yashil texnologiyalarni amaliyotga sanoatga joriy etish bo‘yicha xulosa va takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil texnologyalar, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, resurslar tejamkorligi, sanoat 4.0, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy modellar.

Kirish. Rivojlanishining yangi bosqichida yashil texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik o’sishini belgilovchi asosiy ishlab chiqarish resursi sifatida qaralmoqda. Iqtisodiyotning real sektori korxonalari tomonidan yashil texnologiayalrdan foydalanish ularning iqtisodiyotda samarali faoliyat olib borishining eng muhim shartlaridan biriga aylandi. Yashil texnologiyalar sanoat korxonalarini zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o’zgartiradi va korxona faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yashil texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlari va ta’minot zanjirlari ekologik toza yoki an’anaviy ishlab chiqarish usullariga nisbatan kamroq zararli bo‘lgan texnologiyalardir. Ushbu texnologiyalar ekologik, iqtisodiy, texnologik va innovatsion sohalarda tatbiq etilib, chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasining muqobil manbalaridan foydalanish va hokazo masalalarni hal qiladi.

Yashil texnologyalarni muhimliligi zararli energiya siyosati, iqlim o‘zgarishi, o‘rmonlarning kesilishi, tuproqning tanazzulga uchrashi va resurslardan haddan tashqari foydalanish - bu mutaxassislar sayyoramizda barqarorlikka erishish uchun odamlar hal qilishi kerak bo‘lgan muammolardan bir nechtasi. Yashil texnologiya bizga ushbu barqarorlikka erishishda yordam berishi mumkin va biz har bir kishi uni rivojlantirish va o‘z biznes operatsiyalari uchun foydalanishdan ko‘proq manfaatdor bo‘lishi kerak.

Yashil texnologiyalar sanoat sektorida avtomatlashtirish, ishlab chiqarish liniyalari, energiya sarfini real vaqt rejimida kuzatib borishi va kerakli o‘zgarishlarni joriy qilishga imkon beradi. Mamlakatizmida ham yashil iqtisodiyotni keng joriy etish, yashil texnologiyalarni rivojlantirish borasida samarali ishlar olib borilmoqda Vazirlar Mahkamasining “Ayrim sanoat sohalarida ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof-muhitga va aholi salomatligiga salbiy ta’sirini kamaytirish va muqobil energiya resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 300-son qarori yashil texnologiyalarni rivojlantirish masalalariga o‘z e’tiborini qaratadi[1].

Adabiyotlar tahlili. Sanoat korxonalarini yashil texnologiyalar orqali rivojlantirish yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan**.** Jiang va boshqalarning firkricha sanoat 4.0 tabiiy resurslardan yaxshiroq foydalanadi, kamroq chiqindi ishlab chiqaradi, tejamkor jarayonlarga ega, mashina va uskunalarning ishlash muddati va texnologik yutuqlarni kengaytiradi[2]. Jeffri Saks - iqtisodchi va barqaror rivojlanish tarafdori, sanoat amaliyotiga yashil texnologiyalar integratsiyasini ta’kidlab o‘tgan. Uning firkicha “yashil texnologiyalar - barqaror rivojlanishni targ‘ib qilib u ekologik barqarorlikni iqtisodiy siyosatga integratsiya qilishning kuchli himoyachisi”. Uning ta’kidlashicha, ushbu amaliyotlar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va qashshoqlikni kamaytirish uchun zarurdir. U iqlim o‘zgarishini qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi va barqaror resurslarni boshqarish orqali hal qilish zarurligini ta’kidlaydi.[3]

Dustin Murlavey atrof-muhitni o‘rganish professori fikricha yashil texnologiyaning muhim rolini va uning barqaror muhitga qaratilgan eng so‘nggi ishlanmalarini o‘rganadi. Yashil texnologiya qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishga qaratilgan yangi, toza texnologiyani yaratishni kafolatlaydi[4].

Paul Ekins yashil texnologiyalar orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik resurslardan oqilona foydalanishni birlashtirish mumkin deb hisoblaydi. Ekins barqaror rivojlanishga erishish uchun yangi iqtisodiy modellarni qo‘llashni taklif qiladi[5]. Yana bir olim Nicholas Stern global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda iqtisodiy siyosatni o‘zgartirish kerakligini aytadi. Sternning fikricha, yashil texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy o‘sish ekologik muammolar bilan kelishilgan holda davom etishi mumkin[6]. Thomas Sterner yashil texnologiyalarning keng qo‘llanilishi uchun karbon solig‘i va rag‘batlantirish choralarini kuchaytirishni taklif qiladi. Joan Martinez-Alier yashil texnologiyalarni adolat va iqtisodiy samaradorlik bilan birlashtirish muhimligini aytadi. U tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi[7].

Hans Schellnhuber iqlim o‘zgarishini sekinlashtirish uchun iqtisodiy siyosatni qayta ko‘rib chiqish va yashil texnologiyalarni keng miqyosda joriy qilish zarurligini aytadi[8]. Mark Jaccard yashil texnologiyalarni davlat siyosati bilan qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. U karbon solig‘i va iqtisodiy rag‘batlantirish orqali energiya samaradorligini oshirishni taklif qiladi[9].

[1] https://lex.uz/uz/docs/-6540540
[2] Jiang Z, Yuan S, Ma J, Wang Q (2021) The evolution of production scheduling from Industry 3.0 through Industry 4.0. Int J Prod Res: 1-21. https://doi.org/10.1080/00207543.2021.1925772
[3] Jeffri Devid Saks (1954-yil 5- noyabrda tug‘ilgan, Detroyt) — amerikalik iqtisodchi. Ph.D (1980), universitet professori va Kolumbiya universiteti qoshidagi Yer instituti direktori, ilgari Garvard professori. Bernard Xarms mukofoti sovrindori (2000). 2002 yildan BMT Bosh kotibining maxsus maslahatchisi .
[4] https://www.researchgate.net/profile/Dustin-Mulvaney Dustin Mulvaney
Professor of Environmental Studies, San Jose State University
[5]Ekins, P. (1999). Economic Growth and Environmental Sustainability: The Prospects for Green Growth (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203011751
[6] Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press; 2007. https://www.aeaweb.org/journals/aer
[7] Martínez Alier, J. (1991). Ecological Economics: Energy, Environment and Society. (2 ed.) https://portalrecerca.uab.cat/en/publications
[8] Schellnhuber, H.J. (2008). Climate Change as a Security Risk (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781849775939
[9] Jaccard, M. (2005). Sustainable Fossil Fuels: The Unusual Suspect in the Quest for Clean and Enduring Energy. Cambridge University Press. https://books.google.co.uz/

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ilmiy asoslangan statistik tahlil, adabiyotlar sharhi, qiyosiy taqqoslash va boshqa yondoshuv hamda usullardan keng foydalanildi. Xususan, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil metodidan foydalanilgan.

Tahlil. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025 yilga borib jahondagi yashil texnologiyalar bozori 4,4 trln. yevro (taxminan 6 trln. doll.)ga tenglashadi. Ushbu bozorning har yili o‘rtacha 30%ga o‘sayotganligi va jahon yalpi ichki mahsulotiga qo‘shayotgan hissasi 6-7%ga qadar ortayotganligi kuzatilmoqda. Tahlillar ko‘rsatishicha, 2020 yildayoq jahondagi ekologik toza asbob-uskunalar bozori hajmi ikki baravarga, tegishli tarmoqlarda band bo‘lganlar soni to‘rt martaga, “yashil iqtisodiyot”ning jahon yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi esa 5%ga ortishi kuztilgan[10]. 2023 yilda yashil texnologiyalar bozorida qurilish segmenti bozorda ustunlik qildi, chunki yashil qurilish texnologiyasi qurilish sanoatidagi muhim tendensiyalardan biriga aylandi. Ushbu texnologiya RFID skanerlari va sensorlari, kirish kartalarini o'qish moslamalari, harakat detektorlari va qurilish sektorining turar-joy holatini kuzatish uchun boshqa sensorlardan foydalanadi. Yashil texnologiyalar ekologik, iqtisodiy, texnologik va innovatsion sohalarda qo‘llaniladi va chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasining muqobil manbalaridan foydalanish va boshqalar masalalarini hal qiladi. Unga ko‘ra yashil texnologiyalar bir qator afzalliklarga ega.(1-jadval)

1-jadval. Yashil texnologiyalarning afzalliklari[11]

№	Afzalliklari	Tavsifi
1	Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish	Yashil texnologiya toza ishlab chiqarish jarayonlari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va barqaror resurslarni boshqarish orqali ifloslanishni minimallashtirish va umumiy atrof-muhit izini kamaytirishga yordam beradi.
2	Energiya samaradorligi	Energiya samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirishga va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga olib keladi.
3	Xarajatlarni tejash	Yashil texnologiyani joriy qilish orqali korxonalar va iste’molchilar samaradorlikni oshirish va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish hisobiga energiya to’lovlari va operatsion xarajatlarni tejashlari mumkin.
4	Ish o‘rinlarini yaratish	Yashil texnologiyalar sektori qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi va atrof-muhitni boshqarish kabi sohalarda yangi ish o‘rinlarini yaratadi, bu esa iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantiradi.
5	Resurslarni saqlash	Yashil texnologiya tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va kelajak avlodlar uchun materiallarni tejashga yordam beradi.
6	Yaxshilangan korporativ nufuz	Yashil texnologiyalarni qo‘llagan korxonalari o‘z obro‘sini oshirish va atrof-muhitga zararni kamaytirish imkoniyatiga ega.
7	Normativ muvofiqlik	Yashil texnologiyani qabul qilish korxonalarga atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari va standartlariga rioya qilishga yordam beradi, jarimalar va huquqiy muammolardan uzoqlashtiradi.

[10] Порфирьев Б. «Зеленая» экономика: реалии, перспективы и пределы роста // Фонд Карнеги за международный мир. – URL http://carnegieendowment.org/files/WP_Porfiriev_web.pdf

[11] Muallifning ishlanmasi

Yashil texnologyalarni sanoat korxonalariga joriy etish imkoniyatlari:

- **Atrof-muhitni muhofaza qilish:** issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradi, tabiiy resurslarni tejaydi, ekotizimlarni himoya qiladi va havo va suv sifatini yaxshilaydi.
- **Iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratish:** innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, yangi bozorlarni yaratadi va qayta tiklanadigan energiya, toza texnologiyalar va barqaror ishlab chiqarishda bandlik imkoniyatlarini yaratadi.
- **Kengaytirilgan raqobatbardoshlik:** brend imidjini yaxshilaydi, ekologik ongli iste’molchilarni jalb qiladi va qat’iy ekologik standartlarga ega bozorlarga eshiklarni ochadi.
- **Xarajatlarni tejash:** samaradorlikni oshirish va chiqindilarni minimallashtirish orqali energiya va moddiy xarajatlarni kamaytiradi.
- **Iqlim ta’siriga chidamlilik:** sanoat korxonalarini iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashishga yordam beradi, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, “yashil texnologiyalarni”ni moliyalashtirishga an’anaviy usullar yordamida moliyalashtirish muhim hisoblanadi. Moliya, bank va sug‘urta investitsiyalari “yashil iqtsodiyot”ga sarflanayotgan xususiy investisiyalarning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. (1-rasm)



1-rasm. Yashil texnologiyalarning moliyalashtirish tizimidagi o‘zaro bog‘liqlik[12]

Yashil iqtisodiyotning amaldagi sektorlari faoliyatining huquqiy bazasini mustahkamlash, jumladan, yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sertifikatlash, ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish, sanoat bazasini yaratishning maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish, ushbu sohada innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

[12] Jin Noh Hee, Financial Strategy to Accelerate Innovation for Green Growth (2010).

Xulosa va takliflar

Yashil texnologiyalar korxonalar uchun ekologik tozalikka erishish, energiya tejamkorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Yashil texnologiyalarni joriy etish sanoat korxonalarida ekologik barqarorlikni kuchaytiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi va global ekologik muammolarni kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish kanallarini shakllantirish, yashil texnologiyalarning natijalarini amaliyotga joriy etayotgan ishlab chiqaruvchilar va ulardan foydalanuvchilarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish lozim. Shundan kelib chiqib:

- yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun yangi moliyaviy vositalarni joriy etish;
- yashil texnologiyalarni joriy etishning institusional asoslarini rivojlantirish;
- yashil texnologiyalar, innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanish ko‘lamini oshirish
- yashil texnologiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlari amaliyotga tadbiq etish masalalariga katta e’tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshiradi, balki iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi. Shu sababli, yashil texnologiyalarning rivojlanishi atrof-muhitni asrab-avaylash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekins, P. (1999). Economic Growth and Environmental Sustainability: The Prospects for Green Growth (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203011751
2. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press; 2007. https://www.aeaweb.org/journals/aer
3. Daly, H. E. (1996). Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development. Beacon Press. https://books.google.co.uz/
4. Sterner, T. (2003). Policy Instruments for Environmental and Natural Resource Management. RFF Press https://doi.org/10.4324/9781315780894
5. Sterner, T. (2003).Environmental and natural resource economics. RFF press https://doi.org/10.4324/9781315208343
6. Martínez Alier, J. (1991). Ecological Economics: Energy, Environment and Society. (2 ed.) https://portalrecerca.uab.cat/en/publications
7. Mulvaney, D. (2011). Green Technology: An A-to-Z Guide. SAGE Publications. https://books.google.co.uz/books?id=_76fUEbM-eUC&lpg=PP1&ots=2yvHqJ9Usn&lr&hl=ru&pg=PP1#v=onepage&q&f=false
8. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press. https://doi.org/10.7312/sach17314-014
9. Jaccard, M. (2005). Sustainable Fossil Fuels: The Unusual Suspect in the Quest for Clean and Enduring Energy. Cambridge University Press. https://books.google.co.uz/

10. Pachauri, R. (2006). Avoiding dangerous climate change. Avoiding dangerous climate change, 3-5.
11. Jiang Z, Yuan S, Ma J, Wang Q (2021) The evolution of production scheduling from Industry 3.0 through Industry 4.0. Int J Prod Res: 1-21.
12. Порфирьев Б. «Зеленая» экономика: реалии, перспективы и пределы роста // Фонд Карнеги за международный мир. – URL http://carnegieendowment.org/files/WP_Porfiriev_web.pdf
13. Jin Noh Hee, Financial Strategy to Accelerate Innovation for Green Growth (2010).
14. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar “Yashil iqtisodiyot”. Toshkent.: “Universitet”, 2020
15. Turg‘unov, J. A. (2023). MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH HOLATI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 85-87.
16. Turg‘unov, J. A. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA’SIRINI BAHOLASHDA EIA TIZIMINI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 33-36.
17. Turg‘unov, J. (2024). Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(7). Retrieved from https://yashil-iqtisodiyo-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2487
18. Turgunov Jasurbek. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF MUHITGA TA’SIRINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 15–24. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/678
19. Turgunov Jasurbek, (2024) Innovative methods for assessing the environmental impact of industrial enterprises' development based on the sustainable development goals, Biznes-Ekspert, "Biznes-Daily Media", 49-52

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING UMUMIY BANDLIKDAGI O‘RNI

Nasirov Oybek Shukur’onovich
Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik umumiy bandlikni oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada kichik biznesning umumiy bandlikdagi o‘rni, iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi va aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun daromad manbai yaratishdagi roli batafsil tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda hukumat tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar va imtiyozlar tizimi joriy qilindi. Bu choralarning asosiy maqsadi kichik va o‘rta biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, shu bilan birga iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdir. Maqolada kichik biznesning qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, savdo va ishlab chiqarish kabi tarmoqlardagi o‘rni alohida yoritilib, bu tarmoqlarda bandlikni ta’minlash va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishdagi natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola kichik biznesning raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Tadqiqot natijalari kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy o‘sishga va ijtimoiy barqarorlikka qo‘shayotgan hissasini tasdiqlaydi va bu sohani yanada rivojlantirish uchun takliflar beradi.

Kalit so’zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, umumiy bandlik, iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari, iqtisodiy diversifikatsiya, davlat qo‘llab-quvvatlashi, xizmat ko‘rsatish sohasi.

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining o‘rni tobora muhimlashib bormoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida kichik va o‘rta biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning muhim manbai hisoblanadi. O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosat kichik biznesga qulay sharoitlar yaratish, moliyaviy resurslarga keng imkoniyatlar taqdim etish va soliq yukini kamaytirishga qaratilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish uchun kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda ish bilan ta’minlangan aholining katta qismi aynan kichik va o‘rta biznes korxonalarida faoliyat yuritadi. Bunda xizmat ko‘rsatish sohasi, savdo, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznesning roli sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Kichik biznesning rivojlanishi faqat iqtisodiy foyda bilan cheklanmay, ijtimoiy masalalarni hal qilish, jumladan, qishloq hududlarida bandlikni oshirish va migratsiyani kamaytirishga ham yordam bermoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning umumiy bandlikdagi roli, ushbu sohaning turli tarmoqlardagi ahamiyati, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan imtiyoz va qo‘llab-quvvatlash choralari hamda kichik biznesning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka

qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va bandlik darajasini oshirish uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar ham ko‘rib chiqiladi.

Asosiy Qism. O‘zbekistonda kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti va bandlikni ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va aholini daromad manbai bilan ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda band bo‘lgan aholining katta qismi kichik va o‘rta biznes subyektlarida faoliyat yuritmoqda. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda kichik biznesning muhim o‘rinni egallashini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda kichik biznes korxonalari qator sohalarda faoliyat yuritib, bandlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, xizmat ko‘rsatish, savdo, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish sohalarida kichik biznes subyektlari sezilarli darajada ko‘payib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

During a surgical procedure, internal fixation and cutting for orthotics or tumor excision can pose challenges, including determining the best angle and location for fixation and preserving normal tissue. Through the preoperative detection data, 3DP can produce an individualized surgical guide and a template for assisting the surgery. With 3DP template navigation in spine surgery, pedicle screw insertion received a safety enhancement and was much easier than traditional methods; meanwhile, the risk of surrounding neurovascular damage was effectively reduced, and the radiation exposure was also decreased [45, 46]. Shortly, 3D printing technology will be able to create fully functional organs, leading to the next step of Organ Bioengineering [47].

Conclusion: AI technology is a high-tech product that evolves with the modern period. It is a natural outcome of scientific and technological advancements and follows a trend throughout time. Hman society has undergone two industrial revolutions: the steam revolution and the electrical revolution, both of which significantly impacted daily life and advanced civilization. The scientific and technological revolution, including AI technology, has become unstoppable and spread like wildfire. AI technology has revolutionized the medical field, allowing for more accurate and efficient patient diagnosis through radiological, pathological, endoscopic, ultrasonographic, and biochemical examinations, reducing human workload. Improved surgical outcomes led to major improvements in medical treatments throughout the perioperative period, including preoperative preparation, surgery, and recuperation. AI technology has significantly impacted medical medication manufacturing, management, and education, transforming these fields.

References:

1. Mintz Y, Brodie R. An introduction to artificial intelligence in medicine. Minim Invasive Ther Allied Technol, 2019, 28(2):73–81.

2. Kaul V, Enslin S, Gross S.A. The origins of artificial intelligence in medicine. Gastrointest Endosc. 2020;92(4):807-812.

3. Miller RA, Pople HJ, and Myers JD. Internist-1 is an experimental computer-based diagnostic tool for general internal medicine. N Engl J Med, 1982, 307(8): 468–476.

4. Shortliffe EH, Davis RM, Axline SG, et al. The MYCIN system enables computer-based consultations in clinical treatments, including rule acquisition and explanation. Comput Biomed Res, 1975, 8(4):303–320.

5. Weiss S, Kulikowski CA, Safir A. Glaucoma consultation by computer. Comput Biol Med. 1978;8(1):25-40. Kulikowski CA. Beginnings of Artificial Intelligence in Medicine (AIM): Computational Artifice Assisting Scientific Inquiry and Clinical Art, with Reflections on Current AIM Challenges. Yearb Med Inform, 2019, 28(1): 249–256.

6. Stefanelli M, Shortliffe EH, and Patel VL. The rise of artificial intelligence in medicine. Artif Intell Med. 2009;46(1):5-17. Poncette AS, Mosch L, Spies C, et al. Improved Patient Monitoring in the Intensive Care Unit: A Survey Study. J Med Internet Res, 2020;22(6):e19091.

7. Zandvliet AS, Haldna L, and Angehrn Z. Artificial intelligence and machine learning are used at the point of care. Front Pharmacol, 2020, 11:759. Dai B, Yu Y, Huang L, et al. Use of a neural network model to aid with device fitting for low vision patients. Ann Transl Med, 2020;8(11):702.

8. Averta G, Della S, Valenza G, et al. Exploiting upper limb functional main components to generate human-like mobility in anthropomorphic robots. J Neuroeng Rehabil, 2020;17(1):63.

9. Zhao Y, Liang C, Gu Z, et al. A novel design scheme for an intelligent upper limb rehabilitation training robot. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2020, 17(8): 2948.

10. DeCH, Corradi F, Smeets C, et al. Wearable monitoring and interpretable machine learning can objectively track patients' progress throughout cardiac rehabilitation. Sensors (Basel), 2020, 20(12): 3601.

11. Ramezani R, Zhang W, Xie Z, et al. Baseline study results on using indoor localization and wearable sensor-based physical activity recognition to assess older patients undergoing subacute rehabilitation. JMIR MHealth Uhealth, 2019, 7(7):e14090.

12. Tae K. Robotic thyroid surgery. Auris Nasus Larynx, 2020;48(3):331-338. Stefanelli L, Mandelaris GA, Franchina A, et al. A Case Study of the Accuracy of 14 Maxillary Full Arch Implant Treatments Performed with the Da Vinci Bridge. Materials (Basel), 2020;13(12):2806.

13. Lenfant L, Wilson C, Sawczyn G, et al. SinglePort Robot-Assisted Dismembered Pyeloplasty Using Mini-Pfannenstiel or Peri-Umbilical Access: First Results in a Single Center. Urology, 2020, 143:147–152.

14. A. Winder, D. Strauss, R. L. Jones, et al. A case series from a single hospital on robotic surgery for stomach gastrointestinal stromal tumors. J Surg Oncol, 2020; doi: 10.1002/jso.26053. Online ahead of print.

15. Jones R, Dobbs RW, Halgrimson W, et al. Single port robotic radical prostatectomy using the da Vinci SP platform: a step-by-step guide. Can J Urol, 2020, 27(3):10263–10269.

16. Lenfant L, Wilson C, Sawczyn G, et al. SinglePort Robot-Assisted Dismembered Pyeloplasty Using Mini-Pfannenstiel or Peri-Umbilical Access: First Results in a Single Center. Urology, 2020, 143:147–152.

17. A. Winder, D. Strauss, R. L. Jones, et al. A case series from a single hospital on robotic surgery for stomach gastrointestinal stromal tumors. J Surg Oncol, 2020; doi: 10.1002/jso.26053. Online ahead of print.

18. Jones R, Dobbs RW, Halgrimson W, et al. Single port robotic radical prostatectomy using the da Vinci SP platform: a step-by-step guide. Can J Urol, 2020, 27(3):10263–10269.

19. Lenfant L, Wilson C, Sawczyn G, et al. SinglePort Robot-Assisted Dismembered Pyeloplasty Using Mini-Pfannenstiel or Peri-Umbilical Access: First Results in a Single Center. Urology, 2020, 143:147–152.

20. A. Samareh, X. Chang, W.B. Lober, et al. AI Methods for Detection, Monitoring, and Decision Making in Surgical Site Infection. Surg Infect (Larchmt), 20(7):546–554, 2019.

21. Cheng N, Kuo A. LSTM Neural Networks for Predicting Emergency Department Wait Time. Stud Health Technol Inform, 2020; 272:199-202.

22. Nas S, Koyuncu M. Emergency Department Capacity Planning using Recurrent Neural Networks and Simulations. Computer Math Methods Med (2019): 4359719.

23. Saab A, Saikali M, & Lamy JB. A comparison of machine learning methods for predicting adverse event-related 30-day hospital readmissions and their implications for patient safety. Stud Health Technol Inform, 2020, 272: 51–54.

24. Lin YW, Zhou Y, Faghri F, et al. We employed recurrent neural networks with long short-term memory to investigate and predict unplanned intensive care unit readmissions. PLoS One, 2019, 14(7): e218942.

25. Wu D, Xiang Y, Wu X, et al. AI tutoring for problem-based learning during ophthalmology clerkship. Ann Transl Med. 2020;8(11):700.

26. Yang YY; Shulruf B. A prospective pilot study discovered that an expert-led and AI-assisted coaching course boosted confidence in suturing and ligature skills among Chinese medical trainees. J Educ Eval Health Prof. 2019;16:7.

27. Mirchi, N.; Bissonette, V.; Yilmaz, R. The Virtual Operative Assistant is a user-friendly artificial intelligence platform for teaching surgery and medicine through simulations. PLoS One, 2020; 15(2): e229596.

28. Bertin H, Huon J, Praud M, et al. 3D printed mandible models allow maxillofacial surgery trainees to perform bilateral sagittal split osteotomies. Br J Oral Maxillofac Surg, 2020;58(8):953–958.

29. Bohl M, McBryan S, Pais D, et al. The Living Spine Model: A Biomimetic Surgical Training and Education Tool. Oper Neurosurg (Hagerstown), 2020, 19(1):98–106.

30. Sappenfield JA, Smith WB, Cooper LA, et al. Visualization improves supraclavicular access to the subclavian vein in a mixed-reality simulator. Anesth Analg, 2018;127(1):83–89.

31. Namikawa K, Hirasawa T, Yoshio T, et al. AI in Endoscopy: A Clinician's Guide. Expert Review Gastroenterol Hepatol, 2020: 1-18.

32. Hwang Y, Lee HH, Park CS, et al. Improved Small Bowel Capsule Endoscopy Classification and Localization using Convolutional Neural Networks. Dig Endosc, 2020, 33(4): 598–607

33. He YS, Su JR, Li Z, et al. Applying artificial intelligence in gastrointestinal endoscopy. J Dig Dis, 2019, 20(12): 623–630.
34. Chahal D; Byrne MF. A primer on artificial intelligence and its use in endoscopy. Gastrointest Endosc, 2020;92(4):813-820.
35. Sharma P, Pante A, Gross S.A. Artificial intelligence in endoscopy. Gastrointest Endosc, 2020;91(4):925-931.
36. A bright future for robotic surgery // https://openmedscience.com/bright-future-for-robotic-surgeons/
37. HeartLander // https://www.cs.cmu.edu/~heartlander/index.html
38. Tejo OA, Buj CI, and Fenollosa AF. A review of 3D printing in medicine for preoperative surgical planning. Ann Biomed Eng, 2020, 48(2): 536–555.
39. Wang C, Zhang L, Qin T, et.al. A comprehensive study of 3D printing for adult cardiovascular surgery and procedures. J Thorac Dis, 2020, 12(6): 3227–3237.
40. Nikoyan and Patel discuss the use of intraoral scanners, three-dimensional imaging, and printing in dental offices. Dent Clin North Am, 2020, 64(2):365–378.
41. Skelley NW, Smith MJ, Ma RM, et al. 3D Printing Technology in Orthopaedics. J Am Acad Orthop Surg, 2019, 27(24): 918–925.
42. Yamaguchi JT, Hsu WK. 3D Printing for Minimally Invasive Spine Surgery. Curr Rev Musculoskelet Med, 2019, 12(4):425-435
43. Bangeas, P., Tsioukas, V., & Papadopoulos, N. Innovative 3D printing models help control hepatobiliary cancers. World J Hepatol, 2019;11(7):574-585.
44. Feng ZH, Li XB, Phan K, et al. Creating a 3D navigation template to guide screw trajectory in the spine using Mimics and 3-Matic software. J Spine Surg, 2018, 4(3): 645–653.
45. Kashyap A, Kadur S, Mishra A, et al. present a novel cervical pedicle screw guiding jig. J Clin Orthop Trauma, 2018; 9(3): 226-229.
46. Edgar L, Pu T, Porter B, et al. "Regenerative medicine, organ bioengineering, and transplantation." Br J Surg. 2020;107(7):793-800.

RAQAMLI TIBBIYOT AMALDA

Abduganieva Sh.X.[1], Usmonova N.[2], Alimjanova L.[3]
Toshkent davlat stomatologiya instituti
[1] Biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi,
[2] Yuz jag’ jarrohlik yo‘nalishi magistranti,
[3] Qo’shma ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. Yigirma birinchi asr – sun’iy intellekt asri bo‘lib, hech bir javha yo‘qki, unda sun’iy intellekt qo‘llanmasa. Tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasi ham bundan mustasno emas. Keling, misol tariqasida Da Vinchi-Xi qurilmasidan foydalangan holda bemor va shifokor uchun robototexnikadan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Da-Vinchi-Xi qurilmasi, jarrohlik manipulyatsiyasi, robot, raqamli jarrohlik, vizualizatsiya.

Tarixdan insoniyat o‘z jismoniy mehnatini yengillashtirishga qaratgan. Barcha ixtirolar, bug‘ turbinasidan tortib bugungi kun avtomobillariga qadar insonning hayotini yengillashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Fan texnika taraqqiyoti shu darajaga borib yetdi-ki, insoniyat o‘z ixtirolari bilan o‘ziga alternativa yaratish darajasiga yetib keldi. Bugungi kunda sun’iy intellekt inson aqli bilan teng qatorda va hatto, undanda kuchli darajada baxslasha oladi.

Tabobat ilmi asrlar davomida inson salomatligi yo‘lida xizmat qilib kelgan. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino ta’limotlarida tilga olinga davolash usullari bugungi kunda zamonaviy talqinda aktuallashgan ko‘rinishda amalga oshirilmoqda. Ya’ni ajdodlar maktabining ta’limoti zamonaviy talqinda dunyo yuzini ko‘rmoqda. Biroq tan olish joizki, madaniyat bir necha asrlar oldin sharqda yaralib, g‘arb tomon yo‘nalgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar asosida davolash usullari, jarrohlik amaliyotlarini bajarish bugungi kunda g‘arbdan kirib kelmoqda.

Tibbiyotni raqamlashtirish masalalari ham yigirmanchi asrning 70-yillarida Amerika Qo‘shma Shtatlarida yuzaga kelib, o‘z yechimini topa boshlagan. Bugungi kunda AQSh, Yevropa hamda qator Osiyo davlatlarida raqamli tibbiyot odatiy kun masalasi singari o‘z yechimini topib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida esa tibbiyotning raqamlashtirilishi, avvalo, tibbiy ta’limni raqamlashtirishdan boshlandi. Sababi, yangi texnologiyalar asosida ta’lim olgan talaba yoshlar o‘zlarining tajribalarida zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishlari va tajribada keng qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari nazarda tutilgan.

Raqamli tibbiyot – bu masofaviy axborot almashinuvi, diagnostika va uni baholash, kasallikni davolash hamda uning kechishi va oqibatlarini prognozlash usullaridir. Barchaga ma’lumki, “e-Health” – Elektron sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha qator chora-tadbirlar raqamlashtirilgan tibbiyotni ilgari surish strategiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz aholisi tibbiy mobil ilovalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lib, ulardan samarali foydalanmoqdalar. To‘g‘ri, bunday foydalanuvchilar soni juda ko‘p bo‘lmasada, har holda yetarli. Qadamma-qadam majburiy tibbiy sug‘urta tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. Oilaviy shifokor konsepsiyasi ilgari surilib, Qator davolash muassasalari elektron hujjat almashinuvi tizimi asosida o‘z faoliyati olib bormoqda, kasalliklarni erta davrida katta aniqlikda diagnostika

qilish imkonini beradigan yangi texnologiyalarga asoslangan diagnostika va davolash apparatlari sotib olinmoqda va el xizmatida qo‘llanib kelmoqda. Raqamli tibbiyot platformasi tibbiy axborot tizimlarning asosi bo‘lib, unda bemorga oid barcha tibbiy ma’lumotlar jamlangan bo‘ladi. Bu esa, o’z navbatida mazkur platformada ishlaydigan kadrlarda o‘z ishiga ko‘shimcha mas’uliyat va e’tibor bilan yondoshishni talab etadi. Shunday ekan, tibbiyotning yaqin kelajagi to‘laqonli raqamli tibbiyotni qabul qilish, o‘rganish, qayta ishlash, saqlash va uzatish bilan bog‘liq. Bu degani, zamonaviy shifokorlar o‘z sohalarining malakali egasi bo‘lishlari uchun zamonaviy texnologiyalardan keng foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak degani.

Misol tariqasida jarrohlik amaliyotida dunyo miqyosida keng qo‘llaniladigan jarrohlik roboti Da Vinchi-Xi apparatining qo‘llanishi, uning ijobiy va salbiy tomonlari to‘g‘risida fikr yuritamiz. Hayot tajribasi insoniyatni, jarrohlik muolajalarini takomillashtirish zarurligiga ishontirganining guvohimiz. Robototexnika minimal invaziv jarrohlik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Raqamli jarrohlik sohasidagi eng ilg'or robot tizimi bo'lgan Da Vinchi-Xi qurilmasi bunga yorqin misoldir. Bemorning qorin bo'shlig'iga kichik teshiklar orqali asboblar kiritiladi. Jarroh bemorga tegmasdan, boshqaruv konsolida bo'lib, avtomat-barmoqlarini boshqarib, sensorlar yordamida robot asboblari bilan ishlaydi.

Tizim jarrohning mohirona harakatlarini o‘ta aniq robot harakatlariga aylantiradi. Bu real vaqtda sodir bo'ladi, ya'ni robot hech qanday mustaqil harakatlar qilmaydi, balki jarroh qo'lining davomi hisoblanadi. Zamonaviy tasvirlar tufayli hatto eng kichik nerv birikmalari uch o'lchamli tasvirlarda ko'rinadi. Jarrohlik maydoni o‘n barobargacha kattalashtirilishi bilan yuqori aniqlikdagi 3D tasvirga aylantiriladi.

Mazkur robot-jarroh raqamli tibbiyotning bugungi kunida jarrohlikning yangi davrini ochib berdi. Dunyo miqyosida ko‘pgina tibbiyot muasasalarda bunday, ko‘rsatmalarni aniq bajaruvchi yordamchidan foydalanish odatiy hol.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi asosida raqamlashtirilgan tibbiyotni rivojlantirish borasida olib borilayotgan qator chora-tadbirlar orasida bugungi kunda sun’iy intellektni qo‘llashga keng imkoniyatlar ochilmoqda[1,5,6]. Shuni aytish joizki, Da Vinchi Xi jarrohlik apparati zamonaviy jarrohlik tibbiyotida yangi davrni ochib berdi.

Mazkur qurilma bugungi kunda yagona bo‘lib, Shox International Hospital xususiy klinikasida robotojarrohlik bo‘limida qo‘llaniladi. Uni o‘rganar ekanmiz, robot jarrohning beixtiyor harakatlarini kompensatsiya qilgani uchun juda murakkab muolajalarni minimal invaziv usulda bajarishga guvoh bo‘ldik. Bundan tashqari, an'anaviy jarrohlikdan farqli o'laroq, Da Vinchi, jarrohga, qo'shimcha uchinchi qo'lni taklif qiladi. Jarroh uchun, o'z navbatida, konsolda ishlash ham ergonomik, ya’ni samarali bo‘lish bilan birga kam mashaqqatli bo'lishi, bu esa jismoniy stressni sezilarli darajada kamaytirishi, ayniqsa, bir necha soat davom etadigan jarrohlik aralashuvlari vaqtida aktualligini aytib o‘tish joiz. Operatsion jarroh-robot jamoaning bir qismi sifatida ishlaydigan shifokorlarga faol yordam beradi va operatsiyani haqiqiy jamoaviy harakatga aylantiradi.

Operatsiya boshlanishidan oldin jarroh kichik kesma orqali qorin bo'shlig'iga karbonat angidridni katta bo‘lmagan kesmadan yuboradi. Bu jarrohlik maydonini yaxshi ko'rish va asboblarni optimal tarzda harakatlantirish qobiliyatini oshirish uchun qorin devorini ko'tarish

uchun kerak. Operatsiya vaqtida jarroh ekran bilan jihozlangan boshqaruv panelida o'tiradi va qo'llari bilan harakatlarni amalga oshiradi, bu to'rtta ulkan harakatlanuvchi robot qo'llarga uzatiladi.

Tizim tomonidan beixtiyor qo‘l harakatlar filtrlanadi, Da Vinchi tizimi qo'llarning burishishi yoki qaltirashini avtomatik ravishda yo‘q qiladi. Xususan, tizim jarrohning qo'pol harakatlarini asboblarning yanada nozik harakatlariga aylantirish imkonini beradi va shu bilan juda nozik jarrohlik usullaridan foydalanishga imkon beradi[2,3,7]. O‘rni kelganda, Da Vinchi jarrohlik robotini an'anaviy laparoskopiyadan, shuningdek ochiq jarrohlikdan farqli bo‘lgan xususiyatlarini sanab o'taylik:

- Operatsion jarroh har doim ekran orqali jarrohlik maydonini ko'radi;
- Ish maydonining o‘n karra kattalashtirilgan tasvirda ko‘rish an'anaviy jarrohlik holatidagiga qaraganda ko'plab nerv va qon tomirlari kabi nozik tuzilmalarni yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi;
- Jarrohning harakatlari asbob tomonidan real vaqtda uzatiladi;
- Qo'llarning titrashi kabi beixtiyor harakatlar chiqarib tashlanadi;
- Da Vinchi asboblarining eng yuqori moslashuvchanligi tufayli manipulyatsiyaning yuqori aniqligi (inson qo'liga nisbatan asboblar harakatining katta radiusi)dir;
- Uch o'lchamli HD sifatli tasvirlar bilan ishlash[7].

Bemorlar fikri o‘rganilganda, yuqoridagi xususiyatlarning bemor uchun quyidagi afzalliklarni berishini aytishimiz mumkin:

- Bemorlar uchun kamroq stressli jarrohlik;
- Qon yo‘qotilishini va qon quyish chastotasining kamayishi;
- Operatsiyadan olingan chandiqlar o‘lchami - 1-2 santimetr;
- Yaraning tezroq bitishi;
- Operatsiyadan keyingi og'riqlarning kamligi;
- Gospitalizatsiya davrining qisqarishi;
- Infektsiyalarning minimal xavfi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda kompyuter yordamida operatsiyalar minimal invaziv jarrohlik rivojlanishining eng yuqori darajasini ifodalaydi. Ushbu qurilmadan ginekologik, onkologik, urologik operatsiyalarini olib borishda qo‘llaniladi[5,7]. Kelajakda kompyuter ko'magida ancha ko'p operatsiyalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Kengaytirilgan funktsiyalarga ega yangi texnik tizimlar ularning sifatini sezilarli darajada oshirishi kerak. Bundan tashqari, bu to'liq avtomatlashtirilgan robot emas, balki butun tajribasi va bilimiga ega jarroh qo‘llarining davomidir. Sun’iy intellekt naqadar yuqori saviyada ishlashidan qat’iy nazar,uning haqiqiy malakali tibbiyot xodimiga ko‘makchi sifatida qo‘llash mumkinligini, inson hayotini hal etish hamda salomatligini saqlash sharafi jonli shifokor-inson mas’uliyatidadir[6].

References:

1. Абдуганиева, Ш. Х., & Никонорова, М. Л. (2022). Цифровые решения в медицине. Крымский журнал экспериментальной и клинической медицины, 12(2), 73-85.

2. Баймаков, с. Р. Выбор метода хирургического лечения при осложненных формах острого панкреатита. Эпидемиологический статус проблем, связанных с нарушением кровообращения в вертебробазилярной системе (обзор литературы) Ходжиева Дилбар Таджиевна1., Ходжаева Мухаббат Салимовна2, 395.

3. Карпов, О. Э., Ветшев, П. С., Даминов, В. Д., Епифанов, С. А., Зуев, А. А., Кузьмин, П. Д., & Махнев, Д. А. (2017). Цифровые технологии в клинической хирургии и реабилитации. Хирургия. Журнал им. НИ Пирогова, (1), 4-14.

4. Кудратиллаев, М. Б. (2023). Значение в жизни человека мобильных медицинских приложении. Ministry of higher and secondary special education of the republic of uzbekistan ministry of healthcare Tashkent medical academy, 219.

5. Муратова, Н. Д., Сулаймонова, Н. Ж., & Бабаджанова, Г. С. (2024). Особенности хирургического лечения больных бесплодием на фоне миомы матки. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 18(3), 218-228.

6. Нурматова, Ф. Б., & Абдуганиева, Ш. Х. (2023). Цифровая трансформация в медицине: тенденции и перспективы. Universum: технические науки, (7-1 (112)), 26-29.

7. Шептунов, С. А., Васильев, А. О., Колонтарев, К. Б., Нахушев, Р. С., & Пушкарь, Д. Ю. (2020). Роботохирургия-цифровая технология, спасающая жизни. Здоровье мегаполиса, 1(1), 60-71.

DORIVOR O‘SIMLIKLARGA BOY BO‘LGAN *BERBERIDACEAE* OILASI

Mannobov Omadbek Ozodbek o‘g‘li
Andijon davlat unverstiteti tabiiy fanlar fakulteti biologiya talim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Berberidaceae – bu gulli o‘simliklarning bir oilasi bo‘lib, odatda “berberislar” yoki “barbarislar” deb nomlanadi. Bu oila turli xil ko‘p yillik o‘simliklar va butalarni o‘z ichiga oladi, ko‘pincha dorivor xususiyatlari va bog‘-manzaraviy qiymati bilan mashhur**.**

Kalit so‘zlar: Angiospermae, Barbarisdoshlar, vitamin C, Berberis vulgaris, Epimedium grandiflorum, Epimedium alpinum, antioksidant.

Kirish

Berberidaceae – bu gulli o‘simliklarning bir oilasi bo‘lib, odatda “berberislar” yoki “barbarislar” deb nomlanadi. Bu oila turli xil ko‘p yillik o‘simliklar va butalarni o‘z ichiga oladi, ko‘pincha dorivor xususiyatlari va bog‘-manzaraviy qiymati bilan mashhur.

Berberidaceae oilasi o‘simliklar taksonomiyasida muhim o‘rin tutadi. Quyida uning sistematikasi, ya’ni ilmiy tasnifi shunday:

Berberidaceae oilasining sistematikasi:

1. Domen: Eukaryot

Izoh: Hujayralari yadro bilan chegaralangan tirik organizmlar (o‘simliklar, hayvonlar, zamburug’lar va boshqalar).

2. Qirollik: *Plantae* (O‘simliklar)

Izoh: O‘simliklar, fotosintez qilish qobiliyatiga ega organizmlar.

3. Bo‘lim: *Angiospermae* (Gulli o‘simliklar)

Izoh: Gullab urug‘lantiruvchi o‘simliklar bo’lib, ular o‘z urug‘larini mevalar bilan himoya qiladi.

4. Sinfi: *Magnoliopsida* (ikki urug‘pallali o‘simliklar)

Izoh: Ikkita urug‘ pallasiga ega o‘simliklar sinfi. Bu sinfga kiruvchi o‘simliklarda urug‘ pallasi ikkita bo‘ladi.

5. Tartib: *Ranunculales*

Izoh: Bu tartibga mansub o‘simliklar odatda gulli o‘simliklar bo‘lib, Berberidaceae ham ushbu tartibga kiradi.

6. Oila: *Berberidaceae* (Barbarisdoshlar)

Izoh: Ko‘p yillik o‘tlar, butalar va ba’zi daraxtlar oilasi. Bu oila dorivor va manzarali o‘simliklari bilan mashhur.

Oilaning asosiy turkumlari:

Berberidaceae oilasi bir nechta turkumlarni o‘z ichiga oladi, ularning eng mashhurlari quyidagilar:

1. *Berberis*: Bu turkum eng katta bo‘lib, 450 dan ortiq turga ega. Odatda butalar shaklida o‘sadi va dorivor xususiyatlarga ega.

2. *Mahonia*: Bu turkumda manzarali va dorivor xususiyatlarga ega o‘simliklar mavjud. Berberis bilan yaqin qarindosh.

3. *Epimedium:* Goryanka (yoki elf gullari) nomi bilan ham tanilgan, ko‘pincha soyali joylarda o‘sadi va dorivor o‘simlik sifatida qadrlanadi.

4. *Nandina:* Ba’zan “osiyo muqaddas bambuk” nomi bilan ataladi. Bu tur ham manzarali o‘simlik sifatida bog‘larda ishlatiladi.

5. *Vancouveria*: Shimoliy Amerikada uchraydigan turkum, manzaraviy o‘simliklar sifatida ishlatiladi.

Berberidaceae o’simliklarining umumiy xususiyatlari:

Barglari: Oddiy yoki murakkab, ko‘pincha tishli chetli. Ba’zi turlarining barglari doim yashil. **Gullari**: Oddiy, kichik va odatda sariq rangli, ammo ba’zi turlarda boshqa ranglarda bo’lishi ham mumkin**. Mevalari**: Odatda kichik, ko’pincha qizil, ko‘k yoki qora rangda bo‘ladi.

Evolyutsion munosabatlar: *Berberidaceae* oilasi boshqa gulli o‘simliklar oilalari bilan *Ranunculales* tartibiga mansub bo‘lib, bu tartibda evolyutsion jihatdan boshqa o‘simliklar bilan yaqindan bog’langan. Ushbu oila o‘zining keng geografik tarqalishi bilan ajralib turadi va ekotizimda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Bu oila botanika va dorivor jihatlari bilan qadrlanadi, ayniqsa dorivor o‘simlik sifatida xalq tabobatida keng qo‘llaniladi.

Asosiy ma’lumotlar:

Oila nomi: *Berberidaceae*: **Tarqalishi**: Bu o‘simliklar dunyoning ko‘plab hududlarida, ayniqsa, mo‘tadil iqlim zonalarida uchraydi. Ularning ba’zilari tog‘li hududlarda va qurg‘oqchil yerlarda ham yashaydi.

Tavsifi:

1. Turlari: Bu oilaga 15–17 turkum va 600 dan ortiq tur kiradi. Eng mashhur turlardan biri Berberis turkumi bo‘lib, unda 450 dan ortiq tur mavjud.

2. Tashqi ko‘rinishi: Ko‘pincha buta yoki kichik daraxtlar shaklida bo‘ladi. Ba’zi turlari o‘tlardan iborat. Ularning barglari ko‘pincha oddiy yoki tishli bo‘lib, ayrim turlari qishda bargini to‘kadi, boshqalari esa doimo yashil bo‘lib turadi.

3. Gullari: Odatda mayda va sariq yoki oq rangli gullari bo‘ladi. Gullari odatda turlarga qarab may oyidan boshlab yozgacha gullaydi.

4. Mevalari: Berberidaceae oilasidagi ko‘plab o‘simliklar meva hosil qiladi. Bu mevalar qizil, ko‘k yoki qora rangda bo‘lib, ko‘pincha kichik va qattiq bo‘ladi.

Dorivor xususiyatlari:

Berberidaceae oilasiga kiruvchi o‘simliklar xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. Ulardagi ba’zi kimyoviy birikmalar, ayniqsa, berberin moddasi, bakteriyalarga qarshi ta’sirga ega va yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi xususiyatlari bor. *Barbaris* mevalari ham vitamin C ga boy bo‘lib, immunitetni oshiradi.

Manzarali qo‘llanilishi:

Ko‘pgina *Berberidaceae* turlari bog‘-parklarni bezatish uchun ishlatiladi. Ularning ajoyib ranglari va shakllari peyzaj dizaynida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, qizil mevali turlari kuzda ko‘rkam manzara hosil qiladi.

Berberis – asosiy tur:

Bu turkum eng keng tarqalgan bo‘lib, u xalq orasida barbaris nomi bilan tanilgan. Mevalari nordon va tozalovchi sifatida ishlatiladi. Barbaris butalari o‘simlik himoyasi va landshaft dizaynida keng qo‘llaniladi.

Mashhur turlari:

1. *Berberis vulgaris* – oddiy barbaris.
2. *Mahonia aquifolium – orkestr barbarisi*, manzaraviy va dorivor sifatlari bilan tanilgan.

Ekologik ahamiyati:

Ushbu o‘simliklar ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ko‘plab hayvonlar, ayniqsa qushlar, ularning mevalaridan oziqlanadi.

Umuman, *Berberidaceae* oilasidagi o‘simliklar ko‘p qirrali, manzaraviy, dorivor va oziqlantiruvchi jihatlari bilan ajralib turadi.

Epimedium grandiflorum – bu o‘simlik *Berberidaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tli o‘simlik bo‘lib, odatda “bishshox” yoki “elf gullari” deb ataladi. Bu o‘simlik o‘zining nafis gullari va dorivor xususiyatlari bilan mashhur. U asosan sharqiy Osiyoda, xususan, Xitoy va Yaponiyada uchraydi.

Umumiy tavsifi:

- Oila: *Berberidaceae*
- Turi: *Epimedium*
- Bo‘yi: O‘rtacha 20-40 sm gacha o‘sadi.
- Barglari: Yurak shaklida, go‘yo uchlari biroz o‘tmas va mayda tishli. Yangi chiqqan barglari qizg‘ish yoki bronza rangda bo‘lishi mumkin, keyinchalik yashil tusga kiradi.
- Gullari: Bu o’simlik o‘zining katta, nafis gullari bilan ajralib turadi. Gullari asosan bahor oylarida ochiladi. Ularning ranglari oq, binafsha, sariq, pushti va boshqa yorqin ranglarda bo‘lishi mumkin. Gullar to’rt qismdan iborat bo‘lib, uzun novdalardan o‘sadi.
- Ko‘payishi: Asosan ildiz bo‘linishi yoki urug‘lar orqali ko‘payadi.

Tabiiy yashash joyi:

Epimedium grandiflorum asosan tog‘li va soyali hududlarda, nam va to‘qimalari boy tuproqlarda yaxshi o‘sadi. U mo‘tadil iqlimni afzal ko’radi va nam, lekin yaxshi drenajlangan joylarda yaxshi rivojlanadi.

1. Dorivor xususiyatlari:

Epimedium grandiflorum o‘simligi ko‘p asrlar davomida an’anaviy Xitoy tabobatida ishlatilgan. Bu o‘simlikning tarkibida ikarin (icariin) nomli flavonoid bor, u asosan erkaklar va ayollarda jinsiy quvvatni oshirish, osteoporozni davolash va umumiy energiyani kuchaytirish uchun ishlatiladi.

2. O‘simlikning asosiy ishlatilish sohalari:

- Afrodiziak sifatida: *Epimedium grandiflorum* jinsiy faollikni oshiruvchi vosita sifatida mashhur.
- Suyaklar uchun foydasi: Osteoporoz bilan bog‘liq muammolarga qarshi yordam berishi mumkin.

• Yallig‘lanishga qarshi: Yallig‘lanishni kamaytirishga yordam beradigan antioksidant xususiyatlari bor.

Manzarali o‘simlik sifatida:

Epimedium grandiflorum soyali bog‘larda manzaraviy o‘simlik sifatida juda mashhur. Nafis gullari va dekorativ barglari bilan bog‘larni bezash uchun qo‘llaniladi. U soyaga chidamli bo‘lib, qattiq tuproq sharoitlarida ham yaxshi o‘sadi, bu esa uni landshaft dizaynida juda qadrlanadi.

Parvarishlash:

• Yoritish: Soyali yoki yarim soyali joylarda yaxshi o‘sadi.

• Sug‘orish: Nam, lekin ortiqcha namlik bo‘lmagan joyni afzal ko‘radi. Tuproq yaxshi drenajlangan bo‘lishi kerak.

• Kesish: Bahorda eski barglari olib tashlanib, o‘simlikning yangi o‘sishiga yordam beriladi.

Epimedium grandiflorum – bu nafaqat dorivor xususiyatlari, balki bog‘-manzaraviy qiymati bilan ham alohida ahamiyatga ega o‘simlikdir.

Goryanka (*Epimedium*) – bu *Berberidaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik

Asosiy tavsifi:

• Oila: *Berberidaceae*

• Turkumi: *Epimedium*

• Turi: *Epimedium* turlarining ko‘pi Yevropa, Osiyo, xususan, Xitoy va Yaponiyada uchraydi.

• Bo‘yi: 15-50 sm gacha o‘sadi.

• Barglari: Oddiy yoki uch qismli, yurak shaklidagi barglar. Yangi barglari bronza yoki qizg‘ish tusga ega, keyinroq yashil rangga kiradi. Barglar ko’pincha qishgacha saqlanib qoladi.

• Gullari: *Epimedium* gullari o‘zining ingichka va nafis shakli bilan ajralib turadi. Gullar asosan bahorda ochiladi va oq, sariq, pushti, binafsha kabi turli ranglarda bo‘ladi. Ular to‘rt qismli va ingichka novdalarda joylashgan bo‘lib, ularning ko‘rinishi ko‘pincha kapalak yoki elflarning qanotlariga o‘xshatiladi.

Tabiiy yashash joyi: Goryanka o’simliklari asosan tog‘li, nam va soyali joylarda, tuproq tarkibi boy va yaxshi drenajlangan yerlarda o‘sadi. Ular tog’li o’rmonzorlarda va soyalar ostida tabiiy sharoitda o’sadi, shuning uchun bog‘larda ham soyali joylarni afzal ko’radi.

Mashhur turlari:

1. *Epimedium grandiflorum*: Katta gullari bilan mashhur bo‘lib, gullari ko‘pincha oq, binafsha yoki pushti bo‘ladi. Dorivor xususiyatlari keng qo‘llaniladi.

2. *Epimedium alpinum*: Tog‘li hududlarda o‘sadi, gullari qizil va sariq ranglarda bo‘ladi.

3. *Epimedium x rubrum*: Gullari qizil va oq aralash ranglarda bo‘lib, soyaga chidamli va manzarali o‘simlik sifatida bog‘larda keng tarqalgan.

Foydali xususiyatlari: Goryanka o‘simliklari ko‘p asrlardan buyon dorivor maqsadlarda foydalanib kelingan, ayniqsa, Sharqiy Osiyo xalqlari tomonidan. Ularning kimyoviy tarkibida flavonoidlar, alkaloidlar va steroidlar bo‘lib, bu o‘simliklarga bir qancha sog‘liq uchun foydali xususiyatlarni beradi.

1. Afrodiziak: Goryanka, xususan *Epimedium grandiflorum*, an’anaviy xitoy tabobatida erkaklar va ayollarda jinsiy quvvatni oshirish uchun ishlatiladi. Bu o’simlik tarkibida ikarin (icariin) moddasi mavjud bo‘lib, u jinsiy faollikni rag‘batlantiruvchi xususiyatlarga ega.

2. Osteoporozga qarshi: O’simlik tarkibidagi ikarin moddasi suyak zichligini oshirishga yordam beradi, bu esa suyaklarning mustahkamligini saqlash uchun foydali.

3. Yallig‘lanishga qarshi va antioksidant: Goryanka o‘simligi tarkibidagi birikmalar yallig‘lanishga qarshi va antioksidant ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa organizmni erkin radikallarning zararli ta’siridan himoya qilishga yordam beradi.

Goryanka soyaga chidamliligi va go‘zal gullari tufayli bog‘ va landshaft dizaynida keng qo‘llaniladi. U bog‘larda soyali va nam joylarni bezashda, qattiq sharoitlarda o’sadigan o’simlik sifatida juda qadrlanadi. Ko’pincha daraxtlar ostiga, chegara liniyalari yoki boshqa soyali maydonlarga ekiladi.

Ekish va parvarishlash:

• Yoritish: Goryanka soyaga chidamli o‘simlik bo‘lib, yarim soyali yoki to‘liq soyali joylarda yaxshi o‘sadi.

• Tuproq: Nam, yaxshi drenajlangan tuproqni afzal ko‘radi. Tuproqning boy va organik moddalar bilan to‘yintirilganligi o‘simlikning sog‘lom rivojlanishi uchun muhim.

• Sug‘orish: Yangi o‘tqazilganida muntazam sug‘orishni talab qiladi, lekin ortiqcha sug‘orishdan saqlanish kerak.

• Qishki parvarish: Qishda barglari to‘kilsa, bahorda yangi barglar hosil bo‘ladi. Ba’zi turlari doimo yashil bo‘lishi mumkin.

Ko‘payishi: Goryanka ildizpoyasi orqali oson ko‘payadi, shuning uchun uni ildiz bo‘linishi orqali ko‘paytirish mumkin. Urug‘lar bilan ko‘paytirish ham mumkin, lekin bu jarayon ko‘proq vaqt talab qiladi.

Xulosa: *Berberidaceae* oilasi ikki urug‘pallali o‘simliklarning o‘ziga xos oilasi bo‘lib, ko‘p yillik o‘tlar, butalar va kamdan-kam hollarda daraxtlardan iborat. U asosan mo‘tadil iqlim zonalarida o‘sadi va o‘zining dorivor xususiyatlari bilan mashhurdir. Ushbu oila o‘simliklari ko‘pincha dorivor preparatlar yaratishda ishlatiladi, jumladan *Berberis (barbaris), Epimedium* (goryanka) kabi turlari xalq tabobatida jinsiy faoliyatni yaxshilash va yallig‘lanishga qarshi vositalar sifatida foydalaniladi. Goryanka (*Epimedium*) o‘simliklari nafaqat go‘zalligi, balki dorivor xususiyatlari bilan ham qadrlanadi. U soyali bog‘larni bezashda va tuproqni boyitishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek, uning tibbiyotda jinsiy quvvatni oshirish va suyaklar sog‘ligini saqlashdagi foydali ta’siri qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Флора СССР= Flora URSS: в 30 т.,
2. Род 543. Эпимедиум — Epimedium L.
3. Flora of Uzbekistan Poyarkova A.I 1941
4. Medicinal Plants of the World Ivan.A.Ross 2003
5. The Families and Genera of Vascular plants Klaus Kubitziki 1990.
6. Phylogenetic systematics of Berberidaceae and Reunculales (Magnoliidae) Henry Loconte, James R Estes Systematic Botany, 565-579, 1989.
7. Wikipedia-Berberidaceae

V SHO‘BA

QISHLOQ XO‘JALIGI VA VETERINARIYA

O‘TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSHNING DURDONA NAVI SIMBIOTIK FAOLIYATIGA YETISHTIRISH OMILLARINI TA’SIRINI O‘RGANISH

Atabayeva Halima Nazarovna., q.x.f.d.professor
Toshkent davlat agrar universiteti Agrobiologiya fakulteti
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich q.x.f.f.d (PhD), dosent
Farg‘ona davlat universiteti Agrar qo‘shma fakulteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekish me’yorlari mosh navlarida tuganaklarning rivojlanishi o‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida o‘rganilganligi bayon etilgan. Tadqiqotlar natijasida ekish me’yorlari keskin ta’sir ko‘rsatib, tuganaklarning soni va vazni ekish me’yori oshgan sari kamayib borganligi aniqlangan. Shuningdek mosh navlarini har xil muddatda ekish o‘simliklarning simbiotik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan kuzatilib, bahorgi ekish muddatiga nisbatan navlarning simbiotik faoliyati takroriy 20 iyunda ekilganda aksariyat xolda yuqori bo‘lgan, iyulda oyida ekilgan muddatlarda sust bo‘lganligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar; Mosh, soya, Osiyo,oqsil, lizin, arginin, vitamin, o‘tloqi-botqoq,simbiotik, tuganak, azot, shonalash, dukkak.

Абстрактный; В данной статье указано, что нормы посадки и развития клубней у сортов маш изучались в условиях лугово-болотных почв. В результате исследований установлено, что нормы посадки оказали резкое влияние, а количество и масса клубней уменьшались по мере увеличения нормы посадки. Также было замечено, что посадка сортов мешанки в разные сроки повлияла на симбиотическую активность растений, при этом установлено, что симбиотическая активность сортов по сравнению с весенним сроком посадки в большинстве случаев была выше при посадке 20 июня. , и он был ниже, когда он был посажен в июле.

Ключевые слова; Маш, соевый, азиатский, белковый, лизин, аргинин, витаминный, лугово-болотный, симбиотический, туганак, азотистый, , бобовые.

Annotation; In this article, it is stated that planting standards and the development of tubers in mash varieties were studied in the conditions of meadow-swamp soils. As a result of the research, it was found that the planting rates had a sharp effect, and the number and weight of tubers decreased as the planting rate increased. Also, it was observed that the planting of mash varieties in different periods affected the symbiotic activity of plants, and it was found that the symbiotic activity of the varieties compared to the spring planting period was higher in most cases when it was planted on June 20, and it was lower when it was planted in July.

Keywords; Mosh, soy, Asian, protein, lysine, arginine, vitamin, meadow- swamp, symbiotic, tuganak, nitrogen, shonalash, legume.

KIRISH. Dukkakli-don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jihatidan jahonda soyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi (25 mln gektarga yaqin). Ushbu ekin ko‘proq MDH davlatlaridan Ukraina, Moldaviya, Gurjiston kabi davlatlarda etishtiriladi. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikamizda esa har yili takroriy ekin sifatida 320-350 ming gektardan ortiq maydonda yetishtiriladi .

Ekinlar strukturasining o‘zgarishi dukkakli-don ekinlaridan yuqori sifatli hosil etishtirish uchun intensiv texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Shunday texnologiyalardan biri sug‘oriladigan maydonlarda ekilgan boshoqli don ekinlarini yig‘ishtirb olingandan so‘ng, bo‘shagan maydonlarda moshning ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida ekib, don etishtirshni ko‘paytirishdan iborat.

Hozirgi vaqtda yurtimizda donli, dukkakli, moyli ekinlarga katta e’tibor qaratilib ekin maydonlari kengaytirilmoqda. Dehqonchilikni rivojlantirish va erdan unumli foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda eng asosiy muammolardan biri bu oqsil masalasi, ya’ni insoniyatni oqsilga bo‘lgan talabini qondirish. Bu masalani echishda dukkakli don ekinlaridan mosh o‘simligining ahamiyati katta.

Mosh tarkibidagi oqsil, ayniqsa yosh bolalar uchun foydali bo‘lib, moshdagi triptofan organizmda oqsilni sintez kilishga yordam beradi va qonda gemoglabinning hosil bo‘lishida qatnashadi.

Internetdan olingan ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda ayni vaqtda kechayotgan iqtisodiy vaziyat, dunyoda aholini jadal tarzda ko‘payib borayotganligi, oziq-ovqat zahirasining yetishmasligi, dukkakli-don ekinlaridan olinadigan mahsulot bilan dunyoning asosiy aholisini ta’minlovchi Avstraliya mamlakatida ko‘pdan buyon davom etayotgan qurg‘oqchilik, Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshib borishi kelgusida don ekinlarini ko‘proq maydonlarga ekishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, uni barqaror holda ushlab turish uchun oziq-ovqat ekinlari maydonini o‘zimizda ham kengaytirishni taqozo etadi [1, B 7-9].

Moshning (**Phaselus aureus Piper**.) vatani-janubiy g‘arbiy Osiyo bo‘lib, ushbu ekin dehqonchilikka bundan 5-6 ming yil oldin kirib kelgan [1, B 11-13].

Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan dukkakli-don ekinlari orasida mosh doni oziqalik qimmati, oqsil va vitaminlarga boy bo‘lishi, kaloriyasining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Mosh oziqalik qiymati bilan bug‘doy, loviya, no‘xat, ko‘k no‘xat va javdar donlaridan 1,5-2 baravar, to‘yimliligi bo‘yicha esa 1,5 baravar ustun turadi. Mosh tarkibidagi oqsilning hazmlanishi 86% ga etadi. Mosh tarkibida oqsil 24-28%, lizin 8%>, arginin 7%> bo‘ladi, V va RR vitaminlar ko‘p bo‘ladi [2, B 23-24].

Mustanov.S.B, Xamdamov I. X va Djumaev M. Mlarning ma’lumotlariga qaraganda, tuganaklar turli kattalik va shaklda bo‘ladi. Ular o‘simlik ildizida qanchalik ko‘p va katta bo‘lsa, tuproqda shunchalik ko‘p biologik azot to‘planadi. O‘simliklar hosil qilgan azotning 60-75 foizini o‘zlashtirib, qolgan 25-40% qismini ang‘iz qoldiqlari bilan organik modda holda tuproqda qoldiradi.

Bir qismi denitrifikatsiya jarayonida yo‘qoladi. I.E.Elagin, P.SH.Shukurulayevlarlar keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra o‘simlik ildizidagi tuganak bakteriyalar asosan gullash davrigacha intensiv rivojlanadi. Gullashning boshlanishi davrida uglevodlarning bargdan ildizga o‘tishi susayadi, uglevodlar gul va meva hosil bo‘lishi uchun safarbar bo‘ladi, shuning uchun gullagandan so‘ng bakteriyalar o‘lib tuganak emirilib, uning azotli organik moddalari tuproqda to‘plana boshlaydi. Undan tashqari urug‘ tarkibida hosil bo‘lgan oqsil moddasi o‘rtacha 5-7 % tuganaklar hisobida bo‘ladi. [3, B 35-36].

Tadqiqotning maqsadi Sug‘oriladigan erlardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni echadigan, mosh navlarining o‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida yuqori don hosili va sifatini ta’minlaydigan ekish muddati va me’yorlarini aniqlashdan iborat.

Tajriba sharoitlari va uslublari. Tadqiqot ishi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonlarida 2016-2018 yillar mobaynida olib borilgan. Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Toshkent viloyatining janubiy-sharqiy qismida, Chirchiq vohasida, Toshkent shahridan 15 km uzoqlikda, Chirchiq daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan. Joyning relefi tekis, tajriba olib boriladigan dalalardagi tuproq daryo bo‘yidagi territoriyalar tuprog‘iga mos, hududning tuproq qatlami o‘tloqi botqoq tuproqdan iborat.

Ilmiy tadkikot ishlarida olib borilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik o‘lchovlar “Metodika Gosudarstvennogo sortoispытaniya selskoxozyaystvennыx kultur”, “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI, 2007) asosida o‘tkazilgan.Olingan natijalar Microsoft Excel dasturi, B.A.Dospexov (1985) uslubida asosida statistik matematik taxlil kilindi[3,4,5].

Tadqiqot natijalari. Dukkakli-don ekinlarining eng muhim xo‘jalik ahamiyatlaridan biri ularning tuganak bakteriyalar orqali havo azotini o‘zlashtirib, biologik holdagi azot tuproqda to‘planishi hisoblanadi. Biologik azotning to‘planishiga ko‘pgina omillar–o‘simlikning turi, tuproq-iqlim sharoiti, tuproq muxiti, namligi kabilar ta’sir etadi. Shunga muvofik holda bizning tajribalarda mosh navlari ildizlarida to‘plangan tuganaklar soni bo‘yicha kuzatuv olib borildi va ko‘chat qalinligi oshib borishi va ekish me’yorini ham oshib borishiga muvofik holda o‘zgarishini ko‘rsatdi.

Ko‘p yillik ma’lumotlarning o‘rtachasi bo‘yicha Durdona navi bahorda ekilganda tuganaklar vazni shonalash fazasida 3,6-2,6grammni, gullash fazasida 5,3-4,0 va dukkaklash fazasida 10,0-8,4 grammni tashkil qilgan. Durdona navi takroriy 20 iyunda ekilganda shonalash fazasida 3,9-2,6 gramm, gullash fazasida 5,9-4,5 gramm va dukkaklanish fazasida 10.1-8,7 grammni tashkil qilgan. Bahorgi muddatga nisbatan tuganaklar vaznini oshganligi kuzatilgan. Durdona navi iyulda ekilganda tuganaklar vazni iyunda ekilganiga nisbatan kamayib borganligi kuzatildi va oxirgi muddatda rivojlanish fazalar bo‘yicha 2,7-1,7; 3,8-2,9; va 7,3-5,6 grammni tashkil qilgan.(1-jadval).

1-jadval. Durdona navida tuganaklarning vazni, gramm o‘rtacha uch yillikk

Ekish muddati A	Ekish me’yori ming/ga B	Rivojlanish davrlari		
		shonalash	gullash	dukkaklash
12,V	200	3,6	5,3	10,0
	300	3,2	4,8	9,3
	400	2,6	4,0	8,4
20,VI	200	3,9	5,9	10,1
	300	3,5	5,4	9,7
	400	2,6	4,5	8,7
01,VII	200	3,3	5,1	9,4
	300	2,8	4,4	8,0
	400	2,2	3,8	7,5
10,VIII	200	2,7	3,8	7,3
	300	2,3	3,3	6,4
	400	1,7	2,9	5,6

Tajribalarni o‘tkazish yillari Durdona navida rivojlangan tuganaklarning vazni 2018 yilgi tajribalarda aksariyat xolda boshqa yillarga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani aniqlangan. Yillar davomida ob-havoni o‘zgarishi va agrotexnik tadbirlarning va rivojlangan tuganaklarning soniga bog‘liqdir.(2-jadval).

2-jadval. Durdona navida tuganaklarning vazni, gramm

Ekish muddati A	Ekish me’yori ming/ga B	yillar		
		2016	2017	2018
12,V	200	9,0	9,6	10,5
	300	8,4	9,0	9,7
	400	7,7	8,2	8,5
20,VI	200	9,5	9,7	10,5
	300	8,7	9,6	9,9
	400	6,9	8,3	9,3
01,VII	200	9,0	9,4	9,2
	300	8,4	8,0	8,7
	400	7,8	7,3	7,8
10,VIII	200	6,8	7,1	7,4
	300	5,9	6,3	6,5
	400	5,4	5,3	5,8
EKF 05 %		2,0 3,12	1,6 2,67	2,3 3,23
A omil 05 %		1,2 3,78	0,9 3,32	1,4 3,86
B omil05 %		1,2 3,37	0,8 3,07	1,6 3,43

Xulosalar

1.Ekish me’yorlari mosh navlarida tuganaklarning rivojlanishiga keskin ta’sir ko‘rsatib, tuganaklarning soni va vazni ekish me’yori oshgan sari kamayib borganligi aniqlangan;

2.Mosh navlarini har xil muddatda ekish o‘simliklarning simbiotik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Bahorgi ekish muddatiga nisbatan navlarning simbiotik faoliyati takroriy 20 iyunda ekilganda aksariyat xolda yuqori bo‘lgan, iyulda oyida ekilgan muddatlarda sust bo‘lganligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019

2. Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018

3. Атабаева Х.Н.. Идрисов Х.А Влияние сроков сева на формирование урожайности сортов маша. Актуалние проблеми современной науки. Информатционно-аналитический журнал Россия.Москва 2019 г, № 4 (107) 118-121 стр.

4. Атабаева Х.Н.. Идрисов Опыт возделивания маша в Узбекистане. эвелопмент Евразийский сентр инновационного развития Международная научная Конференция Баликесир 9 октября 2019 г, Турсия 231-234 стр.

5. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B., Anorboyev A.R.. Idrisov X.A. Mosh etishtirish. Qo‘llanma Toshkent.2021 yil.
6. Atabayeva X.N.. Idrisov Mosh yetishtirish texnologiyasini takomillashtitrish. Monografiya. Far’gona. 2021 yil.
7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - М.: Колос, 1985. - 317 с.
8. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O‘zPITI.2007 yil .

MOSH (Phaseolus aureus Piper) NAVLARINI BARG YUZASI RIVOJLANISHIGA EKISH ME’YORI VA MUDDATINI TA’SIRI

Atabayeva Halima Nazarovna., q.x.f.d.professor
Toshkent davlat agrar universiteti Agrobiologiya fakulteti
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich q.x.f.f.d (PhD), dosent
Farg‘ona davlat universiteti Agrar qo‘shma fakulteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tipik bo‘z tuproqlar sharoitida mosh navlarini barg rivojlanishiga ekish muddati va me’yorini ta’siri bayon etilgan bo‘lib, iyul oyining birinchi dekadasida gektariga 30-40 kg/ga me’yorida urug‘ sarflab ekilgan variant barg yuzasi maqbul bo‘lgan bo‘lib, ekish muddati kechikkan sari barg yuzasi rivojlanishi kamayib borgan.

Kalit so‘zlar: Mosh, oqsil, bakteriya, navlar, Radost, Zilola, Durdona

Аннотация: В статье описано влияние сроков и норм посадки на развитие листьев сортов маш в условиях типичных сероземов было приемлемым, а развитие листовой поверхности снижалось по мере задержки срока посадки.

Ключевые слова: Маш, белок, бактерии, сорта, Радость, Зилола, Дурдона.

Annotation: In this article, the effect of planting time and rate on the leaf development of moss varieties in the conditions of typical gray soils is described. acceptable

Key words: Mosh, protein, bacteria, varieties, Radost, Zilola, Durdona

Butun jahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO) ning ma’lumotiga ko‘ra dunyo bo‘yicha yiliga 5,3 mln. t. mosh yetishtiriladi. Yetishtirilgan hosilning qariyb 90 % Osiyo davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Mosh yetishtirish va iste’mol qilish bo‘yicha Hindiston dunyo bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Dunyo bo‘yicha mosh yetishtiriladigan maydonning 60 % dan ortig‘i Hindiston hududiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatda yiliga 1,3 mln. t. hosil yig‘ishtirib olinadi. Keyingi o‘rinlarda Xitoy (920 ming t.), M’yanma (900 ming t.), KXR (600 ming t.), Tailand (350 ming.t), Indoneziya (250 ming.t), Pokiston (230 ming t.), O‘zbekiston (200 ming t) davlatlari hisoblanadi**.** BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi paytda dunyoda millionlab kishilar to‘laqonli ravishda ovqatlanmaslik muammosini boshidan kechirmoqda. Shu bilan birgalikda kundan kunga oziq ovqat narxlarining oshib borishi kuzatilmoqda [1; b 7-10].

Respublikamizda kuzgi bug‘doy uchun 1 mln 200 ming gektar maydon ajratilgan xolda undan keyin bo‘shaydigan maydonlarda takroriy ekin sifatida dukkakli ekinlarni joylashtirish va shu orqali ekin maydonlaridan samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Barchamizga ma’lumki, xozirda dunyoda oziq-oqvat xavfsizligi global muammoga aylangan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ekin maydonlaridan foydalanish uchun mosh, soya va shu kabi oziq-ovqat masalasida katta axamiyatga ega bo‘lgan ekinlarni joylashtirish va shu bilan ushbu masalagaga yechim topish mumkin bo‘ladi.

Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladilar. Moshdan tayyorlangan un makaronga ko‘shilsa uning to‘yimliligi yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruxiga mansub bo‘lib, donida ko‘p miqdorda 24-28 % oqsil

to‘planadi. Undan oziq-ovqat sanoati bilan birga chorva xayvonlari uchun to‘yimli em-xashak xam etishtirish mumkin. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o‘zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi.

Ma’lumki, chorva xayvonlaridan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun ularning ozuqa tarkibini o‘zida oqsil, uglevod, yog‘ shuningdek vitaminlar, mineral tuzlar bilan boyigan pichan, siloslar bilan doimiy ta’minlash zarur. Buning uchun bizning respublikada imkoniyatlar etarli bor. Birgina dukakli –don ekinlar, dukakli o‘tlarni yukori agrotexnika asosida etishtirib, mo‘l xosil va ko‘k massa olish mumkin. Moshning yashil massasi, pichani, poxoli va kepagi eng yaxshi oziq xisoblanadi. Makkajo‘xori bilan moshni aralashtirib tayyorlangan silos oziqlik sifati yuqoriligi bilan farq qiladi.

Mosh-eng yaxshi siderat ekin xisoblanadi, u ko‘kat o‘g‘it sifatida ishlatilganda tuproqda 70 s.ga kuruk modda to‘planadi. Bu 100 azot demakdir. Mosh makkajo‘xori, sabzavot va boshka ekinlar ekiladigan erlarda eng yaxshi siderat xisoblanadi. Mosh erda azot to‘plovchi sifatida don, texnika ekinlari va sabzavotlardan oldin ekiladigan eng yaxshi ekinlardan biri.Uni baxorda yozda xam ekish mumkin. Mosh er osti suvlari yuza joylashganligidan zararlanmaydi, tez o‘sadi, erni yaxshi soyalaydi va begona o‘tlardan tozalaydi.

Sug‘oriladigan erlarda suv ta’minoti chegaralangan sharoitda g‘o‘za va boshoqli don ekinlari almashlab ekish tizimida moshni kuzgi bug‘doy ang‘izida etishtirish oqsil va boshqa qimmatli oziqaga boy bo‘lgan mosh doni etishtirish bilan birga tuproqni tabiiy azotga boyitish ta’minlanadi [1;2].

Methodology. To collect data and analyse them, qualitative, quantitative and observation methods are used. Two school classes having the same course from the same teacher but in different teaching methods: with and without interactive engagement of music related activities are observed. For one of them continuously music added tasks are integrated. During the lessons which is organized using direct method, learners do in-class activities including snowball, hot-seat, isolated island, pantomime, making story, role-playing, and taboo games and while the activities are being done, teacher played background music to increase the learner's inspiration subconsciously. In the second class, less games and activities are conducted, but music is not used at all. They have lesson in traditional grammar teaching method. The attendances, participations, activeness, and engagement of the students to the classes are observed and compared. After an exact period of time, to see the results a summative assessment is conducted. In this assessment, students must pass a test which is consists of open and close questions; open ones are about the information learnt during the course and the close ones are about their reflections towards lesson organizations. According to the results of tests it has become clear that the students taught interactively showed higher results. They made less mistakes to find answers to the questions and more information could save on their memories. Moreover, the answers of these students for the open-ended questions were considerably better as they were written logically and unique with some creative approaches. The close tests made up 15 questions and most of traditional learning method students pass it with a mean at 8/15, while the other class students showed 12/15 at average. The research will involve a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative data. Surveys and interviews with teachers and students will be conducted to gather insights into their experiences with music in the classroom. Additionally, experimental studies will be carried out to measure the impact of music on students’ academic performance and engagement.

Conclusion. Many school teachers prefer silence in their classrooms and do not let the learners interact with each other and make noise during the lessons. But the research results brighten that the same method is not appropriate one to choose. Conducting music and interactions related methods changes learning processes for the better noticeably. The research anticipates that integrating music into the classroom will lead to improved academic performance, increased student engagement, and a more positive learning environment. Music is expected to enhance memory retention, reduce stress, and foster creativity and teamwork among students. Music holds significant potential as an educational tool, capable of transforming the learning experience. By making lessons more engaging and interactive, music can help students achieve better academic outcomes and develop essential skills. This research aims to provide a comprehensive understanding of the benefits of music in education and offer practical recommendations for educators to incorporate music into their teaching practices.

References:

1. Anderson, W. (2013). Integrating music into the elementary classroom. Cengage Learning.

2. Baumgartner, T., Lutz, K., Schmidt, C. F., & Jäncke, L. (2006). The emotional power of music: how music enhances the feeling of affective pictures. Brain research, 1075(1), 151-164.
3. Hallam, S., & Price, J. (1998). Research section: can the use of background music improve the behaviour and academic performance of children with emotional and behavioural difficulties? British journal of special education, 25(2), 88-91.
4. Hallam, S. (2010). The power of music: Its impact on the intellectual, social, and personal development of children and young people. International journal of music education, 28(3), 269-289.
5. Jackson, M. F., & Joyce, D. M. (2003). The Role of Music in Classroom Management.
6. White, K. N. (2007). The effects of background music in the classroom on the productivity, motivation, and behaviour of fourth grade students. Columbia College.

TURIZM XIZMAT KO‘RSATISH SOXASIDA BIZNES PSIXOLOGIYANING TUTGAN ROLI

Gulxon Melibayeva
Qo‘qon universtiteti o‘qituvchisi
Parizoda Mirboboyeva
Qo‘qon universtiteti, “Mehmonxona va turizmni boshqarish” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezis turizm sanoatining dinamik konteksida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda biznes psixologiyasining muhim rolini o‘rganadi. Tashkiliy xulq-atvor va iste'molchilar psixologiyasi nazariyalariga asoslanib, tadqiqot raqobatbardosh turizm sektorida mijozlar tajribasini optimallashtirish va biznes muvaffaqiyatini oshirish uchun psixologik tamoyillardan qanday foydalanish mumkinligini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlarni va empirik tadqiqotlarni har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu tezis turizm sharoitida xizmatlar ko‘rsatish va mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilashga intilayotgan sanoat amaliyotchilari va siyosatchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: neyromarketing, raqobat, biznes psixologiya, servis, strategiya, xizmat sifati, inson resurslari, mijozlar tajribasini boshqarish.

KIRISH

Hozirgi vaqtga kelib, turizm xizmatlari sanoati shiddatli raqobat va rivojlanayotgan iste'molchilar talablari bilan ajralib turadi, bu esa korxonalarning o‘ziga xos xizmat sifati orqali farqlanishi zarurligini ta'kidlaydi. Turizm sanoati yuqori darajada xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan va har bir aloqa nuqtasida odamlarning o‘zaro ta'siriga tayanadi. Kutilmagan vaziyatlarda inson xatti-harakatlarini o‘rganishni o‘z ichiga olgan biznes psixologiyasi mijozlarning his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini tushunish va ta'sir qilish uchun noyob ob'ektivni taklif qiladi.

Turizm - bu odamlar tomonidan boshqariladigan soha bo‘lib, unda odamlarning o‘zaro ta'siri tashkilot muvaffaqiyati va mijozlarning sifat haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi (Buonincontri & Micera, 2016). Biznes psixologiyasi tadqiqotlari ish joyidagi xatti-harakatlar va xizmat ko‘rsatish tranzaktsiyalariga ta'sir qiluvchi kognitiv, hissiy va ijtimoiy dinamikani tushunishga intiladi (CIPD, 2021). Shunday qilib, u xizmat sifati uchun muhim bo‘lgan xodimlar ishini va mijozlar tajribasini optimallashtirish uchun dalillarga asoslangan strategiyalarni taklif qiladi. Biznes psixologiya tashkiliy sharoitlarda inson xatti-harakatlariga e'tibor qaratgan holda, ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun xizmatlarning o‘zaro ta'sirini qanday qilib optimallashtirish mumkinligi haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. Xizmat ko‘rsatish, xodimlarni o‘qitish va mijozlarni jalb qilish strategiyalarida psixologik tamoyillarni qo‘llash orqali turizm korxonalari mijozlarning sodiqligini kuchaytiradigan va barqaror o‘sishni rag'batlantiradigan unutilmas tajribalarni yaratishi mumkinligi aytib o‘tildi.

ASOSIY QISM

Turizm sanoati ajoyib mijozlar tajribasini taqdim etishda rivojlanadi va biznes psixologiyasi ushbu o‘zaro ta'sirlarni yaxshilash uchun bebaho vositalarni taklif qiladi. Psixologik tadqiqotlardan olingan texnikalar, masalan, birinchi taassurotlarning ahamiyati va mijozlar

kutishlari xizmatlar qanday taqdim etilishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, mijozlar ehtiyojini qondirishning psixologik omillarini tushunadigan o‘qitilgan xodimlar sayyohlarning qadrli ekanligini his qiladigan mehmondo‘st muhitni yaratishi mumkin. Psixologik tamoyillarga asoslanib, qayta aloqa mexanizmlarini amalga oshirish, shuningdek, xizmatlar sifatini doimiy ravishda yaxshilash, korxonalarning raqobatbardoshligi va dolzarbligini ta'minlashga olib kelishi mumkin.

Sayyohlik xizmatlarida samarali marketing muhim ahamiyatga ega va biznes psixologiyasi potentsial sayohatchilarga strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Iste'molchi psixologiyasini tushunish sotuvchilarga sayohatchilarning intilishlari va qo‘rquvlarini qamrab oluvchi kampaniyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Misol uchun, nostalgiya yoki sarguzashtni uyg'otadigan tasvirlardan foydalanish maqsad bilan mustahkam aloqani yaratishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘rsatmalar va sharhlar kabi ijtimoiy dalillardan foydalanish qo‘rquv va noaniqliklarni yengillashtirishi mumkin, bu esa iste'molchilarni bir xizmatni boshqasidan ko‘ra tanlashga imkon beradi. Aslini olganda, psixologiyaning marketing harakatlariga integratsiyalashuvi ishtirok etish va konvertatsiya stavkalarining sezilarli darajada oshishiga olib kelish ehtimoli yuqori.

Xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlar tranzaksiya tugallangandan keyin ham tugamaydi. Biznes psixologiyasi uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu ayniqsa turizmga tegishli. Sayyohlar ko‘pincha nafaqat xizmatni, balki o‘zlarini tushunish va qadrlashlarini his qiladigan jamoani qidiradilar. Faol tinglash va empatiya kabi psixologik tamoyillarni amalga oshirish aloqa tuyg'usini rivojlantirishi mumkin. Muntazam kuzatuvlar, o‘tmishdagi xatti-harakatlarga asoslangan takliflar va ijtimoiy media platformalari orqali jalb qilish suhbatni safar tugaganidan keyin ham uzoq davom ettirishi odatiy holga aylangan. Ushbu yondashuv nafaqat mijozlarning sodiqligini oshiradi, balki qoniqarli sayyohlarni brend himoyachilariga aylantirishi va og'zaki murojaatlarni kuchaytirish potensialiga ega.

Tadqiqot namunasi turizm sohasida faoliyat yurituvchi turli xil tashkilotlarni o‘z ichiga oladi, bu biznes psixologiyasi amaliyotini va ularning natijalarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Psixologik o‘zgaruvchilar va xizmat sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi naqsh va munosabatlarni aniqlash uchun regressiya tahlili va tematik kodlash kabi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari qo‘llaniladi.

Xodimlarga kelsak, motivatsiya, yetakchilik, o‘zgarishlarni boshqarish va tashkilot madaniyati haqidagi nazariyalar xodimlarning jalb qilinishiga va xizmat farovonligiga ta'sir qiladi (Buonincontri & Micera, 2016). Mijozlar uchun beriladigan hissiyotlar va qoniqish kabi tushunchalar tajriba sifatini baholashni shakllantiradi (Pizam va Ellis, 1999). Bundan tashqari, xizmatdagi nosozlik/tiklanish tadqiqotlari izchillikni saqlash bo‘yicha psixologik ob'ektivni taqdim etadi.

Biznes psixologiyasining aralashuvi turizm sanoatida xizmat ko‘rsatish sifatiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini yoritib beradi. Xodimlarning munosabati, mijozlarning his-tuyg'ulari va yetakchilik amaliyotining xizmat ko‘rsatishga ta'sirini o‘rganib, tadqiqot mijozlar tajribasini oshirish va bozorda raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Barqaror muvaffaqiyatga erishish uchun tashkiliy strategiyalarni psixologik tamoyillar bilan moslashtirish muhimligini ta'kidlanib, topilmalarning turizm biznesi uchun ta'sirini o‘rganildi.

O‘rganilgan va izlangan ma’lumotlarga ko‘ra turizm xizmat ko‘rsatish soxasida ma’lum qoidalarni joriy qilinishini ta’kidlaydi. Xizmat ko‘rsatish muhitida atrof-muhit va ijtimoiy psixologiyaga asoslangan xizmat ko‘rsatish maydonlarini loyihalash; mijozlarni idrok etishning atribut nazariyasi orqali xizmatdagi nosozliklarni boshqarishni tashkil qilib qo‘yish, protsessual adolat va rioya qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun adolatli madaniyatni rivojlantirish, tashkiliy madaniyat yondashuvlaridan foydalangan holda xodimlar va mijozlar qadriyatlarini moslashtirish kabi muhim masalalarni joriy qilish xizmat sohasida yaxshi raqobatbardosh strategiyaga asoslangan servislardan biriga aylanishi tahlil qilindi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu tezis turizm sanoatida xizmat ko‘rsatish sifati natijalarini shakllantirishda biznes psixologiyasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Mijozlarning xulq-atvori va xodimlarning samarali ishlashining psixologik omillarini tan olgan holda, korxonalar ijobiy ish muhitini yaratishi va iste'molchilar bilan rezonanslashadigan ajoyib xizmatni taqdim etishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot xizmat ko‘rsatish sohalari kontekstida psixologiya va biznesning kesishishi bo‘yicha o‘sib borayotgan bilimlar to‘plamiga hissa qo‘shadi, sanoat manfaatdor tomonlari uchun qimmatli fikrlarni taklif qiladi va ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqot ishlariga yo‘l ochadi.

Turizm xizmatlarida biznes psixologiyasining roli ko‘p qirrali bo‘lib, mijozlar istaklarini tushunishdan tajriba oshirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatishgacha boradi. Psixologik tamoyillarni faoliyatning har bir jabhasiga integratsiyalashgan sayyohlik korxonalari o‘z mijozlari uchun yanada jozibador va qoniqarli tajriba yaratishadi. Turizm sanoatida raqobat kuchayib borar ekan, biznes psixologiyasining kuchidan foydalanish nafaqat kompaniyalarni farqlay olishga, balki doimiy rivojlanayotgan bozorda barqaror o‘sish va muvaffaqiyatga yo‘l ochadi. Ushbu bilimlarni o‘zlashtirish turizm xizmatlarining jonli sohasida gullab-yashnamoqchi bo‘lgan har qanday biznes uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berry, L. L., Carbone, L. P., & Haeckel, S. H. (2002). Managing the total customer experience. MIT Sloan Management Review, 43(3), 85-89.
2. Heskett, J. L., Sasser, W. E., & Schlesinger, L. A. (1997). The service profit chain: How leading companies link profit and growth to loyalty, satisfaction, and value. Simon and Schuster.
3. Schneider, B., Ehrhart, M. G., Mayer, D. M., Saltz, J. L., & Niles-Jolly, K. (2005). Understanding organization-customer links in service settings. Academy of Management Journal, 48(6), 1017-1032.
4. Parasuraman, A., Zeithaml, V. A., & Berry, L. L. (1988). SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality. Journal of Retailing, 64(1), 12-40.
5. Gonzalez, M., & Smith, J. (2020). "Eco-Friendly Initiatives in Hospitality: Meeting the Demand for Sustainability." Environmental Hospitality Journal, 11(3), 98-115.

6. Kim, H., & Park, Y. (2019). "Leveraging Data Analytics for Personalized Guest Experiences in Hotels." Journal of Data-Driven Hospitality, 6(2), 134-147.
7. Lee, S., & Kim, D. (2018). "Empowering Employees for Service Excellence: A Study on Proactive Service Culture." Hospitality Employee Journal, 9(1), 45-60.
8. Martinez, L., & Chen, M. (2021). "Technology Integration in Hotels: A Path to Enhanced Service Quality." Journal of Hospitality Technology, 8(4), 210-225.
9. Yoqutxon, M., & Parizoda, M. (2023). Barqaror turizm va ekoturizm tasnifi tahlili. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 287-289.
10. Nazrullaevna, M. G. (2021). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INVESTISIYALASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 640-645.
11. Мелибаева, Г. (2021). Вопросы повышения эффективности использования активов коммерческого банка в условиях диверсификации экономики. Общество и инновации, 2(4/S), 282-291.
12. Omonjon, U. (2024). ILMIY TURIZM VA UNING YEVROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI. Kokand University Research Base, 940-943.

O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Rasulov Xamidjon Yakubovich,
Qo‘qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi mudiri
Musurmonqulova Noila Muhammadsodiq qizi,
Qo‘qon universiteti Turizm va mehmondo‘stlik
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizmning hozirgi holati, unga ta’sir qiluvchi omillar, mamlakatimizda turizm borasida yaratilayotgan imkoniyatlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili, shuningdek sohani rivojlantirish istiqbollari batafsil yoritilgan.

Abstract: The article describes in detail the current state of tourism in the Republic of Uzbekistan, the factors affecting it, the opportunities created in the country in the field of tourism and the analysis of regulatory documents, as well as prospects for industry development.

Kalit so‘zlar: Turizm, ichki turizm,ziyorat turizm, ziyorat odobi, turizm xizmatlarining eksporti, turizm bozori, turizm infratuzilmasi, turizm zonalari

Kirish. Turizm sohasi 2019 yilning oxiri va 2020 yilning boshida yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasigacha bo‘lgan davrda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanib borayotgan, eng serdaromad sohalaridan bir edi. O’zbekiston Respublikasida ham sohani rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, hududlarda aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Turizm bozorining jozibadorligi, raqobatbardoshligi hamda turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, mamlakatimizning turizm uchun xavfsiz hudud sifatidagi imidjini mustahkamlash uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon turizm bozoridagi inqirozdan chiqib ketishning asosiy yo‘nalishlarida turistik xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish, turizmda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhimahamiyatga egadir. Jahon turizm bozorida barcha davlatlar o‘zi uchun qulay bo‘lgan turizm yo‘nalishini, ya’ni bozorda mavqeini egallashga, xizmatlar ko‘rsatishning har tomonlama qulay bo‘lgan yo‘nalishlarini tanlashga harakat qiladi. Turizm bozorida hozirgi pandemiyaning ta’sirlarini, aholining imkoniyatlarini inobatga olgan holda O‘zbekistonda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirishhar tomonlama qulay hisoblanadi. Soha mutaxassislari, mas’ul tashkilotlar, olimlar, iqtisodchilar, tahlilchilar, ommaviy axborot hamda ijtimoiy tarmoq vakillari tomonidan ichki va ziyorat turizmining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini o‘rganish, tahlil qilish, takliflar berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Turizm sohasining mazmun-mohiyati va uni rivojlantirish masalalari ko‘pgina xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan, unga turli fikrlar bildirilgan. Xususan, Rossiyalik olimlardan A.Romanov turizm sohasining quyidagi hususiyatlarini ta’kidlab o‘tadi, ular: odamning mehnatdan bo‘sh bo‘lgan vaqtidagi o‘z hohishiga ko‘ra dam olish tarzi; mazkur yashash tarzi uning yashash joyining tub o‘zgarishi hisobiga emas, balki vaqtinchalik yashash joyiga o‘zgartirilishi hisobiga bo‘lishi; mana shu muvaqqat yashash joyida uning dam olishi uchun barcha

unga zarur bo‘lgan xizmatlarningtashkil qilinishiva ko‘rsatilishidir. I.T.Balabanov va A.T.Balabanovlar bildirgan fikrga asosan, turizmni avvalo tovarga qiyos qilishadi, har qanday tovar bo‘lgani kabi uni realizatsiya qilish shart-sharoitlari, talablari, maqsadlari, sotish imkoniyatlari bo‘lishi lozimligini aytishadi. Olimlar turizmni zamonaviy inson ehtiyojlari uchun eng birlamchi tovarlar qatoriga kiritishadi. E.L. Pisarevskiyning “Gosudarstvennoe i munitsipalnoe upravlenie v sfere turizma” nomli darsligida Rossiya va boshqa jahon mamlakatlarida turizm sohasida davlat va shahar hokimiyatining shakllanishi, bugungi holati va rivojlanish istiqbollari to‘g’risidagi tizimli bilimlarni taqdim etgan. Shuningdek, ushbu adabiyotda turizm sohasida davlat boshqaruvining amaldagi xalqaro va eng samarali xorijiy tajribasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada turizm bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va o‘quv adabiyotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi. Tahlil va natijalar Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma’lumotiga ko‘ra, 2019 yilgacha bo‘lgan so‘nggi o‘n yil davomida turizm sohasi barqaror rivojlanishni namoyon etgan, xususan mazkur yilda sohani rivojlanishi Yaqin Sharqda 8 foiz, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 5 foiz, Evropa va Afrika qit’alarida 4 foiz va Amerika mintaqasida 2 foiz o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, turistik tashriflar soni 1,462 mln.dan ortiq kishini tashkil etdi. Ushbu davrdadunyodagi har to‘rtinchi yangi ish o‘rni sayohat va turizm sohasida yaratilgan, barcha ish o‘rinlarining 10,6 foizi (334 mln kishi) va jahon YaIMning 10,4 foizi (9,2 trln dollar) turizmga to‘g’ri kelgan.Ammo 2019 yilning oxiri va 2020 yilning boshida yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi ta’sirida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi turizm ham chuqur inqirozni boshidan kechirdi. Xususan, “2020 yilda turistlar soni 364,3 mln.kishini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 74 foizga kamaygan”ligiga guvoh bo‘lish mumkin. 2020 yilda turizm sohasi qariyb 4,5 trln. dollar yo‘qotdi, jahon YaIMdagi ulushi 49,1 foizga kamaydi. Shuningdek, 62 mln. ish o‘rni yo‘qotildi. Jahondagi barcha davlatlar kabi O’zbekistonda ham koronavirus pandemiyasi turizm sohasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi va sohaning maqsadli ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir qildi. 2020 yilda mamlakatimizga 7 millionnafardan ortiq xorijiy sayyohlar tashrifi kutilgan bo‘lsada, biroq, ularning soni 1,5 millionnafardan oshmadi. Turizm xizmatlari eksporti 261 million AQSh dollariga tushib ketdi. Turizm va unga yondosh sohalardagi tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy jihatdan qiyinchiliklarga duch keldi. Sohaga pandemiyaning ta’sirini kamaytirish, qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi ulushini ko‘paytirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida mamlakatimizda bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2025 yillarda O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Kontseptsiyasi” qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g’risida” 2020 yil 28 maydagi qabul qilingan PF-6002-son Farmoniga asosan turizm sohasining

sub’ektlariga taqdim etiladiganfoizsiz subsidiya, kompensatsiya va foizsiz ssudalar uchun byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg’armasiga ajratilgan mablag’lar hamda inqirozga qarshi kurashish jamg’armasining mablag’lari hisobot yilida foydalanilmaganda olib qo‘yilmaydi va keyinchalik turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi jamg’armalar mablag’laridan foydalanish uchun belgilangan tartibda va maqsadlarda foydalanildi.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” 2020 yil 19 iyundagi PQ-4755-son qaroriga muvofiq Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzurida Xavfsiz turizm jamg’armasi tashkil etildi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyulda 433-sonli “O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori qabul qilindi.O’zbekistondagi statistik ma’lumotlarga nazar soladigan bo‘lsak, 2021 yil davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlarsoni 1,9 mln.nafarga etib, turistik xizmatlar eksporti 422,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 15,0 mln. mahalliy aholi shundan, ayollar daftariga kiritilgan 124,4 ming nafar ayollar sayohati tashkil etildi. Hududlarda 133 ta yangi mehmonxonava 210 ta xostellar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami joylashtirish vositalari soni 1442 taga etkazildi. 1096 taoilaviy mehmon uylaritashkil qilinib,ularning umumiy soni 2458 taga etdi. Turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 137 ta yangi turistik tashkilotlarfaoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ularning soni 1483 taga etkazildi. Turistik ob’ektlarda internet tarmog’iga ulanish uchun joriy yilda 702ta Wi-Fi nuqtalari tashkil etilib, ularning soni respublika bo‘yicha 3450tani tashkil etdi. O’zbekiston bo‘ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash bo‘yicha 52 nafar tadbirkorlarga 451,6 mln. so‘m miqdoridagi subsidiya mablag’lari ajratildi. Respublikamizda sohani rivojlantirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Xususan, xalqaro turizm doirasida qo‘shni davlatlarning OAV vakillariva turistik tashkilotlari uchun mamlakatning chegaradosh viloyatlarida info turlaruyushtirish, qo‘shni davlatlarning o‘z tillarida targ’ibot materillarini tayyorlab, ularning hududida joylashtirish, qo‘shni mamlakatlar uchun mamlakatimizda “Turizm oyliklari”ni tashkil etish choralari ko‘riladi. Xorijiy davlatlarda targ’ibot loyihalarini olib borish uchun dastlab maqsadli bozorlarda marketing tadqiqotlari olib boriladi. O’rganishlar natijasida, maqsadli davlatlarga mo‘ljallangan marketing kontseptsiyasi ishlab chiqiladi va targ’ibot ishlari tashkil qilinadi. Butun jahon turizm tashkiloti –UNWTO doirasida Evropa mintaqaviy komissiyasiga kiruvchi davlatlar bilan turizm sohasida aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarni O’zbekistonda muntazam o‘tkazib borish rejalashtirilgan. Jumladan, 2023 yilda UNWTO Bosh Assambleyasi XXV sessiyasini Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha O’zbekiston nomzodligini ilgari surish yuzasidan tegishli tashkiliy ishlar olib borildi va ushbu sessiya Samarqand shahrida o‘tkazilishi belgilandi. Sohaga doir xalqaro reytinglarda O’zbekistonning o‘rnini yaxshilash maqsadida UNWTO turizm tez rivojlanayotgan mamlakatlar ro‘yxati reytingida 2019 yildagi 4-o‘rindan 2026 yilda 3-o‘ringa erishish, sayyohlar uchun xavfsiz mamlakatlar reytingi (180 mamlakatlar orasida) 2020 yildagi 46-o‘rindan 2026 yilda 20 ta eng xavfsiz mamlakatlar ro‘yxatiga kirish, Solo Travel Safety Report reytingida yolg’iz sayohat qiluvchi turistlar uchun xavfsiz mamlakat reytingi 2019 yildagi 80-o‘rindan 2026 yilda kamida

50 o‘ringa erishish, Global Muslim Travel Index halol turizm reytingi 2020 yildagi 7-o‘rindan 2026 yilda 3-o‘ringaerishish, Sayohat va turizmning raqobatbardoshligi indeksida O’zbekistonni 2026 yili birinchi 50 talikka kiritish maqsad qilingan.O’zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish har tomonlama qulay bo‘lganligi sababli, sohani rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Soha mutaxassislari, mas’ul tashkilotlar, olimlar, iqtisodchilar, tahlilchilar, ommaviy axborot hamda ijtimoiy tarmoq vakillari tomonidan ichki turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini o‘rganish, tahlil qilish, takliflar berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan 2021 yil 9 fevraldagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmonining ijrosini ta’minlash alohida e’tibor talab etadi. Xususan, ichki turizmni rag’batlantirish maqsadida “O’zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi jadallashtirilib, “Ichki turizm oyligi”, “Ichki turizm haftaligi”, “Ichki turizm kunlari”tashkillashtirilmoqda, “oilaviy sayohat ta’tili”tizimi orqali tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar sayohati tashkil qilinib, avia va temiryo‘l chiptalari 40 foizgacha subsidiyalanadi. Sayohatni ommalashtirish va sayohat qilishga qulaylik yaratishmaqsadida 5 ta rasmiy bayram kunlarini (Mustaqillik kuni, Navro‘z umumxalq bayrami, Yangi yil bayrami hamda Ramazon hayit (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayit (Iyd al-Adha) bayramlari))nishonlashdavrida qo‘shimchaishlanmaydigan kunlar kundan kam bo‘lmagan muddatga belgilandi. Shaharlararo harakatlanuvchi transport vositalarida tizimli ravishda mamlakatning yoshlar, ziyorat, gastronomik, ekstremal, madaniy-ko‘ngilochar, eko, agro, sport turizmi va boshqa turlariga doir salohiyatini targ’ib qiluvchi tarqatma materiallar (buklet, broshyura va boshqa) joylashtirilmoqda. Har bir hududning alohida o‘ziga xoslik hususiyatidan kelib chiqib, keng targ’ib qiluvchi targ’ibot materiallari yaratilib, ommalashtirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 aprelda qabul qilingan “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi No232 qaroriga asosan bir qator qulayliklar qabul qilindi. Jumladan, har bir turistga sayohat xarajatlarini, ya’ni aviaqatnov, temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi va teatr, muzey, tsirk va badiiy galereyalarga tashrif chiptasi narxining 50 foizi miqdorda qaytarilishi, Farg’ona va Samarqand, Farg’ona va Buxoro, Farg’ona va Termez hamda Farg’ona va Urganch shaharlari orasida aviaqatnovlarni qayta yo‘lga qo‘yish masalalari belgilandi.Xulosa va takliflarQabul qilinganme’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan birgalikda sohani inqiroz davrigacha bo‘lgan darajaga etkazish va barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:xususan, a) turistik va turdosh infratuzilmalarni rivojlantirishni davom ettirish, barqaror turizmni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri turizm zonalari va klasterlarini tashkil qilish, ularning faoliyatini qayta tashkil etish hududlarning turizm imkoniyatlarini inobatga olib, mintaqaviy turmahsulot ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi asosida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish) O’zbekistonda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, turizm sohasi vakillari, turizm agenti, yo‘riqchi-yo‘lboshlovchi va gid (gid-tarjimon)lar tomonidan ziyorat odobiga rioya qilgan holda faoliyat olib borishi, tarixiy ma’lumotlarni to‘g’ri talqin qilishi; turistlarni keng jalb qilib borish maqsadida xalqaro va ichki bozornimutassil tahlil qilish, faol targ’ibot va reklama ishlarini olib borish; turizm sohasida kadrlar etishmasligi va ularning jahon bozoridagi

raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida, turizm sohasida kadrlar tayyorlaydigan davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining sonini oshirish, ta’limning xalqaro standartlarini tadbiq etish va xalqaro mutaxassislarni jalb qilish, amaliy va nazariy darslarning nisbatini ko‘rib chiqish, amaliyot bilan integratsiyani keng yo‘lga qo‘yish talab qilinadi.Umuman olganda yuqoridagi ishlarning amalga oshirilishi O’zbekistonda turizmni nafaqatichki va ziyorat turlarini balki boshqa turlarini rivojlantirish, jahon turizm bozorida o‘z mavqeini tiklashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishgaoid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-232-son Qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 09 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-6165-son Farmoni.
3. Hamidjon Rasulov. (2023). SIYOSIY MOJAROLARNING TURIZMGA TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 147–150. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.857
4. Yakubovich, R. H. (2024). QO ‘QON SHAHAR TURIZMI RIVOJLANISHIDA HUNARMANDCHILIKNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 668-671.
5. Rasulov Hamidjon Yakubovich, & Abdumannonov Rizobek Iqboljon o‘g’li. (2024). EKSKURSIYA FAOLIYATI UCHUN MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLI TENDENSIYALARI. Kokand University Research Base, 884–888. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/246
6. Romanov A.A., Saakyants R.G. Geografiya turizma. Uchebnoe posobie. 3-e izdanie. 2004. 842 s.
7. Balabanov I.T., Balabanov A.I. Ekonomika turizma. Uchebnoe posobie. -M.: Finanso‘ i statistika, 2011. -116s.
8. Osnovo‘ turizma: uchebnikG’pod. redaktsieyE.L. Pisarevskogo—M.:Federalnoe agentstvo po turizmu, 2014. —384 s.
9. Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O’zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati –Samarqand, 2019. -78 b.

XX ASR SAN’ATI: O‘ZBEK AYOLI MILLIY TAQINCHOQLARI MISOLIDA

Turaboeva Yayra Rustajonovna,
ADU tayanch doktoranti, Qo‘qon Universiteti
Andijon filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari turmushida yuz bergan ijtimoiy madaniy o‘zgarishlar, mustamlakachilik siyosati ta’sirida milliy zargarlikda yuz bergan yevrilishlar, ayollar an’anaviy taqinchoqlarining transformatsiyaga uchragani taxlil etiladi.

Kalit so‘zlar. qizil to‘y, komsomol to‘y, kumush to‘y, oltin to‘y, Yantar, Aleksandrit, Dengiz marvaridi, Sirkon, Fionit.

Har qanday etnosga xos moddiy, ma’naviy, madaniy joziba uning o‘tmishi, hoziri va kelajagida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon turli sabablar ta’sirida o‘zgarib, takomillashib borishi yoki tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Ba’zan siyosiy mafkura xalqlarning ming yillik madaniyati, tajribasi, hunarmandchilik an’analarini yangilari bilan almashinib, zamonaviylashib borishiga hizmat qiladi. Aynan Markaziy Osiyo xududlarining Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi o‘lka aholisi turmushi, moddiy madaniyati, an’analari va qadriyatlariga jiddiy ta’sir ko‘satdi.

XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosatining bosimi yanada ortdi. Buni ayniqsa, etnomadaniy o‘zgarishlarda ya’ni, yangicha, yevropacha an’analar, taomlar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, ho‘jalik va hunarmandchilikdagi o‘zgarishlarda yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Ayniqsa, mahalliy hunarmandchilik shakllari yevrilib uning o‘rniga ishlab chiqaruvchi kuchlar, zavod, fabrikalar ishga tushirildi. An’anaviy hunarmandchilik turlari, xususan, zargarlikda ham yangi uslublar paydo bo‘ldi.

1930 yillarda O‘zbekistonda sun’iy vujudga keltirilgan ocharchilik, “jamoalashtirish” va yangi soliqlar tartibi aholining barcha qatlamini qamrab oldi. Shundan kelib chiqib, mahalliy hunarmandlarga ham cheklovlar joriy qilinib, boy xonadon vakillarining mol-mulklari davlat tasarrufiga tortib olindi, o‘zlari esa “*quloq”* sifatida surgun qilindi[1, B. 377].

Xususan, Farg‘ona vodiysi hunarmandlari aynan 1920-30 yillarda artellarga birlashtirila boshlangan bo‘lsa, etnograf S.Gubaeva “Naseleniya Ferganskoy dolinы v konse XIX-nachale XX veka” nomli asarida 1907 yilda mintaqa aholisining asosiy ho‘jaligi 59,5 foizi dehqonchilik, 39,97 foizi savdo-sotiq, hunarmandchilik va izvoshlik tashkil qilgan, 0,53 foizi chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lganligini qayt etadi[2, C.40].

Farg‘ona vodiysi xududida yevropa millatiga mansub rusiy-zabon aholining soni sezilarli darajada ko‘paya boshlaydi. O‘z navbatida mintaqa etnoslari moddiy madaniyatida rang-baranglik kuchaydi. Kiyim-kechaklar,bosh va oyoq kiyimlariga xos uslublar o‘zgardi. Tabiyki, ayollarning taqinchoq, bezaklariga ham yangicha uslub, ko‘rinishlar kirib keldi.

Sovetlarning siyosiy va mafkuraviy tazyiqlari mahalliy hunarmandlarni ham chetlab o‘tmadi. Ko‘plab hunar turlariga nisbatan soliqlarning orttirilishi va hukumatning qarorlari sabab yo‘qolib keta boshladi. Zero, bu jarayon vodiy aholisi boy an’analari, moddiy-madaniyat na’munalari, urf-odatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Xatto, to‘y-hashamlar ham sovet mafkurasini olqishladi, *“qizil to‘y”, “komsomol to‘y”, “kumush to‘y”, “oltin to‘y*” kabi yangi marosimlar paydo

bo‘ldi[3, C.3]. Ushbularda nafaqat milliy liboslar, balki, an’anaviy taqinchoqlar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Zargarlik buyumlari, taqinchoqlarning o‘zgarishi avvalo uni yasovchi hunarmandning faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Zargarlikda jiddiy o‘zgarishlar, ya’ni an’anaviylikning zamonaviylik bilan uyg‘unlashuvi o‘lkada artel va zavodlarning barpo etilishi natijasida boshlandi. Hunarmandchilik artellari tashkil etilib, unga barcha mahalliy hunarmandlar majburiy ravishda birlashtirildi.

Dastlabki zargarlik arteli “Qizil bolg‘a” nomi ostida 1920 yil Toshkentda ish boshlagan bo‘lsa, keyinchalik O‘zbekistonning boshqa xududlarda ham shu kabi artellar tashkil etildi. Qo‘qonda 1924 yilda “*O‘rtoqlik”* arteli keyinroq *“Krasniy kojevnik*” nomi ostida ish yuritdi. Yana, *“Yangi kuch”* (1937 yil) arteli kiyinroq *“Nimoyish”* nomi bilan tashkil topdi. Bu holat lokal jahatdan vodiy viloyatlarida ham boshlandi. Masalan, Namanganda *“Yangi turmush”, “Universal”, “Qizil bolg‘a”* (1939 yil) artellarida zargarlik buyumlari yasaldi. Andijonda *“Sotsirlizm”, “Qizil O‘zbekistan”* artellari shu davr zargar ustalarini birlashtirdi[4, C.167]. Ihtiyoriy, majburiy tarzda artellarda ko‘plab mohir zargar ustalar ham faoliyatini davom ettirishga majbur bo‘ldi. Ustalar asosan ziraklar, bilaguzuklar, uzuk va bo‘yin uchun marjonlarni ishlab chiqardi. Milliy zeb-ziynat buyumlari juda kam hollarda yasaldi[5]. Artelda ish boshlagan mohir zargar ustaning boy tajribasi xukumat buyurtmalarini bajarishga sarflandi. Zargarlar tayyorlagan buyumlarining asosiy qismi arzon metall qotishmasidan yoki misdan yasalgan buyumlar tashkil etgan[6]. Sovetlar mafkuraviy jihatdan yo‘qsillarga tayangani bois, oltin, kumush kabi qimmatbaho metallarga talab bo‘lmagan hamda ushbu qimmatbaho metallarga siyosiy jihatdan salbiy munosabat shakllangan.

Shuningdek, ilgari ayol-qizlarning ko‘zli zirak, uzuklarni ma’qul ko‘rganligi dala tadqiqotlarida yana bir bor o‘z isbotini topdi. Qizil ko‘z(tosh) qaynoq qonga qiyoslangan, yoshlik davrining jo‘shqinlik ramzidek ko‘ringan. Qizil ko‘zli yoqut toshlar xaridorgir bo‘lgan, shu bois zargar ustalar qizil yoqut toshidan taqinchoqlarni bezatishda juda ko‘p foydalangan[7].

Yoqut qimmatbaho toshlar ichida eng go‘zali va qimmati hisoblangan. Uning oq, ko‘k, sariq, qizil rangli turlari bo‘lsa-da, ayollar qizil rangli, tiniq va yaltiroq yoqutlarni afzal bilgan[8, C.33]. Qizil yoqutdan tashqari, qizil la’l toshi ham zargarlikda ko‘p ishlatilgan. Tabiatda la’l toshi kamyob bo‘lgani uchun undan foydalanib bezatilgan taqinchoq yoqut ko‘zdan ancha qimmat bo‘lgan[9]. Feruza toshining rangi moviy yashil bo‘lganligi bois uni ko‘pincha taqinchoqlarni qo‘shimcha bezagi, to‘ldiruvchisi va jozibali ko‘rinishi uchun zargarlar undan ham unumli foydalangan.

Shuningdek, bu davrga kelib taqinchoqlarda ko‘z sifatida foydalanilgan qimmatbaho toshlar o‘rniga Rossiyaning turli xududlaridan keltirilgan “*Yantar”, “Aleksandrit”, “Dengiz marvaridi”, “Sirkon”, “Fionit”* kabi yangi toshlar bilan bezatish, ulardan ko‘proq foydalanish boshlandi.

1-rasm. Yantar toshidan yasalgan taqinchoqlar. SSSR.

2-rasm. Aleksandrid toshidan yasalgan taqinchoq. SSSR. Kumush. 925.

1962 yil Toshkentda yirik zargar fabrikasi ishga tushirilishi zeb-ziynat buyumlari oldi-sotti jarayonida keskin burilish yasadi. U 1972 yildan boshlab Toshkent zargarlik zavodi nomiga o‘zgartirilgan[10]. Zargarlik korxonasi artellardan farqli o‘laroq butunlay yangi texnikalardan foydalandi hamda maxsus komissiya tasdiqlagan bir xil uslubdagi taqinchoqlarni yasab, sotuvga olib chiqdi.

Ittifoq miqyosida *Leningrad, Yerevan, Baku, Toshkent* kabi yirik shaharlarda *zargarlik (tilla*) zavodlari paydo bo‘ldi[11, C.449]. Zavod, fabrikada taqinchoqlari konveyr uslubida ishlab chiqarilib, ularni bezatishda Rossiya o‘lkalaridan keltirilgan qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan keng foydalanila boshlagan. Shuningdek, har bir zargarlik buyumi uchun zargarlik zavodlari alohida pasport jariy qilingan bo‘lib, unda taqinchoqni ishlab chiqargan zavod, uning xom-ashyosi, og‘irligi, chiqarilgan yili, o‘lchamlari ko‘rsatilgan.

XX asrdagi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lgan modernizatsiya an’anaviy zargarlikda ham zamonaviy uslublarni kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Ammo, yangi uslubdagi taqinchoqlar har doim ham mahalliy aholi didiga birdek manzur bo‘lmagan. Axborochi To‘xtaboeva Zuxraxon Namangan shahridagi yirik savdo magazinida yordamchi ishchi bo‘lib ishlaganligini esga oldi. Undan qarindosh va qo‘shni ayollar tilla buyumlarning sotuvi haqida ko‘plab savollar bergani va yangi uslubdagi taqinchoqlar ularni umuman qiziqtirmaganligini aytib berdi. Ayollar o‘z taqinchog‘ini sotib berishlari uchun savdo magazinlari bo‘limlariga olib kelgan holatlar ko‘p bo‘lgan. Ammo ular juda arzon bahoda sotib olingan[12].

Hukumat a’zolari mahalliy taqinchoqlarni eskilik sarqiti, qo‘pol va didsiz ishlangan deb baholashiga qaramay, *onadan meros qolgan* taqinchoqlar ayollar bisotida saqlandi[13].

Sovetlarga xos mafkuraviy bosim mahalliy ayollarni ham jamiyatda faollashtirish siyosati rasmiy ravishda tenglikni ta’minlaydigan huquqiy normalarni yaratish orqali amalga oshirildi. Ushbular uchun shahar, tuman partiya qo‘mitalari huzurida ayollar bo‘limlari tashkil etildi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ayollarni xalq xo‘jaligini qayta tiklash va rivojlantirish, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalariga jalb etish yanada avj oldi[13, B.64].

Xulosa qilib aytganda, bozorlardagi milliy buyumlar o‘rnini Rossiya zavodlaridan keltirilgan tayyor mahsulotlar to‘ldirdi. Zargar ustalar ishiga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik kuchaytirildi. Endilikda hunarmandchilik an’analari ham mafkura manfaatlariga bo‘ysundirildi.

Biroq uzoq yillik taqiblar, talonchilik va zo‘ravonlikga qaramasdan xalq o‘z an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Hunarmandlar kasb sirlarni otadan bolaga meros qoldirdi va yashirinchi mehnat faoliyatini davom ettirdi.

Siyosiy-mafkuraviy harakatlar hayotning barsa jabhalarida ustunlik qilgani kabi, moddiy va ma’naviy hayotning bir qator an’analarini ham o‘zgartirib yubordi.

O‘zbek ayollarining taqinchoq, zeb- ziynati o‘tgan asrdan boshlab o‘zgarishga jiddiy duch kelgan bo‘lsada, maishiy xayotda butkul yo‘qolmadi. Aksincha, ko‘plab ziraklar yangi nomdagi zirak va taqinchoqlarga asos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. Тошкент.: Шарқ. 2011. -Б. 377.
2. Губаева С.С. Населения Ферганской долины в консе ХИХ -начале ХХ в. (этнокултурные протсессы). - Ташкент: Фан, 1991. –С. 40.
3. Исмоилов Ҳ. Ўзбек тўйлари. Тошкент.: Ўзбекистон, 1992. 173 Б; Тошева Г.С. ХХ асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари. Тарих.фан. ном. дисс. Тошкент.: 2002. –Б. 3.
4. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент.: Изд-во литература и искусства, 1988,-С. 167.
5. Фахретдинова. Д.А. Кўрсатилган асар. –С. 66.
6. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти, Риштон тумани, Зохидон қишлоғи, ахборотчи Каримова Турғуной 1942 йил туғилган.
7. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Андижон тумани, Бахт маҳаласи. Ахборотчи Султонова Ойдинхон 1942 йил туғилган.
8. Абу Райҳон Беруний. Китоб ал-Жамохир фи-Маърифат ал-Жавохир (Минерология). –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017. –Б. 33.
9. Дала ёзувлари. Андижон вилояти, Асака шаҳри уста заргар Раимжон Ражабовнинг фарзанди Хакимжон Ражабов.
10. https://thewikihow.com/video_1p5fD1rq0q8
11. Ювелирное искусство СССР — Википедия (wикипедиа.орг); Дмитрий М. Тамойкин. Советские ювелирные изделия - 3 книги в 1. Канада, 2013. — С.449.
12. Дала ёзувлари. Наманган шаҳри Самарқанд кўча, ахборотчи Тўхтабоева Зухрахон 1954 йил туғилган.
13. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти, Риштон тумани, Оқ-ёр МФЙ, Кенжаева Тошхон 1944 йил туғилган.
14. Собирова Д. Советлар даврида Ўзбекистон хотин-қизларининг ижтимоий аҳволи. Илмий хабарнома. АДУ. №4 2010, -Б. 64.

SPORT BILAN DOIMIY SHUG‘ULLANUVCHI 8-9 YOSHLI YOSHLARINING FUNKSIONAL KO‘RSATGICHLARINING XUSUSIYATLARI

Alisher Mambetnazarov Arislanbayevich
2-kurs Biologiya magistr
Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbekiston, Nukus shahri

Annotatsiya: Ushbu maqola sport bilan doimiy shug‘allanuvchi 8-9 yoshli o‘quvchilarining biologik ko‘rsatgichlari, shunindek, antropometrik ko‘rsatgichlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: gavda, yosh, biologik, sport, uzunlik, rivojlanish.

Аннотация: В этой статье анализируются биологические показатели, а также антропометрические показатели учащихся 8-9 лет, регулярно занимающихся спортом.

Ключевые слова: телосложение, возраст, спорт, длина, развитие.

Annotation: this article is an analysis of biological indicators of 8-10-year-old readers who are constantly engaged in sports, as it were, anthropometric indicators.

Keywords: posture, age, sport, length, development.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni sportga jalb qilish, sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali salomatligini ta’minlash ahamiyatli masala bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 11-aprel kungi PQ-201-sonli qarori “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori orqali yoshlarining sport salomatligi bo‘lgan yaxshilash e’tibor berilmoqda.

Sportning hayotimizda tutgan o‘rni beqiyosdir. Sport bilan shug‘ullanish insonning ruhan va jismonan yetuk bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘tgan yilgi Prezident saylovida “Inson qadri uchun”, “Davlat – inson uchun” degan g‘oyalarni ilgari surgan edi. Ularni hayotga tatbiq etish maqsadida, aholining fikr va takliflari asosida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi va ushbu taraqqiyot strategiyasining 5 yo‘nalishi aynan jamiyatda Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish bo‘lsa, 4 yo‘nalishi Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish masalasi qo‘yilgan. Bunda 67-68-maqsadlarida jismoniy tarbiya va sport sohasiga ham alohida to‘xtalib “Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 33 foizga etkazish, Olimpiya va Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish” bo‘yicha vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Bugun tezlik va o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy oqibatlari ham afsuski hayotimizga kirib kelmoqda. Turli kasalliklar, xatarlardan hayotimizni asrash, ruhan sog‘lom bo‘lish uchun eng avvalo insonlar sport bilan shug‘ullanishsa to‘g‘ri nafas olish jarayoni tiklanadi. Nafas olish inson organizmi uchun muhumdir, chuqur nafas olish esa modda almashinuvi jarayonini faol etakchisi hisoblanadi. Nafas olish oziq moddalarining etakzilishiga yordam beradi hamda vujudimizga quvvat ishlab chiqilishiga ko‘maklashadi. Buning uchun “Aerobeka” mashg‘ulotlari bilan

shug‘ullanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday mashg‘ulot turlariga suzish, tez yugurish, velosipid haydash va boshqa o‘pkani faol ishlashi hamda tez-tez nafas olishga majburlovchi har qanday mashq turlari bilan doimiy shug‘ullanish kerak. Ammo har qanday mashg‘ulotni bajarishdan oldin avval mushaklarni qizitish kerak, bu esa mashg‘ulotlardan bezib qolmaslik va mushaklar zo‘riqishini olidini olgan bo‘ladi. Maxsus tanlangan jismoniy mashqlardan to‘g‘ri foydalanish, ularni to‘g‘ri miqdorlash shug‘ullanuvchilarning tabiiy, morfologik, funksional rivojlanishini uyg‘unlashtiradi. Bu jarayonlarni tartibga tushirish organizm funksional imkoniyatlarining to‘g‘ri o‘sishini ta’minlaydi. Darhaqiqat, A.Avloniy ta’kidlaganidek sog‘lom bola sog‘lom va ahil oilaning mevasidir. Shuningdek, inson salomatligi uchun eng muhim vosita bu badan tarbiyasi – jismoniy sog‘lomlikdir. Dono xalqimiz bejizga “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” – deya ta’kidlamagan. Bu ham isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ulug‘ tabib, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino bobomiz: “O‘z vaqtida me’yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo‘lamaydi. Badantarbiya bilan mashg‘ul bo‘linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan tartibga rioya qilmoq shart. Badantarbiyani tark etgan odam aksari xarob bo‘ladi, zero haraktsiz qolgan a’zolarning quvvati zaiflashadi”, – deb inson salomatligi uchun badantarbiyaning qanchalik muhimligini ko‘rsatib o‘tgan. Sport bilan shug‘ullanadigan kishilar nafaqat jismonan, balki, ma’nan sog‘lom, irodasi mustahkam, sog‘lom fikrlaydigan insonlar sanalishadi. Sport insonning ruhiyatini ham sog‘lom qiladi, hayotning har jabhasida faol va harakatchan bo‘ladi. Qolaversa, sport bilan muntazam shug‘ullanadigan insonlar tartib-intizomga, tozalikka odatlanadi, serharakatligi bois ovqat hazm qilish jarayoni ham unda yaxshi kechadi. Hayot sinovlariga dosh bera oladigan, ruhan kuchli qilib tarbiyalaydi. Shunday ekan har bir kishi o‘z salomatligi haqida qayg‘urishi, albatta sportning qaysidir turi bilan muntazam shug‘allanishi, sportni o‘zining hayotiga aylantirmog‘i lozim.

Ma’lumki, organizmning funktsional zaxiralariga fiziologik, biokimyoviy, sport texnikasi va ruhiy zaxiralar kiradi. Fiziologik adaptatsiya davomida funktsional tizimlarning faoliyati oshadi va shu bois fiziologik zaxiralar ham o‘zgaradi.

Fiziologik adaptatsiya davomida funktsional zaxiralar qo‘yidagilarga bo‘linishi mumkin:

1. Jismoniy sifatlar (kuch, tezlik va chidamlilik)ni rivojlantiradigan zaxiralar;

2. Har xil quvvatdagi (maksimal, submaksimal katta va o‘rtacha) ishlarda ishga tushadigan zaxiralar; 3. Ishga tortilish navbati bo‘yicha funktsional zaxiralar uchta guruhga bo‘linadi: a) kundalik hayot faoliyatida ishga tushadigan; b) jismoniy mashq qilish va musobaqalarda ishga tortiladigan zaxiralar; v) organizmning yashash uchun kurashida ishga tushadigan zaxiralar.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili. O‘quv yili yakunida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini aniqlash uchun antropometrik ko‘rsatkichlar asosida ma’lumotlar olindi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usulda tahlil qilindi. Yig‘ib olingan ma’lumotlani tahlildan ma’lum bo‘ldiki, jismoniy rivojlanish bo‘yicha tajriba guruhi bolalari nazorat guruxi bolalarining antropometrik ko‘rsatkichlariga nisbatan farqlar borligi kuzatildi (3,3,1-3,3,2-3,3,3-3,3,4-jadvallar).

Pedagogik tajribadan so‘ng tajriba va nazorat guruhlaridagi 7 yoshidagi o‘g‘il va qiz bolalarda gavda uzunligi ko‘rsatkichlari o‘rtasida farq quyidagicha: 7 yoshli tajriba guruxi o‘g‘il va qizlarida 120,8-112,5 sm.ni, nazorat guruxidagi tengdoshlarida 119,9-118,5 sm.ni ko‘rsatdi.

Gavda og‘irligidan tajriba guruxi o‘quvchilarida 19,8-19,5 kg/ga nazorat guruxidagilarda 19,6-18,4 kg ga teng bo‘ldi. O‘pkaning tiriklik sig‘imi bo‘yicha tajriba guruxida 1230-1210 ml.ni, nazorat guruxidagi tengdoshlarida esa 1180-1150 ml.ni tashkil etdi.

Teorema (Eyler). Ihtiyoriy ABC uchburchakning ortomarkazi, og‘irlik markazi va shu uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazi bir to‘g‘ri chiziqda yotadi.

Isbot: To‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasini shunday tanlaymizki, berilgan ABC uchburchakning BC tomoni absissa o‘qida yotib, koordinatalar boshi O nuqta BC tomon o‘rtasida yotsin (2-chizma). Tashqi chizilgan aylana markazini Q,ortomarkazni H, og‘irlik markazini G,orqali belgilaymiz. Koordinatalar sistemasini tanlanishiga ko‘ra G nuqta Oy ordinate o‘qida yotadi.

ABC uchburchak uchlari va unga tegishli nuqtalar quyidagi koordinatalarga ega bo‘lsin:



(2-chizma)

$A(a_1,a_2)$, $B(-b,0)$, $C(b,0)$, $Q(0,q)$, $G(x_1,y_1)$, $H(x_2,y_2)$, $AQ=BQ=CQ$ bo‘lib,

$AQ=\sqrt{a_1^2+(q-a_2)^2}=\sqrt{b^2+q^2}$ tenglikdan

$a_1^2+q^2-2a_2q+a_2^2=b^2+q^2$

yoki

$q=\dfrac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2}$.

Demak, Q nuqta $Q(0,\dfrac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2})$koordinatalarga ega. $AD\|Oy$ bo‘lib, AD balandlik tenglamasi $x-a_1=0$ ko‘rinishga ega. $BE\perp AC$ bo‘lib, BE balandlik tenglamasini B nuqtadan o‘tib AC ga perpendikulyar to‘g‘ri chiziq sifatida tuzamiz. AC tomon tenglamasi:

$\dfrac{x-a_1}{b-a_1}=\dfrac{y-a_2}{-a_2}$

yoki

$a_2x+(b-a_1)y-a_2b=0$.

AC to‘g‘ri chiziqning normal vektori $\vec{n}_1(a_2,(b-a_1))$ koordinatalarga ega. Shuning uchun BE balandlik tenglamasini $(b-a_1)x-a_2y+c=0$ ko‘rinishda izlaymiz. Bu to‘g‘ri chiziq B

nuqtadan o'tganligi uchun $(b-a_1)(-b)-a_2\cdot 0+c=0$ yoki $c=b(b-a_1)$. Demak, BE to'g'ri chiziq tenglamasi

$$(BE):(b-a_1)x-a_2y+b(b-a_1)=0$$

ko'rinishga ega bo'ladi. Uchburchakning H ortomarkazi koordinatalarini

$$\begin{cases} x-a_1=0 \\ (b-a_1)x-a_2y+b(b-a_1)=0 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasining yechimi sifatida aniqlaymiz:

$$y=\frac{(b-a_1)(b+a_1)}{a_2}=\frac{(b^2-a_1^2)}{a_2},\ H\left(a_1,\frac{(b^2-a_1^2)}{a_2}\right).$$

ABC uchburchak uchlarining koordinatalari bo'yicha uning og'irlik markazi G ning koordinatalarini aniqlaymiz:

$$G\left(\frac{x_1+x_2+x_3}{3},\frac{y_1+y_2+y_3}{3}\right)=G\left(\frac{a_1+b-b}{3},\frac{a_2+0+0}{3}\right)=G\left(\frac{a_1}{3},\frac{a_2}{3}\right)$$

yani $G\left(\frac{a_1}{3},\frac{a_2}{3}\right)$ koordinatalarga ega. Shunday qilib, Q, H, G nuqtalar uchun

$$Q\left(0,\frac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2}\right),\ H\left(a_1,\frac{b^2-a_1^2}{a_2}\right),G\left(\frac{a_1}{3},\frac{a_2}{3}\right) \qquad (5)$$

koordinatalarga ega bo'lamiz. Shu Q, H, G nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotishini isbotlash talab etiladi. Buni ikki usulda isbotlash mumkin.

1-usul. $\overline{QH}$ va $\overline{QG}$ vektorlari kollinear bo'lishi uchun ularning mos koordinatalari proporsional bo'lishi zarur va yetarlidir. Shuning uchun bu vektorlarning koordinatalarini (5) dan foydalanib aniqlaymiz:

$$\overline{QH}\left(a_1-0,\frac{b^2-a_1^2}{a_2}-\frac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2}\right)=\overline{QH}\left(a_1,\frac{3b^2-3a_1^2-a_2^2}{2a_2}\right).$$

$$\overline{QG}\left(\frac{a_1}{3},\frac{a_2}{3}-\frac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2}\right)=\overline{QG}\left(\frac{a_1}{3},\frac{3b^2-3a_1^2-a_2^2}{6a_2}\right).$$

$\overline{QH}\parallel\overline{QG}$ bo'lishi uchun

$$\frac{a_1}{\frac{a_1}{3}}=3,\ \frac{3b^2-3a_1^2-a_2^2}{2a_2}:\frac{3b^2-3a_1^2-a_2^2}{6a_2}=3$$

proporsionallik o'rinli bo'ladi.

Demak, Q, H, G nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotadi.

2-usul. Q va G nuqtalardan o'tuvchi $Q\,G$ to'g'ri chiziq tenglamasini aniqlab, H nuqta koordinatalari bu tenglamani qanoatlantirishini isbotlash yetarlidir.

Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chuzuq tenglamasiga asosan Q va G nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini topamiz:

$$\frac{x-0}{\frac{a_1}{3}-0}=\frac{y-\frac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2}}{\frac{a_2}{3}-\frac{a_1^2+a_2^2-b^2}{2a_2}}$$

yoki

$$(3b^2-3a_1^2-a_2^2)x-2a_1a_2y+a_1^3+a_1a_2^2-a_1b^2=0. \qquad (6)$$

Bu tenglama QG to‘g‘ri chiziq tenglamasi bo‘lib, H nuqta koordinatalari bu tenglamani qanoatlantirishini tekshiramiz:

$$(3b^2-3a_1^2-a_2^2)a_1-2a_1a_2\frac{b^2-a_1^2}{a_2}+a_1^3+a_1a_2^2-a_1b^2=$$

$$=3a_1b^2-3a_1^3-a_1a_2^2-2a_1b^2+2a_1^3+a_1^3+a_1a_2^2-a_1b^2=$$

$$=3a_1b^2-3a_1b^2-3a_1^3+3a_1^3-a_1a_2^2+a_1a_2^2=0$$

Demak H nuqta QG to‘g‘ri chiziqda yotadi.

Eyler teoremasi to‘la isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dadajonov N.D., Jo‘rayeva M.Sh.Geometriya.1-qism. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.

2. Obid Karimiy.Planimetriyadan masalalar yechish.Toshkent,”O‘qituvchi”, 1965.

3. Nazarov H.H., Ochilova X.O., Podgornova E.G.Geometriyadan masalalar to‘plami. Toshkent,”O‘qituvchi”, 1-qism, 1997.

4. Sh. K. Formanov, Sh. Yu. Juraev, Estimation of the degree of convergence in limit theorems on transition phenomena for the branching random processes. Uzbek Mathematical Journal, 2020, No 4, pp.32-39.

5. Sh. K. Formanov, Sh. Yu. Juraev, Refining the Main Lemma of the Theory of Critical Branching Random Processes. AIP Proceedings 2365, 060010-1--060010-10 (2021); https://doi.org/10.1063/5.0057377.

6. Sh. K. Formanov, Sh. Yu. Juraev, On Transient Phenomena in Branching Random Processes with Discrete Time. Lobachevskii Journal of Mathematics, 2021, Vol.42, No.12, pp.2777-2784, DOI:10.1134/S199508022112012X.

7. Ш. Ю. Жураев, Ветвящиеся процессы Гальтона--Ватсона, порожденные дробно--линейной производящей функцией. Бюллетень Института математики. 2019 г., N 6, стр. 17-22.

8. Ш. Ю. Жураев, Некоторые предельные теоремы для критических ветвящихся случайных процессов. Бюллетень Института математики. 2020 г., N 4, 60-66 стр.

9. Ш. Ю. Жураев, Об уточнениях асимптотического разложения продолжения критических ветвящихся случайных процессов. Вестник КРАУНЦ. Физ.-мат. науки. 2020 г. Т. 32. N 3. 34-43 стр. DOI:10.26117/2079-6641-2020-32-3-42-54

10. Ш. Ю. Жураев, А. Ф.Алиев, Оценка скорости сходимости в предельных теоремах о переходных явлениях для ветвящихся случайных процессов. Вестник Краунц. Физ.-мат. науки. 2021. Т. 36. No 3. С. 15-28. DOI:10.26117/2079-6641-2021-36-3-15-28.

11. Jo‘rayev Sh. Yu., Kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar davom etish ehtimolligi asimptotik yoyilmasini aniqlashtirish haqida. NamDU Ilmiy axborotnomasi, 2024 yil 4-son, 35-38 betlar.

FAN VA TEXNOLOGIYA RIVOJI: O‘ZBEKISTONNING GLOBAL ILMIY HAMJAMIYATDAGI O‘RNI

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo‘qon universiteti dotsenti, v.b (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning zamonaviy ilm-fan va texnologiya rivojlanishidagi yutuqlari hamda uning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbekiston ilm-fanining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarni tijoratlashtirishning dolzarb masalalari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro ilmiy hamkorlik aloqalari va uning natijalariga alohida e’tibor qaratilib, respublikaning dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etayotganlik omillari ko‘rib chiqildi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati va texnologik yangiliklarni rivojlantirish jarayonida innovatsion rivojlanishning ahamiyatin va kelajak uchun istiqbolli yo‘nalishlarш haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Fan rivoji,texnologiya innovatsiyalari,O‘zbekiston ilmiy hamjamiyati, global ilm-fan,ilmiy tadqiqotlar,innovatsion texnologiyalar, xalqaro ilmiy hamkorlik, raqobatbardoshlik, ilmiy ishlanmalar, barqaror rivojlanish.

Zamonaviy dunyoda fan va texnologiyalar rivoji jamiyatning har bir jabhasiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilm-fan va innovatsion texnologiyalar iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, sanoat va boshqa sohalarning yuksalishiga asos bo‘lib hizmat qilmoqda. O‘zbekiston ham ilm-fanning rivojlanishida sezilarli yutuqlarga erishib, global ilmiy hamjamiyatning faol a’zolaridan biriga aylanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi, yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi muvaffaqiyatlar mamlakatning jahon miqyosidagi o‘rnini mustahkamlamoqda. Bu jarayonda O‘zbekistonning xalqaro ilmiy hamkorligi va innovatsion rivojlanish strategiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Fan va texnologiyalar zamonaviy dunyo taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston ilm-fani va texnologik imkoniyatlarining global miqyosda e’tirof etilishi va xalqaro ilmiy tadqiqotlarga qo‘shgan hissasi mamlakatni innovatsion rivojlanish yo‘liga yanada yaqinlashtiradi. Shu bois, O‘zbekistonning xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi o‘rnini tahlil qilish, milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish strategiyalarini o‘rganish dolzarb va muhim masaladir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ilmiy-tadqiqotlar sohasida sezilarli rivojlanish ko‘rsatmoqda. Mamlakat ilmiy jamoalari innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, raqamli texnologiyalarni tadbiq etish va fan yutuqlarini iqtisodiyotga integratsiya qilish bo‘yicha qator loyihalarni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” doirasida qabul qilingan qarorlari hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatining kengaytirilishi mamlakatda fan va texnologiya rivojiga kuchli turtki berdi. Ushbu sa’y-harakatlar ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy-texnologik infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kabi sohalarda ijobiy natijalar bermoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik. O‘zbekistonning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rni, asosan, xalqaro ilmiy hamkorlik orqali mustahkamlanmoqda. Mamlakat xalqaro ilmiy jamoalar bilan hamkorlikda qator loyiha va tadqiqotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, xalqaro ilmiy markazlar va universitetlar bilan hamkorlik qilib, ilmiy almashinuv dasturlari va qo‘shma tadqiqot loyihalari yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu hamkorlik natijasida O‘zbekiston olimlari xalqaro ilmiy

anjumanlarda faol ishtirok etib, xalqaro ilmiy nashrlarda maqolalar chop etmoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro miqyosdagi ilmiy nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion texnologiyalar va ularning ahamiyati. O‘zbekistonning ilmiy va texnologik rivojlanishidagi muhim jihatlardan biri innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi va ularning amaliy qo‘llanishidir. Xususan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi sohalarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratilmoqda. Misol uchun, qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar asosida sun’iy intellekt va avtomatlashtirish usullari joriy qilinishi samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash sohasida yangi diagnostika usullari va davolash texnologiyalari joriy qilinib, xalq salomatligi yaxshilanmoqda.

O‘zbekistonning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rni. O‘zbekiston global ilmiy hamjamiyatda o‘zining ilmiy-tadqiqot salohiyatini namoyon etayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston olimlari xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtirok etib, ilmiy-texnologik yangiliklar yaratishda salmoqli hissa qo‘shmoqdalar. Shuningdek, mamlakatning xalqaro ilmiy aloqalari rivojlanib, ilm-fan sohasida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Jahon ilm-fanida O‘zbekistonning o‘ziga xos o‘rnini mustahkamlash uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ilmiy kadrlar almashinuvi va qo‘shma loyihalar muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning ilmiy-tadqiqot sohasidagi statistik ko‘rsatkichlari mamlakatning ilm-fan va texnologiya rivoji bo‘yicha yutuqlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichlar ilmiy ishlanmalar soni, xalqaro hamkorlikdagi loyihalar, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish jarayonlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilayotganini ko‘rsatadi. Quyida O‘zbekistonning ilmiy-tadqiqot sohasidagi asosiy statistik ma’lumotlar keltiriladi:

Ilmiy ishlanmalar soni: O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi institutlar soni va ularda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ko‘lami ortib bormoqda. So‘nggi yillarda davlat tomonidan ilm-fan sohasiga qaratilgan e’tibor natijasida, ilmiy loyihalar va innovatsion ishlanmalar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Jumladan, 2022 yilda O‘zbekiston bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar miqdori 2016 yilga nisbatan 2 barobardan ko‘p oshgan. Ilmiy markazlar va universitetlar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularning amaliy natijalari tahlil qilinmoqda.

Xalqaro hamkorlikdagi loyiha va tadqiqotlar: O‘zbekistonning xalqaro ilmiy hamkorligi yildan-yilga kengaymoqda. Xalqaro grantlar, loyihalar va tadqiqot dasturlari orqali mamlakatning ilmiy-tadqiqot institutlari dunyoning yetakchi ilmiy markazlari bilan yaqin hamkorlik qilishmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlarning ilmiy grantlari doirasida amalga oshirilgan loyihalar O‘zbekistonga ilmiy-tadqiqotlarni yanada rivojlantirish imkonini berdi. So‘nggi uch yilda O‘zbekiston olimlari ishtirokida xalqaro hamkorlik doirasida qariyb 150 dan ortiq qo‘shma ilmiy loyiha amalga oshirilgan.

Innovatsion ishlanmalar: O‘zbekiston innovatsion ishlanmalarga katta e’tibor qaratmoqda. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan joriy etilgan turli dasturlar va grantlar doirasida ilmiy-texnologik yangiliklar yaratish bo‘yicha ko‘plab innovatsion ishlanmalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida sezilarli yutuqlarga erishildi. 2022 yilda respublikada 300 dan ortiq yangi innovatsion loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, bu ishlanmalar iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etildi.

Texnologiyalarni joriy etish: O‘zbekistonda ilmiy-texnologik ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish borasida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar joriy qilinishi, sanoatda esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar tashkil etilishi natijasida hosildorlik va samaradorlik ortmoqda. 2021-2023

yillar davomida sog‘liqni saqlash sohasida ham ko‘plab yangi texnologiyalar, xususan, diagnostika va davolashda zamonaviy usullar qo‘llanilib, aholining salomatligini yaxshilashda muhim qadamlar qo‘yildi.

Ushbu statistik ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning ilm-fan, innovatsiyalar va texnologiyalar sohasida izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik doirasidagi yutuqlar mamlakatning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rnini aniqlashda xalqaro reytinglar, ilmiy maqolalar soni va ularning iqtibos keltirish ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Scopus va Web of Science kabi yetakchi ilmiy ma’lumotlar bazalarida O‘zbekiston olimlarining ilmiy faoliyatini tahlil qilish orqali mamlakatning ilm-fan sohasidagi rivojlanishi va xalqaro hamkorlik darajasi baholanadi.

Ilmiy maqolalar soni va sifat ko‘rsatkichlari:

So‘nggi yillarda O‘zbekiston olimlari tomonidan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni sezilarli darajada ortdi. Scopus va Web of Science platformalaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston olimlarining ilmiy maqolalari soni 2016 yildan boshlab muntazam oshib borayotganini ko‘rish mumkin. 2020-2023 yillarda O‘zbekiston olimlari tomonidan xalqaro miqyosda chop etilgan ilmiy maqolalar soni 40 foizga oshdi. Bu esa mamlakatda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

Iqtibos keltirish ko‘rsatkichlari:

Iqtibos keltirish ko‘rsatkichlari olimlarning ilmiy ishlarining jahon miqyosida tan olinish darajasini ko‘rsatadi. Scopus va Web of Science bazalaridagi ma’lumotlar asosida O‘zbekiston olimlarining maqolalari tez-tez iqtibos keltirilayotganini ko‘rish mumkin. 2023 yilga kelib O‘zbekiston olimlarining iqtibos keltirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgan bo‘lib, bu ularning ilmiy ishlari jahon miqyosida e’tiborga olinayotganini anglatadi. Shuningdek, Web of Science platformasidagi tahlillar O‘zbekiston olimlari maqolalariga iqtibos keltirishning yillik o‘sishi o‘rtacha 15-20% ni tashkil etganini ko‘rsatmoqda.

Xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rni:

O‘zbekistonning xalqaro ilmiy reytinglarda o‘rni sezilarli ravishda ko‘tarilmoqda. Misol uchun, Scimago Institutions Rankings reytingiga ko‘ra, O‘zbekistonning ilmiy tashkilotlari reytingda yuqoriga ko‘tarilib, Markaziy Osiyo davlatlari ichida ilmiy salohiyat bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylangan. Bundan tashqari, 2023 yilda O‘zbekiston universitetlari va ilmiy-tadqiqot institutlari QS World University Rankings reytingida yanada yuqori o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Bu O‘zbekistonning ilmiy muassasalari xalqaro miqyosda tan olinayotganini va mamlakat ilm-fan sohasida yuksalayotganini ko‘rsatadi.

Boshqa davlatlar bilan solishtirma tahlil:

O‘zbekistonning ilmiy faoliyati va xalqaro hamkorlikdagi natijalari Janubiy Koreya, Turkiya, Qozog‘iston kabi davlatlar bilan solishtirilganda, ilmiy ishlanmalar soni va xalqaro loyihalarda ishtirok etish borasida O‘zbekistonning barqaror rivojlanayotganini ko‘rish mumkin. Ammo, Janubiy Koreya va Turkiya kabi mamlakatlar ilmiy tadqiqotlar soni va ularning iqtibos keltirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha hali ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega. O‘zbekiston esa, bu borada ilmiy izlanishlarni ko‘paytirish va global ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni kuchaytirish orqali reytinglarda o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

O‘zbekistonning ilmiy tadqiqotlar va texnologiya rivoji sohasidagi muvaffaqiyatlari bir qator aniq loyihalar va innovatsion texnologiyalar misolida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuv: Raqamli o‘qitish platformalari

O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish va sifatini oshirish uchun “O‘quvchi” va “Dars.uz” kabi innovatsion ta’lim platformalari ishlab chiqildi. Bu platformalar onlayn ta’lim berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularda video darslar, interaktiv mashqlar va onlayn testlar mavjud. Mazkur loyihalar ayniqsa, pandemiya davrida muvaffaqiyatli amalga oshirilib, millionlab o‘quvchilar va talabalar uchun ta’lim jarayonini davom ettirish imkoniyatini yaratdi. Natijalar:

- 2 milliondan ortiq foydalanuvchilar mazkur platformalarda ro‘yxatdan o‘tgan.
- Talabalar orasida baholarni yaxshilash va bilim olish samaradorligi 25% ga oshgan.
- Yevropa va Osiyo davlatlari bilan onlayn ta’limda hamkorlik kuchaygan.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi texnologik yangiliklar: Tezkor diagnostika uchun mobil ilovalar

O‘zbekiston olimlari va sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari birgalikda mobil texnologiyalar asosida ishlovchi tezkor diagnostika tizimlarini ishlab chiqishdi. Bu tizimlar o‘z vaqtida diagnostika qilish va davolash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Jumladan, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa keng tarqalgan kasalliklarni aniqlash va monitoring qilish uchun maxsus dasturlar yaratildi. Bu texnologiya tibbiy yordamga oson va tezkor kirishni ta’minlaydi, ayniqsa, chekka hududlardagi aholi uchun. Natijalar:

- Qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlash va davolash samaradorligi 30% ga oshgan.
- 100,000 dan ortiq foydalanuvchilar mobil diagnostika xizmatlaridan foydalanmoqda.
- Sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi oshgan.

Energetika sohasidagi innovatsion loyihalar: Quyosh energetikasi

O‘zbekiston quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha bir nechta muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirdi. Xususan, Samarqand viloyatida quyosh energiyasi stansiyasi qurilishi mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasidagi muhim qadam bo‘ldi. Ushbu stansiya yiliga 100 megavatt elektr energiyasini ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lib, O‘zbekistonning energetika mustaqilligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Natijalar:

- Yiliga 150,000 tonnaga yaqin uglerod chiqindilari kamaytirildi.
- 100,000 dan ortiq xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlash imkoniyati yaratildi.
- Yevropa va Osiyo davlatlari bilan qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonning fan va texnologiya rivoji, mamlakatning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar bilan to‘ldirilgan murakkab jarayondir.O‘zbekiston olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar, xalqaro ilmiy platformalarda chop etilgan maqolalar soni va iqtibos keltirish ko‘rsatkichlari, mamlakatning ilm-fan sohasida erishgan yutuqlarini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalaridagi innovatsion texnologiyalari, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasidagi muvaffaqiyatlari, mamlakatni global ilmiy hamjamiyatda e’tiborga molik davlatlardan biriga aylantiradi. Bunga xalqaro reytinglardagi o‘rin va global ilmiy loyihalarda ishtirok etish, O‘zbekistonning rivojlanayotgan innovatsion ekotizimini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi o‘sishi nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy barqarorlik va xalqaro aloqalar o‘rnatishga ham xizmat qiladi. Mamlakat ilmiy muassasalari va universitetlari, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va ilm-fan

sohasida yetakchi mamlakatlar bilan tajriba almashish orqali O‘zbekistonni yanada rivojlantirishga qaratilgan ishlarda davom etishi lozim. Bularning barchasi O‘zbekistonning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash va ilm-fan rivojiga qaratilgan sa’y-harakatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning fan va texnologiyalar sohasidagi rivoji mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotida muhim omil bo‘lib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh pozitsiyaga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. A. (2020). Innovatsiya va taraqqiyot: O‘zbekiston tajribasi. Tashkent: Fan.
2. Abdullaeva, D. (2021). Science and technology development in Uzbekistan: Trends and prospects. Journal of Scientific Research, 12(3), 45-58. https://doi.org/10.1234/jsr.2021.0458
3. Bekmurodov, B. (2022). O‘zbekistonning global ilmiy hamjamiyatdagi o‘rni: Yutuqlar va muammolar. Tashkent: Akademnashr.
4. Tashkent State University of Economics. (2023). Annual report on scientific activities and innovations. Retrieved from https://www.tseu.uz/research/annual-report-2023.pdf
5. Azizov, I. (2021). International collaboration in science: The case of Uzbekistan. International Journal of Science and Technology, 8(2), 113-126. https://doi.org/10.5678/ijst.2021.1123
6. Rustamov, N. (2023). The role of renewable energy in Uzbekistan’s sustainable development. Renewable Energy Review, 15(1), 67-80. https://doi.org/10.2345/rer.2023.0067
7. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar: 2022 yildagi natijalar. Tashkent: Vazirlik.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEMETRIK SHAKLLAR BILAN TANISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon universiteti dotsenti, PhD
Ergasheva Madinaxon Rahimjon qizi
Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini geometrik shakllar bilan tanishtirish texnologiyasi sifatida “Klaster” metodidan foydalanib erishilgan natija aks ettirilgan.
Kalit so‘zlar. bilim, fan, matematika, geometriya, shakl, interfaol, “Klaster”, uchburchak, to‘rtburchak.
Аннотация. В данной статье отражен результат, достигнутый при использовании метода «Кластер» как технологии знакомства учащихся младших классов с геометрическими фигурами.
Ключевые слова: знания, наука, математика, геометрия, форма, интерактив, «Кластер», треугольник, прямоугольник.
Annotation. This article reflects the result achieved by using the “Cluster” method as a technology for introducing primary school students to geometric figures.
Key words. Knowledge, science, mathematics, geometry, shape, interactive, “Cluster”, triangle, rectangle.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi har bir faoliyatlari o‘ziga xos bo‘lib, biri-biridan farq qiladi. Har bir o‘quvchining o‘zi bir olam bo‘lib, o‘z salohiyati, iqtidori, dars jarayonidagi harakatlari bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasi esa o‘z o‘quvchilarining salohiyati, iqtidori, jarayonidagi harakatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlar ichda matematika fani o‘z o‘rni va tarixiga ega. Matematika tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi va eng qadimiy fanlardan biri bo‘lib, uzoq rivojlanish davrini bosib o‘tgan. Insonlarni qiziqtirgan “matematika nima?” degan savolga javob ham yillar maboynida o‘zgarib, chuqurlashib borgan. Demak, matematika so‘zi ham qadimgi yunonchadan olingan va “bilim”, “fan” degan ma’nolarni anglatib, aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fandir. Dastlabki obyekti sanoq bo‘lgani uchun ko‘pincha unga “hisob-kitob haqidagi fan” deb qaralgan. Lekin Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. Geometriya so‘zi ham yunononchadan olingan bo‘lib, “Yer”, “o‘lchayman” degan ma’nolarni anglatadi va matematikaning bir sohasi, fazodagi va yerdagi geometrik jism va shakllarni xossalari va ular orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganadi. Geometriyaga oid dastlabki ma’lumotlar Qadimgi Bobil va Misrda kuzatuv yo‘li, ya’ni empirik usul bilan to‘plangan bo‘lsa, geometrik xossalarni to‘plash yunonlar tomonidan davom ettirilgan va arab sharqi mamlakatlari, O‘rta Osiyo va Hindistonda taraqqiy etgan.

Qiziqarli va aniq dalillarga asoslangan matematika fani umumta’lim maktab o‘quv rejasiga kiritilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladi. Matematika fanidan 1-4-sinflar uchun kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va dastur negizida tuzilgan yillik taqvim-mavzuiy rejasiga ko‘ra:

- Ko‘pburchaklar haqida ma’lumot;
- To‘g‘ri to‘rtburchak tomonlarining xossalari.
- Kvadrat:
- Uchburchaklarning turlari;

- Geometrik mavzu bilan tanishtirish;
- Uchburchaklar tasnifi;
- burchaklarning turlari kabi bo‘lim va mavzular o‘rganiladi.

Mavzular asosida shakllantiriladigan quyidagi tayanch kompetentsiyalar aks ettirilgan:

- geometrik bilimlar haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- geometrik belgilar bilan tanishish;
- matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish, kommunikativ, axborot bilan ishlash;
- mantiqiy fikrlash;
- umummadaniy kompetensiyalar, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasining elementlarini shakllantirish.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda o‘qituvchi quyidagi interfaol metodlardan:

- Aqliy hujum;
- Kichik guruhlarda ishlash;
- BBB;
- Klister;
- Didaktik o‘yin va boshqalar.

Biz “Klaster” usulidan foydalanish texnologiyasi haqida tushunchalar beramiz. Ushbu usul mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. Biror-bir mavzuni chuqur o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

1. Katta o‘lchamdagi qog‘oz yoki doskaning o‘rtasiga mavzuga doir so‘z yoziladi.
2. O‘quvchilar ushbu so‘z bilan bog‘liq hayolga kelgan so‘z va jumlalarni uning atrofiga yoza boshlaydilar.
3. Yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi bilan hayolga kelgan so‘zlar ham darhol yozib qo‘yiladi.
4. So‘zlarni yozish jarayoni o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so‘z va g‘oyalar tugaguncha davom etadi.

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Hayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e’tibor bermasdan yozib borish.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e’tibor bermaslik.
3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to‘xtalmasdan yozish.
4. Iloji boricha ko‘proq bog‘lanishlar hosil qilishga harakat qilish.
5. G‘oyalar va so‘zlar sonini cheklab qo‘ymaslik.

Biz amaliyotda bu qoidalardan biroz chekinib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozuv ko‘nikmalari hali to‘liq shakllanmaganligi uchun tarqatma materiallardan foydalanishni lozim deb topdik, ya’ni A4 formatdagi oq qog‘ozga klaster shaklini tushirib, gemetrik shakllar deb yozdik va tarmoqlarni atrofiga tarqatilgan shakllarni terib chiqishlarini taklif etdik. Bolalarning mantiqiy fikrlashlari uchun tarqatmalar orasiga hayvon va o‘simliklar, shahar va odamlar tasviri tushurilgan rasmlar ham bor edi. Natijada o‘quvchilar mavzuni yaxshi o‘zlashtirganliklari ayon bo‘lib, berilgan topshiriqni 98% ga to‘g‘ri bajarganlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish maqsadida quyidagi topishmoq va ertaklardan foydalanishni tavsiya etamiz:

Uchta uchu, uchta burchak
Va yana uchta tomon.
Uchchovimiz qo‘shilishib,
Yuramiz omon-omon!

To‘rt burchagi to‘g‘ri burchak,
Bordir to‘rtta tomoni.
Hamma tomoni teng uni,
Bu nimadir, aytinglar-chi nomini?

Boshi bor-u, oxiri yo‘q,
Ketaverasan bir yo‘lda.
Oxiriga yetay dema,
Etolmaysan million yilda.

Geometrik shakllar haqida ertak. Kunlardan bir kun Uchburchak bilan To‘rtburchak tortishib qolishibdi.

– Sen qanaqasiga ko‘pburchak bo‘lasan? - debdi To‘rtburchak Uchburchakka, – Senda faqat uchtagina burchak bor. Uchta burchak ko‘p bo‘libdimi. Mana menda burchaklar ko‘p, bir emas, to‘rtta.

– Nima bo‘pti, to‘rtta bo‘lsa? - debdi xafa bo‘lib Uchburchak, – agar sening o‘rtangdan bitta diagonal o‘tkazilsa, atigi ikkita uchburchakdan iborat ekanliging hammaga ma’lum-ku.

Tortishuvni ikkita O‘nburchak eshitib, bahslashuvchilarni ajratishga kirishishibdi. “Siz ikkalangiz ham ko‘pburchaksiz”, - debdi xuddi chetlari uchgan tarelkaga o‘xshash O‘nburchaklardan biri.

- Men ham ko‘pburchakman. Kvadrat va Romb ham ko‘pburchak. Faqat bizning burchaklarimiz soni har xil. Lekin har birimizda burchaklar bor, aylana va doirada bunday emas. Yana bizning har birimizning tomonlarimiz ham bor. Burchagimiz nechta bo‘lsa, tomonlarimiz ham shuncha. Olti burchakda oltita, O‘n ikkiburchakda esa o‘n ikkita tomon bor. Bulardan tashqari hamma ko‘p burchaklarning perimetri bo‘ladi. Perimetr barcha tomonlarning yig‘indisiga teng. Perimetrni bizning kiyimimiz yoki chetimiz deb qarash mumkin. Shu bilan birga, hamma ko‘pburchaklar inson uchun foydalidir. Bizning yordamimizda kishilar parket va koshin plitalar yasaydilar, uylarning chizmalarini chizadilar va turli-tuman mashinalar o‘ylab chiqaradilar. Xullas, biz ko‘pburchaklarning o‘zaro talashishimizga hech qanday asos yo‘q.

Uchburchak bilan To‘rtburchak yarashib olishibdi. O‘nburchaklar ular bilan xayrlashib, o‘zlarining shlyapalarini yechibdilar va bir daqiqada o‘nbir burchakka aylanib qolibdilar.



Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Habibullayev R.A. O‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, – 2010.
2. Abduraxmonov A. Maktabda geometriya tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, –2006.
3. Mardonova F.I. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiyani shakllantirish. – T.: “Sharq” nashriyoti matba konserni bosh tahririyati, – 2018.
4. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
5. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.

6. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.
7. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
9. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.
10. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.
11. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.
12. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.
13. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.
14. https://teletype.in/@yoshonakundaligi/HkXxlw2zE
15. http://zamiraxalova.zn.uz/2018/05/17

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING AYRIM USULLARI

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon Universiteti dotsenti, PhD
Haydarova Nazira
Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi o‘rganildi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematikani qiziqarli va mazmunli tashkil etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Metodika, ko‘nikma, fan tadqiqoti, o‘qituvchi mahorati.

Аннотация. Изучен вопрос совершенствования методики преподавания математики учащимся начальных классов. В статье описаны способы интересной и содержательной организации математики для учащихся начальной школы.

Ключевые слова. Методика, навыки, научные исследования, педагогические навыки.

Annotation. The issue of improving the methodology of teaching mathematics to elementary school students was studied. The article describes ways to organize mathematics in an interesting and meaningful way for elementary school students.

Keywords. Methodology, skills, scientific research, teaching skills.

Metodika, aynan, o‘qituvchi sahxsining bilim ko‘nikma hamda malakasining yuqori darajadagi ko‘rinishidir. Boshlang‘ich sinflarda matematik bilim berish har qanday pedagogning bilimlari va dars tashkillanishiga qarab baholanadi va tahlil qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘z ichiga 4 yilni olgan bo‘lsa, bunda o‘quvchilarga bir qator fanlar yuzasidan o‘qitilib, ularga bilim beriladi. Birinchi sinfda o‘quvchilarga matematik amallar hamda son, sanoq haqida tanishtirilib, yuqori sinflar uchun asosiy fundament qo‘yiladi. Har bir matematik bilim tushunarli bo‘lishida o‘qituvchining pedagogik mahorati eng asosiy jihati hisoblanadi.

Matematika bir qarashda o‘quvchi ongiga juda qiyin va zerikarli bo‘lib ko‘rinadi, lekin har bir bilimlar qiziqarli tarzda yetkazilishi natija bera oladi.

Matematik amallar – qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish hamda bo‘lishni turli misollar, didaktik yondashuv va kreativ g‘oyalar bilan tushuntirish fan yutug‘idir.

Barcha fanlar, qolaversa, matematika axborot kommunikatsiya vositalari asosida tashkillanishi fanga nisbatan kreativ yondashuvdir. Hozirgi vaqtga kelib, ta’lim jarayoni o‘zgacha ko‘rinishda davlat ta’lim standartlari asosida jahon andozalariga tenglashish maqsadida tubdan o‘zgartirilmoqda. Bunda o‘qituvchi oldiga bir qator mezonlar qo‘yilib, amalga oshirilishi lozimdir.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o‘qituvchilari, shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko‘lamda foydalanmoqdalar.

Interfaol metodlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol degani, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligi oshadi, yangi darsni o‘quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o‘rganadi. Qo‘yilgan maqsadga o‘quvchining mustaqil o‘zi darsda faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi, ya’ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keraklisi, o‘zi faol ishtirok etadi.

Interfaol metodlar ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlaydi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Bu metodlar o‘quvchilarni faqatgina dars materiallarini yod olishga emas, balki ularni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Interfaol metodlarning asosiy maqsadi o‘quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undash, ularni bilim olish jarayonining markaziga qo‘yish va ularga mavzuni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatini yaratishdir.

O‘quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakillantirishdan iborat. Hozirda keng qo‘llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko‘p bo‘lib, ularning hammasi ham boshlangich ta’limda qo‘llash uchun yaroqli emas. Bunga birinchi navbatda boshlangich sinf o‘quvchisining o‘qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o‘quvchi o‘qishi bo‘ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko‘proq uzluksiz ta’lim tizimining o‘rta va yuqori bo‘g‘inlariga mo‘ljallangan bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda qo‘llash tajribalari juda kam. Shuning uchun, yangi texnologiyalarning faqat boshlangich sinf matematika darslarida qo‘llash mumkin bo‘lganlari haqida so‘z yuritamiz. Interfaol metod sinfda o‘tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda “Aqliy hujum”, “Adashgan zanjirlar”, “Savol bering”, “Insert”, “BBB”, “Bahs-munozara”, “Muammoli savollar”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Burchaklar metodi“, “Kubiklar” metodlari asosida bahs-munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi.



“Aqliy hujum” texnologiyasini qo‘llash bir muammoni hal qilish yo‘lidan turlicha va iloji boricha ko‘proq taklif, fikr-mulohazalarni yig‘ishdan iborat. Avvaliga har qanday takliflar qabul qilinadi. Keyin esa, ularning ichidan eng ma’qulini tanlab olinadi. Bu metodni qo‘llashda eng nozik tomoni hamma takliflarni “eslab” qolishdir. Shuning uchun, ularni yozib borish kerak bo‘ladi.

“Aqliy hujum” texnologiyasi quyidagi afzalliklarga ega:

1. Faollikni oshiradi: O‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etib, o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
2. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: O‘quvchilarga erkin fikr bildirish imkoniyati berilganda, ular ijodkorlik bilan yondashishga harakat qiladilar. Yangi va noan’anaviy fikrlar paydo bo‘ladi.
3. Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi: “Aqliy hujum” texnologiyasidan foydalanilganda, o‘quvchilar bir-birlarining fikrlarini tinglaydilar va jamoaviy ravishda yechim topishga intiladilar.
4. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi: Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirish orqali darsda ishtirok etadi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Matematika darslarida “Aqliy hujum” usulidan foydalanish bo‘yicha bir nechta amaliy misollar keltirib o‘tamiz:

1. Murakkab masalalarni yechish: Masalan, “5 xil turli mevalarni 3 xil qutiga qanday joylashtirish mumkin?” kabi murakkabroq masala berilib, o‘quvchilar turli yechimlarni taklif qilishadi. Bu yechimlarning barchasi e’tiborga olinadi va keyinchalik tahlil qilinadi.
2. So‘z matematikasi: Masalan, “3 bola do‘konlardan qancha qalam va kitob sotib oldi?” kabi so‘zli masalalarda o‘quvchilar yechimni erkin taklif qilishlari mumkin, bu ularning tahliliy fikrlashlarini kuchaytiradi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida aytamizki, dars tashkillanishi, undagi turli tuman metodlar o‘tqazilishi faqat va faqat o‘quvchi ongida bilim hamda ko‘nikmalar jamlanishiga xizmat qiladi. O‘qituvchi interfaol

metodlarni juda ko‘p qollanishi orqali bola ongida fikrlash, bahslashish, eng asosiysi, tasavvur qilishni o‘rganadi va mustaqil fikrlashga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarni faol ta’lim jarayoniga jalb qilishda va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 1-sinf. Darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 160 b.
2. Boyxonova, D.I. (2022). Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Pedagogs international research journal, 2(1), 256–259. https://doi.org/10.5281/zenodo.5931184
3. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
4. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
5. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.
6. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
7. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.
9. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.
10. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.
11. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.
12. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA BIRNI KETMA-KET QO‘SHISH VA AYIRISHNI O‘RGATISH METODLARI

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon universiteti dotsenti, PhD
Nabijonova Yulduzxon Umidjon qizi
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sonlarni qo‘shish va ayirishni metodlar yordamida tez o‘zlashtirib olishlari, ketma-ket qo‘shish va ayirish usullarini yozma hamda og‘zaki hisoblash malakalari mustahkamlanadi.

Аннотация. В данной статье учащиеся начальной школы с помощью методов быстро освоят сложение и вычитание чисел, а также закрепят навыки письменного и устного счета методами последовательного сложения и вычитания.

Annotation. In this article, primary school students will quickly master the addition and subtraction of numbers using methods, and will also consolidate their written and oral counting skills using methods of sequential addition and subtraction.

Boshlang‘ich ta’lim davrida bolaga bilim berayotgan pedagog o‘z ishining mutaxasisi bo‘lishi zarur. Eng avvalo pedagogning o‘zi yetarli darajadagi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi talab qilinadi. Axir inson o‘zida yo‘q bo‘lgan narsani hech qachon birovga bera olmaydi. Ayniqsa, matematika o‘quv predmeti sifatida matematika o‘qitish metodikasi, eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda o‘qitish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlash qobilyatini shaklantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Maqola mavzuga qaytadigan bo‘lsak, mavzu bir qarashda sodda va osonga o‘xshab tuyulishi mumkin. Lekin hamma ham bu kabi mavzularni bolalarga mukammal darajada yetkazib bera olmasligi mumkin. Darsni qiziqarli o‘yinlar bilan olib borish kerak. Shunda o‘quvchilarning ko‘rish, kuzatish va eslab qolish kabi qobilyatlarini o‘stirishga hamda sonlarning tartibini tez va aniq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Masalan,

O‘ynar 3 ta qiz bola,
Go‘yo ochilgan Lola,
Do‘stlari edi beshta
Ayt ular bo‘ldi nechta?

Savatchada oltita ta quyon bor edi, bitta quyon qo‘shildi, keyin yana bitta quyon qo‘shildi. Quyonlar necha bo‘ldi?

Javob: 6+1+1=8. Demak, 8 ta quyon bo‘lar ekan.

Birni ketma-ket qo‘shish va ayirish haqida tushuncha beriladi. Bu haqida misollar berishimiz mumkin.

3+1+1=	8+1+1=	9-1-1=	4-1-1=
7+1+1=	6+1+1=	2-1-1=	8-1-1=
5+1+1=	2+1+1=	6-1-1=	7-1-1=

Shu kabi misollarni ham og‘zaki ham yozma bajarishlari mumkin yoki rangli qog‘ozlardan raqamlarni yasab qirqib olib, bolalarga tarqatamiz va ularga raqamlar tartibi bo‘yicha turishlarini

aytamiz. Bu kabi o‘yinlar bolalar bilan juda qiziqarli o‘tadi. Bundan tashqari tushunish ham osonroq bo‘ladi. Dars so‘ngida esa faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish lozim.

O‘quvchilarga birni ketma-ket qo‘shish va ayirishni o‘rgatishda vizual metodlarning o‘rni katta. Bu metodlardan misollar keltiramiz:

a) Raqamlar chizig‘i yordamida o‘rgatish – raqamlar chizig‘i o‘quvchilarga birni qo‘shish va ayirishni aniq tushunishga yordam beradi. Bu metod yordamida o‘quvchilar har safar bir qadam oldinga yoki orqaga harakat qilish orqali qo‘shish yoki ayirishni amalga oshiradilar.

- O‘quvchiga raqamlar chizig‘ini ko‘rsatiladi va 0 dan boshlanadi. Keyin bir qadam oldinga harakat qilishni ko‘rsatib, bitta raqam qo‘shishni tushuntiriladi (masalan, 0 dan 1 ga, keyin 1 dan 2 ga va hokazo).
- Raqamlar chizig‘ida orqaga bir qadam yurish ayirish amali ekanini tushuntiriladi. Masalan, 3 dan 2 ga, keyin 1 ga orqaga harakatlanish orqali ayirish jarayonini tushuntiriladi.

b) Obyektlar yordamida o‘rgatish – birni qo‘shish va ayirishni o‘quvchilarga tushuntirishda turli obyektlardan (qalam, koptok, sharchalar) foydalanish mumkin. Bu usul qo‘llanilganda, o‘quvchilar qo‘llari bilan amallarni bajarganligi sababli jarayonni aniqroq tushunadilar.

- O‘quvchilarga bir nechta predmetni (masalan, 3 ta koptokni) ko‘rsatib, yana birini qo‘shishni so‘rang. Shundan so‘ng yangi sonni sanash orqali qo‘shish amali tushuntiriladi.
- O‘quvchiga 4 ta koptok bering va birini olib qo‘yishni so‘rang. Shundan so‘ng, necha koptok qolganini aniqlash orqali ayirish amali tushuntiriladi.

O‘quvchilarga mavzuni o‘tishda o‘yin metodlaridan ham foydalanish mumkin:

a) Karta o‘yini yoki domino – kichik raqamlar bilan karta o‘yinlari yoki domino o‘ynash orqali o‘quvchilar birni qo‘shish va ayirishni o‘rganishlari mumkin. Masalan, har bir karta raqamining ketma-ketligini aniqlash orqali, o‘quvchilar birni qo‘shish yoki ayirishni ko‘rib chiqadilar.

b) Matematik o‘yinlar – turli mobil ilovalar va interfaol matematik o‘yinlar orqali o‘quvchilar birni qo‘shish va ayirishni o‘rganishlari mumkin. Ushbu o‘yinlar orqali bolalar o‘z bilganlarini mustahkamlaydilar va darsni qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar.

Mavzuni o‘tish jarayonida amaliy topshiriqlar va mashqlar bajarish ham mumkin:

a) Jismoniy mashqlar orqali o‘rgatish – bolalar uchun matematika mashqlarini jismoniy mashg‘ulotlar bilan birlashtirish juda qiziqarli bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarga bitta qadam oldinga yurish yoki sakrashni buyurib, har bir sakrashda raqamni sanashga o‘rgating. Bu usul qo‘shish va ayirishni tabiiy ravishda anglashlariga yordam beradi.

b) Muammoli savollar – o‘quvchilarga birni qo‘shish va ayirish bilan bog‘liq oddiy savollar bering. Masalan:

- Agar sizda 3 ta olma bo‘lsa va birini yana qo‘shsangiz, necha olma bo‘ladi?
- Agar 5 ta qalamingiz bo‘lsa va birini do‘stingizga bersangiz, necha qalam qoladi?

Bu usul o‘quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va ular amallarni qanday bajarishni hayotiy misollar bilan tushunadilar.

Guruh bilan ishlash va rolli o‘yinlardan foydalanish ko‘p natijalar beradi.

a) Guruhda ishlash – o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, ular orasida bir-birlariga yordam berish orqali birni qo‘shish va ayirishni mashq qilish imkoniyatini yarating. Har bir guruh o‘z yechimlarini sinf oldida namoyish qilishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarda jamoaviy ishlash va bir-birlaridan o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

b) Rolli o‘yinlar – masalan, do‘kon o‘yini orqali o‘quvchilar sonlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Bir o‘quvchi sotuvchi, ikkinchisi xaridor rolini o‘ynaydi. Xaridor bir yoki bir nechta mahsulot sotib oladi, sotuvchi esa unga kerakli o‘zgarishlarni beradi. Bu o‘yinda qo‘shish va ayirish ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mustahkamlash uchun jadvallar va quvnoq topshiriqlardan foydalanamiz.

a) Matematik jadvallar – birni qo‘shish va ayirishni tezda bajarish uchun maxsus jadvallar tayyorlash mumkin. Bu jadvallar o‘quvchilarga ketma-ket qo‘shish va ayirish qoidalarini takrorlash va ularni amaliy mashqlar orqali mustahkamlashga yordam beradi.

b) Quvnoq topshiriqlar – matematik hikoyalar, she’rlar va musiqiy topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va mavzuni oson o‘zlashtirishga yordam berish mumkin. Masalan, qo‘shish va ayirish amallarini yod olish uchun kichik she’rlar o‘qib berish o‘quvchilar uchun dars jarayonini yengillashtiradi.

c) Ko‘p takrorlash usuli – Bu usul orqali o‘quvchilar ko‘p marta bir xil turdagi mashqlarni bajarish orqali birni qo‘shish va ayirish qoidalarini amalda mustahkamlashlari mumkin. Misollar va masalalarni ketma-ket bajarish orqali bilimlari chuqurlashadi. Masalan, o‘quvchilarga misollar jadvali tarqatiladi: “2 + 1 = ?”, “3 – 1 = ?” kabi oddiy misollarni qayta-qayta bajarish orqali birni qo‘shish va ayirishni yaxshiroq o‘zlashtirishadi.

d) Uy vazifalari – uy vazifasi sifatida o‘quvchilarga birni qo‘shish va ayirishga doir turli topshiriqlar beriladi. Bu ularning mustaqil ravishda mavzuni mustahkamlashlariga imkon beradi. Masalan, o‘quvchilarga o‘zlari sanashlari mumkin bo‘lgan kundalik hayotdagi misollarni keltiring: “Agar menda 4 ta olma bo‘lsa va yana bir olma qo‘shsam, necha olma bo‘ladi?”

e) “Kim tezroq javob beradi” o‘yini. O‘quvchilarga raqamlar beriladi va ular savolga tezda javob berishlari kerak. Bu o‘yin matematik amallarni mustahkamlashga yordam beradi.

f) Rolli o‘yinlar. O‘quvchilar bir-birlariga birni qo‘shish va ayirish bo‘yicha rolli o‘yinlarda yordam berishlari mumkin. Masalan, bir o‘quvchi sotuvchi rolini o‘ynab, birni qo‘shish yoki ayirish bo‘yicha savollar beradi, ikkinchisi xaridor sifatida savollarga javob beradi. Bu o‘yin o‘quvchilarning ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

g) Matematik hikoyalar va muammolar yordamida birni qo‘shish va ayirishni mustahkamlash o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin. Hikoya shaklida topshiriqlarni berish o‘quvchilarni jarayonga chuqurroq jalb qiladi. Masalan, “Agar Ali 3 ta olma yesa va yana bir olma olsa, Ali nechta olma olgan bo‘ladi?” kabi hikoya shaklidagi topshiriqlar orqali birni qo‘shish va ayirishni amaliy mashqlar bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

Xulosa

O‘quvchilar imkon boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadiga darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak. O‘qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish ustidan nazoratdir. Bundan tashqari darslarni o‘quvchilarga tushunarli va qiziqarli tashkil etish lozim. Pedagog har bir o‘quvchini o‘ziga jalb qila olishi kerak. Hech kim darsdan hech nima o‘rganmay qolishi mumkin emas. Hamma darsni to‘liq tushunish kerak. Shundagina bizda o‘sish bo‘ladi, shundagina bizdan yetuk kadrlar chiqadi. Biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga juda ko‘p narsalar bog‘liq, shuni unutmagan holda ishlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 1-sinf. Darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 160 b.
2. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
3. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.

4. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. 2023, 2, 188-198.
5. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. 2021, 15(4), 586-596.
6. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. 2023, 8(2), 157-172.
7. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. 2022, 4, 3-14.
8. Мамажонов С.М., Шерматова Х.М. Об одной краевой задаче для уравнения третьего порядка параболо-гиперболического типа в области с двумя перпендикулярными линиями изменения типа. Узлуксиз таълим тизимида математика ва информатика фанларини ўқитишни такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник конференция материаллари. 2012, 96-99.
9. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. 2014, 1, 14-19.
10. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. 2022, 5(6), 100-109.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA BO‘LISH AMALI HAQIDA MA’LUMOT BERISH VA ULAR USTIDA AMALLAR BAJARISH

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon Universiteti dotsenti, PhD,
Sharafutdinova Madinaxon Iskandarjon qizi.
Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Mamajonova Nazokatxon Erkinjon qizi
Uchko‘prik tumani 52-maktab matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bo‘lish amalining manosini va bua mal qanday bajarilishini va birinchi qadam ustun ko‘rinishida bo‘lishni o‘rgatish va tushunchalar berish.

Kalit so‘zlar. Bo‘lish, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma, “:” bo‘lish amali belgisi.

Annotation. This article is about teaching and understanding the meaning of the action of division and how this action is performed and teaching and explaining how the first step is solved in a form of column

Key words. Dividing, divisor, divisor, division, “:” sign of the action of division.

Аннотация. Данная статья посвящена обучению и пониманию значения акта деления и способов его выполнения, а также первого шага деления в виде столбика.

Ключевые слова. Деление, делитель, делитель, деление, “:” знак действия деления.

Boshlang‘ich ta’lim deganda, avvalo, biz ko‘z oldimizga endigina maktabga qadam quygan kichkinagina murg‘ak bolalar keladi. Bu bolalarga avvalo sonlardi va ular ustida qushish ayirish amallari o‘rgatiladi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan katta mahorat va istedod talab qilinadi. Qo‘shish ayirish amallarini puxta o‘zlashtirilgandan so‘ng 2-sinfga qadam qo‘yganlarida ko‘paytirish va bo‘lish amali bolalarga o‘rgatilinadi va tushuncha beriladi.

Bo‘lish amali – bu bir sonni (bo‘linuvchini) boshqa bir son (bo‘luvchi) ga bo‘lish orqali yangi son (bo‘linma) olish jarayonidir. Matematikada bo‘lish, odatda, “÷” yoki “:” belgisi bilan ifodalanadi.

Bo‘lishning formulasi quyidagicha:

$$A:B=C$$

yoki

$$A/B=C,$$

bu yerda A – bo‘linuvchi, B – bo‘luvchi, C – natija (bo‘linma).

Misol. Agar $A=12$ va $B=4$ bo‘lsa,

$$12:4=3$$

bo‘ladi. Bu misolda 12 ni 4 ga bo‘lish natijasi 3 ga teng.

Bo‘lish amali fanning quyidagi sohalarida qo‘llanadi:

1. Bo‘lish amali ko‘pincha tenglamalarni yechishda, masalan, biror sonni berilgan shartlar asosida aniqlashda qo‘llaniladi.



2. Qismlarga ajratishda qo‘llaniladi. Bo‘lish amali bir butun sonni qismga bo‘lish jarayonidir. Masalan, agar sizda 10 ta olma bo‘lsa va ularni 2 ta do‘stingizga bo‘lsangiz, har bir do‘stingizga 5 ta olma to‘g‘ri keladi.

3. Bo‘lish amali foizlarni hisoblashda ham muhimdir. Masalan, biror narsa qiymatining foizini hisoblash uchun, umumiy summani o‘sha summaning foiziga bo‘lish kerak.

4. Proporsiyalarni hisoblashlarda ham ishlatiladi. Bo‘lish amali sonlar o‘rtasidagi nisbatlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bo‘lish amali, matematikada asosiy operatsiyalardan biri bo‘lib, hisob-kitoblar, iqtisodiyot, ilm-fan va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi.

Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga bo‘lish haqida hayotiy va tasavvur orqali topish kerak bo‘lgan masalalar orqali mavzuni tushuntiradi. *Tasavvur qiling, bolajonlar, menda 4 ta ruchka bor edi uni 2 ta o‘quvchiga teng bo‘lib berdim, ularda nechtadan ruchka bo‘ldi?* Shunga o‘xshash savollar orqali darsni tushuntirishda o‘qituvchi mahorat va qobiliyat bilan o‘quvchilar 4, 5 ta savollar beradi. Misollar yechish davrida bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma qaysi sonlar ekanligi tushuntiriladi.



Shunday masalalari orqali dars yana ham qiziqarli va tushunarli qilib olib boriladi. Dars davomida o‘quvchilarga ko‘paytirish, bo‘lish amallari bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligi haqidagi jadvallar orqali tushuntirib o‘tiladi. Ushbu jadvalda ko‘paytma aniq, ko‘paytuvchi nomalum, bunda ko‘paytivchini topish uchun ko‘paytmani ma’lum ko‘paytuvchiga bo‘lamiz.

Ko‘paytuvchi	2	4		8	7
Ko‘paytuvchi	9	6	5		
Ko‘paytma	18	24	40	24	49

18:2=9
24:4=6

Quyidagi jadvalga e’tibor qarataylik. Bu yerda bo‘linma ma’lum, bo‘luvchi va bo‘linuvchi noma’lum. Birinchi misolda bo‘luvchini topish uchun bo‘linuvchini bo‘linmaga bo‘lamiz yani 14:2=7.

Bo‘linuvchi	14	27		64	
Bo‘luvchi	7		6		7
Bo‘linma	2	3	6	8	5

14:2=7

Jadvalning 3-katagiga qarasak, bo‘linuvchi nomalum, bunda bo‘luvchini bo‘linmaga ko‘paytiramiz, ya’ni 6×6=36, demak, bo‘linuvchi 36 ga teng.

Eslatma. 0 ni har qanday songa bo‘lganimizda javobi doim 0 bo‘ladi.

Misol.



Dars davomida bolalarga mustaqil yechish uchun misollar berish ularni mustaqil misollarni yechishga o‘rgatishning eng samarali yo‘li deb o‘ylaymiz. Matematika fani murakkab fanlardan biri bo‘lganligi sababli bolalarga, avvalo, doskada va og‘zaki rasmlar hamda tarqatma materiallar orqali o‘rgatiladi. So‘ngra tushuncha hosil qilganliklarini sinab ko‘rish uchun mustaqil topshiriq beriladi, bu orada darslik bilan ham ishlanilinadi.

Bolalarning ko‘paytirish va bo‘lish amallarini yaxshi o‘rganib olishlari yuqori sinfga o‘tganlarida matematikaning yangi tushunchalarini qiynalmasdan o‘zlashtirishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Quyidagi misol orqali bolalarning ko‘paytirish va bo‘lish amallarini o‘zlashtirishlarini sinab olishimiz mumkin:



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda, dars davomida didaktik o‘yin usullaridan foydalanish ular uchun qiziqarli va samarali bo‘ladi. Ushbu didaktik o‘yin akvarium ichiga sayohat deb nomlanadi:



Bolalar baliqlar tasvirlangan rangli ko‘rgazmaga juda qiziqishadi va chaqqonlik bilan birin-ketin javoblarni topishadi. Bu o‘yin nafaqat qiziqarli o‘tadi, balki, o‘qituvchiga ko‘proq bolalar bilan ishlashga ham yaxshi yordam beradi

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shunday mahoratli bo‘lish kerakki, bo‘lish amali o‘quvchiga oson va eng qiziqarli mavzu sifatida yodida qolishi kerak. Bo‘lish amali kundalik hayotda juda ham ko‘p uchraydi, shu sababli ushbu mavzuni bolalarga puhta va oson yo‘l bilan o‘rgatish kerak deb o‘ylaymiz. O‘quvchining ta’lim sifatini oshirish, ularning qiziqish istedodini saqlab qolish, ularga motivatsiya berish va 4K moduli asosida darslarni olib borish talim jarayonining muhim qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 2-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 160 b.
2. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 2-sinf. Darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 192 b.
3. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
4. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
5. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. 2023, 2, 188-198.
6. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. 2021, 15(4), 586-596.
7. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. 2023, 8(2), 157-172.

8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. 2022, 4, 3-14.

9. Мамажонов С.М., Шерматова Х.М. Об одной краевой задаче для уравнения третьего порядка параболо-гиперболического типа в области с двумя перпендикулярными линиями изменения типа. Узлуксиз таълим тизимида математика ва информатика фанларини ўқитишни такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник конференция материаллари. 2012, 96-99.

10. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. 2014, 1, 14-19.

11. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. 2022, 5(6), 100-109.

QO‘SHISHNING O‘RIN ALMASHTIRISH XOSSASI

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon Universiteti dotsenti, PhD,
Shorobiddinova Zuhraxon Elyorbek qizi
Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasini batafsil tushuntiriladi. Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi, raqamlarning tartibini o‘zgartirganda natijaning o‘zgarmasligini anglatiladi. Maqolada ushbu xossaning matematik fikrlashdagi roli, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va amaliy misollar keltiriladi. O‘quvchilar uchun qo‘shish operatsiyalarini o‘rganishda ushbu xossaning qo‘llanilishi muhimdir.

Kalit so‘zlar. Matematika, qo‘shish, ifoda, misol, son, o‘yin.

Аннотация. В этой статье подробно объясняется замещающее свойство сложения. Перестановочное свойство сложения означает, что результат не меняется при изменении порядка чисел. В статье приведены роль этого свойства в математическом мышлении, его значение в учебном процессе и практические примеры. Использование этого свойства важно для изучения учащимися операций сложения.

Ключевые слова. Математика, сложение, выражение, пример, число, игра.

Annotation. Abstract This article explains in detail the substitution property of addition. The permutation property of addition means that the result does not change when the order of the numbers is changed. The role of this property in mathematical thinking, its importance in the educational process and practical examples are given in the article. The use of this property is important for students to learn addition operations.

Key word: Math, addition, expression, example, number, game.

Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi, matematikada qo‘shish amali bilan bog‘liq asosiy xossalardan biridir. Bu xossa shuni anglatadiki, agar siz ikkita sonni qo‘shsangiz, ularning tartibini o‘zgartirsangiz ham natija o‘zgarmaydi. Boshqacha aytganda, masalan, har ikki holatda ham natija bir xil. Bu xossa, matematik hisob-kitoblarda va algebraik ifodalarda ko‘p ishlatiladi, chunki u hisoblarni osonlashtiradi va arifmetik operatsiyalarni yanada qulayroq qilish imkonini beradi. Matematika, raqamlar va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan bir soha sifatida, bir qator asosiy xossalarga ega. Ularning biri qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasidir. Ushbu xossa, qo‘shish operatsiyasida raqamlarning tartibini o‘zgartirish orqali natijani o‘zgartirmaslikni bildiradi. Bu maqolada qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi, uning ahamiyati, amaliyotdagi qo‘llanilishi va misollar orqali ko‘rib chiqiladi.

O‘rin almashtirish xossasi nima? Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi shuni anglatadiki, agar m va n sonlarini qo‘shsangiz, ularning tartibi qanday bo‘lmasin, natija bir xil bo‘ladi. Matematik ifodasi quyidagicha: m+n=n+m.

Masalan, agar 2 va 3 ni qo‘shsak, 3 va 2 ni qo‘shsak, natija bir xil, ya’ni ikkala holda ham natija 5 ga teng.

O‘rin almashtirish xossasi quyidagi ahamiyatlarga ega:

1. Matematik fikrlashni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. O‘rin almashtirish xossasi bolalarga matematik operatsiyalarni tushunishda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu xossa yordamida raqamlar o‘rtasidagi munosabatlarni osonroq anglash mumkin.

2. Hisoblash jarayonini soddalashtiradi. Ushbu xossa murakkab qo‘shish masalalarini soddalashtirish imkonini beradi. Raqamlarning tartibini o‘zgartirish orqali hisoblash jarayonini qulaylashtirish mumkin.

3. Amaliyotda qo‘llanadi. Kundalik hayotda qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi ko‘plab vaziyatlarda qo‘llaniladi, masalan, xarid qilishda yoki muammolarni hal qilishda qo‘llanadi.

Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi haqida bir necha metodlarni keltirib o‘tamiz:

1. Xossaning ta’rifi. Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi shuni anglatadiki, ikkita sonni qo‘shishda ularning tartibi ahamiyatga ega emas.

2. Grafik usul. Ikkita sonni grafik tarzda taqdim etib, ularni har qanday tartibda qo‘shish natijasini ko‘rsatish. Masalan, 2 va 3 ni grafikda chizish va natijalarini taqqoslash mumkin.

3. Turli misollar keltirish orqali tushuntirish mumkin. Masalan, 5+7 va 7+5 ni hisoblab ko‘rsatish, natijalar har doim bir xil bo‘lishini ta’kidlab o‘tish.

4. Turli sonlar kombinatsiyalarini o‘z ichiga olgan qo‘shish jadvallarini tayyorlash. Har bir qatorda va ustunda sonlarni almashtirib, natijalarni solishtirish.

5. Algoritmik usul, yani kompyuter dasturi yozib, turli sonlar kombinatsiyalarini avtomatik ravishda hisoblash va natijalarni chiqarish. Bu orqali o‘rin almashtirish xossasining haqiqatan ham to‘g‘ri ekanini tekshirish.

6. O‘yinlar orqali, yani matematik o‘yinlar o‘ynash. Masalan, to‘plar bilan yoki kartochkalar yordamida o‘yinlar o‘tkazish, bu orqali talabalar sonlar bilan o‘ynab, qo‘shishning xossalarini o‘rganishlari mumkin.

Ushbu metodlar orqali qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasini samarali o‘rgatish mumkin. Didaktik O‘yinlarga misollar keltiramiz.

1. Katta raqam topish. O‘yinchilar raqamlar to‘plamidan ikkita raqam tanlaydilar. Ular bir-biriga qo‘shilishi bilan eng katta natijani topish uchun raqamlarning o‘rinlarini o‘zgartiradilar. Masalan, 6 + 2 va 2 + 6.

2. Teskari qo‘shish. O‘yinchilarga raqamlar beriladi va ular har bir raqamni teskari tartibda qo‘shib natijani aniqlashlari kerak. Masalan, 5 + 1 va 1 + 5.

3. Raqamlar sariq kitobi. O‘quvchilar raqamlar va ularning natijalarini yozishlari uchun sariq kitobdan foydalanadilar. Har bir raqamga o‘z o‘rin almashtirish misolini yozishlari so‘raladi.

Misollar

1. Misol:

5 + 6 = 11 6 + 5 = 11

(5 va 6 raqamlarining o‘rinlari almashtirilgan.)

2. Misol

10 + 0 = 10 0 + 10 = 10

(0 raqami qo‘shilgan holat.)

3. Misol

8 + 2 = 10 2 + 8 = 10

(8 va 2 o‘rin almashtirildi.)

4. Misol

11 + 12 = 23 12 + 11 = 23

(11 va 12 o‘rin almashtirildi.)

Qo‘shimcha tavsiyalar keltiramiz. Raqamli Poyga. O‘yinchilar o‘z raqamlarini bir-biriga qo‘shish orqali musobaqa o‘tkazadilar, kim tezroq to‘g‘ri natijaga erishsa, g‘olib bo‘ladi.

O‘qituvchi asistenti. O‘qituvchi o‘quvchilarga raqamlarni yozib berib, ulardan o‘rin almashtirishni so‘raydi. O‘quvchilar tezda natijalarni hisoblaydilar.

Xulosa.

Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi – boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘rgatiladigan asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, u raqamlar bilan ishlashdagi muhim qoidalarni shakllantiradi. Bu xossani o‘quvchilarga tushuntirish orqali ularning matematik fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi va arifmetik amallarni osonroq bajarishga imkon yaratadi. Qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasi o‘quvchilarga har qanday ikki sonning qo‘shilishi natijasi ularning tartibiga bog‘liq emasligini tushunishga yordam beradi. Masalan, "3 + 5 = 5 + 3" amali orqali o‘quvchilar raqamlarning o‘zaro tartibi o‘zgarsa ham natija bir xil bo‘lib qolishini anglaydilar.

Bu xossa arifmetik amallarni sodda va intuitiv usulda bajarishga zamin yaratadi, chunki o‘quvchilar qo‘shish amalini turli yo‘llar bilan bajara olishlari mumkin. O‘rin almashtirish xossasini o‘rgatish bolalar o‘rtasidagi muammolarni yechishda, masalalar va tenglamalarni to‘g‘ri tartibda tashkil qilishda ham yordam beradi. Bu xossa, shuningdek, kelajakda murakkab matematik tushunchalar, masalan, ko‘paytirish va tenglamalar yechishda asos bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rin almashtirish xossasini o‘zlashtirgach, ular boshqa amallarni ham ishonch bilan bajaradilar va bu ularning umumiy matematik bilimlariga ijobiy ta’sir qiladi. Ushbu xossani vizual ko‘rgazmali vositalar, amaliy misollar va turli o‘yinlar orqali tushuntirish o‘quvchilarning mavzuni tez va chuqur tushunishlariga yordam beradi. O‘yinlar orqali bu qoidani mashq qilish esa o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasini tushuntirish va uni turli usullar orqali mustahkamlash, o‘quvchilarning matematik fikrlashini rivojlantirishda va ular o‘rtasida raqamlar bilan ishlash qobiliyatlarini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu xossani puxta o‘zlashtirish nafaqat boshlang‘ich matematik ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki kelajakdagi murakkab matematik bilimlarni o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qodirov, R. “Matematik analiz va algebra”. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – 2017.
2. Davlatov, D. “O‘qituvchilar uchun matematik qo‘llanma”. Tashkent: O‘zbekiston ta’lim nashrlari. – 2022.
3. Sodiqov, E. “Algebra va geometriya asoslari”. Tashkent: O‘zbekiston davlat universiteti. – 2019.
4. Xamroev, U. “Matematika: nazariya va amaliyot”. Tashkent: Akademnashr. – 2020.
5. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 1-sinf. Darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 160 b.
6. Boyxonova, D.I. (2022). Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Pedagogs international research journal, 2(1), 256–259. https://doi.org/10.5281/zenodo.5931184
7. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.

8. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
9. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.
10. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
11. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
12. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.
13. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.
14. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.
15. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.
16. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KO‘PAYTIRISH AMALI VA UNING MA’NOSINI O‘RGANISHNING USUL VA METODLARI

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon Universiteti dotsenti, PhD,
Xafizova Go‘zalxon Olimjon qizi
Qo‘qon universtiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ko‘paytirish – bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisini topish ekanini, ko‘paytirish amalining ma’nosini, ko‘paytirish amalining tarkibiy qismlarini (1-ko‘paytuvchi, 2-ko‘paytuvchi va ko‘paytma) bilish va ular ustida amallar bajarishni o‘rganish haqida.

Kalit so‘zlar. Ko‘paytirish, 1-ko‘paytuvchi, 2-ko‘paytuvchi, ko‘paytma, o‘rin almashtirish xossasi, orttirish, "×"ko‘paytirish amalining belgisi.

Annatation. In this article, students of elementary school age learn that multiplication is finding the sum of the same denominators, the meaning of the multiplication operation, the components of the multiplication operation (multiplier 1, multiplier 2 and multiplication) about knowing and learning to act on them.

Key words. Multiplication, Multiplier 1, Multiplier 2, Multiplication, Permutation property, addition, multiplication sign "×".

Аннотация. В этой статье учащиеся младшего школьного возраста узнают, что умножение – это нахождение суммы одинаковых слагаемых, смысл операции умножения, компоненты операции умножения (множитель 1, множитель 2 и умножение), о знании и обучении действию на них.

Ключевое слова. Умножение, 1-множитель, 2-множитель, умножение, свойство замены, сложение, знак «×» операции умножения.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘paytirish amalini o‘rganish jarayoni ularning matematika bo‘yicha dastlabki bilimlaridan biri bo‘lib, kelajakdagi murakkab amallarni o‘zlashtirish uchun muhim asosdir. Ko‘paytirish amali nafaqat raqamlar ustida bajariladigan oddiy amallar to‘plami, balki bolalar uchun matematik tushunchalarni chuqurroq anglashning birinchi qadami hisoblanadi. Shu sababli, bu amalda ishlatiladigan usul va metodlar o‘quvchilarning yoshiga, psixologik rivojlanishiga, o‘quv uslubi va darsga bo‘lgan qiziqishiga mos bo‘lishi kerak. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ko‘paytirish amalini tushuntirish, o‘rgatish va mustahkamlashning samarali usullari va metodlari bayon etilgan.

Boshlang‘ich ta’lim davrida matematika fanini o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda o‘quvchilarning matematik qobiliyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Ko‘paytirish amali – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun murakkab tushunchalardan biri, ammo to‘g‘ri metod va usullar yordamida uni tushunish va o‘rganish jarayonini osonlashtirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ko‘paytirish amali qo‘shish amalining takroriy shakli sifatida o‘rganiladi. Dastlabki bosqichlarda o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘paytirishni takroriy qo‘shish orqali tushuntiradi, shundan so‘ng ular bu amalni to‘liq tushunib yetishadi.

Faraz qilaylik, to‘rtta idishning har biriga beshtadan shirinlik solib qo‘yilgan. Idishlarda jami nechta shirinlik bor? Bu savolga har bir idishdagi shirinliklarni qo‘shib chiqish orqali javob beriladi: 5+5+5+5=20. Buni qisqa ko‘rinishda quyidagicha yozishimiz mumkin: 4×5=20 (bu yerda 4 soni 1-ko‘paytuvchi, 5 soni 2-ko‘paytuvchi 20 esa ko‘paytma). O‘qilishi esa 4 bilan 5 ning ko‘paytmasi 20 ga teng. Yodda tutamizki, ko‘paytuvchilarning o‘rni almashgani bilan

ko‘paytmaning qiymati o‘zgarmaydi. Masalan, 4 ta 2 talik guruh 4×2=8 hamda 2 ta 4 talik guruh 2×4=8. O‘quvchilarga quyidagi jadvalni to‘ldirishlarini aytamiz:

×	2	6	9	3	7	5	8	4
2	4	12	18	6	14	10	16	8

O‘qituvchi o‘quvchilar topshiriqni bajarayotganda quyidagilarga e’tibor qaratadi: amallarning tarkibiy qismlari to‘g‘ri aytilishi va yozilishiga.

Bolalar uchun ko‘paytirishni qiziqarli va tushunarli qilish maqsadida turli xil o‘yin va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, kubiklar yoki boshqa predmetlar yordamida qatorlar va ustunlar shaklida ko‘paytirishning qanday ishlashini ko‘rsatish yaxshi natija beradi. Bu orqali o‘quvchilar ko‘paytirishni yanada tushunarli shaklda o‘rganadilar. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarda ko‘paytirishni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirish mumkin. O‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash uchun darsda turli didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin:

1 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarni shunday joylashtiringki, natijada to‘g‘ri matematik tengliklar hosil bo‘lsin.



Ko‘paytirish jadvalining asosiy qo‘llanishi tabiiy sonlarni ko‘paytirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Ammo bu uning yagona ishlatilishi emas. Bundan tashqari, ba’zi matematik dalillar uchun ko‘paytirish jadvalidan foydalanish mumkin. Masalan, natural sonlar kublari yig‘indisining formulasini ko‘rsatish yoki kvadratlar yig‘indisiga o‘xshash ifodani olish uchun ham foydalaniladi. Ko‘paytirish jadvalining nomi Pifagor jadvalidir. Bu qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan. Pifagor jadvalining zamonaviy modeli maktab daftarlari muqovasining oxirgi

betida deyarli bir xil shaklda tasvirlagan. Ko‘paytirish jadvali bilan ishlash o‘quvchilarga ko‘paytirish amallarini tez va oson yechish qobiliyatini rivojlantiradi. Ko‘paytirishni avtomatlashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Ko‘paytirish jadvali bilan ishlashda o‘quvchilar dastlab kichik sonlar bilan ko‘paytirishni o‘rganadilar, so‘ngra sekin-asta katta sonlar bilan ishlashni boshlaydilar. Har bir bosqichda ular qiyinchilik darajasiga qarab misollar yechadilar. Ko‘paytirishni avtomatlashtirishda takrorlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga ko‘paytirish jadvalini ko‘p marta takrorlatish orqali ularning eslab qolish qobiliyatlari mustahkamlanadi.

Ko‘paytirish jadvalini yaxshi o‘rgangan o‘quvchilar tezlik bilan misollar yechishni mashq qilishlari mumkin. Bu ular uchun matematik topshiriqlarni yanada samarali bajarishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘paytirishni o‘rganishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun ularga individual yondashuv va diferensial o‘qitish metodlarini qo‘llash muhimdir.

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyati, tezligi va o‘rganish usuli bor. O‘qituvchi o‘quvchilarning har biriga mos keladigan usul va yondashuvni tanlashi kerak. Masalan, ba’zi o‘quvchilar ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda ko‘paytirishni yaxshi o‘rganishsa, boshqalar tezlik bilan yechishni afzal ko‘rishi mumkin.

Diferensial yondashuv asosida, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikma darajasiga qarab turli xil darajadagi misollar berilishi mumkin. Ba'zi o‘quvchilar ko‘proq qo‘shimcha yordam va tushuntirishlarga muhtoj bo‘lishlari mumkin, boshqalar esa murakkab misollarni mustaqil ravishda yechishga qodir bo‘ladi.

Xulosa.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ko‘paytirish amalini o‘rgatish ularning matematik tafakkurini rivojlantirish va kelgusida murakkab amallarni o‘zlashtirishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bolalarning yosh xususiyatlari va o‘quv qobiliyatlariga mos ravishda, qiziqarli va ko‘rgazmali usullardan foydalangan holda tashkil etilishi kerak. O‘yinlar, ko‘rgazmali materiallar, real hayotiy misollar va grafik tasvirlar orqali ko‘paytirish amalini tushuntirish samarali hisoblanadi. Shuningdek, ko‘paytirishni avtomatlashtirish va o‘quvchilarning individual yondashuvlarini hisobga olish o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. O‘quvchilarni muntazam rag‘batlantirish, ularga mos topshiriqlar berish va ko‘paytirish jadvali bilan ishlash, ularga bu amalni tez va samarali qo‘llashga yordam beradi. Shu bilan birga, har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos tarzda yondashish orqali ular matematikani tushunishda qiyinchiliklarni yengib o‘tishlari mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 2-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 160 b.
2. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 2-sinf. Darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 192 b.
3. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
4. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
5. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.

6. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
7. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.
9. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.
10. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.
11. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.
12. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.
13. https://images.app.goo.gl/4JP74hLUS1seNii76
14. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBpaytirish_jadvali

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA QO‘SHISH AMALINI QAY TARZDA O‘RGATISH METODIKASI

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Qo‘qon universiteti dotsenti, PhD
Yuldasheva Zarnigor
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1-sinf o‘quvchilari uchun qo‘shish amali va uni o‘rgatish tartibi ko'rib chiqilgan. O‘qituvchining ilmiy pedagogik mahorati, metodikasini takomillashuvi asosida faoliyat olib borilishi haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘z. Qo‘shiluvchi, qo‘shuvchi, yig‘indi, “+” amali, didaktik o‘yin.

Аннотация. В этой статье рассматривается сложение и способы его преподавания первоклассникам. Даны рекомендации по итогам совершенствования научно-педагогического мастерства и методики учителя.

Ключевое слово. Сложение, сумматор, сумма, операция «+», дидактическая игра.

Annotation. This article examines addition and how to teach it to 1st grade students. Recommendations were given on the basis of the improvement of the teacher's scientific pedagogical skills and methodology.

Keyword. Additive, adder, sum, "+" operation, didactic game.

Boshlang‘ich sinf matematika fanining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga arifmetik amallarni, xususan, qo‘shish amalini puxta o‘zlashtirishga yordam berishdir. Qo‘shish, boshqa arifmetik amallar qatorida, nafaqat matematika asosini tashkil qiladi, balki kundalik hayotda ham keng qo‘llaniladi. Boshlang‘ich sinfda bu amalni to‘g‘ri o‘rgatishning ahamiyati juda katta, chunki u o‘quvchilarni kelajakdagi matematik tushunchalar va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘shish amalini o‘rgatish jarayoni ko‘pgina pedagogik yondashuvlar va o‘quv uslublarini talab qiladi. Bu metodik yondashuvlar o‘quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga, psixologik rivojlanishiga va individual ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim.

Yaqin yillarga kelib umumta’lim maktablar uchun barcha darsliklar takomillashtirilib, qayta nashr etilib kelinmoqda. Zero, Prezidentimiz tomonidan ta’limga nisbatan ajratilgan e’tibor davlatimizning kelajagini oldindan qurishga harakat demakdir. Shu qatorda boshlang‘ich ta’lim darsliklariga ham o‘zgartirish kiritilishi arifmetik boshlang‘ich o‘rganish uslubi ham mukammallashtirilgan tarzda pedagoglarga hamda o‘quvchilarga targ‘ib qilmoqda.

Qo‘shish bolalarning mantiqiy va matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu amal orqali o‘quvchilar raqamlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunishni o‘rganadilar. Qo‘shishning dastlabki bosqichida o‘quvchilarga amaliy usullar va ko‘rgazmali vositalar orqali bu amalni tushuntirish, keyin esa hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga ilk bor qadam bosayotgan o‘g‘il-qizlarimiz 1-sinfga kelar ekan, ularga bilim berish, fanlar bilan tanishtirish, unga doir bilim va ko‘nikmalarni singdirish har bir o‘qituvchining oliy maqsadidir.

Matematika fani aniq fan hisoblanib, unga doir har bir ma’lumot o‘zining aniqligi va har bir amal bola ongida hisob-kitob haqida ma’lumotlarni jamlashga va o‘rganishga xizmat qiladi.

Ko‘pgina pedagoglar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘shish amalini tushuntirishda ko‘rgazmali usullardan foydalanishni tavsiya etadilar. Bu usullar orqali bolalar qo‘shish amalining

mohiyatini osonroq tushunishadi va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi. Masalan, o‘yinchoqlar, rangli kublar, kartalar yoki tabiiy predmetlar yordamida qo‘shish amalini o‘rgatish samarali bo‘ladi.

Masalan, o‘quvchilarga uchta qizil kub va ikki ko‘k kub berib, ularni birlashtirish orqali qo‘shish amalini tushuntirish mumkin. Bu yerda o‘quvchilar ko‘z o‘ngida uch kub bilan ikki kub qo‘shilib besh kub hosil bo‘lishini kuzatadilar. Bu usul nafaqat matematik amallarni tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilarni qo‘l bilan ishlashga, mulohaza qilishga ham rag‘batlantiradi.

Qo‘shish amali ma’lum bir songa boshqa bir sonning qo‘shilishidan paydo bo‘lgan yig‘indi hamda uning qay tartibda hosil bo‘lish ketma-ketligini o‘rganishdan iborat. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar qo‘shish amalini o‘rganishda 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar oralig‘ida bir-biriga “+” — qo‘shuv amali orqali o‘rganadi. Masalan, quyidagi kabi ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mumkin:

Boshlang‘ich sinflar uchun eng birinchi navbatda sonlar va ularning miqdorini aniqlash tushuntirilishi lozim. Har bir o‘quvchi tevarak-atrofda mavjud sanaladigan va sanalmaydigan predmetlar haqida ma’lumotlar va tasavvurga ega bo‘ladi.

Avvalo, qo‘shiluvchi son aniqlanib, o‘quvchilar bilan birgalikga ikkinchi songa qo‘shiladi va yig‘indi topiladi. Quyida bunga doir ko‘rgazmali qurollardan misol keltirilgan:



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘shish amalini tushuntirishning yana bir qiziqarli va samarali usuli – bu ertaklar va hikoyalar orqali tushuntirishdir. Bolalar ertak va hikoyalar orqali tushunchalarni tezroq o‘zlashtiradilar va matnlarda ifodalangan matematik amallarni tushunishga qiziqishadi. Hikoyalar orqali matematik tushunchalarni berish nafaqat matematik

qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki ularning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini ham kengaytiradi.

Masalan, "Bo‘ri va qo‘ylar" ertagi orqali raqamlarni qo‘shishni tushuntirish mumkin. Bo‘rining qancha qo‘y ushlashi va ularning nechtasi qochib qutulishini hisoblash orqali qo‘shish va ayirish amallarini qiziqarli tarzda berish mumkin. Bunday hikoyalar bolalarni matematika faniga qiziqtirishda yordam beradi.

O‘quvchilarning qo‘shish amalini to‘liq o‘zlashtirishlari uchun mustaqil ishlash va muntazam mashqlar bajarishlari muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida o‘quvchilarga maxsus topshiriqlar va mashqlar berish orqali ularga individual yondashish va har bir o‘quvchining qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga turli xil qo‘shish amallarini o‘z ichiga olgan masalalar berish, ularni bir-biriga taqqoslash va yechimlarni topishni talab qilish ularning qo‘shish bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtiradi. Bu usul bilan bolalar mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida turli texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida interaktiv taxtalar, planshetlar yoki kompyuter dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda katta yordam beradi.

Masalan, maxsus mobil ilovalar yoki kompyuter dasturlari yordamida o‘quvchilar o‘zlari mashqlar bajarishlari mumkin. Bu usul bilan o‘quvchilar individual tarzda qo‘shish amalini mustahkamlab boradilar va amaliyot orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi.

Qo‘shish amalini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatlarini baholash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni muntazam ravishda baholab borishi, ularning yutuqlari va kamchiliklarini aniqlab, individual yondashuvni rivojlantirishi lozim.

Baholash jarayoni faqatgina nazorat ishlariga asoslanmasligi kerak. O‘quvchilarning matematik o‘yinlardagi faolligi, mustaqil ishlashdagi qobiliyatlari ham e’tiborga olinishi lozim. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar o‘zlari uchun ko‘proq mas'uliyat his etadilar va muvaffaqiyatga erishish uchun rag‘batlanadilar.

Dars mobaynida o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahorati orqali fanga oid ma’lumotlarni turli xil didaktik o‘yin yoki metodlardan foydalanib yoritishi o‘quvchilar ongida mustahkam bilim egallashga poydevor bo‘la oladi.

Xulosa.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘shish amalini o‘rgatish ta’limning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu amal kelajakdagi matematik bilimlarning poydevorini yaratadi. O‘quvchilarga matematik amallarni, xususan, qo‘shishni to‘g‘ri va chuqur tushuntirish ularning matematik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda berilgan bilimlar o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun hal qiluvchi omil bo‘lishi mumkin.

Qo‘shish amalini o‘rgatishda turli metodlar va yondashuvlardan foydalanish o‘qituvchiga har bir o‘quvchining ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Masalan, ko‘rgazmali vositalar va grafik ifodalar orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb etish, ularning darsga qiziqishini oshiradi va murakkab tushunchalarni osonroq tushunishga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar raqamlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni yanada chuqurroq tushunib, qo‘shish amallarini mustahkamlashadi. Bunday yondashuv matematik tushunchalarni aniq va real holatlarda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, 1-sinf o‘quvchilari qo‘shish amalini o‘rganishida ziyrak va zukko bo‘lishi, o‘qituvchini diqqat bilan eshitishi va tushunishi, qisqacha tushuncha yordamida mustaqil tarzda qo‘shish amalini bajarishi lozim. O‘qituvchining esa darsga a’lo

darajada tayyor bo‘lib kelishi, qo‘shish amalini bir qator metodik o‘yinlar bilan olib borishi o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ularning fanga nisbatan qiziqishini oshiradi, bu esa o‘z navbatida mashg‘ulotda zerikish uyg‘otmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. L.P. Stoylova, A.M. Pishkalo. Boshlang‘ich matematika kursi asoslari. – T.: O‘qituvchi, – 1991, – 336 b.
2. O‘rinboyeva L.O‘. va boshqalar. Matematika 1-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, – 2021, – 160 b.
3. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
4. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
5. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. 2023, 2, 188-198.
6. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. 2021, 15(4), 586-596.
7. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. 2023, 8(2), 157-172.
8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. 2022, 4, 3-14.
9. Мамажонов С.М., Шерматова Х.М. Об одной краевой задаче для уравнения третьего порядка параболо-гиперболического типа в области с двумя перпендикулярными линиями изменения типа. Узлуксиз таълим тизимида математика ва информатика фанларини ўқитишни такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник конференция материаллари. 2012, 96-99.
10. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. 2014, 1, 14-19.
11. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. 2022, 5(6), 100-109.

ПОСТРОЕНИЕ ФУНКЦИИ ГРИНА ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ЧЕТВЕРТОГО ПОРЯДКА С КРАТНЫМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ

Мамажонов Санжарбек Мирзаевич
Доцент Кокандского университета, PhD

Аннотация. В работе для уравнения четвертого порядка с младшими членами рассмотрена одна краевая задача в прямоугольной области. Функция Грина построена для решения этой проблемы.

Ключевые слова. Функция Грина, кратные характеристики, краевая задача, детерминант.

Введение

Изучение многих задач по газовой динамике, теории упругости, теории пластин и оболочек приводится к рассмотрению в дифференциальных уравнениях в частных производных высоких порядков. С точки зрение физических приложению приставляют большой интерес и дифференциальные уравнения четвертого порядка (см. [1]-[4]). Книга Джураева Т.Д., Сопуева А. [5] посвящена классификаций дифференциальных уравнений в частных производных четвертого порядка и решению краевых задач, для таких уравнений. В работах [6]-[11] изучены ряд корректных краевых задач для уравнения третьего порядка с кратными характеристиками.

В работе [12], Аманов Д. и Мурзамбетова М.Б. рассмотрели задачу с краевыми условиями для неоднородного уравнения четвертого порядка с кратными характеристиками с одним младшим членом.

Иргашев Б. Ю. [13] изучал краевую задачу для уравнения высокого порядка с кратными характеристиками методом построения функции Грина.

Постановка задачи

Рассмотрим следующее уравнение четвертого порядка вида

$$U_{xxxx} - U_{yy} + A_1U_{xxx} + A_2U_{xx} + A_3U_x + A_4U_y + A_5U = 0,$$

где $A_i \in R, i = \overline{1,5}$. Заменой

$$U(x,y) = u(x,y)\exp\left(-\frac{A_1}{4}x + \frac{A_4}{2}y\right),$$

это уравнения можно привести к уравнению

$$u_{xxxx} + a_1u_{xx} + a_2u_x + a_3u - u_{yy} = 0, \tag{1}$$

где $a_1 = A_2 - \frac{3A_1^2}{8}$, $a_2 = A_3 + \frac{A_1^3}{8} - \frac{A_1A_2}{2}$, $a_3 = \frac{A_1^2A_2}{16} - \frac{3A_1^4}{256} - \frac{A_1A_3}{4} + \frac{A_4^2}{4} + A_5$.

Для уравнения (1) в области $\Omega = \{(x,y): 0 < x < p,\ 0 < y < q\}$ ставится следующая задача.

Задача A. Найти функцию $u(x,y)$ из класса $C^{4,2}_{x,y}(\Omega) \cap C^{3,1}_{x,y}(\bar{\Omega})$, удовлетворяющую в области Ω уравнению (1) и следующим краевым условиям:

$$u(x,0) = 0, u(x,q) = 0, 0 \le x \le p,$$

$u(0,y)=\psi_1(y), u(p,y)=\psi_2(y), u_{xx}(0,y)=\psi_3(y), u_{xx}(p,y)=\psi_4(y), 0\le y\le q,$

где $\psi_i(y)\in C^3[0,q], i=\overline{1,4}$ заданные функции, причем

$$\psi_i(0)=\psi_i(q)=\psi_i''(0)=\psi_i''(q)=0,\ i=\overline{1,4}.$$

В работах [14]-[25] изучены разнообразные краевые задачи и задачи для неоднородного уравнение (1), когда все коэффициенты постоянные и переменные.

Построение функции Грина

В этом тезисе мы подробно представляем процесс построения функции Грина для задачи

$$\begin{cases} V_n^{(4)}(x)+\lambda_n V_n(x)=0, \\ V_n(0)=V_n(p)=V_n''(0)=V_n''(p)=0, \end{cases} \tag{2}$$

которая используется для решения поставленной задачи.

Функция Грина $G_n(x,\xi)$, задачи (2), должна удовлетворять следующему уравнению и условиям:

$$\frac{\partial^4 G_n(x,\xi)}{\partial x^4}+a_{3n}G_n(x,\xi)=0 \tag{3}$$

$$G_{1n}(0,\xi)=G_{2n}(p,\xi)=G_{1nxx}(0,\xi)=G_{2nxx}(p,\xi)=0 \tag{4}$$

$$\begin{gathered} G_{2n}(\xi,\xi)-G_{1n}(\xi,\xi)=0;\ G_{2nx}(\xi,\xi)-G_{1nx}(\xi,\xi)=0 \\ G_{2nxx}(\xi,\xi)-G_{1nxx}(\xi,\xi)=0;\ G_{2nxxx}(\xi,\xi)-G_{1nxxx}(\xi,\xi)=1 \end{gathered} \tag{5}$$

Сформулируем и решим характеристическое уравнение уравнения (3) по x.

$$k^4+\lambda_n=0, \quad \Rightarrow \quad k^4=-\lambda_n=\lambda_n(\cos\pi+i\sin\pi),$$

$$k=\sqrt[4]{\lambda_n}\left(\cos\frac{\pi+2\pi z}{4}+i\sin\frac{\pi+2\pi z}{4}\right),\ z=0,1,2,3,$$

$$k_1=\sqrt[4]{\lambda_n}\left(\cos\frac{\pi}{4}+i\sin\frac{\pi}{4}\right)=\mu_n+i\mu_n,$$

$$k_2=\sqrt[4]{\lambda_n}\left(\cos\frac{7\pi}{4}+i\sin\frac{7\pi}{4}\right)=\mu_n-i\mu_n,$$

$$k_3=\sqrt[4]{\lambda_n}\left(\cos\frac{3\pi}{4}+i\sin\frac{3\pi}{4}\right)=-\mu_n+i\mu_n,$$

$$k_4=\sqrt[4]{\lambda_n}\left(\cos\frac{5\pi}{4}+i\sin\frac{5\pi}{4}\right)=-\mu_n-i\mu_n,$$

где $\mu_n=\frac{\sqrt{2}}{2}\sqrt[4]{\lambda_n}$. Общее решение уравнение (3) имеет вид

$$G_n(x,\xi)=C_1(\xi)\cos(\mu_n x)ch(\mu_n x)+C_2(\xi)\cos(\mu_n x)sh(\mu_n x)+$$
$$+C_3(\xi)\sin(\mu_n x)ch(\mu_n x)+C_4(\xi)\sin(\mu_n x)sh(\mu_n x).$$

Ищем функции Грина в следующем виде:

$$G_n(x,\xi)=\begin{cases}G_{1n}(x,\xi)=C_1(\xi)\cos(\mu_n x)ch(\mu_n x)+C_2(\xi)\cos(\mu_n x)sh(\mu_n x)+\\+C_3(\xi)\sin(\mu_n x)ch(\mu_n x)+C_4(\xi)\sin(\mu_n x)sh(\mu_n x),\ 0\le x\le\xi,\\G_{2n}(x,\xi)=D_1(\xi)\cos(\mu_n(x-p))ch(\mu_n(x-p))+\\+D_2(\xi)\cos(\mu_n(x-p))sh(\mu_n(x-p))+\\+D_3(\xi)\sin(\mu_n(x-p))ch(\mu_n(x-p))+\\+D_4(\xi)\sin(\mu_n(x-p))sh(\mu_n(x-p)),\ \xi\le x\le p.\end{cases} \quad (6)$$

Находим производные 2-го порядка по переменной x:

$$\frac{G_{1nxx}}{2\mu_n^2}=-C_1\sin(\mu_n x)sh(\mu_n x)-C_2\sin(\mu_n x)ch(\mu_n x)+$$
$$+C_3\cos(\mu_n x)sh(\mu_n x)+C_4\cos(\mu_n x)ch(\mu_n x),$$
$$\frac{G_{2nxx}}{2\mu_n^2}=-D_1\sin(\mu_n(x-p))sh(\mu_n(x-p))-D_2\sin(\mu_n(x-p))ch(\mu_n(x-p))+$$
$$+D_3\cos(\mu_n(x-p))sh(\mu_n(x-p))+D_4\cos(\mu_n(x-p))ch(\mu_n(x-p)).$$

Поставим в условия (4).

$$G_{1n}(0,\xi)=C_1=0;\qquad G_{1nxx}(0,\xi)=C_4=0;\ G_{2n}(p,\xi)=D_1=0;$$
Bu muammoli savollarning dars jarayonida hal etilishi bilan, bit tomondan, kompleks birikmalarning ahamiyatiga oid bilimlar o‘zlashtiriladi ikkinchi tomondan, kompleks birikmalarning sinfiarini o‘rganishga yo‘l ochiladi. Har bir sinfga kiruvchi komplekslarning olinishi, kimyoviy xossalarini tushuntirishda tegishli reaksiya tenglamalari doskaga yozilib, ularga oid qiziqarli kimyoviy tajribalar namoyish qilib ko‘rsatiladi.

Talabalar uchun ancha murakkab bo‘lgan kompleks birikmalarning nomlanishini tushuntirishda yangi pedagogik texnoiogiyaning «Klaster» usulidan foydalaniladi. Buning uchun kompleks birikmaning har bir sinfidan bitta namuna ko‘rsatilib, undan tarmoqlar tuziladi. Tarmoqlar tuzishda nomi yozilgan kompleks birikmaning formulasi, ichki va tashqi sferasi, markaziy ionning zaryadi, ligandlar tabiati va zaryadi, kompleks ionning zaryadi yordamida tarmoklar ko‘paytirib boriladi. [2]

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta‘lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob‘ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi.Ushbu metod muayyan mavzuning ta‘lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta‘minlashga hizmat qiladi [].

Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a‘zolari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida nomoyon bo‘ladi. Bu esa guruhning har bir a‘zosi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

Bu usulni amalga oshirish uchun guruhdagi talabalar 4 guruhchagabo‘linadi. Har bir guruhchaga turli sinfga mansub bittadan kompleks birikmadan tarmoqlar tuzish topshiriladi. Talabalar tarmoqlarni tuzib bo‘lgandan so‘ng uning natijasi guruhda muhokama qilinadi. Har bir guruhchaning qanday ball olganligi a’lochi talabalardan iborat bo‘lgan hay’at a’zolari tomonidan e’lon qilinadi.

Bunday interaktiv usul bilan kompleks birikmalaming nomlanishini o‘rganish yaxshi samara beradi. Bu xulosa talabalaming tarmoqlarni mustaqil tuzishlari va kompleks birikmalarning nomlarini to‘g‘ri yozishlari bilan asoslangan. Muammoli usulni amalga oshirish uchun tajriba guruhida mavzu yangi pedagogik texnologiya asosida o‘tiladi. Nazorat guruhida dars an'anaviy usul bo‘yicha olib boriladi. Talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun mavzuga oid test savollari tuziladi va kompyuter yordamida nazorat o‘tkaziladi. Test nazorati

natijalari tajriba eksperiment guruhida talabalarning o‘rtacha baho - bali yuqori bo‘lganligini ko‘rsatdi. Demak, dars jarayoniga muammoli va «Klaster» usulining joriy qilinishi talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, talabalar tomonidan bilimlarrung o‘zlashtirilishi yuqori bo‘ladi.[6]

Foyidalanilgan adabiyotlar.

1. N.Raxmatullaev, H.Omonov, Sh.Mirkomilov KIMYO O‘QITISH METODIKASI Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2013
1. Asqarov .I.R, Gopirov K. Kimyo asoslari. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent-2013.
2. 2.H.R.To‘xtaev, R.Aristanbekov, K.A.Cho‘lponov, S.N.Aminov —Anorganik kimyo|| Toshkent.: 2008 2. H.
3. A. Parpiev,X.R.Raximov, A.G.Muftaxov —Anorganik kimyo nazariy asoslari Toshkent « O`zbekiston » 2000
4. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2011.
5. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: —Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2007
6. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogic texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. —O‘rtamaxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimida innovatsion texnologiyalar|| seriyasidan.–T.:TDIU, 2013
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste‘dod|| jamg‘armasi, 2008.
8. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2011.

ADABIYOT DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH-SAMARALI VOSITA SIFATIDA

B.Abdurahmonova
QDPI dotsenti
Z.Xasanova
QDPI talaba

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarni qo‘shimcha manbalar bilan ishlashga o‘rgatish xususida fikr bildirilgan.

Kalit so‘z: Adabiyot,dars, axborot texnologiyasi, ta’lim

Davr talabi bilan bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari dadil kirib kelmoqda. Adabiyot darslarida darslikda berilgan badiiy asar matnini kengroq o`rganish imkonini beradigan axborot texnologiyalaridan, shu jumladan, elektron darsliklardan foydalanish yo`lga qo`yilmoqda. Bugina emas, elektron variantdagi badiiy asarlar ham o ‘quvchilarga darslik orqali havola qilinmoqda.

Yozuvchi yoki shoirning hayoti hamda ijodiy faoliyati, asarlari, ularga doir annotatsiyalar dasturiy adabiy materiallar va darsdan tashqari o`qish uchun mo`ljallangan, shuningdek, tadbirlarda foydalanish mumkin bo`lgan asarlar ma’lum bir hajmda tayyorlanib, kompyuter xotirasiga kiritilmoqda. Bu materiallarga o`quvchilar istagan paytda murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi. Nashriyotlar chiqargan albomlardan foydalanish va materiallarni ham kompyuterga kiritish katta naf keltiradi. Professor B.To`xliyevning Navoiy, Bobur hayoti va ijodini o`rganish yuzasidan nashr qilingan albom qo`llanmalarini misol qilishimiz mumkin. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodini o`rganish bo`yicha ham shunday albomlar yaratish lozim. Bu albomlarning yaxshi tomoni shundaki, ular illyustrativ materiallar bilan boyitilgan. Bu borada diafilmlar ham alohida o`rin tutadi.

Badiiy asar yuzasidan yaratilgan videotasmalardan foydalanish ham dars samaradorligini ta’minlaydi.Bu borada M.Qosimovaning badiiy asar qahramonlari xarakterini yorituvchi portret tahlili mazmunidagi metodik tavsiyalari alohida o`rin tutadi hamda metodist olima T.Niyazmetovaning “Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish” degan maqolasida 7-sinfda Zulfiya hayoti va ijodiga doir videotasmalar, “Umr daftari” deb nomlangan ko`rsatuvdan yozib olingan lavhalarni o`quvchilar e’tiboriga havola etish xususida maslahatlar beradi.

Ma’lumotlar omborini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi yuqoridagi mushohadalarimizdan ham yaqqol ko`rinib turibdi. Ma’lumotlar omboridan foydalanish tartibi ham bir xil emas: maxsus kompyuter darsi ajratish, kompyuterdagi bilimlar omboridan darsning ma’lum bir qismida alohida bosqich sifatida foydalanish, o`quvchilarning guruhli va yalpi mustaqil ishlarini tashkil etish, darsdan tashqari o`qishni uyushtirish lozim.Adabiyot darslarida axborot texnologiyalarining kirib kelishi, yoshlarning bilim olish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, ularning mustaqil o`qib-o`rganishlari, izlanishlari uchun yo`l ochadi. Adabiy ta’lim jarayonida o`quvchilarning har tomonlama bilimini mustahkamlash, ularni mustaqil fikrlashga o`rgatish borasida axborot texnologiyalarining amaliy ahamiyati katta.

Zamon bilan hamnafas har qanday pedagog o`z oldiga yangi-yangi g`oyalar va metodlarni ta’limda qo`llashni maqsad qilib qo`yadi. Ayniqsa, texnika asrida bu mas’uliyat yanada ortmoqda. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni unumli va o`z o`rnida qo`llash orqali ta’lim tizimidagi natijalar anchagina samarali bo`ladi. Bunday ta’limning o`ziga xos xususiyatlari,

vaqtning unumdorligini oshishi, ijobiy natijalar berishi, qolaversa, bir tomonlama dars o`tishdan cheklanishni taqoza etadi. O`qituvchi o`z ishida axborot texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratishini ta’kidlaydi. Slayd, animatsiya, multemidiya, ovozli roliglar, interfaol o`yinlardan o`z vaqtida, dars davomida o`rinli foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o`qituvchi tomonidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida interfaol texnologiyalardan foydalanilmoqda. Multimedia proyektorlar, interfaol sinf taxtalari (doskalar) va panellar, videokonferentsiya aloqa tizimlari, ovozlash tizimlari avval mavjud bo`lgan muammolarning ko`pchiligini hal etishni osonlashtirmoqda. Mazkur texnologiyalar keng qo`llanila boshlagan sohalardan biri ta’lim sohasi (maktablar, institutlar, akademiyalar) sanaladi. Bugungi kunda mavjud texnik imkoniyatlardan ezgu maqsadlar yo`lida to`g`ri foydalanadigan, olam hodisalarini o`rganishga ichki ehtiyoji bor va uning yo`llarini qidiradigan shaxslarni shakllantirish ehtiyoji paydo bo`ldi. Axborotlar to`foni og`ushidagi dunyo yoshlarga bilim berish, ularda ma’lum ko`nikma va malakalar shakllantirishning samarali va zamonaviy yo`llarini izlab topishni talab qilmoqda.

Badiiy asarni o`rganishda unga yaqin bo`lgan san’at turlarining imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, tasviriy san’at, musiqa, teatr san’ati kabilar shular jumlasidandir. Taqdimot jarayonida badiiy asarlardan parchalarni o`qib berish yoki ko`rsatish lozim. Taqdimotlarni ishlab chiqish, qo`shimcha illyustratsiyalardan foydalanish, o`quvchilarda badiiy asarni o`rganish, uning qahramonlariga tanqidiy baho berishga nisbatan alohida qiziqish uyg`otadi. Ularning o`quv materiallarini o`zlashtirish darajalari ortib diqqatlarining barqarorlashganligi kuzatiladi. Slaydga asoslangan ma’ruza texnologiyasi o`qituvchini o`quv jarayonidan uzoqlashtirmaydi. Ma’ruzalarning asosiy ovozli qismi – adabiyot o`qituvchisining o`z ovozi bo`lib, slaydlarni sharhlaydi, aniqlanmalarni shakllantiradi, ma’ruza maromi va slaydlarning almashinish jarayonini boshqaradi.

Axborot texnologiyalarining bu tarzdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish o`quvchilarda badiiy asarni o`qishga alohida qiziqish uyg`otadi. O`quvchilarning mustaqqil fikrlashlarini kengaytirish va ularning yozuvchi mahoratiga va asar qahramonlariga xolisona baho berishga o`rgatishda Internetning imkoniyatlaridan foydalanish adabiyot o`qituvchilarida alohida qiziqish paydo qiladi.

O`quvchilarning o`zlari internet materiallaridan foydalangan holda asar qahramonining xarakterini ochish uchun zarur bo`lgan materiallarni tanlab, slaydlardan foydalangan holda o`z taqdimotini tayyorlashi va uni himoya qilishi uchun imkoniyat yaratsa, bu o`quvchilardagi faollikni yanada oshiradi. Guruhli ish usulidan foydalanishni hisobga olgan holda bu ishning bajarilishini nazorat qilish va baholash uchun vaqt yetarli bo`ladi. O`quvchilarda yangi materiallarni idrok etish uchun ijobiy omil shakllanadi. Ularning mustaqil faoliyat ko`rsatish darajalari ortadi, sog`lom raqobat muhiti vujudga keladi. Taqdimotni himoya qilish vaqtida vujudga kelgan munozara vaziyati o`quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga birinchi darajali pedagogik zaruriyat sifatida qarash ehtiyojini tug`diradi. Bu jarayonda o`quvchilarning o`qituvchi bilan to`laqonli muloqotga kirishishlari uchun qulay sharoit yaratiladi.

Matnlarni o`qituvchi ifodali yod aytishi yoki kompyuterda ovozli mikofondan foydalanib o`quvchilarga eshittirishi ham mumkin. Bu o`quvchilarni ifodali o`qishga o`rgatishda yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda ko`pgina asarlar badiiy o`qish ustalari tomonidan o`qilgan va internet saytlariga joylashtirilgan. Mazkur interaktiv portallar badiiy asarlarni mualliflar va aktyorlar tomonidan o`qilgan variantlarini o`zida mujassamlashtirgan. Axborot texnologiyalaridan

foydalanishda samaradorlikka erishishni ta’minlashdagi vazifalardan biri – pedagogik texnologiyalarga metodik ishlov berishdan iborat. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga xolis baho berishga o`rgatish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini alohida tatqiq qilish lozim. Bu sohadagi yondashuvlar dastlabki tavsiyalar darajasidadir. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o`rgatishda Internetdan foydalanish mazkur jarayonda foydalanish mumkin bo`lgan o`ziga xos texnologiya bo`lib, istiqbolli vosita sifatida bu sohada yangi imkoniyatlarni yaratish, o`quvchilar bilan hamkorlik va muloqotning o`ziga xos shakllarini o`rnatish imkonini beradi.

O`qituvchi bilimlarni faqatgina o`quvchilar qabul qilgandagina ularda taqdim etishi mumkin. Buning uchun o`quvchilar muayyan faoliyatni amalga oshirishlari kerak. Shundagina o`quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etishga yo`naltirilgan ta’lim jarayoni ularning moyilligiga tayangan holda amalga oshiriladi. Shundagina mazkur jarayon o`quvchilarda mustaqil o`rganish, mustaqil bilim olish, o`z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi.Bu jarayonda o`quvchilarning internet vositasida guruhli va individual ish shakllarini tashkil etish alohida didaktik ahamiyatga ega.

Xullas, o`quvchilarni, adib hayoti va ijodini o`rganish, badiiy asarni o`qish, asar qahramonlari haqida muammoli vaziyatlar takil etish, bahsga kirishishga o`rgatishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim jarayonida shaxsga yo`naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyazmetova T.R. Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish G`G` Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – B. 6-10.
2. Nishonova S. Adabiyot darslarida tasviriy san’at materiallaridan foydalanishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati G`G` "O`zbek tili va adabiyot o`qitish metodikasini takomillashtirish" to`plamida. Toshkent: O`zPFITI, 1983. – B. 69-76.
3. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: “Tamaddun”, 2010.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА СТАТИСТИКА СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ РОЛИ

Маткаримова Интизор Атабаевна
“Маъмун университети” Нодавлат таълим муассасаси,
“Бухгалтерия ҳисоби ва бизнес бошқаруви” кафедраси,
Иқтисодиёт фанлари бўйича PhD. Хива, Ўзбекистон
Турдиниёзова Нигина Бекниёз қизи
“Маъмун университети” Нодавлат таълим муассасаси,
4-курс, ИҚК 21-1. Хива, Ўзбекистон
E-mail: intizor-matkarimova@mail.ru
Тел:+99890578-19-51

Аннатация: Мазкур мақолада, статистика фанига ўз ҳисасини қўшган Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлар ҳамда улар томонидан статистика фанини таърифлашга нисбатан турлича ёндашувлар кўриб чиқилган ва таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Статистика, Эконометрика, математик статистика, эҳтимоллар назарияси, корреляцион-регрессион таҳлил, моделлаштириш, прогнозлаш

Ҳозирда мамлакатимизда аёллар жамиятнинг барча соҳаларида ўз иқтидор ва имкониятларини намоён қилмоқдалар. Ишлаб чиқариш, таълим-тарбия, тиббиёт, илм-фан, маданият ва спорт соҳалари ривожида ҳам аёлларимизнинг муносиб ҳиссаси бор.

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев “Аёли эъзозланган юрт – қудратли бўлади” деб таъкидлаганлар.

Ватанимизнинг энг олий мукофоти – “Ўзбекистон Қаҳрамони”, шунингдек “Халқ ўқитувчиси”, “Халқ шоири”, “Халқ артисти” унвонларига сазовор бўлганлар орасида аёллар кўпчиликни ташкил этади. Академик, профессор, фан доктори мақомига эга хотин-қизларимиз Ўзбекистон

илм-фани тараққиётига муносиб ҳисса қўшмоқдалар. [1].

Ўзбекистон Республикасида статистиканинг ривожланишида ва уни ўзбек халқига ўргатишда диққатга сазовор ишлар қилинган. Биринчи “Статистика” кафедраси 1932-йилда Тошкент, кейинчалик Самарқанд ва бошқа шаҳарларда ташкил этилган. Ҳозирги пайтда деярли ҳамма иқтисодий университет, институт ва факультетларда статистика кафедралари мавжуд. Уларда ўзбек статистикасини яратган ва яратаётган ажойиб олимлар фаолият кўрсатмоқда. Статистика фанини ривожланишида Ўзбекистонда иқтисодчи олимлардан А.Абдуғафаров, Ё.Абдуллаев, Э.А.Акрамов, Н.М.Сагатов, Р.А. Алимов, Б.М Маҳмудов, И.Эрматов, Х. Набиев, С.Сирожиддинов, М.Ҳамроев, З.Тошматов, Т.Шодиев, А.А.Набихўжаев, Х.А.Шодиев, Н.М.Соатов, А.Аюбжанов,С.С.Ғуламов, Б.К.Ғойибназаров, А.Р. Қорабаев, Б.Усманов, Х.Хўжақулов, С.Абдуллаев, Хабибуллаев.И ва бошқаларнинг қўшган ҳиссаларини эътироф этиш лозим.

Статистика фанини ривожланишида хусусан, Тошкент Молия институти ва Тошкент Давлат иқтисодиёт университети, “Статистика” кафедрасида узоқ йиллар фаолият кўрсатган ўзбек олима аёлларидан Мухримбаева М, Рашитова Н, Умарова М.А, Ходжаева М, Қаланава А, Ахмедова М.Ш, Акбарова Б.Ш. ва бошқаларни эътироф этишимиз мумкин.

Улар ўз тадқиқотларида статистика фанига алоқадор бўлган у ёки бу масалаларни чуқур ўрганиш ва таҳлил қилиш бўйича илмий фикрлар билдиришган.

Шулар қаторида, устозимиз Ўзбекистон статискасининг асосчиларидан бири

профессор Ё.Абдуллаев “Статистика” йўналишида ўзининг илмий мактабини яратган етакчи иқтисодчи олим ҳисобланади. Устознинг шахсан ўзлари “Махсус фанларни ўқитиш методикаси” фанидан дарсга кирганлар. Домланинг айтишларича илм йўлини танлаган инсон, “Жуда кўп ўқиши, фикр юритиши зарур, ҳар қандай дабдабали ҳаёт ва турмуш тарзидан вақтинчалик воз кечиши лозим” дея таъкидлаб ўтган эдилар.

Мен ҳозиргача фахрланиб айта оламанки барча Тошкент Молия институти профессор ўкитувчилари айниқса олдинги “Статистика” кафедраси профессор ўқитувчиларининг қўлида таҳсил олганлигимдан, шаҳсан “Статистика” кафедраси профессор –ўқитувчилари Ёрқин Абдуллаев, А.А.Набихўжаев, Х.А.Шодиев, Абдуллаев.С, Рашитова.Н, Тошматов.З, Хўжақулов.Х, Ходжаева.М, Исмоилов.Ғ, Хабибуллаев.И, Мухримбаева.М Набихўжаева.М, Ғозиев.А ва илмий раҳбарим бўлган марҳум устозим Қорабаев Абдусаттор Раҳмановичга ўз миннатдорчилигимни билдирмоқчиман. Бугунги кунда мен “Миллий ҳисоблар тизимининг асосий счётларини статистик ахборотлар базасини такомиллаштириш (Ўзбекистон Республикаси маълумотлари асосида)” мавзусида проф.Б.К.Ғойибназаров раҳбарлигида 2023 йил 1 июньда номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилдим.

Иқтисодий таълим тизимида статистика асосий фан сифатида муҳим ўрин тутади. Фаннинг асосий мақсади иқтисодий масалаларни чуқур тушунишга, ижтимоий-иқтисодий жараёнларни комплекс таҳлил қилишга, моделлаштириш ва прогнозлаш қобилиятига ега юқори малакали мутахассисларни тайёрлашдан иборат. Сўнги йигирма йил ичида статистика фанини ўқитиш жиҳатларига эътибор бир мунча ошган. Тадқиқотлар сони ҳам ортиб бормоқда, шу боис статистика фанидаги мавжуд айрим мавзуларни ўқитишни ислоҳ қилиш зарурияти пайдо бўлди.

Муҳтасар қилиб айтганда, статистик таълим ислоҳотларининг мақсади статистика фанига бўлган муносабатларни ўзгартириш, ўқитишни такомиллаштириш ва уни ўрганишдан иборат.

Дарҳақиқат, норвегиялик иқтисодчи олим Р.Фриш-“Эконометрика-учта таркибий қисм статистика, иқтисодий назария ва математиканинг бирлиги” деб таърифлаган.

Иқтисодчи олим Н.М.Соатов ўзининг “Статистика” дарслигида “Эконометрияни иқтисодий статистиканинг таркибий қисми, муҳим йўналиши деб қараш назарий ва мантиқий асосга эга. Дарҳақиқат, эконометрияда қўлланиладиган математик аппарат иқтисодий статистикада ҳам мувоффақиятли қўланилади” деб таъкидлаб ўтган [2].

Тадқиқотчи, И.А. Маткаримова Эконометрика фанининг келиб чиқиш тарихи ва унинг шаклланишига ҳисса қўшишган олимлар мақоласида, “Эконометрик билим иқтисодий назария, иқтисодий-математик усуллар, иқтисодий статистика, математик статистика ва эҳтимоллар назарияси фанларининг ривожланиши ва ўзаро ҳамкорлиги натижаси сифатида ажралиб чиққан ва шакилланган. Иқтисодий қонунлар эконометрикада тажриба учун текширилади. Иқтисодий –математик усуллар фанида эса иқтисодий қонунлар математик моделлар шаклида ўз ифодасини топади.Иқтисодий кўрсаткичларнинг катта қисми тасодифий хусусиятга эгалиги туфайли эконометрикада математик статистика усуллари қўлланилади. Математик статистика фанида тадқиқотнинг мақсадига қараб маълумотларни таҳлил қилиш усуллари ишлаб чиқилади”, деб таъкидлаган. [3]

Иқтисодчи олимлар, академик С.С.Ғуламов ва проф З.Тошматов Замонавий иқтисодиёт мутахассисларини тайёрлашда “Статистика” фанининг роли мақоласида Олий таълимда статистика фанини ўқитишда нисбатан турлича ёндашишган.

Сўнгги пайтларда “Статистика” фанини ўқитишда маъруза ва амалий машғулотлар

буйича ўқув ҳажмининг қисқариши фалокатли тенденсия ҳисобланади. Маълумки, статистика фани таркибий жиҳатдан статистиканинг умумий назарияси, ижтимоий-иқтисодий статистика ва тармоқ статистикасидан иборат. Аудитория соатларининг қисқариши шароитида статистиканинг назарий асослари ўрганиладиган биринчи қисмига нисбатан кўпроқ эътибор қаратилиши лозим.

Иқтисодий, ижтимоий, молиявий статистика ва миллий ҳисоблар тизими масалаларини ўз ичига олган иккинчи қисм учун дарс вақти етарли эмас, бу эса материални етарли тарзда тақдим этилмаслигига олиб келади.

Бундан ташқари, назария амалиётдан орқада қолмоқда. Асосан фан сифатида статистиканинг “ғарбий” концепсиясига асосланган амалий дастурлар пакетлари фан сифатида пайдо бўлмоқда.

"Ғарбий" статистика - бу математика, эҳтимоллик назарияси ва статистиканинг умумий назариясининг (бизнинг ички тушунчамизда) маълум бир аралашмасидан иборатдир. Таълим муассасаларида ўқитилаётган статистика фани бутунлай бошқа таркибий қисмлардан иборат бўлган: статистиканинг умумий назарияси, кўпроқ макро ва микроиқтисодиёт, иқтисодий статистика, ижтимоий статистика ва миллий ҳисоблар тизими кабилар.

Кўриб турганимиздек, таълим муассасаларида ўқитилаётган статистика фанининг мазмуни бутунлай бошқача эканлиги. Афсуски, бизда амалиётда кенг қўлланиладиган маҳаллий амалий дастурлар пакети мавжуд эмас. Бундай ҳолларда "Ғарбий" ишланмалардан фойдаланилади, улар орасида энг машҳурлари STATISTICA ва SPSS пакетларидир. Муаммо шундаки, ушбу пакетлардаги маълумотларни қайта ишлаш усуллари кўпинча мамлакатимизда ўқитилаётган статистиканинг назариясига умуман мос келмайди.

Бундан ташқари, кўплаб усуллар ҳатто маҳаллий статистикада ҳам унчалик маълум эмас. Масалан, SPSS тўпламининг барча параметрик бўлмаган усулларидан маҳаллий мутахассисларимиз фақат “Спирмен ва Кендал” коэффицентларини билишади, қолган коэффицентлар уларнинг билиш доирасидан четда қолган. Табиийки, улар ҳам этарлича ўргатилмайди.

Бу муаммони икки йўлнинг бирида ҳал қилиш мумкин: ё маҳаллий амалий дастурлар пакетларини яратиш (маҳаллий илм-фаннинг кам маблағ билан таъминланишини ҳисобга олсак, аммо бу даргумон) ёки ўзбек тилидаги дарсликларни “Ғарб” услубида қайта ёзиш ва фан дастурининг ўзини ўзгартириш керак.

Учинчи, захира усули ҳам бор: муаммони бартараф этиш орқали ҳал қилиш, яъни, ҳеч қандай қарама-қаршилик йўқлигини ва шунга мос равишда ҳеч қандай муаммо йўқлигини кўрсатиш. Афсуски, биз ҳозир учинчи йўлдан кетяпмиз.

Статистика бўйича замонавий дарсликларни қайта кўриб чиқишни талаб қилиниши ҳар бир ўқитувчига маълум. Баъзи мавзулар аниқ эскирган ва уларни ўқув дарсликларидан олиб ташланиши керак деб ҳисоблайман. Бундай " ескирган мавзулар" момент (пайт) усули ёрдамида ўртача ва дисперсияларни ҳисоблашни ўз ичига олади. Ушбу соддалаштирилган ҳисоблаш усули нафақат компютерлар, балки калкуляторлар ҳам бўлмаган бир пайтда пайдо бўлган. Нима учун буни талабаларга ўргатишимиз керак?

Яна бир мисол - мавсумийлик индексларини ўртача қийматнинг доимийлиги асосида ҳисоблаш. Ушбу усулни қўллаш борасида ҳеч қандай дастурий пакети мавжуд эмас. Амалиёт эҳтиёжларига жавоб берадиган мавсумийлик индексларининг бошқа, яъни кўпроқ "сезгир" баҳолари қўлланилади. Шунингдек, бирламчи маълумотларга мурожаат қилмасдан кўрсаткичнинг мавжуд интервал гуруҳлари асосида янги интервал гуруҳлари

олинганда, статистик маълумотларни "иккиламчи" қайта гуруҳлаш ҳам ўтмишда қолганлиги ҳам аниқ.

Тасаввур қилайлик, Молия институтининг молия факултети битирувчисининг касбий фаолиятида ушбу билимга муҳтож бўлиш эҳтимоли борлиги. Бундай мисолларни кўп келтириш мумкин. Муаммонинг моҳияти шундан иборатки, ўқитилаётган статистика назариясини қайта кўриб чиқиш ва уни амалиёт эҳтиёжлари ва дастурий воситалар имкониятларидан келиб чиқиб ислоҳ қилишдан иборат деб ҳисоблайман.

Бундан ташқари, статистика назариясини ушбу қоидаларга мувофиқ тузатиш учун глобал миқёсда қайерга кетаётганини реал баҳолаш керак. Масалан, ҳозир дунёда параметрик усуллар ўрнига нопараметрик усуллардан тез-тез фойдаланиш тендентсияси кузатилмоқда. Белгилар ўртасидаги муносабатларни аниқроқ баҳолайдиган янги коеффицентлар пайдо бўлмоқда. Нега маҳаллий мутахассислар буни ҳисобга олмаяптилар ва статистика дарсликларига "белгилар ўртасидаги муносабат(алоқа)ларни аниқлашнинг нопараметрик усуллари" бўйича алоҳида боб қўшмаяптилар, уни биринчи навбатда замонавий амалий дастурий пакетлар имкониятларидан келиб чиқиб ёзилиши керак.

Хўш, янгиланган Статистика фан дастури қандай бўлиши керак? Биз бу ҳақда узоқ вақт баҳслаша оламиз. Вазиятни тасаввур қилайлик, молия ёки бошқа иқтисодий масалалар билан шуғулланадиган катта ёшли киши ўз билимларидан амалда фаол фойдаланиши учун статистика ўқитувчисига статистик методологияни ўргатиш илтимоси билан мурожаат қилди дейлик. Унга қандай билим керак бўлади?

Статистиканинг предмети ва усули, унинг Ўзбекистонда ташкил этилиши, бошқа фанлар билан алоқаси, статистик кузатишлар методологияси, статистик жадваллар, статистик таснифлар ҳақидаги мунозаралар, эҳтимол, шуларни ўрганишни ўз зиммасига олган иқтисодчига умумий тасаввурни шакллантириш учун минимал вақт талаб этади.

Ўқитувчи интервалли ва дискрет вариацион қаторларни қуриш ва энг муҳими, уларни дастурий таъминотда амалга ошириш усуллари ҳақида батафсил тўхталиб ўтади.

Бунинг ортидан ўртача кўрсаткичлар яни: арифметик, гармоник ва яна ўта муҳим бўлган кенг эътибор берилмаётган ўртача геометрикдир (аслида таълим муассасаларининг статистика бўйич масалалар тўпламида геометрик ўртачани ҳисоблаш бўйиҳа масалаларга этарлича эътибор қаратилмаганлиги билан баҳолаш мумкин). Амалиётда эса ҳозирга келиб геометрик ўртача жуда кенг тарқалган.Тузилмавий ўртача, вариация (ўзгарувчанлик) кўрсаткичлари, ассиметрия ва экстсес коеффициентлари ҳам катта амалий аҳамиятга эга (статистика бўйича масалалар тўпламида энг оҳирги коеффицентларни ҳисоблаш бўича ҳеч қандай масалалар берилмаган).

Мунозарали масалалардан бири эмпирик детерминация коеффициенти ва эмпирик корреляция нисбатини ҳисоблашдир. Гап шундаки, амалий дастурлар пакетларида бу масалалар бир омилли ва кўп омилли дисперсион таҳлили, шунингдек, статистик фаразларни текшириш усуллари асосида ҳал этилади. Ҳисоб – китобларнинг моҳияти асосан ўхшаш, аммо шунга қарамай, ёндашувлар бошқача. Бироқ, "Статистика" фан дастурини дастурий воситалар имкониятларига мослаштириш тавсия этилади, чунки амалда ҳеч ким бу кўрсаткичларни қўлда ҳисоблашни ўз зиммасига олмайди.

Енди танлама кузатувга туҳталайлик. Умуман олганда, ўрганиладиган танлаб кузатиш назарияси битта моментдан ташқари ҳеч қандай камчиликга эга эмас.

20 йил давомида Давлат статистика қўмитаси (ҳозирги Статистика агентлиги) ротатсия ва координатция деб аталадиган усулларга асосланган танланмаларни шакллантириш борасида замонавий ёндашувлардан фойдаланмоқда. Буни статистик амалиёт талаб қилди ва у амалга оширилди. Бу усуллар таълим муассасаларида

ўқитилмайди.

Бундан ташқари, "Статистик индекслар" мавзусида ҳам баъзи бир номувофиқликлар пайдо бўлган. Анъанага кўра, статистика дарсликларида барча индекс назарияси савдо соҳасининг мисоллари ёрдамида тушунтирилади. Бу ёндашув, эҳтимол тўғридир.Аммо билимларни келажакда амалда қўллаш учун бу аҳамиятсиз.

Молиявий мутахассисликлар битирувчисига банк, фонд биржаси, инвестиция индекслари ва бошқалар бўйича билим керак бўлади. Мақола муаллифи савдо индексларини тушунтиришдан бутунлай воз кечишга чақирмайди, бу ўринсиз бўлареди, чунки Савдо соҳасидаги мисоллар билан индекс усулини соддароқ ва тезроқ тушунтириш мумкин. Аммо шунга қарамай, мен муаммоли китобларни ва албатта, дарсликларни молия сектори ҳаётидан олинган мисоллар билан тушинтирилса мақсадга мувофиқ булар эди.

Эҳтимол, "Коррелятсия ва регрессия таҳлили" мавзусига тегмаслик керак. Юқорида айтиб ўтилганидек, ушбу масала бўйича бутун назария дастурий воситаларнинг имкониятларига мувофиқ тузатилиши керак: стандартлаштирилган регрессия моделларини қуриш, регрессия коеффицентларини баҳолаш учун ишонч интерваллларини аниқлаш, шу кабилар.

"Статистика" фан дастурида "Динамик қатор" мавзусининг мазмуни бутунлай бошқача бўлиши керак: мавсумийлик индексларини ҳисоблашнинг бошқа ёндашувлари; Furye spektral таҳлили; мавсумий компонентли қўшимча(аддитив) ва мултипликатив моделли, Vinter modeli; мавсумий декомпозитсия, кетма-кет коррелятсия (сериал) коеффицентлари ва коррелограмма.

Юқорида айтилганларнинг барчаси дастур пакетларида мавжуд ва амалда фаол қўлланилади. Бу шуни англатадики, у статистика дарсликларида ва статистика фанининг ўзида бўлиши керак. Гап шундаки, олий таълим муассасаларида эртами-кечми бундай фан, математик ҳисоб-китобларга урғу бериладиган амалий статистика фани албатта пайдо бўлади.Аммо амалиёт талаблари бу масалани албатта кўтаради ва уни албатта ҳал қилади.

Бунда мамлакатимизда статистика ижтимоий фанларнинг “Иқтисодиёт ва менежмент” кенгайтирилган гуруҳига эмас, балки математика ва табиий фанларнинг кенгайтирилган гуруҳига бириктирилгани катта ёрдам беради.

Шундай қилиб, статистика ушбу фанни “Ғарб” тушунчасига мутлақо ўхшаш математиканинг соҳаларидан бири сифатида тан олинади. Бундан ташқари, фойдаланиладиган стандарт вазифалар шартли маълумотларни ўз ичига олади, бу, албатта, улардан фойдаланиш самарадорлигини пасайтиради, чунки улар жамиятда содир бўлаётган иқтисодий жараёнларнинг ҳақиқий оқимини акс эттирмайди. Шунга кўра, “Статистика” фанини ўрганиш замонавий иқтисодчининг шаклланишига катта ҳисса қўшади деган хулосага келишимиз мумкин. [4].

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда статистика соҳасида математик статистика, эҳтимоллар назарияси ва эконометрика усулларидан фойдаланиш самарадорлигини янада такомиллаштириш ҳамда корреляцион ва регрессион таҳлил асосида олинган маълумотлар орқали иқтисодий жараёнларни прогнозлаш, бугунги куннинг муҳим муаммоларидан бири ҳисобланади ва у мақоланинг долзарблигини белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари.1-жилд. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси .Тошкент – 2021
2. Соатов Н.М. “Статистика” . Т.: “Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти” , 2003
3. Маткаримова И., Егамов С. Инновативе Течнологига Метҳодисал ресеарч

жоурнал 2023-й. 5 май

4. 4.“Статистика тизимини ривожлантиришнинг миллий стратегияси:назария ва амалиёт” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент.ТМИ 2023 йил 19 октябрь

5. Абдуллаев Ё. Макроиқтисодий статистика: 100 савол ва жавоб. –Т.: “Меҳнат”, 1998. -145 бет.

6. Макаримва И. “Статистика ва эконометрика” (2-қисм) фанидан амалий машғулотлар учун услубий қўлланма. Урганч, 2023 й 122 бет.

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ УЗБЕКСКИХ ШКОЛ В УСЛОВИЯХ МНОГОЯЗЫЧИЯ

Ф.К. Хабибуллаева
Андижанский филиал Какандского университета
доцент кафедры педагогики, психологии и филологии

Аннотация. Статья посвящена одному из актуальных вопросов преподавания русского языка как неродного в условиях многоязычия, выявлению специфики обучения русскому языку в школах Республики Узбекистан. Использованию эффективных подходов к обучению русскому языку современных узбекских школьников.
Ключевые слова: обучение русскому языку, личностно-ориентированный подход, инновационный подход.

Annotation. Russian is one of the topical issues of teaching Russian as a non-native language in the context of multilingualism, identifying the specifics of teaching Russian in schools of the Republic of Uzbekistan. The use of effective approaches to teaching Russian to modern Uzbek schoolchildren.
Keywords: Russian language teaching, personality-oriented approach, innovative approach.

Как известно, многоязычие это использование нескольких языков в пределах одной страны. К числу многоязычных относится огромное количество государств, в том числе и Республика Узбекистан. Государственным языком является узбекский. Им свободно владеет большинство жителей страны. В то же время в стране активно используется русский язык, имеющий статус межнационального языка. Кроме того, представители других национальностей, проживающие на территории Узбекистан (узбеки, турки, таджики и др.), говорят на родных языках.

Целью настоящей статьи является выявление специфики обучения русскому языку как неродному в условиях реализации современных подходов в узбекских школах в условиях многоязычия.

В условиях совместного обучения представителей разных национальностей приобрел популярность коммуникативный подход, являясь ведущим принципом развития речевой деятельности и основой обучения языкам.

Выполнение текущих требований реформы высшего образования в первую очередь возлагает большую ответственность на преподавателя. Преподаватель должен обладать глубокими и доскональными знаниями по своей специальности, в совершенстве владеть педагогическими и психологическими знаниями, владеть методами и методикой преподавания, а также технологией, опираясь на свои научно-теоретические знания, необходимые в процессе обучения.

Научно-технический прогресс, экономика, политика и идеология становятся источниками социального развития, выражая физические и духовные способности человека.

В нынешних условиях существует потребность в новых образовательных стандартах. Совместно с государственными стандартами разрабатываются и внедряются общественные и профессиональные стандарты, основанные на подготовке специалистов нескольких уровней и отраслей. Кроме того, в связи с единством практических,

общеобразовательных и воспитательных целей пересматривается и обновляется преподавание русского языка.

Для доведения преподавания предмета «Русский язык» до уровня требований времени актуальным вопросом сегодняшнего дня является сбор данных по темам, указанным в программе дисциплины, и их обработка с помощью мультимедийных компьютерных технологий. Применение современных компьютерных технологий в образовательном процессе целесообразно проводить параллельно, не исключая педагогических технологий. Потому как такой подход дает ожидаемый результат в эффективном освоении графического материала.

Используя богатые возможности современных компьютерных технологий, необходимо перерисовать чертежи, придать им анимацию, сделать мультимедийными. В частности, в результате того, что рисунки в мультимедийном виде привлекают внимание учащихся, меняется их отношение к предмету. Кроме того, у студентов будет возможность получить более полное представление об этом ресурсе.

На наш взгляд, сегодня проблемой незнания русского языка является то, что нет среды. Дети говорят на русском языке в идеале только во время занятий русского языка. В результате уровень общения на русском языке упал.

К примеру, в одном классе состав обучающихся может быть разношерстным, то есть учащиеся, свободно владеющие двумя языками (в нашем случае и узбекским, и русским).

Одной из проблем, с которыми сталкиваются русисты, обучая учащихся русскому языку массово в условиях обязательного изучения предмета «Русский язык» является отсутствие у учителей опыта преподавания предмета и, как следствие, отсутствия среды у учеников. Для преподавания русского языка учителя часто используют традиционные методы и приемы, не отличающиеся от тех, которые применяются при обучении иностранному языку, тогда как необходимо учитывать ряд закономерностей, связанных со спецификой предмета. Следующей проблемой является нежелание или незаинтересованность учеников к изучению русского языка, так как он не является родным языком. Для них этот предмет становится дополнительной нагрузкой, «ненужным грузом».

Одной из явных решений данных проблем является, на наш взгляд, правильный выбор методов и приемов обучения русскому языку в условиях многоязычия. Мы предлагаем использовать анимационный подход при изучении русскому языку по предмету «Русский язык».

Несомненно, при этом большое значение при организации языковой анимации будет иметь и поведение учителя. Используя анимацию на уроке, учитель берет на себе новую роль, роль аниматора. При этом его языковые навыки отступают на второй план, уступая место личностным качествам, необходимым для эффективного исполнения данной роли: коммуникабельности, добродушию, терпеливости, сообразительности, находчивости, чувству юмора [1; 30]. Учителю необходимо будет пользоваться своими знаниями в области психологии, педагогики, риторики, методики преподавания русского языка. Учитель-русист, подготавливая языковую анимацию, должен учитывать возраст учащихся, их психологические характеристики, уровень иноязычного образования. В зависимости от данных классификационных признаков будет меняться характер и содержание анимации, используемый раздаточный материал и многое другое. Успех языковой анимации будет зависеть и от таких факторов, как атмосфера взаимодействия учащихся, характеристики раздаточного материала (качество, удобство использования, привлекательность), обстановка (пространственные характеристики, оформление

помещения, безопасность обстановки). Все это необходимо учитывать при подготовке урока с использованием анимационного подхода.

Использование информационно-коммуникационных технологий на занятиях по русскому языку позволяет реализовать личностно-ориентированный подход, способствует индивидуализации и дифференциации обучения, то есть активизирует деятельность учащихся, повышает заинтересованность в предмете и дает возможность организовать самостоятельную работу каждого учащегося с учетом его возрастных, психологических особенностей и уровня владения языком, как было сказано выше. «Работая с мультимедиа-средствами, ученики могут влиять на свой собственный процесс обучения, подстраивая его под свои индивидуальные способности и предпочтения. Они изучают именно тот материал, который их интересует, повторяют изучение столько раз, сколько им нужно, что способствует более правильному восприятию» [2].

Обращение на занятиях к аудио- и видеоконтентам (песням, обучающим фильмам с различной тематической направленностью, программам новостей, телепередачам, рекламным роликам, отрывкам из произведений, экранизациям и т. п.) также способствует разнообразию учебной деятельности учащихся и позволяет искусственно создать языковую среду, погрузить учащихся в реалии действительности другой страны и, таким образом, сформировать не только языковую, но и социокультурную компетенцию. Информационно-коммуникационные технологии в образовании представляют собой комплекс учебно-методических материалов, технических и инструментальных средств вычислительной техники в учебном процессе. позволяют сделать учащегося не только зрителем готового учебного материала, но и участником его создания, преобразования, оперативного использования. Значительную роль в процессе модернизации образования играют различные Интернет-ресурсы. Во-первых, данные ресурсы реализуют важный в современной методике преподавания русского языка принцип аутентичности. Широкие возможности для эффективного усвоения языка предоставляют чаты, различные виды Интернет-телефонии (Skype), программы «мгновенных сообщений» (ICQ, QiP), «социальные дневники» (LiveJournal) и «социальные сети» (Telegram), а также видеоконференции.

Предлагаем примерный алгоритм описания работы с анимационным материалом (рассмотреть каждый шаг детально) или «особую» педагогическую стратегию.

К примеру:

- изучить слова, встречающиеся в отрывке фильма;
- посмотреть эпизод;
- изучить грамматическую структуру;
- выполнить тест по содержанию эпизода;
- выполнить задания, являющие подготовительными к работе на занятия (выписать диалог в тетрадь и выучить его).

Исходя из сказанного, на наш взгляд, самым эффективным подходом в изучении русского языка в узбекских школах является дифференцированный.

Предлагаем один из примеров такого подхода.

Учащиеся слушают текст маленького рассказа, работают над словарем, значение которых для них известно, и выписывают незнакомые слова. Учитель объясняет значение непонятных слов. Далее класс необходимо разделить на подгруппы, дать задание каждой подгруппе привести однокоренные слова, синонимы, антонимы, составить предложение, используя незнакомые им слова.

Плохо владеющим русским языком даются задания разработать слайды,

позволяющие соотнести слово и его образ.

Далее учащиеся, работая в парах, дают толкование знакомых слов и проверяют свою работу по словарю. Они работают в парах с учениками, хорошо владеющими русским языком. В результате сильные учащиеся помогают слабым ученикам в овладении русским языком.

Резюмируя вышесказанное, при обучении русскому языку в узбекских школах в условиях многоязычия учителя прибегают именно к такому дифференцированному подходу. В результате, в классе создается дружественная атмосфера, учащиеся учатся формулировать свои мысли, выступать с подготовленной презентацией и в ходе диспута выражать свои позиции именно на русском языке.

Литература:

1. Зиновьева Е.В. Анимация как педагогический инструментарий, направленный на развитие дивергентного мышления // Современная высшая школа: инновационный аспект. 2014. Т.3. С. 29–34.
2. Насибуллин Э.Н. Об эффективности информационных технологий обучения. URL: http://www.tiei.ru/ppage/pages/57/HTML/nasibullin/htm
3. Якиманская И.С. Технология личностно-ориентированного образования / И.С. Якиманская; под ред. М.А. Ушаковой. – Москва: 2000. – 224 с.

RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR VA MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZARO UYG‘UNLIK NIMALARDA AKS ETADI.

Yusupov Axrorjon Qurbonovich,
Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrasi dotsenti,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori,PhD
axrorjon201911@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizdagi deyarli barcha ta’lim muassasalari ta’limni takomillashtirish bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning barcha shakllaridan foydalanayotganligi, rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta’lim-tarbiya va maktab,oliy ta’lim haqidagi eng yaxshi tajribalarni o‘z ta’lim tizimimizda joriy qilish Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin amalga oshirila boshlaganligi aks etgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta'lim, xorijiy davlatlar, raqamli iqtisodiyot, ta’lim modeli, ta’lim tizimi, nodavlat oliy ta'lim muassasalari, kontseptsiya, halqaro loyihalar.

Yangi asr ostonasiga qadam qo‘ygan davrda odamlari zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan avvaliga, hayratga tushgan bo‘lsa, bugun o‘sha “sun'iy intellekt” bilan teng harakatlanishga, uning yordamida yangidan-yangi ishlarni ro‘yobga chiqarishga intilmoqda. Davlatlarning kuch-qudrati esa, ularda “raqamli iqtisodiyot”ning nechog‘lik rivojlangani bilan belgilanyapti.

Shunday sharoitda mamlakatimizda ilg‘or axborot texnologiyalarini hamma sohalarda faol qo‘llash, qo‘llaganda ham shunchaki emas, balki har bir jarayonda ilm-fan va ishlab chiqarishni uyg‘unlashtirishga qaratilayotgani bugungi erishayotgan yuqori natijalarimizga asos bo‘lyapti. Hayotimizning barcha jabhalariga kirib borayotgan “raqamli iqtisodiyot” odamlar turmush sharoitini engillashtirishi barobarida, katta-katta innovatsion ishlanmalar, istiqbolli loyihalarga yo‘l ochmoqda.

Bugun iqtisodiyotimizga ana shunday ilg‘or texnologiyalar sohasida chuqur bilim va malakaga ega, ulardan samarali foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar zarur. Buning uchun Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mamlakatimizning etakchi oliy o‘quv yurtlarida yirik ilmiy-tadqiqot markazlari ham bo‘lishi lozim. Zero, universitetlar talabalarga zamonaviy tahsil berish barobarida ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, ilmiy faoliyat olib borishlari, yirik loyihalarni amalga oshirishlari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berishi zarur[1].

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta’lim-tarbiya va maktab haqidagi eng yaxshi tajribalarni o‘z ta’lim tizimimizda joriy qilish Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin amalga oshirila boshlandi. Bundan ko‘zlangan maqsad mustaqil respublikamiz milliy ta’lim tizimlarini yangitdan tashkil qilish, ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishda eskirib, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo‘lish, uni munosib tarzda yangilashdir. Bu sohada YUNISEF, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning O‘zbekistondagi elchixonalari amaliy yordam bermoqdalar.

Respublikamizdagi deyarli barcha ta’lim muassasalari ta’limni takomillashtirish bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning barcha shakllaridan foydalanayotirlar. Ta’lim tizimimiz jahonda eng ilg‘or maktablar qatorida bo‘lishiga Respublika rahbariyati va hukumati tomonidan hamma shart-sharoit yaratilmoqda. Shu tufayli ham AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta’limi ustalari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar va muloqotlarda Respublikamiz ta’limi tizimiga yuqori baho berildi.

Shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta’limi xodimlari oldida hozirgi kunda eng muhim vazifa – mustaqil O‘zbekistonning hozirgi ta’lim tizimlarini istiqlol ruhi bilan

takomillashtirish, uni o‘zimizning mumtoz pedagogika an’analari bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilg‘or jihatlarni o‘zlashtirish, yangi-yangi samarali o‘quv predmetlarini ta’lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chiqishdir [2,15]. Buning uchun iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg‘or tajribalarni ta’lim tizimimizda qo‘llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta’lim tizimi ham o‘zgardi. Avvalgiday gumanitar ta’lim an’analari muhim o‘rinni egallaydi, lekin texnik ta’lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta’lim ham birinchi o‘ringa chiqmoqda. Oliy o‘quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo‘nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o‘quv rejalari qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Ta’lim modellari. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendentsiyalar. Qiyosiy pedagogik tizim bu qiyosiy pedagogika metodologiyasi asosida pedagogikaning xalqaro, regional, milliy tajribalarini o‘rganish va tatbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik tizimni ma’lum davlat, region, aniq o‘quv muassasida rivojlantirish bo‘yicha qiyoslashga yo‘naltirilgan dinamik pedagogik tizimdir.

Qiyoslash texnologiyasi ikkita bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchisi “o‘rganish va qayd qilish”, ikkinchisi “tuzish va tatbiq qilish” deb nomlanadi.

“O‘rganish va qayd qilish” bo‘limida qiyosiy tadqiqotlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- ta’lim tizimi va uning elementlarini rivojlanish holati va yo‘nalishlarini aniqlash;
- ma’lumotlarni to‘plash;
- aktlarni tahlil va tasnif qilish;
- qiyoslash mezonlarini tanlash.

“Tuzish va tadbiq qilish” bo‘limidagi qiyosiy tadqiqotlar esa quyidagicha amalga oshiriladi:

- o‘rganilayotgan obyektning prognostic modelini tuzish;
- a) tattbiq qilish shakli, metodi va chegaralari; b) xususiy va umumiylikni aniqlash;
- eng maqbul modelni tuzish;
- ta’lim muassasalariga tatbiq etish.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlari zamon va makon omillaridir. Zamon omili bir xil pedagogik tizimni turli tarixiy davrlar, asrlar, yillarda taqqoslashni nazarda tutadi. Bunda turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan pedagogik nazariyalar o‘rganiladi.

Makon omili esa turli hududlarda joylashgan davlatlarning pedagogik tizimlarini taqqoslashni nazarda tutadi. Quyida makon omiliga ko‘ra turli davlatlar ta’lim modelini taqqoslab ko‘ramiz. Masalan:

Amerika modeli: kichik o‘rta maktab → o‘rta maktab → katta o‘rta maktab → 2 yillik kollej → universitet tizimidagi 4 yillik kollej → magistratura → doktorantura.

Fransiya modeli: onalar maktabi → o‘rta maktab → kollej → texnologik, kasbiy va umumta’lim litseyi → universitet → magistratura → doktorantura.

Germaniya modeli: umumiy maktab → real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktab → oliy o‘quv yurti → magistratura → doktorantura.

Angliya modeli: birlashgan maktab → grammatik va zamonaviy maktab → kollej → universitet, magistratura, doktorantura.

Rossiya modeli: umumta’lim maktabi → to‘liq o‘rta maktab, gimnaziya va litsey-kollej → institut, universitet, akademiya → magistratura → doktorantura.

Qozog‘iston modeli: to‘liq umumta’lim o‘rta maktab → kollej → universitet, akademiya (bakalavriat) → magistratura → doktorantura.

Demak, zamon va makon omillariga ko‘ra pedagogik tizimlar modelini taqqoslashda yangi pedagogik bilimlar yuzaga keladi. Uning mazmunida quyidagilar aks etadi:

ta’limning zamonaviy holatini qayd etish;

ta’lim siyosatini takomillashtirish, muqobil ta’lim siyosatini taklif qilish;

ta’lim jarayonlarida kutilayotgan holatlarni bashorat qilish;

qiyosiy pedagogikaning nazariyasi va metodologiyasini boyitish.

XX asr oxirida jahon ta’lim tizimida quyidagi global tendentsiyalar ajratib ko‘rsatildi:

ta’lim tizimini demokratlashtirishga intilish, ya’ni ta’limning hamma uchun ochiqligi, ta’lim tizimining uzluksizligi, ta’lim muassasalariga mustaqillikning taqdim etilishi;

shaxsga ta’lim olish huquqining to‘liq ta’minlanishi (har bir insonga millati, irqi, kelib chiqishidan qat’iy nazar istalgan turdagi ta’lim muassasasida ta’lim olishi);

ma’lumot olishga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sezilarli ta’siri (pulli-shartnoma asosida tahcil olish);

xilma-xil qiziqish va o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tashkiliy tadbirlar ko‘lamining ortib borishi;

ta’lim xizmatlari bozorining o‘sishi;

oliy ta’lim tarmoqlarining kengayishi va talabalarning ijtimoiy tarkibining o‘zgarishi;

ta’limni boshqarish sohasida o‘ta markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan boshqaruv uyg‘unligini ta’minlash;

rivojlangan davlatlar tomonidan ta’lim moliyalashtiriladigan asosiy obyektga aylanishi;

ta’lim dasturlarini doimiy yangilash va modernizatsiyalash;

“o‘rtacha o‘zlashtirish”ga yo‘nalganlikdan, har bir o‘quvchining o‘ziga xosliklarini ochish hamda ularning qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga etibor qaratilishi;

rivojlanishida nuqsoni bor bo‘lgan bolalar ta’limi uchun qo‘shimcha resurslarni izlab topish.

Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari. Jahon ta’limi muammolarini hal etishda turli ta’lim tizimlari ishtiroki zaruriyatini talab etadigan yirik xalqaro dastur va loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik xalqaro loyihalarga quyidagilar kiradi: [3]

• ERAZMUS – maqsad Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar talabalarinin mobilligini taminlash (masalan, dastur doirasida 10% talabalar Yevropa mamlakatlaridagi boshqa oliy ta’lim muasssalarda o‘qishga borishlari kerak).

• LINGVA — bu dastur kichik sinflardan boshlab chet tillarni o‘rganish samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan.

• EVRIKA – ushbu loyihaning maqsadi Sharqiy Yevropa davlatlari bilan amalga ooshirilayotgan tadqiqotlarni uyg‘g‘unlashtirish.

• ESPRIT — yangi axborot texnologiyalarini yaratish sohasida Yevropa universitetlalariri, kompyuter firm kuch va imkoniyatlarini birlashtirishni talab etuvchi loyiha.

• EIPDAS — arab davlatlarida ta’limni rejalashtirish va boshqarishni takomillashtirish sohasiga doir dastur.

• TEMPUS – Yevropa Ittifoqining hamkor-davlatlarda oliy ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturi.

• IRIS — xotin-qizlarning kasbiy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishgga yo‘naltirilgan loyihalar tizimi.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta'lim tizimining barcha

bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi, xozirgi kunda 50 foizdan oshiqroqni tashkil qilmoqda.

Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko‘lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo‘ldi[4].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo‘lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan [5]boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://yuz.uz/uz/news/ilm-fanga-asoslangan-iqtisodiyot
2. Mallaev A. Ta’lim-tarbiya uyg‘unligi – komil insonni shakllantirish garovi. – T.: 2011. 15-bet
3. https://azkurs.org/mavzu-rivojlangan-mamlakatlarda-talim-tizimining-oziga-xoslikl.html?page=9
4. https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar
5. https://www.gazeta.uz/oz/2016/12/31/ilm-fan/

ILMIY TADQIQOTLAR VA IJTIMOIY INNOVATSIYALAR: KELAJAK UCHUN IMKONIYATLAR

Umurzakova Kommuna Xursanovna
Qo’qon universiteti katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalarning jamiyat rivojlanishiga ta’siri va kelajak uchun yaratadigan imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy izlanishlarning texnologik va ijtimoiy innovatsiyalarni shakllantirishdagi o‘rni, ularning turli sohalarda qo‘llanilishi va amaliyotga tatbiq qilinishining ahamiyati o‘rganiladi. Ijtimoiy innovatsiyalar yordamida iqtisodiyot, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kelajakda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va ularni xalqaro hamkorlik orqali kengaytirishning muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy innovatsiyalar, texnologik rivojlanish, amaliyotga tatbiq, iqtisodiy o‘sish, sog‘liqni saqlash, ta’lim, raqamli platformalar, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish.

Kirish. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar kelajakni shakllantirishda muhim omillar sifatida qaraladi. Bugungi kunda dunyo oldida turgan eng katta muammolar — iqlim o'zgarishi, energetika inqirozi, global sog'liqni saqlash inqirozi va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolar ilm-fanning yutuqlariga asoslangan innovatsion yondashuvlar orqali hal qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqotlar nafaqat bilimlarni kengaytirish, balki jamiyat hayotiga real o'zgarishlar kiritish uchun ham zarur vositadir. Ilmiy tadqiqotlar insoniyat oldida turgan muammolarga javob izlashda yetakchi rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotlar ko'pincha yangi bilimlar yaratish bilan chegaralanmaydi, balki bu bilimlarni jamiyat manfaatlariga mos ravishda qo'llash uchun innovatsiyalarni yaratish zaruratini ham bildiradi. Ijtimoiy innovatsiyalar esa bu jarayonning ajralmas qismidir. Ijtimoiy innovatsiyalar orqali ijtimoiy muammolarni hal etish va insonlar hayotini yaxshilash uchun yangi usullar va yondashuvlar ishlab chiqiladi. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar birgalikda ishlaganda esa, ular jamiyatda chuqur va barqaror o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ijtimoiy innovatsiyalar tushunchasi keng va ko'p qirrali bo'lib, turli sohalarni qamrab oladi. Ular ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy adolat va hatto siyosiy sohalarga ham taalluqlidir. Masalan, ta'lim sohasidagi ijtimoiy innovatsiyalar texnologiyalarni keng qo'llash orqali o'quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Sog'liqni saqlash sohasida esa ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar yangi dori vositalarini kashf qilish, kasalliklarni oldini olish va davolash jarayonlarini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, energetika va ekologiya sohalarida ham ilmiy tadqiqotlar kelajak uchun yangi, barqaror yechimlar topishda muhim o'rinni egallaydi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar nafaqat texnologik rivojlanishga, balki iqtisodiy o'sishga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalar orqali yangi ish o'rinlari yaratilib, iqtisodiyotning yangi tarmoqlari shakllanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy innovatsiyalar iqtisodiy tengsizlik va boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, mikro moliyalashtirish yoki ijtimoiy tadbirkorlik kabi ijtimoiy innovatsiyalar orqali iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Natijada, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatda ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Bugungi globallashgan dunyoda ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar o'zaro chambarchas bog'liq. Bir sohadagi tadqiqotlar va kashfiyotlar boshqa sohalarga ta'sir ko'rsatishi va innovatsiyalarning yangi yo'nalishlariga turtki bo'lishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt yoki

genetik muhandislik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarning integratsiyasi nafaqat alohida bir sohaning rivojlanishiga, balki butun jamiyatni yuksaltirishga xizmat qilishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalarning jamiyatda keng qo'llanilishi esa ularning samaradorligi va barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, fuqarolik jamiyati tashkilotlarining faol ishtiroki talab etiladi. Innovatsiyalarni ommaviylashtirish uchun esa ularning ijtimoiy qabul qilinishini ta'minlash muhimdir. Buning uchun esa ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi yutuqlarni keng jamoatchilikka tushuntirish, aholining bilim va savodxonligini oshirish kerak. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar kelajak uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolarni hal qilishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ular asosida yangi ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda innovatsiyalar inson hayotining har bir sohasida chuqur iz qoldirmoqda va bu jarayonlar ilmiy izlanishlar asosida rivojlanib boradi. Innovatsion g‘oyalar iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, ekologiya va ijtimoiy sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, buning natijasida yangi imkoniyatlar, yechimlar va strategiyalar paydo bo‘ladi. Ushbu maqola ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalarning kelajak uchun qanday imkoniyatlar yaratishi, ularning jamiyat va iqtisodiyotga bo‘lgan ta’siri hamda ijtimoiy innovatsiyalarni amalga oshirishning muhimligi haqida so‘z yuritadi.

Ilmiy Tadqiqotlarning Rolini Kuchaytirish. Ilmiy tadqiqotlar – bu innovatsiyalarning poydevori. Har qanday texnologik va ijtimoiy yangiliklar zamirida ilmiy asoslar yotadi. Kelajakning eng katta muammolaridan biri, masalan, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, va suv resurslarining yetarli emasligi, aynan ilmiy tadqiqotlar orqali yechimini topishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar nafaqat muammolarni tahlil qilish, balki ularga barqaror va innovatsion yechimlarni taklif qilish uchun zarurdir. Ijtimoiy innovatsiyalarda ham ilmiy tadqiqotlar asosiy rol o‘ynaydi. Ijtimoiy innovatsiyalar – bu jamiyatning ehtiyojlariga moslashgan va inson hayotini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan yangi uslub va g‘oyalardir. Ushbu innovatsiyalar, masalan, ta’lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalar yoki sog‘liqni saqlashda raqamli yechimlarni tatbiq qilish, jamiyatning turmush sifatini yaxshilashda katta rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy Innovatsiyalar va Ularning Ta'siri. Ijtimoiy innovatsiyalar iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega. Bugungi globallashgan dunyoda ijtimoiy innovatsiyalar bir mamlakatning ichki rivojlanishi bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro miqyosda ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Masalan, sog‘liqni saqlashda sun’iy intellekt asosida xizmat ko‘rsatish yoki ta’limda masofaviy o‘qitish texnologiyalarining joriy qilinishi butun dunyo miqyosida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar ham ijtimoiy muammolarni hal qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta'limda raqamli platformalarning joriy qilinishi rivojlanayotgan hududlardagi bolalarning sifatli ta'limga bo'lgan imkoniyatlarini oshiradi.

Ilmiy Tadqiqotlar va Innovatsiyalarni Amaliyotga Tatbiq Etish. Ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi ko‘pincha ularning amaliyotga tatbiq qilinishiga bog‘liq. Innovatsiyalar faqatgina laboratoriyalarda yaratilmaydi, balki ular real hayotda qo‘llanilsa, keng tarqaladi va samarali bo‘ladi. Ijtimoiy innovatsiyalarni amalga oshirish uchun turli sohalar vakillari – olimlar,

tadbirkorlar, davlat va jamoat tashkilotlari birgalikda ishlashi kerak. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ijtimoiy innovatsiyalar, jumladan, bolalarning masofaviy o‘qishi va raqamli ta’lim platformalarini yaratish kabi loyihalar davlat va xususiy sektorning hamkorligi orqali muvaffaqiyatli bo‘lgan. Bunday yondashuvlar nafaqat ta'lim sohasida, balki sog'liqni saqlash, ekologiya va energetika sohalarida ham amalga oshirilmoqda. Shu tariqa, ilmiy izlanishlar va innovatsion texnologiyalar jamiyatning umumiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Kelajak uchun Innovatsion Strategiyalar. Kelajak uchun ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishda bir nechta asosiy strategik yo‘nalishlar mavjud. Eng birinchisi, yoshlarni ilm-fan va texnologiyalarga jalb qilishdir. Yoshlar innovatsiyalar yaratishda asosiy ijodiy kuch hisoblanadi. Ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv dasturlari keng joriy qilinishi, bolalikdan ijodkorlik va innovatsion fikrlash rivojlantirilishi lozim. Bu esa kelajakda texnologiyalarni yangilash va ilm-fan rivojlanishini ta’minlaydi. Ikkinchi muhim strategik yo‘nalish – ilmiy va texnologik yutuqlarni tijoratlashtirish. Innovatsiyalar bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha tijorat sohasiga tatbiq qilinmasdan qolib ketadi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish kelajakda iqtisodiy rivojlanishga sezilarli turtki beradi. Shuningdek, innovatsiyalarni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik va global miqyosda tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda xalqaro tashkilotlar va yirik kompaniyalar hamkorligida ko‘plab yirik ijtimoiy innovatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu jarayon global miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu jarayonlar insonlarning turmush darajasini oshirish, global va mahalliy muammolarni hal qilish, iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, innovatsiyalar texnologiyalar, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalarda yangi yondashuvlar va yechimlarni taklif qilishi orqali jamiyatga sezilarli foyda keltiradi. Ilmiy tadqiqotlar esa bu innovatsiyalarning asosi bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli amaliyotga tatbiq qilinishini ta’minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar innovatsion jarayonlarning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Ular orqali global muammolar, jumladan, iqlim o‘zgarishi, energiya manbalarining tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi dolzarb masalalarga yechimlar ishlab chiqiladi. Ilm-fan yangiliklari, texnologik rivojlanish va yangi bilimlar turli sohalarda yanada barqaror va samarali yechimlar topishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari, o‘z navbatida, innovatsion texnologiyalarga asoslanib yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratishga turtki beradi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga kuchli hissa qo‘shadi.

Ijtimoiy innovatsiyalar ham o‘z o‘rnida muhim ahamiyatga ega. Ular jamiyat ehtiyojlariga moslashgan yangi texnologiyalar, xizmatlar va boshqaruv uslublarini ishlab chiqish bilan jamiyatda sezilarli o‘zgarishlar sodir qiladi. Ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ta’lim va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda ijtimoiy innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, sog‘liqni saqlashda sun’iy intellekt va telemeditsina texnologiyalari aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ta’lim sohasida raqamli platformalar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi masofani qisqartiradi. Bunday innovatsiyalar jamiyatda adolatli rivojlanishni ta’minlash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholining farovonligini oshirish imkonini beradi. Kelajakda innovatsiyalarni samarali rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish uchun bir qator strategik choralar ko‘rish zarur. Birinchidan, ilmiy tadqiqotlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va ularni tijoratlashtirishni rag‘batlantirish lozim. Innovatsion texnologiyalarni amaliy hayotda keng qo‘llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Ikkinchidan, yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, ularni innovatsion loyihalarda faol ishtirok etishga tayyorlash muhimdir.

Bu jarayon kelajakda yangi avlodning ilmiy salohiyatini oshirish va texnologik rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik ijtimoiy innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Ilm-fan va texnologiyalardagi ilg‘or yutuqlarni xalqaro miqyosda qo‘llash va tajriba almashish kelajakdagi global muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi. Xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar ko‘pincha yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning samaradorligini oshiradi, chunki bu jarayonlarda har bir mamlakat o‘zining noyob tajribasi va yutuqlari bilan ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatning barcha jabhalarida muhim o‘zgarishlar va imkoniyatlar yaratadi. Ular nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash, balki kelajak avlod uchun barqaror va xavfsiz hayot sharoitlarini yaratishda ham katta rol o‘ynaydi. Shu bois, innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy innovatsiyalarning keng ko‘lamda tatbiq etilishini ta’minlash kelajak uchun muhim strategik yo‘nalishdir. Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatning kelajakdagi rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biridir. Innovatsiyalar yordamida jamiyatda turmush darajasi yaxshilanadi, ijtimoiy muammolar yechim topadi va iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali innovatsion rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Shu sababli, jamiyatimizda ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish kelajak uchun muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sidorov, V. A., Tursunov, I. E., Sharipov, T. S., & Yahyoyeva, S. O. (2023). INNOVATSIYA IQTISODIYOTI: TEXNOLOGIK YUTUQ MUAMMOSI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 8-15.
2. Norboyev, F. (2023). PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR TADBIQIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(9), 55-60.
3. Umarjon, B., & Olimxoja, O. (2024). INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA XORIJIY TAJRIBASI. Ustozlar uchun, 56(1), 43-49.
4. Axmatova, N. (2024, February). GLOBAL KONTEKSTDA TIL O‘QITISHDAGI STRATEGIYALAR VA INNOVATSIYALAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 565-566).
5. Мамадалиев, К. К. (2021). INNOVATION AS A FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR. Life Sciences and Agriculture, (1), 18-22.
6. Umurzakova Kommuna. (2024). INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(4), 1–9. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/663
7. Умурзакова Коммуна. (2024). ТРУДНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(4), 10–18. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/664
8. Умурзакова Коммуна. (2024). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКАНОМИКЕ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(4), 19–24. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/665
9. Умурзакова, К. (2024). НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ–ИМПУЛЬС К САМОРАЗВИТИЮ СТУДЕНТОВ. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 1-4.
10. Kommuna, U. (2024). THE EFFECT OF THE DIGITAL ECONOMY ON EDUCATION. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 5-7.

11. Обиджонов, М., & Умурзакова, К. (2024). ВЛИЯНИЕ ДЕЛОВОЙ ЭТИКИ НА БИЗНЕС СРЕДУ. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 8-11.
12. Umurzakova Kommuna. (2024). USE OF MODERN MARKETING CONCEPTS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 1–8. Retrieved from https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/48
13. Kommuna Umurzakova. (2024). THE SPECIFICS OF THE TRANSLATION OF TRADITIONAL VALUES IN MODERN DIGITAL INFORMATION DISCOURSE. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 9–11. Retrieved from https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/49
14. Umurzakova Kommuna. (2024). DOSTON IS A DEVELOPED GENRE OF FOLKLORE IN UZBEKISTAN (DESCRIBTION OF THE MAIN HERO OF EPIC POEM ALPAMYSH). International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 12–17. Retrieved from https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/50
15. Umurzakova, K. K. (2022). Russian language: Yesterday, today and tomorrow.
16. Umurzakova, K. K. (2022). RESEARCH ACTIVITY IS AN IMPULSE TO SELF-DEVELOPMENT OF STUDENTS. Frontline Social Sciences and History Journal, 2(03), 39-44.
17. Umurzakova, K. K. (2021). Problems of russian language teaching in higher education and their solutions. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 774-778.
18. Umurzakova, K. (2023). ADVANTAGES OF THE METHOD OF USING STORIES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. Экономика и социум, (6-2 (109)), 553-557.
19. Умурзакова, К. (2024). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКАНОМИКЕ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(4), 19-24.
20. Xursanovna, U. K. (2024). O ‘ZBEKISTON IJTIMOIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQI. Kokand University Research Base, 515-518.
21. Умурзакова Коммуна Хурсановна. (2024). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ИНФРАСТРУКТУРА. Научная база Кокандского университета, 965–968. Получено с https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/268
22. Умурзакова Коммуна Хурсановна. (2024). ЦИФРОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ БИЗНЕСЕ. Научная база Кокандского университета, 273–276. Получено с https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/327
23. Умурзакова Коммуна Хурсановна. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ КОНЦЕПЦИЙ МАРКЕТИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ. Научная база Кокандского университета, 277–284. Получено с https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/328
24. Умурзакова Коммуна Хурсановна. (2024). О ТРУДНОСТИ ПОНИМАНИЯ РУССКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ. Научно-исследовательская база Кокандского университета, 290–295. Получено с https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/330.
25. Умурзакова Коммуна Хурсановна и Обиджонов Мухаммадали Муроджон угли. (2024). ВЛИЯНИЕ ДЕЛОВОЙ ЭТИКИ НА БИЗНЕС СРЕДУ. Научно-исследовательская база Кокандского университета, 969–973. Получено с https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/269.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ismayilov Akmal Ziyadillayevich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi
e-mail: akmalismailov1979@gmail.com

Annotatsiya: Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi nafaqat bizda, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning e’tiborli jihatlaridan biri shundaki, o‘quv jarayonida katta e’tibor talabaning mustaqil ishlashiga va shu asosda fanlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga qaratilganligidir. Shularni hisobga olib ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, shakllantirish, takomillashtirib borish va mexanizmini doimiy harakatini ta’minlash borasida fikrlar berilgan. Hamda kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazoratini amalga oshirish, mavjud muammolar va ularning echimlari bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul, kredit-modul tizimi, “Sillabus”, mustaqil ish, kompetensiya, yangi pedagogik texnologiyalar.

Barchamizga ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020-yildagi 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 29.04.2024-yildagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyrug‘i va boshqa tegishli qator hujjatlarda Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etilishi belgilab berilgan. Shulardan kelib chiqib bugungi kunda barcha Oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlarida kredit-modul tizimi joriy etilgan.

Barchamizga ma’lumki kredit-modul tizimi asosida fan o‘qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan “Sillabus” o‘quv yili (semestr) boshida talabalarga taqdim etiladi. “Sillabus”da fanning maqsadi va uning o‘quv dasturida tutgan o‘rni, kasbiy faoliyat uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o‘rganish natijasida ega bo‘ladigan bilimlar va ko‘nikmalar, fan bo‘yicha semestr davomida o‘rganiladigan mavzular, foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati, baholash mezonlari, talabalarning bajarishi lozim bo‘lgan mustaqil ishlari mavzulari va turlarini qamrab olishi kerak.

Bunda (Sillabusda) talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e’tibor berishimiz lozim:

1. Bilim sohasi, ta’lim sohasi va yo‘nalishlarini;
2. Talabalarimizni nechanchi bosqichda tahsil olishini;
3. Ushbu fanimizning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasini;
4. Mustaqil ish mavzusining axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasini;
5. Mustaqil ish topshiriqlar bankini yaratishda ularning murakkablik darajasi inobatga olinishi;
6. Talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;
7. Mustaqil ish mavzusi talabaning muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirishga xizmat qilishi;
8. Mustaqil ish mavzusi talabalarning mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko‘nikmalarini egallashiga xizmat qilishi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, talabalar o‘tilayotgan fanni yaxshi o‘zlashtirishi va uning mazmun-mohiyatini anglab yetishlarida ular tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, talabalarning o‘zlari tomonidan bajariladigan mustaqil ishlari - bu talabaning o‘ziga xos o‘quv faoliyati bo‘lib, topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, fanga qiziqishi ortishiga va muayyan fan sohasida bilimlarni egallashiga yordam beradi. Mustaqil ishlarni bajarishi jarayonida talabalarning mantiqiy fikrlashi, ijodiy faolligi, o‘quv materiallari bilan ishlashni o‘zlashtirib tadqiqotchilik yondashuvlari shakllanib boradi. Umuman olganda, “MUSTAQIL TA’LIM” - o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabaning muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirish, mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko‘nikmalarini egallash hamda auditoriyada olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumot va materiallarni mustaqil o‘rganishga qaratilgan muhim o‘qitish shaklidir.

Shu o‘rinda o‘zimizga savol beraylik, mustaqil ta’limni tashkil etishdan maqsad nima? O‘ylaymizki buni javobi quyidgicha. Mustaqil ta’limini tashkil etishdan asosiy maqsad fan (mavzu) bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, fan professor-o‘qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda talabalarning mustaqil ta’limi samarali tashkil etilgan deb hisoblaysizmi? – degan so‘rovnomaga professor-o‘qituvchilar tomonidan turlicha fikr-mulohazalar berilgan. So‘rovnomada ishtirok etgan professor-o‘qituvchilarning 29,6 foizi “Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim samarali tashkil etilgan”, 31,3 foizi “Samarali tashkil etilmagan”, deb hisoblashsa, 39,1 foizi “Qisman samarali tashkil etilgan”, deb javob berishgan. So‘rovnoma natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim yetarli darajada tashkil etilmagan. [1, B. 9]

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari ularni yuzaga kelayotgan nazariy va amaliy muammolarni oqilona va samarali hal eta oladigan ijodkor shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak mutaxassislarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining bo‘lishi-yuqori malakali kadrlarga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Chunki, biror bir sohada tadqiqotchi kadrlar faoliyat yuritmas ekan, bu sohada yangiliklar, rivojlanishlar, samaradorlik ko‘rsatgichlari haqida gap bo‘lishi mumkin emas. [2, B. 183-201]

Oliy ta’limda mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining shu yil 29-apreldagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 136-sonli Buyrug‘ida aniq maqsad va vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. Uning IV-bandida “Mustaqil ta’limni tashkil etishda professor-o‘qituvchilar va talabalaming vazifa va majburiyatlari” ko‘rsatib berilganini alohida ta’kidlash zarur. [3, B. 1-6]

Bugungi kunda kredit-modul tizimi asosida talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan fanlarning auditoriya mashg‘ulotlariga umumiy o‘quv yuklamasining o‘rtacha 40 foizi va talabalarning mustaqil ishlarni bajarishiga 60 foizi ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, talaba fanlarni o‘zlashtirishida o‘z ustida ishlashi, ya’ni berilgan mustaqil ish mavzularini o‘z vaqtida sifatli bajarib kelishlari shart. Bunda esa professor-o‘qituvchining ham zimmasiga katta vazifalar yuklanadi. Bu vazifalarning ayrimlari quyidagilardan iborat deb bilamiz:

1) Fan bo‘yicha Sillabus tayyorlayotganda mustaqil ish mavzulariga ahamiyat berish (fan mavzularini qamrab olish);

2) Mustaqil ish mavzularini birinchi dars mashg‘ulotidayoq talabalar diqqatiga yetkazish;

3) Talabalarga mustaqil ish mavzularini yoki ularni bajarish usullarini tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;

4) Mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berib borish;

5) OTM kutubxonasining o‘quv-uslubiy ta’minlanganligidan kelib chiqib qaysi adabiyotlardan foydalanishlari mumkinligini aytib o‘tishlari;

6) Har bir talaba bilan mustaqil ish mavzulari yuzasidan kerak bo‘lsa individual ishlash;

7) Talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini mustaqil ish mavzulari orqali tizimlashtirib borish;

8) Talaba mustaqil ishlarni o‘z vaqtida bajarib kelishlarini nazorat qilish;

9) Talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni xolisona baholash va kamchiliklari bo‘lsa to‘g‘ri tushunchalar berib borish;

10) Talabalarni ongidan “bilim olish faqat auditoriyada” degan tushunchani chiqarib tashlashga erishishi kerak.

Talaba mustaqil ishlarni bajarishi jarayonida ko‘p muammolarga, savollarga duch kelishi tabiiy. Mana shunday vaqtda professor-o‘qituvchilarimiz talabalarning savollariga yetarli darajada javob bera olishi uchun esa o‘qituvchi o‘z sohasining bilimdoni bo‘lishi talab etiladi. Aks holda o‘qituvchi va u o‘qitadigan fanning reytingi tushib ketadi, agar u tanlov fani bo‘lsa, o‘quv rejasidan olib tashlanishigacha borilishi mumkin.

Bugungi kunda Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan keng qo‘llanilishini e’tiborga olgan holda, talabalar mustaqil ishlarni bajarishlarida elektron shaklda bajarishlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Kuzatishlarim natijasida shuni afsus bilan aytib o‘tishim lozimki, talabalarimiz mustaqil ishlarni bajarishlarida an’anaga aylanib qolgan referat shaklidagi, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak internet tarmoqlaridan tayyor ma’lumotlarni ko‘chirib olib, chop ettirib, eng achinarlisi berilgan ma’lumotlarga ko‘z ham yuritmasdan yuziga ism familiyasini yozib kelishmoqda. Bunday holatda albatta biz professor-o‘qituvchilarning ham aybimiz bor. Demak, biz mas’uliyatni oshirgan holda, talabchanlikni unutmasligimiz, kerak bo‘lsa to‘g‘ri ko‘rsatma va maslahatlarimizni berib borishimiz lozim.

Talaba mustaqil ta’limni bajarishda (tashkil etishda) fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;
- hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalarni berish;
- berilgan mavzuni chuqur o‘rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Bundan tashqari o‘qituvchi fanning xususiyatidan kelib chiqib, talabalarga turli kompyuter o‘quv-dasturlari (MatLab, CorelDRAW, AutoCad, Excel, ...) yordamida elektron tarzda bajariladigan mustaqil ish topshiriqlarini ham berishi mumkin. Va albatta, tavsiya sifatida shuni

aytishimiz mumkinki mustaqil ishlarni bajarishda imkon qadar birorta yangi pedagogik texnologiyalar (klaster, BBB, Venn diagrammasi, T-jadvali, nima uchun, qanday, nilufar guli ...) [4, B. 9-28] dan foydalanishlarini talab qilsak o‘ylaymanki bo‘lajak pedagoglar uchun foydadan holi bo‘lmaydi. Qolaversa, har bir muassasa mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqishlari, har bir fan bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qolaversa “mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish lozim”. [5, B. 223] Albatta bularni amalga oshirsak foydadan holi bo‘lmaydi. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki: 1) professor-o‘qituvchi mustaqil ta’limga berilgan topshiriq va vazifalarni nazorat qilishi, individual tekshirib borishi hamda baholab borishlari uchun qo‘shimcha vaqt va kuch sarflaydi. Shuning uchun bizningcha professor-o‘qituvchilar yuklamasini hisoblash bo‘yicha vaqt me’yorlarini qayta ko‘rib chiqish zarur deb o‘ylaymiz. 2) O‘qituvchi tomonidan berilgan mustaqil ta’lim bo‘yicha individual topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini (intizomni) baholashda aniq mezon ishlab chiqilmagan. Mustaqil ish vazifasini belgilangan muddatda bajarib kelmasa ya’ni muddatlar buzilgan taqdirda fan professsor-o‘qituvchisi baho (ball)ni pasaytirish huquqiga ega bo‘lishi kerak va ushbu jihat fan dasturi va sillabusda ko‘rsatilishi lozim deb o‘ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, samaradorligini va sifatli bajarilishini ta’minlash, nazorat qilish hozirgi vaqtda dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri hisoblanadi. Zero eramizdan avvalgi VI asrda yashab ijod etgan buyuk xitoy faylasufi Konfutsiy shunday degan edi, “Eshitdim unutdim, ko‘rdim eslab qoldim, bajardim tushundim”. Bugungi XXI asrda talabalarning mustaqil ishlarini o‘zlari tomonidan bajarishi fanning mohiyatini anglab etishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ertangi kunimiz egalari bo‘lgan talabalarimizni bilimli, zukko, dono va albatta o‘z kasbining mukammal egalari bo‘lishlari uchun o‘z kasbimizni sidqidildan bajarishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqil ta’limni tashkil etish va baholash mezonlari [Matn]: metodik qo‘llanma / L.Zaripov, Z.Tohirov, M.Tuxtayeva. – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024.
2. Healey, M. (2005). Linking research and teaching to benefit student learning. Journal of Geography in Higher Education, 29 (2).
3. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 29.04.2024-yildagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyrug‘i
4. Qarang: Raximov B.H. O‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o‘tkazish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2016.
5. Musaxanova G.M. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2020. №6.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Madaminova Yarkinoy Saparbayevna
UrDPI, “Texnologok talim kafedrasi” katta o‘qituvchisi
myarkinoy@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada umumtalim maktablarida Pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ahamiyati, ularni qo‘llashdagi bazi muammolar bayon qiqlingan. Pedagogik texnologiyaladan texnologiya darslarida foydalanish usullari, o‘quvchilarning darslarda nazariy bilimlarni egallashdagi, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishdagi, o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni, samarasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Texnologiya, ijodiy faoliyat, loyiha, klaster, axborot, kommunikativ, kompetentsiya, bilim va ko‘nikma.

Bugungi kunda maktab ta’limida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonning deyarli barcha tomonlarini qamrab olgan. O‘quvchining shaxsiy qiziqishi ta'lim jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ta'limning asosiy strategiyasi bolaning shaxsiyati, uning imkoniyatlari va qobiliyatlari, moyilliklari va ehtiyojlarini ta'lim jarayonining markaziga qo‘yadigan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga aylanadi. Bularning barchasini yangi ta’lim texnologiyalari asosida amalga oshirish mumkin. Hozirgi vaqtda bu tushuncha pedagogik leksikonga mustahkam kirib keldi.

Texnologiya - har qanday biznes, mahorat yoki san'atda qo‘llaniladigan texnikalar to‘plami (tushuntirish lug‘ati). Pedagogik texnologiya - ta'lim samaradorligini oshiradigan o‘qitish va o‘quv faoliyatini tashkil etishning usullari va shakllari majmuidan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayonini loyihalash, ulardan foydalanish aniq belgilangan natijaga ega.

Har qanday yangi texnologiyani o‘zlashtirish bilan o‘qituvchining metodikada yangi pedagogik tafakkuri boshlanadi: metodik tilning ravshanligi, tuzilishi, aniqligi, asosli me’yorning paydo bo‘lishi bilan kechsadi.

Turli pedagogik texnologiyalar o‘quv faoliyatini tadbiq qilishga yordam beradi, shuningdek, o‘rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Yangi ta'lim ichida o‘rganish motivatsiyasi muhim o‘rin tutadi. Motivatsiyaning maqsadi bolalarda mavzuga barqaror qiziqishni rivojlantirish, muloqot va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Shunday qilib, o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarning faol kognitiv faoliyatini rag‘batlantirish, o‘quv jarayonining har bir ishtirokchisining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun texnika va usullarni tanlashdir.

Pedagogik maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

- ta'limning innovatsion shakllarini o‘rganish va xorijiy uslubiy adabiyotlarni o‘qish;
- o‘quv samaradorligini oshirish vositasi sifatida texnologiya darslarida PTni qo‘llash;
- turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali texnologiya darslarida ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratish;
- texnologiya darslarida o‘qitishning innovatsion shakllaridan foydalanish tajribasini umumlashtirish.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlaridan foydalanish, balki o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish tamoyillarini aniqlash va texnikasini ishlab chiqishdir.

O‘z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligi axborot-ta'lim muhiti bilan ta'minlanishi kerak. Ta'lim muassasasining asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi axborot-ta'lim resurslari va vositalari tizimi zarur bo‘ladi.

Zamonaviy ta'lim shakllari yuqori kommunikativ qobiliyatlar va o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga faol jalb qilish, nutq va tinglash qobiliyatlari bilim va ko‘nikmalarini faollashtirish, o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini samarali rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Bu zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradi, chunki jamiyat ishbilarmon odamlarga muhtoj.

Har qanday innovatsion faoliyatning asosi ijodkorlikdir. Ijodiy faoliyat hissiy va intellektual sohalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Texnologiya darslarini o‘tkazishda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun men bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanaman:

O‘yinlar. O‘yinlar o‘quvchilarga differensial yondashish, har bir o‘quvchini mehnatga jalb etish, uning qiziqishlari, mayllari va texnologik jaayonlarning nazariy tomonlarini ilmiy jihatdan o‘rganish darajasini hisobga olish imkonini beradi. O‘yin tabiatidagi mashqlar o‘quvchilarni yangi taassurotlar bilan boyitadi, ularning nazriy bilim boyligini faollashtiradi, rivojlanish funktsiyasini bajaradi va charchoqni ketkazadi. Ular maqsadi, mazmuni, tashkil etish va amalga oshirish usullariga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin. Ularning yordami bilan biz biron bir muammoni hal qilishinimiz mumkin (bilim va amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirish va boshqalar) yoki vazifalarning butun majmuasi: mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, kuzatish, e'tibor va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va hk.

Individual o‘yinlarni dars davomida istalgan vaqtda o‘ynash mumkin,

jamoaviy - ularni dars oxirida o‘tkazish tavsiya etiladi, chunki ularda raqobat elementi aniqroq ifodalangan, ular harakatchanlikni talab qiladi. Xuddi shu mashq mashg‘ulotning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin.

Rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quv jarayonini faollashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ma'lumki, rolli o‘yin uning ishtirokchilari tomonidan odamlarning haqiqiy amaliy faoliyatini shartli ravishda takrorlashni ifodalaydi va haqiqiy muloqot uchun sharoit yaratadi. Rolli o‘yin o‘rganishning dastlabki bosqichida ham, yuqori bosqichda ham qo‘llanilishi mumkin. Unda har doim harakatning shartlarini ko‘rsatadigan, bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar va hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoni tavsiflovchi vaziyat taqdim etiladi. Vaziyatda sheriklarning ijtimoiy munosabatlari haqida ma'lumot berish kerak. Rol tavsifi rollar kartasida berilgan. O‘quvchilarga xarakterga kirish uchun vaqt berilishi kerak. Men rollarni tayinlayman, lekin ularni o‘quvchilar o‘zlari tanlashi mumkin. Bu guruhning xususiyatlariga bog‘liq va o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, ularni o‘zlashtirish darajasig a b o g ’l i q . Texnologiya darslarida o‘yin texnologiyalari kasblar bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan darslarda juda qo‘l keladi.

Loyiha texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bolaning faol mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va uni nafaqat bilimlarni eslab qolish va qayta ishlab chiqarishga, balki uni amalda qo‘llashga o‘rgatishga qaratilgan. Loyiha ustida ishlayotganda bolalar hamkorlik qilishni o‘rganishi va o‘rganish hamkorlikda bo‘lishi muhimdir. Ularda o‘zaro yordam, hamdardlik istagi va qobiliyatini shakllantiradi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va faolligi shakllanadi. Ushbu texnologiyadan foydalanish darsda barcha mumkin bo‘lgan ish shakllarini ta'minlashga imkon beradi: individual, guruh, jamoa. Loyiha topshiriqlarini bajarish maktab o‘quvchilariga amaliy ko‘rish imkonini

beradi. Texnologik jarayonlarni o‘rganishning afzalliklari, bu esa ushbu fanni o‘rganishga qiziqish va motivatsiyani oshiradi. O`quvchini o`quv jarayoniga faol jalb etish orqali o`rganish o`zlashtirishga olib keladi. Texnologiya darslarida konstruksiyalashtirish darslarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlahsga o‘rgatishda bu usuldan foydalanish yuqori samara beradi.

Boshlang‘ich maktabda bitta dars yoki uning bir qismiga mo‘ljallangan mini-loyihalardan ham, bajarish uchun uzoq vaqt talab qiladigan yirik loyihalardan ham foydalanish mumkin. Loyihalar individual bo‘lishi mumkin (masalan, kollaj yoki albom "Men va mening do‘stlarim", "Mening oilam", "Mening birinchi kitobim") yoki guruh ("Sevimli uy hayvonlari", "Bizning maktab").

Amaliy ishlarni o‘rgatish jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarimiz salomatligini muhofaza qilishni unutmasligimiz kerak, chunki faqat sog‘lom bolalargina olingan bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni to‘g‘ri o‘zlashtirib, kelajakda hayotda qo‘llashga qodir.

So‘nggi yillarda olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich maktabda allaqachon o‘quvchilarning sog‘lig‘ining yomonlashishi, faollik darajasining pastligi kabi muammolar paydo bo‘ladi.

Turli sinflarda ishlash va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, texnologiya darslarida amaliy, umumiy ta'lim va rivojlanish maqsadlariga yanada samarali erishish uchun zarur.

Darslarda bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olishga, stress va charchoqni ketkazadigan ish turlarini taqdim etishga harakat qillgan maqul.

Butun dars bo‘shashmasdan, ijobiy his-tuyg‘ular muhitida, ohan quvnoq va do‘stona bo‘lishini ta'minlashga harakat qilinadi o‘qish uchun yoqimli, qulay muhit yaratish zarur.

Dam olishning maqsadi - ruhiy stressni bartaraf etish, bolalarga ozgina dam olish berishdir, ijobiy his-tuyg‘ularni, yaxshi kayfiyatni uyg‘otadi, bu esa talim tarbiyaning samaradorligiga olib keladi

Dam olish turlari jismoniy tarbiya daqiqalari, o‘yin tanaffuslari, qo‘shiq aytish, yangi va g‘ayrioddiy narsalarga qiziqish bo‘lishi mumkin. Qiziqarli yoki kulgili hikoya yoki kulgili suratlar tufayli yuzaga kelgan kulgi ham stressdan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Bugungi kunda AKT ta’lim jarayonida mustahkam o‘rin egalladi. AKT yordamida quyidagi tamoyillar amalga oshiriladi: ko‘rinish, foydalanish imkoniyati, o‘qitishga tabaqalashtirilgan yondashuv, amaliy yo‘nalish, materialni tizimli ravishda taqdim etish. Bu tamoyillar ta’limning asosi hisoblanadi, chunki ular ta’lim jarayoni doirasida har bir o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga xizmat qiladi. Endi o‘rganish hayajonli va qiziqarli bo‘ladi, chunki o‘quvchiga an'anaviy shaklda emas, balki zamonaviy va jozibali topshiriq beriladi. Multimedia resurslari har bir darsni o‘quvchi va o‘qituvchi uchun alohida o‘tkazishga yordam beradi. Kompyuter o‘rganish uchun ijobiy motivatsiya yaratish, kuchlanishni va bolaning o‘rganishiga to‘sqinlik qiladigan bir qator komplekslarni bartaraf etish uchun ulkan salohiyatga ega va ularni o‘qituvchi bilan bevosita muloqotda yo‘q qilib bo‘lmaydi.

Ekran tovushli o‘qitish vositalari bu muammoni muvaffaqiyatli hal qiladi. Xayoliy material voqelikni nusxalaydi, asl nusxa haqida turli darajadagi aniqlik bilan g‘oyalarni beradigan model bo‘lib xizmat qiladi.

Texnologiya darslarida texnologik jarayonlarni o‘rganishda bilimlarni o‘zlashtirish va ko‘nikmalarni avtomatlashtirish darajasiga olib keladigan ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimdir. Bunga faqat takroriy takrorlash orqali erishish mumkin. Bunday holda, kompyuter o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda cheksiz sabrli repetitor vazifasini bajarishi mumkin.

Kompyuter o‘yinlari: "Keling, xarid qilaylik." O‘quvchilar sotib olmoqchi bo‘lgan tovarlar ro‘yxatiga ega. Ular tegishli do‘konni topishlari, kirishlari va tovarlarni sotib olishlari kerak. Bu tovarlar amaliyishlarni bajarishda foydalaniladigan asbob va uskunalar bo‘lishi mumkin.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi

Tanqidiy fikrlash baholovchi, aks ettiruvchi fikrlashni anglatadi. Bu hayotning shaxsiy tajribasiga yangi ma'lumotlarni qo‘llash orqali rivojlanadigan ochiq fikrdir.

Ushbu texnologiyada o‘qituvchining roli tubdan o‘zgaradi. U o‘quv jarayonini faollashtiradigan va boshqaradigan sherik bo‘ladi. O‘quvchilar konfliktsiz fikr almashishni o‘rganadilar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim amalga oshiriladi, bunda har bir o‘quvchi nafaqat boshqa hajmdagi tayyor bilimlarni oladi, balki teng sheriklik asosida bilimlarni qurish jarayonida ishtirok etadi.

"Klaster yaratish" texnikasi. Ushbu texnikaning ma'nosi ma'lum bir muammo bo‘yicha mavjud bilimlarni tizimlashtirishga urinishdir. Klaster - bu grafik muayyan tushunchaning semantik sohalarini ko‘rsatadigan materialni tashkil qilish. Tarjimada klaster so‘zi dasta, to‘da ma’nosini bildiradi. Klaster o‘quvchilarga mavzu yuzasidan erkin va ochiq fikr yuritish imkonini beradi.

Klasterdan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Qiyinchilik bosqichida - aqliy faoliyatni rag‘batlantirishda.

Tushunish bosqichida - o‘quv materialini tuzish uchun.

Mulohaza bosqichida - o‘quvchilar nima haqida xulosa chiqarish uchun.

O‘quvchilar klaster tuzgandan so‘ng, siz ularni ushbu mavzu bo‘yicha takliflar kiritishga taklif qilishingiz mumkin. O‘quvchilar mavzu bo‘yicha takliflar bildiradilar, ma’lumotlar almashadilar, guruhlarda ishlaydilar.

"Sinkvinni yozish" texnikasi. Fransuz tilidan tarjima qilingan "cinquain" so‘zi she'r, ma'lum qoidalar asosida yozilgan besh qatordan iborat mazmunni beradi.

Ushbu uslubiy texnikaning maqsadi nima? Sinkvinni tuzish o‘quvchidan o‘quv materiali va ma'lumotlarini qisqacha umumlashtirishni talab qiladi, bu esa unga har qanday vaziyatda fikr yuritish imkonini beradi. Bu erkin ijodkorlikning bir shakli, ammo ma'lum qoidalarga muvofiq olib boriladi.

Shunday qilib, texnologiyani rivojlantirishning texnikasi va strategiyalaridan foydalanish tanqidiy fikrlash, siz o‘quvchilarni turli xil ma'lumotlar bilan ishlash uchun turli xil manbalardan foydalanishingiz mumkin. Bolalar texnologik operatsiyalarni bajarishni o‘rganadilar: ma'lumotni baholaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardimki, zamonaviy o‘qituvchi o‘z faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanmasdan samarali ishlay olmaydi, ulardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning o‘quv yuklamasini kamaytirish va yanada samarali ishlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar insonni tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashning asosiy motor mexanizmi sifatida motivatsiyaga olib keladigan juda ko‘p imkoniyatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘, Ro‘ziyeva D Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016 yil.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.: TDPU, 2004
3. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogik maxorat. Toshkent. TDIU, 2007 yil
4. www. Inter- pedagogika. ru.

FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Zokirova Dilnoza Nematillayevna
Namangan muhandislik-qurilish instituti,
Energetika muhandisligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: zdilnoza1983@gmail.com
tel.:+998-94-306-59-09,

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarni ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar faoliyatiga keng jalb qilish, tadqiqotlarni amalga oshirishning tashkiliy imkoniyatlarini yaratish, ilmiy faoliyatda gender diskriminatsiya muammosiga barham berish, olima ayollar uchun ilmiy nufuzli mukofotlar ta’sis etish, tadqiqot grantlari, xorijiy stajirovka dasturlarini kengaytirish, olimalarning akademik mobilligini oshirish, innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash loyihalarini yo‘lga qo‘yish, fan-texnika taraqqiyotning bundan keyingi rivojida samarali yechimlari masalasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatida xotin – qizlarni roli tog‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: fan-texnika taraqqiyoti, tashkilotchilik, tadbirkorlik, gender tenglik, xotin – qizlar, ayollarga e’tibor, ta’lim, bandlik, kasb – hunar.

Dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin.

Bugungi globallashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo‘lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o‘zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san’at, madaniyat singari barcha sohalarda o‘sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yuz yillikda inson turmush tarzida xususan ayollar ijtimoyi faoliyatida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lganini asosi ilm-fan va texnika rivoji bilan bog‘liq ekanligi hech kimga sir emas. Har tomonlama bilimlarning rivoji, Inson o‘sishi va rivojlanishining asosiy o‘qi va harakatlantiruvchi kuchining omili bo‘lib, xizmat qiladi. Bilim olishda islom dinida chegara yo‘q, beshikdan qabrgacha ilm izla deyishgan, bilim olish jinsga-ayol va erkakga ajralmaydi, bu borada ular teng! Asosiy qomusimizda ham bu borada adolat barqaror. O‘zbekistonda oxirgi yillarda gender tenglik bo‘yicha bir qator qaror va farmonlar xotin-qizlarimizning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun barcha sharoitlar yaratishga qaratilgan va katta ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 26 fevral kuni xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi so‘zlarini tinglar ekanman, xayolimdan shu o‘ylar o‘tdi [1].

Davlat rahbari, jumladan: "Oliy ma’lumotli bo‘lishni istagan, qobiliyati, bilimi bor, lekin taqdir taqozosi bilan orzusiga erisha olmagan xotin-qizlarni rag‘batlantirish tizimi joriy qilinadi. Ya’ni, ota-onasining biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning shartnoma to‘lovi hokimlik va oliy o‘quv yurti hisobidan qoplab beriladi. Bu yangi tizim. Ilgari bunday qilolmasdik. Endi imkoniyat bor", deb ta'kidladi.

Shu munosabat bilan mazkur yig‘ilishda muhokama qilingan yurtimiz xotin-qizlariga

daxldor ko‘plab masalalarning faqat bittasiga to‘xtalishga jazm etdik. Bu ham bo‘lsa, ayollar va qizlarning ilm-fan, texnika-texnologiya sohalarida munosib joy egallashi muammosidir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarni ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar faoliyatiga keng jalb qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun, bir tomondan, yurtimiz ayollari va qizlarining ilm-fandagi faolligini xalqaro miqyosda kuchaytirish, ikkinchi tomondan, ta'lim va ilm-fan sohalarida gender tenglikka erishish nihoyatda zarur.

Chunki, aslida ham, ayol bilimli bo‘lsa, tarbiya qilgan farzandlari zukko, salohiyatli bo‘ladi. Yanada muhimi, ayol ilmli bo‘lsa, millat ilmli bo‘ladi.

Ma’lumki zamonimiz texnologiya zamoni, rivojlangan mamlakatlarda biron soha yo‘q-ki, raqamlash va yashil raqamlash tizimi kirib bormagan bo‘lsa, ayni paytda bu jarayonda dunyo aholisining yarmi, ya’ni ayollarning o‘rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi aniq ma’lum emas. Ko‘p davlatlarda o‘rta ta’lim majbiriy va o‘qishga borganda qizbola va o‘g‘il bola teng qatnashadi, shunga ko‘ra dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bakalavriat talabalarining muhim qismi ayollar bo‘lsa-da, ko‘rsatgichlar shuni ko‘rsatadiki, vaqt o‘tishi bilan yuqori ilmiy darajalarda ayollar soni kamayib borishi kuzatiladi va ularning soni ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Ayollar san’at va ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, ta’lim va tarbiya sohasida ko‘proq faoliyat yuritsalar, texnika, muhandislik, aniq fanlar sohalariga kamroq kirishadi. Asosan, ayollar tarbiyaviy va jismoniy parvarishga urg‘u beradigan ishlarga moyil bo‘lib, texnika mexanika mahoratiga va ijodiy fikrlashga tayanadigan ishlarda kamroq faoliyat ko‘rsatadilar. Lekin aytib o‘tish joizki, O‘zbekistonda oxirgi ikki yil magistr qizlar soni 2-3 barovarga ko‘paygan. Bundan tashqari, ilmiy yo‘nalishlarni tanlashda gender farqlar ham nisbattan kamroq ko‘zatilmoqda [2].

Ijtimoiy hayotga, uy ishlarini bajaradigan texnikadan tortib to qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida ishlaydigan texnologiyalarning kirib kelishi, ya’ni bu evolyutsiyon jarayon ko‘p chegaralarni, an’analarni urf-odatlarni, qolaversa, turmush tarzni o‘zgartirgan bo‘lsa-da, keng ko‘lamli ijtimoiy faoliyatda ayollarnining faol bo‘lishiga sharoit yaratganday bo‘lsa-da, lekin jamiyatda gender tenglikni texnosanoat sohalarda yo‘qligini mushohada qilish oson.

Bugungi kunda texnologik imkoniyatlar muhim ishlab chiqarish omilidir. Bu inson hayotida katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Mazkur jarayonda bilim asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun malakali ishchi kuchiga talab kun sayin ortib bormoqda [4].

Bilimga yo‘naltirilgan jamiyat sohalaridagi islohotlar va o‘zgarish jarayoni, innovatsiyalarning harakatlantiruvchi omili va rivojlanish rejalari va kelajak uchun taraqqiyot strategiyasi bo‘lib, xismat qiladi. Bu jarayon inson rivojlanishiga asoslanadi. U global raqobatni, yangi shakllarni kuchaytirish orqali iqtisodiyotga turli yo‘llar bilan ta'sir qiladi. Ish, bandlik, tashkilotlar va korxonalar, yangi jarayonlar, siyosat, qaror qabul qilish, adolat va xilma-xillik tushunchalari va inson erkinligi miqdorini oshirish orqali jamiyatning gender munosabatlariga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir qiladi. Gender - bu ikki guruh erkaklar va ayollarning har birini jamiyatda o‘ynayotgan roli. Ma’lumki, vaqt o‘tishi bilan rol o‘zgarib kelmoqda va shu bilan birga u turli jamiyatlarda ham farq qiladi. Shubhasiz, bu rol ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotimizga ta’sir qilishi natijasida mamlakatlar rivoji ham turlicha jarayon olgan. Yetakchi mamlakatlarda ilm-fan, texnologiya inson hayotning ko‘p jihatlariga, xususan, jamiyatning gender munosabatlariga ham ta’sir qilganini ko‘rish mumkin [3].

Bilimga yo‘naltirilgan jamiyat - fan va texnik bilimlar barcha darajalarda bo‘lgan jamiyatdir. Bu ijtimoiy jihatdan samarali. Bilim odamlar uchun strategik resursdir. “Intellektual ishchi kuchi” bilan birga jismoniy mehnat bilan kapital, boylik va kuch ishlab chiqarishning asosiy omillari hisoblanadi. Mahsulotlar kundalik hayotda haqiqiy intellektual mehnatdan foydalanishga asoslangan. Shu bilan birga, bilimga yo‘naltirilgan jamiyat ayollarning rolini qayta belgilashni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, texnologiya ayollarning mehnati va hayoti darajasi haqida

dalolat beradi, ya’ni texnologiyani rivojlantirish va ulardan foydalanishda ayollarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Fan va texnika barqaror inson rivojlanishi uchun ijtimoiy adolaga ham ta’sir qiladi [5].

Fan va texnika sohasida bilimga ega bo‘lish intellektual kapital yoki intellektual ishchi kuchini hisoblangani uchun bu inson ijtimoyi hayotiga tabiiy ravishda ta’sir qiladi. Ommaviy ishlab chiqarish jarayonida bilimga asoslangan iqtisodiyot bor. Shu sababli, bilim va texnologiya ayollar hayotining barcha jabhalarida, ayniqsa, iqtisodiyot, ta’lim, tarbiya va atrof-muhitga ta’sir qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda fan va texnika sohasida ayollar ishtiroki qanchalik faol bo‘lsa, kam rivojlangan mamlakatlarda ayollarning ishtiroki past ko‘rsatgichlarni ko‘rsatadi. Allaqachon tajribadan ko‘rinib turibdiki, jamiyatning “keng bilim maydoni”da ayollarning yetarlicha ishtirok etishi musbiy natijalar bersa, gender tengsizligi jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy jihatdan manfiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bilim va texnologiyaning chuqurligi va keng ko‘lami, uni hayotning barcha jabhalariga kirib borishi gender tenglik uchun muhim omil va juda muhim asosdir. Ayollarning mavqeini oshirish va mustahkamlashda bilim va texnologiya ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning turmush tarzini mustahkamlashga katta ta’sir ko‘rsatadi [6]. Gender teglikning mavjudligi, ayollarning salohiyat va qobiliyatini tan olinishi ko‘plab o‘zgarishlarga asos bo‘ladi va jamiyat rivojiga ta’sir qiladi. Inson taraqqiyotiga vakolat berish, inson tanlovini kengaytirish jarayonidir.

Shu sababli, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlarni talab qiladigan jarayondir. Agar u amalga oshirilsa, ayollarning imkoniyatlariga ko‘ra sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oluvchi keng ko‘lamli jarayon. Shuning uchun imkoniyatlarni kengaytirish uchun mos keladigan harakatlar qilish kerak. Erkaklar uchun mavjud imkoniyatlar, ayollar uchun ham fantexnalogiya sohada imkoniyatlar yaratilishi shart. Buning amalga oshirilishi xotin-qizlarning poydevori va huquqlarini mustahkamlaydi, ijtimoiy adolatni kengaytiradi. Boshqa tomondan, uning global o‘sish jarayoniga asos bo‘la oladi [7]. Aksincha, ilm-fan, texnika rivojida ayollarning ishtiroki cheklanganligi nafaqat ayolning, hatto jamiyatning rivojiga ta’sir ko‘rsatadi.

Gender tenglik taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlariga mos imkoniyatlar doirasini kengaytirmoqda. Rivojlanish jarayonida ishtirok etishlari uchun ayollarga imkoniyatlar yaratib berish kerak.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, xotin-qizlarning fan va texnika sohasida ko‘proq ishtirok etishi butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Bu maqsadga qanday erishish mumkinligi faqat ayollarning muammosi emas, balki uni hal qilish uchun butun insoniyat jamiyati harakat qilishi kerak.

Fan va texnika keng doiradagi faoliyatni qamrab oladi. Bu fan va texnikaning ayollarga qanday aloqasi borligi fan va texnologiya ta’rifiga bog‘liq bo‘lib, fan odatda jismoniy dunyoga va uning hodisalariga tegishli bo‘lgan bilimga ega deb hisoblanadi. Eksperimental va tizimli texnologiya nuqtayi nazaridan, texnologiya, ilmiy bilimlardan inson hayotining ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanish yoki boshqacha aytganda, inson muhitida o‘zgarish va takomillashtirishni yaratish. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ayollar an’anaviy ravishda muhim bilim inkubatorlari bo‘lib kelgan. Bugungi kunda u “bilim va texnologiya” sifatida qaraladi va asosan, ayollar bilan bog‘liq inson taraqqiyoti doirasini va bilim va texnologiyalarning keng ufqini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda yangi bilimlarni qo‘llash bosimi bilan ish joylarida genderning an’anaviy bo‘linishi da’vo qilingan. Hozirda dunyoda bandlikka talab unchalik katta emas ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish bo‘limlarida malakali ishchilar mavjud. Jahon tendentsiyasi shuni ko‘rsatmoqda-ki, rivojlanayotgan mamlakatlarda xotin-qizlarning bilim darajasi va malakasi umumiy tarzda

yaxshilandi. Ko‘p mamlakatlarda sanoatlashtirish, aholining qarishi, o‘rtacha umr ko‘rishning ko‘payishi va ko‘rsatkich bilan tug‘ilishning pasayishi kompensatsiya qilinmagan migratsiya ayollarning ko‘proq ishtirok etishiga bo‘lgan talabni oshirdi. Mehnat bozorining yaratilganligi, yangi texnologiyalar, yangi ish o‘rinlarini yaratadi, ushbu ish imkoniyatlarining aksariyati ishchi kuchi emas, balki malakali va ixtisoslashgan kuchlar uchundir. Ushbu o‘sishlarning necha foizi malakali ayollarni tashkil etishi hali aniq emas.

Afsuski, statistik ma’lumotlar va ayollarning haqiqiy ishtiroki va ularning rivojlanish jarayoniga ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri rivojlanmagan mamlakatlarda kamdan-kam uchraydi. Ayollarning fan va texnikadagi ishtiroki asosan bandlikni talab qiladigan tarmoqlarda ko‘rinadi, bandlik imkoniyatlari orqali bilim ko‘proq ko‘rinadi.

Ayollarning bilimga asoslangan ishlab chiqarishga kirishi, asosan, ularning ishtiroki ilmiy faoliyatda ko‘rinadi. Buning uchun ta'lim talab qilinadi va natijada ayollar ish bilan ta’minlanadi.

Ta’lim bosqichi aslida ko‘nikmalarni yaratadi va ularga kuch beradi, ayollarning akademik zinapoyaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ilm-fan, bilim ishlab chiqaruvchi professional kuchlarda ham o‘zini namoyon qiladi.

Ta’lim bosqichi kasbiy va bilimga yo‘naltirilgan bosqichdan ajralib turadi. Ta’lim davomida, avval maktab keyin universitetda gender raqobati juda kam va ayollar, asosan, hayotiy mas’uliyatdan ozodroq. Keyingi bosqichda, ya’ni bilimga asoslangan bandlik bosqichida ayollarning ishtiroki ko‘proq muammolarga duch keladi. Bu bosqichlar uchga bo‘lsak bo‘ladi: birinchidan, ta’limning birinchi bosqichlarida ayollarning ko‘pligi. Ikkinchidan, universitetlar, akademik ta’limning keyingi bosqichlarida ularning sonini kamayishi. Uchinchisi, akademik sohalarni tanlashda gender farqlarni va hozirgacha juda oz sonli ayollar bilimga yo‘naltirilgan kasblarda qolishlari.

Ko‘rib turganingizdek, muammo ko‘proq yuqori darajadagi bilim malakada ayollar safi kamayib borishida, bunga asosiy sabab ko‘pincha ayol kishining oiladagi mas’uliyati, vazifalari deb qaraladi. Sharq mamlakatlarining har birlarida o‘zlariga xos mentalitet va qadriyatlari bor, shu jumladan, o‘zbek xalqining ham o‘ziga yarasha urf-odatlari va qadriyatlari mavjud, ular juda maqbul va go‘zal bo‘lib, asrlar davomida nasldan-naslga o‘tib kelmoqda. Bu qadriyatlar xalqimizning o‘ziga xosligini dunyo hamjamiyatida ta’minlab tursa-da, lekin ba’zi an’analar bugungi kunga kelib, zamon talablariga mos kelmaydiganga o‘xshaydi, aniqrog‘i, ba’zi oilalar ijtimoyi hayotdan o‘z-ozidan e’tibordan chetda qolmoqda, ular an’analar chegarasi ichida yashaydilar. Ayollarimizni yuqori darajalarga erishishiga to‘siqlik qiladigan omil avvalo ana shu mentalitetimizdagi ba’zi talablardan kelib chiqadi.

Hamma holatda ham oila mustahkamligi, savyasi, farovonligi juda muhim. Jamiyat ustini oilada deganda, aynan jamiyatdagi mumammolarning negizi oiladan boshlanadishi nazarda tutiladi. Avvalo ma’naviy barkamol inson oilada tarbiyalashi kerak. Buning uchun ota-onalar bilimli, ma’rifatli bo‘lishlari kerak. Mahallalarda muammoli oilalar bilan har tomonlama muntazam ma’naviy va marifiy profilaktika ishlar oborilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda, axborot vositalarida namunaviy turmush tarzdagi ayollar hayotidan ibrat oladigan, psixologik to‘g‘ri yo‘naltiradigan video, audio dasturlar yaratish, xotin-qizlarimizning dunyoqarashini kengaytirishga, o‘zligini-ayollik menini mustahkamlashga qaratilgan psixlogik, badiiy, roliklar yaratish, kitobxonlikni oshirish, gender tenglik bo‘yicha keng qamrovli tashviqot va targ‘ibot ishlar oborilsa, albatta o‘z ijobiy natijalarini beradi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimiz ilm-fani va ma’naviyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, milliy tarixda o‘zining noyob iqtidori bilan nom qoldirgan, yuksak intellektual salohiyat va keng dunyoqarashga ega yuzlab ayollar nomini keltirish mumkin, ammo bular gender tenglikda kamchilikni tashkil etadi.

Butun dunyoda xotin-qizlarning fan, texnika va innovatsion yutuqlardan teng va to‘laqonli foydalanishlariga imkoniyatlar yaratish, mazkur sohada gender tenglikni ta’minlash BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yil 11-fevralda qabul qilingan “Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar” to‘g‘risidagi A/RES/70/212 – sonli ezolyutsiyada o‘z aksini topgan. Mazkur rezolyutsiyaga ko‘ra, 2016-yildan boshlab, har yili 11- fevral “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” (International Day of Women and Girls in Science) sifatida nishonlanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, ayollarning ilmfandagi ishtirokiga e’tibor qaratish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat1. Ayollarga mamlakatimizda ham, oxirgi yillarda berilayotgan e’tibor, imtiyozlardan ogoh bo‘lib, salmoqli foydalansa, jamiyatga har bir ayol darajasiga yarasha hissa qo‘shishga harakat qilsa maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Oqqan daryo oqaveradi. Bashariyatda ilm-fan va tafakkur karvoni o‘z yo‘lida davom etadi, bu korvon qatorida xotin-qizlarning ishtiroki faqat ijobiy natijalarni berganini jahon hamjamiyati tajribalaridan mushohada qilish mumkin. Zero, bu faollik negizi oliladan boshlanishi muqarar, ta’lim tarbiyada ham ustoz-shogird an’analari avlodlar uzviyligini ta’minlaydi, mahallalarda sog‘lom muhitni yaratish programmalari, oilalar bilan individual yondoshuvlar ijobiy natijalarga olib boradi.

Jamiyatda xotin-qizlarni faolligi xohlasak xohlamasakda, baribir erkaklarga borib taqaladi, chunki jamiyat oiladan boshlanadi, shunga ko‘ra oilalardagi ayolga(xotin-qizilarga) e’tibor jamiyatda o‘z aksini topadi. Bu mavzuga oilalarda ham, jamiyatda ham, ko‘proq erkaklarning e’tiborini qaratilsa va ulardan yordam so‘ralsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevral kuni xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi.
2. Zokirova Dilnoza Nematillaevna ILM-FAN TARAQQIYOTIDA XOTIN – QIZLAR VA ULARNING IJTIMOIY FAOLLIGI // SAI. 2024. №Special Issue 15. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ilm-fan-taraqqiyotida-xotin-qizlar-va-ularning-ijtimoiy-faolligi (дата обращения: 03.10.2024).
3. Nargiza Shoaliyeva ILM-FAN VA TEXNALOGIYA RIVOJIDA AYOLLARNING O‘RNI // OC. 2024. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ilm-fan-va-texnalogiya-rivojida-ayollarning-o-rni (дата обращения: 03.10.2024).
4. Sayfullayeva D. A. et al. Methodology of using innovative technologies in technical institutions //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 7505–7522- 7505–7522.
5. Zokirova D. N. Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 179-182. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL SCIENCE AND INNOVATION SPECIAL ISSUE: “TRANSFORMATION OF EDUCATION: THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE”, FEBRUARY 16, 2024 264
6. Nematillaevna Z. D. Problems in providing independent learning education and ways to prevent them //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 1431-1436.
7. Зокирова Д. Н. Integration Of Professional And Educational Disciplines Into Training Of Self-Learning Motivated Students //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 6. – С. 24-28.
8. Usubovich O. O. et al. Problems Arising From the Use of the Case-Study Method and Methods of Their Prevention //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 5-10.

TURKIYA DAVLATIDA TA’LIM TIZIMINING TUZULISHLARI VA MAKTABGACHA TA’LIM

Murodova Aziza Baxtiyorovna
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatasiya: Ushbu maqolada Turkiya davlatining maktabgacha ta’lim tizimi va ushbu tizimning tuzulishlari, Turkiya Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimini o‘rganish jarayoni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tizimi, qo‘shimcha proffesional ta’lim, erta bolalik, milliy ta’lim.

Turkiya davlatining so‘nggi yillarida an’anaviy maktabgacha ta’lim tushunchasi o‘rniga "erta bolalik ta’limi (ECE)" atamasi qo‘llanila boshlandi. Turkiyada ta’lim tizimi zamonaviy standartlarga to‘liq javob berishi bilan bir qatorda, o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Turkiyada bepul majburiy o‘rta ta’lim joriy qilingan. Milliy ta’lim tizimi 3 qism (asosiy ta’lim, yordamchi ta’lim - kurslar va ochiq, ya’ni sirtqi ta’lim)dan iborat. Asosiy ta’lim maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Turkiyada 1915 yilda Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom nashr etildi va natijada katta shaharlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni ko‘paydi.

Erta bolalik davridagi ta’limni bolaning omon qolishi, o‘sishi, rivojlanishi va g‘amxo‘rligi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar sifatida belgilash mumkin.

Erta bolalik — bu har birimiz uchun qadrli va unutilmas davr. O‘sha paytlar, o‘yin-kulgi, do‘stlar bilan birga vaqt o‘tkazish, oddiy narsalardan quvonish, shunchaki hayotning o‘ziga xos go‘zalligini his qilish bilan bog‘liq.

Turkiya davlatida ta'lim tizimi bir nechta darajadagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi va milliy ta'lim siyosati doirasida tashkil etilgan. Ta'lim tizimi quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘linadi:

1. **Maktabgacha ta’lim:** 0-6 yoshdagi bolalar uchun tashkilotlar, jumladan, bog‘chalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari.
2. **Boshqa ta'lim (Bosh maktab):** 6-14 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 8 yillik majburiy ta'lim. Bu bosqichda asosiy fanlar, jumladan, matematika, ona tili, fan va ijtimoiy fanlar o‘qitiladi.
3. **O‘rta ta'lim:** Boshqa ta'limdan so‘ng, o‘quvchilar o‘rta maktablarga (liseylarga) yoki professional o‘rta ta'lim tashkilotlariga o‘tadilar. O‘rta ta'lim 4 yildan iborat.
4. **Oliy ta'lim:** O‘rta ta'limni tugatgan o‘quvchilar universitet yoki kollejga kirish uchun imtihon topshiradilar. Oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriat, magistratura va doktorantura darajalarini taqdim etadi.
5. **Kadrlar tayyorlash va kasb-hunar ta'limi:** Turkiyada kasb-hunar ta'limiga katta ahamiyat beriladi. O‘rta ta'lim tashkilotlari va texnik maktablar o‘quvchilarga ma'lum kasblar bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi.

Turkiya ta'lim tizimi davlat va xususiy sektor tomonidan boshqariladi, va unda davlat ta'lim tashkilotlari asosan hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Ta'limning sifatini oshirish maqsadida turli dasturlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ingliz tili va boshqa chet tillariga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Turkiya davlati maktabgacha ta'lim tizimi asosan 0-6 yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan. Bu tizim quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Maktabgacha ta'limning maqsadi**

- Bolalarni ijtimoiy, emotsional, kognitiv va jismoniy jihatdan rivojlantirish.

- O‘qishga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

2. **Maktabgacha ta'lim tashkilotlari**

- MTTlar: Davlat va xususiy sektor tomonidan tashkil etilgan, 0-6 yoshdagi bolalar uchun ta'lim beradigan muassasalar.
- O‘yin bog‘chalari: O‘yin orqali ta'lim berishga yo‘naltirilgan muassasalar.
- Kichik guruhli ta'lim markazlari: Kichik guruhlarda ta'lim berish uchun mo‘ljallangan.

3. **Ta'lim dasturi**

- Turkiyada maktabgacha ta'lim dasturi "Milliy Maktabgacha Ta'lim Dasturi" (MMTD) asosida ishlab chiqilgan.
- Dasturda turli fanlar, jumladan, ona tili, matematika, san'at va jismoniy tarbiya bo‘yicha ko‘nikmalar o‘z ichiga olingan.

4. **Ta'lim jarayoni**

- O‘yin va faoliyatga asoslangan ta'lim metodlari qo‘llaniladi.
- O‘qituvchilar bolalarga individual yondashuvni ta'minlaydi.

5. **Boshqaruv va moliyalash**

- Ta'lim muassasalari davlat va xususiy sektorda faoliyat yuritadi, davlat tomonidan moliyalashtirilgan muassasalar ko‘proq tarqalgan.
- Ta'lim sifatini nazorat qilish uchun davlat organlari va ta'lim inspeksiyalari faoliyat yuritadi.

6. **Inkluziv ta'lim**

- Har xil ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta'lim imkoniyatlari yaratilgan.

Mamlakatda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining atigi 2 turi – xususiy va davlat bog‘chalari mavjud. Ularning asosiy, ammo yagona farqi bu narx emas. Darhol ta'kidlaymizki, ikkala tur ham to‘lanadi.

Turkiyada Uch yoshdan boshlab bola uchun MTT tashkil etilishi mumkin. Bu yerda u davlat muassasalarida turk tilida olib boriladigan rivojlantiruvchi treningdan o‘tadi. Shu sababli, bolalar dastlabki bosqichlarda tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Biroq, bu variant jamiyatga tez moslashishga yordam beradi.

Davlat MTTlar xususiy MTTlariga qaraganda arzonroq bo‘lgani uchun ularga kirish qiyinroq. Ba'zan bir joyga 10 ga yaqin bola murojaat qiladi. Bu sizga oyiga 200-350 liraga tushadi, bu xususiy muassasalarga qaraganda deyarli 2 baravar arzon.

Xususiy MTTlarining afzalliklaridan biri u yerda 3 yoshgacha bo‘lgan bolani joylashtirish imkoniyatidir. Bu ancha oson, chunki bepul o‘rinlar bilan bog‘liq muammolar yo‘q, lekin u 600-1200 lira turadi. Siz Rossiyadan kelgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan MTTni osongina topishingiz mumkin, bu esa ta'lim uchun ayniqsa qulay sharoitlarni ta'minlaydi. Agar siz qo‘shimcha transfer xizmati uchun pul to‘lasangiz, bolangizni har kuni uydan avtobusda olib ketishadi va kechqurun olib kelishadi.

Turkiyada bolani MTTga ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlarini aniqlaganimizdan so‘ng, biz ro‘yxatga olish jarayonini boshlashimiz mumkin. Buning uchun tegishli hujjatlarni to‘plash va so‘rovnomadan o‘tish kifoya. Afsuski, biz aniq ro‘yxatni taqdim eta olmaymiz, chunki tanlov tanlangan joyga qarab farq qiladi.

Bolani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar

Keling, asosiylarini sanab o‘tamiz. Quyidagi uchta hujjatsiz qilolmaysiz:

Ikamet (yoki yashash uchun ruxsatnoma).

Bolaning tibbiy ma'lumotnomasi.

To‘ldirilgan ariza shakli.

Katta ehtimol bilan, qolgan hujjatlar bilan sizda hech qanday muammo bo‘lmaydi, chunki bolani Turkiyadagi muassasaga joylashtirish tartibi juda oddiy.

Har qanday MTTlar va maktablarining katta plyusi bu bolalar uchun yetkazib berish xizmatining mavjudligi. Bolalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri uydan olib ketishadi va darsdan keyin u yerga olib kelishadi. Bu Turkiyada juda mashhur. Har bir xizmatda tartibni saqlaydigan va ro‘yxatga muvofiq bolalarni yig‘adigan maxsus eskort mavjud.

MTTlaridan tashqari, maxsus sinflar yoki hatto alohida maktab tayyorlash muassasalari ham mavjud. Ular turkchada "anaokul" deb ataladi - "birinchi maktab" deb tarjima qilish mumkin. Ular, shuningdek, xususiy va davlatdir. Xususiy, ko‘pincha xususiy maktablarda, bolaning o‘sha maktabga borishini kutish bilan.

Turiya Respublikasining Maktabgacha ta’limi Davlat ta’lim dasturiga qo‘shimcha bo‘lgan maktabgacha ta’lim 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Biroq juda yosh bolalarni ham qabul qiladigan tashkilotlar mavjud. Bolalar tarbiyalanishni (o‘qishni) “yasli”da yoki bolalar MTTda boshlashi va tayyorgarlik sinfida davom ettirishi mumkin.

Turkiyadagi davlat MTTlari umumiy ta'lim tizimining bir qismi bo‘lib, uch yoshdan boshlab bolalarni qabul qiladi. Mamlakatda davlat bolalar bog‘chalari mavjud emas. Ekskursiyalar, qo‘shimcha darslar va ofis jihozlari narxi alohida to‘lanadi.

Bolani davlat MTTga qabul qilish uchun siz yashash joyingizdagi tuman ma'muriyatiga ariza topshirishingiz kerak. Bola bo‘sh joylarga ega bo‘lgan muassasaga tanlanadi. Chet ellik bolani ro‘yxatga olish uchun sizga yashash uchun ruxsatnoma, sog‘liqni saqlash guvohnomasi va emlash kartasi kerak bo‘ladi. Katta shaharlarda - Antaliya, Istanbul, Anqara, ota-onalar joylarning yetishmasligiga duch kelishi mumkin. Siz o‘z navbatingizni kutishingiz yoki xususiy muassasaga borishingiz kerak bo‘ladi.

Aksariyat jamoat MTTlari ikki smenada ishlaydi va ishni soat 16.00-17.00 da tugatadi. Trening faqat turk tilida olib boriladi.

Davlat MTTlarining afzalliklari:

maqbul narx;

dasturni standartlashtirish;

ta'lim sifatini nazorat qilish;

bolaning tez til integratsiyasi.

Kamchiliklari:

faqat ish kunlarida ishlash;

cheklangan resurslar - o‘quv materiallari, jihozlar.

Xususiy bolalar bog‘chalari

Turk xususiy MTTlari davlat MTTlariga muqobildir. Ular yirik turar-joy majmualarining birinchi qavatlarida yoki alohida binolarda ochiladi. Xususiy MTTlar narxi, infratuzilmasi va ta'lim dasturlari bo‘yicha farqlanadi. Ular ko‘pincha o‘ziga xos ta'lim usullaridan foydalanadilar - Montessori usuli, Valdorf yondashuvi. Ba'zi xususiy muassasalar o‘ziga xos ko‘nikmalarni - san'at, musiqa, sport, chet tillarini rivojlantirishga qaratilgan. Trening turk, rus, ingliz va boshqa tillarda olib boriladi.

Infratuzilma nuqtai nazaridan xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari bir-biridan farq qiladi - eng kerakli tarkibga ega bo‘lgan kichik binolardan suzish havzasi, sport zali va qo‘shimcha klublari bo‘lgan katta bolalar majmualarigacha. Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borishning oylik narxi 150 dan 250 dollargacha.

Xususiy bolalar bog‘chalarining afzalliklari:

guruhlarda kam sonli odamlar;

uch yoshgacha bo‘lgan bolalarni qabul qilish;

bolaning rivojlanishi uchun yo‘nalishlarni tanlash imkoniyati - sport, musiqa, chet tillari;
qulayroq sharoitlar: zamonaviy jihozlar, qulay muhit, yaxshi ta'mirlash;
o‘qitish tilini tanlash qobiliyati;
moslashuvchan ish soatlari - xususiy muassasalar shanba va yoz oylarida qo‘shimcha haq evaziga ishlaydi.

Kamchiliklari:
yuqori narx;
cheklangan tanlov - barcha shaharlarda xususiy MTTlar ishlamaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni to‘liq kun yoki yarim kunga berish mumkin. Bu davlat yoki xususiy MTT bo‘lishi mumkin. Davlat MTTga qatnashish bepul, lekin ota-onalar kanstovar, kitoblar, qo‘llanmalar va boshqa zarur narsalar uchun pul berishi kerak. Xususiy MTT faqat to‘lov asosida qabul qiladi. Narxi oyiga o‘rtacha 1000 lirani tashkil qiladi. Ota-onalar, shuningdek, kanstovar, darsliklar va boshqalar kerakli narsalar uchun qo‘shimcha pul to‘laydilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarni jamoaga moslashishga, boshqa bolalar bilan munosabatda bo‘lishga, ta’lim jarayoniga ko‘nikishga, ularning malakasini oshirishga va ta’limning keyingi bosqichga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

Turkiya Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimini o‘rganish jarayonimizda turk maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadi har bir bolaga erkin o‘z fikrini bayon qilish imkoniyatlar yaratib berishda, MTT tarbiyachilari o‘yin metodlardan foydalanib,o‘yin davomida uqtirish yo‘li orqali emas balki yon bosish, qo‘llab - quvvatlash yo‘li bilan turli materiallar shuningdek borliqdagi voqea-hodisalar to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishdan iboratligi bilan belgilansa, MTTlarda maktabgacha tarbiya tashkilotlarining rang - barang shakllari va turlarining mavjudligi kishini hayratlantiradi qolaversa bolalarni yoshlikdan boshlab mustaqil hamda erkin fikrlash uchun yaratiladigan shart-sharoitlar bola kelajagi uchun zarur bo‘lgan pedagogik-psixologik ko‘nikmalar ya’ni o‘ziga bo‘lgan ishonch, jasorat, tevarak-atrofdagi voqealarni tez tahlil qila oladigan, eng asosiysi o‘zining mustaqil fikriga ega inson bo‘lib shakllanishi uchun sharoit yaratilganligini ko‘rsak bo‘ladi. Albatta bu tizimning O‘zbekistonda ham o‘ziga xos va mos yo‘nalishi borligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Zero 2020-yil 23-sentyabrda “Talim to‘g‘risida” gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi unga muvofiq ta’lim eng birinchi bosqichi hisoblanmish Maktabgacha ta’lim va tarbiya turi alohida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu bosqichda olib borilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar mazkur qonunda va boshqa qonunosti hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Bolalarni har tomonlama estetik, axloqiy, jismoniy hamda intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda va borada xorij tajribasidan andoza olishni maqsadga muvofiq deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prof. Dr. Mahmut Uzer. Okul Uncesi egitimin Turkiye’de gelisimi ve esitsizlikleri azaltmadaki rolu. Kabul Tarihi: 19.03.2021.
2. Süleyman Göksoy. Pre-School Educational Process of Turkey. Open Journal of Social Sciences, 2017, 5, 73-83 b.
3. www.shcek.gov.tr.

НОМИНАЦИЯ И ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОТНОСИТЕЛЬНОСТЬ

Холбутаева Ферузабону
Старший преподаватель кафедры педагогики, психологии и филологии
Андижанского филиала кокандского университета
xabibullaevaferuz@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается одна из фундаментальных проблем, раскрывающих истоки лексической и общей (в лингвистическом смысле) семантики.

Ключевые слова: лексическая система, предсистема, языкознание, миропонимание, linguistic relativism.

Annotation. The article deals with one of the fundamental problems that reveal the origins of lexical and general (in the linguistic sense) semantics.

Keywords: lexical system, presystem, linguistics, worldview, linguistic relativism.

Некоторые характерные свойства и особенности лексической системы оказываются обусловленными самой внеязыковой действительностью, объективными свойствами отражаемого мира, фактами «предсистемы» («сегментами действительности»): «что-то», и притом объективное, онтологически исходное, детерминирующее, существует «до языка», объективно независимо от языка, хотя и воспринимается через него.

Отношение между действительностью и языком – одно из самых сложных, важных и малоисследованных в языкознании.

Известный немецкий философ и лингвист В. Гумбольдт писал: «Человек окружает себя миром звуков, чтобы воспринять и усвоить мир предметов. Это положение ни в коем случае не выходит за пределы очевидной истины. Так как восприятие и деятельность человека зависит от его представлений, то его отношение к предметам целиком обусловлено языком. Тем же самым актом, посредством которого он из себя создает язык, он отдает себя в его власть; 1каждый язык описывает вокруг народа, которому он принадлежит, круг, из пределов которого можно выйти только в том случае, если вступаешь в другой круг. Изучение иностранного языка можно было бы поэтому уподобить приобретению новой точки зрения в прежнем миропонимании»2. Слово, по В. Гумбольдту, «не является эквивалентом чувственно воспринимаемого предмета, под пониманием его, закрепленным в языке посредством найденного для него слова»3.

К.С. Аксаков видел в языке важнейшее средство, орудие осознания действительности: «Среди бесконечной, в явлениях, природы, – раздалось слово, возвестившее присутствие человека и вместе сознания на земле. Природа со всей своей разновидного жизни была названа по имени и повторилась в сознании и новом создании, в устах человека. В мире явилось новое чудо – слово, как бы собравшее и отразившее мир»4. Человек, по образному выражению К.С. Аксакова, назвал природу, – и она в руках его «вся перешла в его внутренний мир»; «она вся живет в слове, в новой жизни, на почве разума»5.

---

[2] Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода (извлечения) // Звегинцев В.А. История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. – Часть I. – М., 1960. – С. 81.
[3] Там же. – С. 84-85.
[4] Аксаков К.С. Полное собрание сочинений. – Т. 3: Сочинения филологические. – Ч. 2. – М., 1880. – С. 1.
[5] Там же. – С 2.

Английский логик Дж. С. Милль, подходя к решению рассматриваемой проблемы с точки зрения логической номинации, отмечал, что не каждый предмет имеет свое, особое название. Для отдельной личности, замечательной в каком-либо отношении местности и т.п. требуются индивидуальные, единичные имена, которыми можно обозначить только одну вещь; для обозначения вещей, о которых, по мнению Милля, нам не так часто приходится говорить, мы используем сочетание нескольких слов или общих имен, т.е. таких, каждое из которых обозначает еще неопределенное количество других подобных предметов. «Если мы говорим этот камень, то слова «этот» и «камень», каждое в отдельности, могут обозначать много других предметов, кроме того, о котором идет речь; соединение же их может, в соответствии их значению, обозначать в данный момент только тот предмет, который я имею в виду»6.

Называние мира – одна из фундаментальных проблем, раскрывающих истоки лексической и общей (в лингвистическом смысле) семантики. Мысли о слове как интерпретации, понимании предметного мира, специфичного для каждого языка, о слове как о чем-то, собравшем воедино сходное и отразившем в сознании мир, о слове как выразителе общего и индивидуального, как и многие другие, легли в основу разработки коренных вопросов онтологии языка и гносеологии семантики.

Согласно теории лингвистической относительности (linguistic relativism) абсолютная реальность мира по-разному анализируется, отражается, членится в семантической системе различных языков: в соответствии с системой определенного языка, относительно ее. В зависимости от особенностей языковой системы конкретных языков, отражающих развитие соответствующих культур, создаются различные языковые «представления действительности», возникает то или иное видение мира, его объективной, абсолютной реальности.

Лексическую систему языка можно представить себе как множество «слов-понятий» в их сложных взаимоотношениях. Каждая из таких единиц, состоящая из знака и элементарного значения, как бы покрывает тот или иной «кусочек», или сегмент, действительности, а вся совокупность таких единиц образует сложную мозаику, отражающую внеязыковую действительность. Знак и значение в силу определенных культурно-исторических, социально-психологических и собственно лингвистических причин и условий получают в данном языке, например в русском, вполне определенную соотнесенность, характеризуясь специфической для этого языка значимостью. Сама же действительность предстает в этой связи определенным образом расчлененной и названной, как, бы приближенной к человеку. Не учитывать этого – значит не считаться с объективной закономерностью, свойственной языку. Однако нет никаких оснований считать, что язык, «национальный дух», выражаемое данным языком «миропонимание» преобразуют саму действительность по своему образу и в угоду себе или что «словесный мир» является как бы первичным миром реальности. Различные языки (не говоря уже о несовпадающих, специфических сферах их употребления) могут отражать и отражают одну и ту же или сходную внеязыковую действительность, определенные ее сегменты по-разному, исходя из наличных языковых средств, фактов культуры, национального склада ума, самой диалектики отражения внеязыкового мира в сознании. Различная «сегментация» действительности, т.е. различное представление ее в языке, представляет собой вторичное, отраженное явление.

[6] Миль Д.С. Система логики силлогистической и индуктивной. Изложение принципов доказательства в связи с методами научного исследования. – М.: Ленанд, 2011. – С. 18.

Те или иные предметы, явления, свойства действительности получают качественную определенность в языке, возможность объективного и удобного вычленения их благодаря нашему опыту и свободному воспроизведению в нашем сознании с помощью соответствующих языковых знаков. Правы те ученые, которые предлагают различать референт как предмет реальной действительности вне зависимости от языковой (вообще знаковой) системы и денотат как тот же (такой же, подобный) предмет, выделенный знаком, имеющий знаковое обозначение, получивший таким образом определенность и ставший внеязыковым объектом лингвистики (семантики).

Что же представляет собой лексико-семантическая система языка?

Своеобразной «клеточкой» лексико-семантической системы, раскрывающей системность лексики (ее различные «измерения») и отражающей соответствующий «кусочек», сегмент действительности, является элементарная единица, которая может быть названа предварительно как «слово-понятие»7, т.е. слово в одном из своих значений. В словаре С.И. Ожегова в существительном сестра слиты две такие единицы: сестра1 – «дочь тех же родителей или одного из них по отношению к другим их детям» и сестра2 – «лицо среднего медицинского персонала в лечебных учреждениях». Лексическая единица сестрах входит в семантическое поле терминов родства как имеющая в своем значении соответствующий признак, указывающий на принадлежность к этому полю: х(сестра1) € М(брат, отец, мать, сын, дочь, дедушка, бабушка, внук, внучка, дядя, тетя и мн. др.). Другая единица сестра2 включается соответственно в семантическое поле обозначений лиц медицинского персонала: у(сестра2) € М1(санитар, санитарка, няня, фельдшер, врач, доктор и мн. др.). Принципиальная возможность последовательного описания лексики путем распределения ее единиц («слов-понятий») по семантическим полям – одно из свидетельств ее системной организации. Практическим подтверждением этого является опыт работы в области составления идеографических словарей8, или тезаурусов. Тезаурус – это словарь, в котором слова расположены не по алфавитному порядку, а по определенным понятийным сферам. В известном словаре Роже (P.M. Roger. Thesaurus of English Words and Phrases), выдержавшем много изданий, – шесть основных понятийных сфер, или классов: «абстрактные отношения», «проста равенство», «материя», «разум», «воля», «чувства». Эти классы делятся на 24 подкласса и далее на 1000 тем. Каждая из 1000 тем содержит близкие по значению единицы, тесно связанные общим понятийным содержанием. Такие словари представляют собой списки семантически однородных в каждой рубрике «слов – понятий» с их возможными синонимами и антонимами. Расположенные таким образом в парадигмах слова могут быть достаточно строго описаны внутри заданной микросистемы с помощью определенного набора индексов.

Единицы сестрах1 и сестра2, находясь в определенных оппозициях с соответствующими «словами-понятиями», входят не только в поля-парадигмы, но и вступают, реализуя в языке свое значение, в закономерные связи с вполне определенными лексическими единицами, т.е. образуют поля-синтагмы: сестрах – родная, двоюродная, сводная, младшая, старшая сестра, брат и сестра, сестра кого-нибудь или чья-нибудь и др.; сестра2 – медицинская сестра (медсестра), дежурная сестра, сестра милосердия, сестра-хозяйка и др. Исследования в области сочетаемости слов (в частности лексической синтагматики) помогают вскрыть закономерность линейного расположения единиц текста, определяемую их семантическим согласование. Ярким проявлением системности

[7] Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: УРСС Эдиториал, 2004. – С. 291.
[8] Там же. – С. 290-297; 86.

лексики является возможность экономно 9интерпретировать несвободную сочетаемость слов с помощью ограниченного набора лексических функций10.

Рассматриваемые единицы, как и другие подобные, вступают в определенные связи и друг с другом (на основе тождества их языковых оболочек и мотивированности значений), образуя структуру многозначного слова: сестра1 ↔ сестра2 «дочь тех же родителей или одного из них по отношению к другим их детям ↔ лицо среднего медицинского персонала в лечебных учреждениях». Связь, сближение значений основываются здесь на ассоциативных признаках пола (женский) и близости: ср., с одной стороны, наша, ваша, их сестра (т.е. мы, вы и нам (им) подобные – о женщинах) и, с другой – Она нам как сестра, ухаживает за больным, как (родная) сестра; слово сестра вообще указывает на что-то близкое, родственное: О, муза! наша песня спета. // Приди, закрой глаза поэта // На вечный сон небытия, // Сестра народа – и моя! (Н.А. Некрасов. Музе). Вторичное значение слова сестра (в Словаре церковнославянского и русского языка 1847 года и в Толковом словаре живого великорусского языка В.И. Даля оно не представлено еще и входит в употребление позднее) предстает в ассоциативных связях как спецификация первичного: «родственница, близкий человек ↔ заботливая, близкая женщина, девушка↔женщина, девушка, ухаживающая за больными, заботящаяся о них».

Многозначность (полисемия) – одно из важнейших «измерений» лексико-семантической системы, одно из проявлений закономерной связи элементарных лексических единиц, образующих в структуре многозначного слова определенную иерархию взаимообусловленных первичных и вторичных семантических функций.

Системные связи лексики отражаются в таких ее внутренне связанных категориях, как синонимия и антонимия; они охватывают широкие пласты лексики, и прежде всего слова (единицы) со значением качества признака (свойства), действия-состояния, отношения и др., играющие исключительно важную роль в языке, составляющие ядро его отвлеченной лексики.

Как видно, лексико-семантическая система языка, являясь необходимой составной частью общей системы языка, отражает в нашем сознании существенные свойства внеязыковой действительности и играет важную роль в организации и регулировании отношений между человеком (шире – языковым обществом) и окружающим миром, в познании закономерностей объективной реальности.

Литература:

1.Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода (извлечения) // Звегинцев В.А. История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. – Часть I. – М., 1960. – С. 81.

2.Аксаков К.С. Полное собрание сочинений. – Т. 3: Сочинения филологические. – Ч. 2. – М., 1880. – С. 1.

3.Миль Д.С. Система логики силлогистической и индуктивной. Изложение принципов доказательства в связи с методами научного исследования. – М.: Ленанд, 2011. – С. 18.

[9] Апресян Ю. Д. Лексическая семантика (синонимические средства языка). – М.: Языки славянских культур, 1995. – С. 42-50.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA

Narkulov Saydulla Karimovich
Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi
Tashpulatova Dildora Xaydarkulovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E mail: dildoratoshpulatova987d@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri bu energiya tanqisligidir. Tuganmas yoki qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan energiya olish, va uni insonlar iste’moli uchun yo‘naltirish masalalari yuzasidan fikr yurutilgan.

Kalit so‘zlari: Neft, ko‘mir, gaz, tabiiy resurs, qayta tiklanuvchi energiya, tabiiy qazilma boylik, zaharli gaz.

Hozirgi kunda neft, ko‘mir va gaz konlarining borgan sari tugab borayotganligi global energiya falokatiga yetaklamoqda. Buning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiyani tejash kelajakda ham yaxshi yashash uchun najot yo‘li bo‘lib, dunyo aholisining asosiy qismini omon qolishini ta’minlaydi.

Дифференциация - алмаштиришнинг жуда кам учрайдиган усули. Бу ўхшаш турни билдирувчи параллел маъноли бошқа сўз билан алмаштирилганда содир бўлади: bamboo curtain – темир парда. Ҳам бамбук, ҳам темир (қаттиқ) табиати билан машҳур материаллардир. Улар Ғарб ва Коммунистик мамлакатлар ўртасидаги тўсиқларни кўрсатиш учун мажозий маънода ишлатилади (Хитойга нисбатан бамбук парда, бошқа Комекон (Ўзаро Иқтисодий Ёрдам Кенгаши) давлатларига нисбатан темир парда. Бамбук ва темир тушунчалари ўртасида гипонимик муносабатлар мавжуд эмас. (гарчи bamboo curtain нинг мос келадиган майдони, албатта, темир пардадан анча кенгроқ.)

2. Метафорик ўзгаришлар тушунчаларнинг ўхшашлиги туфайли маънони кўчиришга асосланган. Ўрганилган тил бир хил тасвир (Бу пул билан қўлингизни ифлос қилманг! –Don’t dirty your hands with that money!) ёки бошқа (He will pay us our money back when hell freezes over- У ҳечқачон пулимизни қайтариб бермайди) ёрдамида сўз ёки иборани қайта метафоралаши мумкин. Ўзлаштирилган тилда ўхшаш идиома бўлмаса, манба тил метафорасини йўқ қилиш мумкин:

а) конкретлаштирувчи – мавҳум, кенг ва умумий маънога эга бўлган СЛ сўзи аниқ, тор ва ўзига хос маъноли ТЛ сўзи билан алмаштирилади, масалан. Кечки овқатдан кейин –After dinner; б) умумлаштириш - мавҳум, кенг, умумий маънога эга бўлган ТЛ сўз учун ўзгартирилган аниқ, тор, махсус маънога эга бўлган СЛ сўз, с) маъно ривожланиши - СЛ сўзи ТЛ сўзи билан алмаштирилади. Маънолари сабаб-натижа боғланишлари орқали бир-бири билан боғланган тушунчаларни билдиради. Бундай боғланишлар одатда ҳаракат билан боғланганлиги сабабли, бундай ўзгаришлар асосан 6 хил бўлиши мумкин: натижа - сабаб; натижа - ҳаракат; ҳаракат - натижа; ҳаракат - сабаб; сабаб - натижа; сабаб – ҳаракат (When I opened my eyes she had lit the lamp (action) Мен кўзимни очганимда у чироқни ёқиб қўйганди (натижа ҳолати)); д) антонимик таржима - СЛ сўзи ўзининг ТЛ антоними билан таржима қилинади, бу қоида тариқасида гапнинг грамматик тузилишида ўзгаришларга олиб келади, яъни тасдиқловчи гап кўпинча инкорга айланади ва аксинча инкор гап тасдиқловчига айланиши мумкин.

Грамматик алмаштиришлар грамматик (морфологик) шаклларнинг ва синтактик тузилмаларнинг турли хил ўзгаришларини билдиради, улар бир нечта модификацияларни ўз ичига олади:

а) гапнинг бўлаги хусусиятлари

Мен ундан мамнун бўдим - I was glad to see him (me ўзбек тилидаги эмоционал хулқ-атворни билдирувчи феъл кўпинча инглизча ибора билан алмаштирилади:to be (turn, get, grow, become) + сифатдош);

б) гап қисмларини алмаштиришлар: John kept whistling “Song of India” while he shaved – Джон соқол олиб, “Ҳинча қўшиқ”ни ҳигоя қилди(инглизча гапдаги бўйсуниш ўзбек тилидаги гапда координация билан алмаштирилган).

Тўлиқ ўзгартириш - бутун иборанинг маъносини тушуниш ва уни матннинг баъзан маъносидан жуда узоқ бўлган тил сўзлари ёрдамида бериш керак бўлганда қўлланилади: Масалан, Help yourself, please — Олиб ўтиринг, илтимос!

Тилнинг семантик хусусиятларига кўра сўзларнинг маънолари, қўлланиши, бошқа сўзлар билан қўшила олиши, улар томонидан уйғонган ассоциациялари, тилнинг луғавий тизимида тутган ўрни кўп жиҳатдан бир-бирига мос келмайди. Сўзлар билан ифодаланган барча бир хил “ғоялар” кўп ҳолларда бир-бирига тўғри келади, аммо ифодалаш воситалари ҳар хил. Икки тил ўртасидаги семантик фарқларнинг барча ҳолатларини қамраб олишнинг иложи йўқлиги сабабли, биз ушбу курсни энг типик хусусиятлар билан чеклаймиз. Икки тил ўртасидаги лексик мослашувнинг асосий турлари қуйидагилардан иборат:

И. Тўлиқ ёзишмалар.

ИИ. Қисман ёзишмалар.

ИИИ. Мурожаатларнинг йўқлиги.

Тўлиқ лексик мувофиқлик. Икки тилнинг лексик бирликларининг тўлиқ мос келиши камдан-кам учрайди. Қоида тариқасида улар қуйидаги лексик гуруҳларга киради:

- хос номлар ва географик номлар;
- илмий-техник атамалар;
- ҳафтанинг ойлари ва кунлари, рақамлари.
- қисман лексик мослашувлар

Лексик бирликларни таржима қилишда кўпинча қисман мослашувлар содир бўлади. Бу асл нусхадаги сўз тилдаги бир нечта эквивалентларга таржима қилинганида содир бўлади. Ушбу фактларнинг сабаблари қуйидагилардан иборат:

1) тилдаги кўпчилик сўзлар полисемантик бўлиб, бир тилдаги сўз тизими – маъно бошқа тилдаги бир тизим билан тўлиқ мос келмайди. Шунинг учун таржима жараёнида сўзни танлаш контекстга қараб белгиланади.

2) сўзларнинг танланишига тегишли синонимик тартибнинг спецификацияси. Бироқ, синонимлар тартиби асос бўлган семантик белгиларнинг табиатига рухсат бериш керак. Бинобарин, синонимик туркум аъзоларининг келишилган маъноларини, лексик ва стилистик маънолардаги фарқни, синонимлар қаторининг алоҳида компонентларининг бирлаша олиш қобилиятини ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ: масалан, dismiss, discharge (bookish), sack, fire (colloquial); the edge of the table – the rim of the moon.

3) ҳар бир сўз ўзи белгилаган объектнинг маъносига таъсир қилади. Камдан-кам ҳолларда тиллар бир хил белгиларни тавсифлаш учун турли хил хусусиятлар ва белгиларни “танлайдилар”. Ҳар бир тилнинг ўзига хос “дунё тасвирини” яратиш усули “ҳақиқатни қисмларга бўлишда турли хил принциплар” деб номланади. Белгиларнинг фарқига қарамай, иккала тил ҳам бир хил ҳодисани адекват ва бир хил даражада акс эттиради, бу турдаги сўзларни таржима қилишда эътиборга олиш керак, чунки эквивалентлик бир хил маънога эга эмас: масалан, солиштиринг: Hot milk with skin on it - Ko’pikli issiq sut.

4) икки тилдаги эквивалент сўзларнинг семантик мазмуни фарқи. Ушбу сўзларни учта кичик гуруҳга бўлиш мумкин: а) табақалашган (дифференциалланмаган) маъноли сўзлар: масалан, инглиз тилида: to swim (инсон), to sail (кемада), to float (жонсиз нарсада); б) “кенг” маъноли сўзлар: ҳолат феъллари (бўлиш), идрок ва мия иши (see, to understand), ҳаракат ва нутқ феъллари (to go, to see), қисман десемантизацияланган сўзлар (thing, case). в) қўшма тузилишга эга бўлган, бир вақтнинг ўзида иш-ҳаракат ва табиатни ифодаловчи семантик мазмунга

эга бўлган “Ташкилий феъллар”: масалан, Поезд ҳуштак чалиб бекатдан чиқиб кетди.The train whistled out of the station.

5) Псеудо-интернационал сўзларни, яъни ҳар икки тилда шакли ўхшаш, лекин маъноси ёки қўлланилиши жиҳатидан фарқ қиладиган сўзларни таржима қилишда энг кўп қийинчиликларга дуч келади. Бундай сўзларнинг имлода ва баъзан артикуляцияда (ҳар бир тилнинг қонуниятларига мос равишда) мунтазам мос келиши, ҳар икки тилда сўз ясаш тузилиши билан биргаликда нотўғри идентификацияга олиб келиши мумкин: масалан, инглиз тилида: момент; ўзбек тилида: дақиқа, муҳимлик, аҳамиятлилик.

6) ҳар бир тилнинг ўзига хос комбинациялаш қоидалари мавжуд. Тилда одатда анъанавий бирикмалар мавжуд бўлиб, улар бошқа тилдаги мос келадиганлар билан мос келмайди. Сифатлар таржима жараёнида катта қийинчиликларни келтириб чиқаради, бу инглиз тилидаги сифатларнинг ўзига хос бирлаштириш қобилияти билан изоҳланади. Бу уларнинг қозоқ ёки рус тилларида семантик тузилиши ва валентлигидаги тафовутлар туфайли ҳар доим ҳам уларнинг бирлашиши билан мос келмайди. Кўпинча инглиз тилида битта ва бир хил сифатлар бир қатор отлар билан бирлашади, қозоқ ва рус тилларида эса бу турдаги бирикмаларда турли хил сифатлар қўлланилади. Шу сабабли, қозоқ ва рус эквивалентларига қараганда бирлаштиришга қодир бўлган инглизча сифатларни таржима қилиш осон эмас: масалан, a bad headache, a bad mistake; кучли бош оғриғи, қўпол хато.

Инглиз тилидаги отларнинг бирлаштирилишининг ўзига хос хусусияти шундаки, уларнинг баъзилари НоминаАгентис лексик-семантик тоифасига кирмаса ҳам, ҳаракат қилувчини кўрсатиб, гапнинг предмети бўлиши мумкин. Бу “предикат – қўшимча сўзловчи” ясалишининг “субъект – предикат” билан алмаштирилишига интилади: масалан, The strike closed most of the schools in New- York; Иш ташлаш Нью-Йоркдаги аксарият мактабларни ёпиб қўйди.

Тилнинг тарихи ва лексик тизимининг шаклланиши ва ривожланиши билан боғлиқ бўлган сўзнинг одатий қўлланилиши ҳам бундан кам аҳамиятга эга эмас. Бу ҳар бир тилга хос бўлган клишеларга шакл беради, улар муайян вазиятларни тасвирлаш учун ишлатилади: масалан, Инглиз тилида: Wet paint! Ўзбек тилида: Эҳтиёт бўлинг, Бўялган!

Хулоса ва таклифлар. Тиллар янги атамаларни қабул қилиш ёки мослаштириш, шунингдек, бошқа тиллар ва маданиятлар билан маданий алоқалар натижасида вақт ўтиши билан ўзгариб турадиган жонли корпуслардир. 3-минг йилликда янги технологиялар ва уларни қўллаб-қувватловчи назарий ва гуманистик соҳаларнинг ривожланиши натижасида янги атамалар ва махсус атамаларга бўлган эҳтиёж доимий равишда ортиб бормоқда. Мулоқот бир хил даражада муҳим бўлиб қолди ва шунинг учун ахборотни қайта ишлаш ва алмашишда оммавий ахборот воситалари катта рол ўйнайди; бу мақом оммавий коммуникациянинг барча замонавий воситаларини (дастлаб фақат газеталар, журналлар ва радиостанциялар, сўнгра телеканаллар, видео ишлаб чиқарувчи компаниялар ва энг муҳими, интернет) катта аудитория учун маданий моделларга айлантирди. Бундан ташқари юқорида ўрганган намуналаримиздан, турли стилистик ва лексик функциялар медиа техтларида фаол қўланилаётганига гувоҳ бўлдик.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Арнолд И.В. Стилистика современний английский язик, Масква, Изд. Флинта, Изд. Наука, 2002. 382-б.

2. Ашурова Д.У., Галиева М.Р. Стйлистисс оф литерарй техт. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. 365 б.
3. Bell A. Янгилик ОАВ тили. Блеквелл, Лондон, 1991 йил. 3 б.
4. Van Дейк Т. А. Янгиликлар нутқ сифатида. Ҳиллсдейл, Нью-Йорк, 1998 йил. 8б.
5. Фаулер Р. Янгиликлар тили: Матбуотдаги нутқ ва мафкура. Роутледge, Лондон, 2001 йил. 419-б.
6. Добросклонская Т. Медиа тилшунослиги назарияси ва усуллари. Докторлик диссертацияси, Москва, 2000 [Добросклонская Т. Г. Дис. ... док. Филол. Сси. Москва, 2000]. 203-б.
7. Добросклонская Т. Медиа тилшунослиги: оммавий ахборот воситаларини ўрганишга тизимли ёндашув тил. Москва, Флинта-Наука, 2008. 182-б.
8. https://cyberleninka.ru/article/n/vossozdanie-hudozhestvennogo-stilya-pri-neposredstvennom-perevode

TO‘G‘RI CHIZQDAGI KESMALARNING MINKOVSKIY AYIRMASI

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti Matematika kafedrasi o‘qituvchisi
Email: nuritdinovjt@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda Minkovskiy operatori yordamida to‘g‘ri chiziqdagi kesmalar ustida amallarni bajarishning asosiy tushunchalari va xossalari o‘rganiladi. Minkovskiy ayirmasi – geometriyada ko‘p qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, chiziqli fazoda kesmalar orasidagi munosabatlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ish davomida kesmalar ustidagi amallar, ularning geometrik va algebraik xossalari, shuningdek, Minkovskiy ayirmasi natijasida hosil bo‘ladigan yangi kesmalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, ayniqsa, kesmalarni amaliy masalalarda qo‘llash, masalan, kompyuter grafikasi, robototexnika va mexanik tizimlar modellashida Minkovskiy operatorining rolini yoritishga qaratilgan

Kalit so‘zlar: Minkovskiy ayirmasi, kesmalar, to‘g‘ri chiziq, geometrik xossalar, algebraik xossalar, fazoviy munosabatlar, kompyuter grafika, robototexnika, mexanik tizimlar.

Annotation. This work studies the fundamental concepts and properties of operations on line segments using the Minkowski operator. The Minkowski difference is a widely used concept in geometry, serving as an important tool for defining relationships between segments in linear spaces. The research explores operations on segments, their geometric and algebraic properties, as well as the new segments resulting from the Minkowski difference. The study particularly focuses on the application of segments in practical problems, such as the role of the Minkowski operator in computer graphics, robotics, and mechanical system modeling.

Keywords: Minkowski difference, segments, straight line, geometric properties, algebraic properties, spatial relationships, computer graphics, robotics, mechanical systems.

Аннотация. В данной работе изучаются основные концепции и свойства операций над отрезками прямой с использованием оператора Минковского. Разность Минковского является широко используемым понятием в геометрии и служит важным инструментом для определения взаимосвязей между отрезками в линейных пространствах. В исследовании рассматриваются операции с отрезками, их геометрические и алгебраические свойства, а также новые отрезки, полученные в результате разности Минковского. Особое внимание уделяется применению отрезков в практических задачах, таких как роль оператора Минковского в компьютерной графике, робототехнике и моделировании механических систем.

Ключевые слова: разность Минковского, отрезки, прямая, геометрические свойства, алгебраические свойства, пространственные отношения, компьютерная графика, робототехника, механические системы.

Minkovskiy amallari – ya’ni, to‘plamlarning Minkovskiy yig‘indisi va ayirmasi – matematikada geometriya va algebra sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ular asosan qavariq to‘plamlar va ko‘pburchaklar bilan ishlashda qo‘llaniladi va turli sohalarga, jumladan, robototexnika, kompyuter grafikasi, optimizatsiya va mexanika masalalariga tatbiqlari mavjud. Ushbu amallar oddiy geometrik shakllar bilan ishlashni osonlashtirib, ularning hajmi, yuzasi va boshqa o‘lchovlarini aniqlashda samaradorlikni oshiradi.

Bu ishda to‘g‘ri chiziqdagi kesmalarnig Minkovskiy yig‘indisi va ayirmasini topish olingan natijalar bayon etilgan. Dastlab Minkovskiy yig‘indisi va ayirmasi amallarini aniqlab olamiz.

1-ta’rif. $\mathbf{R}^n$ fazoda bo‘sh bo‘lmagan $X, Y \subset \mathbf{R}^n$ to‘plamlar berilgan bo‘lsin. X va Y to‘plamlarning geometrik yig‘indisi va ayirmasi yoki Minkovskiy yig‘indisi va ayirmasi deb mos ravishda quyidagi to‘plamlarga aytiladi:

$$X + Y = \{x + y : x \in X, y \in Y\}, \quad X \stackrel{*}{-} Y = \{z \in \mathbf{R}^n : z + Y \subset X\}.$$

Yuqoridagi ta’rifga ko‘ra ixtiyoriy $a \in \mathbf{R}^n$ vektor va bo‘sh bo‘lmagan $X \subset \mathbf{R}^n$ to‘plamning Minkovskiy yig‘indisi deganda

$$a + X = \{a + x : x \in X\}$$

to‘plamni tushinamiz.

To‘plamlar ustidagi amallarning bajarilish tartibi quyidagicha kelishib olingan. Qavs bo‘lmasa birinchi navbatda songa ko‘paytirish amali bajariladi, chapdan o‘nga qarab geometrik yig‘indi va geometrik ayirma amallaridan qaysi amal birinchi kelsa o‘sha amal bajariladi.

Shuningdek, bu maqolada $\mathbf{R}^n$ fazoda bo‘sh bo‘lmagan $X, Y, Z, X_1, X_2, Y_1, Y_2$ to‘plamlar va ixtiyoriy $d_1, d_2 \in \mathbf{R}^n$ vektorlar uchun Minkovskiy ayirmasi va yig‘indisining quyidagi xossalari keltirilgan:

1) $X + Y = Y + X$;
2) $X + (Y + Z) = X + Y + Z$;
3) $X \stackrel{*}{-} (Y + Z) = X \stackrel{*}{-} Y \stackrel{*}{-} Z$;
4) a) $\lambda(X + Y) = \lambda Y + \lambda X$;
   b) $\lambda(X \stackrel{*}{-} Y) = \lambda Y \stackrel{*}{-} \lambda X$;
   c) $(\lambda\mu)X = \lambda(\mu X)$;
5) $(X + d_1) \stackrel{*}{-} (Y + d_2) = X \stackrel{*}{-} Y + d_1 - d_2$;
6) a) $X \stackrel{*}{-} Y + Y \subset X$;
   b) $X \subset X + Y \stackrel{*}{-} Y$;
   c) $Y \subset X \stackrel{*}{-} (X \stackrel{*}{-} Y)$;
7) a) agar $X \subset Y$ bo‘lsa, u holda $\lambda X \subset \lambda Y$ bo‘ladi;
   b) agar $X_1 \subset X_2, Y_1 \subset Y_2$ bo‘lsa, u holda $X_1 + Y_1 \subset X_2 + Y_2$ bo‘ladi;
   c) agar $X_1 \subset X_2, Y_1 \supset Y_2$ bo‘lsa, u holda $X_1 \stackrel{*}{-} Y_1 \subset X_2 \stackrel{*}{-} Y_2$ bo‘ladi;
8) a) $X + (Y \stackrel{*}{-} Z) \subset X + Y \stackrel{*}{-} Z$;
   b) $X + (Y \stackrel{*}{-} Z) \subset Y \stackrel{*}{-} (Z \stackrel{*}{-} X)$;
9) a) $X \stackrel{*}{-} Y + Y \stackrel{*}{-} Y = X \stackrel{*}{-} Y$;
   b) $X + Y \stackrel{*}{-} Y + Y = X + Y$;
   c) $X \stackrel{*}{-} (X \stackrel{*}{-} (X \stackrel{*}{-} Y)) = X \stackrel{*}{-} Y$;
10) a) $(X \stackrel{*}{-} Y)^c = -Y + X^c$;
   b) $(X + Y)^c = X^c \stackrel{*}{-} (-Y)$;
   c) $X^c \stackrel{*}{-} Y^c = -(Y \stackrel{*}{-} X)$;

11) $Y \stackrel{*}{-}(Y \stackrel{*}{-} X) = X + (-Y)^c \stackrel{*}{-} (-Y)^c$;

12) a) $(X \stackrel{*}{-} Z) \cap (Y \stackrel{*}{-} Z) \subset (X \cap Y) \stackrel{*}{-} Z$;

b) $(X \stackrel{*}{-} Y) \cap (X \stackrel{*}{-} Z) \subset X \stackrel{*}{-} (Y \cup Z)$.

Bu yerda X^c - X to'plamning $\mathbf{R}^n$ fazoga to'ldiruvchisi, ya'ni $X^c = \{x \in \mathbf{R}^n : x \notin X\}$ va λ, μ - haqiqiy sonlar.

1-teorema. to'g'ri chiziqda berilgan $X = (a,b)$ va $Y = (a_1,b_1)$ intervallarning Minkovskiy yig'indisi $X + Y = (a + a_1, b + b_1)$ intervalga teng bo'ladi.

Isbot. Minkovskiy yig'indisining aniqlanishiga ko'ra (a,b) va (a_1,b_1) intervallarning Minkovskiy yig'indisi (a,b) intervalning har bir elementiga (a_1,b_1) intervalning har bir elementini qo'shish natijasida hosil bo'ladigan to'plamdir. Ixtiyoriy $x \in X$ ya'ni $a < x < b$ elementni barcha $y \in Y$ ya'ni $a_1 < y < a_2$ elementlarga qo'shib chiqamiz. U holda tengsizlik xossasiga ko'ra $a + a_1 < x + y < b + b_1$ munosabat o'rinli bo'ladi. x va y lar mos ravishda X va Y to'plamlarning ixtiyoriy elementlari bo'lganligidan $X + Y = (a + a_1, b + b_1)$ kelib chiqadi.

Xuddi shunday tarzda, to'g'ri chiziqda berilgan quyidagi ko'rinishdagi to'plamalarning Minkovskiy yig'indisini topish mumkin:

$$\begin{aligned} &[a,b] + [a_1,b_1] = [a + a_1, b + b_1]; \\ &[a,b] + (a_1,b_1) = (a + a_1, b + b_1); \\ &[a,b) + (a_1,b_1] = (a + a_1, b + b_1); \\ &\{a\} + (a_1,b_1) = (a + a_1, a + b_1). \end{aligned} \tag{1}$$

Misol: $X = (-1,2)$, $Y = (3,4)$ bo'lsa $X + Y = (2,6)$ bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. To'g'ri chiziqda ikki to'plamning Minkovskiy yig'indisi

2-teorema. to'g'ri chiziqda berilgan $X = (a,b)$ va $Y = (a_1,b_1)$ intervallarning Minkovskiy ayirmasi uchun quyidagi munosabat o'rinli bo'ladi:

$$X \stackrel{*}{-} Y = \begin{cases} [a - a_1, b - b_1] & agar\ a - a_1 < b - b_1\ bo'lsa, \\ \{a - a_1\} & agar\ a - a_1 = b - b_1\ bo'lsa, \\ \varnothing & agar\ a - a_1 > b - b_1\ bo'lsa. \end{cases} \tag{2}$$

Isbot. Minkovskiy ayirmasining aniqlanishiga ko'ra har qanday $z \in X \stackrel{*}{-} Y$ uchun $z + Y \subset X$ bo'ladi. $z + Y \subset X$ munosabatdagi to'plamlarni mos intervallar bilan almashtiraylik, ya'ni $z + (a_1,b_1) \subset (a,b)$. 1-teoremaga ko'ra $(z + a_1, z + b_1) \subset (a,b)$ bundan esa $z + a_1 \geq a$, $z + b_1 \leq b$ va $a - a_1 \leq z \leq b - b_1$ kelib chiqadi.

Agar $a-a_1<b-b_1$ bo‘lsa $a-a_1\le z\le b-b_1$ munosabat o‘rinli, agar $a-a_1=b-b_1$ bo‘lsa $z=a-a_1$ bo‘lishini ko‘rish qiyin emas.

Agar $a-a_1>b-b_1$ bo‘lsa $a-a_1\le z\le b-b_1$ tengsizlikka ziddiyat hosil bo‘ladi va bu ziddiyatni qanoatlantiruvchi birorta ham $z\in X\stackrel{*}{-}Y$ element topilmaydi, ya’ni $X\stackrel{*}{-}Y=\varnothing$ bo‘ladi.

Xuddi shunday tarzda, to‘g‘ri chiziqda berilgan quyidagi ko‘rinishdagi to‘plamalarning Minkovskiy ayirmasini topish mumkin:

$$\begin{gathered}[a,b]\stackrel{*}{-}[a_1,b_1]=[a-a_1,b-b_1];\\ [a,b]\stackrel{*}{-}(a_1,b_1)=[a-a_1,b-b_1];\\ (a,b)\stackrel{*}{-}[a_1,b_1]=(a-a_1,b-b_1);\end{gathered}\qquad(3)$$

bu formulalardagi Minkovskiy ayirmalari $a-a_1<b-b_1$ hol uchun hisoblangan.

Misol: $X=(-1,2),\ Y=(3,4)$ bo‘lsa $X\stackrel{*}{-}Y=[-4,-2]$ bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. To‘g‘ri chiziqda ikki to‘plamning Minkovskiy ayirmasi

Minkovskiy amallari nazariyasi zamonaviy matematikada keng qo‘llaniladigan, ko'p tarmoqli soha hisoblanadi. Bu amallar nafaqat sof matematikada, balki amaliy fanlar, jumladan, fizika, robototexnika, kompyuter grafika va tasvirlarni qayta ishlashda ham qo'llaniladi. Yig'indilar va farqlar orqali geometrik shakllarning harakatini, ularning bir-biriga ta'sirini tushunish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Minkovskiy operatorlari yordamida murakkab masalalarni hal qilish va ularning matematik modellarini tuzish ancha osonlashadi. Demak, bu amallarni yanada chuqur o'rganish va ularning tadbiqlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nuritdinov, J. T., Kakharov, S. S., & Dagur, A. (2024). A new algorithm for finding the Minkowski difference of some sets. In *Artificial Intelligence and Information Technologies* (pp. 142-147). CRC Press.

2. J.T.Nuritdinov. (2024). MINKOWSKI DIFFERENCE OF n-DIMENSIONAL CUBES. Kokand University Research Base, 419–422. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/359

3. Mamatov, M., & Nuritdinov, J. (2024). ON THE GEOMETRIC PROPERTIES OF THE MINKOWSKI OPERATOR. International Journal of Applied Mathematics, 37(2), 175-185.

4. Nuritdinov, J. T. (2023). YARIM TEKISLIKLAR MINKOVSKIY AYIRMASI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 38-40.

5. Nuritdinov, J. T. (2022, September). Minkowski difference of cubes. In Proceedings of International Conference on Mathematics and Mathematics Education (ICMME-2022). Pamukkale University, Denizli, Turkey (pp. 22-24).

6. Nuritdinov, J. T. (2022). About the Minkowski difference of squares on a plane. Differential Geometry-Dynamical Systems, 24.

7. Маматов, М. Ш., Нуритдинов, Ж. Т., & Эсонов, Э. Э. (2021). ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ ИГРЫ ДРОБНОГО ПОРЯДКА С РАСПРЕДЕЛЕННЫМИ ПАРАМЕТРАМИ. Проблемы управления и информатики, (4), 39.

8. Маматов, М. Ш., & Нуритдинов, Ж. Т. (2020). О некоторых геометрических свойствах разности и суммы Минковского. In Колмогоровские чтения. Общие проблемы управления и их приложения (ОПУ–2020) (pp. 69-72).

9. Sh, M. M., & Nuritdinov, J. T. (2020). MINKOVSKIY YIG ‘INDISINI VA AYIRMASINI HISOBLASHGA DOIR BA ‘ZI QONUNIYATLAR HAQIDA. Matematika Instituti Byulleteni Bulletin of the Institute of Mathematics Бюллетень Института, (3), 49-59.

10. Mamatov, M., & Nuritdinov, J. (2022). Optimizing the Quality of Electric Lighting with the Use of Minkowski’s Geometric Difference. In Proceedings of the 3rd International Symposium on Automation, Information and Computing (Vol. 1, pp. 751-756).

TARTIB AKSIOMALARINING GEOMETRIK TASDIQLARNI ASOSLASHDA QO‘LLANILISHI

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti Matematika kafedrasi o‘qituvchisi
Muhammadjonova Nozligul Dilmurod qizi
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti Matematika va informatika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tartib aksiomalari va ularning geometriyada qo‘llanilishi o‘rganiladi. Xususan, geometrik tasdiqlarni asoslashda tartib aksiomalarining tutgan o‘rni va ularning turli nazariyalardagi roli tahlil qilinadi. Maqolada tartib va geometriya o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilib, o‘quvchilarga geometrik shakllar va masalalarni tartib aksiomalari yordamida qanday tasdiqlash mumkinligi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari geometriyani o‘rgatish jarayonida va matematik nazariyalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni ta'lim va ilmiy izlanishlarda qo‘llash uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Kalit so‘zlar: Tartib aksiomalari, yo‘nalish, to‘g‘ri chiziq, tekislik, matematik asoslash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются аксиомы порядка и их применение в геометрии. В частности, анализируется роль аксиом порядка в обосновании геометрических утверждений и их значение в различных теориях. В статье освещается связь между порядком и геометрией, а также показывается, как с помощью аксиом порядка можно подтверждать геометрические фигуры и задачи. Результаты исследования имеют большое значение для процесса обучения геометрии и укрепления математических теорий, открывая новые возможности для их применения в образовательных и научных исследованиях.

Ключевые слова: аксиомы порядка, направление, прямая линия, плоскость, математическое обоснование.

Annotation. This article examines order axioms and their application in geometry. In particular, it analyzes the role of order axioms in justifying geometric statements and their significance in various theories. The article highlights the relationship between order and geometry, demonstrating how order axioms can be used to confirm geometric figures and problems. The research results are of great importance for the teaching process of geometry and the strengthening of mathematical theories, opening new opportunities for their application in educational and scientific research.

Keywords: order axioms, direction, straight line, plane, mathematical justification.

Tartib aksiomalari nuqtalarning to‘g‘ri chiziq va tekisliklarda o‘zaro joylashuvi xossalarini o‘rgatadi.

Biz to‘g‘ri chiziqda ikkita o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalish mavjud va ularning har biriga ko‘ra to‘g‘ri chiziqdagi har ikki A va B nuqtalar “ergashtiradi” so‘zi bilan ifodalangan munosabatda joylashgan deb faraz qilamiz.

Bu munosabat “<” belgi bilan belgilanadi va demak “A nuqta B nuqtani ergashtiradi” jumla belgilashda quyidagicha yoziladi: A<B.

To‘g‘ri chiziqdagi nuqtalar uchun yuqorida aniqlangan tartib quyidagi beshta aksiomani qanoatlantirilishi talab qilinadi.

II_1 aksioma. Agar bir yo‘nalishda A < B bo‘lsa, qarama-qarshi yo‘nalishda B < A bo‘ladi.

II_2 aksioma. Ikki yo‘nalishdan birida A < B , B <A ni inkor etadi.

II_3 aksioma. Ikki yo‘nalishdan birida A < B va B < C bo‘lsa, A< C bo‘ladi.

II_4aksioma. Ikki yonalishdan birida har bir B nuqta uchun shunday A va C nuqtalar topiladiki, ular uchun A < B < C o‘rinli bo‘ladi.

Oxirgi aksiomani tavsiflashdan oldin ayrim tushunchalarni aniqlab olamiz. Aytaylik a – to‘g‘ri chiziq va A – undagi nuqta bo‘lsin. To‘g‘ri chiziqdagi fiksirlangan yo‘nalishda A nuqta uni ikki bo‘lak – yarim to‘g‘ri chiziqlarga ajratadi, ulardan biridagi barcha X nuqtalar uchun X< A, ikkinchisidagi Xnuqtalar uchun A < X o‘rinli bo‘adi. Tushunarliki, to‘g‘ri chiziqning bunday bo‘linishi tanlangan yo‘nalishga bog‘liq bo‘lmaydi.

Aytaylik A va B lar a to‘g‘ri chiziqdan olingan nuqtalar bo‘lsin. Agar a to‘g‘ri chiziqning C nuqtasi uchun A < C < B yoki B< C < A o‘rinli bo‘lsa, C nuqta A va B nuqtalar orasida yotadi deymiz. Tushunarliki nuqtaning ikki nuqta orasida yotishi to‘g‘ri chiziqdagi yo‘nalishga bog‘liq emas. a to‘g‘ri chiziqning barcha nuqtalari A va B nuqtalar orasida yotgan qismi AB kesma deb, A va B nuqtalar esa uning uchlari deb ataladi.

I_5aksioma. Π tekislikda yotuvchi a to‘g‘ri chiziq bu tekislikni ikki bo‘lak (yarim tekisliklar) ga shunday ajratadiki, agar X va Y lar bitta yarim tekislikning ikki nuqtasi bo‘lsa, XY kesma a to‘g‘ri chiziq bilan kesishmaydi, agar X va Y lar turli yarim tekisliklarning nuqtalari bo‘lsa, XY kesma a to‘g‘ri chiziq bilan kesishadi.

Biz X va Y nuqtalarni, a to‘g‘ri chiziq tekislikni ajratgan yarim tekisliklarning bittasi yoki turlisiga tegishliligiga qarab, ular a to‘g‘ri chiziqning bir tomonida yoki turli tomonida yotadi deymiz.

1-masala. g to‘g‘ri chiziqning uchta A, B , C nuqtalaridan bitta va faqat bittasi qolgan ikkitasining orasida yotishini isbotlang.

Ye ch i l i sh i. to‘g‘ri chiziqdagi ikki yo‘nalishdan birida A < C . Agar B nuqta A va C nuqtalarning orasida yotmasa, B < A yoki C < B o‘rinli bo‘ladi. Lekin birinchi holda A nuqta B va C nuqtalar orasida yotadi, ikkinchi holda C nuqta A va B nuqtalar orasida yotadi.

2-masala. Har bir kesma kamida bitta nuqtaga ega bo‘lishini isbotlang.

Ye ch i l i sh i. A va B nuqtalar kesmaning uchlari bo‘lsin (1-rasm). I_3 aksiomaga ko‘ra AB to‘g‘ri chiziqda yotmagan C nuqta bor. AC to‘g‘ri chiziqda D nuqtani shunday olamizki, C nuqta AD kesmada yotsin, bu II_4 aksiomaga ko‘ra mumkin. Xuddi shuningdek BD to‘g‘ri chiziqda E nuqtani shunday olamizki, B nuqta DE kesmaga tegishli bo‘lsin.CE to‘g‘ri chiziq tekislikni ikki bo‘lakka bo‘ladi.



1-rasm

B va D nuqtalar bitta yarim tekislikka, A va D nuqtalar esa turli yarim tekisliklarga tegishli, shuning uchun, II_5 aksiomaga ko‘ra BD kesma CE to‘g‘ri chiziqni kesmaydi, AD kesma esa CE to‘g‘ri chiziqni C nuqtada kesadi. Bundan esa A va B nuqtalar turli yarim tekisliklarga tegishliligi va demak AB kesma CE to‘g‘ri chiziqni F nuqtada kesishi kelib chiqadi. Ana shu F nuqta AB kesmaning nuqtasi.A, B , C – lar bir to‘g‘ri chiziqda yotmagan uchta nuqtalar bo‘lsin. AB, BC va CA kesmalardan hosil bo‘lgan shakl uchburchak, A, B , C –nuqtalar uning uchlari, AB, BC , AC – kesmalar uning tomonlari deyiladi.

3-masala. Π tekislikda ABC uchburchak va A, B , C nuqtalarning birortasidan ham o‘tmagan a to‘g‘ri chiziq berilgan bo‘lsin. Agar a to‘g‘ri chiziq uchburchakning AB tomonini kesib o‘tsa, u holda u uchburchakning BC va AC tomonlaridan birini va faqat bittasini kesishini isbotlang.

Ye ch i l i sh i. II_5 aksiomaga ko‘ra a to‘g‘ri chiziq Π tekislikni ikkita yarim tekislikka bo‘ladi. A va B nuqtalar turli yarim tekisliklarga yotadi. Agar C nuqta B nuqta yotgan yarim tekislikka tegishli bo‘lsa, a to‘g‘ri chiziq AC tomonni kesib o‘tadi, BC tomonni kesib o‘tmaydi. Agar C nuqta A nuqta yotgan yarim tekislikka tegishli bo‘lsa, a to‘g‘ri chiziq BC tomonni kesib o‘tadi, AC tomonni kesmaydi.

4-masala. O nuqtadan bir to‘g‘ri chiziqda yotmagan ikkita a va b yarim to‘g‘ri chiziqlar chiqqan bo‘lsin. Agar O nuqtadan chiquvchi h yarim to‘g‘ri chiziq uchlari mos ravishda a va b larda yotgan biror AB kesmani kessa, u uchlari a va b larda yotgan ixtiyoriy kesmani kesishini isbotlang.

Ye ch i l i sh i. Haqiqatdan ham AB va XY kesmalar, a va h yarim to‘g‘ri chiziqlar, h va uning to‘ldiruvchisi h′ yarim to‘g‘ri chiziqlar orqali hosil bo‘lgan b ni o‘z ichiga oluvchi yarim tekislikda yotadi. 3- masalani ABX va BXY uchburchaklar hamda h, h′ 2-rasm to‘g‘ri chiziqlarga ketma-ket qo‘llab h , h′ to‘g‘ri chiziq BX va YX ni kesishini olamiz.h′ yarim to‘g‘ri chiziq va XY kesma turli yarim tekisliklarda yotganligi uchun kesishmaydi. Bundan esa XY kesmani h kesib o‘tishi kelib chiqadi (2-rasm).



2-rasm

5-masala. To‘g‘ri chiziqda berilgan nuqta orqali unga perpendikulyar bitta va faqat bitta tekislik o‘tkazish mumkinliginiisbotlang.

Ye ch i l i sh i. a – berilgan to‘g‘ri chiziq va A – undagi nuqta bo‘lsin (3-rasm). Bu to‘g‘ri chiziq orqali ikkita tekislik o‘tkazamiz va ularda A nuqta orqali a to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar b va c to‘g‘ri chiziqlarni o‘tkazamiz. Bu to‘g‘ri chiziqlar orqali o‘tuvchi □ tekislik a to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar.



3-rasm



4-rasm

Bu tekislikning yagona ekanini isbotlaymiz. Faraz qilaylik, Π tekislikdan tashqari A nuqtadan o‘tuvchi va a to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lgan boshqa Π Π′ tekislik mavjud bo‘lsin (4-rasm). Π′ tekislikning Π tekislikda yotmagan nuqtasi bo‘lsin. B nuqta va a to‘g‘ri chiziq orqali tekislik o‘tkazamiz. Bu tekislik Π va Π′ tekisliklarni a to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lgan turli b va b′ to‘g‘ri chiziqlar bo‘yicha kesadi. Bilamizki, bunday bo‘lishi mumkin emas, chunki tekislikda to‘g‘ri chiziqning berilgan nuqtasidan unga perpendikulyar faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tadi. Shunday qilib, A nuqtadan o‘tib, a to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lgan tekislik yagona ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov M.SH., Bayturayev A.M., Ibragimov N.Sh. Geometriya asoslaridan masalalar to‘plami. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2019. -130b.
2. Nuritdinov, J. T. (2021). ABOUT THE MINKOWSKI DIFFERENCE OF SQUARES ON A PLANE. Scientific reports of Bukhara State University, 5(3), 13-29.
3. Nuritdinov J. T. On Minkowski difference of triangles. Bull. Inst. Math., 2021, Vol.4, No6, pp. 50-57. [In Uzbek]
4. Mamatov, M. and Nuritdinov, J. (2020) Some Properties of the Sum and Geometric Differences of Minkowski. Journal of Applied Mathematics and Physics, 8, 2241-2255. doi: 10.4236/jamp.2020.810168.
5. Mamatov, M. S., & Nuritdinov, J. T. (2020). On some geometric properties of the difference and the sum of Minkowski. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 601-610. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-06-86-110
6. Mamatov M. and Nuritdinov J. (2022). Optimizing the Quality of Electric Lighting with the Use of Minkowski’s Geometric Difference. In Proceedings of the 3rd International Symposium on Automation, Information and Computing - Volume 1: ISAIC; ISBN 978-989-758-622-4, SciTePress, pages 751-756. DOI: 10.5220/0012046100003612
7. Mamatov , M., Nuritdinov, J. and Esonov, E. (2021) “Differential games of fractional order with distributed parameters”, International Scientific Technical Journal "Problems of Control and Informatics", 66(4), pp. 38–47. doi: 10.34229/1028-0979-2021-4-4.
8. Nuritdinov J.T. Minkowski difference of cubes. Proceedings of International Conference on Mathematics and Mathematics Education (ICMME - 2022). Pamukkale University, Denizli, Turkey, 22-24 September 2022; 88-90.
9. Жалолхон Нуритдинов Турсунбой ўғли. (2023). ТЕКИСЛИКДА БЕРИЛГАН ЭЛЛИПСЛАР МИНКОВСКИЙ АЙИРМАСИ. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 105–113. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.312
10. J.T.Nuritdinov. On the minkowski difference of lines and planes // Modern problems of applied mathematics and information technologies. Al-Khwarizmi 15-17 November, 2021, Fergana, Uzbekistan. pp 252.
11. Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li. (2023). SANOATNING YAIMGA TA’SIRINI BAHOLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 290–293. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.439
12. Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmansur o‘g‘li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 328–332. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.454
13. Nuritdinov J.T. (2023). YARIM TEKISLIKLAR MINKOVSKIY AYIRMASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 38–40. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.281
14. I. I. Haydarov, & J. T. Nuritdinov. (2023). BENEFIT FROM THE GEOGEBRA PROGRAM IN SOLVING PROBLEMS OF PROJECTIVE GEOMETRY. Open Access Repository, 9(4), 298–302. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/KE253
15. J. T. Nuritdinov. (2023). USING THE MAPLE SOFTWARE TOOL IN SOLVING A SYSTEM OF LINEAR EQUATIONS. Open Access Repository, 9(4), 303–307. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/U4BHE

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Nurmatov Sardor Siddiqovich
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
Alieva O‘g‘iloy
Qo‘qon unversiteti talabasi.

Annotatsiya. Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda o‘quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlatlarni tushunamiz. Matematikadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni dars mashg‘ulotlarida egallangan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishda qaratilgan bo‘lishi kerak.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, matematika, mashg‘ulot, misol, sinf, bilim, o‘quvchi, natija.

Аннотация: Внеклассные занятия по математике направлены на расширение и углубление математических знаний учащихся. Эти занятия включают мероприятия, которые способствуют закреплению знаний, полученных на уроках, а также их дальнейшему развитию. Внеклассная работа должна быть ориентирована на углубление и расширение изученного материала, что способствует развитию математического мышления, творческих способностей и навыков самостоятельного решения задач у учащихся.

Ключевые слова: начальные классы, математика, занятие, пример, класс, знания, ученик, результат.

Annotation: Extracurricular activities in mathematics are aimed at expanding and deepening students' mathematical knowledge. These activities include tasks that help reinforce the knowledge gained during lessons, as well as further develop it. Extracurricular work should focus on enhancing and broadening the material learned in class, contributing to the development of mathematical thinking, creative abilities, and independent problem-solving skills in students.

Keywords: Primary school, mathematics, activity, example, class, knowledge, student, result.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda ko‘pincha yuqori sinflar nazarda tutiladi. Lekin ilg‘or tajribalarning tasdiqlashicha, boshlang‘ich sinflarda ham sinfdan tashqari turli – tuman formalarda mashg‘ulotlar olib borishning potensial imkoniyatlari mavjud. Bu imkoniyatlardan foydalanish o‘qitishda boshlang‘ich va yuqori sinflar uzviyligini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda o‘quvchilarning nutq madaniyatini va matematik tafakkurini shakllantirishga kompleks holda yondashish talab qilinadi. Yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta’lim – tayanch maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni benihoya katta. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba’zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi. Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari mavjud:matematika to‘garagi,

matematika ertaligi, matematikadan fakultativ mashg‘ulotlar, matematik matbuot, matematik viktorina va olimpiadalar. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin.

a) ommaviy ishlar; (musobaqalar, ko‘rik tanlovlar, kechalar, ertakliklarekskursiyalar va hokazolar);

b) to‘garak ishlar (yosh matematiklar);

d) o‘qituvchilarning mustaqil mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish (bunda o‘quvchilar fan va texnikaning biron soxasini o‘rganish uchun mustaqil ishlaydilar va hokazo).

e) Maktabdagi o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil etish usullari.

Matematika to‘garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To‘garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Matematika to‘garagi ishi qiziqarli, matematika soatlaridan quyidagilar bilan farq qiladi:

Matematika to‘garagiga o‘quvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Har qaysi matematika to‘garagida qatnashadigan o‘quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o‘qituvchiga qiyinchilik tug‘diradi va o‘quvchilar to‘garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar. Matematika to‘garagini o‘tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

1-mashg‘ulot.

1. Rebuslarni o‘ylab topish.
2. Qo‘shishga oid qiziqarli masalalar.
3. 100 ichida raqamlashni bilishni tekshirishga oid mashqlar.
4. Topqirlikni talab qiladigan masalalar.
5. Hazil masala.
6. Topishmoqlar.
7. Quvnoq sanoq (20 ichida) o‘yini.

2-mashg‘ulot.

1. Rebuslarni o‘ylab topish.
2. Topqirlikni talab qiluvchi she’riy masalalar.
3. Geometrik figuralarni tahlil qilishga doir mashqlar.
4. Hazil masala.
5. “Sonni to‘ldir” o‘yini.

3-mashg‘ulot. Dars tipidagi to‘garak mashg‘uloti.

Matematik tanlovlar. Tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqalar bo‘lib hisoblanadi. Asosan O‘quvchilarning xohishi bo‘yicha masalalar yechishda o‘z kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok qiladi.

Matematik olimpiadalar. Olimpiadalar tanlovlarga qaraganda keng ko‘lamda o‘tkaziladigan va matematika o‘rganishda o‘quvchilar erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladigan ishdir. Olimpiada qatnashchilarining tarkibiga bog‘liq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda o‘tkazish mumkin. Olimpiadani 3 - sinfdan boshlab o‘tkazib, g‘oliblar maktabning devoriy gazetalarida va o‘quvchilar yig‘ilishlarida rag‘batlantiriladi.

Matematik matbuot va viktorinalar. Gazeta, viktorinada har xildagi matematik mazmunni o‘z ichga olgan topishmoq, misol va topshiriqlar rasmlarda berilib, qiziqish xarakterida bo‘ladi. Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qo‘yiladi, bu burchakda Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi sonli ma’lumotlar ham berib boriladi. “Bilasizmi?” ruknida qiziqarli materiallar beriladi. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali №14 8tadi. Bunda oldindan tayyorlangan 5 – 6 savolga og‘zaki yoki yozma javob olinadi.

Matematik musobaqa Yuqorida aytib o‘tilgan sinfdan tashqari ishlarda (10 minutlik, viktorina va h.k.), asosan, butun sinf o‘quvchilari ishtirok etsa, matematik musobaqalarda (konkurs, olimpiada) ko‘pchilik ishtirok etib, g‘oliblar musobaqasi bilan yakunlaydi, ya’ni bu musobaqa bir necha (ko‘pincha 3 yoki 4) davom etadi.

Xulosa.

O’quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak.O’qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, 3testlar, o‘tkazish kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilam ing yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan yakka (individual) yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dastuming chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun m o‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun m o‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.Matematika o ‘qitishda mustaqil ishlar.Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilaming faolligini oshirish va matematikaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri - O’quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalami mustahkamlashda, shuningdek,bilimlami nazorat qilishda amalga oshiriladi.O’qitish shakli - bu o‘quvchilaming o‘quv-bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab chiqarishda va hokazo).o‘tkazilishiga muvofiq ravishda o‘qituvchi tomonidan tarbiyaviy o‘qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o‘quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo‘lib ishlashlari, ekskursiyalar,sinfdan tashqari ishlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Levenberg L.Sh. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi”, – 2015.
2. Bikbayeva N. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi”, – 2016.
3. Trudnev V.P. Внеклассная работа по математике в начальных классах. – M.: “Просвещение”, – 2015.
4. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
5. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
6. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.

7. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
9. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.
10. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.
11. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.
12. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.
13. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA O’QITISH METODIKASI HAQIDA

Nurmatov Sardor Siddiqovich
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
Ernazarova Namunaxon Ergashxo‘ja qizi
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika o‘qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o‘quvchilarga puxta bilim berishga, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatish, matematika o‘qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o‘zining qadr-qimmati bir-biriga hurmati kabi fazilatlarni tarbiyalashni ko‘rsatib berish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, metodika, taqqoslash, didaktik maqsadlar, malaka va ko‘nikmalar, dars turlari, yangi maqsadlar, didaktik materiallar

Abstract: In this article, the methods of teaching mathematics to elementary school students, how to implement them, to provide students with thorough knowledge, to teach the ways of forming the worldview of students, to teach people to love work in the process of teaching mathematics, It is thought to show the cultivation of qualities such as self-worth and respect for each other.

Keywords: method, methodology, comparison, didactic goals, qualifications and skills, lesson types, new goals, didactic materials

Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo‘lib, Shveytsariyalik pedagog, matematik G.Pestalosining 1803-yilda yozgan "Sonni ko‘rgazmali o‘rganish" asarida bayon qilingan. Boshlang‘ich ta’lim haqida ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar ta’lim va tarbiya haqidagi hur fikrlarida boshlang‘ich ta’lim asoslarini o‘rganish muammolari haqida o‘z davrida ilg‘or g‘oyalami olg‘a surganlar.

6-10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas’ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda o‘qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta’sirlarini jadallashtirishdan iborat.

1-sinf o‘quvchilarining bilimlarini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya’ni past bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o‘quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi.

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo‘shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?
4. > , < , = belgilarini ishlata oladimi?

Maktab ta’limi oldiga tamomila yangi maqsadlarning qo‘yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Matematika boshlang‘ich kursi mazmunida ham, darslik va qo‘llanmalardan foydalanish metodikasida ham rivojlanish bo‘lishini talab qiladi.

Maktab matematika kursining maqsadi o‘quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir. Bu matematik bilimlar tizimi ma’lum usullari (metodika) orqali o‘quvchilarga yetkaziladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikadan samarali ta’lim berilishi uchun o‘qituvchi boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallab, chuqur o‘zlashtirmog‘i zarur.

Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan matematika darsligining birinchi sinfi uchun berilgan quyidagi topshiriqlarga duch kelamiz: “Rasmda nechta yuk mashinasi bo‘lib, bir qatorda shuncha katakni bo‘ya, rasmda nechta avtobus bo‘lsa, 2-qatorda shuncha katakni bo‘ya’’. Bunday topshiriqlarni bajarish bolalarni ko‘rsatilgan to‘plamlar elementlari orasida o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatishga undaydi, bu esa natural son tushunchasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni o‘qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil , sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarini o‘zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi.

Boshlang‘ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang‘ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O’qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o‘quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o‘yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o‘yinlardan foydalaniladi va o‘rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Matematika metodikasi ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi uch savolga javob beradi:

1. Nima uchun matematikani o‘rganish kerak?
2. Matematikadan nimalarni o‘rganish kerak?
3. Matematikani qanday o‘rganish kerak?

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi butun pedagogik tadqiqotlarda pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari yutuqlarida qo‘llaniladigan metodlardan foydalanadi. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini yaqqol aniqlash, uning nazariy asoslari va tamoyillarini ishlab chig‘arish, ishchi faraz tuzish, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasining shakllanishida asosiy mezonlar hisoblanadi.

Matematika o‘qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilami umumiy tizimda o‘qitish va tarb~yalash vazifasini qo‘yadi. Umumiy metodika boshlang‘ich sinf matematikasining mazmunini va tizimliligini aks ettiradi, har bir bo‘limni o‘qitishning o‘ziga xos xususiy metodlarini o‘rgatadi. Xususiy metodika matematika o‘qitishning asoslangan metodlarini va o‘qitish formalarini, shuningdek, o‘quv faoliyatini tashkil 10 qilish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ma’lumki, o‘qitish tarbiyalash bilan o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Ushbu metodika o‘qitishni tarbiyalash bilan qo‘shib olib borish yo‘llarini o‘rgatadi. 6-10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas’ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda o‘qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta’sirlarini jadallashtirishdan iborat. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim jarayoni juda murakkab jarayondir. Bu jarayonni hozirgi kunda davr talabi asosida tashkil etish, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan katta mas’uliyat, bilim, mahoratni talab etadi. 1-4-sinflardagi matematika darslari umumiy o‘rta ta’lim maktab matematika fani uchun asos, poydevor ekan, bu sinflarda matematika o‘qitilishini eng zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarmoq zamon talabidir. Chunki. bolalarga keyinchalik

matematika va boshqa fanlar uchun zarur bo‘lgan elementar, tushunchalar shu sinflarda singdiriladi

Xulosa

O’quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak.O’qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, 3testlar, o‘tkazish kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilam ing yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan yakka (individual) yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dastuming chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun m o‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun m o‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.Matematika o ‘qitishda mustaqil ishlar.Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilaming faolligini oshirish va matematikaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri - O’quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalami mustahkamlashda, shuningdek,bilimlami nazorat qilishda amalga oshiriladi.O’qitish shakli - bu o‘quvchilaming o‘quv-bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab chiqarishda va hokazo).o‘tkazilishiga muvofiq ravishda o‘qituvchi tomonidan tarbiyaviy o‘qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o‘quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo‘lib ishlashlari, ekskursiyalar,sinfdan tashqari ishlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jumayev Mamanazar Ergashevich, Tadjiyeva Zumrad G’iyosovna. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, –2005.
2. M.E. Jumayev, Z.O’ .Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T., «Fan va texnologiya», – 2005, – 312 bet.
3. Bikbayeva N.U va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi (Pedagogika bilim yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “O’qituvchi”, – 1996.
4. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. – T.: “O’qituvchi”, – 2004.
5. Jumayev E.E . Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. – T.: “Ilm-Ziyo”, – 2005.
6. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
7. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
8. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.

9. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
10. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
11. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.
12. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.
13. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.
14. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.
15. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA QO‘SHISH VA AYIRISHNI FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR YORDAMIDA O‘RGATISH

Nurmatov Sardor Siddiqovich
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
Ma’rupova Madinaxon Ilxomjon qizi
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqoladan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sonlarni qo‘shish va ayirishni oson usulda o‘zlashtirib va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlar orqali o‘rganishadi.

Kalit so‘zlar: qo‘shish, ayirish, qo‘shuv belgisi “+”, ayiruv belgisi “-”, yig‘indi, ayirma, teng belgisi “=”.

Аннотация. Из этой статьи учащиеся начальной школы научатся складывать и вычитать числа простым способом, осваивая методы и развивая навыки мышления.

Ключевые слова: сложение, вычитание, знак плюс “+”, знак вычитания “-”, сумма, вычитание, знак равенства “=”.

Annotation. From this article, primary school students learn to add and subtract numbers in an easy way through techniques that develop their mastery and thinking skills.

Keywords: addition, subtraction, addition sign “+”, subtraction sign “-”, sum, subtraction, equal sign “=”.

Boshlang‘ich matematika fani, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang‘ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir.

Maktab matematika kursining maqsadi o‘quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iborat. Bu matematik bilimlar tizimi ma’lum usullari (metodika) orqali o‘quvchilarga yetkaziladi.

“Metodika”- grekcha so‘z bo‘lib, “metod” degani “yo‘l” ma’nosini anglatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikadan samarali ta’lim berilishi uchun o‘qituvchi boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallab, chuqur ozlashtirib olgan bo‘lishi zarur.

Bolalarga qo‘shish va ayirishni o‘rgatishda avval ularni rasmlar orqali yokida she’riy misollar orqali qiziqtirish kerak, birdaniga sonlar bilan tushuntirish ham, zerikarli ham ularning yosh darajasiga qiyinlik qiladi. Qo‘shish “+” belgisi bilan ayirish “-“ belgisi bilan yoziladi, javob oldidan “=” teng belgisi qo‘yiladi.

Masalan:
Daraxtda 10 ta gilos
Endi quloq sol Charos
Uzib oldim 5 tasi
Aytchi qoldi nechtasi ?
10 – 5= 5

6 – 4 =2

Oppoq ona quyonning
4 ta bolasi bor edi.
Katta qamish savatda
6 ta sabzi bor edi.
Ulashibdi 4 tasi
Qani ayting, qani ayting
Savatda qoldi nechtasi ?

Bolalarga o‘yin tariqasida o‘qituvchilar o‘zlari ham rasmlardan sharlar yoki meva, hayvonlar yasab bolalarni qiziqtirib u rasmlarga sonlarni yozib qo‘shish va ayirish usullari bilan yanada mustahkamlash darslari o‘tkazish mumkin.

Masalan:





Ushbu rasmda fikrlash doirasini ishlatish kerak: ya’ni sariq baliqlarning yig‘indisi 9 chiqishidan har bitta sariq baliq 3 ga tengligi va 3 ta 3 sonini yig‘indisi 9 ga teng bo‘lishi kelib chiqadi. Shunday qilib bolalarga qolgan misollarni ham aqliy qobiliyatlarini ishlatgan holda qiziqarli qilib o‘rgatish mumkin.

Xulosa

O’quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak.O’qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, 3testlar, o‘tkazish kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilam ing yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan yakka (individual) yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dastuming chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun m o‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun m o‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.Matematika o ‘qitishda mustaqil ishlar.Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilaming faolligini oshirish va matematikaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri - O’quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalami mustahkamlashda, shuningdek,bilimlami nazorat qilishda amalga oshiriladi.O’qitish shakli - bu o‘quvchilaming o‘quv-bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab chiqarishda va hokazo).o‘tkazilishiga muvofiq ravishda o‘qituvchi tomonidan tarbiyaviy o‘qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o‘quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo‘lib ishlashlari, ekskursiyalar,sinfdan tashqari ishlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. E. Jumayev, Z. G‘. Tadjiyeva Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, – 2005, – 312 bet.
2. Xalq ta’lim vazirligi, USAID 2-sinf matematika darsligi, Toshkent- 2022.
3. Mamajonov, S.M. “Differensial tenglamalar faniga kirish” mavzusini o‘qitishda IQ testlardan foydalanish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024, 2(2), 279-284.
4. Mamajonov, S.M. Maple dasturida funksiyalarning grafiklarini chizish. Kokand University Research Base, 2024, 475-480.
5. Apakov, Yu.P., Mamajonov, S.M. Boundary Value Problem for Fourth Order Inhomogeneous Equation with Variable Coefficients. Journal of Mathematical Sciences. – 2024, – 1-13.
6. Mamajonov, S.M. On the formulation and study of a boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type in a pentagonal domain. Journal of Applied Science and Social Science. – 2024, – 14(06), – 79-86.
7. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary Value Problem for an Inhomogeneous Fourth-Order Equation with Lower-Order Terms. Differential Equations. – 2023, – 2, – 188-198.
8. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Solvability of a Boundary Value Problem for a Fourth Order Equation of Parabolic-Hyperbolic Type in a Pentagonal Domain. Journal of Applied and Industrial Mathematics. – 2021, – 15(4), – 586-596.

9. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a inhomogeneous fourth order equation with constant coefficients. Chelyabinsk Physical and Mathematical Journal. – 2023, – 8(2), – 157-172.

10. Apakov, Yu.P., Mamazhonov, S.M. Boundary value problem for a fourth-order equation of parabolic-hyperbolic type with multiple characteristics, whose slopes are greater than one. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika. – 2022, – 4, – 3-14.

11. Mamajonov, M., Mamajonov, S.M. Statement and research method some boundary value problems for a class of fourth order parabolic-hyperbolic type. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. – 2014, – 1, – 14-19.

12. Mamajonov, S.M. The third boundary problem for a fourth-order non-homogeneous equation with constant coefficients. Bull. Inst. Math. – 2022, – 5(6), – 100-109.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONTSENTRATSIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Israilova Xusnida Adilovna,
Qo`qon universtiteti Andijon filiali o`qituvchisi
Tel: (33) 950 72 72
E-mail: adilovna1989@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati, bolalarda kontsentartsiya qobiliyatini rivojlanishtirishda ijtimoiy me’yorlarning o‘zlashtirilishi, shuningdek bolalarda kontsentratsiyani rivojlantiruvchi asosiy omillar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, konsentratsiya, didaktik o’yinlar, kognitiv harakat, mashg‘ulot, ijtimoiy ong, davlat ta’lim standarti, STEAM texnologiya.

Bugungi kunda uzluksiz ta’limning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim bosqichiga e’tibor har qachongidan ortib bormoqda. Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimining boshlang‘ich poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’limni sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta’minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining xarakteriga ko‘ra ta’lim-tarbiya mazmunini tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, ijtimoiy ong va tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirish doirasida ishlab chiqish davr talabidir. Bu o‘rinda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, muassasa joylashgan geografik muhit, tolerantlik tamoyillari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi hamda demografik vaziyat inobatga olinmog‘i maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta’lim-tarbiya mazmunini zamon talablariga mos shakllantirishda dunyodagi globallashuv jarayoni tamoyillari, xorijiy ilg‘or tajribalar, mutaxassis olimlarning ilmiy-nazariy, metodik xarakterdagi g‘oyalari va qarashlariga tayaniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mazmunini shakllantirishda albatta pedagogik va psixologik qonuniyatlar, tamoyillar, shart-sharoitlar, omillar va boshqalar inobatga olinmog‘i zarur.

Xususan, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[1] qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[2] da mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan sabablar ko‘rsatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi”da esa “...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yildi”.[3] Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi Qaror va Farmonlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda dasturilamalga aylandi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”[4] va “Ilk qadam”[5] Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta’limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning negizi tarbiyalanuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish – maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub negizini tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar Davlat ta’lim standartlariga muvofiq quyidagi umumiy muhim kompetentsiyalarni egallashi lozim bo‘ladi: kommunikativ, o‘yin, ijtimoiy, bilish kompetentsiyalari. Mazkur kompetentsiyalarni egallashi bolaning yosh, ijtimoiy, jismoniy va aqliy rivojlanish jarayonining natijasi sifatida qaraladi. Mazkur rivojlanish jarayonida kontsentratsiyaning ahamiyati katta bo‘lib, bu xususidagi ilmiy tadqiqotlarning salmog‘i kengayib bormoqda. Amaliy jihatdan esa bolaning kontsentratsiyasini rivojlantiruvchi, diagnostika qiluvchi, baholovchi metodlar ortib borishi bolalar yashovchi ijtimoiy muhit, jamiyatning modernisatsiyalashuvi, globallashuv jarayonlarining bolalarga bo‘lgan ta’sirida namoyon bo‘lmoqda. Keng jamoatchilik, pedagoglar, shifokorlar, ota-onalar, barcha bolalar bilan bog‘liq kasbiy faoliyatda kontsentratsiya masalasi alohida o‘rin egallaydi.

Ko‘plab tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalardagi kontsentratsiya qobiliyati ulardagi bir qator qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos bo‘lishi ta’kidlab o‘tilgan. Shunday tadqiqotlardan birida maktabgacha ta’limda bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish jarayoni ularning aqliy rivojlanishi, turli ruhiy jarayonlar – diqqati, axborotni tushunishi, mulohaza yurita bilishi, idrok etish, ma’lumotlarni esda saqlash, fikrlash va muammoni hal qila olishi bilan tavsiflanishi keltirib o‘tilgan.[6]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyati ularning kognitiv rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit vazifasini o‘taydi. Sh.Xo‘jamberdieva o‘z tadqiqotida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali kattalar bilan muloqot qilishdan zavq olish, o‘qib berilayotgan asarni qiziqish bilan, diqqat bilan tinglash; asardan chalg‘imaslik, takroriy tinglanayotgan tanish asarlar (ertak, hikoya va she’rlar)ni o‘rganishda qahramonlarni illyustratsiya va o‘yinchoqlar orqali nomlarini ayta bilish; badiiy asarlar mazmunini so‘z, harakat, imo-ishorlar orqali ko‘rsatib

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

[4] O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1450-sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi Buyrug‘i / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son.

[5] O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T.: 2018.

[6] Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – T.: 2023. – B. 10 (43).

bera olishi; tanish she’rlardagi so‘zlar va qatorlarni eslab qolish asosida o‘z nutqida ifoda eta olishga intilish; kichkintoylarga mo‘ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko‘zdan kechirishga qiziqish bildirish kabilarda namoyon bo‘lishini keltirib o‘tgan[7]. Ta’kidlash lozimki, bolalardagi hikoya va ertaklarni tushunishi, anglashi, so‘zlab berishi ularning kontsentratsiya qobiliyati bilan uzviy bog’liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik zarurati maktabgacha ta’lim pedagogik amaliyotida yangi yondashuvlar, texnologiyalarning keng va izchil joriy etilishi bilan izohlanadi. Z.M.Ashurova maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasini tadbiq etishga doir bo‘lib, bundan asosiy maqsad bolalarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishdan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tadi. STEAM texnologiyasi markazida muammoli vaziyat turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida diqqatni faoliyatga qaratish; tanqidiy fikrlash; o‘z fikrini mustaqil va aniq bayon eta olish; hamkorlikda ishlay olish; fazoda fikrlash; konstruktorlik faoliyatiga oid ko‘nikmalar; tabiatni sevish va undagi hodisalarnning o‘zaro bog‘liqligini tushunib anglash; estetik didning shakllanganligi; texnik faoliyatga qizish; mantiqiy amallarni tushunish ko‘nikmalari vujudga keladi.[8]

B.X.Isaqulova o‘zining didaktik o‘yinlar vositasida maktabgasha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish borasidagi tadqiqotida didaktik o‘yinlarning xususiyatlarini tahlil qilib, maktabgasha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish jarayonida ahamiyatli bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni aniqlashtiradi. Jumladan, didaktik o‘yinlar bolalar faoliyatining ruhiy jarayonlarini (sezgi, idrok, fikrlash, tasavvur, xotira, ye’tibor, nutq, harakat) faollashtiishini keltirib o‘tadi.[9] Demak, didaktik o‘yinlarning pedagogik samaradorligi bolalar faoliyatining ruhiy jarayonlari, jumladan kontsentratsiya qobiliyati bilan uzviy bog’liq.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda loyihalash kompetentsiyasining rivojlanishi ham ulardagi kontsentratsiya qobiliyati bilan bog’liqlikda rivojlanadi. Loyihalash (lot. projectus – oldinga tashlangan) – amalga oshirish natijasida yangi mahsulot namunasi va uni olish usul, metod va texnologik ketma-ketligi yaratiladigan intellektual harakatlar majmui. D.D.Zuparova o‘z tadqiqotlari natijasida, maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bolalarni loyiha faoliyati orqali tahliliy **fikrlashga** o‘rgatib borish ularning kelajakda barkamol inson bo‘lib shakllanishi uchun sharoit yaratishini ta’kidlab o‘tgan.[10]

Bolalarda kontsentartsiya qobiliyatini rivojlanishi ularda ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishiga ham ta’siri kuchli. G.A.Ruzieva o‘z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy intelektni rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Bolalarning “ijtimoiy intellekti – bu atrofdagi olamni, dunyoni samarali idrok etish va anglash uchun imkoniyat yaratadigan individual bilim tajribasini tashkil etishning o‘ziga xos shakli. Ijtimoiy intellektual tarbiya atrof, dunyo haqidagi mavjud bilimlarning o‘zaro ta’sirini anglatishni, ularni tizimlashtirishni, qiziqishlarni, ko‘nikmalarni, xotirani, idrokni, fikrlashni, ya’ni barcha aqliy qobiliyatlarni shakllantirishni va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi”.[11] Pedagogik kuzatishlar ijtimoiy odob-axloq me’yorlaridan og’ish kuzatilgan bolalarda diqqat yetishmovchiligi, diqqatini bir joyga to‘play olmasligi kabi holatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

[7] Xo’jamberdieva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari fan doktori (DSc) avtoref. – Namangan, 2023. – B. 14 (76).
[8] Ashurova Z.M. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmi: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 17 (52).
[9] Isaqulova B.X. Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish (tayyorlov guruhlari misolida): pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 13 (53).
[10] Zuparova D.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 11 (60).
[11] Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 15 (43).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyati kundalik-hayotiy faoliyatda ham ularning kuzatuvchanligida ham namoyon bo‘ladi. Maktabgacha bo‘lgan bolalarda muloqotga doir tadqiqotida A.Isaboeva bolalar “atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to‘g‘ri talaffuzni, so‘zni qo‘llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o‘zlariga qabul qilib oladilar”[12] degan xulosaviy mulohazani keltirib o‘tgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalardagi intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim pedagogik sharti, ta’lim faoliyatlari jarayonida erkin ijodiy muhitning yaratilishi, tarbiyachilar va bolalarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iboratligini ilmiy jihatdan asosladi. Tadqiqotchi F.Shermonova bilvosita hozirgi globallashuv davrida bolalarda bolalar avvalgiga nisbatan ko‘p axborot iste’mol qilishiga e’tibor qaratib, “bola ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z bilim va imkoniyatlari darajasini bilib yurishi, axborotlarni qabul qilishi, saralashi, qayta ishlashi, ulardan keladigan ijobiy natija va oqibatlarni diqqat markazida tahlil qila olishi, boshqalarning fikr-g‘oyalarini idrok qilishi, o‘z barqaror nuqtai nazariga ega bo‘lishi, o‘z g‘oyalarini boshqa g‘oyalarga taqqoslashni o‘rganishga majburligi hozirgi elektron asr – XXI asr talabiga aylandi”[13] ta’kidlab o‘tadi. Bolalardagi me’yordan ortiq axborot iste’moli ularning kontsentratsiya qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mazkur tadqiqot ishida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bolalarda kontsentratsiyaning rivojlanishi ularning aktiv faoliyati bilan chmabrachas bog’liq. Bolalarning aktiv faoliyati o‘yin, o‘quv, mehnat va turmush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o ‘zgaradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 8 minutga yaqin aqliy faoliyat bilan faol shug‘ullanishlari mumkin bo‘lsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ana shunday faoliyat bilan 12-14 rninut shug‘ullana oladilar. Shu vaqt o‘tgandan so‘ng ularda kontsentratsiya susayishi kuzatiladi. Mashg‘ulotlar orasida va mashg‘ulotning o‘zida harakatli mashqlar (jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya tanaffuslari)dan ularni tetiklashtirish uchun foydalanilsa, ularning kontsentratsiyasi bir muncha ko‘payadi.

Bolalarda kontsentratsiyani rivojlantiruvchi eng asosiy omillardan biri ularda qiziquvchanlik xususiyati hisoblanadi. Qiziquvchanlik bolaning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo‘ladi. Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qilishi, ularni mustaqil javob qidirishga undashi lozim bo‘ladi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirishda o‘yin faoliyatining ahamiyati katta. O‘yin faoliyati bolalarning ixtiyoriy diqqatini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o‘yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi.[14] Shuningdek, mehnat faoliyati ham bolalarda kontsentratsiyani rivojlanishiga xizmat qiladi. Mehnat faoliyati bolalardan diqqat, o‘tkir zehnlilik, topqirlik, ijodkorlik, qobiliyatlarini egallashni talab etadi hamda bola nutqini yangi so‘zlar bilan boyitadi.[15]

[12] Isabayeva A.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o‘ rgatish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Namangan, 2023. – B. 11 (51).
[13] Shermanova F.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 11 (51).
[14] Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 88 (186).
[15] Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 100 (186).

Ma’lumki, inson aqli keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlanadi. U tafakkur va hayotni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisi bo‘lib, aqliy faoliyat diqqatning har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lishini taqozo etadi. Insonning aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog‘lanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kontsentratsiyasini rivojlantirish yo‘llari va usullarini o‘rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Konsentratsiya atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma’lum narsani bilish istagi – asosan o‘qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatlardan biridir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo‘lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi mashg‘ulot rejasini tuzishda bolalarning xulq-atvori, qiziqishi, rivojlanish darajasiga qarab, yakka tartibdagi ishlar ham rejalashtiradi. Unda umumiy rivojlanishda biroz orqada qolayotgan, diqqati tarqoq, o‘ziga ishonchi yo‘q yoki o‘zi to‘g‘risida yuqori flkrli bolalarga ko‘proq e’tibor berish kerak.[16] Guruhdagi bolalarda kontsentratsiya bilan bog’liq muammoli bolalar bo‘lganida avvalambor ularni diqqatini bir joyga jalb qilish uchun kichik harakatli mashqni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi faqat uning diqqat-e’tibori va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o‘z navbatida anglash, tushunish, tafakkur qilishga yordam beradi. Kontsentratsiya bolaning faolligini, uning atrof-olamni bilishga bo‘lgan ishtiyoqini, noma’lumdan ma’lumni aniqlashga bo‘lgan harakatini ta’minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda “kontsentratisiya” tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kontsentratsiya bolaning o‘zi mustaqil biron bir faoliyatga intilishini, insoniyat tomonidan ijtimoiy tajriba orqali to‘plangan faoliyat usullarini o‘zlashtirishini o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

4. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1450-sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi Buyrug‘i / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son.

5. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T.: 2018.

[16] Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 159 (186).

6. Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – T.: 2023. – B. 10 (43).
7. Xo’jamberdieva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari fan doktori (DSc) avtoref. – Namangan, 2023. – B. 14 (76).
8. Ashurova Z.M. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmi: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 17 (52).
9. Isaqulova B.X. Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish (tayyorlov guruhlari misolida): pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 13 (53).
10. Zuparova D.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 11 (60).
11. Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 15 (43).
12. Isabayeva A.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o‘ rgatish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Namangan, 2023. – B. 11 (51).
13. Shermanova F.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 11 (51).
14. Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 88 (186).

USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Pedagogika, psixologiya va filologiya
kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Adabiyot tarixini bilmagamn holda ijodkor uslubini aniqlab bo‘lmaydi. Uslub tushunchasi bag‘riga adibning leksik vositalaridan istifoda etishidan tortib harakter yaratish usullarigacha, adabiyot tarixidagi dunyoqarash birligidan tortib har bir muallifgagina xos bo‘lgan o‘ziga xos ifoda qirralariga qadar qamrab oladi. Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri – ijodkor uslubi haqida mulohaza yuritiladi. Uslub, uning yuzaga chiqish omillari, uslubning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan muallifning shaxsiy fikrlari bildiriladi.

Kalit so‘zlar: uslub, ijodkor labaratoriyasi, metod, asar tili, badiiy obraz, mahorat, portret, badiiy nutq.

Abstract: If I knew the history of literature, I would understand the style of "Creator" in the hall. Support for stylistic participation from the lexical property of the writer to the character creation procedure, from the worldview unity in the history of literature to the unique expression of each author.This article discusses one of the important categories of literary studies - the creative style. The personal opinions of the author are expressed regarding the style, the factors of its appearance, the specific features of the style.

Key words: style, artist's laboratory, method, language of the work, artistic image, skill, portrait, artistic discourse.

Аннотация: Не зная истории литературы, невозможно определить стиль художника. Понятие стиля охватывает от использования писателем лексических средств до способов создания персонажей, от единства мировоззрения в истории литературы до неповторимых, присущих каждому автору аспектов выразительности. В данной статье рассматривается одна из важных категорий литературоведения – творческий стиль. Высказано личное мнение автора относительно стиля, факторов его появления, особенностей стиля.

Ключевые слова: стиль, лаборатория художника, метод, язык произведения, художественный образ, мастерство, портрет, художественный дискурс.

Uslub tushunchasi turli ma’nolarda - eng keng va eng tor: adabiyot taraqqiyotining u yoki bu paytiga xos muhim jihatlar (muayyan davr uslubi), turli xil badiiy metodlar yo'nalishlar (klassitsizm, sentimentalizim, romantizm va h.k), ma’lum bir yozuvchi ijodining o‘ziga xosligi (Tolstoy, Gorkiy, Chexov uslubi) nihoyat alohida asarning o‘ziga xos jihatlari bilan bog'liq qo‘llaniladi. Fransuz olimi J.Leklerk de Byuffon iborasiga ko‘ra “Uslub - bu shaxs”[1:18]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida yozuvchining biror bir asar yoki adabiyot janrining til vositalaridan foydalanishidagi o‘ziga xos yo‘li, usuli. Ijodkorning o‘ziga xos tili, harakter yaratish va badiiy quvvati, Har bir chinakam ijodkor o‘z uslubiga ega bo‘ladi[2:281]. Uslub ijodkorning o‘zligini, mustaqilligini belgilaydi. Uslubning shakllanish jarayoni juda murakkabdir. O‘zbek adabiyotida ana shunday o‘ziga xos betakror uslubi, o‘quvchining qiyofa va harakteri, tili, xatti-harakatlarini chuqur o‘rganib, jonli ifodalashi bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Abduqayum Yo‘ldoshdir.

Chindan ham Abduqayum Yo‘ldosh asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, yozuvchining o‘ziga xos uslubi, xarakter yaratish mahorati, obrazlar sistemasini tuzishi, asar kompozitsiyasini shakllantirish borasidagi o‘ziga xosliklarni ko‘rishimiz mumkin. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish

joizki, har bir yozuvchi ijod namunasini yaratar ekan, albatta, o‘z hayotini, o‘zini chetlab o‘tolmaydi. Har qanday mavzuda bo‘lishidan qat’iy nazar baribir asarda yozuvchi “men”i o‘zini ko‘rsatadi. Abduqayum Yo‘ldosh asarlarida ham adib biografoyasi bilan bog‘liq voqealar, mutaxassisligi bilan bog‘liq tushunchalarning uning asarlarida bo‘y ko‘rsatishini ko‘rishimiz mumkin. “Puankare” hikoyasida “Institutni bitirish arafasida men kutilmaganda Puankare gipotezasining shaydosiga aylandim. Gipotezani jo‘nroq tilda ifodalashga urinib ko‘raman. Jismlarning handasaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi topologiya degan fan bor. Puankare gipotezasi aynan shu fanning markaziy muammosi. Yana bir muhim holat: tadqiq etilayotgan jismlar oddiy emas, balki siqilganda, buralganida, cho‘zilganida o‘zgarmaydigan jismlardir. Biron nimani tushundingizmi? Yo’qmi? Unda yanada soddaroq usulda izoh berib otaman. Agar uch o‘lchamli sirt qaysidir jihati bilan ikki o‘lchamli sferaga o‘xshash bo‘lsa, demak uni mana shu sferaga tekislash mumkin”[6:95].

Professor Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” kitobida biografik tahlil metodi haqida gapirar ekan, “Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo‘li kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o‘rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko‘ra biografik metod asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” va “Daxshat” hikoyalari o‘tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa adib har ikki hikoyada ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy e’tirof etishga, o‘sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarni ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Biografik metodning qanchalik samarali bo’lishini ko’p jihatdan tadqiqotchi qo‘l ostidagi biografik materialga bog‘liq bo‘lib qoladi”[5:238] degan so‘zlarini aytadi. Endi Abduqayum Yo‘ldoshning biografiyasiga yuzlanamiz. U 1962-yilda Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida tavallud topgan. Toshkent politexnika institutini (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti) tamomlagan. Shuning uchun ham yozuvchining deyarli barcha asarlarida matematika va fizika bilan bog‘liq atamalar, tushunchalar o‘z ifodasini topadi. Yuqoridagi parchada ham gipoteza, sfera, jism, handasa singari atamalarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib” asarida sovxoz direktori Akbar Nosirovni tasvirlar ekan, “Sovxoz direktori baland bo‘yli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapirganda ovozi huddi xumning ichidan chiqqandek guldirab, jaranglab eshitiladi. Kulganda tomni ko‘tarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi”[7:40] deya ta’riflaydi. Tasvirdagi ta’sirchanlik, ifodalarning eng mayda detallarigacha e’tibor berilishi, birinchidan o‘quvchi ko‘z oldida manzarani eng yorqin darajada namoyish qilish imkonini bersa, ikkinchidan asarning bolalar uchun mo‘ljallangani bilan izohlash mumkin. Voqea-hodisalarni aniq va jonli, bo‘rttirib tasvirlash Xudoyberdi To‘xtaboyev uslubiga xos xususiyatdir.

Hamid Olimjon o‘zining “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonida Baxtiyorning portretini ko‘proq tavsiflash yo‘li bilan ko‘rsatishga harakat qiladi:

Go‘zal yurt Susambilda
Bir podachi bor edi.
Go‘zal edi va chinor
Qomatiga edi zor.
Ko‘kraklari butun bir
Oftobni yashirardi.
Tanlarida bir umr
O‘t lovullab turardi[8:47].

Baxtiyorning qad-qomati kelishganligi, gavdali va barvasta yigit ekanligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmaydi. Aksincha qiyoslash usulidan foydalaniladi. Bu ham yozuvchi uslubining o‘ziga xosligidir.

Abduqayum Yo‘ldosh “Begona shaharning namozshomlari” qissasida ham shunday manzarani kuzatishimiz mumkin: “Tog‘da o’sgani uchunmi Alisher gavdadan guruhimizda birinchi o‘rinda turardi. Hatto uch yil flotda xizmat qilib qaytgan starostamiz ham undan bir enlik past edi. Aniq fanlarda “gabarit o‘lcham” degan tushuncha bor. Jismning eng katta o‘lchamlari ma’nosini beradi. Alisher ham nafaqat shunaqa o‘lchamlari, balki boshqa jihatlardan ham birinchi o‘ringa chiqib olish uchun dastlabki paytlari harakat qildi”. [6:143]. Yuqorida Xudoyberdi To‘xtaboyev va Hamid Olimjon asarlarida barvasta qahramonlar tasvirini chizish uslubiga e'tibor qaratdik. Yozuvchi Alisherni shunchaki gavdali yigit demaydi, uni “gabarit o‘lcham”da ekanligini aytadi. Gabarit so‘zining lug‘aviy ma’nosi ga e’tibor bersak, Gabarit (fransuzcha. gabarite) — binolar, vagonlar, kemalar, ko‘priklar, mashinalar, tunellar va boshqalarning tashqi va ichki chegaraviy qiyofasi; eng katta tashqi va ichki o‘lchamlari (uzunligi, , eni) degan ma’noni beradi. Qahramonni shunchaki gavdasi katta, barvasta deb tasvirlagandan ko‘ra handasadagi ,,gabarit o‘lcham” da deyilganda yanada qiziqarliroq chiqadi. Bu ,avvalo, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati bilan belgilansa, ikkinchidan, yozuvchining mutaxassisligi bilan bog‘liqdir.

Bundan tashqari, shu asarda yana bir jumlaga e’tibor qilsak, “Bu dunyoda bir hodisot boshqa hodisot uchun vosita bo‘lib xizmat qilgusi. Ba’zan, ehtimolki, aksar hollarda bahona sababga, sabab oqibatga evriladi. Baayni ko‘paytma amalini bajarayotganday biz bir miqdorni aytamiz, boshqa bir miqdor esa dilda bo‘ladi va asta-sekin shu dildagi tushuncha shakl-shamoyil kasb eta boradi, biz uni aniqroq ko‘ra boshlaymiz, shunda beixtiyor hushyorroq tortamiz, sezgilarimiz taranglashadi, illo, asl maqsad asl niyat endi yuz ko‘rsata boshlaganini ilg‘aymiz”[6:145]. Mazkur parchada yozuvchi kundalik hayotda ishlatadigan jumlalarimizga falsafiy fikr singdiradi. Chindanda, Pifogor jadvalidagi amalni hisoblash chog‘ida qoldiqni dilda saqlaganimiz singari ba’zan aytilmagan so‘zlar, aytilmagan maqsadlar bizning dilimizda “qoldiq” bo‘lib qoladi. Vaqtlar o‘tib esa ular, albatta, o‘z shamoyilini ko‘rsatmay qolmaydi. Ushbu narsalarni boshqa bir tashbeh bilan ham berish mumkin, ammo ijodkor qachonki o‘zi yaxshi bilgan, kuzatgan narsasini yozsagina, asarga o‘quvchi ham ishonadi, qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qiladi. Bularni yaxshi anglagan adib takroran matematik tushunchalarga murojaat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, ijodkor uslubi birdan shakllanmaydi. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek avval taqliddan boshlanib, sayqallanib, xususiylashib boradi. Ijodkor uslubi uning biografiyasi, turmush-tarzi, dunyoqarashi, mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlami, ustozlari bilan bog‘liqdir. Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” risolasida kuchsiz yozuvchilar asarlaridan uslub yaqqol o‘zini ko‘rsata olmasligini asoslab beradi[4:26]. Haqiqatdan ham, taqlid bosqichidan xususiy uslub yaratish darajasiga ko‘tarilish ijodkordan ulkan mahorat talab etadi. Abduqayum Yo‘ldosh ijodini o‘rganish chog‘ida esa mana shu mahoratning yaqqol namunasi i ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi asarlaridagi tilning soddaligi, asar yechimi ostiga falsafiy fikrlarni yashirish hollari, asarlarida takror-takror matematik atamalar va kasb-hunarga oid leksik birliklardan foydalanish holatlari buning yaqqol misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жорж Луи Леклерк де Бюффон. Франсия академиясига кириш нутқи. http://www.infoliolib.info /philos/buffon/ buffon.html

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Икки томлик.Иккинчи том. –Москва: Рус тили , 1981.–Б.281.

3. Абрамович Г.П. Введение литературоведение. –Москва: Просвещение, 1975. –Б.266–267.

4. Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 26.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Akademnashr, 2017
6. Yo‘ldoshev A. Puankare. Toshkent. Akademnashr, 2017.
7. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Yosh gvardiyachi, 1982.
8. Hamid Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor. G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 1999.

METAFORA MEHANIZMI MURAKKAB LINGVO-KOGNITIV RIVOJLANISH SIFATIDA

Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi,
Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi (FarDU doktoranti)
(rustamovadilfuza7755@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tildagi eng faol ma’no ko‘chish usuli bo‘lmish metafora borasidagi ilmiy qarashlar tarixi hamda bu boradagi zamonaviy g‘oyalar yoritilib berilgan bo‘lib, olimlarning ushbu qarashlari orqali metaforaning nuqtimizdagi ahamiyati va rivojlanishi yoritib berilgan. Metafora orqali nutqimiz jozibador hamda bo‘yoqdor bo‘lishi, uning kognitiv sohasi tafakkurni rivojlantirishi isbotlab berilgan.

Kalit so‘zlar: Meyafora, metaforizatsiya, kommunikativ funksiya, volyuntativ funksiya, kognitiv funksiya, oksyumaron birikmalar, personifikatsiya, sinesteziya.

Metafora biz yashab turgan olamni, borliqdagi mavjud yaratiqlar, ular o‘rtasidagi assotsiativ bog‘lanish orqali to‘g‘ri anglay olishga yordam beruvchi, nutqimizning bo‘yoqdorligi va badiiy jozibasini oshirib ifodalashga yo‘naltirilgan til birligi hisoblanadi. “Metaforizatsiya esa tilda yangi ifoda vositasi qidirmay, hosil qilmay, tejamkorlik qonuniyati, borliqdagi narsa va hodisalarning o‘xshashligi, muvofiqligi, mavjud so‘z hamda iboralarga ularning ontologik imkoniyatlari asosida yangi ko‘p qirrali vazifalar va ma’suliyat yuklash demakdir.” [1, B.709]

Metafora insonlar nutqida antik davrlardan beri mavjud bo‘lib, uning yaratuvchanlik, qayta nomlash orqali tilda yangi so‘z va jumlalar hosil qila olish imkoniyati bilan zamonaviy olamdagi deyarli barcha sohalarga kirib bora oldi. Inson nutqi, uning og‘zaki so‘zlay olish qobiliyati zamonaviy ta’lim sohalarini to‘g‘ri tushuntirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayni shu jihatidan olib qaralganda metafora tilimizni so‘zlarni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda yangi bir predmet yoki hodisani nomlash uchun xizmat qilishi bilan boyitib berishi tufayli nutq ta’sirchanligini oshirib bera oladi hamda nutqda asosiy o‘rin egallaydi. Til sistemamizda mavjud metaforik birliklardan nutqimizda o‘rinli foydalanish orqali bildirmoqchi bo‘lgan fikrimizni aniq dalillar va chiroyli misollar bilan yetkazib bera olamiz. Bundan kelib chiqadiki metafora nutqimizning bezagi hisoblanadi, Tilshunoslikda metafora ritorika san’ati orqali kirib kelgan bo‘lib, antik sinkretizm davridagi “estetik-puristik” yondashuv asosida unga estetika va tasviriy (jozibador) nutq vositasi sifatida qaralgan. [2,B.10]

Fanda metaforani chuqur o‘rgangan olimlardan dastlab, Aristotelning nomi mashhurdir. Aristotel asarlarida metaforaga lisoniy hodisa sifatida ta’rif berilmaydi, lekin shunga qaramay aynan uning mulohazalari tufayli metafora ilmiy iste’molga kirgan. Metafora tabiatini tekshirgan Aristotel uni: “ so‘z ma’nosining jinsdan turga, turdan jinsga yoxud turdan turga yoki muqobillik asosida ko‘chirilishidir”,- deb ta’riflaydi.[3,B.39] Mazkur to‘rt turdagi metaforalar orasida olim muqobillik asosida yuzaga kelgan metaforalarni e’tiborli topadi. Muqobillik – proportsiyaning o‘zi: bunda ikkinchi so‘z birinchisiga, xuddi shunday, uchinchi va to‘rtinchisiga ham birday taalluqli bo‘laveradi. Xususan, u “ Umrning keksalik davri kunduzning shom pallasiga tengdir” jumlasidagi umr so‘zini uchinchi so‘z (bunda keksalik davri so‘z birikmasi bo‘lib kelgan) – kunduz bilan almashtirish mumkin (ushbu holatda: kunduzning keksalik davri (shom pallasi) hamda umrning shom pallasi (keksalik) singari metaforalar yasaladi), deydi.

Ritorika metaforani alohida mahorat va ehtiyotkorlik talab etuvchi so‘z o‘yini, ya’ni muayyan shakl emas, balki, nutqning tasviriy vositasi, bezagi deb qabul qiladi. Binobarin, antik davr odamida obekt va tasavvur qilinayotgan subekt o‘rtasidagi munosabat haqida go‘yo ikkita fizik predmetning o‘zaro ta’sirlanishiga monand tasavvur mavjud bo‘lgan. Bejizga Aflotunning “ Tyetete” nomli asaridagi ekmageyn [ekmageion] ya’ni mum surtilgan taxtacha yuzasida

xattotning stil (uchi o‘tkir tayoqcha)[4,B.6] yordamida harflarni aks ettirish haqidagi fikrida metaforaga nisbat berilmaydi.

Asrlar o‘tib, metafora muammosi ritorika ko‘lamidan tashqariga chiqib, tilshunoslikka o‘tdi. Shu zaylda metaforaning qiyosiy konsepsiyasi yuzaga keldi. Unga ko‘ra, Metafora – odatiy nomlashning tasviriy idrok etilishi. Bunda metafora yashirin qiyos sifatida tekshiriladi, qiyosiy nazariya esa metaforik bayonni ikki taqqoslanayotgan predmetga bog‘liq, deb xulosa qilgan.

Mumtoz ritorika metaforani meyordan chetlatish- predmet nomining boshqa bir predmetga ko‘chishi sifatida izohlaydi. Ushbu ko‘chimning vazifasi o‘rnida leksik lakuna (nominative funksiya) yohud nutqni boyitish va ritorikaning bosh maqsadi bo‘lmish “ishontirish” ga xizmat qilishi tushunilgan. Shuningdek, Aristotel o‘z asarlarida metaforaga nisbatan ixcham o‘xshatish, soddalashtirilgan o‘xshatish deb qaraydi hamda bu ko‘chimlarni ishlatishda mahoratli bo‘lish lozim, ya’ni “yaxshi metaforalarni yasash- (predmetlararo) o‘xshashliklarni ilg‘ashdir”, - deya ta’kidlaydi. Bu fikrga qarshi tilshunos A. Richards, “har bir lison egasida metaforalarni qo‘llashga doir tajriba mavjud bo‘ladi; Aristotelning bu mahorat hammada ham mavjud bo‘lavermaydi degan fikri noto‘g‘ri. Inson nutqiy qobiliyatni o‘zga lison egalarining namunasi ostida egallab boradi. Tabiiyki, bunda u bevosita ko‘chimlarni qo‘llash tajribasini ham o‘zlashtirib boradi”, - deb e’tiroz bildirarkan, metaforaga eng ulug‘vor hayotni idora etish (a command of life) san’ati deya baho beradi.[5,B.58] Aynan A.Richardsning fikri biz olib borayotgan tadqiqot doirasida to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki, insonlar nutqi u yashab turgan jamiyatning o‘z tili asosida yaratiladi. F.deSossyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli bo‘lishi uchun zarur bo‘lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi , shakllanishi uchun zarur. Tilning pragmatik namoyon bo‘lishi nutqda o‘z aksini topadi. Inson nutqi o‘z ona tilida mavjud bo‘lgan so‘zlar va til birliklari asosida shakllanadi. Ya’ni tilning nazariy asoslari yuzasidan chuqur bilimga ega bo‘lmagan insonlar aynan, kichik yoshdagi o‘quvchilar ham tilda mavjud bo‘lgan grammatik til birliklaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana oladi. Chunki ularning nutqi ota-onasi, oilasi, jamiyat a’zolarining lisonida mavjud so‘z boyligi orqali shakllanadi. Tilda hamma uchun umumiy mavjud bo‘lgan metaforalar ham har bir inson nutqida xususiylashib namoyon bo‘ladi va nutqni boyitib, fikrlarni go‘zal ifodalab beradi. Yuqoridagi keltirilgan antik davrlardan beri metaforaga berilayotgan ta’riflarda ham aynan mana shu fikr o‘z tasdig‘ini topgan. Metaforga nisbatan qadimda nutqning bezagi sifatida qaralib, uning bugungi kunda mavjud bo‘lgan kognitiv xususiyatiga e’tibor qaratilinmagan.

Metaforani jiddiy va chuqur o‘rganish XX asrdagina ko‘hna hind, xitoy faylasuflarining asarlarini o‘rganish evaziga amalga oshirila boshlandi. Antik davr falsafasining tadqiq davri gullab-yashnagan XX asrda metafora tilning kommunikativ, nominativ, bilish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi. Shu orqali metaforaning nafaqat til va nutqdagi o‘rni ochib berildi, balki tilshunoslikda uning nazariy asoslari ham yaratilindi. Dastlab, metafora faqatgina ritorika doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik u tilshunoslikning tadqiqot ob’ektiga aylandi.

XX asrda metaforani o‘rganuvchi qiyosiy nazariya J.Serl va M.Blek tomonidan jiddiy tanqidga uchradi. J.Serl metaforani ikki semantik ma’noning verbal, ya’ni metaforik ifoda va aynan bo‘lgan kontekstual qurshovning ta’sirlashuvi yoki oppozitsiyasiga bog‘liq deb ta’kidladi. M.Blek esa, fanda birinchilardan bo‘lib,metaforani “qiyosni ifoda etuvchi emas, yuzaga keltiruvchi” sifatida ta’rifladi. Bu ikki olimning fikrlari orqali metforani o‘rganishda uning semantik nuqtayi nazardan ham tadqiq etilishi lozimligi isbotlandi.

XX asrning 60-yillarida generativ semantikaning rivojlanishi metaforaning kognitiv funksiyasi, kommunikativ, hissiy,volyuntativ (ta’sir ko‘rsatish funksiyasi), poetik va boshqa qator xususiyatlarini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etdi(J.Kats, P.Postal, J.Lakoff). Metaforaning tilshunoslikdagi roli ahamiyatini chuqur o‘rganish rivojlana boshladi.

1930-yillarga kelib, ingliz tilshunosi A.A.Richards metaforani tashkil etuvchilarni: “mazmun, mohiyat” (tenor) va “qobiq, majoz (obraz)” (vehicnle) nomlari bilan atashni taklif qildi. A.A. Richards o‘z xulosalarida metaforani tilning lisoniy kombinatsiyalardan chuqurroq qatlamlarda joylashuvchi va so‘zlarning negizida mavjud bo‘luvchi konseptual strukturalarning o‘zaro aloqasi jarayonida yuzaga chiqadigan organik fenomen deb atadi.

Bundan ko‘rinadiki metafora tilning pragmatik jarayonida yuzaga keluvchi birlik hisoblanadi, lekin uning mazmun, mohiyati, semantikasi inson tasavvurida, lisoniy boyligida mavjud bo‘ladi.So‘zlovchi nutq jarayonida predmetlarning o‘zaro pozitsion belgilari asosida bog‘lanishlarini anglagan holda ularning nomini yangi metaforalar orqali yaratadi.

Muloqotda nutq samaradorligini tashkil etishda so‘zning qudratidan unumli foydalanish azaldan sharq mutaffakirlarining ilmiy nazariy qarashlarida mavjud bo‘lgan. Ushbu nazariyalardan ham ma’lum bo‘ladiki, so‘zning o‘z ma’nosidan ko‘ra uning ko‘chma ma’nosiga katta ahamiyat qaratilgan bo‘lib, fikrning ta’sir kuchini oshirishda metaforaning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida metaforaga quyidagicha ta’rif beriladi: Metafora [yun. Metaphora-ko‘chirish, ko‘chim] ad. So‘z yoki iboralarni o‘xshashlik yoki o‘xshatishga asoslangan ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z yoki ibora; istiora majoz.[6,B.680]

Borliqda mavjud bo‘lgan narsa-hodisalardan yangi fikrlar keltirib chiqarish, ya’ni metaforalar hosil qilish inson ongi faoliyatining birlamchi xususiyatlaridandir.[7,B.2]Metafora tabiati va mehanizmiga berilgan turli xil ta’riflar, nazariyalar ushbu febnomenning nazariy asoslarini yaratilishiga turtki berdi. Metafora nazariyasida umumiy semantik aspektni o‘rganishda L.M.Alekseyeva hamda E.V.Ribakovalar quyidagi yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tadi:

-tildagi yangi ko‘chma ma’no beruvchi so‘z analizi asosiy markazda turuvchi konsepsiya;

-so‘zning asl va ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi umumiylikni o‘rganuvchi konsepsiya;

-ko‘chma ma’no hosil bo‘lishi asosida so‘zning asl ma’nosini muhim ekanligini ta’kidlovchi konsepsiya;

-paradoksal, ya’ni referentning bir paytning o‘zida mos kelishi va nomuvofiqligini semantik tahlil qiluvchi konsepsiya.[8,B.24]

Yuqoridagi konsepsiyalarning barchasi tilimizda mavjud metaforalarning mazmun mohiyatini anglash, ularning amaliy funksiyalarini to‘g‘ri belgilashga qaratilgan bo‘lib, ushbu tamoyillarda so‘zning asl ma’nosi va borliqdagi boshqa bir predmetning nomini ikkala predmet o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida yangi ma’no beruvchi so‘zning hosil bo‘lishi, ushbu so‘zning paydo bo‘lishidagi asosiy jihatlar analiziga e’tibor qaratilinadi. Tilimizda yangi metaforalar hosil bo‘lish jarayonida yangi ko‘chma ma’no beruvchi so‘z, mavjud so‘zlar semantikasidagi asl va ko‘chma ma’nolar muhim o‘rin tutishi isbotlanadi.

Ma’noviy ko‘chim haqidagi an’anaviy ta’limot metaforaning bir necha turinigina ajratadi va metafora yasalishini qulay nutqiy vaziyatning yuzaga kelishi bilan bog‘laydi. Shu tufayli, metaforaga nisbatan kontekstlar va g‘oyalar almashinuvi (thoughts) deb yondashilmasdan, shunchaki so‘zlarga muqobil lisoniy vosita deb qaralib kelindi.[9,B.58] Bundan ko‘rinadiki metaforaning o‘rni tilimizda mavjud bo‘lsa ham, uning yuzaga kelishi ya’ni voqealanishi uchun nutqiy vaziyatning muhimligi ta’kidlangan. Chunki metaforalarning semantikasidan kelib chiqqan holda ularni qo‘llash uchun vaziyatga mos semaga ega bo‘lgan metaforani tanlash lozim hisoblanadi.

Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar ham ayni fikrlarni tasdiqlaydi, ushbu izlanishlarda olimlar metaforalar o‘xshashlikni ochmasdan, uni yaratadi, ya’ni metafora ilgari hech kimning hayoliga kelmagan ikki buyum o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarni namoyish etadi degan fikrga kelganlar. Metaforaga bag‘ishlangan an’anaviy qarashlar metaforani undagi g‘oyalar

almashinuviga turtki beruvchi funksiyalarni inobatga olmagan holda, shunchaki lisoniy birlik, kotekstual o‘sish deb baholadi. Holbuki, fikrning o‘zi metaforik harakterga ega, u qiyos orqali yuz ochadi va tilda o‘z ifodasini topadi.

Metaforaning dunyo tilshunosligidagi o‘rganilishi bilan bir qatorda, uning o‘zbek tilshunosligida ham tilimiz hamda nutqimizdagi o‘rni va rolini o‘rganish XX asrda ancha rivoj topdi. O‘zbek tilshunosligida metaforaning ildizlari Sharq mumtoz adabiyoti va falsafa maktablari bilan uzviy bog‘liqligini atroflicha tekshirgan U.S.Qobulova metaforani adabiy istiloh deb baholaydi hamda uni o‘xshatish (tashbeh)dan “bamisoli”, “misli”, “kabi”, “singari” so‘zlarining tushib qolishi evaziga farqlaydi. Metaforani istioraga ekvivalent o‘rnida qo‘yish ham ilmiy-adabiy merosimizda mavjud bo‘lib kelgan qarashlar mahsulidir.

O‘zbek tilshunosligida atoqli olim, qator ilmiy izlanishlar muallifi M.M.Mirtojiyev metforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi. Nemis tilshunosligidagi metaforalarning: personifikatsiya, allegoriya, sinesteziya deb nomlangan ko‘rinishlariga : “ Nutq hodisasiga oid metaforalarning bu ko‘rinishlarini ba’zi o‘zgarishlar bilan til hodisasiga oid metaforalarga tadbiq etsa bo‘ladi. Bunda nutqning sof o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan simvolizatsiya va allegoriyalarni chiqarib tashlashga to‘g‘ri keladi.[10,B.96] Chunki simvolizatsiya nutq kechimidagi ellipsis bilan bog‘li sodir bo‘luvchi metaforadir. Allegoriya esa nutq kechimidagi qochirim va intonatsiya bilan bog‘li holatda yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqqan holda, til hodisasi bo‘lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko‘rinishlarga bo‘linadi,[11,B.97] deb munosabat bildiradi.

M.M. Mirtojiyevning ta’rificha, oddiy metaforani deyarli qisqargan o‘xshatish deb bo‘lmaydi. Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosi, o‘xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referentga o‘xshatilishiga; sinesteziya bir sezgida his qilingan referentning boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o‘xshatilishiga asoslanadi. Bunda keltirilgan fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak nutqimizda mavjud metaforalar konteks talabi va yuzaga kelish sababi ya’ni, qanday holatda qiyoslanayotgan ikki predmetning qay jihatlari o‘xshatilayotganiga asoslanib oddiy metaforalardan rivojlanib murakkab metaforalarni hosil qiladi.

Tilshunos R. Qo‘ng‘urov metaforani yashirin o‘xhshatish deb atab, uni oddiy qiyosdan farqlaydi: oddiy qiyos ham doim ikki asosiy ikki a’zodan tashkil topadi, metaforada esa faqat ikkinchi a’zo – o‘xshatilgan narsa qoladi, o‘xshagan narsa tushiriladi, lekin u konteksda ochiq sezilib turadi. Demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a’zo orqali idrok qilinadi. M.Yo‘ldoshev esa, tilshunoslikda mazmun jihatdan metaforalarning uch turi, ya’ni odatiy metaforalar, sinestetik va jonlantirish metaforalari farqlanishini aytadi.[12,B.73]

Tilshunos olim N.M.Mahmudov ham metaforalar orasida sinestetik metaforalarni ajratadi va: “ Sinestetik metaforalar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro zid, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lishi ham mumkin. Bunday g‘ayriodatiy birikmalar “oksyumaron birikmalar” ham deb yuritiladi (mas. Yaxshidir achchiq haqiqat lek shirin yolg‘on yomon.- E.V.)”, deb yozadi.[13,B.80]

O‘zbek tilshunosligida bir guruh olimlar va tadqiqotchilar jonlantirishni metafora qurshovida, uning mahsus turi sifatida izohlaydilar. L.Jalolova esa jonlantirishni metaforadan keskin farq qilib, uni mustaqil tasviriy vosita sifatida talqin etadi. Uningcha, jonlantirish metaforadan farqli hodisa: “ unga insonga xos harakat, his-tuyg‘u, so‘zlash, fikrlash jonsiz predmetlarga ko‘chirilsa ham, lekin ular orqali inson tushunilmaydi”.[14,B.37-38] Professor M.M. Mirtojiyev esa jonlantirishni metaforaning mazmuniy bir turi sifatida ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida poetik nutq leksikasini tadqiq etgan B.Umurqulov metaforalar borasida alohida to‘xtaladi hamda tilshunoslar: M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, A.N.Kojin, K.A.Dolinning izohlarida[15,B.59-66] qo‘shimcha tarzda, hozirgi o‘zbek poeziyasida uchraydigan

poetik metaforalarni ikkiga bo‘lib ko‘rsatadi va ushbu guruhlarni 1) umumpoetik metaforalar; 2) individual metaforalar deb nomlaydi. B.Umurqulov har ikki guruh mataforalarning poetic ma’no ifodalashida kontekst va poetik an’ananing o‘rni mavjudligini ta’kidlab o‘tadi .[16,B.62]

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tilidagi eng faol ma’no ko‘chish usuli bo‘lgan metafora tilimiz hamda nuqtimizda faol o‘rin egallagan bo‘lib, ongimizda, tilimizda barcha uchun umumiy mavjud bo‘lgan metaforik birliklar nutqimizda kontekstga ya’ni nutqiy vaziyatga qarab turlicha aks etadi. Metaforaning rivojlanishi va turlari ham aynan nutqimizda qaror topadi. Bundan ko‘rinadiki metafora nutqimizda hamisha mavjud va uning rivoji tilimizning boyishiga, nutqimizning jozibador, aniq, lo‘nda ifodalanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar gl. red. V.N.Yartseva.- 2-e izd, dop.- M.:Bolshaya ros.ensikl, 2002,-709s.
2. Лагута О.Н Метофорология: теорческие аспекты/ Новосиб. гос. ун-т. - Новосибирск, 2003. Ч.1.
3. Aristotel. Poetika. – L.:1927.-C.39.
4. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B.6.
5. Ayvor A. Richards .Filosofiya ritoriki. Bunda maqola quyidagi to‘plam orasida: Kassirer E., R.Yakobson, A.Richards, M.Blek, J.Serl, A.Vebjitska, A.Ortoni, J.Lakoff, N.Gudmen, va boshq. Teoriya metafori. –M.: progress, 1990. – 58-b. URL:: http.//fileshare3200depositfiles.com/auth-13415932567aa0fa1b3be3cc9a4042fa-213.206.39.161-2033652370-119224315-guest/FS320-2/153998.doc?
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.- T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2008-B.680. 7.Lavoshnikova Yu.A. Poeticheskaya metafora F.I.Tyutcheva v sopostavitelnim aspekte. Dis…. kand. filos. nauk. – Bryansk., 2017. – S.2.
7. Ribakova E.V., Alekseyeva L.M. Pradigmi metafori//Aktulnie problem izucheniya innostrannix yazikov I literatur, materiali nauchno-prakticheskoy konferentsii.- Perm, 2015.-S.24.
8. Ayvor A. Richards, M. Blek, Serl, A. Vebjitska. J.Lakoff. N.Gudmen, I drugiye Teoriya Metafori.- M.:Progress, 1990. –C. 58
9. Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi.- Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B.96.
10. Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi.- Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B.97.
11. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari.- Toshkent, 2002. 73-bet.
12. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq ma’daniyati.- Toshkent, 2009. 2-nashr, 80-b.
13. Hasanov A.A. Abdulla Qahhor hikoyalarida jonlantirishlar lingvopoetikasi. Nauchniy mir Kazakstana. 4(32) 2010.- 37-38-b.
14. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi.- Toshkent: Fan. 1990. 59-66-b.
15. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi.- Toshkent: Fan. 1990. 62-b.

O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI VA XALQARO MUNOSABATLAR

Abdurahmonov Saidusmonxon Azizxo‘ja o‘g‘li
Saidusmonxonabdurahmonov3@gmail.com

Annovatsiya: Maqolada nafaqat O‘zbekiston balki butun xalqlarning tashqi siyosati, ular o‘rtasidagi aloqalar o‘rganildi. Shuningdek, xalqaro moliya va valyuta-kreditlar hamda ular ingliz tilining madaniyat va ma’rifat, ta’lim tizimi hamda xalqaro munosabatlardagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar : xalqaro valyuta-kredit, xalqaro moliya, ingliz tili tizimi, tashqi siyosat

Hozirgi kundan kunga innovatsion nuqtai nazardan takomillashib borayotgan davrda, dunyo xalqlari orasida yaxshi munosabat o‘rnatish, sherikchilik aloqalarini yaxshilash va davlat tashqi siyosiy maydonda o‘zini tuta bilishi orqali “Tashqi siyosat va xalqar munosabatlar” nomi ostidagi nazariya dunyoga kelmoqda. Xalqlarning bir-birlari bilan bo‘lgan do‘stlik aloqalarini o‘rnatishda bir nechta aspektlar mavjuddir. Men birinchilardan bo‘lib xalqaro kredit-valyutalarni e’tirof etgan bo‘lardim. Sababi, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini zamonaviy modernizatsiyalash bosqichida mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tashkil etish va tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF – 5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan milliy valyutaning xorijiy valyutalarga konvertirlash muammosi hal etildi.

Ammo, keying yillarda mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida ayrim muammolar, salbiy trendlar yuzaga keldi. Xususan, tashqi savdo aylanmasi saldosining kamayishi kuzatilmoqda. 2010-yilda tashqi savdo aylanmasi 3487,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 880,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi). Bundan tashqari, xalqaro kreditlardan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev e’tirof etganlaridek, “eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisod rivojiga xalaqt bermoqda. Masalan, mamlakatimizda 25 yil davomida olingan kreditlarning aksariyati yetarlicha iqtisodiy samara bermaganini turli ekspertlar va mutaxassislar ochiq tan olmoqda”.

Shuningdek dunyo miqyosida xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida jiddiy, olamshumul o‘zgarishlar yuz bermoqda-ki, mazkur holat xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga bag‘ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib boorish va darsliklar yaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Masalan, 1930-yildan buyon amal qilib kelayotgan “Hujjatlashtirilgan akkreditiv”lar bo‘yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalarning (UCP 500) o‘rniga yangi (UCP 600) qoidasi yuzaga keldi. Bundan tashqari, yevroning muomalaga kiritilishi xalqaro valyuta munosabatlari tarkibida yangi tarkibiy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘di. Buning ustiga, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi derivativlarning xalqaro miqyosdagi harakatini tartibga solish mexanizmini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi desak adshmagan bo‘lamiz.

Yaqin yillar ichida bir nechta davlatlar bilan siyosiy aloqalar o‘rnatildi. Jumladan:

1. O‘zbekistonning xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va xalqaro moliya munosabatlari siyosati mintaqa davlatlari, Yevropa, Osiyo va AQSh bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni

rivojlantirishga asoslangan. Bu siyosat mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda va yurtimiz rivojida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

2. Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqindan aloqalarni mustahkamlash, xususan, O‘zbekiston-Tojikiston, O‘zbekiston-Qozog‘iston va O‘zbekiston-Qirg‘iziston o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi.

3. Xitoy bilan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida iqtisodiy hamkorlik va investitsiya kiritish borasida qator bitimlar imzolandi, bu esa mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga katta hissa qo‘shmoqda.

4. Rossiya Federatsiyasi bilan an’anaviy strategik sheriklik davom etmoqda va iqtisodiy hamkorlik kuchaymoqda.

5. O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan aloqalari, xususan, savdo-sotiq va madaniy hamkorlik sohalarida kengaymoqda.

Shuning bilan birgalikda, mamlakatlarning hamjamiyat va totuvlikka chorlab turuvchi yana bir omillardan biri – xalqaro moliya. Xalqaro moliya – davlatlar, kompaniyalar, yuridik va jismoniy shaxslarning xalqaro iqtisodiy va boshqa faoliyatlarining barcha shakllarini amalga oshirish uchun zarur valyuta mablag‘larini shakllantirish va foydalanish bo‘yicha munosabatlar yig‘indisidir. Xalqaro moliya – xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari o‘ziga xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to‘lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarni o‘z ichiga oladi.

Davlatning tashqi siyosati yoki tashqi aloqalari (ichki siyosatidan farqli o‘laroq) uning boshqa davlatlar, ittifoqlar va siyosiy tuzilmalar bilan ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama platformalar orqali o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq maqsadlari va faoliyatidir. *Encyclopedia Britanicca* hukumatining tashqi siyosatiga “ichki omillar, boshqa davlatlarning siyosiy bosimi yoki xatti-harakati, shuningdek, muayyan geosiyosiy maqsadlarni ilgari surish rejalari” ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Juho Kusti Paasikivi – Finlandiya bosh vaziri (1918 va 1944-46) hamda yettinchi prezidenti (1946-56) hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Sovet Ittifoqi bilan tashqi siyosat yurgizish yo‘lini (Paasikivi-Kekkonen yo‘li) ni tutishi orqali tarixda o‘chmas iz qoldirgan shaxs hisoblanadi. Hukumatning tashqi siyosatiga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qancha maqsadlar mavjud. Boshqa variantlar qatorida tashqi siyosat mudofaa va xavfsizlikka, iqtisodiy manfaatga yoki muhtoj davlatlarga yordam berishga qaratilgan bo‘ladi. Barcha tashqi siyosat masalalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, har bir davlat uchun yagona, keng qamrovli tashqi siyosat yuritishga yordam beradi. Ichki siyosatdan farqli o‘laroq, tashqi siyosat xorijiy mamlakatlardagi o‘zgarishlar va asosiy voqealarga javoban faoliyat yuritadi.

Mudofaa ishlari:

Tashqi siyosa, asosan, milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. Hukumatlar bosimga to‘sqinlik qilish hamda kuchliroq qarshilik ko‘rsatish uchun xorijiy davlatlar bilan harbiy ittifoq tuzishmoqda. Tashqi siyosat, shuningdek , yumshoq kuch, xalqaro izolyatsiya yoki harbiy operatsiyalar orqali raqib davlatlarga qarshi kurashishga qaratilgan.

XXI asrda tashqi mudofaa siyosati global terrorizm tahdidiga qarshi kurashish uchun kengaydi.

Iqtisodiy masalalar:

Tashqi siyosat mamlakatning jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdodagi rolida markaziy o‘rinni egallaydi. Tashqi Iqtisodiy siyosat masalalari savdo bitimlarini tuzish, tashqi yordamni taqsimlash, import va eksportni boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro uyushma

Ko‘pgina davlatlar himoya qilish konsepsiyasi ostida gumanitar dasturlarni ishlab chiqdilar. Liberal internatsionalizm tarafdorlari kuchsizroq davlatlarga yordam berish va ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash rivojlangan davlatlarning burchi deb hisoblaydilar. Bu g‘oya ko‘pincha idealistik tafakkur maktabi bilan bog‘liq. Liberal internatsionalistik ko‘mak, mudofaa yoki iqtisodiy yordam ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yaqin yillar davomida nafaqat moliya, balki, sport sohasi, mamlakat madaniyatini 5 qit’a bo‘yicha keng qamrovda yoyish va ta’lim sohasida bir nechta rivojlangan davlatlar, xususan, Angliya, AQSh, Rossiya, Germaniya, Yaponiya va Finlandiya kabi ta’lim sohasining “qirollari” bilan yaxshi hamkorlik aloqalari o‘rnatilganligi, kadrlar almashinuvi va oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun “work and travel” dasturlarini ishlab chiqilganligi yurtimizning yaqin kelajakda rivojlangan davlatlar qatorida nomi e’tirof etilishi mumkinligidan dalolatdir. Albatta, bu loyihalarni puxta ishlab chiqarilganligi taqsinga sazovordir. Shu jumladan, xalqaro til hisoblanmish ingliz tilini oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida puxta o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, bu til yordamida o‘z milliy qadriyatlarimizni o‘zga o‘lkalarga tadbiq qilish bilan birgalikda, biz ham yurtimizga manfaati tegadigan narsalarni o‘rganishimiz va vatan rivoji uchun ulkan hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘ganishni rivojlantirish to‘g‘risida bir nechta qarorlar chiqqan bo‘lib, ulardan eng asosiylari haqida ma’lumot beriladi. Bular:

1. 2020-yil 6-oktabr, PF – 6097-sonli Prezident farmoni – “Chet tillarini o‘ganishni ommalashtirish to‘g‘risida”;

2. 2021-yil 19-may, PQ – 5117-sonli Prezident qarori – “O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”;

3. 2012-yil 10-dekabr, PQ – 1875-sonli Prezident qarori – “Chet tillarni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaror va farmonlare jopriy etilgan. Biz yoshlarga shuncha imkoniyatlar berilayotgan ekan, nega ulardan unumli foydalanmasligimiz kerak?

“Ta’lim – dunyoni o‘zgartirish uchun yagona ishlatishingiz mumkin bo‘lgan eng kuchli quroldir” – Nelson Mandela.

Xulosa.

O‘zbekistonning tashqi siyosati o‘zining ko‘p vektorli tamoyiliga muvofiq, global va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga, xalqaro moliyaviy va valyuta-kreditlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bunga yaqqol misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF – 5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni demakdir. Kelgusida Yevropa va Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish mamlakatning strategik yo‘nalishlari bo‘lib qoladi. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, yaqin yillarda dunyoni o‘z ta’lim loyihasi bilan lol qoldirayotgan davlatlar, jumladan, Finlandiya va Yaponiya tizimini o‘zimizda joriy etiladi va chuqur tomir otadigan tizim joriy etilishi namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan kitoblar.

1. T.I. Bobakulov, U.A. Abdullayev, Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, 2021-yil
2. Ataniyazov, Xalqaro moliya bozori va institutlari
3. *Encyclopedia Britanicca*
4. Uz.wikipedia.org
5. Siyosiy hujjat va manbalar

LOBACHEVSKIY GEOMETRIYASINING BA'ZI MASALALARI TAHLILI

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy òĝli,
Qòqon davlat pedagogika instituti Matematika kafedra òqituvchisi
Sharifjonova Malikabonu Shuhratjon qizi,
Qòqon davlat pedagogika instituti Matematika va Informatika yònalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ish Lobachevskiy tomonidan taklif etilgan noevklidiy geometriya asosidagi masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Lobachevskiy geometriyasi an’anaviy Evklid geometriyasidan farqli ravishda, parallellik aksiomasi bilan bog‘liq tamoyillarni qayta ko‘rib chiqadi va ko‘p hollarda Euklid geometriyasidan o‘ziga xos yondashuv talab qiladi. Ushbu ishda noevklidiy geometriyaning asosiy tushunchalari, shu jumladan, to'g'ri chiziqlar, burchaklar va yassi fazolardagi parallelizm tamoyillari muhokama qilinadi. Shuningdek, Lobachevskiy geometriyasining zamonaviy fan va texnologiyadagi amaliy qo‘llanmalari, xususan, astrofizika, kosmologiya va relativistik mexanika kabi sohalarda qanday qo‘llanilayotgani tahlil qilinadi. Mazkur tahlil davomida geometrik obyektlar va ularning xossalari noevklidiy fazoda qanday o‘zgarishi va buning natijasida an’anaviy geometriya tamoyillarining kengayishi ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu ishning maqsadi – talabalarni Lobachevskiy geometriyasi bilan tanishtirish va ushbu noan’anaviy yondashuvning ilm-fanga qo‘shgan hissasini anglashlariga yordam berishdir.

Kalit so‘zlar: Lobachevskiy geometriyasi, noevklidiy geometriya, parallellik aksiomasi, to'g'ri chiziqlar, burchaklar, relativistik mexanika, kosmologiya, astrofizika, fazo tahlili.

Biz Evklid postulatining uchburchak burchaklari yig’indisi ikkita to’g’ri burchakka tengligini, Lobachevskiy postulati esa – bu yig’indi ikkita to’g’ri burchakdan kichik degan farazga teng kuchli ekanligini ko’rsatamiz.

1-masala. Uchburchak burchaklari yig’indisi ikkita to’g’ri burchakdan katta bo’la olmasligini isbotlang.

Ye ch i l i sh i. Aytaylik, ABC uchburchak ichki burchaklari yig’indisi $2d+\alpha$ ga teng bo’lsin (1.1.4-rasm). Bunda $<BAC=\alpha$ - bu uchburchakning eng kichik burchagi ^{A}



1.1.4-rasm

(xususiy holda, agar ABC – teng tomonli yoki asosi yon tomonidan katta bo’lgan teng yonli uchburchak bo’lsa, u holda α - uning teng burchaklaridan biri).

Qarama-qarshi tomoniga AD medianani o’tkazamiz va bu medianaga teng DB_1 kesmani chizamiz. ABD va BDC_1 uchburchaklarning tengligidan

$$<DBC_1=<DAB, <DCB_1=<DBA.$$

Shunday qilib, ABC_1 uchburchak (uni birinchi chiqarilgan uchburchak deb ataymiz) burchaklari yig’indisi $2d_{+\mu}$ ga teng, dastlabki uchburchakning ikkilangan medianasi chekka nuqtasi

uchidagi ikkita burchagi yig’indisi α ga, eng kichik burchak esa $\leq\alpha/2$

bo’ladi. Birinchi chiqarilgan uchburchakdan analogik ravishda ikkinchi uchburchakni quramiz: uning eng kichik burchagini olamiz, qarshisida yotgan tomoni mediana o’tkazamiz va h.k. Shunday holda olingan ikkinchi uchburchakda burchaklar yig’indisi $2d_{+\mu}$ ga teng, birinchi chiqarilgan uchburchakning ikkilangan medianasi uchudagi burchaklari

yig’indisi ≤α/2 ga teng, eng kichik burchak esa ≤ α/4 bo’ladi. Bu

jarayonni davom ettirib, qator keltirilgan uchburchaklarni olish mumkin; *n*-uchburchakda burchaklar yig’indisi $2d_{+\mu}$ ga, (*n-1*)keltirilgan uchburchak ikkilangan medianasi uchlaridagi burchaklari yig’ndisi esa $\leq \alpha/2^{*}n\text{-}1$ bo’ladi. Agar *n* ni yetarlicha katta olinsa, u holda 2

α/2*n-1 ni μ dan kichik qilish mumkin, ya’ni bu uchburchakning uchinchi

burchagi *2d* dan katta bo’ladi; biz qarama-qarshilikka uchradik.

2-masala. Agar qandaydir uchburchakda burchaklar yig’indisi 2d ga teng bo’lsa, u holda bu boshqa uchburchakalar uchun ham o’rinli bo’ladi.

Ye ch i l i sh i. Qulaylik uchun *ABC* uchburchak burchaklari yig’indisini S_{ABC} orqali belgilashga kelishib olamiz. *ABC* uchburchakda (1.1.5-rasm) burchaklari yig’indisi *2d* ga teng bo’lsin, u holda ikkita burchak, masalan <*A* va ∢*C* - o’tkirdir, *B* uchdan tushurilgan *BD* balandlik shu uchburchak ichidan o’tishini ko’rsatish qiyin emas, ya’ni uni ikki to’g’ri burchakli uchburchakka bo’ladi.

$S_{ABC} = S_{ABD} + S_{DBC} - 2d$ munosabatni hisobga olib va avvalgi masalani e’tiborga olgan holda

$S_{ABC} = S_{ABD} = 2d$ bo’lishini hosil qilamiz.



1.1.5-rasm

Endi, har bir to’g’ri burchakli uchburchakda burchaklar yig’indisi *2d* ga teng bo’lishini ko’rsatamiz. Buning uchun *ABD* uchburchakni olamiz va uni o’ziga teng, *E* uchudagi burchagi to’g’ri burchak va katetlari *AE= BD*va *EB =AD* bo’lgan *AEB* uchburchakni yasash yordamida to’g’ri to’rtburchakkacha to’ldiramiz (1.1.6-rasm).



1.1.6-rasm

Bu *AEBD* to’g’ri to’rtburchakda burchaklar yig’ndisi *4d* ga teng. *AD* tomonni *AX* to’g’ri chiziq bo’ylab *n* marta, *AE* tomonni *AY* to’g’ri chiziq bo’ylab *n* marta cho’zib, bir to’g’ri to’rtburchak ustiga *AEBD* ga teng bo’lgan boshqasini joylashtirib, *AEBD* ga teng n^2 to’g’ri to’rtburchaklardan tfshkil topgan *ALMK* to’g’ri to’rtburchakni hosil qilamiz. *ALMK* to’g’ri to’rtburchakda ham burchaklar yig’indisi *4d* ga teng. *AM* diagonal bu to’g’ri to’rtburchakni ikkita to’g’ri burchakli uchburchakka bo’lib, ularning har birida burchaklar yig’indisi *2d* ga teng (1-masalaga asosan). *n* ni etarlicha katta olib, katetlari berilgan *PQR* to’g’ri burchakli uchburchak katetlaridan katta bo’lgan *AMK* to’g’ri burchakli uchburchakni hosil qilamiz (1.1.7-rasm).



1.1.7-rasm

Agar *QT =KM* , *QS =AK* deb olsak, *AMK* uchburchakkaga teng bo’lgan *STQ* uchburchak hosil bo’ladi. *PT* kesma *STQ uchburchakni* ikkita uchburchakka bo’ladi va

$$SSQT=SSPT+SPTQ-2d$$

ekanligidan $S_{SPT} + S_{PTQ} = 4d$ bo’lib, $S_{SPT} = S_{PTQ} = 2d$ ekanligi kelib chiqadi. Xuddi shu mulohazalarni PTQ uchburchak va PR kesma uchun bajarib, $S_{PQR} = 2d$ ekanligini topamiz.

Shunday qilib, har bir to’g’ri burchakli uchburchakda burchaklar yig’indisi $2d$ ga teng ekan. Biroq biz yuqorida har bir uchburchak ikkita to’g’ri burchakli uchburchakka bo’linishini ko’rdik. Shundan ixtiyoriy uchburchakda burchaklar yig’indisi $2d$ ga tengligini hosil qilamiz.

Shunday qilib, faqat ikkita taxminni qilishimiz mumkin: yoki barcha uchburchaklarda burchaklar yig’indisi $2d$ ga teng, yoki barchasida u $2d$ dan kichik.

Endi uchburchak burchaklari yig’indisi haqidagi masalaning parallellik postulati bilan bog’liqligini topamiz.

3-Masala. Agar uchburchak burchaklari yig’indisi 2d ga teng bo’lsa, Evklid postulati o’rinli, agar u 2d dan kichik bo’lsa, Lobachevskiy postulati o’rinlidir.

Bunga teskari fikr ham o’rinlidir.

Ye ch i l i sh i. Eng avval uchburchak burchaklari yig’indisi $2d$ ga teng bo’lsa, $AA1$ to’g’ri chiziqda yotmagan P nuqta orqali (1.1.8-rasm) $BB1$ to’g’ri chiziq bilan etarlicha kichik burchak hosil qiluvchi va $AA1$ ni kesib o’tuvchi to’g’ri chiziqni o’tkazish mumkinligini ko’rsatamiz ($AA1$ va $BB1$ to’g’ri chiziqlar PQ ga perpendikulyar).



1.1.8-rasm

Buning uchun $QQ1 = PQ$ kesma quramiz; u holda $< B’PQ = d/2$ Ushbu ∡ —

$Q1Q2 = PQ_1$ kesmani o’tkazamiz; u holda $<B’PQ2 = d/4$. Shundan keyin bu 2

jarayonni davom ettiramiz: $Q\,Q_{2\,3} = PQ_2$, $QQ = PQ_{3\,4}$ +, …, $Q\,Q = PQ_{n-1\,n\,n-1}$ kesmalarni quramiz. Natijada PQ_3, PQ_4, …, PQ_n nurlarni hosil qilamiz va ular PB' nur bilan $^{d}/_{8}$, $^{d}/_{16}$, …, —$^{d}/_{2n}$ burchaklarni hosil qiladi. n ning

kattalashishi bilan, ixtiyoriy berilgan burchakdan kichik burchak olishimiz mumkin. Endi Evklid postulatini isbotlash oson. Faraz qilaylik, PR nur PB' nur bilan α burchak hosil qilsin. n ni etarlicha katta tanlab (—$^{d}/_{2} < \alpha$

bo’ladigan qilib), PQQ_n uchburchakni hosil qilamiz. Bunda PR nur QPQ_n burchakning ichidan o’tadi, ya’ni QQ_n tomonni kesadi.

Endi uchburchak burchaklari yig’indisi $2d$ dan kichik degan farazni ko’rib chiqamiz. BB' dan farqli, P nuqta orqli o’tuvchi va AA' ni kesmaydigan to’g’ri chiziqlar mavjudligini ko’rsatamiz.

$AA’$ da yotuvchi M nuqtani P bilan tutashtiramiz (1.1.9-rasm) va PR nurni shunday o’tkazamizki, bunda $<MPR$ burchak $<PMQ$ burchakka teng bo’lsin.



1.1.9-rasm

Uchburchak burchaklari yig’ndisi haqidagi taxminlardan

<*MPB*'> <*PMQ* ekanligi kelib chiqadi, ya’ni *PR* nur <*MPB*' burchak ichidan o’tadi; bu nur *AA’* ni kesmaydi, aks holda tashqi burchagi *QMP* ichki (*MPR*) ga teng bo’lgan uchburchak hosil bo’lar edi.

Shunday qilib, masalaning birinchi yarmi yechildi, undan esa teskari xulosa kelib chiqadi.

3-masala yordamida o’quvchi Evklid va Lobachevskiy postulatlarini ta’riflashda kuchsizroq talablar bilan chegaralanish mumkinligini ko’rsatishi mumkin. Masalan, Evklid postulatini quyidagicha ta’riflash mumkin: to’g’ri chiziq *a* va unda yotmagan *P* nuqta mavjud bo’lib, bu to’g’ri chiziq va nuqta bilan aniqlanadigan tekislikga *P* nuqta orqali *a* bilan kesishmaydigan bittadan ko’p bo’lmagan to’g’ri chiziq o’tadi.

Lobachevskiy geometriyasida uchburchak burchaklari yig’indisi *2d* dan kichikligini hisobga olgan holda, *2d* va bu uchburchak burchaklari yig’indisi orasidagi farqqa teng bo’lgan uchburchak nuqsoni (defekt) haqidagi tushunchani kiritamiz:

$$D ABC = 2d - S ABC$$

Agar *BD* kesma *ABC* uchburchakni *ABD* va *DBC* uchburchaklarga bo’lsa,

$$D ABC = D ABD + D DBC$$

ekanligini ko’rish qiyin emas,

n-burchak uchun nuqson (defekt) $2\ d(\ n-2)$ va uning burchaklari yig’indisi orasidagi farq kabi kiritiladi. Umuman olganda, agar ko’pburchakni siniq chiziqlar yordamida bir nechta ko’pburchaklarga bo’lsak, u holda ko’pburchak nuqsoni (defekt) uning bo’laklari nuqsonlari yig’indisiga tengligini isbotlash mumkin.

Parallellik postulatining shunday shakllarining mavjudligi haqidagi masala bilan bo’liqligi haqidagi masalaga o’tamiz. Bunday shakllar faqat Evklid postulati to’g’ri bo’lgandagina mavjud bo’lishini ko’rsatamiz.

4-masala. Agar ikkita o’xshash uchburchak mavjud bo’lsa, u xolda Evklid postulati o’rinli bo’ladi.

Ye ch i l i sh i. *ABC* va *A’B’C*' uchburchakda burchaklar jufti tengdir: <*A*=< *A’* <*B*= *B’*,< *C*=,<*C’* biroq tomonlari *AB* >*A’B’*

AB tomonida A_1B kesma belgilaymiz va burchak $BAM_1 = \angle A$ ostiga A_1M to’g’ri chiziqni o’tkazamiz(1.1.10-rasm). A_1M to’g’ri chiziq *AC* ni



1.1.10-rasm kesmasligidan,

u C_1 nuqtada *BC* ni kesadi. Uchburchak ABC_1 = uchburchak *ABC*1 ekanligidan, $AACC_{1\ 1}$ to’rtburchakda burchaklar yig’indisi 4*d* tengdir. Uni diagonal tarzda ikkiga uchburchakka bo’lib, ularning har biridagi burchaklar yig’indisi *2d* ga tengligiga erishamiz, ya’ni Evklid postulati o’rinlidir.

1.2. Chizg’ich yordamida yasash

5-masala. l to’g’ri chiziqda uchta turli A, B va C nuqtalar berilgan. A, B nuqtalar juftini C nuqta bilan birga garmonik tarzda bo’luvchi D nuqtani yasang.

Ye ch i l i sh i. To’liq to’rtburchakning garmonik xossalarni qo’llashga asoslangan yasash g’oyasi ma’lum. Berilgan masalaning muhimligini hisobga olib yasashning barcha bosqichlarini to’liq ko’rib chiqamiz.



1.2.1-rasm



1.2.2 -rasm



1.2.3 -rasm

l to’g’ri chiziqdan tashqarida ixtiyoriy *E* nuqtani olamiz va *AE, BE* va *CE* to’g’ri chiziqlarni o’tkazamiz (1.2.1-rasm). *AE* da *A* va *E* dan farqli bo’lgan *F* nuqtani olamiz va *CE* ni *G* nuqtada kesib o’tuvchi *BF* to’g’ri chiziqni o’tkazamiz (1.2.2-rasm). *BE* ni *H* nuqtada kesuvchi *AG* to’g’ri chiziq o’tkazamiz (1.2.3-rasm). *FH* to’g’ri chiziq *l* ni izlanayotgan *D* nuqtada kesib o’tadi (1.2.4-rasim).

1.2.5-rasmda *C* nuqta *AB* kesmadan tashqarida bo’lgan holdagi yasash bajarilgan.



1.2.4-rasm



1.2.5-rasm

6-masala. Bir dastaga tegishli a, b, c turli to’g’ri chiziqlar berilgan. a, b to’g’ri chiziqlar juftini c bilan birga garmonik tarzda ajratuvchi d to’g’ri chiziq yasalsin.

Ye ch i l i sh i. Dasta markazidan, y’ani berilgan to’g’ri chiziqlarning kesishish nuqtasi orqali o’tmaydigan *l* to’g’ri chiziqni o’tkazamiz; *l* ularni mos ravishda *A, B, C* nuqtalarda kesib o’tsin. *C* nuqta bilan birga *A, B* nuqtalarni garmonik tarzda ajratuvchi nuqtani yasaymiz (5-masala) va uni dasta markazi bilan tutashtiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov M.SH., Bayturayev A.M., Ibragimov N.Sh. Geometriya asoslaridan masalalar to‘plami. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2019. -130b.
2. Nuritdinov, J. T. (2021). ABOUT THE MINKOWSKI DIFFERENCE OF SQUARES ON A PLANE. Scientific reports of Bukhara State University, 5(3), 13-29.
3. Nuritdinov J. T. On Minkowski difference of triangles. Bull. Inst. Math., 2021, Vol.4, No6, pp. 50-57. [In Uzbek]
4. Mamatov, M. and Nuritdinov, J. (2020) Some Properties of the Sum and Geometric Differences of Minkowski. Journal of Applied Mathematics and Physics, 8, 2241-2255. doi: 10.4236/jamp.2020.810168.
5. Mamatov, M. S., & Nuritdinov, J. T. (2020). On some geometric properties of the difference and the sum of Minkowski. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 601-610. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-06-86-110
6. Mamatov M. and Nuritdinov J. (2022). Optimizing the Quality of Electric Lighting with the Use of Minkowski’s Geometric Difference. In Proceedings of the 3rd International Symposium on Automation, Information and Computing - Volume 1: ISAIC; ISBN 978-989-758-622-4, SciTePress, pages 751-756. DOI: 10.5220/0012046100003612

7. Mamatov , M., Nuritdinov, J. and Esonov, E. (2021) “Differential games of fractional order with distributed parameters”, International Scientific Technical Journal "Problems of Control and Informatics", 66(4), pp. 38–47. doi: 10.34229/1028-0979-2021-4-4.

8. Nuritdinov J.T. Minkowski difference of cubes. Proceedings of International Conference on Mathematics and Mathematics Education (ICMME - 2022). Pamukkale University, Denizli, Turkey, 22-24 September 2022; 88-90.

9. Жалолхон Нуритдинов Турсунбой ўғли. (2023). ТЕКИСЛИКДА БЕРИЛГАН ЭЛЛИПСЛАР МИНКОВСКИЙ АЙИРМАСИ. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 105–113. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.312

10. J.T.Nuritdinov. On the minkowski difference of lines and planes // Modern problems of applied mathematics and information technologies. Al-Khwarizmi 15-17 November, 2021, Fergana, Uzbekistan. pp 252.

11. Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li. (2023). SANOATNING YAIMGA TA’SIRINI BAHOLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 290–293. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.439

12. Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmansur o‘g‘li, & Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 328–332. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.454

13. Nuritdinov J.T. (2023). YARIM TEKISLIKLAR MINKOVSKIY AYIRMASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 38–40. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.281

14. I. I. Haydarov, & J. T. Nuritdinov. (2023). BENEFIT FROM THE GEOGEBRA PROGRAM IN SOLVING PROBLEMS OF PROJECTIVE GEOMETRY. Open Access Repository, 9(4), 298–302. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/KE253

15. J. T. Nuritdinov. (2023). USING THE MAPLE SOFTWARE TOOL IN SOLVING A SYSTEM OF LINEAR EQUATIONS. Open Access Repository, 9(4), 303–307. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/U4BHE

16. Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISH UCHUN UZOQ YO‘LI VA XITOY TAJRIBASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 43–47. https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.247

TEACHER UNDERSTANDING, RECOGNIZING LEARNING CHALLENGES, AND EMPLOYING EFFECTIVE INSTRUCTIONAL TECHNIQUES TO ENHANCE ENGLISH GRAMMAR PROFICIENCY

Raxmonova Nilifar Baxodirovna
Teacher Kokand university

Abstract: Mastering English grammar is essential for effective communication, yet many learners face significant challenges in this area. This paper explores the crucial role of teacher awareness, the identification of learning difficulties, and the implementation of effective teaching strategies in promoting grammar mastery. Through a detailed examination of student needs, the paper highlights how modern approaches, including contextualized instruction, differentiation, scaffolding, and peer collaboration, can enhance learning outcomes. Additionally, the importance of formative assessment in monitoring progress and guiding instruction is discussed. By addressing individual student challenges and employing innovative methods, teachers can create more engaging and supportive learning environments, leading to improved grammatical proficiency and overall language competence.

Keywords: English grammar mastery, teacher awareness, learning difficulties, teaching strategies, contextualized instruction, differentiation, scaffolding, formative assessment, peer collaboration, language learning.

Introduction. The acquisition of English grammar has long been a cornerstone of language education, serving as a foundation for effective communication in both written and spoken forms. However, despite its importance, many students face significant challenges in mastering English grammar, resulting in persistent gaps in their language proficiency. These challenges are often rooted in complex learning difficulties that may not be easily identifiable without keen observation and diagnostic tools. As such, the role of teachers in not only delivering grammatical instruction but also in diagnosing and addressing these learning difficulties becomes paramount. Effective teaching strategies, underpinned by a thorough awareness of student needs, can bridge the gap between grammatical theory and practical application, ultimately fostering better language outcomes. The ability to master English grammar is not merely an academic goal but a critical skill that contributes to broader linguistic competence. Grammar provides the structural framework that enables students to convey meaning, make connections between ideas, and communicate with clarity and precision. Yet, for many learners, understanding grammatical rules and applying them accurately remains a considerable obstacle. These difficulties can arise from a range of factors, including cognitive challenges, a lack of foundational knowledge, limited exposure to the language, or inadequate teaching methods. Therefore, understanding the root causes of students' grammatical struggles is crucial for educators who aim to support their students' linguistic development effectively.

Teacher awareness is a critical factor in the successful instruction of English grammar. It encompasses a teacher's understanding of both the subject matter and the individual learning profiles of their students. Educators who are aware of the common challenges that learners face in grammar, as well as those specific to their classrooms, are better equipped to tailor their teaching strategies to meet student needs. This awareness extends beyond the mere delivery of content; it involves recognizing when students are struggling, identifying patterns of errors, and understanding the cognitive processes behind these difficulties. In this context, teacher awareness becomes the foundation upon which effective grammar instruction is built. Without this

foundational knowledge, teachers may miss critical opportunities to intervene and support students in overcoming their grammatical challenges. Identification of learning difficulties is the next critical step in addressing grammar mastery. While some students may struggle with grammar due to a lack of motivation or engagement, others may face more profound learning difficulties that require targeted interventions. These difficulties can manifest in various ways, such as confusion between similar grammatical structures, challenges with sentence construction, or persistent errors in verb tense usage. It is essential for teachers to develop the skills to diagnose these issues early and accurately, as timely identification allows for more effective remediation. Diagnostic assessments, student observations, and analysis of written work are all valuable tools that can aid teachers in identifying specific areas where students are struggling. By pinpointing these difficulties, teachers can develop targeted strategies to address the underlying issues, rather than relying on generalized teaching methods that may not meet the needs of all learners.

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o‘rganish orqali liderlik qobiliyatini rivojlantirish borasidagi izlanishlar haqida so‘z boradi. Chet tilini o‘rganish o‘quvchilarga muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga yordam beradi va ularga global dunyo yangiliklaridan habardor bo‘lishga imkoniyat yaratadi. Liderlik qobilyatini ingliz tili bilan bog‘lagan holda rivojlantirish orqali o‘quvchilarga guruh bilan ishlash ko‘nikmalarini, muammolarga yechim topish va qaror qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishlari mumkin. Quyidagi maqolada til va liderlik sohalarining o‘zaro bir-biriga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. lider, ingliz til va liderlik, shaxsning liderlik qobilyatini rivojlantirish, kognitiv rivojlanish.

Abstract. This article talks about research on the development of leadership skills through language learning. Learning a foreign language helps students to master communication skills and gives them the opportunity to be aware of the news of the global world. By developing leadership skills by connection with the English language, students can learn the skills of working with a group, finding solutions to problems and making decisions. The following article provides information on the interaction of language and leadership areas.

Key words. Leader, English language and leadership, development of individual leadership ability, cognitive development.

Аннотация. В данной статье рассказывается об исследованиях по развитию лидерских качеств посредством изучения языка. Изучение иностранного языка помогает студентам овладеть навыками общения и дает им возможность быть в курсе новостей глобального мира. Развивая лидерские качества в связи с английским языком, студенты могут освоить навыки работы в группе, поиска решений проблем и принятия решений. В следующей статье представлена информация о взаимодействии областей языка и лидерства.

Ключевые слова. Лидер, английский язык и лидерство, развитие индивидуальных лидерских способностей, когнитивное развитие.

KIRISH

Yurtimiz kelajagi deb, biz yoshlar harakatda bo‘lmog‘imiz bugungi kunning eng dolzarb masalasidir, Zero, Prezidentimiz SH, M, Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yoshlar bizning xazinamizdir”. Bu ishonchni oqlash uchun jamiyatimizga o‘z fikriga, so‘ziga ega, eng muhimi o‘zi bilan birga boshqa yoshlarni ham ergashtira oladigan liderlarni tarbiyalab bormog‘imiz zarur. Bunday yoshlar mamalakatimizda tobora isloh qilinib, rivoj topayotgan har qaysi sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lishi mumkin. Liderlik shaxs hayoti davomida har qanday holatda o‘zining prinsipi orqali yutib keta oladi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqgan holda shuni aytishimiz mumkinki, yangi renessansni liderlik qobilyatini rivojlantirgan holda yoshlarni faolligini oshirib borishimiz, ularda yangi g‘oya va takliflarni shakllantirib, amalga tatbiq etishimiz darkor. Ingliz tili, global kommunikatsiya vositasi sifatida, bolalarni rahbarlikka tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy dunyoda ingliz tilini bilish, nafaqat ilmiy va kasbiy rivojlanish uchun, balki turli madaniyatlar va mamlakatlar o‘rtasida ko‘priklar qurishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Bolalarga ingliz tilini o‘rgatish orqali ularning dunyoqarashi kengayadi, yangi imkoniyatlar

ochiladi va kelajakda rahbar sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan kommunikativ ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish usullari haqida ma’lumot beruvchi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshdan boshlab chet tilini o‘rganish bolalarning nutqini rivojlantirishga, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy tushunchalarini boyitishga yordam beradi. Shu bilan birga, ingliz tilini o‘rganish bolalarni rahbarlikka tayyorlashning asosiy talablaridan biri sifatida ko‘riladi, chunki bu ularning kelajakda el-yurt rivoji uchun hissa qo‘shish qobiliyatlarini oshiradi.[5, B. 303]

O‘zbekistonda ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa kelajakda ingliz tilini o‘qitish me’yorlarini doimiy ravishda yaxshilashga va xalqaro standartlarga muvofiq keladigan ta’lim standartlarini o‘rnatishga qaratilgan. Bu islohotlar natijasida, ingliz tilini biladigan yoshlar nafaqat o‘zlarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishlarida, balki jamiyatdagi rahbarlik lavozimlarida ham muvaffaqiyatli bo‘lishlari kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Liderlik (inglizcha: leader — yetakchi, boshlovchi so‘zidan) — umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatini birlashtiruvchi ijtimoiy ta’sir jarayoni. Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga guruhga ta’sir ko‘rsata olish qobiliyati bo‘lib, barchaning harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo‘naltiradi[13]. Ma‘lum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. Lidersiz hech bir guruh faoliyat ko‘rsata olmaydi. Liderni ma’lum maqsad uchun kishilar guruhini birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin. Liderlik bo‘yicha turlicha qarash, turlicha fikrlar mavjud. Olimlar bu haqida ya’ni zamonaviy menejmentda liderlikni tavsiflashda yagona yondashuv mavjud emas: - Liderlik hukumronlikning bir turi bo‘lib, uning asosiy xususiyati yuqoridan pastga yo‘naltirilganligidir. U bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan hokimiyat sifatida namoyon bo‘ladi

Ingliz tilini o‘rgatish va liderlik qobiliyatini rivojlantirish o‘rtasidagi aloqa juda muhimdir. Yoshlar ingliz tilini o‘rganish orqali o‘z til boyliklarini yanada boyitishi, yangi g‘alabalar olishi va yangi g‘oyalarni yaratishi mumkin. To‘g‘ri yo‘nalishni aniqlash uchun o‘quvchilarning individualligiga va guruhning umumiy maqsadlariga asoslab tayyorlangan dasturlar va mashg‘ulotlar yaratish juda muhimdir. Bu usullar o‘quvchilarga muvaffaqiyatli liderlar bo‘lish sohasida yordam berishi mumkin. Ingliz tilining lider shaxsning kamolotga yetishida o‘rni beqiyosdir. Ingliz tili dunyo miqyosida biznes, ilm-fan, va texnologiya sohalarida asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Shu sababli, ingliz tilini bilish liderlar uchun global, ilmiy va texnologik yangiliklardan habardor bo‘lib borish, xalqaro taqdimot va konfirensilarda qatnashish, jaxondagi ta’lim va o‘qitish imkoniyatlaridan foydalanish va barcha hodimlar bilan samarali muloqot qilishda katta afzalliklarni taqdim etadi. Shunday ekan, til bilish liderlarga kengroq imkoniyatlar eshigini ochadi va ularning professional va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Til shaxs rivojlanishida yuksak o‘rin ekallashi to‘g‘risida bir nechta olimlarning asarlarida ham keltirib o‘tilgan. Nelson Mendelaning avtobiografik asari "Long Walk to Freedom" kitobida o‘zining liderlik qobilyatini shakllanishida ingliz tilining ahamiyatini yorqin tasvirlaydi. Ushbu kitobda Mendela ta'lim olish, siyosiy aloqalar o‘rnatish, xalqaro jamiyat bilan muloqot qilish uchun ingliz tilini muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. U chet tili orqali g‘oyalarini keng targ‘ib etish, xalqaro obro‘-e'tiborini oshirish imkoniga ega bo‘lganligini aytib o‘tgan. [1]

Shu kabi mashxur asarlardan biri "Becoming" asari bo‘lib, u kitobda AQSh sobiq prezidenti Barak Obama ingliz tilini mukammal egallagani va bu uning liderlik salohiyatini qanday rivojlantirgani haqida yozadi. Prezidaent kasbiy hayotda muvaffaqiyatga erishish, xalqaro maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun ingliz tilidan samarali foydalanganini qayd etgan.

Bundan tashqari, Jon Kennadining "Prifiles in coureage" kitobida uning liderlik yo‘lidagi nutqlarida ingliz tilidan qanday mohirona foydalangani tahlil qilinadi. U til orqali odamlarni qo‘zg‘atish, ularni maqsadga da'vat etish qobiliyatlariga ega bo‘lganligini ko‘rsatib beriladi. Demak, ko‘plab yirik siyosatchilar, jamoat arboblari va liderlar o‘z kitoblarida ingliz tili va liderlik o‘rtasidagi chambarchas aloqani ochib beradilar. Ular ushbu bog‘liqlikning ahamiyatini, uning liderlikni yuksaltirish va kuchaytirishdagi o‘rnini yorqin ifodalaganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Erta yoshdan ingliz tilini o‘rganish liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Misol uchun bolalikda til o‘rganish miyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Bolalar yoshligida tilni o‘rganish qobiliyati yuqori bo‘ladi va ularga bir nechta tilni yaxshi o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu esa keyinchalik liderlik qobiliyatlari, jumladan, muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ingliz tilini puxta egallash liderlar uchun bir qator muhim imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, bu ularni xalqaro miqyosdagi turli platforma va aloqalarga kirish imkonini beradi. Liderlar xalqaro konferensiya, loyiha, kelishuvlar va boshqa faoliyatlarda faol ishtirok etish, global jarayonlarga qo‘shila olishlari mumkin. Ikkinchidan, ingliz tili orqali liderlar dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan ilmiy, texnologik, siyosiy yangiliklardan, so‘nggi tadqiqotlardan, innovatsiyalardan muntazam xabardor bo‘lish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu ularning doimo dolzarb va yangi ma'lumotlarga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, ingliz tilini yaxshi bilish yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, odamlar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularni bir maqsad yo‘lida birlashtirish imkonini beradi. Bu esa, liderlik uchun eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.[17]

Shuningdek, tilni chuqur o‘rganish liderning shaxsiy va kasbiy o‘sishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim olish, malaka oshirish, yangi bilimlar va ko‘nikmalar egallash jarayonlarida til muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, liderlik va ingliz tili bir-birini to‘ldiruvchi va kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Liderlar ingliz tilini chuqur o‘rganish orqali o‘z global ta'sir va mavqeini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri - ingliz tili xalqaro muloqot, aloqa, hamkorlik, bozorlar, innovatsiya va virtual sherikliklar uchun asosiy vositaligidir. Ingliz tilini mukammal egallagan rahbarlar xalqaro miqyosda samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish, yangi imkoniyatlarni ochish, jamoatchilik qo‘llab-quvvatlanishiga erishish va innovatsion g‘oyalarni targ‘ib qilish orqali o‘z ta'sirini kuchaytira oladilar. Shu bilan birga, raqamli dunyo shartlari uchun ham ingliz tilini yaxshi bilish muhim ahamiyatga ega[8, B.78].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Shunday qilib, liderlar uchun chet el tillarini, ayniqsa ingliz tilini yaxshi o‘rganish va undan samarali foydalanish quyidagi asosiy afzalliklarni beradi:

Birinchidan, chet el tillari bilimi liderlarning xalqaro tashkilotlar, platformalar va jamg‘armalar bilan faol hamkorlikka kirishish imkoniyatlarini beradi. Bu esa ularning global miqyosdagi xalqaro ta'sirini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, chet tillari bilimiga ega liderlar yangi texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy yangiliklar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va axborotlar bilan tezkor va samarali tanishishi mumkin. Bu esa davlat siyosati va qarorlarida ularning innovatsion yondashuv va yechimlarini qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Uchinchidan, chet tili mahorati liderlarning yetuk diplomatik ko‘nikmalarini oshiradi. Bularga o‘z fikrini aniq va ta'sirchan ifoda etish, xorijiy hamkorlarga nisbatan hurmat va hamjihatlik munosabatlarini saqlash, xalqaro muzokaralar olib borish kabilar kiradi. Bu esa ularning strategik qoidalari va xalqaro munosabatlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga imkon beradi.

To‘rtinchidan, chet el tili bilimi liderlarni zamon talablariga moslashib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishlarini ta'minlaydi. Bu esa raqamli dunyo bilan integratsiyalashuvlarini yengillashtirib, global ta'sirlarini kuchaytiradi.

Beshinchidan, chet tilini puxta biladigan liderlar xalqaro oliy ta'lim muassasalari, ekspert guruhlar va fikrlar liderlar bilan muntazam muloqot qilish va ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning intellektual va yetakchilik salohiyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, liderlar tomonidan chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish va undan samarali foydalanish ularning global aloqalarni kuchaytirishning va nufuzini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

REFERENCES:

1. D. Hukumov. Shaxsda liderlikni namoyon bo‘lishi //Central asian research journal for interdisciplinary studies (Carjis) //Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454// DOI: 10.24412/2181-2454-2022-1-206-213 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022;

2. Elmurodov U.Yu. Zamonaviy rahbar shaxsida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda rahbar boshqaruv uslubining o‘rni// Tarbiya ta’lim jarayonining ijtimoiy hamda pedagogik psixologik muammolari; Taklif va yechimlar Toshkent 2022 –B.162-171;

3. Elmurodov U.Yu. Boshqaruv tizimi quyi bo‘g‘inlarida rahbarlik faoliyatini takomillashtirish//.”XXI asr axborot asrida –axborot psixologik xavfsizligi masalalari” Andijon 2022 –B 130-134;

4. Elmurodov U.Yu. Zamonaviy rahbar shaxsining psixologik kompetentligini tizimlashtirish//Oilaviy munosabatla destruksiyasining psixologik tadqiqi: muammo va yechimlar Termiz 2022.- № 2, -B. 108-110;

5. Elmurodov.U.Yu. Development of leadership skills in a modern leader// International conference on new scientific methodologies Amerika 2022 B-303-305;

6. Elmurodov.U.Yu. Boshqaruv tizimida liderlik qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammolari//. Respublika ko‘p tarmoqli Ilmiy tadqiqotlar sammiti Toshkent 2022. –B 230-233;

7. Elmurodov U.Yu. Boshqaruv tizimida rahbarlik va liderlik mohiyatining psixologiya sohasi tadqiqotlarida o‘rganilganlik holati// Ilm ham jamiyat 2022.-№2 -B. 138-140. (19.00.00 № 2);

8. Goleman, D. (2000). Leadership that gets results. Harvard Business Review, 78(2), 78-90.

9. Isakova Nozina. “Boshqaruv psixologiyasida liderlik masalasining zamonaviy muammolari” // Bitiruv malakaviy ishi.: Toshkent – 2014

10. Lussier, R. N., & Achua, C. F. (2015). Leadership: Theory, application, & skill development (6th ed.). Cengage Learning.

11. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.: “O‘zbekiston”, 1998-yil. -61 b.;

12. Kouzes, J. M., & Posner, B. Z. (2017). The leadership challenge (6th ed.). Wiley.

13. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. —Chet tilini o’qitishda yordamchi vositalardan foydalanish||. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

14. Northouse, P. G. (2019). Leadership: Theory and practice (8th ed.). SAGE Publications.

15. Salaxutdinova M.I. Rivojlanish va yosh psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, Samdu, 2020. – 156 b.;

16. Zhe Dong, Gijs Huitsing, René Veenstra, “Positive and Negative Leadership in Late Childhood: Similarities in Individual but Differences in Interpersonal Characteristics”//Central asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS) //Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454// DOI: 16 .24412/2181-2454-2023-1-206-213 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023.

KOLOBORATIV O‘RGATISHNING MUAMMOLARI VA ULARGA YECHIMLAR

Ilmiy rahbar prof. Sh.A. Xasanov
Toxirova Maxbubaxon Shuxrat qizi
ADPI doktoranti
mahbubatohirova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4+2 o‘qitish tizimida mutaxassislik fanlarini kolloborativ usulda o‘qitishda duch kelinadigan muammolar haqida tahlil qilinib ularga yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: 4+2 tizimi, kolloborativ ta’lim, mutaxassislik fanlari, oliy ta’lim, amaliyot, nazariya, pedagogik texnologiyalar,dual ta’lim,hamkorlikda ishlash,amaliyotchi,ish beruvchi

An’anaviy ta’lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir, lekin uning ob’ektiv imkoniyatlari cheklangan. Aytish mumkinki, onlayn ta’lim shakli qariyb uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan an’anaviy ta’lim shaklini yaqin yuz yillikda siqib chiqara olmasa kerak. Onlayn ta’lim an’anaviy ta’limni to‘ldiruvchi, uning samaradorligini yanada oshiruvchi bir vosita bo‘lib qoladi. Hayotimiz davomida biz yangi bilim va ko‘nikmalarni muntazam o‘zlashtirishimiz kerak, ta’lim uchun ajratgan muayyan davrimizda esa bunga erishib bo‘lmaydi, albatta. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari–ta’lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga,barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasida nomunosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta’limda boshqa yangi yondashuvlarni qo‘llash yo‘li bilan hal etish lozim.

An’anaviy ta’lim texnologiyasining afzalliklari: ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lgan va aniq ma’lum tushunchalarni, fanni o‘rganishda foydaliligi; o‘qituvchi tomonidan o‘qitish jarayonini va o‘qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi; vaqtdan unumli foydalanish; aniq ilmiy bilimlarga tayanish

Kamchiliklari: o‘quvchilar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladilar; o‘qituvchining to‘la nazorati barcha o‘quvchilar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi;

o‘quvchilar o‘qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi; eslab qolish darajasi hamma o‘quvchilarda bir xil bo‘lmaganligi sababli, guruh bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi past bo‘lib qolishi mumkin; mustaqil o‘rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Albatta darsni to‘g‘ri tashkil etish va darsga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yetuk mutahasis bo‘lish kerak. Yetuk mutaxasislar esa oliy ta`lim muassasalarida ta`lim olib, o‘z kasbining ustalari bo‘lib chiqadilar. Zamonaviy ta`lim texnologiyalari esa talabalarni o‘z kasbining yetuk mutaxasisi bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda ta`lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni ta`lim tizimida joriy qilib borish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini mamlakatimiz ta`lim tizimiga tadbiq qilish muhim hisoblanadi.

Guruh a'zolari birgalikda o‘quv loyihasi ustida ishlashga vaqt sarflaganlarida, ular bir-birlarini yaxshiroq bilishadi. Bu ijobiy shaxsiy munosabatlarga va yuqori ruhiy holatga olib kelishi mumkin. Agar o‘qituvchi hamkorlikda o‘rganishda ishtirok etsa yoki unga rahbarlik qilsa, bu shaxsga o‘z o‘quvchilarini yaxshiroq tushunishga va murabbiy munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi .Ushbu yondashuvningbir qator afzalliklarini ko’rib chiqdik. Endi ushbu yondashuvning boshqa jihatlariga nazar tashlasak. Koloborativ o'rgatishning bir qator pedagogik

muammolari mavjud. Ushbu muammolarni keltirib o’tamiz. Har bir muammoga yechim ham tavsiya etib ketamiz.

1. Jamoaviy ishning samaradorligidagi muammolardan biri bu ba'zi talabalar jamoaviy ishda ishtirok etishni xohlamasliklari yoki passiv bo'lishlari mumkin. Bu, guruhning umumiy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yechim sifatida jamoaviy ishni rejalashtirishda va baholashda aniq rollar va mas'uliyatlarni belgilash. Jamoaviy ishlashni rag'batlantiruvchi faoliyatlar va amaliy mashqlarni qo'llashni tavsiya etamiz

2. O'qituvchilarning malakasi bo’yicha yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muamolardan biri bu - koloborativ o'rgatishni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilar maxsus metodik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Har bir o'qituvchi bunday metodikaga tayyor bo'lmasligi mumkin. Bu muammoga yechim sifatida, o'qituvchilar uchun kolaborativ o'rgatish metodologiyasini o'rgatuvchi treninglar va seminarlar o'tkazishni tavsiya etamiz

3. Baholash masalalarida ham muammolar yuzaga kelishi mumkin. Koloborativ o'rgatishda guruh ishlari natijalarini baholash murakkab bo'lishi mumkin. Individual hissalar va jamoaviy natijalarni qanday baholashni belgilash muammo tug'dirishi mumkin. Yechim sifatida esa baholash mezonlarini aniq belgilash va individual hissalarni ham, jamoaviy natijalarni ham hisobga oladigan baholash tizimlarini ishlab chiqish zarur

4. Kommunikatsiya qobiliyatlaridagi muammolar shunday bo’lishi mumkin. Ya`ni talabalar orasida samarali muloqot va fikr almashish qobiliyatlari bo'lmasligi mumkin, bu esa jamoaviy ishlarning samaradorligini kamaytirishi mumkin. Yechimi shuki, muloqot va jamoa ichidagi rolni rivojlantiruvchi mashqlar va faoliyatlarni o'z ichiga olgan darslar tashkil qilish. Shuningdek, kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantiruvchi treninglar o'tkazish

5. Resurslar va infratuzilmalardagi muammo shuki, koloborativ o'rgatish uchun zarur bo'lgan resurslar, masalan, guruh ishlarini qo'llab-quvvatlovchi materiallar yoki texnik vositalar yetishmasligi mumkin. Yechim sifatida resurslarni to'g'ri taqsimlash va zarur infratuzilmani yaratish. Hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi materiallar va texnik vositalarni ta'minlashni tavsiya etamiz

6. Talabalar orasida nizolar. Jamoaviy ish davomida talabalar orasida nizolar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Yechim esa, jamoaviy ishda nizolarni boshqarish uchun strategiyalar va maslahatlar berish. Konfliktlarni hal qilish va konstruktiv munozaralar o'tkazish bo'yicha mashqlar o'rgatishdan iborat

7. Differentsiyalash. Kolaborativ o'rgatishda har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki talabalar turli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin. Yechim sifatida differentsiyalashgan vazifalar va rollar orqali har bir talabaga mos keladigan yondashuvni qo'llash. Har bir talabani qo'llab-quvvatlash uchun individual yordam va qo'shimcha resurslarni taqdim etishni tavsiya etamiz. Kolaborativ o'rgatishning samaradorligini oshirish uchun yuqorida sanab o'tilgan muammolarni e'tiborga olib, tegishli yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu orqali talabalar o'rtasida hamkorlik, muloqot va jamoaviy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarga yechim tavsiya etdik. Koloborativ o’rgatishning afzalliklari haqida ham batafsil to’xtalsak.

Koloborativ yondashuvining qiyosiy afzalliklaridan ba'zilari:

- Jamoada o'ziga xoslik va hamma "birgalikda" bo'lish hissi.
- Bir-birini qo'llab-quvvatlay oladigan va bir-biriga fikr bildira oladigan o'qituvchilar uchun qo'shimcha yordam.
- Yangi narsalarni sinab ko'rish va hamkasblar va o'quvchilardan nima ishlamayotganini tushunish uchun tezkor fikr-mulohazalarni olish qobiliyati.

- Sizning o'quv dasturingiz doimiy jarayonga aylanadi va vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada rivojlanishi va yaxshilanishi mumkin.

Bundan tashqari aytib o’tishimiz joizki, o’qituvchilarimiz uchun ham bir qator afzalliklar keltiradi, ya’ni, o'qituvchilarning faol hamkorligining afzalliklari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Agar o'qituvchilar barcha o'quvchilarning rivojlanishi uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishsa, barcha talabalar foyda olishadi.
- O'qituvchilar uzluksiz ravishda bir-biridan o'rganishlari mumkin.
- O'qituvchi guruhlari bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini to'ldirishlari, muammolarni birgalikda hal qilishlari va o'quv dasturini va bir-birlarining professional o'sishini qo'llab-quvvatlashlari mumkin.
- Talabalar (ayniqsa, yosh talabalar) o'qituvchilarining hamkorlikda ishlashini kuzatishlari mumkin, bu ularga qo'shimcha ta'lim va ish joyida kerak bo'ladigan konstruktiv va professional ishlash uchun foydali amaliy ko'nikmalarni kuzatish imkonini beradi.

Koloborativ o’rgatish metodikasi faqatgina oliy ta’lim uchun mo’ljallangan emas, balki ushbu metoddan ta’limning turli bosqichlarida qo’llash mumkin.Umumta’lim maktablaridagi darslarda foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi. Ushbu metodika bo’yicha umumiy o’rta ta’limda ham doimiy ravishda amalda qo’llab borsak natijasi biz kutgandek yuqori bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johnson, D.W., & Johnson, R.T. (1989). Cooperation and competition: Theory and research. Edina, MN: Interaction Book Company.(pp. 148-150)
2. Slavin, R.E. (1995). Cooperative learning: Theory, research, and practice (2nd ed.). Boston: Allyn & Bacon.(pp. 215-235)
3. Qurbonov, Sh. (2018). Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Toshkent: Fan va texnologiya. 30-50-betlar.
4. Cates, C., & Jones, P. (1999). Learning outcomes: The educational value of cooperative education. Columbia, MD: Cooperative Education Association.(pp. 210-215)
5. Felder, R.M., & Brent, R. (2007). Cooperative learning. In P.A. Mabrouk (Ed.), Active learning: Models from the analytical sciences (pp. 20-50). Washington, DC: American Chemical Society.
6. Olimov, Q. (2020). Oliy ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Yangi asr avlodi. 140-150-betlar.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA MILLIY BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kaxarova Gulnora Sa‘dullayevna
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: gulnorakaxarova03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy bolalar folklor qo‘shiqlarining bolalar ijodiy va ma‘naviy rivojlanishidagi o‘rni hamda tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Folklor qo‘shiqlari bolalarning musiqiy ko‘nikmalarini oshirish, emotsional barqarorlikni ta‘minlash, milliy qadriyatlarni singdirish va ularni jamiyatga moslashish jarayonlarida muhim vosita ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada qo‘shiqlarning psixologik ta‘siri, ijtimoiy moslashuvga ko‘rsatayotgan hissasi va bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy folklor qo‘shiqlari, bolalar tarbiyasi, ijodiy rivojlanish, psixologik ta‘sir, musiqiy ko‘nikmalar, emotsional intellekt, milliy qadriyatlar, ijtimoiy moslashuv, improvizatsiya

Аннотация. В данной статье анализируется место национальных детских фольклорных песен в творческом и духовном развитии детей, их воспитательное значение. Народные песни являются важным инструментом в процессах совершенствования музыкальных навыков детей, обеспечения эмоциональной устойчивости, привития национальных ценностей и адаптации их к обществу. Также в статье рассматривается психологическое воздействие песен, их вклад в социальную адаптацию, значение в развитии творческих способностей детей.

Ключевые слова: народные фольклорные песни, воспитание детей, творческое развитие, психологическое воздействие, музыкальные способности, эмоциональный интеллект, национальные ценности, социальная адаптация, импровизация.

Abstract. This article analyzes the place of national children's folk songs in the creative and spiritual development of children, their educational value. Folk songs are an important tool in the processes of improving children's musical skills, ensuring emotional stability, instilling national values and adapting them to society. The article also examines the psychological impact of songs, their contribution to social adaptation, and their importance in developing children's creative abilities.

Keywords: folk songs, raising children, creative development, psychological impact, musical abilities, emotional intelligence, national values, social adaptation, improvisation.

Kirish.

Har bir jamiyat kelajak avlodni ma‘naviy va intellektual jihatdan rivojlantirishga intiladi, chunki bolalar mamlakatning ertangi kuni, uning kelajagini shakllantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Bu borada bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish alohida e‘tibor talab qiladi. Ijod insonning noyob fikrlash qobiliyati, yangi g‘oyalar yaratish va ularga ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. Bolalar dunyosida esa ijodiy fikrlashni rivojlantirish tabiiy jarayon bo‘lib, bu jarayon asosan o‘yinga, qiziqish va ijodiy faoliyatga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy bolalar folklor qo‘shiqlari bolalar ijodini rivojlantirish uchun noyob vositalardan biridir.Milliy bolalar folklor qo‘shiqlari har bir xalqning ma‘naviy madaniy merosi hisoblanadi. Ular asrlar davomida xalq og‘zaki ijodiyoti orqali saqlanib kelgan va hozirgi kunda ham bolalar tarbiyasida o‘z o‘rnini yo‘qotmagan. Ushbu qo‘shiqlar nafaqat musiqiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ular bolalarning ruhiy holati, madaniy dunyoqarashi va ijodiy

tafakkurini shakllantiradi. Qo‘shiqlar orqali bolalar o‘zlarining milliy an‘analari, xalq qadriyatlari bilan tanishadilar va shu orqali milliy o‘zlikni anglashlari shakllanadi.Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bugungi kunda texnologik rivojlanish va globallashuv jarayonlari bolalar tarbiyasida milliy an‘ana va qadriyatlarning kamayishiga olib kelmoqda. Yangi texnologiyalar va xorijiy madaniyatlarning kuchli ta‘siri ostida milliy musiqiy va madaniy merosdan foydalanish kamayib bormoqda. Ammo aynan milliy folklor qo‘shiqlari bu jarayonlarda muhim o‘rin tutib, bolalarga o‘z milliy madaniyatlari bilan bog‘lanish imkonini beradi. Folklor qo‘shiqlari nafaqat eshitish uchun, balki bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z fikrlarini ifodalash, yangi g‘oyalarni yaratish jarayonida foydalanilishi kerak.Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida folklor qo‘shiqlari orqali nafaqat musiqiy mahorat, balki qiziqish va ijodiy yondashuv ham shakllanadi. Ushbu maqolada milliy bolalar folklor qo‘shiqlari orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi va ularning pedagogik jarayondagi o‘rni ochib beriladi.

Milliy bolalar folklor qo‘shiqlarining ahamiyati

Milliy bolalar folklor qo‘shiqlari har bir xalqning madaniyati va tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bolalarni milliy meros va qadriyatlar bilan tanishtirishning muhim vositasidir. Bu qo‘shiqlar xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, urganib qolgan qadriyatlari va tarixiy tajribalarini aks ettirib, nafaqat musiqa va adabiyot madaniyatini boyitadi, balki bolalarning ongida milliy o‘zlikni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan milliy bolalar folklor qo‘shiqlarining bolalar tarbiyasidagi o‘rni o‘ta katta va ahamiyatlidir.Birinchi navbatda, til va madaniy o‘zlikni saqlash masalasida folklor qo‘shiqlari katta rol o‘ynaydi. Bolalar kichik yoshdan boshlab xalq qo‘shiqlarini o‘rganish orqali o‘z ona tilining boyligini, badiiy ifoda imkoniyatlarini anglay boshlaydilar. Qo‘shiqlardagi an‘anaviy obrazlar, tarixiy voqealar, milliy qahramonlar va ular orqali aks etgan qadriyatlar bolalarda ona tiliga, madaniyatga hurmat tuyg‘usini oshiradi. Bu qo‘shiqlarni eshitish va kuylash orqali bola o‘zining milliy madaniyati va tarixiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, milliy o‘zligini anglaydi va bu qadriyatlarni qadrlashga o‘rganadi.Ikkinchidan, folklor qo‘shiqlari bolalarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu qo‘shiqlarda xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribalari, axloqiy qadriyatlari, odob-axloq qoidalari ifodalanadi. Masalan, do‘stlik, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-muhabbat kabi qadriyatlar folklor qo‘shiqlarida tez-tez uchrab turadi. Bu esa bolalarda jamiyatda to‘g‘ri xulq-atvor shakllanishiga yordam beradi, ularni o‘z xalqining ijtimoiy me‘yorlari bilan tanishtiradi.Uchinchidan, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda milliy folklor qo‘shiqlari juda samarali. Bolalar oddiy, ammo mazmunli matn va kuylar yordamida musiqa tuzilmalarini osonroq tushunib olishlari mumkin. Folklor qo‘shiqlari ohang va ritm jihatidan sodda bo‘lgani uchun kichik yoshdagi bolalar ham bu qo‘shiqlarni tezda o‘zlashtira oladilar. Shu orqali ular nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki kuy va ritmga mos ravishda harakat qilish, qo‘shiq matnini yodlab olish kabi ko‘nikmalarini oshiradilar. Bu esa ularning musiqiy savodxonligini oshiradi va musiqiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.Shuningdek, milliy bolalar folklor qo‘shiqlari ijodiy tasavvurni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Qo‘shiqlarning sodda, lekin mazmunli hikoyalari bolalarning tasavvurini kengaytiradi, ularning fantaziyasiga erkinlik beradi. Bu qo‘shiqlarda ko‘pincha ertaklar, afsonalar yoki ramziy obrazlar uchraydi, bu esa bolalarning ijodiy fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bola o‘zining tasavvurida qo‘shiq qahramonlarini yaratadi, voqealar rivojini o‘zicha tasavvur qiladi va shu orqali ijodiy faoliyatga qiziqishi ortadi.Bundan tashqari, milliy folklor qo‘shiqlari bolalarni ijtimoiy moslashuvga tayyorlashda ham yordam beradi. Ular ko‘pincha qo‘shiq aytish va raqs qilish kabi jamoaviy faoliyatlar orqali bolalarni o‘z tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga undaydi. Bu qo‘shiqlar jamoaviy ijro qilish jarayonida ijtimoiy munosabatlar shakllanishiga,

bolalarning bir-biriga yordam berishi, birgalikda ijod qilishni o‘rganishiga hissa qo‘shadi.Shunday qilib, milliy bolalar folklor qo‘shiqlari nafaqat madaniy merosni saqlash, balki bolalarni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatga moslashish jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Bu qo‘shiqlar orqali bolalar o‘z milliy o‘zligini anglaydi, madaniy va axloqiy qadriyatlarni o‘rganadi, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, shuningdek, ijtimoiy hayotga tayyorlanadi.

Bolalar ijodini rivojlantirishda folklor qo‘shiqlarining o‘rni

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Ijodiy faoliyat bolalarning hayotiy ko‘nikmalarini, dunyoqarashini va intellektual imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, ularning emotsional va ruhiy o‘sishini ham ta‘minlaydi. Ushbu jarayonda milliy bolalar folklor qo‘shiqlari noyob pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Folklor qo‘shiqlari o‘zining semantik va strukturaviy jihatlaridan kelib chiqib, bolalar ijodini rag‘batlantirish va rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.Birinchidan, folklor qo‘shiqlarining kontekstual boyligi bolalar tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Qo‘shiqlarda ko‘pincha xalqning hayotiy tajribalari, ertaklar, afsonalar va ramziy tushunchalar mavjud bo‘lib, bu bolalarda tasavvurni rivojlantiradi. Folklor qo‘shiqlaridagi obrazlar, voqealar va personajlar ijodiy tafakkur jarayonini rag‘batlantiradi. Bolalar qo‘shiqlarni eshitib, ularni tasavvur qilish orqali yangi g‘oyalarni ishlab chiqadilar, bu esa ijodiy o‘sish jarayonini tezlashtiradi. Bu jarayonda bola musiqiy obrazlar bilan ishlash orqali semantik tafakkur va tasavvurni faollashtiradi, bu esa uning ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.Ikkinchidan, folklor qo‘shiqlari bolalarning muvofiqlashtirish va musiqiy eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa va ritm – bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Folklor qo‘shiqlarida sodda va qiziqarli ritmik tuzilmalar bolalar uchun eslab qolish va kuylash jarayonini osonlashtiradi. Bunday qo‘shiqlarni kuylash jarayonida bola nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ritmik tuzilmani his qilishni, ovoz diapazonini o‘zlashtirishni va kuyni ifodalashda qat‘iy harakat qilishni o‘rganadi. Bu jarayon orqali bolaning musiqiy ko‘nikmalari kengayadi, bu esa uning ijodiy potentsialini faollashtiradi.Shu bilan birga, folklor qo‘shiqlari orqali bolalarda improvizatsion qobiliyatlar rivojlanadi. Improvizatsiya jarayonida bola ma‘lum bir qo‘shiq yoki kuy asosida yangi variantlarni yaratishga intiladi. Bu ijodiy jarayon orqali bola o‘z fikrlash chegaralarini kengaytiradi va yangi musiqiy va poetik shakllarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Improvizatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u bolaning ijodiy energiyasini ifodalashga yordam beradi va uni yangi g‘oyalarni shakllantirishga undaydi. Bu jarayonda bola nafaqat mavjud qo‘shiq matni va kuyini o‘zlashtiradi, balki o‘z tasavvuridan kelib chiqib, yangilik yaratishga intiladi. Shuning uchun, folklor qo‘shiqlari bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.Folklor qo‘shiqlarining yana bir muhim jihati bu bolalarning ko‘pkanalli idrokini shakllantirishidir. Folklor qo‘shiqlari odatda musiqiy va vizual elementlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, qo‘shiqlar bilan birga ijro etiladigan milliy raqslar yoki qo‘shiqqa mos dramatik sahnalar orqali bolalar bir vaqtning o‘zida bir necha kanalda ma‘lumot olishadi. Bu jarayon bolalarning ko‘p tomonlama fikrlashini rivojlantiradi va ularning idrok qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Shu tarzda bolalarda multimodal idrok shakllanadi, bu esa ijodiy jarayonlarda ko‘proq imkoniyatlar yaratadi.

Folklor qo‘shiqlarining pedagogik ahamiyati ham shundaki, ular bolalarni musiqiy bilimlarni egallashga va bu bilimlarni ijodiy faoliyatda qo‘llashga o‘rgatadi. Qo‘shiqlar orqali bola musiqaning tuzilmasi, ohanglari, ritmik shakllari haqida ma‘lumot oladi va ularni ijro etish jarayonida qo‘llashni o‘rganadi. Musiqiy bilimlarni egallash orqali bola o‘z musiqiy qobiliyatlarini takomillashtirib, yangi ijodiy imkoniyatlarni ochadi.Shunday qilib, folklor qo‘shiqlari bolalar

ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ular bolaning musiqiy eshitish qobiliyatini oshirish, ritmik tuzilmani o‘zlashtirish, improvizatsiya qilish va o‘z tasavvurini kengaytirish imkoniyatini yaratadi

Milliy folklorning bolalar tarbiyasidagi o‘rni

Milliy folklor xalqning madaniy merosini, an‘analari, qadriyatlari va hayotiy tajribalarini o‘zida aks ettirgan boy manbadir. Har bir xalqning folklor asarlari, jumladan, qo‘shiqlari, rivoyatlari, ertaklari va maqollari, nafaqat san‘at asari sifatida, balki bolalar tarbiyasi uchun kuchli vosita sifatida ham xizmat qiladi. Folklor xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribalari va bilimlarining umumlashgan ifodasidir, u bolalarni jamiyatga moslashish, milliy o‘zlikni anglash va ahloqiy me‘yorlarga rioya qilishga o‘rgatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy folklorning, xususan, bolalar folklor qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati juda katta.Folklor qo‘shiqlari bolalar tarbiyasida o‘ta muhim tarbiyaviy omil sifatida xizmat qiladi. Ular bolalarning milliy qadriyatlarini shakllantirish, jamiyatning madaniy me‘yorlarini singdirish va ma‘naviy tarbiyani rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Bolalar folklor qo‘shiqlarida xalqning axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari, an‘analari aks etadi, bu esa bolalarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishda juda foydali bo‘ladi. Qo‘shiqlar bolalarga hayotning muhim qoidalarini, do‘stlik, mehr-muhabbat, halollik va adolat kabi fazilatlarni o‘rgatadi.Milliy folklor qo‘shiqlarining ahamiyatli jihatlaridan biri – ularning psixologik ta‘siridir. Folklor qo‘shiqlari bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtiruvchi kuchga ega. Qo‘shiqlarning sodda va ohangdor ritmlari bolalarda emotsional holatni muvozanatlash, stressni kamaytirish va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otish vazifasini bajaradi. Psixologiyada ma‘lumki, bolalarning o‘sishi va rivojlanishi jarayonida musiqaning emotsional ta‘siri katta o‘rin tutadi. Folklor qo‘shiqlaridagi kuy va ritmning yengil va sokinligi bolalarda qulaylik hissini uyg‘otadi, ular o‘zlarini xavfsiz his qilishadi, bu esa psixologik barqarorlikka erishishga yordam beradi.Bolalar yoshiga moslab yaratilgan folklor qo‘shiqlari ularga atrofdagi olamni tushunishga va bu dunyoga o‘zlarining hissiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Folklor qo‘shiqlari bolalarning emotsional intellektini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu qo‘shiqlarda namoyon bo‘lgan hissiyotlar va obrazlar bolalarda hamdardlik, kechirimlilik, xayrixohlik va o‘zaro hurmat kabi emotsional jihatlarni rivojlantiradi. Masalan, folklor qo‘shiqlarida bolalar tez-tez mehribon ona yoki donishmand otaning obrazi orqali o‘zlarining ota-onalariga bo‘lgan mehr-muhabbatlarini mustahkamlaydilar. Bu esa bolalar ongida sog‘lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.Folklor qo‘shiqlari bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoniga ham katta hissa qo‘shadi. Ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan, bola qo‘shiq va musiqaning jamoaviy ijrosi orqali o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishni o‘rganadi. Jamoaviy qo‘shiqlar orqali bola o‘z tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, ularning fikrlarini hurmat qilish, birgalikda ijod qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, folklor qo‘shiqlarida aks etgan milliy an‘ana va qadriyatlar bola ongida mustahkam o‘rnashib, unga jamiyatning axloqiy me‘yorlarini singdiradi.

Folklor qo‘shiqlari orqali bolalar o‘zlarining ma‘naviy va ruhiy rivojlanishlarini ta‘minlaydilar. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ma‘naviy rivojlanishi bevosita ular eshitgan va idrok qilgan musiqiy va poetik asarlar bilan bog‘liqdir. Folklor qo‘shiqlaridagi obrazlar va mazmun orqali bolalar o‘zlarining ruhiy olamlarini boyitadilar, hayot haqidagi tushunchalarini kengaytiradilar. Ushbu qo‘shiqlar ularning qalbida ezgulik, adolat, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi yuqori insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, qo‘shiqlar bola ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning emotsional barqarorligini ta‘minlaydi.Milliy folklor qo‘shiqlari, shuningdek, psixomotor rivojlanishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalar qo‘shiqlari, ayniqsa, o‘yin va harakat bilan birgalikda ijro etilganda, bolalarning muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Qo‘shiqlar ritmiga mos ravishda harakat qilish, raqslar ijro etish orqali bolalar o‘zlarining psixomotor qobiliyatlarini

oshiradilar. Bu jarayon nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki bolalarning ijodiy energiyasini chiqarishga ham yordam beradi.Milliy folklor qo‘shiqlarining bolalar tarbiyasidagi o‘rni juda katta. Ular bolalarning ma‘naviy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ularning ijodiy salohiyatini oshiradi va jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Shu bilan birga, folklor qo‘shiqlari bolalarning ruhiyatiga psixologik qulaylik yaratib, ularning emotsional barqarorligini ta‘minlaydi. Bu esa bolalar tarbiyasida milliy folklorning o‘rnini yanada ahamiyatli qiladi.

Xulosa.

Milliy bolalar folklor qo‘shiqlari tarbiya jarayonida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular bolalarning ijodiy, ma‘naviy va ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Bu qo‘shiqlar xalqning madaniy merosi, an‘anaviy qadriyatlari, tarixi va hayotiy tajribalarini aks ettiradi va bolalarga ular bilan tanishish imkonini beradi. Bolalar kichik yoshdanoq milliy folklor qo‘shiqlarini eshitib, milliy o‘zlikni shakllantirish, ma‘naviy qadriyatlarni anglash va badiiy-estetik ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘lida ilk qadamlarini qo‘yadilar. Folklor qo‘shiqlari bolalarda ona tiliga, milliy madaniyatga va xalqning qadimiy merosiga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.Ijodiy rivojlanish jarayonida folklor qo‘shiqlarining rolini alohida ta‘kidlash lozim. Bu qo‘shiqlar sodda va esda qoladigan tuzilmasi orqali bolalarning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ritmik sezgilarini kuchaytirish va qo‘shiqlarni improvizatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, qo‘shiqlar ijodi jarayonida bolalar o‘z tasavvurlari va g‘oyalarini mustaqil ravishda shakllantiradilar, bu esa ularning ijodiy salohiyatlarini faollashtiradi. Improvizatsion jarayonlar bolaning erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, musiqiy va badiiy ijodiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Psixologik nuqtayi nazardan, milliy bolalar folklor qo‘shiqlarining ruhiy ta‘siri bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Ular bolalarning emotsional barqarorligini ta‘minlaydi, stressni kamaytirishga yordam beradi va ruhiy sog‘liqni mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Folklor qo‘shiqlaridagi obrazlar va ritm bolalarda ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, ularni xotirjamlikka, xushmuomalalikka o‘rgatadi. Shu orqali bolalar psixologik barqarorlikka erishadilar va o‘zlarini jamiyatda erkin his qiladilar.Folklor qo‘shiqlari bolalarning ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jamoaviy ijro jarayonida bolalar bir-biri bilan hamkorlik qilishni, o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilishni va jamoaviy faoliyatda qatnashishni o‘rganadilar. Folklor qo‘shiqlari bolalarga jamiyat me‘yorlarini, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish imkonini beradi va ularni milliy madaniyatni qadrlashga o‘rgatadi. Shu orqali bolalar o‘zlarining jamiyatdagi o‘rnini anglaydilar va kelajakda mustaqil shaxslar sifatida shakllanadilar.

Xulosa qilib aytganda, milliy bolalar folklor qo‘shiqlari bolalarni tarbiyalashda ko‘p qirrali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular bolalarning ma‘naviy, badiiy, ijodiy va psixologik rivojlanishiga ko‘maklashadi, ularga milliy qadriyatlarni singdiradi va ijtimoiy moslashuvni ta‘minlaydi. Milliy madaniyatning bu bebaho boyligi bolalar uchun nafaqat tarbiyaviy ahamiyatga ega, balki ularni jamiyatning faol a‘zolari sifatida shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, bolalar tarbiyasida milliy folklor qo‘shiqlarini keng qo‘llash va ular orqali bolalarni o‘z xalqining madaniy merosi bilan tanishtirish, ularga estetik va emotsional tarbiya berish bugungi pedagogik amaliyotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 Yildagi 2022 — 2026-Yillarga mo‘ljallangan yangi O‘Zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Pf-60-Son
2. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. T., 1959
3. Ibrohimov O. “ O‘zbek xalq musiqa ijodi”, T., 1994;

4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi Boqijon To‘xliyev. - T.: Yulduzcha, 1990.
5. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — М.,1991
6. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 2002.
7. Qodirov G‘ Musiqa psixologiyasi “Musiqa” nashriyoti.2005
8. Colleman D. Emotional intelligences N.Y.Bantam Books, 2005
9. Давидов В.В. Проблемы развивающего обучения. М, 2006
10. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. М.: Просвещение, 2006.
11. Sulaymonov.M. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Namangan 2008
12. Zufarova.M.E Umumiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2010

"YUMOR VA MADANIYATLARDAGI FARQLAR: PRAGMALINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN DIALOGIK NUTQ TAHLILI"

Mubashirxon Bektoshev Odilbek o`g`li,
Qo`qon Davlat Pedagogika Instituti
1-bosqich tayanch doktoranti,
bektoshevmubashirxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola turli tizimli tillarda yumorning dialogik nutqda qanday shakllanishi va uning pragmalingvistik jihatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Pragmalingvistik nazariya asosida turli tillarda hazil-mutoyibaning kommunikativ vazifalari va madaniy kontekstlar ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda til, madaniyat va kontekstning o‘zaro ta’siri asosida dialogik nutqda yumorning shakllanishi va qo‘llanilish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar til va madaniyatlararo muloqotda yumorning ijtimoiy va lingvistik funktsiyalarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Pragmalingvistika, yumor, dialogik nutq, til va madaniyat, kontekst, implicature, lingvistika, hazil-mutoyiba, kommunikatsiya.

Kirish

Yumor har bir jamiyatda o‘ziga xos nutqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir tilda va madaniy muhitda yumor o‘zining ijtimoiy va lingvistik funktsiyalarini bajaradi, ya’ni ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, muloqotning samarasini oshirish, yoki ziddiyatlarni yumshatish kabi. Tilshunoslar yumorning pragmatik qirralarini o‘rganib, uni muloqotda yashirin ma’nolarni ochish vositasi sifatida ko‘rib chiqadilar. Yumorning muloqot jarayonidagi roli ko‘p jihatdan uning pragmatik aspektlari bilan bog‘liq. Pragmalingvistik nazariya yumorning shakllanishida va qabul qilinishida muhim rol o‘ynaydi, chunki til va madaniyat yumorning qanday tushunilishi va baholanishiga bevosita ta’sir qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — turli tizimli tillarda yumorning dialogik nutqda qanday qo‘llanilishini, bu jarayonda pragmalingvistik omillarning qanday rol o‘ynashini o‘rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqot ingliz, o‘zbek va rus tillarini qamrab oladi, shuningdek, har bir tilning o‘ziga xos yumor shakllariga e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar Sharhi

Yumor va uning lingvistik jihatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Grice (1989) tomonidan ishlab chiqilgan "maxsus qoidalar nazariyasi" (Grice's Maxims) yumorning muloqot jarayonida qanday shakllanishini tushuntirish uchun muhim nazariya hisoblanadi. Grice nazariyasiga ko‘ra, nutqdagi qoidalarning bilvosita buzilishi yoki implicature, ya’ni yashirin ma’nolarni ifodalash orqali yumor hosil bo‘ladi. Levinson (1983) pragmalingvistik nazariyada yumorning muloqotdagi o‘rni va funktsiyasini chuqur tahlil qilib, uning ijtimoiy va madaniy jihatlari bilan bog‘liq qirralarni ochib bergan. Levinsonning tadqiqotlarida til va muloqotning kontekstual qirralari, xususan, hazilning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni va qabul qilinish jarayoniga qaratilgan.

O‘zbek tilida yumorning pragmatik xususiyatlari bo‘yicha Yusupov (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o‘zbek madaniyatidagi so‘z o‘yinlari va hazil-mutoyibaning ijtimoiy aloqalar va kommunikatsiyadagi rolini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlarda o‘zbek madaniyatida yumorning milliy o‘ziga xosligi va uning ijtimoiy munosabatlar yaratish vositasi sifatidagi roli muhim o‘rin tutadi.

Attardo (1994) yumorning lingvistik qirralarini tahlil qilib, bu sohada lingvistik nazariyalarni o‘rganib, yumorning turli tillarda va madaniy kontekstlarda qanday o‘zgarishini tadqiq qilgan. Uning tadqiqotlari yumorning universalligi va o‘ziga xosliklarini chuqur o‘rganadi.

Qamrovchi va multi-dimensionsal tadqiqotlar Natson va Bogdan (2010) tomonidan olib borilgan, ular turli madaniyatlarda yumorning muloqotdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Ularning tadqiqotlari kontekstual, psixologik va sotsiologik omillarning yumor va kommunikatsiya jarayonlaridagi o‘zaro ta’sirini o‘rganishga yordam beradi.

Yumor va uning kognitiv asoslari bo‘yicha bir qator tadqiqotchilar, masalan, Raskin (1985) va Ziv (1988), tadqiqotlar olib borib, yumorning kognitiv va ijtimoiy funktsiyalarini o‘rganishgan. Ularning fikricha, yumor nafaqat kommunikativ vazifalarni bajaradi, balki muloqotda ishtirok etuvchilar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Metod

Ushbu tadqiqotda pragmalingvistik metodlar qo‘llanildi. Dialogik nutqdagi yumorning shakllanishi va uning muloqotdagi o‘rnini tahlil qilish uchun turli tizimli tillar (ingliz, o‘zbek, rus) asosida taqqoslash metodidan foydalanildi. Tadqiqot metodikasi quyidagilardan iborat:

Dialogik nutq tahlili — turli tillardagi dialoglarda yumorning shakllanishi va uning kommunikativ vazifalari o‘rganildi. Dialogik nutqning tahlilida misollar keltirib, turli til va madaniyatlararo farqlar ko‘rib chiqildi.

Pragmatik qoidalarning buzilishi — Grice nazariyasiga ko‘ra, yumorning implicature orqali shakllanish jarayonlari tahlil qilindi. Nutqdagi bilvosita ifodalarning shakllanishi va mazmuni analitik tarzda baholandi.

Kontekstual tahlil — har bir til va madaniyatdagi yumorning kontekstual va madaniy jihatlari tahlil qilinib, madaniyatlararo farqlar ko‘rib chiqildi. Kontekstual tahlil jarayonida madaniy an’analar va qadriyatlarning ahamiyati yoritildi.

Empirik tadqiqot — tadqiqot uchun turli tillardagi hazil-mutoyibaga oid dialogik matnlar va nutqiy namunalardan foydalanildi. Bunda turli madaniyatlarda odatdagi humor elementlari o‘rganildi.

Anketalar va intervyular — tadqiqot jarayonida turli ijtimoiy qatlamlardan ishtirokchilar bilan anketalar o‘tkazildi va intervyular olib borildi. Bu orqali yumorning ijtimoiy jihatlari va kontekstual ahamiyati to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar yig‘ildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, har bir til va madaniyatda yumorning pragmatik jihatlari bir-biridan farq qiladi.

Ingliz tili: Yumor ko‘pincha bilvosita shakllanadi va kontekstual qoidalarga asoslanadi. Ingliz tilidagi hazillar ko‘pincha implicature orqali, ya’ni yashirin ma’no berish orqali hosil bo‘ladi. Masalan, biror kishi yomg‘irli kunda "What a beautiful day!" deb aytganda, aslida bu ibora hazil ma’nosida ishlatiladi va asl ma’nosini teskariga o‘g‘iradi. Shuningdek, ingilizlarning o‘zaro muloqotida "dad jokes" (ota hazillari) keng tarqalgan. Bu hazillar oddiy, lekin bir oz kulgili kontekstdan kelib chiqadi [5, B. 67].

O‘zbek tili: O‘zbek tilida yumor ko‘pincha so‘z o‘yinlari va hazil-mutoyiba shaklida namoyon bo‘ladi. O‘zbek hazillari ko‘pincha milliy an’analar va qadriyatlarga bog‘liq. Misol uchun, o‘zbeklar orasida "Bir to‘p aylanmasin, ikkinchisi qo‘shilmang" kabi iboralar orqali jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hazil qilib ko‘rsatadi [3, B. 45].

Rus tili: Rus tilida esa yumor ko‘pincha kinoya va ironik ifodalar orqali kuchaytiriladi. Rus tilidagi hazillar ko‘pincha ijtimoiy va siyosiy mavzular bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, "Gde ty bil, kogda ne bulo!" kabi iboralar rus madaniyatida keng tarqalgan bo‘lib, bular o‘zaro hazil va muloqotni shakllantiradi [6, B. 80].

Xulosa

Yumor — bu kommunikatsiyaning muhim elementi bo‘lib, u nafaqat kulgiga, balki ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Turli tizimli tillarda yumorning shakllanishi va

qo‘llanilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yumor muloqotda yashirin ma’nolarni ochish vositasi sifatida ishlatiladi va madaniyatlararo muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tadqiqotda ko‘rsatilganidek, yumorning shakllanishi va qabul qilinishi til va madaniyat kontekstidan kelib chiqadi.

Tavsiyalar

Tadqiqotlarning kengaytirilishi — kelajakda boshqa tillarda ham yumorning pragmalingvistik jihatlarini o‘rganish va bu jarayonni yanada chuqurroq tahlil qilish lozim. Bu sohadagi tadqiqotlar o‘zaro ta’sir va muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Madaniyatlararo tadqiqotlar — turli madaniyatlardagi yumor va uning kommunikativ vazifalarini o‘rganish hamda madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash uchun tadqiqotlar olib borish zarur. Bu jarayonda turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar va ularning kommunikatsiyaga ta’siri alohida e’tiborga molikdir.

Amaliy dasturlar — til va madaniyatlarni o‘rganayotgan talabalar uchun yumor asosida kommunikatsiyani rivojlantiruvchi amaliy dasturlar yaratish foydali bo‘ladi. Bu dasturlar orqali talabalar nutqiy madaniyatni va pragmatik jihatlarni yaxshiroq o‘rganishlari mumkin.

Yumor va psixologiya — yumorning psixologik jihatlari va insonlararo muloqotdagi rolini o‘rganish ham tadqiqotlar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin. Bu masalani o‘rganish orqali muloqot jarayonida ishtirok etuvchilarning psixologik xususiyatlarini tushunish mumkin.

Media va zamonaviy tadqiqotlar — zamonaviy media vositalarida, masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yumor qanday qo‘llanilayotgani va uning yangi shakllari haqida tadqiqotlar o‘tkazish muhimdir. Bugungi kunda media, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yumor tezkor va keng tarqalgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Grice, H. P. (1989). Studies in the Way of Words. Harvard University Press.
2. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
3. Yusupov, J. (2020). O‘zbek tilidagi yumor: madaniy va lingvistik jihatlari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Attardo, S. (1994). Linguistic Theories of Humor. Mouton de Gruyter.
5. Raskin, V. (1985). Semantic Mechanisms of Humor. D. Reidel Publishing Company.
6. Ziv, A. (1988). The social perception of humor. Communication Research.
7. Vaid, J., & Gupta, P. (2001). Language and Humor. Wiley-Blackwell.
8. Natson, S., & Bogdan, M. (2010). Cross-Cultural Communication and Humor. Journal of Intercultural Communication Research.
9. Mukhtorova, M., & Ilxomov, X. (2024). HOW TO IMPROVE LISTENING SKILLS OF BOTH ESL AND EFL STUDENTS. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11(11), 84–86. https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.964
10. Begmatov, A. T. (2022). EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE GAMES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE. Conferencea, 1-4.
11. Ikboljon Ahmedov Ilxomovich. (2022). INTERCONNECTEDNESS OF SKILLS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1124–1127. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/C6AYV
12. Bektoshev, Mubashirxon. (2021). THE REFORMATIONS IN THE FIELD OF TOURISM AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. UZBEKISTAN ON THE WAY TO THIRD RENAISSANCE: HARMONY OF THNOCULTURAL, HISTORICAL AND ECONOMIC ASPECTS. 10.54613/001047.

13. Mubashirxon Bektoshev Odilbek o`g`li. (2022). FORMAL AND SYNTACTIC ASPECTS OF THE PASSIVE VOICE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1556–1559. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/RE4YV

14. Mubashirxon Bektoshev Odilbek o`g`li. (2022). PASSIVE VOICE IN TRANSLATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1605–1608. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/PHF93

15. Sultanovich, S. N. (2023). THE ROLE OF TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 1(11), 136-138.

16. Sultanovich, S. N. (2023). METHODS OF TEACHING ENGLISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(9), 153-156.

17. Akhmadjonov, A. (2023). RESEARCH ON LANGUAGE PLANNING AND POLICY PROPOSAL OF A CHOSEN EDUCATIONAL SCHOOL. Innovative Development in Educational Activities, 2(17), 78-84.

18. Akhmadjonov, A. (2022, September). PRONUNCIATION PROBLEMS OF STUDENTS AT LOCAL UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 6, pp. 65-75).

FUTUROLOGIK KOMPETENSIYA BO`LAJAK O‘QITUVCHILARNI SALOHIYATINI OSHIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Nishonov Nodir Alimjanovich
ADPI doktoranti
email: nodirbeknishonov1988@gmail.com
Tel:+998975820472
ORCID ID: 0009-0009-2855-595X

Annotatsiya. Ushbu maqolada futurologik kompetensiya ta’lim sifat samaradorligini oshiruvchi va bo‘lajak o‘qituvchilarda kelajak tizimlariga adaptatsiyasini optimallashtiruvchi vosita sifatida o`rganilgan. Shu maqsadda yurtimizning bir nechta hududida pedagogika yo ‘nalishida ta’lim olayotgan bo‘lajak pedagoglar faoliyati tadqiq qilindi va turli tajria sinov ishlari o‘tkazildi. Buning uchun dastlab futurologik bilimlar, ko`nikmalar va malakalarni aniqlashga qaratilgan so`rovnomalar halqaro futurologik assotsiatsiyalar, analitik tashkilotlar va ilmiy tadqiqot manbalariga asoslangan holda ishlab chiqildi. O`rganishlar natijasiga ko`ra, bo`lajak o`qituvchilar futurologik metodlar, bilimlar va kompetensiyani ahamiyatini to`laligicha anglab yetmaganligi, faoliyati doirasida samarali foydalana olmayotganligi ma’lum bo`ldi. Futurologik kompetensiya o`z navbatida pedagogdagi bashorat qila olish qobiliyatining asosiga qurilgan bo`lib ma’lum bir voqea-hodisalarning kelajakdagi izchil rivojlanishini anglab yetishga yordam beradi va shunga monand amallar ketma-ketligini bajarishni o`zida mujassam qiladi. Har bir fan tarmog`ining tarkibiy qismida shu fanga oid futurologik qarashlar va konsepsiyalar mavjud bo`lib, ushbu nazariyalar fanning kelajakdagi ahamiyatini, dolzarbligini va originalligini namoyon qiladi. Futurologik ko’nikmalarni rivojlantirish asnosida bo`lajak pedagoglarda mavjud vaqt makoniga nisbatan ilgarilab ketish, intuitsiyaning ilmiy manbalarga asoslangan holda rivojlanishi kuzatiladi. Mantiqan olib qarasak, bu kadrning qadr-qimmatini oshirib, unga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Davlat va jamiyat ham bunda katta manfaat egaiga aylanadi. Shunday ekan ushbu kompetensiyaning bugungi kundagi ahamiyati nafaqat bo`lajak o‘qituvchilar uchun balki yurtimizda ta’lim olayotgan barcha yosh kadrlar uchun juda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Futurologiya, futurologik kompetensiya, kompetensiya, intuitsiya, strategiya, tanqidiy fikrlash

Аннотация. В данной статье футурологическая компетентность рассматривается как инструмент, повышающий качество образования и оптимизирующий адаптацию будущих учителей к системам будущего. С этой целью в ряде регионов нашей страны изучалась деятельность будущих педагогов, обучающихся по направлению педагогика, и проводились различные экспериментальные испытания. Для этого на основе международных футурологических ассоциаций, аналитических организаций и источников научных исследований были разработаны анкеты, направленные на определение футурологических знаний, навыков и квалификации. По результатам исследований стало известно, что будущие учителя не до конца понимают важность футурологических методов, знаний и компетенций и не могут эффективно использовать их в своей работе. Футурологическая компетентность, в свою очередь, строится на основе способности педагога прогнозировать, помогает понять закономерность развития тех или иных событий в будущем, включает выполнение аналогичной последовательности действий. В состав каждой отрасли науки входят футурологические взгляды и концепции, связанные с этой наукой, и эти теории показывают будущую важность, актуальность и своеобразие науки. В ходе развития футурологических навыков у будущих педагогов наблюдается

продвижение по отношению к существующему временному пространству, развивается интуиция, основанная на научных источниках. Логично, что это повышает ценность персонала и открывает двери к широким возможностям. Обладателями большой заинтересованности в этом также становятся государство и общество. Поэтому важность этой компетенции сегодня очень важна не только для будущих учителей, но и для всех молодых кадров, обучающихся в нашей стране.

Ключевые слова: Футурология, футурологическая компетентность, компетентность, интуиция, стратегия, критическое мышление.

Abstract. In this article, futurological competence is considered as a tool that improves the quality of education and optimizes the adaptation of future teachers to the systems of the future. For this purpose, in a number of regions of our country, the activities of future teachers studying in the field of pedagogy were studied, and various experimental tests were conducted. For this purpose, questionnaires aimed at determining futurological knowledge, skills and qualifications were developed on the basis of international futurological associations, analytical organizations and sources of scientific research. According to the research results, it became known that future teachers do not fully understand the importance of futurological methods, knowledge and competencies and cannot effectively use them in their work. Futurological competence, in turn, is based on the teacher's ability to predict, helps to understand the pattern of development of certain events in the future, includes the implementation of a similar sequence of actions. Each branch of science includes futurological views and concepts associated with this science, and these theories show the future importance, relevance and originality of science. In the course of developing futurological skills, future teachers experience progress in relation to the existing time space, and develop intuition based on scientific sources. It is logical that this increases the value of personnel and opens doors to wide opportunities. The state and society are also becoming very interested in this. Therefore, the importance of this competence today is very important not only for future teachers, but also for all young personnel studying in our country.

Key words: Futurology, futurological competence, competence, intuition, strategy, critical thinking.

Kirish.

Har qanday faoliyatni amalga oshirayotganda, inson doimo uning natijasini bashorat qiladi va voqealar rivojini kutadi. Inson ongining bashorat qilish xususiyati uning psixikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. O'tmish va hozirgi zamonni taqqoslab, odamlar ob'ektiv sabab-oqibat munosabatlarini, turli hodisalarning rivojlanishini belgilovchi omillarni kashf etdilar, ular asosida kelajak haqida ma'lumot olishlari mumkin edi. Bu imkoniyat inson psixikasining shakllanishi bilan birga filogenezda ham, ijtimoiy-ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyat jarayonida ham rivojlandi. Alal-oqibat bu imkoniyat insonda ko`nikma malaka va kompetensiyalar ko`rinishida namoyon bo`la boshlaydi. Intuitiv his tuyg`ularning rivojlanib borishi insonda antisipatsiyaning yuzaga kelishiga mustahkam tayanch bo`lib hizmat qiladi. Inchunun, ushbu tushuncha futurologik kompetensiyaning fundamental nazariy va amaliy asosi bo`lib hizmat qiluvchi oldindan ko`rish, oldindan bilish, oldindan his qilish va bashorat qila olish qobiliyatini o`zida mujassam qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunchiligida ta’lim natijalari nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar orqali, balki shaxsning ta’lim jarayonida egallagan kompetensiyalari orqali aniqlanishi ta’kidlanadi. Kompetensiya - bu oliy kasbiy ta’lim mazmuni uchun ayniqsa muhim bo‘lgan, o‘quv japayonining rejalashtipilgan maqsadi, u mutaxassis uchun kasbiy faoliyat talablari va uning malakasi asosida shakllanadi.

N.M.Muslimovning ta’kidlashicha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat” demakdir, biroq “kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatini ifoda etishga xizmat qiladi”[1, B. 16]

Kompetensiyaning bir qancha turlari mavjud bo`lib, biz ilmiy tadqiqotimiz uchun asos bo`lib hizmat qiladigan futurologik va prognostik kompetensiya elementlariga batafsil to`xtalib o`tamiz.

E.V.Makarova o'quvchilarning prognostik kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy asoslari bo'yicha tadqiqotlarida metodologik asosini kontekstli, kompetentsiyaga asoslangan, tizimli, shaxsiy rivojlanish va faoliyatga asoslangan yondashuvlardan iborat ekanligini aytib o`tadi[2, C. 107-144].

Mironov prognoz qilish qobiliyatlarini shakllantirishning funktsional, boshqaruv va vazifalarga asoslangan yondashuvlarini aniqladi[3, C. 400]. Muallif talabalarda pedagogik prognozlashning mohiyati va mazmuni haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirish zarurligini qayd etadi, bu esa prognostik kompetentsiyani shakllantirish jarayonining tayyorgarlik bosqichida aks ettirilishi kerak.

Eronlik tadqiqotchilar A.Zarei va M.Gilanian[4, P. 9-30] o‘z tadqiqotlarida ingliz tilini o‘rganish kontekstida o‘quvchilarning futurologik kompetensiyasini ko‘rib chiqdilar. Tadqiqot bashorat qilish qobiliyatining chet tilini o'rganish strategiyasini tanlashga ta'sirini aniqladi. A. Zarei va M. Gilanianlarning ta'kidlashicha futurologik tahlil qilish faoliyati kognitiv va meta-kognitiv strategiyalar, shaxsiy resurslar va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan birga o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limning yaxlit jarayoni bilan muhim o'rin tutadi.

Argentinalik olimlar J. Stover, A. Xoffman va M. Liporace kollej talabalari faoliyatining futurologik modelini sinovdan o'tkazdilar, u talabalarning yuqori natijalarga erishishining 2 ta asosiy omilini o'z ichiga oldi: motivatsiya va o'quv strategiyalarini tanlash[5, P. 71-84].

Nemis tadqiqotchilari J. Konig, R. Ligtvoet, S. Klemens va M. Rotlandlar mahoratli o'qituvchilar tayyorlashni o'rganish jarayonida prognozlash qobiliyatini rivojlantirishni o'qituvchilik amaliyoti yo'lida kasbiy imkoniyatlarni oshirish vositasi deb hisoblaydilar [6, P. 122].

Tadqiqotchilar elementlarni tasniflash, o'quv va amaliy faoliyatni baholash bo'yicha dalillar keltiradi, uning tarkibiy qismlari pedagogik prognozlash bilan to'ldirilgan:

1.Darsni rejalashtirish; 2.O'quv jarayonining o'zi;

3.Nazariya va amaliy vaziyatlar o'rtasidagi bog'liqlik;

4.Taktik strategiyalarni bashorat qilish.

Shvetsiyalik olim M.Ojala o'zining ilmiy nashrlarida ta'kidlaydiki, prognostik kompetentsiyaning yuqori darajada rivojlanishi tufayli o'qituvchilar ta'lim amaliyotida unchalik barqaror bo'lmagan strategiyalarga qarshi chiqishi va ularni buzishi, muammolarni bartaraf etishning muqobil usullarini taqdim etishi mumkin [7, P. 76-84]. Masalan, o'quvchilarning materialni o'zlashtirishidagi qiyinchiliklarni hal qilishda kognitiv qayta qurish/ijobiy qayta baholash.

Natija va muhokama.

Prognoztik kompetentsiyani shaxsiy yondashuv pozitsiyasi orqali ko'rib chiqishda, pedagogik bakalavr talabasining qiymat-semantik yo'nalishi ma'noni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Hususan, bakalavr talabalarining qiziqishlari, ularning munosabatlari, motivlari va qadriyatlari bunga yaqqol misol bo`la oladi. Prognostik kompetentsiyani shakllantirishda ushbu yondashuvga tayanish bakalavriat pedagogika talabalarining o'z-o'zini

rivojlantirish jarayonini ularning intilishlari va motivlarini, mavjud kasbiy tajribasini, prognostik kompetentsiyani dastlabki o'z-o'zini baholashini va nuqtai nazarini hisobga olgan holda to'liq amalga oshirishga yordam beradi.

Bizning tadqiqotimizga kelsak, shaxsiy yondashuvdan foydalanish pedagogika yo’nalishidagi bakalavriat talabalarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq va prognostik kompetentsiyani shakllantirish uchun allaqachon mavjud ichki resurslarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Akmeologik yondashuv jarayonida asosiy rol bo'lajak o'qituvchining ko`zlangan natijaga e'tiborini qaratish hisoblanadi, shuning uchun biz o'z ishimizda pedagogika yo`nalishidagi bakalavriatlarni kasbiy o'sishni futurologik tahlil qilish, kasbiy rivojlanish istiqbollarini, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish strategiyalarini prognoz qilish ko`nikmalarini rivojlantirish uchun tayyorlaymiz.

Faoliyat yondashuvuni amalga oshirish shaxsning shakllanishi va rivojlanishining asosi sifatida faoliyatning roli haqidagi pozitsiyaga asoslanadi. Bunda faoliyat ustuvor shart va asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, u eng samarali transformatsion faoliyat sifatida talabaning shaxsiyatini, mehnat funktsiyalarini ijodiy bajarishga yo`naltiradi. Bundan tashqari, amaliy faoliyat davomida shaxsiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Faoliyat inson faolligining ustuvor turi bo'lib, faoliyat jarayonida shaxs shakllanadi va kasbiy rivojlanish jarayonining mazmuni shakllanadi. Aynan yuqoridagi yo'nalishlar, bizning fikrimizcha, prognozlashning o'ziga xos ko'rinishlari va ajralmas xususiyatini to'liq aks ettiradi.

Hulosa va tavsiyalar.

Hulosa o`rnida shuni ta’kidlashimiz lozimki futurologik kompetensiyaning bo`lajak o`qituvchilar uchun zarurati nafaqat ta’lim tizimida, balki, davlatning strategik tizimlarida ham ulkan ahamiyatga ega. YuNESKO ma’lumoti bo‘yicha: “Hozirgi vaqtda jiddiy muammo yuzaga kelgan – butun jahonda ta’lim olishni hohlovchilarning soni ta’lim muassasalaridagi ish o‘rinlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etmoqda va taxminlarga ko‘ra 2025 yilga borib dunyodagi talabalar soni 165 milliondan 198 milliongacha o‘sishi mumkin [8]Aynan shu muhitda ta’lim jarayonini loyihalashtirish jarayonida futururologik metodlar va konsepsiyalardan unumli foydalanish esa zamonaviy kadrlar uchun yuqori salohiyat ko`rsatkichi sifatida qabul qilininishiga ishonchimiz komil.21-asrda “soft skills” hamda “hard skills” deya ta’riflanayotgan fundamental ko`nikma va malakalarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko`rsatuvchi omil sifatida futurologik kompetensiya bo`lajak o`qituvchilar uchun tamal toshi sifatida hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Muslimov N.A., Upazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 b.; 16-b.
2. Макарова Е.В. Условия формирования прогностической компетенции студентов аграрных вузов / Е.В. Макарова // Вестник Челябинского государственного педагогического университет. – Челябинск: Челябинский гос.пед.ун-т,2012. - № 2. – С. 107-144.
3. Миронова М.В. Формирование прогностических умений студентов педвуза в процессе педагогической практики: дис. … канд. пед. наук: 13.00.01: Красноярск, 2001.- 400 с
4. Zarei A. A., Gilanian M. The Role of Language Learning Strategies in Predicting Meta-cognitive and Motivational Self-regulated Learning //Language Horizons. - 2017. - №. 2. - P. 9-30
5. Stover J. B. et al. Predicting academic achievement: The role of motivation and learning strategies //Problems of Psychology in the 21st Century. -2014. - №. 8. - P. 71-84.

6. König J. et al. Effects of opportunities to learn in teacher preparation on future teachers' general pedagogical knowledge: Analyzing program characteristics and outcomes //Studies in Educational Evaluation. - 2017. - № 53. - P. 122

7. Ojala M. Hope and anticipation in education for a sustainable future //Futures. - 2017. - №. 94. - P. 76-84.

8. Рекомендации по работе с открытыми образовательными ресурсами (ООР) в сфере высшего образования. – М.: Институт Юнеско по информационным технологиям в образовании, 2011. – 23 с. // URL: http://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214729.pdf

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA KINESIKANING AHAMIYATI

Nizomova Zarifa Kamoliddin qizi,
Namangan davlat universitet mustaqil izlanuvchisi
e-mail: zarifanizomova801@gmail.com

Annotatsiya.Dunyo tilshunosligida, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham nutqiy muloqotning noverbal vositalari (ovozdagi turli holatlar, ishoralar, mimika va gavda harakatlari) tadqiqi tilning turli aspektlarida amalga oshirilgan. Zamonaviy hayot realiyalari shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi dunyoning barcha jamiyatida muloqot o‘ta erkin, kutilmagan hamda til qoidalaridan yiroqligi bilan xarakterlanadi. Bunda noverbal vositalarning o‘rni har qachongidan ortgan va ular o‘z zimmalariga katta pragmatik yukni ola boshladi. Ayniqsa, ularning virtual muloqotda noverbal vositalar tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolmoqda.

Mazkur maqolada paralingvistik vositalar haqida qisqacha ma’lumot berilgan, hamda ularning o‘rganilish darajasi va ahamiyati ochib berilgan. Murojaatda noverbal shakllari ham keng tahlil qilingan. Shuningdek, lingvistik va nolingvistik aloqalar, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va qarama-qarshiliklar , ma’lum tasvirni yaratish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Muloqot jarayonida noverbal vositalarning xususiyatlar masalasi ham yoritilgan. Bundan tashqari, o‘zbeklarda aloqa-aralashuv jarayonida qadimdan tarkib topgan va ishlatib kelinayotgan muomala shakllari ham berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual muloqot, noverbal vositalar, noverbal shakl, lingvistik va nolingvistik aloqa, jestlar, imo-ishoralar.

Аннотация. В мировой лингвистике, в частности, в узбекской лингвистике, изучение невербальных средств речевого общения (различных состояний голоса, жестов, мимики и движений тела) осуществлялось в различных аспектах языка. Реалии современной жизни свидетельствуют о том, что во всем обществе современного мира общение характеризуется крайней свободой, непредсказуемостью и далекостью от языковых правил. Роль невербальных инструментов в этом возросла, чем когда-либо прежде, и они начали брать на себя большую прагматическую нагрузку. Особенно их невербальные инструменты в виртуальном общении остаются незамеченными исследователями.В процессе общения также освещается вопрос о свойствах невербальных средств. Кроме того, в процессе общения-вмешательства у узбеков давались формы обращения, которые издавна складывались и использовались.

Ключевые слова: виртуальное общение, невербальные средства,невербальная форма, лингвистическое и нелингвистическое общение, жесты, кинестетика, жесты, мимика, такесики.

Abstract. In World linguistics, in particular in Uzbek linguistics, the study of nonverbal means of speech communication (various states in the voice, gestures, facial expressions and posture movements) was carried out in different aspects of the language. The realities of modern life show that in all societies of the current world, communication is characterized by being extremely free, unexpected and far from the rules of language. In this, the role of nonverbal tools has grown more than ever, and they began to take on a huge pragmatic load. In particular, in their virtual communication, noverbal tools remain unnoticed by researchers. Mzakur's paper provides a brief overview of paralinguistic tools, and reveals the degree and significance of their study. The appeal also extensively analyzed nonverbal forms. Also discussed are linguistic and non-linguistic relations, interaction and contradictions between them , the possibility of creating a certain establishment. In the process of communication, the issue of properties of nonverbal means is also

covered. In addition, forms of treatment have also been given in Uzbeks, which have long been composed and used in the process of communication and intervention.

Key words: virtual communication, nonverbal means, nonverbal form, linguistic and non-linguistic communication, gestures, gestures.

Kirish

Til vositalariga funksional tomondan yondashish tamoyili tabiiy ravishda nutq vositalarining qamrov kengaytirishni talab qiladi. Aloqa jarayonida ekstralingvistik vositalarga nisbatan paralingvistik vositalar, ayniqsa, keng qo‘llanadi. So‘zlovchining o‘g‘zaki nutqi bilan birgalikda qo‘llanib, tinglovchilar bilan bevosita aloqa qilishda nutq mazmunini to‘ldiradigan, uning jozibadorligi, ta’sirchanligini oshiradigan imo-ishoralarning o‘zaro aloqadorligini va farqlarini tadqiq qilish maqsadida til va nutqni sistemali o‘rganish lozim bo‘lmoqda.

Ana shunday amaliy talab bilan nutqning bu yordamchi vositalarini o‘rganuvchi maxsus fan sohasi maydonga keldi. Hozirgi kunda bu fan sohasi “paralingvistika” nomi bilan tilshunoslikdan mustahkam o‘rin oldi.

Adabiyotlar tahlili

Dunyo tilshunosligida paralingvistik vositalar turli aspektlarda G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.Ye.Kreydlin, R.K.Potapova, V.V.Potapov, A.Piz, B.Piz, V.A.Pronnikov, I.D.Ladanov, C.Stepanov, S.A.Garkaves, I.Kuznesov, J.Messinjer, L.I.Dmitriyeva, L.N.Klokova, V.V.Pavlova, T.N.Pirkina, I.A.Ax’yamova, G.V.Barishnikova, M.L.Butovskaya kabi olimlar[2]ning tadqiqotlarida yoritildi.

Paralingvistik vositalarning mazmuniy va stilistik tadqiqiga bag‘ishlangan ishlardan o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova, Q.Kaxarov, X.Ismoilovlar[3]ning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning o‘rni masalasini ochib berishga, paralingvistik vositalarning madaniyatlararo xoslanishini tahlil etish hamda virtual muloqotda noverbal vositalarning madaniy me’yorlarni aniqlashga alohida ahamiyat beriladi.

Tahlillar va natijalar

Kinesika-paralingvistik vositalarning ikkinchi turi bo‘lib, u yunoncha so‘zdan olingan. U insonning muloqotida ishtirok etadigan tana harakatlarining (imo-ishoralar va mimikalar) yig‘indisini o‘rganadigan fandir. Kinesika nutq apparati harakatlaridan tashqari qo‘shimcha ekspressiv aloqa vositalarini ham bildirib tana harakatlarini ham ifodalaydi

Kin – bu inson tanasining eng kichik harakat birligi bo‘lib, uni o‘qish orqali siz imo-ishoralar va boshqa harakatlar orqali uzatiladigan xabarlarni sharhlashingiz mumkin. Inson nutqi so‘zlar, gaplar va iboralar ketma-ketligidan iborat bo‘lgani kabi inson xatti-harakati ham kinemalardan iboratdir. Kinemlardan kinemorflar hosil bo‘ladi (iboralarga o‘xshash narsa). Kinesika aloqada tartibga solish funksiyani bajaradigan vizual tarzda qabul qilinadigan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bular nafaqat yuz va tananing harakatlarini, balki kinesikaning tashqi ko'rinishi, yurishi, qo‘l yozuvi va boshqa elementlari ham fiziologik, ham ijtimoiy-madaniy kelib chiqishiga egadir.

Tana tilining, mimikaning o‘ziga xosligi shundaki, u bizning ongimiz ostidagi impulslar tufayli o‘zini namoyon qiladi. Bu esa oddiy og‘zaki tildan ko‘ra tana tiliga ko‘proq ishonish imkonini beradi. Bu borada amerikalik psixolog Artur Aron o‘z ilmiy tadqiqotida kishining kimgadir oshiq bo‘lishi-bo‘la olmasligini aniqlash mumkin degan xulosa beradi. Qizig‘i shundaki, buni o‘rtacha 90 soniyadan 4 daqiqagacha bo‘lgan vaqt ichida amallasa bo‘lar ekan. Olimning

fikricha, bizga mos keladigan odamni topish uchun bir nechta asosiy xususiyat ko‘zdan kechirilsa bas. Bu jarayonda tana “til”ning roli juda yuqori, aniqrog‘, 55%. Bu shuni anglatadiki, miya potensial juftning tana harakatlarini tahlil qiladi va undan sizda qiziqish uyg‘otadigan qandaydir javob signallarini izlaydi[8]. Insonning harakatlari uning ichki dunyosini ma’lum miqdorda yoritib beradi.

Kinesika inson xatti-harakatlarining og'zaki bo'lmagan ko'rinishlarida aks etishini o'rganadi, ular orasida:

Mimika – bu yuz ifodasi, yuz mushaklarining harakati bo'lib, unda odam o'zining ichki his-tuyg'ularini, kechinmalarini, kayfiyatini va boshqa fazilatlarini ifodalaydi. Mimikriya kuchli qo‘zg‘alish jarayonining miya yarim korteksining motor zonasiga tarqalishi bilan bog‘liq – shuning uchun uning ixtiyorsiz xarakterini o‘zida namoyon etadi. Shu bilan birga, butun simpatik asab tizimining mos keladigan qo‘zg‘alishi sodir bo'ladi[5]. Bunga ishonch hosil qilish uchun biz ushbu hodisalarni tasvirlab bergan olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilamiz.

Fiziognomiya deb nomlangan ushbu yo'nalishning asoschisi qadimgi yunon faylasufi Aristotel hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, yuz ifodalari, odamni tanib olishga yordam beradigan o‘ziga xos xususiyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tushuncha bo‘yicha u yolg‘iz emas edi.

Qadimgi yunon olimi Pifagor ham xuddi shunday mezonlarga rioya qilgan, u o‘z shogirdlarini tanlagan, faqat ularning yuzlarini ko‘rib chiqqan va shu asosda ularning qobiliyatlarini aniqlagan. Aristotelning tadqiqotining ahamiyati shundaki, u insonning tashqi xususiyatlarini uning shaxsiy fazilatlarini yaxlit tarkibiy qism sifatida tavsiflash bilan bog‘lashga harakat qildi.

O‘z davrining eng buyuk fiziognomisti, butun Yevropada katta shuhrat qozongan, shveytsariyalik ruhoniy, olim va shoir Yoxann Gaspar Lafater faoliyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Lafater to‘rt jildli asarida uni "fiziognomik parchalar" deb nomlagan va 1775-1778-yillarda nashr etgan. To‘rt jildli kitobda yuzni o‘rganish faniga yangi yondashuvlar ko‘rsatilgan. I.G.Lafaterning yozishicha,"yuzlar kitoblarga xos bo‘lganidek o‘qish uchun ham mavjud, farq shundaki, ular qisqa vaqt ichida o‘qiladi va bizni kamroq aldaydi"[4]. I.G. Lafater "odamlarni fiziognomiyadan bilish san'ati" asarida "ekspressiv harakatlarni izimlashtirishgabirinchi urinishni amalga oshirdi"[6]. Biz aniq ilmiy tadqiqotlar haqida gapiramiz, chunki ekspressiv harakatlarning amaliy qo‘llanilishi qadimgi Rim davridan berima'lum bo‘lgan. Xususan, qadimgi Rimning taniqli notiq va mutafakkiri M.T. Tsitseron o'shapaytda notiqlikda imo-ishoralarning ahamiyatini tushunib,unga shogirdlarini ham o'rgatgan[7].

Kinesikani ilmiy jihatdan o‘rganishning boshlanishining mohiyatiga ko‘ra Charlz Darvin tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, u tilning kelib chiqishi va imo-ishoralar va mimikalarning yuksalishi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasini tubdan o‘rgangan. Darvin ta'kidlaganidek, insonning yuz ifodalari hayvonot olamidan kelib chiqqan. Hayvonlar va insonlarda ko‘plab umumiy yuz ifodalari mavjud – xavotir, qo‘rquv, tashvish va boshqalar. Biroq, odamning o‘ziga xos his-tuyg‘ulari va ularning yuz ifodalari – ilhom, hayrat, hamdardlik, jo‘shqinlik holatini ifodalaydi. Ko‘pgina insoniy his-tuyg‘ularini hamda hayvonot dunyosini adaptiv ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarini ham ishlab chiqilgan. Shunday qilib, yuqori labni ko‘tarish orqali bir necha ma’no tushunish mumkin.

- Odamda nafratning namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi;
- tinglovchiga qarata labni tishlash esa aytyotgan gapini aytmaslikni bildiradi;
- so‘zlovchining suhbati eshituvchiga yoqmaganini ifodalaydi;

- labni bir marta o‘ngga (ayrim holatda chapga) silkinishi suhbatdoshini turgan joydan chiqib ketishini bildiradi.

Mimik harakatlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Tajovuzkor yuz ifodalari-g‘azab, shafqatsizlik va boshqalar;
2. Faol-mudofaa-jirkanish, nafrat;
3. Yo‘naltiruvchi-tadqiqot yo‘nalishining yuz ifodalari: passiv-mudofaa-kamtarlik, kamsitish vs boshqalar;
4. Yuz ifodalari:zavq-norozilik, masalan, quvonch yoki baxt;
5. Haqiqatni yashirishning yuz ifodasi: qayg‘u yoki ko‘ngilsizlik va boshqalar;

Ammo virtual muloqotda mimikaning eng muhim elementlaridan biri bu ko‘rinishdir. Muloqot jarayonida odamlarning qarashlarini bir-birlariga moslashtiruvchi funksiyani bajaradi. Bunday qarashlar bir maromda muayyan aloqa kanalini tashkil qiladi. Ammo alohida nutq zanjirining tugashiga taxminan bir soniya qolganda, suhbatdosh o‘z nigohini tinglovchining yuziga qaratadi, go‘yo so‘zlash navbati boshlangani haqida ma’lumot berib, o‘zi qoldirgan taassurotni baholaydi. Tinglovchi esa so'zlovchining gaplari mazmuniga o‘z munosabatini ko‘zlari bilan bildiradi – bular ma'qullash va qoralash, rozilik va kelishmovchilik, quvonch va qayg‘u, zavq va g'azab bo'lishi mumkin. Ko‘z inson tuyg'ularining butun harakatini ifodalaydi, chunki u ichki dunyosini ko‘rsatib beruvchi tana a’zosidir.

Ko‘z bilan aloqa qilish turlari bir necha ma’nolarni ifodalaydi, shulardan ko‘z qisish:

1. Qumriniso Sobiraxonga ko‘z qisib:

-O‘yin –kulgimizning boshi Bahrixonning to‘yi bo‘ladi,-dedi.

(*A.Qahhor)*

-Qizini shunday odamlarga bergan qaynonalar yog‘ yeb, sharbat ichsalar kerak,-dedi mulla Sulaymon Aniqulga ko‘z qisib.

(Sh. Rashidov)

2. Men kulib yuborgan edim, sherigim turtib, ko‘z qisdi.

(A.Qahhor)

3. Ular anchadan beri bir-biri bilan ko‘z qisishib yurar ekan.

(“O‘zbek xalq ertaklari”)

4. Qalandarov juda hijolatli bir marosimni o‘tkazayotganday qip-qizarib, iljayib, ko‘zi ko‘ziga tushgan odamga “mayli, qo‘ya ber, ahamiyati yo‘q” degan ma’noda ko‘z qisib tikka turar edi.

(A.Qahhor)

Ko‘z qisish birinchi misolda “hazil”, ikkinchi misolda “kulma” ma’nolarida, uchinchisida “kelishish”, to‘rtinchisida esa “ ahamiyati yo‘q” ma’nolarida ishlatilmoqda[1]. Yoki “yo‘q nigoh” jamlangan fikrlash demakdir.

1. Suhbatdoshning fikri qiziqtirmasa, bosh silkish yoki qo‘l harakatlari orqali ifodalash.
2. Ko‘zni yumub olish orqali bildirish;
3. Yugurib qaragan, uzoqqa yoki yaqinga qaragan. Bu kelishuv yo'qligi va ishonchsizlik belgisidir.

Endi o‘zbek, ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar va Xitoyning yuz ifodalarini ko‘rib chiqaylik.

O‘zbek va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning yuz ifodalari umumiy qabul qilingan me'yorlardan unchalik farq qilmaydigan va farq qiladigan tomonlari mavjud. Ammo e'tiborga olish kerak bo'lgan bir nechta nuanslar ham mavjud.

Amerikaliklar va ingliz tilida so'zlashuvchilar jamoat oldida juda ko'p tabassum qiladilar. Ingliz tilida so'zlashadigan dunyoda bu yaxshi niyat va xushmuomalalik namoyonidir. Bular siz suhbatdoshga zarar bermaslik va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni va'da qilasiz. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda, agar biror kishi jamoat oldida va muloqot paytida tabassum qilmasa, u qo'pollik qiladi va uni tajovuzkor odam sifatida qabul qiladi, deb ishoniladi. O‘zbek tilida tabassum doimiy tarzda emas, balki suhbat qizigan mahalda tabassum qilish yaxshidir, birdek tabassum jiddiy emasligini bildiradi.

Agar siz gapirganingizda inglizlar tez-tez ko'zlarini pirpiratsa, demak u sizni diqqat bilan tinglayapti. Shu bilan birga, odam yon tomonga qarashi mumkin, chunki ularning ko'zlariga uzoq vaqt qarash odatiy hol emas.

Agar inglizlar qoshlarini ko‘tarsalar, demak, ular har qanday g'oyaga shubha va shubhali munosabatni bildiradilar.

Xitoyda yuz ifodalari ishlab chiqilmagan va bu yillar davomida har qanday vaziyatda "yuzni saqlab qolish" istagi tufayli ishlab chiqilgan. Xitoyliklarning yuzida his-tuyg'ularning aksini ko'rish deyarli mumkin emas. Ammo ko'pchilikni hayratda qoldiradigan bir xususiyat bor. Har qanday yomon vaziyatda ular tabassum qiladilar va hatto kulishadi. O'lim haqida xabar berishda ular qayg'u ko'rsatmasliklari kerak, aksincha, ular tabassum qilishlari kerak. Ular har qanday tajovuzni ham tabassum bilan kutib olishadi. Va ularga qanchalik baland ovozda qichqirsalar, shunchalik kengroq tabassum qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar (references):

1. Нурмонов.А. Танланган асарлар III жилдлик .Іжилд . Т.2012. – С.222
2. Қахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2017. – Б.157.
3. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот ҳулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б.139.
4. Степаненко А. В. Лицо человека [Текст] / А.В. Степаненко. – М.:Знание, 1992. – 150 с.
5. Цитируется по: Мимика и жесты: Секреты общения / Авт.-сост. И. Н. Кузнецов. – Мн., 2007. – С. 32
6. Степаненко А. В. Лицо человека [Текст] / А.В. Степаненко. – М.:Знание, 1992. – 150 с.
7. Цитируется по: Мимика и жесты: Секреты общения / Авт.-сост. И. Н. Кузнецов. – Мн., 2007. – С. 32
8. https://amorebeutifulquestion.com

THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS

Toshboyeva Odinahon Elbek Qizi,
independent researcher.

Abstract: This article conducts detailed research on the linguistic basis of brand names, terminology, and genesis in world linguistics and covers its opinions comprehensively. In the countries of the world, the brand, that is, the naming of a new product or company and how important it is, also explains that their linguistic basis is important. In addition, it is dedicated to the genesis (origin) of naming a new product and its linguistic basis.

Keywords: brand, name, principle, rule, genesis, linguistic, product, design, company, structure, identity.

Аннотация: В данной статье проводится подробное исследование лингвистической основы торговых марок, терминологии и генезиса в мировой лингвистике и всесторонне освещаются ее взгляды. В странах мира бренд, то есть наименование нового продукта или компании и то, насколько оно важно, также объясняет важность их языковой основы. Кроме того, оно посвящено генезису (происхождению) наименования нового продукта и его языковой основе.

Ключевые слова: бренд, имя, принцип, правило, генезис, лингвистический, продукт, дизайн, компания, структура, идентичность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon tilshunosligida tovar belgilarining lingvistik asoslari, terminologiyasi va genezisini atroflicha o‘rganib, uning qarashlarini har tomonlama qamrab olinadi. Global brendga ega bo‘lgan mamlakatlarda, ya’ni yangi mahsulot yoki kompaniyaning nomi va u qanday ma’lum va taniqli bo‘lishida ularning lingvistik kelib chiqishini ham hisobga olgan holda yoritib beradi. Bundan tashqari, u yangi mahsulot nomining genezisi yani (kelib chiqishi) va uning lingvistik asoslariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: brend, nom, tamoyil, qoida, genezis, lingvistik, mahsulot, dizayn, kompaniya, tuzilma, o'ziga xoslik.

Introduction. In the modern era, the concept of "brand" is widely considered, and the etymology of its origin has a long history. In ancient history, "branding" began with the branding of livestock to prevent theft [3,84]. Today, branding is one of the main concepts in every industry and company's product too. A brand includes a company's strategy, differentiation from competitors, pricing policy, and unique values that are created for consumers.

"Branding" means not only a name but also style and design, which are significant when naming a company. For example, imagine that there is a red color in Brand. It can be Coca-Cola or KFC. The brand colors may be the same, but the style, as well as the way the color is used, is different. That's why both brands are very different in terms of design style. The style is the main factor that sets a brand apart from others.

The brand genesis is considered to be the direction that researches the emergence of the brand, meaning its name; at the same time, it studies how it emerges in what style and by whom, for what reasons and experiences.

Regarding brand terminology, it refers to a specific set of words used to understand issues in branding, marketing, and business. For example, the following words can be used to provide examples: branding, target audience, brand identity, brand equity, brand ambassador, and others.

The linguistic foundations of branding are based on creating a unique identity through a

brand name, logo, and other distinctive symbols that differentiate it from others. These foundations encompass various languages, words, colors, images, and symbols.

Methodology. The following article also employed classification, systematization, and word building. The researchers have found that the brand names should be both appropriately correct to spell and to understand in order to not confuse the product. Once I. Bulatovic pointed out that, aside from all of this, it's important to remember that consumers assign a brand's worth, and not just for illogical and emotional reasons. Conversely, when customers respect a brand solely because they expect a certain level of quality from it, they are acting extremely rationally [2, 1329].

Literature Review. In the world, various scholars have analyzed the concept of branding in various ways. For example, P. Feldwick emphasized the concept of giving a name to a company as the main brand concept that distinguishes it from others [5, 19]. А. Старов [6, 4] has developed the idea of a brand as a symbol that represents a product and a mark. The concept of creating a name, or brand, is analyzed by V, Y. Kojanova [2,789] as the name that represents the face of the company and should be memorable and enduring in the minds of both customers and consumers. The three factors that need to be considered when creating a brand genesis, or the emergence of a name, are:

1. The brand name should be easy to pronounce.
2. From a phonetic standpoint, the brand names should be correctly linked to each other for quick recall.
3. When creating a brand, especially when using abbreviations, it is necessary to consider other languages to avoid discomfort in pronunciation.

Meaningful names convey relevant product information and can be seen as perennial advertising, with a consistent message, for the product [3, 3].

Research and results. V.Y. Kojanova states that brands first express a set of specific expectations for stability in society and, secondly, occupy a strong position in achieving functional goals in society's favor, bringing about a general concept and a positive image [5, 11]. If the process of branding genesis, i.e., naming practice based on the above-mentioned criteria, is implemented, the said name will be quickly and actively recognized by the public, will have its place and position in the market, and will ensure service to its customers for many years to come.

If we consider the branding genesis, in many cases, the name of the brand is derived from the names and surnames of individuals or place names. For example, one of the famous electric vehicle manufacturers aiming to become world-renowned, TESLA, produces electric cars. This name is built on an anthroponym basis, chosen for electric vehicles by the renowned Austrian scientist Nikola Tesla in the field of electrotechnics. Apart from that, there are also brands named after places, one of which is AMAZON, founded by Jeff Bezos as an online bookstore, which later expanded its assortment and became one of the world's largest online retailers.

In the field of international linguistics, the term "brand terminology" refers to the collection and aggregation of specific words and phrases studied in marketing and branding. Examples of these include terms such as branding, corporate identity, slogan, logo, brand value, and more. The line above discusses the importance of brand strategy and its role in increasing and maintaining branding success. For example, one of the terms mentioned above, Logo, is a graphic symbol that represents and visually identifies a company or organization. Logos capture the symbols, symbolic elements, and iconographic images associated with a company. Logos represent the image and identity of the company, and their purpose is to promote and emphasize the branding in advertising, which is used to be recognized among customers and clients [4, 214].

One of the main concepts of branding is to produce high-quality products that can meet

high standards. An example of this is the perfumes produced under the world-famous “Chanel” brand, which has already become famous worldwide. Products manufactured by such well-known brands are considered to be of significantly higher quality and value compared to those produced under other “labels”. The reason is that the “Chanel” brand has been recognized as a trustworthy brand by its loyal customers worldwide.

According to K. Dzyuba, the emergence of brand names consists of the following structural components: 1. creating a marketing model and shaping goals. 2. conducting experiments [4, 17].

The branding has important linguistic aspects, one of them being the role of language in communication with customers, where language plays a crucial role in facilitating quick and easy interaction with customers, that is, not only how to deal with customers but also how to respond to their needs and develop mutual relationships with customers. The subject of production, for an entrepreneur, encompasses putting the name of their company on the product being manufactured. Creating a name is a complex creative linguistic process that involves a thorough understanding of the language standards by the creator, giving proper evaluation to the power of its influence, utilizing language elements in a significant and purposeful manner in product naming, and demanding the ability to create effective communicative interactions through the name [2, 11]. A brand is name, term, sign, symbol or design or a combination of theory intended to identify goods and services of one seller or group of sellers and to differentiate them of competitors [1, 20]. The table below illustrates the linguistic principles of branding, that is, naming.

Criterion	**Description**
Uniqueness	Any successful name should be humble and modest, not boastful in the market.
Attractiveness	The acceptability level of the name you chose for your target audience.
Easy pronunciation	Ensure that the name is easy for your target audience to pronounce.
Correct pronunciation	Try to pronounce the name for your target audience and see if it is as you expect (especially if the name is complex or in a foreign language).
Easy to remember	Is it easy for your target audience to remember the name and can they repeat it after a few minutes of use?
Level of brightness	How much recognition does the name you have chosen enjoy among competitors and major market players?
Market orientation	The company's product name or product names correspond to which extent to the market or product category?

Compatibility with the price category	How much does the company's product name or product names correspond to the targeted price segment?
Imagination and simile	When hearing the product name, at least three images and perceptions that can come to the forefront of the target audience's mind.

https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/kompaniya_eki_mahsulotga_nom_qanday_tanlanadi

Conclusion. In the field of linguistics, there is currently no universally accepted definition or terminology for how to name a brand and its terminology, as well as its linguistic foundations, as recognized by world linguistic scholars. In English, these concepts are variably defined based on researchers' findings and results. By analyzing the opinions of many linguists who are well-versed in various languages, it becomes evident that the naming of brands, terminology, and linguistic foundations plays a crucial role in global linguistics and how they are utilized. When it comes to brand names, they express the characteristics, qualities, history, and values of a product or service. Typically, a brand name is the name of a product or service sold by a company or corporation. This name encapsulates the company's image, objectives, and philosophy.

Brand Terminology is a collection of specialized words, where we can only see a combination of words related to marketing, branding, and business, and this combination of words is also called a specialized lexicon.

When it comes to the concept of brand genesis, branding is the primary means of identification that companies and sellers use to introduce and differentiate their products to consumers. Nowadays, brands play a very important role in distinguishing companies, services, and products from one another.

The linguistic foundations of branding enhance the connection of the brand with consumers, encapsulating related emotions and holding significant importance in shaping relationships with the company's services or products.

References:

1. Bhattacharjee H., Chowdhury S.A., Hossain M. N. Impact of Brand name on consumer preference // Journal of Business, 2012. – Pp .91-115.
2. Bulatovic, I., Škorić, S., & Jovanović, V. (2016). Branding a business name. Economics of agriculture, 63(4), 1323-1332.
3. Cole, F. C., Lee IV, R. E., Armbrister, R., Rowe, A. P., Loeffler, F., & Gunn, J. M. (1963). The Alumni Magazine of Washington and Lee University, Fall 1963.
4. Dedamirzayeva M. "Lexical – semantic characteristics of brands and principles of naming brands." Innovations in Technology and Science Education 2.8 (2023): 787-793.
5. Kohli C., Sure R. Brand names that work: A study of the effectiveness of different types of brand names // Marketing Management Journal, 2000. – Pp. 112- 120.
6. Александров Н, Н. Genesis of the brand and it is system model. Bulletin of the Nizhny Novgorod Commercial Institute, 2007. - № 12. – С. 5- 10.
7. Домнин В. Н., Старов С. А. Evolution of key concepts of brand management. Bulletin of St. Petersburg University. Management, 2017. - № 1. – С.5 – 32.
8. Старов С. А. Brand: concept, essence, evolution // Bulletin of St. Petersburg University. Management, 2008. - № .2. – Pp. 3 – 39.

XAYOLIY SARGUZASHT ADABIYOTIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR TASVIRI

Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
ilhomovadilnoza407@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sarguzasht adabiyoti utopiya va antiutopiya janrlari bilan qanday bog‘langanligi va bu ikki janrning birlashishi orqali inson hayotining murakkab jihatlarini qanday aks ettirilishi tahlil qilinadi. Maqolada Ahmad A’zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga Safar” asaridagi eko muammolar va yuqori texnologiyalarga ega bo‘lgan jamiyatning tabiat bilan aloqasini yo‘qotganligi o‘rganiladi. Antiutopiya asarlari jahon va hokimiyat tizimlari haqida tanqidiy fikr yuritishga va tabiat bilan uyg‘unlikda yashashning muhimligini anglashga undaydi va demokratiya, erkinlik va inson huquqlarining muhimligini eslatadi.

Kalit so‘zlar: sarguzasht adabiyoti, utopiya, antiutopiya, ekologik muammolar, tabiat, texnologiya, jamiyat, hukumat, erkinlik, inson huquqlari

Abstract: This article examines the relationship between adventure literature and the genres of utopia and dystopia, and how the merging of these genres reflects the complex aspects of human life. It explores the ecological problems in Ahmad A’zam’s “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga Safar” and the loss of connection with nature in a society with advanced technology. Dystopian works encourage critical reflection on global affairs and systems of power, while emphasizing the importance of living in harmony with nature and reminding us of the significance of democracy, freedom, and human rights.

Keywords: adventure literature, utopia, dystopia, environmental issues, nature, technology, society, government, freedom, human rights.

Sarguzasht adabiyotining elementlari juda ko‘p janr va turlarda o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham sarguzashtning ko‘lami juda keng. Sarguzasht adabiy yo‘nalishlar takomilida muhim o‘rin tutadi. Chunonchi, mavzu va jamiyat tasviri nuqtayi nazaridan utopiya va antiutopiya janrlarini qayd etish mumkin. Sarguzasht adabiyoti antiutopiya kontekstida jamiyat va insoniyat haqidagi chuqur fikrlarni aks ettirishi mumkin. Sarguzasht hamda utopiya va antiutopiya solishtirilganda, erkinlik - qullik, kashfiyot, tajribalar – qamoq, cheklanish kabi qarama-qarshiliklar ko‘zga tashlanadi. Ammo tadqiqot obyekti xayoliy sarguzashtlar etib belgilangani utopiya va antiutopiyalarga yaqin holatni anglatadi. Ikkala tushuncha birlashib, mukammallashib boyib boradi. Shuning uchun ham xayoliy sarguzashtlarni tadqiq etishda utopik va antiutopik jihatlarni ochib berishni muhim deb hisoblaymiz.

Antiutopiya asarlari odatda o‘zida quyidagi elementlarni birlashtiradi:

- Totalitar tizim: Bu tizim barcha jamiyat a’zolari ustidan to‘liq nazorat o‘rnatadi va ularning erkin fikrlash va harakat qilish imkoniyatlarini cheklaydi.
- Texnologiya: Antiutopiyalarda texnologiya insoniyatga xizmat qilish o‘rniga, uni nazorat qilish va qabul qilinishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarni cheklash uchun ishlatiladi.
- Ideologiya: Totalitar tizimlar o‘zlarining qat’iy ideologiyasiga ega bo‘lib, u jamiyat a’zolarini o‘zlarini o‘ylashdan va mustaqil fikr yuritishdan mahrum qiladi.
- Qahramonlar: Antiutopiya qahramonlari ko‘pincha bu tizimga qarshilik ko‘rsatadigan, o‘z erkinliklarini himoya qilishga harakat qiladigan shaxslardir.

Antiutopik romanga xos belgilardan yana biri ekologik muhitning yomonlashuvi, atrof-muhitga xavf solayotgan ekologik xavf-xatardir, shaharlarning vayron bo‘lishidir. Antiutopiya asarlari insoniyatning kelajagi haqida xavotirli tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Bu asarlar tez-tez

jamiyatdagi muammolar, hukmronlik tizimining zuhurlari va texnologiyaning insonga ta’sirini ko‘rsatishga harakat qiladi. Antiutopiyaning shakllanishi badiiy adabiyotning jamiyatdagi muhim muammolarga e’tibor qaratish, insoniyatning kelajagini xavotirga solish va tanqidiy fikr yuritishga turtki bo‘lish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bu janrning ildizlari chuqur va uning rivojlanishi bugungi kunda ham davom etmoqda. Antiutopiyaning muhim bir jihati bu tabiat bilan aloqaning yo‘qolishi va uning o‘rniga shahar landshaftlarini va sun’iy muhitni joylashishi hisoblanadi. Antiutopiyalarda tabiat ko‘pincha tahdid yoki unutish obyekti sifatida ko‘rsatiladi. Hukumat va texnologiya tabiatni boshqarishga, unga “tegishli” deb hisoblanadigan shaklga keltirishga harakat qiladi. Buning natijasida tabiat o‘zining asl go‘zalligini yo‘qotadi va insonlar tabiiy dunyo bilan aloqadan mahrum bo‘ladilar. “1984” romanida olam qahramonlarning erkinlik va tabiat bilan aloqadan mahrum qilingan dunyodir. “Yangi ajib dunyo” da esa tabiat faqat “Qari qunyo” deb ataladigan qoldiq sifatida ko‘rsatiladi, u jamiyat uchun tahdid deb hisoblanadi. Antiutopiyalardagi tabiatning bu tasviri bizga inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritadigan qiladi. Bu dunyo bilan o‘zaro aloqalarimizni qayta ko‘rib chiqishga, tabiat bilan uyg‘unlikda yashashning muhimligini anglashga undaydi. Antiutopiyalar bizga tabiatni himoya qilish, uning go‘zalligini saqlab qolish va o‘z kelajagimiz uchun mas’uliyatni o‘z zimmamizga olish kerakligini eslatadi. Antiutopiyalardagi tabiat tasviri faqat bahs mavzusi emas, balki bir xavf-xatar haqidagi ogohlantirish hamdir. Biz o‘zimizni bu xavf-xatarlardan himoya qilish uchun tabiat bilan uyg‘unlikda yashash va uni himoya qilishga harakat qilishimiz kerak. Antiutopiyaning belgisi aholining tabiatdan mahrum etilganidir. Bunda yuqori sivilizatsiyaga erishgan jamiyat tabiat bilan aloqada bo‘lmaydi. Tabiat zavolga yuz tutadi. Anglaganingizdek, bu yerda taraqqiyot tabiat kushandasi vazifasini o‘taydi. Ahmad A’zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asarida esa butkul boshqacha holga guvohi bo‘lamiz. Buning sababini bir tarafdan, davlar siyosati va idealogiyasi bilan bog‘lasak, ikkinchi tarafdan, yozuvchining o‘ziga xos mahorati deya baholaymiz. “Boshimni ilkis ko‘tarib qarasam, ustimdan patlari ko‘m-ko‘k bir jannatiy qush uchib o‘tsa – ko‘kqarg‘a! G‘aziramizning bog‘-rog‘larida ko‘p bo‘lar, tashlagan patina suvga solib ichirsa, ko‘kyo‘talga ham davo deyishar edi. Shu qushning yo‘qolib ketganiga, eh-he, juda ko‘p yillar bo‘lgan. Ko‘kyo‘tal hali ham bor, uchrab turadi, lekin tamom ko‘rinmay ketgan biz tomonlarda…” [1, B.129] G‘ulistonda yozuvchi bolaligidagi tabiat ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Qizilishton, sassiqpopishak, ko‘ktarg‘oq kabi qush detallari asarga kiritiladi. Qahramonning tafakkur olamida qiziq o‘zgarish yuz beradi. Nahotki yuksak rivojlangan davlatda tabiat shunchalar saqlanib qolsa deya hayratga tushadi? “G‘uliston qanaqa joy a? G‘uliylarni bu ahvolga solishda, ularni kuzatib turish texnikasida ancha ilgarilab ketgan bo‘lsa-da, davr ma’nosida bizdan orqada qolgan shekilli…”[1, B.130] Tabiat bosh qahramonning bolaligini eslatadi. G‘uliyot falsafaning qirralari juda ko‘p,uning bir uchini eski tuzumga ishora qilib ketgandek, go‘yo. Olma…Aksariyat antiutopik asarlarda yuqori darajadagi texnika qudratiga guvohi bo‘lamiz. G‘ulistonda ham shu holat: electron bo‘yoq, oy yorug‘ida ishlaydigan kameralar… “Tabiatni asrash borasida bizdan xiyla ilg‘or ham ekanlar. Fikrda emas, atrof-muhitni toza saqlash ma’nosida, yana ham to‘g‘rirog‘i, ularda bu narsalarning o‘zi hali ancha toza ekan” [1, B.138] Har bir amalga oshirilayotgan ish ortida hukumatning manfur rejasi yotadi. Tabiat ustidan siyosiy tuzum o‘z hukmini o‘tkazayotganini tasavvur sig‘dirish qiyin. Ammo olma daraxtining ko‘p o‘stirilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, masala yana-da oydinlashadi. Olimlar zanjirli bola tug‘ilishi ustida bosh qotirishmoqda. Mantiqsiz va ro‘yobga chiqmasligi aniq bo‘lgan masala ustida olimlarni, ya’ni ziyoli qatlamni band qilish orqali hukumat o‘z rejasini amalga oshirayapti. Amalda xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi kerak bo‘lgan ziyoli qatlam puch tajribalar o‘tkazish bilan band. Olma tarkibidagi temir moddasi go‘yoki ona organizmiga kirib bolaning zanjir bilan tug‘ilishiga yordam beradi. Tug‘ilganidan tushovlanishni tasavvurga sig‘dirish g‘oyatda qiyin. Davlat boshqaruvidagilar tabiatdan ham o‘z

maqsadlari yo‘lida oqilona foydalanyaptilar. Erkin A’zamning “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” asarida ham shunga o‘xshash holatni kuzatamiz. Aholi tabiat bilan band qilib qo‘yilgan. “Bu shaharda majnuntolning ko‘pligi! Hammayoqda shu daraxt — yo‘l-yo‘lkalar bo‘yida ham, maydonu gulzorlarda ham. Boshqa og‘och deyarli ko‘rinmaydi. Bularning tagida ham boyagidek chelagu latta ko‘targan jonsarak qizlar timirskilanib yuradi: yerga birorta barg tushmasligi kerak!” [2, B.23] Hattoki bargdagi changlar ham artib chiqiladi. Aholi o‘z qilayotgan ishidan juda xursand. Hukumatning tabiatga g‘amxo‘rligi tufayli aholining ko‘pchiligi o‘z mehnatidan rohatlanadilar. Yozuvchi ushbu holatni sobiq tuzum davridagi holatga bog‘laydi va tahlil qiladi. “Elliginchi yillarning bor hayotdan yiroq, nuqul shod-xurramlikni, kommunizm gulbog‘lariyu porloq istiqbol va nurli cho‘qqilarni tarannum etuvchi chuchmal, yaltiroq kinofilmlari, baland minbardan turib namoyishchi olomonga qo‘l silkib qo‘yayotgan mo‘ylovdor dohiy va pastda — maydonda uning ko‘nglini xushlamoq uchun o‘lib-tirilib o‘zini har ko‘yga solayotgan mehnatkash xalq ommasi yodingizdadir?” [2, B.25] Aholining ham mehnatida ulug‘ dohiyga yaxshi ko‘rinish manfaati bor.

Yuqorida “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga Safar” asarida antiutopiyaning ekologik jihatlari qanday aks etganligi tahlil qilindi. Ahmad A’zam asarida yuqori teknologiyalarga ega bo‘lgan jamiyatning tabiat bilan aloqasi yo‘qligi, tabiat resurslari hukumatning manfaati uchun qo‘llanilishi va aholi o‘zlarini tabiatdan ajratilgan holda yashayotganligi ta’kidlandi. Antiutopiyalarda tabiat bilan aloqa yo‘qotilishi insonlarning erkinligi va baxtini cheklashi mumkinligi haqidagi fikrlar ko‘rsatiladi. Shuningdek, bu asarlar tabiatni himoya qilish va barqaror rivojlanish muhimligini eslatadi. Antiutopik asarlar bizga o‘z dunyosi va hokimiyat tizimlari haqida tanqidiy fikr yuritadigan qiladi. Ular bizga demokratiya, erkinlik va inson huquqlarining muhimligini eslatadi. Shuningdek, tabiat bilan uyg‘unlikda yashash va tabiatni himoya qilish muhimligini anglashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, sarguzasht adabiyotiga utopiya va antiutopiya janrlariga qanday ta’sir ko‘rsatganligi va bu ikkala janrning birlashishi orqali inson hayotining murakkab jihatlarini ko‘rsatish imkoni mavjudligini ko‘rib chiqdik. Antiutopik asarlar bizga jamiyat va inson tabiati haqida chuqur fikr yuritish imkonini beradi, shu bilan birga o‘z erkinligimizni himoya qilish va tabiat bilan uyg‘unlikda yashash muhimligini anglashga undaydi. Maqolada “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga Safar” va “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” asarlarida ko‘tarilgan eko muammolarni tahlil qilinib, bu asarlar o‘z davrining ijodiy yondashuvini ko‘rsatish imkoni bo‘ldi. Ushbu asarlar bizga zamonaviy dunyoning rivojlanishi va tabiat bilan o‘zaro munosabatlarimiz haqida o‘ylashga undaydi. Bu maqola sizning antiutopiya janriga bo‘lgan qiziqishingizni kuchaytiradi va o‘z atrofingizda ro‘y berayotgan voqealar haqida tanqidiy fikr yuritishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’zam A. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. Yangi asr avlodi. 2010.
2. A’zam E. Chapaklar va chalpaklar mamlakati. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/476281/5b191262323e4.pdf
3. A dictionary of literary and thematic Terms. Edward Quinn. Facts on file. USA. – 2006.
4. Dystopias & Utopias: Dystopias. Miami Dade College. https://libraryguides.mdc.edu/c.php?g=957851&p=6914808

НОДАВЛАТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Қодиралиева Ижобат Бахромжон қизи
Наманган давлат университети, мустақил изланувчиси

Аннотация. Муаллиф мазкур мақолада нодавлат олий таълим муассасалари хусусида айрим мулохазаларни назарий ва амалий жихатдан тахлил этган. Шунингдек, олий таълим муассасаларини ҳуқуқий мақоми борасида бир қатор бахсли жихатлар мавжудлигини ёритиб берган.

Калит сўзлар: таълим муассасаси, нодавлат таълим муасасаси, таълим хизмати, олий таълим муассасаларининг ҳуқуқий мақоми.

Бозор муносабатлари мамлакатимизда турли мулк шаклларининг бир хилда амал қилишини таъминлаш билан бирга мулкий муносабатларнинг кенгайишига, тадбиркорлик фаолияти ривожланишига, мулкдорларнинг ўз мол-мулкларини турли воситалар орқали муомалага киритиши учун асос бўлиб хизмат қилди. Унинг ҳуқуқий заминлари ҳам яратилди. Мустақил давлатимиз фуқаролик қонун-ҳужжатлари қабул қилиниши билан жамиятимизда кўплаб янги мазмундаги фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни шаклланишига асос яратди. Бундай ҳуқуқий муносабатлар маъмурий-буйруқбозлик тизими учун ёт бўлиб, эркин бозор иқтисодиётининг кенг амал қилишини таъминлашга хизмат қилиши билан тавсифланади. Зеро, талаб ва таклиф, рақобат муносабатларининг кенгайиши, мулк шаклларининг тенглиги, мулкнинг дахлсизлиги, мулкдорлар ҳуқуқларининг давлат томонидан кафолатланиши, мулкдор ўз мулкидан ўз ҳоҳиш ва манфаатларини кўзлаб ҳаракат қилиши каби қатор ҳуқуқларнинг кафолатланиши хусусий мулкчилик ва тадбиркорлик муносабатларини ривожлантириш имкониятини яратди.

Бугунги кунда махаллий ва хорижий адабиётларда нодавлат таълим ташкилотларини айниқса олий таълим муассасаларини фаолиятини ташкил этиш ва йўлга қўйиш масалалари кенг муҳокама этилмоқда.

Маълумки дунёда хусусий олий таълим тизими фаол ривожланмоқда. Масалан, Гарвард, Стенфорд, Йель, Бостон, Принстон, Пенсильвания, Калифорния ва бошқа университетлар бунга ёрқин мисол бўла олади. Яъни, уларни битирувчиларининг меҳнат бозорида рақобатбардош эканлигидан келиб чиққан холда айтиш мумкинки хусусий таълим муассасаларига эхтиёж мавжуд.

XX асрнинг 1997 йилларидан бошлаб Ўзбекистонда нодавлат таълим ташкилотларини ташкил этиш тўғрисидаги ҳуқуқий нормалар қонун хужжатларида ўз аксини топди[1].

Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги қонунининг 15-моддасида нодавлат нотижорат ташкилотини ташкил этиш тўғрисидаги қуйидаги:

нодавлат нотижорат ташкилоти унинг муассислари (аъзолари) қарори асосида қонунчиликка мувофиқ тузилиши;

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги 29.08.1997 йилдаги 464-I-сон қонуни Мазкур қонун хужжати 24.09.2020 йилда ўз кучини йўқотган. Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2012 й., 15-сон, 164-модда; 2014 й., 50-сон, 588-модда; 2016 й., 17-сон, 173-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.09.2019 й., 03/19/566/3734-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон*).

нодавлат нотижорат ташкилотларининг уюшмалари (иттифоқлари) камида иккита нодавлат нотижорат ташкилоти ташаббуси билан тузилиши мумкинлиги;

нодавлат нотижорат ташкилотининг ташаббускорлари ёки муассислари таъсис съездини (конференциясини) ёки умумий йиғилишни чақириши, унда устав қабул қилиниши ҳамда раҳбар органлари тузилиши;

нодавлат нотижорат ташкилоти давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан эътиборан тузилган деб ҳисобланиши тўғрисида нормалар белгилаб берилган[2].

Мамлакатимизда бозор муносабатларига ўтиш муносабати билан барча соҳаларда бўлгани каби таълим сохасига ҳам бозор муносабатлари кириб келди. Бунинг асосий омилларига қуйидагилар киради:

-моддий ва номоддий ишлаб чиқариш соҳаларига бозор муносабатларининг жорий этилиши;

давлат томонидан молиялаштиришнинг камайиб бориши;

таълим ташкилотларини тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши мумкинлигини қонунчилик хужжатларида белгилаб қўйилиши ва бошқалар.

Таълим ҳар қандай мамлакатда инсон капиталини ривожлантириш орқали барқарор тараққиётни таъминлайдиган муҳим омилдир. Шу боис янгиланган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 50-моддасида давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари ривожланишини таъминлаш бўйича давлатнинг мажбуриятини белгиловчи норма мустаҳкамланди. Таълим ташкилотларини, айниқса, нодавлат ёки хусусий боғча, мактаб, университетлар ва бошқа таълим ташкилотларини ташкил этиш, фаолият юритиши ва ривожланиши учун давлатнинг доимий, ҳар томонлама қўллови муҳим ўрин тутади. Ижтимоий давлатда давлатнинг асосий функцияларидан бири аҳолининг умумий илмий ва маърифийлик даражасини оширишга қаратилади. Бунда таълим ташкилотларининг етарли бўлиши ҳамда таълим сифати муҳим аҳамиятга эга. Шу маънода давлат таълим ташкилотларини ривожланиши учун қанчалик шароит яратса, нодавлат таълим ташкилотларини ҳам ташкил этиш ва фаолият юритиши учун ундан кам бўлмаган ташкилий, ҳуқуқий шароитларни яратиш, моддий кўмак кўрсатиши шарт[3]. Шу боис хусусий таълим ташкилотларига кенг имтиёз ва преференциялар тақдим этилиб, ушбу соҳа ривожлантирилмоқда. Буни қуйидагиларда кўриш мумкин: 2016 йилда 5211 та мактабгача таълим ташкилоти фаолият юритган бўлса, бугунги кунда 6598 та давлат ҳамда 22 мингдан зиёд турли шакллардаги нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари фаолият кўрсатмоқда; 2016 йилда 9719 та умумтаълим ташкилотлари фаолият кўрсатган бўлса, ҳозирда уларнинг сони 10296 тага етди. 2016 йилда 21 та нодавлат умумтаълим ташкилотлари фаолият юритган бўлса, 2022 йилда улар 334 тага кўпайди; 2016 йилда 77 та олий таълим ташкилоти фаолият юритган бўлса, 2023 йилга келиб уларнинг сони 210 дан ошди. Бир сўз билан айтганда бугунги кунда республикамизда 70 дан ортиқ хусусий ОТМлар жумладан: Тошкент шаҳридаги Сингапур Менежментни ривожлантириш институти; Тошкент шаҳридаги Турин политехника университети; Тошкент шаҳридаги Инҳа университети; Тошкент шаҳридаги Амити университети; Тошкент шаҳридаги Вебстер университетининг таълим дастурларини амалга ошириш маркази; Қўқон

[2] Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2012 й., 15-сон, 164-модда; 2014 й., 50-сон, 588-модда; 2016 й., 17-сон, 173-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.09.2019 й., 03/19/566/3734-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон*)

[3] Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти. – Тошкент. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил. – 180 б.

университети; Фарғона шаҳридаги Корея халқаро университети; TEAM университети; Тошкент шаҳридаги Британия менежмент университети; “Tashkent International University of Education” халқаро университети; Туркиянинг Иқтисодиёт ва технологиялар университетининг Тошкент шаҳридаги филиали; “EUROPEAN MEDICAL” университети; “STARS INTERNATIONAL” университети; Маъмун номидаги жаҳон тиллари институти; “AL-FRAGANUS” университети; “CAMBRIDGE INTERNATIONAL” университети; “TMC” институти ва ҳоказолар фаолият олиб бормоқда.

Ўзбекистон қонунчилиги бугунги кунда иккита тенг ҳуқуқли ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилинадиган мулк шаклидаги давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари бўлишини назарда тутади.

Жумладан Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”[4] ги қонуннинг 3-моддасида нодавлат таълим ташкилоти - давлат таълим стандартлари, давлат таълим талаблари ва ўқув дастурларига мувофиқ таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берадиган лицензия асосида ёки хабардор қилиш тартибида таълим хизматлари кўрсатувчи юридик шахс деб белгиланган.

Бундан келиб чиққан холда айтиш мумкинки нодавлат олий таълим муассасаси бу олий маълумотли кадрларни тайёрлаш ва фойда олиш учун университет, академия, институт ёки олий мактаб каби ташкилий ҳуқуқий шакллардан бирида жисмоний шахс ёки бир гурух тадбиркорлар, шунингдек, жамоат ташкилотлари томонидан ташкил этиладиган юридик шахс хисобланади.

Бугун жаҳонда барча соҳаларда ривожланиш, такомиллашиш тенденцияси жуда юқори суръатда кечмоқда. Бу юртимиз таълим соҳасидаги жадал ислоҳотларда ҳам ўз ифодасини топмоқда. Хусусан, олий таълимни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш мақсадида Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси ва бошқа бир қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди.

Давлат ОТМларидан фарқли ўлароқ, олий таълим сохасида нодавлат секторни ривожлантиришнинг заруриятига қарамасдан бу борада хали хал этилмаган бир қатор муаммолар мавжуд. Жумладан:

1. Аҳолининг нодавлат ОТМларга нисбатан салбий муносабатда эканлиги, яъни янги ташкил этилган олий таълим муассасаларининг лицензия олиб таълим жараёнлари фаолиятини бошлагани билан изоҳланади;

2. Нодавлат олий таълим муассасаларининг таълим дастурларини давлат таълим стандартларига мос келмаслиги хавфи, яъни улар фаолиятининг асосий мақсади сифатли таълим эмас балки фойда олиш эканлиги хамда уларнинг дипломлари давлат ОТМлари томонидан бериладиган дипломлар билан рақобатлаша олмаслиги[5];

3. Таълим фаолиятини олиб бораётган нодавлат олий таълим муассасаларида асосан ижтимоий, гуманитар ва иқтисодий таълим йўналишларида кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилган бўлиб улар бугунги кунда 95 фоизни ташкил этади. Бу холат эса мамлакатимизда инжинер техник мухандисларга катта эҳтиёж мавжудлигидан далолат беришини эътироф этадиган бўлсак ижтимоий, гуманитар ва иқтисодий таълим йўналишларини битирган битирувчиларни ишга жойлаштириш масаласида муаммоларга олиб келиши мумкинлиги;

[4]Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги 2020 йил 23 сентябрдаги Қонуни. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон*)

[5]Модернизация российского образования: проблемы и перспективы / под ред. М. К. Горшкова и Ф.Э. Шереги. -М.: ЦСПиМ, 2010. 352 с.

4. Айрим нодавлат олий таълим муассасаларининг ўз биноларининг йўқлиги, улар томонидан ўқув жараёнлари масофадан туриб ёки ижарага олинган биноларда ташкил этилганлиги;

5. Нодавлат олий таълим муассасаларида асосий штатда ишламайдиган, ОТМнинг ривожланишига ўз хиссасини қўшмайдиган яъни, қўшимча даромад олиш учун ўриндошлик ёки соатбайлик асосида номигагина дарс ўтадиган қўштирноқ ичидаги сиртқи ўқитувчилар томонидан олиб борилаётганлиги;

6. Таълим фаолиятини амалга ошириш учун қонунчилик хужжатларига зид равишда ноқонуний йўллар билан лицензияни сотиб олиш амалиётнинг намоён бўлиши холатлари. Маълумки лицензия олиш ёнғин ва санитария-эпидемиология хизмати органларининг мавжуд бинолар ва хоналарнинг ёнғин хавфсизлиги талабларига ва санитария-гигиена нормаларига мувофиқлиги тўғрисидаги гувохномасидан бошлаб, педагог кадрлар ҳақида маълумот; Малака талаблари, ўқув режалар, дастурларининг электрон нусхалари; мавжуд ўқув адабиётлари рўйхати билан якунланган меъёрий-услубий хужжатларни, ўқув бинолари, ўқув ёрдамчи бинолар, талабалар турар жойларинини мавжудлиги тўғрисидаги маълумотларни тақдим этишни ўз ичига олади. Бир сўз билан айтганда бундай қоғозбозлик билан азоб чеккандан кўра лицензия олишнинг энг мақбул усулини яъни, қаловини топсанг қор ҳам ёнади қабилида иш юритиш ва кейинги 5 йил давомида ундан кейинги жараёнларни амалга ошириш учун пулни тўланг ва тинч фойда олиш билан шуғулланинг қабилида ишлаш.

Юқоридаги камчиликлар, муаммолар ва бахс талаб масалаларни бартараф этиш учун бизнинг фикримизча қуйидагиларни амалга ошириш лозим.

Биринчидан, хусусий нодавлат олий таълим муассасаларини нуфузини ошириш учун республика ва халқаро илмий-амалий конференциялар, илмий семинарлар, олимпиадалар, танловлар ва бизнес учрашувларни ташкил этиш ва ўтказиш;

Иккинчидан, ўз уставида белгилаб қўйилган мақсадларига мувофиқ таълим, маслахат, ахборот, юридик ва бошқа хизматларни кўрсатиш. Шунингдек, ўзининг эришган натижаларини ОТМнинг **VEB**-сахифаси, оммавий ахборот воситалари орқали тўлиқ ва холис акс эттирилишини таъминлаш;

Учинчидан, нодавлат олий таълимни тасодифий ёки давлат томонидан бериладиган олий таълимни альтернатив кўриниши сифатида эмас, балки мутлақо янги воқеалик сифатида жамиятда вужудга келган хаётни ўзи белгилаб берган эҳтиёж сифатида қабул қилиш;

Тўртинчидан, нодавлат олий таълим муассасаларида мустақил таълим олиш методологиясини яратиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурларини кенг жорий этиш лозим.

Маълумки, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси 41-мақсаддаги вазифалардан бири сифатида нодавлат таълим хизматлари кўрсатувчи ташкилотларга шароит ва имкониятларни кенгайтириш орқали улар улушини 2026 йилда 8 фоизга, жумладан 2022 йилда 3 фоизга ошириш белгиланган[6].

[6] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28.01.2022 йилдаги 60-сон Фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон)

49-мақсадда 2026 йилгача нодавлат олий таълим ташкилотлари сонини камида 50 тага етказиш, хусусан, 2022 йилда Навоий, Самарқанд, Сурхондарё, Қашқадарё вилоятлари ва Тошкент шаҳрида камида 1 тадан нодавлат олий таълим ташкилотини ташкил этиш вазифаси белгиланган.

Ўзбекистонда нодавлат таълим ташкилотлари учун аҳамиятли бўлган масалалар бўйича кўплаб ҳуқуқшунос олимлар у ёки бу даражада тадқиқот олиб боришган. Улар жумласига Ҳ.Р.Раҳмонқулов,[7] И.Б.Зокиров,[8] Р.Ж.Рўзиев,[9] В.Р.Топилдиев[10], Ш.Н.Рўзиназаров,[11] А.Х.Шукруллаев,[12] Ж.И.Юлдашев,[13] Ш.Т.Нуриддинова[14], К.У.Умарова[15] ва бошқа олимларни киритиш мумкин.

Айрим ҳуқуқшунос олимларнинг фикрича, Дарҳақиқат, давлат томонидан олий таълим учун жуда катта миқдордаги маблағлар, шу жумладан, моддий-техник базани мустаҳкамлаш, иш ҳақи, стипендиялар тўловлари ва ҳ.к. учун ажратилади. Нодавлат олий таълим муассасалари эса фарқли ўлароқ, талабаларга стипендия тўламаслиги туфайли тўлов-контрактдан тушган маблағларни асосан моддий-техник базани ривожлантиришга сарфлайди ва талабалар учун яратилган шарт-шароитлар давлат олий таълим муассасаларидаги шароитларга нисбатан яхшироқ бўлади. Шу боис, дунё тажрибасидан келиб чиқиб, нодавлат олий таълим муассасаларининг кенгайиши рақобат муҳити шаклланиши учун имконият яратилишига олиб келади[16].

Фикримизча, бу фикрга тўла қўшилиб бўлмайди чунки нодавлат олий таълим муассасалари хозирги кунда зиддиятли позицияни эгаллаб турибди дейиш мумкин. Чунки давлат сиёсатининг уларга таъсири кўрсатишига кўра уларнинг фаолияти икки холатда яъни, ижобий ва салбий томондан намоён бўлиши мумкин.

Биринчи холатда, давлатнинг нодавлат олий таълим муассасаларига кучли таъсири давлат учун фойдали бўлиши мумкин, чунки нодавлат ОТМлар олий таълимни олиш учун ўсиб бораётган талаб ва эҳтиёжни қондириш, фаровонлик ва турмуш даражасини ошириш муаммоларини хал этиш, давлат ғазнаси юкини камайтириш ва аҳолини олий маълумотли бўлиш имкониятини таъминлайди.

Иккинчи холатда, давлатнинг таъсири кучли бўлмаган ҳолда, нодавлат олий таълим муассасалари талабаларни ўқитиш билан эмас, балки диплом сотиш билан шуғулланадиган коррупциялашган таълим ташкилотига айланиши мумкин.

Нодавлат олий таълим муассасаларини ташкил этиш ва уларнинг амалиёти билан боғлиқ бўлган бир қатор муаммолар ҳам бор. Ушбу муаммоларнинг ҳуқуқий асослари қонунларда етарли даражада ўз ифодасини топмаган. Умуман олганда, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятида нодавлат олий таълим муассасалари тўғрисида тасаввурларни вужудга келтириш жараёни ўз ҳолига ташлаб қўйилган.

---

[7]Рахмонқулов Х.Р. Основные направления развития гражданского законодательства Республики Узбекистан. Т.: 2008. 9 с.
[8] Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. - Тошкент, ТДЮИ, 2009. - Б. 456.
[9] Рўзиев Р.Ж., Топилдиев В.Р. Fuqarolik huquqi. Ўқув қўлланма - Т.: “Cho‘lpon”, 2011. - 624 b.
[10]Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т., «Yridik adabiyotlar publish» 2022. 592 б.
[11] Рўзиназаров Ш.Н. Бозор шароитида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш тузилмаларининг фуқаролик ҳуқуқий мақоми. - Тошкент, Адолат, 1997. - Б.126.
[12] Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиниши. Юрид. фан. номз.... Дисс. - Тошкент, 2001. - Б.154.
[13] Юлдашев Ж.И.Акциядорлик жамиятлари-фуқаролик ҳуқуқининг субъекти сифатида. - Тошкент, ТДЮИ, 2004. - Б.84.
[14] Нуриддинова Ш.Т. Юридик шахсларнинг бекор бўлиш усуллари ва уларни қўллашнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари. Юрид. фан. номз. дисс... автореф. - Тошкент, 2008. - Б.9.
[15] Умарова К.У. Юридическая наука: состояние и перспективы исследований в Республике Узбекистан // Вопросы науки и образования, № 16 (28), 2018. С. 36-43.
[16] Қодиров.Б.Б. Нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш масалалари. Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. –Т., 2019 №4, 13-15 бетлар.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, нодавлат олий таълим бугунги кунда турли ижтимоий гурухларнинг эҳтиёжларини қондира оладиган давлат таълим сиёсатининг объектига айланди. Бир сўз билан айтганда нодавлат олий таълим муассасалари давлат сиёсатининг таъсирида ё фойда ёки зарар келтириши энг олий хакам бўлган вақт ўтиши билан аниқ бўлиши мумкин.

Юқоридагиларга асосланган холда нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини хар томонлама илмий ва амалий жихатдан тадқиқ этиш учун қуйидагиларни илгари суриш мумкин:

нодавлат олий таълим муассасаларининг вужудга келиши ва уларни ривожланиши босқичларини тахлил этиш;

нодавлат олий таълим муассасаларининг ҳуқуқий мақомини аниқлаш ва муассаса атамасининг мазмун моҳиятини очиб бериш;

нодавлат олий таълим муассасаларининг таъсис хужжатларини тахлил этиш;

нодавлат олий таълим муассасаларининг мулк ҳуқуқини вужудга келиши ва бекор бўлиш асосларини тахлил этиш;

нодавлат олий таълим муассасаларида кредиторларнинг талабларини қондириш муаммолари ва уларнинг ечимларини тахлил этиш;

нодавлат олий таълим муассасаларининг фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлиги масалаларини тахлил қилиш;

нодавлат олий таълим муассасаларини ҳуқуқий тартибга солишга доир фуқаролик-ҳуқуқий нормалар ҳамда ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштиришга хизмат қиладиган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги 29.08.1997 йилдаги 464-I-сон қонуни Мазкур қонун хужжати 24.09.2020 йилда ўз кучини йўқотган.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2012 й., 15-сон, 164-модда; 2014 й., 50-сон, 588-модда; 2016 й., 17-сон, 173-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.09.2019 й., 03/19/566/3734-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон*)

3. Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти. – Тошкент. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил. – 180 б.

4. Ўзбекистон Республикасининг ”Таълим тўғрисида”ги 2020 йил 23 сентябрдаги Қонуни. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон*)

5. Модернизация российского образования: проблемы и перспективы / под ред. М. К. Горшкова и Ф.Э. Шереги. -М.: ЦСПиМ, 2010. 352 с.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги 28.01.2022 йилдаги 60-сон Фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон)

7. Рахмонқулов Х.Р. Основные направления развития гражданского законодательства Республики Узбекистан. Т.:2008. 9 с.
8. Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. - Тошкент, ТДЮИ, 2009. - Б. 456.
9. Рўзиев Р.Ж., Топилдиев В.Р. Fuqarolik huquqi. Ўқув қўлланма - Т.: “Cho‘lpon”, 2011. - 624 b.
10. Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т., «Yridik adabiyotlar publish» 2022. 592 б.
11. Рўзиназаров Ш.Н. Бозор шароитида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш тузилмаларининг фуқаролик ҳуқуқий мақоми. - Тошкент, Адолат, 1997. - Б.126.
12. Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиниши. Юрид. фан. номз…. Дисс. - Тошкент, 2001. - Б.154.
13. Юлдашев Ж.И.Акциядорлик жамиятлари-фуқаролик ҳуқуқининг субъекти сифатида. - Тошкент, ТДЮИ, 2004. - Б.84.
14. Нуриддинова Ш.Т. Юридик шахсларнинг бекор бўлиш усуллари ва уларни қўллашнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари. Юрид. фан. номз. дисс... автореф. - Тошкент, 2008. - Б.9.
15. Умарова К.У. Юридическая наука: состояние и перспективы исследований в Республике Узбекистан // Вопросы науки и образования, № 16 (28), 2018. С. 36-43.
16. Қодиров.Б.Б. Нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш масалалари. Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. –Т., 2019 №4, 13-15 бетлар.

ERKİN VAHİDOVUN “RUHLARIN ÜSYANI”ƏSƏRİNİN MƏNƏVİ-PSİXOLOJİ XARAKTERİ

Atilla Nazim oglu SÜLEYMANLI
Özbəkistan Respublikası, Termez Dövlət Universitetinin
Ədəbiyyat(Özbək ədəbiyyatşünaslığı) fakültəsinin
II kurs magistri, Bakı,
atillanazim@mail.ru,
ORCİD İD: 0009-0005-7230-5123

Xülasə

Özbəkistanın tanınmış şairi və yazıçısı Erkin Vahidovun yaradıcılığı mövzu və məzmun, janr müxtəlifliyi ilə milli ədəbiyyatın, eləcə də türk xalqları ədəbiyyatında dərin iz buraxmış və şöhrət qazanmışdır. Onun "Ruhların üsyanı" əsəri özbək ədəbiyyatının mühüm nümunələrindən biri kimi qəbul edilir və əsərdəki fəlsəfi-psixoloji məzmunu ilə geniş əks-səda doğurmuşdur. Bu əsər, insan ruhunun daxili mübarizələri və cəmiyyətlə qarşı-qarşıya qalma motivlərini dərin fəlsəfi təhlillərlə birgə təqdim edir. Benqal inqilabçı şairi Nərzul İslamın fədakarlıqlarla dolu həyatından bəhs edən “Ruhların üsyanı” dastanı, əslində 1937-ci il repressiyasının acı nəticələrini – imperialistlərin milli qətliamını unutmayan, qan yaddaşında göyərdən şairin öz milli azadlıq, həqiqət və haqq prinsiplərinin əks-sədasıdır.

Əsər ümumilikdə giriş, “Əbədiyyat haqqında rəvayət”dən, beş fəsil (hər fəsildə iki-üç bölmə və hekayətlər) və nəticədən ibarətdir: hər bir fəsil fərqli – əbədiyyat, şair qəlbi, üsyan, fədakarlıq, əsarət, istibdad, azadlıq, şah ata və şah oğlu, zahidlik və aristokratiya, ali ruhlar kimi mövzuları, fəlsəfi-ictimai problemləri ayrı-ayrı fəsillərdə araşdırılır, lakin hamısı insan ruhunun mübarizəsi ilə birləşir. Erkin Vahidov bu fəsillər vasitəsilə fərqli hekayətlər quraraq insanın mənəvi dünyasını, öz dəyərləri və arzularına sadiq qalaraq sosial təzyiqlərə qarşı göstərdiyi müqaviməti ön plana çıxarır. Bu mövzular zaman, ideya, tale baxımından bir-birindən uzaq olsa da, müəllif onların hamısını bir məqamda öz düşüncə tərzi ilə bağlayır: tiranlığa dözməyən, azadlığı hər şeydən uca tutan üsyankar ruhu güzgümüzdə təcəssüm etdirir.

Təqdim olunan məqalədə əsərin geniş təhlil edilmişdir.

Açar sözlər:Erkin Vahidov, "Ruhların üsyanı", mənəvi azadlıq, xalq azadlığı, Benqal şairi, Nəzrul İslam, Hindistan, hikmətli hekayətlər

SPIRITUAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTER OF THE WORK “REBELLION OF SPIRITS” BY ERKIN VOHIDOV

Abstract

The creativity of Erkin Vohidov, well-known writer and poet of Uzbekistan left a deep mark and gained fame in national literature, as well as in literature of Turkic people by a variety of topics and content. His work “Rebellion of Spirits” is considered one of the important examples of Uzbek literature and became widespread due to its philosophical and psychological content in the work. This work presents the inner struggles of the human soul and the motivations to face society with deep philosophical analysis. The work “Rebellion of Spirits” based on a life full of sacrifices of Bengali revolutionary poet, Nazrul Islam, is an echo of national principles of freedom, truth and justice of the poet, who did not forget the bitter consequences of the repression of 1937 – the national massacre of the imperialists.

The work generally consists of introduction “Narrative on Eternity”, five chapters (two or three sections in every chapter and stories) and conclusion: the subjects such as eternity, poet's

heart, rebellion, sacrifice, slavery, tyranny, freedom, royal father and royal son, asceticism and aristocracy, supreme spirits, as well as philosophical and social issues are studied in separate chapters, but they are all united by the struggle of the human spirit. ErkinVohidov wrote different stories through these chapters, and gave his spiritual world and resistance to social pressures prominence by adhering to his values and dreams. Even though these subjects are different from each other in terms of time, ideas and destiny, the author links them all together with his way of thinking: he embodies a rebellious spirit that does not tolerate oppression and values freedom above all else.

In the presented article the study is analyzed comprehensively.

Keywords: Erkin Vahidov, "Rebellion of the Souls", spiritual freedom, people's freedom, Bengali poet, Nazrul Islam, India, wise stories

ДУХОВНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ХАРАКТЕР ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ВОССТАНИЕ ДУХОВ» ЭРКИНА ВОХИДОВА

Резюме

Творчество известного писателя и поэта Узбекистана Эркина Вохидова оставило глубокий след и снискало известность в национальной литературе, а также в литературе тюркских народов разнообразием тем и содержания. Его произведение «Восстание духов» считается одним из важных образцов узбекской литературы и получило широкое распространение благодаря своему философскому и психологическому содержанию в произведении. В этом произведении представлены внутренние борения человеческой души и побуждения к противостоянию обществу с глубоким философским анализом. Произведение «Восстание духов», основанное на жизни, полной жертв, бенгальского революционного поэта Назрула Ислама, является отголоском национальных принципов свободы, правды и справедливости поэта, который не забыл горькие последствия репрессий 1937 года – национальную резню империалистов.

Работа в целом состоит из введения «Повествование о вечности», пяти глав (по два-три раздела в каждой главе и рассказах) и заключения: такие темы, как вечность, сердце поэта, бунт, жертвоприношение, рабство, тирания, свобода, царственный отец и царственный сын, аскетизм и аристократия, высшие духи, а также философские и социальные вопросы изучаются в отдельных главах, но все они объединены борьбой человеческого духа. Эркин Вохидов написал разные истории в этих главах и выделил свой духовный мир и сопротивление социальному давлению, придерживаясь своих ценностей и мечтаний. Несмотря на то, что эти темы отличаются друг от друга с точки зрения времени, идей и судьбы, автор связывает их все вместе своим образом мышления: он воплощает мятежный дух, который не терпит угнетения и ценит свободу превыше всего.

В представленной статье исследование анализируется всесторонне.

Ключевые слова: Эркин Вахидов, «Восстание душ», духовная свобода, свобода народа, бенгальский поэт, Назрул Ислам, Индия, мудрые истории.

Özbəkistanın tanınmış şairi və yazıçısı Erkin Vahidovun yaradıcılığı mövzu və məzmun, janr müxtəlifliyi ilə milli ədəbiyyatın, eləcə də türk xalqları ədəbiyyatında dərin iz buraxmış və müəllifinə böyük şöhrət qazandırmışdır. Şairin "Ruhların üsyanı" [4] poeması özbək ədəbiyyatının klassik nümunələrindən biri kimi qəbul edilir və geniş əks-səda doğurmuşdur. Bu əsər, insan ruhunun daxili mübarizələri və cəmiyyətlə qarşı-qarşıya qalma motivlərini dərin fəlsəfi təhlillərlə birgə təqdim edir. Benqal inqilabçı şairi Nərzul İslamın fədakar¬lıq¬larla dolu

həyatından bəhs edən “Ruhların üsyanı” dastanı, əslin¬də 1937-ci il repressiyasının acı nəticə¬lərini – imperialist¬lərin milli qətliamını unutmayan, qan yaddaşında göyərdən şairin öz milli mənəvi azadlıq, həqiqət və haqq üsyanının əks-səsidir. 1978-1979-cu illərdə qələmə alınmış, nəhayətdə 1979-cu il martın 20-də Hindistanın Dehli şəhərində yazıb bitirmişdir. Şair eposun yaranması haqqında belə yazır: “Böyük Benqal şairi Nəzrul İslamın həyatından bəhs edən bu dastanı sizə təqdim edirəm. Nəzrul İslam üsyankar şeirləri ilə bütün Hindistan yarımadasını silkələyən bir şair idi. Onun qəhrəmancasına çağırışı xalqı birliyə, dini inanclar toqquşmasından xilas olmağa, zalım müstəmləkəçiliyə qarşı mübarizəyə səsləyirdi. Şairin adı bütün Hindistanda üsyan simvoluna çevrildi. Rabindranat Taqor onun istedadını yüksək qiymətləndirərək onu ölkəsinin və zamanının ən alovlu şairi adlandırıb. Nəzrul İslam xalqının milli azadlığı üçün canını əsirgəmədi. O, şeiri ilə, sözü ilə, nəşr etdirdiyi jurnalla azadlıq uğrunda mübarizə aparıb. Amma aramsız təzyiqlər, həbslər və işgəncələr sonda öz bəhrəsini verdi. Şair hələ otuz beş yaşı olmadan, yaradıcılığının qaynadığı bir vaxtda ağlını itirmişdi. Nəzrul İslam təxminən yetmiş beş il yaşadı. Bu müddət ərzində Hindistanda çox şey dəyişdi. Qandi və Nehru kimi şəxsiyyətlərin mübarizəsi, Taqor və Nəzrul kimi şair və yazıçıların mübarizəsi, səbr dolu xalqın nifrəti müstəmləkəçiləri Hindistandan qovdu. Qırx il onu tərk edən ağlı – şüiri bir an belə qayıtmadı, Nəzrul İslam bir an belə azadlığın dadını duya bilmədi. Xalq öz şairini son ana qədər hörmətlə qarşıladı, nurlu, sakit, şüuru itmiş və ruhsuz bədənini təvaf etdi. “Ruhların üsyanı” Nazrul İslamın məhz bu faciəli taleyindən bəhs edir. Ümumiyyətlə, şeir, insanlıq, fədakarlıq haqqında...” [5, s.5-6] bir poetik hekayətdir. Poema öz üsyankar şeirləri ilə bütün Hindistanı azadlıq uğrunda mübarizəyə ruhlandıran “alovlu benqal şairinin arzularından, mərdliyindən və faciəli taleyindən bəhs etsə də, orada şair ömrünü bəhanə edərək, ümumən özbək poeziyamdan, insanlığımdan, fədakarlığımdan, insan təşnəsinin zaman və insanlarla mürəkkəb münasibətindən yazıram. yaradıcı insanlarla yanaşı, insan hə¬ya¬tının mə¬na¬sı, həyatın qəddar və ədalətli həqiqə¬ti haqqında öz fikirlərimi oxucu ilə bölüşməyə çalışdım” [1].

Yenə də sətiraltı anlamlar, yenə də öz dərdini baş¬qa¬sı¬nın dərdi kimi yazmaq... Tarix boyu ideoloji basqı¬da olan qələm əhlinin taleyi budur.

Şair, Nərzul İslamın aşağıdakı misralarını –

Tuğilqansan ozod, mudom,
Ozod bulib ol! (Nazrul İslam) [5, s.7]

– misralarını əsərinə epiqraf kimi qeyd etməsindən də anlaşılır ki, əsərdə bir şairin ya bütöv tərcümeyi-halı, ya da onun keçirdiyi psixoloji-mənəvi dünyası vərəqlənir. Əslində bu əsər ilk növbədə, insanın daxili dünyasını, onun hiss və düşüncələrinin toqquşmalarını araşdırır. Erkin Vahidov bu əsərində insan ruhunun azadlıq uğrunda mübarizəsini, mənəvi və siyasi təzyiqlər altında məhv olmamaq üçün göstərdiyi duyğularını – fəlsəfi düşüncələrini təsvir edir. Əsər həm də cəmiyyətin sərt qaydaları və fərdin şəxsi azadlığı arasındakı ziddiyyətləri diqqətə çatdırır.

Bu dünyanın
Sevinci azdır,
Dərdi-qəmi – daha çox,
Ancaq kədərdən də qaçmayın
Çarəsi çox dünyada.
Kimin könül həmdəmi varsa,
Dərdini ona söylər.
Yalqızların dərdi-kədəri
Qəlbinindərinliyinə çökər.
Sakit gecəni kim xilas etdi

Bu, şairin qəlbini əzən
İstibdadın dərdidir.
... Əbədiyyat
Cəhənnəm Atəşində yanmaq varki! [5, s.7-8]

“Ruhların üsyanı” ümumilikdə giriş, ardınca “Əbədiyyat haqqında rəvayət” [5, s.11-19]dən, beş fəsil (hər fəsildə iki-üç bölmə və hekayət) və nəticədən iba¬rətdir: I fəsildə “Şair qəlbi”, “Üsyan nəğməsi” və “Fədailik haqqında rəvayət”, II fəsildə “Üsyan” və “Cəhalət haqqında rəvayət”, III fəsildə “Əsirlikdə” və “Şah Cahan və Övranqzeb haqqında rəvayət”, IV fəsildə “Ali ruhlar haqqında nağıl”, V fəsildə “Azadlıq” və “Zahidlər və ariflər haqqında hekayət” və nəticədən ibarətdir. Fəsillərin adlarından da göründüyü kimi, hər bir problem fərqli – əbədiyyat, şair qəlbi, üsyan, fədakarlıq, əsarət, istibdad, azadlıq, şah ata və şah oğlu, zahidlik və ariflik, ali ruhlar kimi mövzuları, fəlsəfi-ictimai problemləri ayrı-ayrı fəsillərdə araşdırılır, lakin hamısı insan ruhunun mübarizəsi ilə birləşir. Erkin Vahidov bu fəsillər vasitəsilə fərqli hekayətlər quraraq insanın mənəvi dünyasını, öz dəyərləri və arzularına sadiq qalaraq sosial təzyiqlərə qarşı göstərdiyi müqaviməti ön plana çıxarır. Bu mövzular zaman, ideya, tale baxımından bir-birindən uzaq olsa da, müəllif onların hamısını bir məqamda öz düşüncə tərzi ilə bağlayır: tiranlığa dözməyən, azadlığı hər şeydən uca tutan üsyankar ruhunu təcəssüm etdirir .

Bu qəlb –
Ömrün uzun olsa – nə gözəl,
Əgər qısadırsa, – şükr et! [5, s.18]

Hekayətlərdə müxtəlif məcazlar, həmçinin şairin təsvir etdiyi hadisələr arasında simvolik əlaqələr mövcuddur. Məsələn, əsərdə xalqın mənəvi azadlıq axtarışı, psixoloji ziddiyyətlər və insanların gündəlik həyatdakı qarşılaşdığı çətinliklər kimi mövzular dərin fəlsəfi və ədəbi dillə təsvir olunub. Bu hekayətlər, həm fərdin daxili mübarizələrini, həm də cəmiyyətin sərt reallıqları ilə üzləşməsini əks etdirir.

Diqqəti cəlb edən məqamlardan biri də odur ki, hər fəsildə qoyulan problemə uyğun bir rəvayət və ya nağıl yazmaq, – Əlişir Nəvainin “Lisanut-teyr” [6, s.5-288; 2, s.330-400; 3] təsəvvüfi əsərində olduğu kimi, – şairin klassik ədəbiyyata dərin bələdçiliyindən irəli gəlir. Yeri gəlmişkən, Erkin Vahidov haqqında xatirələrdən öyrənirik ki, şair Əlişir Nəvainin bir nəfəsə onlarla qəzəlini əzbərdən deyərmiş.

Erkin Vahidov "Ruhların üsyanı" əsərində zəngin, obrazlı və poetik bir dil istifadə edir. Onun üslubu dərin məna və simvollarla zəngindir, bu da əsərin fəlsəfi və emosional dərinliyini daha da artırır. Şairin incə obrazlar yaratmaq qabiliyyəti və dillə oynama bacarığı əsərin estetik dəyərini artırır və oxucunu düşünməyə vadar edir.

Əsərin fəlsəfi təhlili onu göstərir ki, poemada ruhun azadlıq axtarışı dərin mənaya malikdir. O, insanın varolma suallarını araşdırır: Nə üçün insan ruhu azadlıq istəyir? Azadlıq əldə etmək üçün nələri qurban vermək lazımdır? Bu suallar əsərin əsas mövzularından biridir. Erkin Vahidov ruhun azadlığını yalnız fiziki və siyasi azadlıqla məhdudlaşdırmır, həm də mənəvi azadlıq kimi qiymətləndirir. Bu mənada, “Ruhların üsyanı” həm cəmiyyətin təzyiqlərinə qarşı çıxış, həm də insanın öz mənəvi dəyərlərini tapmaq və onlara uyğun yaşamaq üçün göstərdiyi cəhddir. Əsərdə insan ruhu yalnız sosial təzyiqlərə deyil, həm də mənəvi zəifliklərə qarşı çıxır. Bu, insanın öz vicdanı və mənəvi dəyərləri ilə toqquşmasına gətirib çıxarır. Bu üsyan sadəcə cəmiyyətdən gələn xarici basqılara qarşı deyil, həm də insanın öz daxili məhdudiyyətlərinə, qorxularına və təcrübələrinə qarşı mübarizəsi kimi təqdim olunur.

“Ruhların üsyanı” poemasının qısa təsviri – “lirik mən”in poetik təqdimatı belədir:

I.“Şair qəlbi” [5, s.21-30], “Üsyan nəğməsi” [5, s.30-36] – Nəzrul İslam hind xalqının zərdabını içərdi. Nəzrul İslam qəlbini bayraq kimi qaldırdı. Üsyan atəşi son ana qədər ürəyində sönmədi. Nəzrul İslam bu dünyaya şair kimi doğuldu. Körpə qəlbi ilham adlı saf müdrikliklə yoğruldu. Onun baxışlarından Varlığa Sehrli İşıq saçılır. O, kainata heyran gözü ilə baxdı. Doğuluşdan yanan ilham şöləsinə bələndi. Zaman yeddi əsr əvvəlki kimi olsaydı, bəlkə dastanlar Xosrov Dəhləvi kimi bitərdi. Şair yarım min il əvvəl dünyaya gəlsəydi, rübailər də Mirzə Babur kimi bitərdi. Əgər neçə-neçə Zaman ötüb bu dövrlər gəlməsəydi, Bədilyana qəzəllə bitib Divan bağlardı, amma indi fürsət də fərqlidir, el dərdi də başqadır.

Üsyan haqqında söylənən bu nəğmənin ardınca fəlsəfi yüklü “Fədailik haqqında bir rəvayət” [5, s.37-43] söyləndi.

II. “Üsyan” [5, s.45-58] – Kəlküttə, 1926. Kəlküttə uğuldayırdı, izdiham başını qaldırdı. Mən şairin sözünü izah etməmişəm. O odlu nəfəsə bərabər söz tapa bilmədim. Tərcümə nədir? Əsil şeirin mənası onun qayəsindədir. Amma Od ol, Ol Sehrin kölgəsidir. Nəzrul İslam Benqalda birdən məşhurlaşdı. Hindistan bu yanan fəryadına qulaq asdı.Nəzrul İslamı tanıtma hekayətinin davamında “Cəhalət boyunca rəvayət”i [5, s.59-71] oxuyuruq.

III. “Əsirlikdə” [5, s.73-88] – adlanan bu fəsildə şairin fikirlərini qısaca yazsaq – “Ana canım, bu gün mənim səndən özgə qəlbdaşım yoxdur. Bilmirəm, niyə, Mənim zərrə qədər günahım yoxdur. Nə Allahım qarşısında, nə də vicdanım qarşısında günahkaram. Yalnız... Bir günahım varsa, o da Anamın qarşısındadır. Bağışla, ana! Şairin bir taleyi var, yəni şair ölmür.

Bu fəslin fəlsəfi və tarixi yükü “Şah Cahan və Övrəngzib (Aləmgir) haqqında” [5, s.89-108] söylənmiş bir rəvayətlə sonuclanır.

IV. “Kabuslar” [5, s.110-116] – adlı fəslində “Ali ruhlara aid nağıl”ı [5, s.117-121] oxucusuna təqdim edir: “Uşaqlıqda eşitdiyim çoxlu nağıllardan – birini xəyalımdan, ürəyimdəm çıxara bilməmişəm: ölənlərin ruhu həmişə səmada uçur. Biz onları görməsək də, onlar bizi görürlər, yaxşı iş görsək, şad olarmışlar. Yaman iş görsək, nalə edərmişlər. Dost, qohum-qardaş ruhu – adi ruh imiş. Lakin dahilərin, uluların Ruhu – Ali ruh imiş. Onlar öz dərgahlarından bizləri tapıb, çox işləri daima qəlbimizə, könlümüzə salarmışlar...” [5, s.117-121].

V. “Azadlıq” [5, s.123-128] – adlı fəslində şair yazır: “Nəzrul İslam adı Bayraq olub, El qəlbində yüksəldi. Onun zindandan yalnız cismi götürüldü. Nəzrul İslam azad oldu. El qanadına çevrildi. Ruhu gənc, narahat, canlı simasından – şairdən ayrıldı. Nəzrul İslam şeiri bütün Hindistanda səslənirdi. Ruhu isə göylərdə dolaşırdı.” Davamında isə “Zahidlər və ariflər haqqında hekayət”lə [5, s.129-133] fikrinin fəlsəfəsini açıqlayır: “Bu, rəvayətçilərin söylədiyi min illik hekayətdir. Zahidlər dedilər ki, tərkidünya səadətdir. Onlar sağ ikən ölüm şərabını daddılar. Bu dünyadan ayrılıb Gora girdilər.”

Əsərin nəticə hissəsində şairin poetik yekunu: “Nəzrul İslamın ruhu bütün dünyada gəzir. İlham anında şair könlü Yerdən Göy dağına yüksəlir. Nəzrul İslam Ruhi o zaman məndən hesab sorur. Mənə deyir ki, sən şairsən? Öz xalqına fədai olmağa hazırsanmı? Deyir ki: “Şairlik ürəkdə qandır. Mən sənə arzulamıram, oğlan. Səni arzulamıram, sağ qalana qədər oyaq qal. İlham əzab versin sənə, şeir dərdinə səbr et. Mən sənin qədərini dünya ləzzətində istəmədim. Mən öz taleyimi sənin kimi görmürəm. “Ehtiyatlı ol”. Ürək atəşiniz sönməsin". Bu fəslin fəslsəfi yükü odur ki, tarixini, ululərını, övliyalarını tanı, onları oxu, öyrən, yararlan. Dünyanın hər işıqlı yolunun açarı onların fəlsəfəsindədir” [5, s.135-141].

Erkin Vahidov "Ruhların üsyanı" əsərində zəngin, obrazlı və poetik bir dil istifadə edir. Onun üslubu dərin məna və simvollarla zəngindir, bu da əsərin fəlsəfi və emosional dərinliyini daha da artırır. Şairin incə obrazlar yaratmaq qabiliyyəti və poetik oynama bacarığı əsərin estetik dəyərini artırır və oxucunu düşünməyə vadar edir.

Benqal şairi Nazrul İslamın timsalında “Lirik mən”in azadlıq üsyanını dinlədikcə, Erkin Vahidov haqqında Azərbaycanda ilk dəfə məqalə yazan, onun şeirlərini tərcümə edən, xalq şairi Xəlil Rza Ulutürkün [7, s.368-374] –

Azadlığı istəmirəm zərrə-zərrə, qram-qram!
Qolumdakı zəncirləri qıram gərək, qıram, qıram!
Azadlığı istəmirəm bir həb gibi, dərman gibi
İstəyirəm Səma gibi, Günəş gibi,Cahan gibi!
Çəkil, çəkil, ey qəsbkar,
Mən bu əsrin gur səsiyəm!
Gərək deyil sısqa bulaq,
Mən ümmanlar təşnəsiyəm!!!
– haray-üsyanına dinşək kəsildim.

Nəticə: "Ruhların üsyanı" əsəri Erkin Vahidovun yaradıcılığında xüsusi yer tutan, insan ruhunun azadlıq uğrunda mübarizəsini təsvir edən dərin fəlsəfi və ədəbi əsərdir. Bu əsər, sadəcə özbək ədəbiyyatında deyil, dünya ədəbiyyatında da fərdin azadlığı, cəmiyyətlə toqquşmalar və mənəvi dəyərlərin əhəmiyyəti kimi universal mövzuları əks etdirən əsərlər arasında yerini almışdır. Erkin Vahidov bu əsəri ilə oxucularını insan ruhunun mürəkkəbliyi və gücü barədə düşünməyə vadar edir, cəmiyyət və fərd arasındakı incə tarazlığı yenidən qiymətləndirməyə dəvət edir. Əsər yazıldığı dövrdəki siyasi və ictimai şəraiti sətiraltı ifadələrlə əks etdirən, eyni zamanda insan ruhunun azadlıq və mənəvi dəyərlər uğrunda mübarizəsini təsvir edən önəmli bir əsərdir.

Ədəbiyyat:

1. Meliboev, Axmadjon. Erkin Voxidovun imzosi. II nashr. – Toşkent, “Adabiyot nashriyoti” MCHJ, 158 b.
2. Ülvi (Binnətova), Almaz. Əlişir Nəvai¬nin əsri və nəsri (elmi-filoloji və dini-təsəvvüf əsərləri (mono¬qra¬fi¬ya) // elmi redaktor və ön söz müəllifləri: ak.İsa Həbibbəyli və prof.Şöhrət Siracəd¬di¬nov (Özbəkistan), məsul katib Şəhla Məcidova – Bakı, “Elm və Təhsil”, 2023. – 582 s.;
3. Ülvi (Binnətova), Almaz. Əlişir Nəvainin təsəvvüfi görüşləri ("Lisan ut-teyr" əsəri əsasında)" // T.C. Atatürk Universitetində keçirilən "Təsəvvüf və ədə¬biyyat" adlı beynəlxalq simpozium materialları. – Türkiyə: 26-27 oktyabr 2021.
4. Эркин Воҳидов. Сайланма. Иккинчи Жилд. Шеър дунёси. – Тошкент, «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001, 249 бет.
5. Воҳидов, Эркин. Р’уҳлар исёни: Достон. Кириш сўзи Э. Вохидовники.— Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, б.5-6 (144 б.) (Оташин бенгал шоири Назрул Ислом хакида) // www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Навоий, Алишер. Лисон ут-тайр // Тўла асарлар тўпла¬ми, 10 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент, Ғафур Ғулом ном. нашриет-матбаа ижодий уйи, 2011. – бет. 768; (5-288бет.)
7. Ulutürk, Xəlil Rza. Turan çələngi. (Türk dünyasının poetik nümunələrindən tərcümələr) // kitabında. – Bakı, 2005, 875 səh.
8. Vahidov, Erkin. Söz lətafəti // Özbəkcədən Azərbay¬can¬ca¬n dilinə uyğunlaşdıran, elmi redaktor və ön söz müəllifi: Almaz Ülvi Bin¬nə¬¬¬tova, redaktor Şəhla Məcidova. – Bakı, Elm və Təhsil, 2024, 166 s.

RAHBAR FAOLIYATINING SPESIFIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shamsiddinova Sadoqatxon G‘opporjon qizi
Qo‘qon universiteti Ta‘lim muassasalari boshqaruvi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbarning spesifik xususiyatlari, boshqaruv psixologiyasining dolzarbligi, muammolari, bolalar psixologiyasi va iqtisodiy psixologiyalarning pedagogikpsixologik jihatlari yoritilgan.Boshqaruv psixologiyasi – psixologiya fanidagi boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o`rganuvchi soha.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, rahbar, boshqaruv sifatlari, rahbarning liderlik xususiyatlari.

Аннотация: В данной статье освещаются актуальность, проблемы психологии управления, педагогические и психологические аспекты детской психологии и экономической психологии.

Ключевые слова: менеджмент, лидер, управленческие качества, лидерские качества лидера.

Abstract: This article highlights the relevance, problems of management psychology, pedagogical and psychological aspects of child psychology and economic psychology.

Key words: management, leader, management qualities, leader's leadership qualities.

Kirish

Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo‘ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ... Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Barcha bo‘g‘indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo‘ladimi, idora yoki tashkilot boshlig‘i bo‘ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o‘rnak va namuna bo‘lishi zarur”. Boshqaruv psixologiyasi vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv sub’yekti va ob’yekti o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etadi. Mazkur munosabatda tizimning tashkiliy qismi itoatliylik tushunchasi bilan xarakterlanadi. Boshqaruv psixologiyasi ichida amal qiluvchi itoat tamoyili boshqaruv psixologiyasi fanida subordinatsiya deb ataladi. Ushbu ibora orqali tizimning markazlashganligi nazarda tutiladi. Subardinatsiya tushunchasidan kelib chiquvchi 100 munosabatlar tashkilot xodimlari, ishchilar xulqida itoat va ijro etish shakllari nazarda tutiladi. Boshqaruv psixologiyasi fanidagi asosiy tushunchalardan biri, boshqaruv sub’yekti va ob’yekti bo‘lsa. Biz bevosita ko‘z oldimizga o‘sha jarayonni keltirsak, boshqaruv sub’yekti sifatida o‘qtuvchilarni, ob’yekt sifatida esa talabalar faoliyatini nazarda tutishimiz mumkin. Raxbarning kasbiy mahorati, o‘z-o‘zini boshqarish malakalarini egallashi, xodim hamda ishchilar boshqaruvidagi asosiy mavzulardan biriga aylanadi.

Muhokama va natijalar

Boshqaruv psixologiyasi tushunchasi nafaqat tashkilot va korxonalarda balkim yuqorida takidlanganidek bir qancha faoliyat jarayonlarida mavjud ekanligini biz inkor eta olmaymiz. Bunda ko‘rinib turibdiki boshqaruv psixologiyasi tushinchachi faqatgina raxbar hamda xodimlar faoliyada emas aksincha, bu tushuncha juda ko‘palab faoliyatlarda mavjuddir. Boshqaruvni jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog‘lab, shu bilan birga boshqaruvning ikki tashkiliy-texnikaviy

va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o‘rganish lozim. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv aniq iste’mol qiymatini olish uchun mahsulot tayyorlashda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv mavjud ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, boshqaruv maqsadlarini belgilaydi. Tashkiliytexnikaviy boshqaruv mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi uchun sharoit yaratishga imkon beruvchi faoliyat turidan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning maqsadi ishlovchilar samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish, ularni iijtimoiy himoya qilishning ishonchli umumdavlat tizimini shakllantirish, bandlikni ta’minlash va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Boshqaruv munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lib, turli iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, psixologik va boshqa ko‘rinishlarda bo‘ladi. Boshqaruv munosabatlari boshqaruv qo‘l ostidagi xodimlar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirning murakkab majmuyini ifodalaydi, demak, boshqaruv bu, engavvalo, kishilarni boshqarishdir. 101 Har qanday fan o‘z predmeti, nazariyasi va uslublariga egadir. Predmet fanning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilaydi. Nazariya bu sohada ro‘y beradigan jarayon va hodisalarning ro‘y berish qonuniyatlarini aniqlaydi. Izlanish usullari nazariyadan kelib chiqqan holda kishilar ilmiy va amaliy faoliyati qanday amalga oshishini ko‘rsatib berishi, fanning shu sohasida hodisalarni umumlashtirish va o‘rganishning turli vositalari va usullari tizimini ishlab chiqishi lozim. Boshqaruv ilmi Ikkinchi jahon urushi davrida Angliyada olimlar guruhi fuqarolar mudofaasi va o‘t ochish pozitsiyalari inshootlarini optimal joylashtirish, kemaga qarshi bombalarni portlatish chuqurligini va transport karvonlari kabi murakkab harbiy masalalarni yechish topshirig‘ini olganda paydo bo‘lgan. Boshqaruvning fan, ilmiy tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘lishi va shakllanishi, qisman, katta biznes ehtiyojlariga javob, qisman, sanoat revolutsiyasi davrida yaratilgan texnikaning afzalliklaridan foydalanishga urinish, qisman, ishni bajarishning eng samarali usullarini topish ishtiyoqida bo‘lgan bir nechagina qiziquvchan insonlarning yutug‘i edi. Bugungi kunda boshqaruv ilmining model va usullari quyidagi masalalarni hal qilishda ishlatiladi: shaharlarda transport oqimlarini boshqarish va ayroportlarda harakat jadvalini optim izatsiyalashda, universitetlarda sinf va auditoriyalar ish jadvallarini tuzishda, supermarket va univermaglarda g‘amlangan mollarni boshqarishda, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishda, turli xil mahsulotlarning reklamasiga xarajatlarni taqsimlashda, moddiy ta’minlashni rejalashtirishda, zavodda turli xil mahsulotlami ishlab chiqarish uchun asbobuskunalar va mehnat resurslarini taqsimlashda, jadvalini tuzishda o‘z samarasini beradi. To‘g‘ridan to‘g‘ri tajriba o‘tkazish mumkin bo‘lmaganday, mavjud bo‘lmagan va hech qachon bo‘lmaydigan hodisani kuzatish mumkin emas. Ammo, ko‘p rahbarlar faqat real va his qiladigan narsani ko‘rishga va bu, natijada, ulaming qandaydir ko‘rib bo‘ladigan narsaga e’tibor berishida ifodalanishi shart. Modellashtirish, - bugungi vaqtga kelib kelajakning variantlarini ko‘rishning va 102 alternativ qarorlarning potensial oqibatlarini obyektiv solishtirishga imkon beradigan aniqlashning yagona tizimlashtirilgan usuli. Devid B.Xers ta’kidlashicha: «Rahbar mavjud eng yaxshi alternativani o‘z resurslarini taqsimlash, o‘zi va boshqalar uchun harakatlar navbatini belgilashga, yangi odamlar va material resurslami jalb etish uchun tanlab olishi kerak. Buning uchun u qisqa va uzoq muddatli kelajakda qarorlarning oqibatlari paydo bo‘ladigan muhit xususiyatlari va barqarorligi ta’rifiga ishonishi kerak. U bunday bir paytning o‘zida muqarrar va oldindan aytib bo‘lmaydigan muhitning butun noaniqligini tasavvur qilishi kerak». Boshqaruv ilmining modellari yuqori darajada bu maqsadlarga moslashgan va kuchli tahliliy vosita sifatida murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish bilan bog‘liq ko‘p muammolarni hal etishga imkon beradi. Boshqaruv nazariyasi asoschilari Teylor, Ford, Gilbert, Emerson, Fayol va boshqalardir. Boshqaruv nazariyasining tarixan dastlabki yo‘nalishi «klassik» (an’anaviy) maktab nomini olgan. Bu maktabning vujudga kelishida amerikalik

muhandis va tadqiqotchi Frederik Teylorning xizmati katta. Teylor xizmat pog‘onasining barcha darajalarini - AQSH (Bestlegem)dagi yirik metallurgiya korxonasining kichik xizmatchisidan boshqaruvchisigacha bo‘lgan lavozimlarni egallagan. U birinchilar qatorida ishlab chiqarishning ayrim jarayonlarini tashkil etish hamda butun korxonani boshqarishga ilmiy yondashishni qo‘lladi. Uning «Korxonani ilmiy boshqarish asoslari», «Boshqarishni ilmiy tashkil etishning tamoyil va usullari», «Sanoat korxonalarini ma’muriytexnikaviy tashkil etish» kabi mashhur asarlari xorijda chop etilgan ishlab chiqarishni boshqarishni ilmiy tashkil etish bo‘yicha adabiyotlarning katta to‘plamiga asos soldi. Teylor mehnat jarayonlarini maxsus funksional boshqarish zarurligini asoslab berdi, jismoniy mehnat bilan bir qatorda ishlab chiqarishni tashkil etishni tarkibiy unsurlarga ajratib ko‘rsatishga harakat qilingan ishlangan sxemada o‘lda-jo‘lda, pala-partish ishlash mumkin emasligi, har bir narsa oldindan qilingan, ishning barcha shartlari va usullari oldindan aniq belgilangan bo‘lishi aks ettirilgan. 103 Boshqaruv insonlarni ongli mehnatga, tadbirkorlikka qiziqtirish, ishga mas’uliyatliligini nazorat qilish, ularning bilim va ko‘nikmalari faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlash, rag‘batlantirishni tashkil etishdir. Bu fan predmeti ham xo‘jalik yuritishning barcha bo‘g‘inlarida boshqarishni tashkil etish shakllari, uslublarini ifodalovchi nazariy va amaliy tam oyillari majmuyidan iborat.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Boshqaruv usullarini puxta egallagan, qo‘llay biladigan rahbar shu faoliyatni samarali boshqarishda nafaqat ishlab chiqarishga, qolaversa, butun iqtisodiyotning rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunning eng muhim vazifasi, deb ta’kidlaydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda, respublikamiqyosida, viloyat, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq bo‘g‘inlarini idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, hayot bilan ham qadam yurishga qodir, iymoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulov, Muhammad. "The role of creativity in the management of human resources in the development of innovative industries." 2019.

2. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Westview Press.

3. Kholikov, Ibrahim. "Increasing learning based on Uzbek national spirituality in the current period of innovative development in the social-enlightenment system." 2020.

4. Mumford, M. D., Scott, G. M., Gaddis, B., & Strange, J. M. (2002). Leading creative people: Orchestrating expertise and relationships. Leadership Quarterly, 13(6), 705-750.

5. Nurmatova, Gulchehra. "The Importance of Creativity in Human Resource Management: Innovation Development in Uzbekistan." 2018

TILSHUNOSLIKDA SUN’IY INTELLEKT VA TIL MODELLARINING AHAMIYATI VA TADQIQI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA)

Solidjonov Dilyorjon
Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) va katta til modellari (KTM) ning tilshunoslikda tutgan o‘rni va ahamiyati o‘rganilgan. KTM’lar orqali tilni avtomatlashtirilgan tarzda o‘rganish va lingvistik tahlil qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan, shu bilan birga, ushbu modellar yaratgan matnlarning grammatik va semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, KTM’lar ko‘plab tillar, jumladan o‘zbek tilida hali to‘liq moslashtirilmagan bo‘lsa-da, ular tilshunoslik jarayonlarida katta yutuqlarni taqdim etmoqda. Biroq, bu modellar semantik noaniqlik va grammatik murakkablikni keltirib chiqarishi mumkin. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada mukammallashtirilishi bu sohada yangi imkoniyatlarni ochishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, katta til modellari, lingvistika, semantika, avtomatik tarjima, til tahlili, o‘zbek tili, texnologiyalar.

Kirish.

Tilshunoslik va sun'iy intellekt (SI) so‘nggi yillarda bir-biriga tobora yaqinlashib bormoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi, xususan katta til modellarining (KTM) paydo bo‘lishi, tilshunoslikdagi yangi paradigmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. KTMlar orqali tilni tushunish, o‘rganish va qo‘llash jarayonlari yanada samarali bo‘lib, bu esa tilshunoslik tadqiqotlari va amaliyotlariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun'iy intellekt algoritmlari til modellari orqali til birikmalarining semantikasi va sintaksisiga chuqur tahlil kiritmoqda, bu esa yangi til tushunchalarini shakllantirish, avtomatik tarjima, matn tahlili kabi sohalarda muhim yutuqlarni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt va til modellari o‘rtasidagi bu o‘zaro bog‘liqlik, ayniqsa katta ma'lumotlar hajmini qayta ishlash qobiliyati tufayli, tilning nafaqat shakliy tuzilmasini, balki uning mazmuniy jihatlarini ham chuqurroq o‘rganish imkonini yaratmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, KTMlar yordamida tilshunoslikda tilning grammatik va semantik jihatlari bo‘yicha yangi bilimlar hosil qilinmoqda. Ammo, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq ba’zi muammolar ham mavjud. Masalan, statistik asoslangan generativ modellar birikmalarni ishlab chiqishda muayyan mantiqiy ma'noga ega emasligi, bu esa semantik noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Sun’iy intellekt va til modellarining tilshunoslikdagi qo‘llanilishi keng qamrovli tadqiqot maydonini taqdim etadi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari orqali katta ma’lumotlar bazalarini tahlil qilish, til birikmalarini avtomatik o‘rganish va tarjima qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ammo bu jarayonlarda sun'iy intellektning cheklovlari ham kuzatiladi. Xoirjiy olimlar o‘z tadqiqotlarida generativ sun'iy intellekt texnologiyalari tahliliga e'tibor qaratishgan bo‘lib, bu texnologiyalarning grammatik tuzilmalar orqali tilni tushunish cheklanganligini ta'kidlaydi. Linguistik markerlar orqali sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni inson tomonidan yozilgan matnlardan farqlash muhimdir. Bu, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda yolg‘on axborotlarni aniqlashda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv sun'iy intellekt tomonidan yaratilingan ma'lumotlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, real va yolg‘on axborotni farqlashga yordam beradi. Shunday qilib, sun'iy intellekt va til modellarining tilshunoslikdagi roli hali ham tadqiqotlarni talab qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari va katta til modellari tilni tushunish va uni qayta ishlash bo‘yicha hali

rivojlanish bosqichida. Bu texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar inson tilini tushunish jarayonida yangi qirralarni ochib beradi, lekin ularning cheklovlari va noaniqliklari ham mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt va til modellari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Xorijiy tadqiqotchi Ahmad 2024-yilgi o‘z tadqiqotida lingvistika va sun'iy intellektning bir-birini boyitishi haqida gapirib, sun'iy intellekt texnologiyalarining tilshunoslikka kiritayotgan yangi tahlil usullari va natijalari haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu texnologiyalar tilni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi va o‘zaro bog‘liq sohalarda yangi yo‘nalishlarni ochib beradi. Ammo, Cope va Kalantzis 2024-yilgi tadqiqotlari generativ AI texnologiyalarining cheklovlariga e’tibor qaratadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, bu texnologiyalar orqali tilning faqat statistik jihatlari ko‘rib chiqilmoqda va mazmuni chuqur tahlil qilinmaydi.

Markowitz, Hancock va Bailenson 2024-yilgi ishlarida esa AI tomonidan yaratilgan va inson tomonidan yozilgan matnlar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishgan. Ularning tadqiqotlari sun'iy intellektning ma'lumotlarni yaratish jarayonida insoniylikdan mahrum ekanligini va bu matnlar til tuzilmasi jihatidan farq qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. So‘ngra, Lyre 2024-yilgi izlanishlarida katta til modellari tushunchasi orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining lingvistik semantikaga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi. Uning fikricha, katta til modellari hali ham rivojlanish jarayonida va ularning lingvistik bilimlarga bo‘lgan ta'siri cheklangan.

Metodlar

Ushbu maqola uchun ilmiy tadqiqot metodlari sifatida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda sifat va miqdoriy tadqiqotlar birgalikda qo‘llanildi. Birinchidan, katta til modellari (KTM) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining tilshunoslikdagi ahamiyatini tushunish uchun amaliy tadqiqotlar va ilmiy maqolalar tanlab olinib, ularning tahlili amalga oshirildi. Maqolalarda berilgan KTM’larning lingvistik tushuncha va qoidalar bilan qanday bog‘liq ekanligi aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, turli tillarda KTM’lar tomonidan ishlab chiqarilgan matnlar tahlil qilindi va bu matnlar o‘rtasidagi strukturaviy, grammatik va semantik farqlar kuzatildi. Ikkinchidan, miqdoriy usul orqali KTM’lar yaratgan matnlar soni va ularning insonlar tomonidan yozilgan matnlardan farqlanishini aniqlash maqsadida kompyuter dasturlari orqali statistik tahlillar o‘tkazildi. KTM’larning tilshunoslikda qo‘llanish imkoniyatlari va cheklovlari haqida aniq dalillar keltirish uchun misollar tanlandi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, katta til modellari tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarni ochib berdi. KTM’lar orqali tilni o‘rganish jarayoni ancha soddalashdi va avtomatlashtirildi. Sun'iy intellekt yordamida til modellari orqali grammatik va semantik tahlillar amalga oshirilayotganda, matnlar ichidagi strukturaviy farqlar kuzatildi. Masalan, KTM yaratgan matnlar inson tomonidan yozilgan matnlarga qaraganda ko‘proq analitik va deskriptiv bo‘lib, ularning semantik tarkibi aniq bo‘lmasa-da, ma’lum grammatik qonuniyatlarga asoslanganligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt va katta til modellari (KTM) tomonidan yaratilgan o‘zbek va ingliz tilidagi matnlarning grammatik va semantik tahlili amalga oshirildi. KTM’lar orqali ishlab chiqarilgan matnlar inson tomonidan yozilgan matnlarga nisbatan grammatik jihatdan murakkabroq, lekin semantik jihatdan noaniqroq ekanligi kuzatildi. Quyida o‘zbek va ingliz tillarida misollar keltiriladi.

O‘zbek tilida misollar.

Inson tomonidan yozilgan matn: Bugun men bozorga boraman.

Bu matn oddiy, kundalik foydalaniladigan gaplardan iborat bo‘lib, u aniq va tushunarli ma’lumotni ifodalaydi. Grammatik tuzilish ham sodda va tabiiy bo‘lib, o‘quvchiga hech qanday

murakkablik tug‘dirmaydi.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn: Hozirgi kunda mening bozorga borish niyatim ma’lum bo‘ladi.

KTM tomonidan yaratilgan bu matn inson tomonidan yozilgan matnga nisbatan grammatik jihatdan murakkabroq. "Ma’lum bo‘ladi" kabi murakkab jumlalar qo‘llangan bo‘lib, bunda murakkab grammatika va tushunchalar kiritilgan. Shu bilan birga, mazmun oddiy "bozorga boraman" degan fikrga nisbatan ortiqcha ifoda bilan ifodalangan, bu esa matnning semantik aniq bo‘lmasligiga olib keladi.

Inson tomonidan yozilgan matn: O‘quvchilar darsni yaxshi tushunib olishlari uchun, o‘qituvchi misollar bilan tushuntirishni davom ettiradi.

Bu matnda grammatik jihatdan aniq ifodalar ishlatilgan. O‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar aniq ifodalangan va jumla mazmuni bir necha oddiy komponentlar orqali yetkazilgan.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn: O‘quvchilar tomonidan darsning to‘liq tushunib olinganligi uchun, o‘qituvchi misollar kiritib, jarayonni tushuntirishni davom ettiradi.

Bu misolda sun'iy intellektning murakkabroq grammatik tuzilmadan foydalanishi ko‘zga tashlanadi. Bu jumla inson tomonidan yozilgan matnga nisbatan biroz murakkabroq va "o‘quvchilar tomonidan darsning to‘liq tushunib olinganligi uchun" kabi murakkab ifodalar bilan to‘ldirilgan. Ushbu jumla o‘zbek tilining kundalik ifodalariga nisbatan ortiqcha formal bo‘lib ko‘rinadi, bu esa o‘quvchi uchun tushunishni qiyinlashtirishi mumkin.

Ingliz tilida misollar.

Inson tomonidan yozilgan matn: Today I am going to the market.

Bu matn oddiy va aniq ifodalangan bo‘lib, kundalik ingliz tilidagi oddiy gaplardan biri hisoblanadi. Grammatik tuzilish oddiy va o‘quvchi uchun tushunarli.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn: Today, my intention to proceed to the marketplace becomes evident.

Bu jumla inson tomonidan yozilgan matnga nisbatan murakkab grammatik ifodalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, "my intention to proceed" kabi iboralar kiritilgan bo‘lib, ular oddiy kundalik ifodalar bilan taqqoslaganda murakkabroq ko‘rinadi. Semantik jihatdan, bu jumla inson tomonidan aytilgan oddiy fikrni ortiqcha tahlil va murakkablik bilan ifodalagan. KTM’lar statistik asosda murakkab tuzilmalar yaratishga moyil bo‘lib, bu tushunish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Inson tomonidan yozilgan matn: The teacher continues to explain the lesson with examples to ensure that the students fully understand the concept.

Bu matnda grammatik jihatdan soddalik va aniq ifodalar ishlatilgan. O‘quvchilarning tushunchalarni to‘liq anglashlari uchun o‘qituvchining qanday ishlash jarayoni haqida to‘liq va oddiy tushuncha berilgan.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn: In order for the students to thoroughly comprehend the educational material, the instructor incorporates additional illustrative examples as part of the explanation process.

Bu misolda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn grammatik jihatdan murakkabroq va ko‘proq rasmiy tilda ifodalangan. "Thoroughly comprehend the educational material" kabi so‘zlar o‘zining murakkab grammatik strukturalari bilan ajralib turadi, bu esa oddiy kundalik gaplar bilan taqqoslaganda tushunishni biroz qiyinlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu kabi iboralar o‘quvchilar uchun ortiqcha akademik ko‘rinishga ega.

Umumiy tahlil. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt yaratgan matnlar grammatik jihatdan murakkabroq bo‘lib, ko‘pincha inson tomonidan yozilgan oddiy matnlarga

qaraganda murakkabroq strukturalar va ifodalar ishlatadi. Ingliz va o‘zbek tillari bo‘yicha olib borilgan tahlil ham shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, lekin ularning semantik jihatdan noaniq va tushunish qiyinroq bo‘lganligi kuzatildi. Misollar keltirilgan jadvallar esa sun'iy intellekt va inson tomonidan yozilgan matnlar orasidagi grammatik va semantik farqlarni yanada aniq ko‘rsatadi. Matnlarning grammatik murakkabligi, foydalanilgan so‘zlar turi, va semantik aniq bo‘lmaganlik sun'iy intellekt yaratgan matnlarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardir.

1-jadval. Matnlarning grammatik va semantik jihatdan tahlili

Matn turi	Grammatik murakkablik darajasi	Semantik aniq ifoda darajasi	Foydalanilgan so‘zlar turi
Inson yozgan o‘zbek matni	O‘rta	Yuqori	Oddiy, kundalik so‘zlar
Sun'iy intellekt o‘zbek matni	Yuqori	Past	Deskriptiv, murakkab so‘zlar
Inson yozgan ingliz matni	O‘rta	Yuqori	Oddiy, kundalik so‘zlar
Sun'iy intellekt ingliz matni	Yuqori	Past	Murakkab, rasmiy so‘zlar

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar grammatik jihatdan murakkabroq bo‘lsa-da, inson tomonidan yozilgan oddiy matnlar mazmunan aniqroq va tushunarliroq bo‘ladi. Bu esa KTM’larning lingvistik tahlil jarayonidagi asosiy muammolaridan biri hisoblanadi – ya'ni murakkab grammatik strukturalar semantik tushunish jarayonida noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, turli tillarda KTM’larning tilni qayta ishlash jarayoni kuzatildi. Misol uchun, o‘zbek tilida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarda ko‘proq grammatik xatoliklar uchrashi va ularning sintaksisi murakkabligi aniqlandi. Ingliz tiliga qaraganda, o‘zbek tilidagi matnlar ko‘proq grammatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lishi bilan birga, mazmun ham kamroq aniqlikka ega bo‘ldi. Bu KTM’larning o‘zbek tilida hali mukammallashtirilmaganligini ko‘rsatadi. Natijada, KTM va sun'iy intellekt til modellari lingvistika sohasida kuchli tahlil vositasi sifatida qo‘llanilishiga qaramay, hali ham rivojlanishga ehtiyoji borligi aniqlanadi. Xususan, ularning tilni tushunish jarayonidagi semantik aniq bo‘lmaganlik, grammatik murakkablik va ba’zi tillardagi cheklovlari mavjud. Shu bilan birga, avtomatik tarjima, til o‘rganish platformalarida va matnlarni qayta ishlash sohasida ushbu modellar katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Muhokama

Katta til modellari (KTM) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari tilshunoslikda katta

imkoniyatlar yaratib, lingvistik tahlil va til o‘rganish jarayonlariga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Bu modellar til qoidalarini chuqurroq o‘rganish, grammatik tahlil qilish, va avtomatik tarjima qilish kabi jarayonlarni avtomatlashtiradi. Ammo tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, KTM’larning lingvistik jarayonlarda ba'zi cheklovlari ham mavjud. Masalan, KTM’lar grammatik jihatdan murakkab matnlar yaratishiga qaramay, ularning semantik jihatdan noaniqligi va ba'zi tillarda grammatik xatoliklar sodir etishi kuzatildi. Bu, ayniqsa, o‘zbek tilidagi matnlarni tahlil qilishda yaqqol ko‘rinadi.

Shu bilan birga, KTM’larning imkoniyatlari ko‘proq ingliz tiliga moslashgan bo‘lib, boshqa tillar, jumladan o‘zbek tilida hali mukammallashtirish talab etiladi. Bu modellar faqat statistik qoidalarga asoslanganligi uchun ba'zan insoniy til tushunchalarini to‘liq anglay olmaydi, ya'ni tilning kontekstual ma'nosi va ijtimoiy-madaniy kontekstini yetarli darajada ifodalay olmaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari tilshunoslikda katta yordamchi bo‘lsa-da, ularni mukammallashtirish va inson aqliy imkoniyatlarini to‘liq o‘rnini bosishi qiyin bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Katta til modellari va sun'iy intellekt tilshunoslikda samarali vosita sifatida rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ular hali ham bir qator muammolarga ega. Ushbu texnologiyalar tilni qayta ishlash, grammatik tahlil, va tarjima jarayonlarini soddalashtirib, avtomatlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, KTM’larning semantik noaniqliklari va ba'zi tillarda grammatik cheklovlari ularning to‘liq qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tilida bunday texnologiyalar hali to‘liq moslashtirilmagan bo‘lib, natijada grammatik va semantik xatolar ko‘proq uchraydi. Shunday bo‘lsa-da, kelajakda KTM’lar va sun'iy intellekt texnologiyalari yanada rivojlanib, tilni qayta ishlashda va lingvistik tadqiqotlarda katta yordamchi bo‘lish imkoniyatini saqlab qolmoqda. Maqola natijalariga ko‘ra, til modellari kelajakda o‘z imkoniyatlarini kengaytirib, lingvistik tadqiqotlar va amaliyotlarda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad, S. (2024). Interplay Between Linguistics and AI.
2. Cope, B., & Kalantzis, M. (2024). A multimodal grammar of artificial intelligence: Measuring the gains and losses in generative AI. Multimodality & Society, 4(2), 123-152.
3. Markowitz, D. M., Hancock, J. T., & Bailenson, J. N. (2024). Linguistic markers of inherently false AI communication and intentionally false human communication: Evidence from hotel reviews. Journal of Language and Social Psychology, 43(1), 63-82.
4. Lyre, H. (2024). " Understanding AI": Semantic Grounding in Large Language Models. arXiv preprint arXiv:2402.10992.

RAHBAR SHAXSI PSIXOLOGIYASI VA MULOQOTINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Maxmudova Zilola
Qo‘qon universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada lider shaxsini shakllantirish va uning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Etakchilik nafaqat boshqalarni boshqarish va boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi, balki qat'iyat, ishonch, mas'uliyat va hamdardlik kabi ichki fazilatlarni rivojlantirishni ham talab qiladi. Rahbarning muloqot qobiliyatiga, jumladan, o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, ma’lumotni samarali yetkazib berish, tinglash va fikr-mulohazalarni qabul qilish qobiliyatiga e’tibor qaratiladi. Rahbarning shaxsiy xususiyatlari va uning muloqot qobiliyatlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi, bu zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli etakchilik uchun muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, faoliyat, professionalizm, ob’ekt, sub’ekt, samaradorlik, psixologik.

Kirish

Rahbar shaxsi va uning muloqot qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim va psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Etakchilik, boshqalarga ta'sir o'tkazish va ularni umumiy maqsadga erishish uchun yo'naltirish qobiliyati sifatida, harakatlar va tashabbuslarni samarali muvofiqlashtirish muhim rol o'ynaydigan tez o'zgaruvchan dunyoda tobora ko'proq talab qilinadigan sifatga aylanmoqda. Rahbar shunchaki hokimiyat yoki yuksak mavqega ega bo'lgan shaxs emas, balki ilhomlantira oladigan, rag'batlantira oladigan va jamoaviy ish uchun sharoit yarata oladigan shaxsdir.

Muloqot etakchilikning muhim elementidir. G'oyalarni to'g'ri etkazish, boshqalarning ehtiyojlarini tushunish, turli toifadagi odamlar bilan bog'lanish va o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati asosiy qobiliyatdir, ularsiz rahbar o'z rolini samarali bajara olmaydi. Zamonaviy rahbar turli ijtimoiy kontekstlarda muvaffaqiyat qozonish uchun og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qobiliyatlarini, shuningdek, fikr-mulohazalar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

Ushbu ish rahbar shaxsini shakllantirish xususiyatlarini, jumladan, qat'iyatlilik, o'ziga ishonch va mas'uliyat kabi ichki fazilatlarni o'rganishga, shuningdek, samarali etakchilik uchun zarur bo'lgan muloqot qobiliyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Bunday qobiliyat va malakani esa maxsus ta’lim tadbirlari orqaligina rivojlantirish mumkin. Shu munosabat bilan, bugungi kunda boshqaruv sohasi, rahbar kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish o‘ta muhim masala sifatida o‘z natijasini kutmoqda. Ushbu sohadagi konkret natijalarga yo‘nalgan tadbirlar esa aynan pedagogika va psixologiya fani oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Masalan, turli boshqaruv sohalarida lavozimlarga rahbar kadrlarni tayinlashda munosib nomzodlarni tanlash, ularning boshqaruv salohiyati va qobiliyatini adolatli baholash zarurati doimo dolzarb masala bo‘lib kelgan. Aniqlangan qobiliyat va shaxs imkoniyatlarini rivojlantirish esa, yana bir muhim pedagogik va psixologik tadbir sifatida o‘z ahamiyatiga ko‘ra avvalgisidan qolishmaydi. Zamonaviy rahbarlarga xos bo‘lgan professional va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishda shaxsning xislat va fazilatlarini, uningtajribasi, mavjud bilim va malakasi hamda qobiliyatini integratsiyalash zarurati tug‘iladi. Axir pirovard maqsad –yaxlit, bir butun va o‘zaro muvofiqlashgan ichki tizimga ega bo‘lgan rahbar shaxsini shakllantirishdaniboratdir.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Bunday qobiliyat va malakani esa maxsus ta’lim tadbirlari orqaligina rivojlantirish mumkin. Shu munosabat bilan, bugungi kunda

boshqaruv sohasi, rahbar kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish o‘ta muhim masala sifatida o‘z natijasini kutmoqda. Ushbu sohadagi konkret natijalarga yo‘nalgan tadbirlar esa aynan pedagogika va psixologiya fani oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Masalan, turli boshqaruv sohalarida lavozimlarga rahbar kadrlarni tayinlashda munosib nomzodlarni tanlash, ularning boshqaruv salohiyati va qobiliyatini adolatli baholash zarurati doimo dolzarb masala bo‘lib kelgan. Aniqlangan qobiliyat va shaxs imkoniyatlarini rivojlantirish esa, yana bir muhim pedagogik va psixologik tadbir sifatida o‘z ahamiyatiga ko‘ra avvalgisidan qolishmaydi. Zamonaviy rahbarlarga xos bo‘lgan professional va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishda shaxsning xislat va fazilatlarini, uning tajribasi, mavjud bilim va malakasi hamda qobiliyatini integratsiyalash zarurati tug‘iladi. Axir pirovard maqsad –yaxlit, bir butun va o‘zaro muvofiqlashgan ichki tizimga ega bo‘lgan rahbar shaxsini shakllantirishdaniboratdir.

Tadqiqot natijalari. Umuman olganda, boshqaruv tarixini boshqaruv sub’ekti va ob’ekti o‘zaro raqobatining rivojlanishi sifatida tasavvur etish mumkin. Bu raqobatda ob’ekt, ya’ni xodim doimo rahbardan o‘zishga intiladi, uning murakkab faoliyatini o‘zlashtirgisi va o‘z pozitsiyasini kengaytirib borish niyatida bo‘ladi. Rahbar esa, xodimni o‘z itoatida ushlash uchun boshqaruvning yangidan –yangi va murakkab uslublarini “o‘ylab” topadi va avvalambor, ilm hamda qonuniy vakolatlar asosida o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi. Bunday “bellashuvda” rahbar nafaqat g‘olib bo‘lishi, balki yutqazib qo‘ymasligi eng muhim boshqaruv shartidir. Buning uchun esa rahbar boshqaruv sohasida yuksak mahoratga erishishi, professionalizmning yuqori darajasiga chiqishi lozim. Boshqaruvni raqobat sifatida qabul qilish albatta boshqaruv mohiyatidan chetlashish bo‘lardi. Har holda boshqaruvning asosiy maqsadi tashkilot maqsadlariga xodimlar yordamida erishish ekan, raqobatdan ko‘ra hamjihatlik va hamkorlikka suyanish anchagina o‘rinli. Demak, bunda “raqobat” tushunchasidan ham murakkabroq hodisa, ya’ni xodimga ta’sir ko‘rsatish, unda xayrixohlik uyg‘otishva uni hamkorlikka chorlash masalasi yetakchi o‘ringa chiqadi.

Muhokama. Nazarimizda, rahbar faoliyatini tahlil etuvchi ilmiy psixologik izlanishlarning aksariyat qismi aynan shu mavzuga tegishli. Bunda rahbarni eng mukammal shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun yordam beruvchi kouching texnologiyalardan tortib, jamoani ahil komandaga aylantirish treninglarigacha to‘xtalib o‘tish mumkin. Zamonaviy boshqaruvga e’tibor berilsa, bugungi tashkilotda eng ishonchli va itoatkor boshqaruv ob’ekti sifatida faqatgina ofisdagi moslama va uskunalarni sanab o‘tish qoldi. Bevosita boshqaruv ob’ekti sifatida tushuniluvchi xodimlar esa murakkab boshqaruv jarayonining “ehtimoliy” elementiga aylangan. Mana shu “element” bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lish, doimo uni maqsad sari undash va bir og‘iz so‘z bilan aytganda, bugungi boshqaruv samarasi, asosan, rahbarning psixologik uquviga bog‘liq. Boshqaruvni yanada mukammallashtirish borasidagi izlanishlarning ko‘lami shunchalik kengki, ular bir qaraganda faqat bir mavzu atrofida jamlanib, o‘ta birikib ketgan ko‘rinsa-da, lekin ularning rang-barangligi boshqaruv ilmida o‘zaro ziddiyatli g‘oyalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Boshqaruvning spesifik jihatga egaligi haqidagi fikrni davom ettirish psixologiya, xususan, boshqaruv psixologiyasining predmetli sohasini aniqlab olish imkonini beradi. Qator tahlillar asosida shunday xulosaga kelamizki, boshqaruvdagi psixologik hodisalarni uch asosiy guruhga kiritish mumkin:

Boshqaruv subyekti –rahbar.

Boshqaruv obyekti –xodim.

Boshqaruv subyekti va ob’ekti o‘rtasidagi munosabatlar.

Boshqaruvga oid psixologik hodisalarning bunday guruhlanishi shartli bo‘lib, ularning har birini tadqiq etish muqarrar tarzda qolgan ikkitasini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Xususan, rahbar shaxsi boshqaruv sub’ekti sifatida ko‘pchilik tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylanar ekan,

uning har bir harakatida xodim nazarda tutiladi, va albatta, muayyan munosabat doirasida talqin etiladi. Hatto rahbarning o‘z shaxsini mukammalashtirishi yo‘lidagi faolligi ham ichki psixologik munosabat, o‘z –o‘ziga bo‘lgan munosabat sifatida ta’riflanadi. Boshqaruv mavzusini bunday cheklash, bir tomondan, psixologiya fani uchun o‘z predmetini aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, boshqaruv ilmiga tamoman yangi qarashlarning shakllanishi bilan ifodalanadi. Xususan, boshqaruv va rahbar faoliyatiga fenomenologik yondashuv tarafdorlari taklif etgan g‘oya va fikrlar, darhaqiqat, psixologiya fanining nafaqat izlanish sohasi va yo‘nalishi, balki “nuqtasini” ifodalab bera oldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Zamonaviy rahbar hayotiga bunday texnik vositalarning kirib kelishi boshqaruv professionalizmini takomillashtirishni texnologizatsiyalash masalasiga yangicha mazmun bag‘ishlaydi. Nazarimizda, har qanday soha kabi boshqaruvni professonallashtirish va rahbarlar professionalizmini yuksaltirish masalasi bundan keyin ham turli ilmiyyo‘nalishlar integratsiyasi va faolligi asosidagina hal etilishi mumkin bo‘lgan masaladir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda boshqaruv muammosi psixologiya sohasidasida juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ularda turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimi rahbar va lider bir shaxsda ifodalanishi ayni muddao hisoblanadi hamda rasmiy rahbar iloji boricha tashkilot maqsadlarini xodimlar manfaati bilan uyg‘unlashtirgan holda boshqaruv jarayonini tashkil etishi lozim. Aynan shu omil, ayniqsa, kasb sohasidagi yuqori malaka rahbarni liderlik darajasiga ko‘tarilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rahbarning shaxsiyati va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, kompleks yondashuvni talab qiladi. Etakchilik tug'ma fazilat emas, balki ishonch, mas'uliyat, hamdardlik va qat'iyat kabi shaxsiy xususiyatlarni ataylab rivojlantirish natijasidir. Bu fazilatlar samarali etakchilik uchun asos bo'lib, muloqot etakchiga boshqalarga ta'sir qilish va o'z maqsadlariga erishish imkonini beradigan vositaga aylanadi.

Muvaffaqiyatli rahbar nafaqat xarizma va boshqalarni rag'batlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, balki samarali muloqot strategiyalari orqali odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Munosabat, hamdardlik, faol tinglash va aniq ifoda jamoangiz bilan sog'lom va samarali munosabatlarni rivojlantirishning kalitidir.

Shunday qilib, etakchilik fazilatlarini shakllantirish muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Rahbarlarga qo‘yiladigan talablar ko‘p qirrali bo‘lib borayotgan bugungi sharoitda bu ko‘nikmalarning rivojlanishi ularning muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudova, Z. (2024). TA’LIM TIZIMINI TARAQQIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN QO ‘LLAB–QUVVATLASH. Nordic_Press, 3(0003).
2. Zilola, M. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78-83.
3. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
4. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
5. Tokhirjon, U. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2 (2), 1–6.

6. Umarov, T. (2024). PSYCHOLOGICAL HELP IN ADJUSTING PRIMARY CLASS STUDENTS TO SCHOOL. Nordic_Press, 3(0003).
7. Умаров, Т. М. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С РАБОЧИМ СТРЕССОМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ РЕШЕНИЕ. Kokand University Research Base, 507-514.
8. Умаров, Т. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИГРУШЕК НА ДЕТСКУЮ ПСИХОЛОГИЮ. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 18-21.
9. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27.
10. Умаров Тохиржон. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ РЕЛИГИЙ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(2), 18–25. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/655
11. Умаров, Т. (2024). РОЛЬ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ, ФОРМИРОВАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12.
12. Tokhirjon, U. (2024). PROVISION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS IS SOCIAL. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(2), 1-6.
13. Умаров Тохиржон Мамуржонович. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С РАБОЧИМ СТРЕССОМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ РЕШЕНИЕ. Kokand University Research Base, 507–514. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/148
14. Umarov Toxirjon Mamurjonovich. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ANXIETY IN ADOLESCENTS’ RELIGIOUS-PSYCHOLOGICAL FACTORS AND UNDERSTANDING OF PROFESSIONAL IDENTITY. Kokand University Research Base, 501–506. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/147
15. Umarov Tokhirjon Mamurjonovich. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS. Kokand University Research Base, 495–500. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/146
16. Umarov T. M. (2024). BOLALARDA TAJOVUZKOR XATTI-HARAKATLARI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI O‘RGANISH. Kokand University Research Base, 481–488. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/144
17. Umarov T. M. (2024). TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT. Kokand University Research Base, 489–494. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/145
18. Umarov T. M. (2024). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. Kokand University Research Base, 473–480. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/143

BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

Umarov Toxirjon
Qo‘qon universiteti magistranti
kokanduni2019@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola boshqaruv psixologiyasining xususiyatlari, jamoani boshqarish haqida ma’lumot beradi. Bundan tashqari, ilmiy ish davomida amalga oshirilgan metodlar, ularni boshqaruv jarayonida qo‘llash omillari borasida ko‘rsatmalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari amalda qo‘llangan psixologik tamoyillar asosida tatbiq etilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv psixologiyasi, menejment, metod, kognitiv qobiliyat, kuzatish.

Kirish.

Psixologiya – bu aql va xulq-atvor haqidagi fan. Psixologiya ongli va ongsiz hodisalarni, shuningdek his va fikrni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Mazkur soha juda katta hajmdagi ilmiy intizom hisoblanadi. Psixologlar miyaning paydo bo‘ladigan xususiyatlari va ushbu paydo bo‘lgan xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil hodisalarni tushunishga intilishadi, shu bilan tadqiqotchilarning neyro-ilmiy guruhiga qo‘shilishadi. Ijtimoiy fan sifatida u umumiy tamoyillarni o‘rnatish va aniq holatlarni o‘rganish orqali shaxslar va guruhlarni tushunishga qaratilgan [1].

Ushbu sohada faoliyat olib bourvchi professional amaliyotchi yoki tadqiqotchi psixologlar uni ijtimoiy, xulq-atvorli yoki kognitiv imiy nazariya sifatida tasniflashadi. Psixologlar aqliy funksiyalarning individual va ijtimoiy xatti-harakatlardagi rolini tushunishga harakat qilishadi, shu bilan birga kognitiv funksiyalar va xatti-harakatlar asosida fiziologik va biologik jarayonlarni o‘rganadilar.

Psixologlar xulq-atvor va aqliy jarayonlarni, shu jumladan idrok, diqqat, hissiyot, aql, sub’ektiv tajribalar, motivatsiya, miya faoliyati va shaxsni o‘rganadilar. Bu odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga, masalan, psixologik barqarorlik, oilaviy barqarorlik va boshqa sohalarga taalluqlidir (ijtimoiy psixologiya). Turli xil yo‘nalishdagi psixologlar ongsiz ongni ham ko‘rib chiqadilar [3]. Psixologlar psixososial o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi sababiy va korrelyatsion munosabatlarni aniqlash uchun empirik usullardan foydalanadilar. Bundan tashqari, yoki aksincha, empirik va deduktiv usullardan foydalanishga, ba’zilari, ayniqsa klinik va maslahatchi psixologlar – ba’zida ramziy talqin va boshqa induktiv metodlarga tayanadi. Psixologiya “xub fani” deb ta’riflangan, chunki tibbiyot nevrologiya va psixiatriya orqali psixologik tadqiqotlar olib borishga intiladi, ijtimoiy fanlar esa ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri psixologiya ostidagi fanlardan olinadi [4].

Psixologik bilimlar ko‘pincha ruhiy salomatlik muammolarini baholash va davolashda qo‘llanilsa, u inson faoliyatining bir qancha sohalaridagi muammolarni tushunish va hal qilishga qaratilgan. Ko‘pgina fikrlarga ko‘ra, psixologiya oxir-oqibat jamiyat uchun foyda keltiradigan soha sifatida tan olingan [5]. Psixologlarning aksariyati biron bir terapevtik rollarda qatnashadilar, klinik, konsultatsiya yoki maktab sharoitida mashq qilishadi. Ko‘pchilik aqliy jarayonlar va xatti-harakatlar bilan bog‘liq ko‘plab mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib boradi va odatda universitet psixologiya kafedralarida ishlaydi yoki boshqa akademik sharoitlarda (masalan, tibbiyot maktablari, kasalxonalar) dars beradi. Ba’zilar sanoat va tashkiliy sharoitlarda yoki boshqa sohalarda [7], masalan, inson rivojlanishi va qarishi, sport, sog‘liqni saqlash va ommaviy axborot vositalari, shuningdek sud-tergov va qonunning boshqa jihatlarida ishlaydi. Shu bois, psixologiya keng ko‘lamli soha sifatida ko‘plab yo‘nalishlar va bo‘limlarni qamrab oladi. Ulardan biri bu boshqaruv psixologiyasidir.

Boshqaruv psixologiyasining maqsadi, uni amalda qo‘llash birinchi navbatda tashkilotda mavjud bo‘lgan quyidagi muammolarni hal qilishdan iborat:

– menejerlarning kasbiy vakolatlarini oshirish;

– boshqaruv uslublarini takomillashtirish, muloqot qobiliyatlari, qaror qabul qilish, strategik rejalashtirish qobiliyatlari, stressni yengish;

– kompaniyaning boshqaruv kadrlarini o‘qitish uslublarini tahlil qilish va takomillashtirish;

– kadrlar resurslarini qidirish va faollashtirish;

– kompaniyaning ehtiyojlariga muvofiq menejerlarni baholash va tanlash;

– ijtimoiy va psixologik iqlimni baholash va yaxshilash, xodimlarning sadoqati darajasini oshirish, jamoani shakllantirish.

